O‘smirlik davrining yana bir muhim xususiyati shundaki, ularda mazkur davrda emotsional sezgirlik yuqori bo‘ladi. O‘qituvchining birgina kinoyali gapi, o‘quvchi fikrini mensimasligi yoki faollargagina e’tibor qaratishi boshqa o‘quvchilarda “mening fikrim kerak emas”, “baribir men noto‘g‘ri aytaman” degan ichki to‘siq va o‘ziga ishonchsizlikni vujudga keltiradi. Aksincha, o‘qituvchining oddiygina “qiziqarli fikr”, “boshqacha yondashuv”, “yana davom ettir”, “sening mulohazang alohida e’tiborga loyiq” kabi qo‘llab-quvvatlovchi fikrlari o‘quvchida o‘ziga nisbatan ishonchni mustahkamlaydi. Bu esa kreativ tafakkurning rivojlanishida muhim psixologik asosga aylanadi. Demak, o‘qituvchi-o‘quvchi orasidagi sotsiometrik munosabatlar nafaqat kommunikativ jarayon, balki ijodiy fikrlashni harakatga keltiruvchi ichki mexanizm vazifasini ham bajaradi.

Sinfdagi sotsiometrik munosabatlarni tavsiflovchi bir necha muhim parametrlar mavjud. Ular:

Birinchidan, bu munosabatlar sotsiometrik statusni ifodalaydi. Ya’ni sinfda ayrim o‘quvchilar lider, ayrimlari ko‘proq qabul qilingan, ayrimlari esa neytral yoki rad etilgan maqomga ega bo‘ladi. Kreativ jarayonlarda liderlar odatda faollik ko‘rsatadilar, muhokama-munozara jarayonlarini boshqaradilar, yangi g‘oyalarni ilgari suradilar. Biroq ba’zi hollarda shu liderlarning haddan tashqari ustunligi boshqa o‘quvchilarning fikr bildirishiga to‘sqinlik qilishi ham mumkin. Shu sababli o‘qituvchi sinfdagi faollikni faqat lider o‘quvchilar atrofida emas, balki barcha o‘quvchilarga teng taqsimlashi kerak bo‘ladi.

Ikkinchidan - o‘zaro tanlovlar, ya’ni kim kim bilan ishlashni xohlaydi, kim bilan fikr almashganda o‘zini qulay his etadi, kim bilan bir guruhda bo‘lishga intiladi. Bu parametr kreativ topshiriqlarni guruhlarda tashkil etishda nihoyatda muhimdir. Chunki, o‘zaro yaqinlik mavjud bo‘lgan guruhda fikr almashish oson kechadi, biroq doim bir xil tarkibdagi guruhlar ham yangi ijtimoiy aloqalarning shakllanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Uchinchidan, kommunikativ tarmoq zichligi muhim hisoblanadi. Bu sinf ichida muloqot qanchalik keng va teng taqsimlanganligini anglatadi. Agar sinfda faqat bir necha faol o‘quvchi gapirsa, boshqalar esa sukut saqlasa, bunday muhit kreativlikni cheklaydi.

To‘rtinchidan, psixologik xavfsizlik darajasi ham juda muhim parametr sanaladi. O‘quvchi xato qilishdan qo‘rqmasligi, uning fikri kulgiga qolmasligi, tanqid konstruktiv shaklda bo‘lishi, noodatiy takliflar ham eshitilishi kerak. Ana shunday muhit g‘oyalarni generatsiyalash uchun eng qulay sharoitni yaratadi.

G‘oyalarni generatsiyalash jarayonida sotsiometrik munosabatlar qanday ifodalanadi, degan savolga javob beradigan bo‘lsak, bu eng avvalo darsdagi fikr almashish uslubida ko‘rinadi. Masalan, brainstorming, brainwriting, mind mapping, muammoli savollar, loyiha topshiriqlari yoki ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida sinfdagi har bir o‘quvchi o‘z fikrini qanday holatda bayon qilayotganligiga e’tibor qaratish lozim. Ba’zi o‘quvchilar hech ikkilanmasdan yangi takliflarni ilgari suradilar, ayrimlari esa boshqalarning fikrini kutadi, ba’zilari esa mutlaqo fikr bildirmaydilar. Bu holatlar faqat o‘quvchining bilim darajasigagina emas, balki ijtimoiy qabul qilinish darajasiga ham bog‘liq hisoblanadi. O‘quvchi o‘z fikrining qadrlanishiga ishonsa, u muhokamaga faol kirishadi. Boshqalar uni bo‘lib qo‘yishi, tanqid qilishi, kulgi ostiga olishi yoki o‘qituvchi faqat “to‘g‘ri javob”ni qabul qilishi ehtimoli yuqori bo‘lsa, mazkur o‘quvchi o‘zini cheklaydi. Demak, kreativ faoliyatdagi faollik darajasi sotsiometrik muhitga bevosita bog‘liq.

Mazkur munosabatlarning yana bir o‘ziga xos jihati shundaki, ular g‘oyaning sifati va soniga ham ta’sir ko‘rsatadi. Ijobiy munosabatlar hukm surgan sinfda o‘quvchilar ko‘proq variantlar taklif etadi, bir-birining fikrini davom ettiradi, g‘oyalarni boyitadi, bir taklifdan boshqasiga o‘tib, yangi yechimlarni topa oladi. Bunday muhitda divergent fikrlash, ya’ni bir masalaga bir nechta turli nuqtai nazardan yondashish qobiliyati faolroq namoyon bo‘ladi. Salbiy yoki tarang sotsiometrik muhitda esa o‘quvchilar o‘z fikrlarini minimal darajada bayon qiladilar, noodatiy yondashuvlardan qochadilar, “xato qilib qo‘yishdan qo‘rqib stereotip javoblarni tanlaydilar. Natijada, g‘oyalar soni ham, yangiligi ham kamayadi. Bu holat ayniqsa o‘smirlar orasida kuchliroq seziladi, chunki ular tengdoshlar fikriga juda sezgir bo‘ladi.

Kreativ jarayonlarda sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari ham bor. Eng avvalo, o‘qituvchi sinfdagi ijtimoiy psixologik muhitni boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi shaxs sifatida faoliyat olib borishi lozim. U darsni shunday tashkil etishi

kerakki, har bir o‘quvchi o‘zini jamoaning muhim a’zosi sifatida his qilsin. Bunda “xatoga ijobiy munosabat” tamoyili juda katta ahamiyatga ega. Kreativ darslarda noto‘g‘ri javob darhol inkor etilmasligi, balki “bu ham qiziqarli yo‘nalish, endi yana boshqacha fikrlab ko‘raylik” kabi shaklda qabul qilinishi maqsadga muvofiq. Bu yondashuv o‘quvchilarda fikr bildirishga nisbatan qo‘rquvni kamaytiradi. Shuningdek, “har qanday g‘oya avval aytiladi, keyin tahlil qilinadi” degan qoida sinfda mustahkamlanishi zarur. Chunki g‘oyalar generatsiyasi bosqichida baholashning erta boshlanishi ko‘pincha kreativlikni pasaytiradi.

Muhim jihatlardan yana biri - o‘quvchilarning teng ishtirokini ta’minlashdir. Odatda sinfda doim bir xil faol o‘quvchilar gapiradi, boshqalari esa tinglaydi yoki e’tiborsizlik bilan munosabatda bo‘ladi. Bunday holatda sotsiometrik tengsizlik kuchayadi. Shuning uchun ham o‘qituvchi o‘quvchilarning muayyan hodisa ustida fikr yuritish jarayonini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etishi, G‘oyalarni yozma tarzda taqdim etish usulidan foydalanishi, kichik guruhlarda ishlash imkoniyatlarini kengaytirishi lozim. Masalan, brainwriting usuli introvert yoki tortinchoq o‘quvchilar uchun juda qulay hisoblanadi. Mazkur usulni qo‘llash jarayonida o‘quvchi o‘z g‘oyasini og‘zaki emas, yozma tarzda ifodalaydi va u darhol ijtimoiy bosim ostida qolmaydi. Kichik guruhlarda ishlash ham sinf jamoasi huzurida gapirishdan cho‘chiydigan o‘quvchilarga qulaylik yaratadi. 3–5 kishilik mikroguruhlarda o‘zaro ishonch tezroq shakllanadi, har bir o‘quvchining hissasi aniq ko‘rinadi, ijtimoiy-psixologik bosim kamayadi.

Rollar taqsimoti ham sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. O‘quvchilar guruhida birgina “lider”ning barcha ishni boshqarishi o‘rniga, har bir o‘quvchiga muayyan vazifa berilishi ularni faollashtirish imkoniyatini kengaytiradi. Bir o‘quvchi g‘oyalarni yozsa, ikkinchisi uni taqdim etadi, boshqa biri esa ushbu g‘oya yuizasidan savollar tuzadi, qolgan o‘quvchilar esa uni tahlil qiladilar. Bu jarayonda har bir o‘quvchi o‘zini guruhdoshlari uchun zarur va mas’uliyatli ekanligini his qiladi. Ayniqsa, sinfda odatda chetda qolib ketadigan o‘quvchilarga ham muhim rol berilishi ularning ijtimoiy mavqeini oshiradi, o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Shu yo‘l bilan sotsiometrik muhit asta-sekin yanada muvozanatli va sog‘lom holatga keladi.

Umuman olganda, o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda g‘oyalarni generatsiyalash ko‘nikmasini shakllantirish jarayoni faqat metodlar, texnikalar yoki topshiriqlar bilan belgilanmaydi. Bu jarayonning samaradorligi ko‘p jihatdan sinfdagi sotsiometrik munosabatlarning qanday yo‘lga qo‘yilganiga ham bog‘liq. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ishonchli aloqalar, o‘quvchilar orasidagi o‘zaro hurmat, fikrning erkin bayon qilinishi, xato qilishdan cho‘chimaslik, o‘qituvchining tolerantligi, teng ishtirokning ta’minlanganligi, psixologik xavfsizlik va ijobiy kommunikativ muhit kreativ fikrlashning eng muhim ijtimoiy-pedagogik asoslarini belgilaydi. Shuning uchun ham o‘qituvchi bugungi zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonida nafaqat o;quvchilarga bilimlarni taqdim etuvchi, balki sinfdagi ijtimoiy aloqalarni uyg‘unlashtiruvchi, o‘quvchilarning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi va kreativ faollikni qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik fasilitator sifatida namoyon bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Moreno J.L. Who Shall Survive? Foundations of Sociometry, Group Psychotherapy and Sociodrama. – New York: Beacon House, 1953. – 520 p.
2. Torrance E. P. The Nature of Creativity as Manifest in its Testing. – Cambridge: Cambridge University Press, 1966. – 180 p.
3. Guilford J.P. Creativity // American Psychologist. – 1950. – Vol. 5, No. 9. – P. 444–454.

4. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
5. Amabile T.M. Creativity in Context. – Boulder: Westview Press, 1996. – 336 p.
6. Johnson D.W., Johnson R.T. Cooperation and Competition: Theory and Research. – Edina: Interaction Book Company, 1989. – 298 p.
7. Slavin R.E. Educational Psychology: Theory and Practice. – Boston: Pearson, 2018. – 600 p.
8. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012. – 240 b.
9. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: Fan, 2004. – 180 b.
10. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 260 b.

I SHO‘BA
O‘QITUVCHI-O‘QUVCHI, PROFESSOR O‘QITUVCHI VA TALABALAR ORASIDAGI SOTSIOMETRIK MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI: XALQARO HAMDA TARIXIY TAJRIBALAR TAHLILI HAMDA MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVINI TADBIQ ETISH MEXANIZMLARI

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ СОЦИОМЕТРИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Махмудов Абдулхалим Хамидович
Доктор педагогических наук, профессор, заведующий отделом Национального института педагогического воспитания имени Кары Ниязи

Аннотация. В статье раскрываются сущность, содержание и методологические основы формирования и развития социометрических отношений в образовательной среде. Рассматриваются научные подходы и механизмы оптимизatsii межличностных взаимодействий между субъектами образовательного процесса.

***Ключевые слова*:** социометрия, образовательная среда, межличностные отношения, социально-психологический климат, педагогическое взаимодействие, коммуникация.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim muhitida sotsiometrik munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirishning mohiyati, mazmuni hamda metodologik asoslari yoritib berilgan. Shuningdek, ta’lim jarayoni subyektlari o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlarni optimallashtirishning ilmiy yondashuvlari va mexanizmlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sotsiometriya, ta’lim muhiti, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy-psixologik muhit, pedagogik o‘zaro ta’sir, kommunikatsiya.

Abstract. The article reveals the essence, content, and methodological foundations of the formation and development of sociometric relations in the educational environment. Scientific approaches and mechanisms for optimizing interpersonal interactions between subjects in the educational process are examined.

***Keywords**:* sociometry, educational environment, interpersonal relationships, socio-psychological climate, pedagogical interaction, communication.

Вопросы повышения качества обучения невозможно решить без учета факторов личности обучающегося и процессов межличностного взаимодействия. Этот вопрос обостряется с учетом усиления тенденции глобализatsii, цифровизatsii и стирание границ между национальными и общечеловеческими традициями. Поэтому актуальной проблемой в современных условиях является исследование и разработки научно обоснованных методологических подходов к формированию благоприятной социальной среды в образовательных учреждениях. Инструментов в данных научных исследования является социометрия, как метод количественного и качественного анализа межличностных отношений в малых группах, позволяющая выявить содержание и структуру взаимодействия. Уровень взаимодействия включает такие показатели как уровень сплоченности, положение личности в группе, интенсивность коммуникативных связей, степень взаимной поддержки, доверия и сотрудничества между участниками, а также частота включенности обучающихся в совместную деятельность [1].

Важность знаний вышеуказанных уровней позволяет определить общий психолого-эмоциональный фон в группе, то есть насколько группа сплочённая, единая и способное к конструктивному взаимодействию, взаимопомощи и коллективному решению задач. Если социометрические показатели высокие — это говорить о том, что в группе благоприятный психологический климат, устойчивые межличностные контакты, положительные эмоциональные связи между членами коллектива. А если показатели низкие – это

тревожный сигнал, указывающий на разобщенность, слабость коммуникативных контактов, наличие изолированных обучающихся, трудности в сотрудничестве и недостаточный уровень групповой интегratsii.

Из этого можно делать вывод о том, что социометрические отношения отражают эмоционально-оценочные связи между участниками образовательного процесса (учителя, ученики, родители и администрация) и влияют на качество учебного процесса.

Известно, что в любой образовательной системе сосуществуют формальные(регламентированные ролями) и неформальные(основанные на симпатиях и предпочтениях). отношения. формальные отношения; неформальные отношения. Необходимо отметить, что здесь ключевую роль играют неформальные отношения, поэтому неформальные связи, выявляемые с помощью социометрии, определяют психологический климат коллектива [2].

Исследование социометрических отношений не может быть полным и научно обоснованным без учета методологических подходов, раскрывающих сущность, структуру и механизмы их формирования. В связи с этим изучение данной проблемы основывается на таких научных подходах, как системный, социально-психологический, деятельностный, личностно-ориентированный и компетентностный. Важность перечисленных научных подходов заключается в том, чтобы всесторонне объяснить процесс формирования и развития социометрических отношений обучающихся. Они позволяют раскрыть данное явление не только как совокупность межличностных связей, но и как педагогически управляемый процесс, зависящий от организatsii образовательной среды, совместной деятельности, индивидуальных особенностей личности и уровня сформированности коммуникативных компетенций.

Так, системный подход объясняет социометрические отношения как целостную структуру взаимосвязей внутри учебной группы; социально-психологический подход раскрывает влияние симпатий, антипатий, эмоционального принятия и статуса личности в коллективе; деятельностный подход показывает, что отношения формируются и укрепляются в процессе совместной учебной, проектной и внеучебной деятельности; личностно-ориентированный подход акцентирует внимание на индивидуальных потребностях, интересах и возможностях каждого обучающегося; компетентностный подход объясняет развитие отношений через формирование навыков общения, сотрудничества, взаимопонимания и социальной ответственности.

Следовательно, выделенные научные подходы позволяют определить психолого-педагогические условия, механизмы и средства эффективного развития благоприятных межличностных отношений в образовательном коллективе. Для целостного понимания природы социометрических связей, факторов их возникновения и закономерностей функционирования в группе обучающихся необходимо комплексное выделенных научных подходов. На основе данных подходов становится возможным выявление оптимальных форм организatsii совместной деятельности, способов стимулирования общения и сотрудничества, методов предупреждения межличностной изоляции и конфликтности, а также средств формирования атмосферы взаимного доверия, поддержки и психологического комфорта.

Формирование социометрических структур в образовательной среде осуществляется через следующие механизмы(рис.1.)



Рис.1. Механизмы формирования социометрических отношений

Кратко раскроем сущность и содержание основных механизмов формирования социометрических отношений в образовательной среде. Данный процесс осуществляется посредством ряда взаимосвязанных социально-педагогических механизмов, обеспечивающих установление, развитие и закрепление межличностных связей между обучающимися.

На наш взгляд именно «коммуникация» является ключевым механизмом в этой цепи. Так как именно в процессе регулярного общения происходит обмен информatsией, эмоциями, мнениями и ценностными установками, что способствует возникновению устойчивых контактов, взаимного интереса и доверия между участниками образовательного процесса[3].

Следующим важным механизмом является «*совместная деятельность*». Этот механизм является важнейшим условием сближения обучающихся (например: выполнение групповых заданий, участие в проектах, коллективных обсуждениях и практических мероприятиях и т.д.). С помощью данного механизма у участников образовательного процесса формируются опыт сотрудничества, взаимопомощи, ответственности за общий результат, а также усиливается групповая сплоченность.

Социальная перцепция отражает процесс межличностного восприятия, понимания и оценки друг друга. Именно через восприятие личностных качеств, поведения, успешности и коммуникативных особенностей осуществляется выбор предпочитаемых партнеров для общения и взаимодействия, что непосредственно влияет на распределение социометрических статусов в группе.

Рефлексия обеспечивает осмысление обучающимися собственного поведения, характера общения и своего места в системе групповых отношений. Благодаря рефлексивной оценке происходит корректировка способов взаимодействия, повышение самоконтроля, развитие эмпатии и стремление к более конструктивному выстраиванию межличностных контактов.

Таким образом, совокупность данных механизмов обеспечивает не только формирование устойчивой сети межличностных предпочтений, но и создает

педагогические предпосылки для развития благоприятного социально-психологического климата в учебном коллективе.

Проведенное исследование позволяет сделать вывод о том, что формирование и развитие социометрических отношений выступает одним из значимых направлений совершенствования современного образовательного процесса, поскольку характер межличностных связей в учебном коллективе оказывает непосредственное влияние на успешность обучения, психологический комфорт обучающихся, уровень их социальной активности и личностного становления. Благоприятная система внутригрупповых отношений создает условия для повышения учебной мотиватsii, развития стремления к самообразованию, самоподготовке и личностному саморазвитию, а также способствует более активному включению обучающихся в совместную познавательную и социальную деятельность.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Бурмистрова Алла Сергеевна Социометрические исследования в среднем профессиональном образовании // Научные исследования в образовании. 2010. №8. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/sotsiometricheskie-issledovaniya-v-srednem-professionalnom-obrazovanii.

2.Дорошина, И.Г. (2010). Изучение социометрического статуса подростков в учебной группе (авторская модификация социометрии). *Социосфера,* (2), 37–41. URL: https://psyjournals.ru/journals/sociosphera/archive/2010_n2/35334

3.Махмудов А.Х., Фефелов В.С., Камилова А.Б. Инновационные пути педагогического прорыва.-Ташкент, 2019. -№6. - С.3-9.

ОТНОШЕНИЯ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ И СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ЛЕКЦИОННЫХ ЗАНЯТИЙ

Шукурулло Мардонов

Қори Ниёзий номидаги Тарбия педагогикаси миллий институти б/б., п.ф.д., профессор

Виды лекций: вводная, информационная, обзорная, проблемная, лекция-визуализация, бинарная, стимулирующая контроль, лекция-конференция, лекция-консультация.

Вводная - целостное представление об учебном предмете, о предстоящей работе. Ориентир в: целях, задачах курса, его роли и места в системе учебных дисциплин, в системе подготовки специалиста; в содержании курса, в организационных и методических особенностях работы; в учебно-методической литературе; в сроках и формах отчётности.

Лекция информация - научная информация.

Обзорная лекция - межпредметной связи. Главное - научно-понятийная и концептуальная основа всего курса или его разделов.

Проблемная лекция - постановка проблемного вопроса, задачи или ситуатsii с приближением студентов к исследовательской деятельности.

Лекция-визуализация - подача лекционного материала средствами ТСО или аудиовидеотехники.

Бинарная лекция - разновидность чтения лекции в форме диалога двух преподавателей (представителей двух научных школ, ученого и практика, преподавателя и студента).

Лекция, стимулирующая контроль - с запланированными ошибками (с содержательными, методологическими, методическими и др. ошибками).

Лекция-конференция - как научно-практическое занятие с докладами.

Лекция-консультация (вопросы-ответы; вопросы-ответы-дискуссия).

Требования к лекции:

- высокий научный уровень informatsii (его мировоззренческое значение);
- большой объем четко и плотно систематизированной и методически переработанной современной научной informatsii;
- доказательность и аргументированность суждений;
- достаточное количество фактов, примеров, текстов и документов;
- ясность и логичность изложения мыслей;
- активизация мышления слушателей: постановка вопросов - риторических и активизирующих на самостоятельное обсуждение темы, проблемы, вопроса;
- выделение главных мыслей, положений, выводов;
- разъяснение терминов, названий и т.д.
- предоставление студентам возможности слушать, осмысливать и записывать, informatsiю;
- контакт преподавателя со студенческой аудиторией;
- использование дидактических материалов, технических средств;
- применение необходимого наглядно-иллюстративного и другого материала: таблиц, схем, графиков, иллюстratsiй и т. д.

Современная педагогическая технология обучения студентов отличается максимальной активизatsieй познавательной деятельности методом проблемного чтения лекции.

Технология современной лекции.

В начале лекции сообщается цель, формируется задачи, определяется объект изучения, акцентируется приоритетность познавательной деятельности, предлагаются способы, приемы и средства предстоящей деятельности, характеризуется ее окончательный результат.

Таким образом предварительно активизируется эмоционально-положительный настрой студентов на предстоящую работу. А в процессе прослушивания лекции, которая формирует и развивает качества, свойства и способности, необходимые будущему учителю, - возбуждается активное желание - стремление - интерес - стимул к предстоящей познавательной деятельности.

Основные требования к новой технологии проблемной лекции:

- соответствующий методологический уровень;
- современное мировоззренческое значение;
- высокий научный уровень излагаемого материала, его строгая систематизация и проблемное построение;

-ясность, четкость и образность изложения, аргументирован-ность, доказательность и убедительность фактов, примеров, дополнительно приводимых материалов;

- максимальная активизация студентов на: познавательную деятельность, выделение главного, мышление, собственное суждение, защиту своей точки зрения;

- последовательная постановка проблемных situatsiй, их решение (в большинстве случаев совместно со слушателями);

- вовлечение студентов в реконструктивные действия (с предварительной постановленной ряда задач);

- отражение слушателями содержании лекции в виде плана (простого или сложного);

- введение в лекцию необходимой терминологии, соответствующих понятий и представлений, активизация словарно-понятийной работы;

- использование дидактических, технических средств, различного визуального материала.

Лекция оптимизируется новыми технологиями таких лекционных компонентов, как дискуссия, беседа, игра (например, педагогическая).

Требования к новой технологии дискуссий: активизация интереса к дискуссии; проблемная и дискуссионная тема; постановка ряда спорных вопросов (заранее для определения студентами своей точки зрения, своего мнения, аргументatsii и т.д.); выбор главного докладчика и оппонентов; разработка содержания их выступлений; выдвижение требований к ним; самостоятельность студентов в проведении дискуссии - нейтральность преподавателя.

К новым технологиям беседы со студентами:

- беседа как метод обучения - с элементами рассказа и объяснения;

- диалог с четкими вопросами в определенной системе, подводящими к усвоению новой учебной информatsii;

- эвристическая беседа, активизирующая студентов на понимание нового материала;

- логико-повествовательное, эмоционально-оживленное изложение материала (научного, достоверного);

- приведение ярких, убедительных и фактических примеров, их аргументированность, доказательность и реальность;

- четкость, яркость, простота и доступность языка (изложения материала);

- истолкование закономерностей, существенных свойств, изучаемого объекта, его связей, отдельных понятий и явлений при чёткой задаче, осознание проблемы, вопроса;

- использование сравнений, сопоставлений, параллелей;

- исключительная логика изложения и суждений.

Новым явлениям в профессиональной педагогике считаем педагогические, деловые игры, их цели: информационно-познавательная; организационно-управленческая; теоретико-практическая (перевод теоретических знаний в практические действия); поведенческая (в условиях конкретной situatsii); на запоминание и усвоение нового материала; коммуникативная; воспитательная (например, нравственно-этическая); самореализatsii; профессионально-адаптационная; диагностическая; коррекционная; социализatsii; оценочная.

Здесь главным является эмоционально-интеллектуальный фон игры, обеспечиваемый преподавателем-руководителем игры, и преобладание методов развивающего, поискового, творческого характера, а также методов активизatsii

самостоятельности. Происходит процесс развития личности, ее социализация в данной игре.

Требования к учебной (I) и педагогической (II) игре:

I.: эмоциональный фон игры; активизация эмоционально-интеллектуальной сферы; информационно-познавательная нагрузка; приобретение новых знаний; возможность: претворения теоретических знаний на практике; поисковой и творческой активности; проявления находчивости и самостоятельности; участия в коммуникативно-поведенческой или организационно-управленческой роли; самопроявления и самореализatsii а также социализatsii в игре; воспитательный потенциал игры;

II.: педагогически-ориентационная; профессионально-адаптационная; профессионально-коррекционная; процессуально-педагогическая; профессионально-оценочная.

Рассмотренные формы, виды и методы подготовки педагогических кадров в системе высшей педагогической системе направлены на тесную связь педагогической теории и практики при активной самостоятельной познавательной деятельности студентов - будущих учителей.

Познавательная самостоятельность студентов особенно активизируется при подготовке к теоретическим семинарам и на практических занятиях, а также в процессе выполнения самостоятельных работ.

Цель теоретико-практических семинаров - соединение теоретического материала с практическим. Углубляются, систематизируются учебные знания, развиваются навыки самостоятельной познавательной работы. Студенты самостоятельно обобщают приобретенные знания, соотносят их с лекционным материалом, формирует свою точку зрения.

Цель практических занятий - выполнение различных видов самостоятельной работы по лекционным темам, способствующее выработке профессиональных навыков и умений. Развивается педагогическое и научное мышление студентов. Здесь необходимы - целеполагание, определение условий выполнения заданий, повторение теоретического материала, выбор способов или методов, планирование работы, контроль за ее выполнением.

Цель самостоятельной работы студентов - задания (обязательные, произвольные, по интересу и способности), исследовательские мини-работы (при методических указаниях по выполнению с активизatsieй познавательно-творческой самостоятельности), с ориентиром на профессиональное самосовершенствование.

Активная познавательная деятельность студентов, как новая ценность образования, приобретает особенный приоритет. В современном образовании - это центральной вопрос.

В связи с этим изыскиваются передовые методы, совершенствующихся традиционные, разрабатываются инновационные, прежде всего оптимизирующие самостоятельную познавательную работу студентов с теоретическим материалом, по его применению, в том числе в научно-исследовательских заданиях.

Студентам в основном предлагаются работы не традиционные - репродуктивные (по образцу), а продуктивные - творческие, поисково-проблемные. Это работы эвристические, конструктивные, на обобщенные действия, требующие проникновения в сущность изучаемого объекта, материала, теоретико-практического подхода, изучения и обобщения.

Такие работы мобилизуют - творчески-познавательную активность студентов, потребность в самостоятельном решении проблемы, концентратsiю всех знаний; побуждают к самостоятельному поиску и выбору способа решения проблемы.

К новым ценностям образования в процессе подготовки педагогических кадров относим активную научно-исследовательскую деятельность студентов.

При основательной соответствующей подготовке к педагогическим исследованиям, в частности в студенческих научных кружках, объединениях, обществах и т.п., где вырабатываются практические навыки научной работы, творческий подход к исследовательской деятельности.

Научно-исследовательская работа не должна иметь только профессионально-личностную цель, ее результаты необходимо соотносить с научными проблемами кафедры, с лекторской работой в вузе (по распространению знаний), с научно-исследовательской работой в учебных занятиях, в которых предполагается педагогическая практика, педагогическая деятельность будущего учителя. Это работа студентов - будущих специалистов в сфере образования - имеет большое значение в подготовке высококвалифицированных кадров.

Научно-исследовательская работа (НИР) студентов развивает творческий потенциал будущего учителя, формирует качества, необходимые для самообразования; определяется индивидуально-исследовательское направление, наконец, происходит воспитание личности.

Условиями успешной научно-исследовательской работы со студентами - будущими учителями определены следующие: мотивационный фактор и эмоционально-психологический настрой; желание, интерес, потребностное отношение; атмосфера сотрудничества (преподавателя-студента), консультативная помощь и контроль; стимулирование и поощрение; признание в студенте-исследователя творческой личности; прогнозирование его творческих успехов в предстоящей профессионально-педагогической деятельности.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Бим-Бад Б.М. Педагогические течения в начале двадцатого века: Лекции по педагогической антропологии и философии образования. -М.: ИОУ, 1994. -111 с.
2. Богусдавский М.Я. История педагогики и современность.-М.:Б.И., 1987. -30 с.
3. Гинецинскиц В.И. Основы теоретической педагогики. -СПб.: СПбу, 1992. -154 с.
4. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. -М.:МНТОР, 1996.
5. Журавлев В.И. Педагогикв в ситеме наук о челолвеке. -М.: Педагогика, 1990. -166 с.
6. Кларин М.В. Инноватsiи в обучении: метафоры и модели. -М.: Наука, 1997. -223 с.
7. Mardonov Sh.Q. Yangi ta’limiy qadriyatlar asosida pedagogik kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish

RIVOJLANGAN DAVLATLAR TA’LIM TIZIMIDA SOTSIOMETRIK MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI (AQSH, FINLANDIYA, YAPONIYA MISOLIDA)

Sharifzoda Sardorbek O‘razboy tabib o‘g‘li
Ma’mun universiteti rektori pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Annotatsiya. Mazkur maqolada rivojlangan davlatlar – AQSh, Finlandiya va Yaponiya ta’lim tizimlarida o‘qituvchi–o‘quvchi hamda professor-o‘qituvchi–talaba o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish tajribalari kompleks tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu izlanmada sotsiometriya metodining asoschisi Jacob L. Moreno nazariyasi asosida ta’lim subyektlari o‘rtasidagi interpersonal aloqalar, ijtimoiy-psixologik muhit va guruh dinamikasining pedagogik jarayonga ta’siri ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: sotsiometriya, interaksiya jarayoni, ijtimoiy-emotsional o‘qitish (SEL), pedagogik hamkorlik, xalqaro tajriba, simpatiya, antipatiya.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the experiences of developing sociometric relationships between teacher-student and professor-teacher-student in the education systems of developed countries - the USA, Finland, and Japan. Furthermore, based on the theory of Jacob L. Moreno, the founder of the sociometric method, this study reveals the influence of interpersonal relationships between educational subjects, the socio-psychological environment, and group dynamics on the pedagogical process.

Keywords*:* sociometry, interaction process, socio-emotional learning (SEL), pedagogical cooperation, international experience, sympathy, antipathy.

Аннотация. В данной статье проводится комплексный анализ опыта развития социометрических отношений между учителем-учеником и профессором-учителем-студентом в системах образования развитых стран - США, Финляндии и Японии. Также в данном исследовании на основе теории основоположника социометрического метода Джейкоба Л. Морено раскрывается влияние межличностных отношений между субъектами образования, социально-психологической среды и групповой динамики на педагогический процесс.

Ключевые слова*:* социометрия, процесс взаимодействия, социально-эмоциональное обучение (СЭО), педагогическое сотрудничество, международный опыт, симпатия, антипатия.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi shiddat bilan globallashib borayotgan bir davrda o‘qituvchi–o‘quvchi hamda professor-o‘qituvchi–talaba o‘rtasidagi munosabatlar nafaqat bilim berish jarayonining samaradorligini, balki shaxsning ijtimoiylashuvi, kommunikativ kompetensiyalarining shakllanishi va psixologik farovonligini ham belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu jihatdan ta’lim subyektlari o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarni chuqur ilmiy asosda o‘rganish va ularni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Sotsiometriya nazariyasining asoschisi Jacob L. Moreno tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarga ko‘ra, har qanday ijtimoiy guruh ichidagi yashirin munosabatlar tizimi shaxslararo tanlovlar, simpatiya va antipatiyalar orqali shakllanadi va bu jarayon ta’lim muhitida ham o‘z aksini topadi [1]. Demak, ta’lim jarayonida sotsiometrik aloqalarni to‘g‘ri tashkil etish

o‘quvchilar va talabalarning ijtimoiy moslashuvi, guruhda o‘z o‘rnini topishi hamda o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlar – xususan, AQSh, Finlandiya va Yaponiya ta’lim tizimlari ushbu yo‘nalishda ilg‘or tajribalarni shakllantirgan bo‘lib, ular o‘zining innovatsion pedagogik yondashuvlari, insonparvarlikka asoslangan ta’lim modeli va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan tizimli ishlari bilan ajralib turadi. AQShda “student-centered learning” va ijtimoiy-emotsional o‘qitish (SEL) orqali shaxslararo munosabatlar rivojlantirilsa, Finlandiyada ishonch va tenglik tamoyillariga asoslangan pedagogik muhit shakllantirilgan. Yaponiya ta’lim tizimida esa jamoaviylik, intizom va ijtimoiy mas’uliyatga asoslangan guruhiy faoliyat orqali sotsiometrik aloqalar mustahkamlanadi. Ta’lim jarayonida samarali sotsiometrik muhitni yaratish faqat metodik yondashuvlar bilan emas, balki ta’lim falsafasi, milliy qadriyatlar va ijtimoiy-madaniy omillar bilan uzviy bog‘liqdir. Shu boisdan ham ushbu maqolada rivojlangan davlatlar tajribasi asosida sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishning metodologik asoslari, ularning umumiy va o‘ziga xos jihatlari hamda milliy ta’lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Ta’lim tizimida sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish tajribasi tahlili: Ta’lim tizimida sotsiometrik munosabatlar o‘qituvchi-o‘quvchi, professor-o‘qituvchi-talaba hamda o‘quvchi-o‘quvchi o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik aloqalar, o‘zaro tanlovlar, hamkorlik, guruhdagi mavqe, muloqot sifati va emotsional yaqinlik darajasini ifodalaydi. Bunday munosabatlar ta’lim jarayonining yashirin, ammo nihoyatda muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki o‘quvchi yoki talabaning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi, guruhga moslashuvi, o‘z fikrini erkin bildira olishi va ijtimoiy faolligi ko‘p jihatdan u joylashgan ta’limiy muhitdagi munosabatlar tizimiga bog‘liq.

AQSh tajribasi ta’lim tizimida sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish, avvalo, student-centered learning, ya’ni o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim modeli bilan bog‘liq. Bu yondashuvda o‘quvchi passiv tinglovchi emas, balki ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida qaraladi. Sinfda munozara, loyiha ishi, guruhiy topshiriqlar, tengdoshlar bilan hamkorlik, refleksiya va o‘z-o‘zini baholash kabi metodlar keng qo‘llanadi.

AQShda sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishda ijtimoiy-emotsional ta’lim — SEL alohida o‘rin tutadi. CASEL tashkiloti SELni maktabgacha ta’limdan o‘rta maktabgacha bo‘lgan bosqichlarda o‘quvchilarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi dalillarga asoslangan yondashuv sifatida ilgari suradi. CASEL modeli o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy ong, munosabatlarni boshqarish va mas’uliyatli qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan [2]. Bu tajribada o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki fasilitator, maslahatchi va ijtimoiy muhitni boshqaruvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. U sinf ichidagi ijtimoiy aloqalarni kuzatadi, yolg‘izlanib qolgan o‘quvchilarni guruh faoliyatiga jalb qiladi, liderlik salohiyatiga ega bolalarni ijobiy yo‘nalishga yo‘naltiradi. Natijada sinfda o‘zaro hurmat, ochiq muloqot va ijobiy psixologik iqlim shakllanadi.

AQSh tajribasining muhim tomoni shundaki, u sotsiometrik munosabatlarni maxsus dasturlar orqali tizimli rivojlantirishga harakat qiladi. Masalan, “peer mentoring”, “cooperative learning”, “restorative practices”, “advisory groups” kabi metodlar orqali o‘quvchilar bir-birini tinglash, kelishmovchiliklarni tinch yo‘l bilan hal etish, jamoada ishlash va o‘zaro ishonch hosil qilishga o‘rgatiladi.

Finlandiya ta’lim tizimida sotsiometrik munosabatlar, eng avvalo, ishonch, tenglik va farovonlik tamoyillari asosida rivojlantiriladi. Finlandiya maktablarida o‘qituvchi va o‘quvchi

o‘rtasidagi munosabatlar keskin iyerarxik modelga emas, balki hamkorlik, hurmat va qo‘llab-quvvatlashga asoslanadi[4]. Bu mamlakatda o‘quvchi shaxsi, uning individual ehtiyojlari, psixologik holati va ijtimoiy moslashuvi ta’lim sifatining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Finlandiya tajribasida o‘qituvchi avtonomiyasi muhim o‘rin egallaydi. O‘qituvchilar mahalliy o‘quv dasturlari, dars muhitlari va baholash jarayonlarini loyihalashda faol ishtirok etadi; bu esa ularga sinfdagi ijtimoiy-psixologik vaziyatga mos pedagogik qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Finlandiyada sotsiometrik muhitni rivojlantirishda raqobatdan ko‘ra hamkorlikka ustuvorlik beriladi. O‘quvchilarni bir-biri bilan haddan tashqari solishtirish, reyting asosida ajratish yoki keskin baholashdan ko‘ra, ularning shaxsiy o‘sishi, jamoaga qo‘shilishi va individual imkoniyatlari qo‘llab-quvvatlanadi [3]. Bu yondashuv o‘quvchilarda o‘zini xavfsiz his qilish, fikr bildirishdan cho‘chimaslik va sinfdoshlariga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lish imkonini beradi.

Finlandiya ta’limida o‘quvchi farovonligi alohida qadriyat sifatida qaraladi. Maktabda dam olish, jismoniy faollik, individual yordam, maxsus pedagogik qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy xizmatlar o‘quvchining ta’limdagi muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qiluvchi omillar sifatida baholanadi. Shu sababli Finlandiya modeli sotsiometrik munosabatlarni faqat sinf ichidagi muloqot emas, balki butun maktab madaniyati darajasida rivojlantiradi.

Yaponiya ta’lim tizimida sotsiometrik munosabatlar jamoaviylik, intizom, o‘zaro mas’uliyat va ijtimoiy hamkorlik asosida shakllantiriladi. Yapon maktablarida o‘quvchi o‘zini alohida shaxs sifatida emas, balki sinf, guruh va maktab jamoasining faol a’zosi sifatida anglaydi. Shu bois o‘quvchilarda jamoaga hurmat, birgalikda ishlash, boshqalarning fikrini inobatga olish va umumiy natija uchun mas’uliyat hissi erta bosqichlardan boshlab tarbiyalanadi [6].

Yaponiya tajribasida tokkatsu — maxsus faoliyatlar tizimi alohida ahamiyatga ega. Tokkatsu yapon ta’limida “butun bola”ni tarbiyalashga qaratilgan faoliyat bo‘lib, o‘quvchilarda ijtimoiy ko‘nikmalar, empatiya, muhokama madaniyati va kundalik hayot ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [7]. Tokkatsu doirasida sinf majlislari, guruhiy topshiriqlar, maktab tadbirlari, navbatchilik, tozalash ishlari, sinf yetakchiligi va muammolarni jamoaviy hal qilish kabi faoliyatlar tashkil etiladi. Bu jarayonlarda o‘quvchilar bir-biri bilan doimiy aloqada bo‘ladi, vazifalarni taqsimlaydi, hamkorlik qiladi va umumiy tartib uchun mas’uliyatni his qiladi. Yaponiya modelining o‘ziga xos jihati shundaki, unda sotsiometrik munosabatlar alohida dars yoki trening orqali emas, balki kundalik maktab hayotining tabiiy qismi sifatida shakllantiriladi. O‘quvchi sinfda, tanaffusda, tadbirda, guruhiy ishda va hatto maktab muhitini tartibga keltirish jarayonida ham ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Shu orqali unda jamoaga moslashish, boshqalar bilan kelishish, mas’uliyatli bo‘lish va ijtimoiy intizom ko‘nikmalari rivojlanadi.

AQSh, Finlandiya va Yaponiya tajribalarini qiyosiy tahlil qilganda, ularning barchasida sotsiometrik munosabatlar ta’lim sifati va shaxs rivojlanishining muhim sharti sifatida qaralishini ko‘rish mumkin. Biroq har bir mamlakat bu masalaga o‘zining ijtimoiy-madaniy modeli asosida yondashadi. AQSh tajribasida asosiy urg‘u shaxsiy faollik, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar va demokratik muloqotga qaratiladi. Finlandiyada esa ishonch, tenglik, individual qo‘llab-quvvatlash va o‘quvchi farovonligi ustuvor hisoblanadi. Yaponiya ta’lim tizimida esa jamoaviylik, ijtimoiy mas’uliyat va guruhiy uyg‘unlik sotsiometrik munosabatlarning asosiy tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi.

1-jadval

AQSh, Finlandiya va Yaponiya ta’lim tizimlarida sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish tajribasining qiyosiy tahlili

Tahlil mezonlari	AQSh	Finlandiya	Yaponiya
Ta’lim falsafasi	Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim	Tenglik, ishonch va farovonlikka asoslangan ta’lim	Jamoaviylik va ijtimoiy uyg‘unlikka asoslangan ta’lim
Sotsiometrik munosabatlarga yondashuv	Ijtimoiy-emotsional ta’lim orqali rivojlantiriladi	Ijtimoiy-psixologik muhitni tabiiy ravishda shakllantirish	Kundalik faoliyat orqali jamoaviy munosabatlarni shakllantirish
Asosiy metod va texnologiyalar	Hamkorlikda o‘rganish, tengdoshlarga ustozlik qilish, SEL dasturlari	Individual yondashuv, qo‘llab-quvvatlovchi pedagogika	Tokkatsu, guruhiy ishlar, sinf majlislari
O‘qituvchining roli	Fasilitator, mentor, kommunikator	Hamkor, qo‘llab-quvvatlovchi, yo‘naltiruvchi	Yetakchi, tarbiyachi, ijtimoiy muhitni boshqaruvchi
O‘quvchi/talabaning roli	Faol ishtirokchi, mustaqil fikrlovchi	Individual rivojlanayotgan shaxs	Jamoa a’zosi, kollektiv mas’uliyat egasi
Guruh dinamikasi	Demokratik va ochiq muloqotga asoslangan	Konfliktsiz, barqaror va qo‘llab-quvvatlovchi	Intizomli, uyg‘un va hamjihat
Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar	Maxsus dasturlar asosida rivojlantiriladi	Tabiiy ta’lim muhiti orqali shakllantiriladi	Amaliy faoliyat orqali mustahkamlanadi
Ta’lim muhitining xususiyati	Erkin, ochiq, interaktiv	Xavfsiz, ishonchli va stresssiz	Tartibli, jamoaviy va mas’uliyatli

Bu tajribalar O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Xususan, AQSh tajribasidan ijtimoiy-emotsional ta’lim dasturlarini, Finlandiya tajribasidan ishonch va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini, Yaponiya tajribasidan esa jamoaviy mas’uliyat va sinf ichidagi ijtimoiy faoliyatlarni rivojlantirish mexanizmlarini olish mumkin. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish ta’lim jarayonida tasodifiy shakllanadigan hodisa emas, balki maqsadli, tizimli va metodologik asoslangan pedagogik faoliyat natijasidir. Sog‘lom sotsiometrik muhit mavjud bo‘lgan ta’lim muassasasida o‘quvchi va talaba o‘zini qadrlangan, eshitilgan va qo‘llab-quvvatlangan shaxs sifatida his qiladi. Bu esa uning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasi, ijtimoiy faolligi va shaxsiy kamolotiga bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa.

Ta’lim subyektlari o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik aloqalar ta’lim sifati, o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyati hamda ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tahlil jarayonida aniqlanishicha, AQSh ta’lim tizimida sotsiometrik munosabatlar asosan ijtimoiy-emotsional o‘qitish (SEL), hamkorlikka asoslangan o‘qitish va o‘quvchi markazli yondashuvlar orqali rivojlantiriladi. Finlandiya tajribasida esa ishonch, tenglik,

individual yondashuv va o‘quvchi farovonligini ta’minlash asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Yaponiya ta’lim tizimida esa jamoaviylik, ijtimoiy mas’uliyat va kundalik faoliyat orqali shakllanadigan guruhiy munosabatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Mazkur uch modelni umumlashtirib aytganda, sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish samaradorligi quyidagi omillar bilan belgilanadi: ta’lim muhitining psixologik qulayligi, o‘qituvchining fasilitatorlik roli, o‘quvchilarning faol ishtiroki, ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuv hamda hamkorlikka asoslangan pedagogik texnologiyalar.

Tadqiqot natijalari milliy ta’lim tizimini takomillashtirish nuqtai nazaridan muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Xususan, AQSh tajribasidan ijtimoiy-emotsional ta’lim dasturlarini joriy etish, Finlandiya modelidan ishonch va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini shakllantirish, Yaponiya tajribasidan esa jamoaviy faoliyat va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantiruvchi metodlarni integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, xorijiy tajribalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki ularni milliy pedagogik an’analar, madaniy qadriyatlar va ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirish zarur. Faqat shundagina ta’lim muassasalarida sog‘lom sotsiometrik muhitni yaratish, o‘quvchi va talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish hamda ularning har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishini ta’minlash mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Moreno J. L. Who Shall Survive? Foundations of Sociometry, Group Psychotherapy and Sociodrama. — New York: Beacon House, 1953. — 520 p.
2. CASEL. What is the CASEL Framework? — URL: https://casel.org/fundamentals-of-sel/ (murojaat sanasi: 01.05.2026).
3. Darling-Hammond L., Flook L., Cook-Harvey C., Barron B., Osher D. Implications for educational practice of the science of learning and development // Applied Developmental Science. — 2020. — Vol. 24(2). — P. 97–140.
4. Jones S.M., Bouffard S. M. Social and emotional learning in schools: From programs to strategies // Social Policy Report. — 2019. — Vol. 33(1). — P. 1–33.
5. Sahlberg P. Finnish Lessons 3.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? — New York: Teachers College Press, 2021. — 240 p.
6. Lewis C.C. Lesson Study: A Handbook of Teacher-Led Instructional Change. — Philadelphia: Research for Better Schools, 2002. — 120 p.
7. Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology (MEXT). Tokkatsu: The Japanese Educational Model of Holistic Education. — Tokyo, 2020. — URL: https://www.mext.go.jp (murojaat sanasi: 01.05.2026).
8. Johnson D. W., Johnson R. T. Cooperation and Competition: Theory and Research. — Edina: Interaction Book Company, 2017. — 320 p.

АНАЛИЗ ИСТОРИЧЕСКОГО И МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВЫСШИХ ВОЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ НА ОСНОВЕ КУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Медетова Раушан Мамадияровна
Заведующая отделом
Национального института педагогики воспитания,
доктор педагогических наук, старший научный сотрудник
Курбанов Гани Абилович
Старший преподаватель Учебного центра военной подготовки Национального университета Узбекистана, доцент, подполковник

Аннотация. *В данной статье сделан анализ исторического и международного опыта по развитию профессиональной компетентности преподавателей высших военных образовательных учреждений на основе культурологического подхода.*

Ключевые слова: *история, анализ, преподаватель, высшее военное образовательное учреждение, культурологический подход.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy harbiy ta’lim muassasalarida o‘qituvchilarning kasbiy malakasini madaniyatshunoslik yondashuvidan foydalangan holda rivojlantirishning tarixiy va xalqaro tajribasi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *tarix, tahlil, o‘qituvchi, oliy harbiy ta’lim muassasasi, madaniyatshunoslik yondashuvi.*

Abstract. *This article analyzes historical and international experience in developing the professional competence of instructors at higher military educational institutions using a cultural studies approach.*

Key words: *history, analysis, instructor, higher military educational institution, cultural studies approach.*

Анализ исторического и международного опыта развития профессиональной компетенции преподавателей высших военных образовательных учреждений на основе культурологического подхода показывает переход от технической подготовки офицеров к формированию личности «человека культуры» и «человека воинской культуры». Этот подход рассматривает военную деятельность не только как набор технических навыков, но и как часть социокультурного контекста.

Анализ исторического и международного опыта структурирован по следующим ключевым аспектам:

Культурологический подход: сущность и принципы. В военном образовании данный подход представляет собой совокупность методов, обеспечивающих анализ учебно-воспитательного процесса через призму культурных ценностей, норм и традиций с целью формирования личности воинской культуры, обладающей высокой профессиональной компетентностью, патриотизмом и педагогической этикой.

К компонентам культурологического подхода относятся: умение помочь преодолеть противоречие между потребностью государства в повышении культурной

Annotatsiya. *Mazkur maqolada madaniyatshunoslik yondashuvi asosida o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishning nazariy va amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Ota-ona-farzand hamda tengdoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarning oilaviy qadriyatlar shakllanishidagi o‘rni ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, milliy qadriyatlar, raqamli muhit va zamonaviy tarbiya strategiyalari uyg‘unligida samarali pedagogik yondashuvlar taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *madaniyatshunoslik yondashuvi, o‘smirlar, oilaviy hayot, sotsiometrik munosabatlar, pedagogik mexanizm, oilaviy qadriyatlar, individualizm, raqamli makon.*

Аннотация. *В данной статье анализируются теоретические и практические механизмы развития социометрических отношений в процессе подготовки подростков к*

семейной жизни на основе культурологического подхода. Научно освещается роль социально-психологических взаимоотношений между родителями и детьми, а также между сверстниками в формировании семейных ценностей. Кроме того, предлагаются эффективные педагогические подходы в гармонии с национальными ценностями, цифровой средой и современными стратегиями воспитания.

Ключевые слова: *Культурологический подход, подростки, семейная жизнь, социометрические отношения, педагогический механизм, семейные ценности, индивидуализм, цифровое пространство.*

Abstract. *This article analyzes the theoretical and practical mechanisms for developing sociometric relationships in the process of preparing adolescents for family life based on a cultural studies approach. The role of socio-psychological relationships between parents and children, as well as among peers, in the formation of family values is scientifically substantiated. In addition, effective pedagogical approaches are proposed in harmony with national values, the digital environment, and modern educational strategies.*

Keywords: *Cultural studies approach, adolescents, family life, sociometric relationships, pedagogical mechanism, family values, individualism, digital space.*

Kirish. Oila ijtimoiy institut sifatida jamiyat taraqqiyotining eng muhim tayanchlaridan biri hisoblanadi. Uni ilmiy jihatdan o‘rganishda oila a’zolarining yoshi, kasbiy faoliyati, farzandlar soni, nikohga kirish yoshi, er-xotinning milliy mansubligi hamda yashash hududining o‘ziga xos xususiyatlari muhim mezon sifatida e’tiborga olinadi. Oila nafaqat ijtimoiy tuzilmaning asosiy bo‘g‘ini, balki jamiyatning ma’naviy-axloqiy muhitini shakllantiruvchi bosh omil hamdir.

Xususan, Abdurauf Fitrat *“Oila yoki oila boshqarish tartiblari”*[8] - deb nomlangan asarining ikkinchi qismini aynan farzand tarbiyasiga bag‘ishlagan. Unda oiladagi eng og‘ir vazifa farzand tarbiyasi ekani, xalqning harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat--hurmat topishi, jahongir bo‘lishi, zaif bo‘lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e’tibordan qolishi, o‘zgalarga tobe, qul va asir bo‘lishi bolalikdan o‘z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog‘liqligi alohida ta’kidlanadi.

Oiladagi sog‘lom ma’naviy-psixologik muhit, eng avvalo, ayolning, ayniqsa onaning tarbiyaviy salohiyati va ma’naviy yetukligiga bevosita bog‘liq. Chunki jamiyatning ma’naviy sog‘lomligi mustahkam oiladan, mustahkam oila esa ona tarbiyasi va oiladagi sog‘lom muhitdan boshlanadi.

Haqiqatan ham, yoshlar ilmli, odobli, aqlan yetuk va oilaviy hayotga puxta tayyor bo‘lsa, oiladagi muhit sog‘lom, oila esa mustahkam va farovon bo‘ladi. Shu sababli yoshlarning oilaviy hayotga ma’naviy, axloqiy va psixologik tayyorgarligini shakllantirish muhim ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda mamlakatimiz psixolog va pedagog olimlari tomonidan oilaviy munosabatlar, yoshlarni nikoh va oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va bu jarayon izchil davom ettirilmoqda.

Globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari zamonaviy jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismiga aylanib, yosh avlodning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi hamda ijtimoiy munosabatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, o‘smirlar ongida individualizmning kuchayishi, shaxsiy erkinlik va mustaqil qaror qabul qilishga intilishning ortib borishi oilaviy

[8] Оила ёки оила бошқариш тартиблари//Масъул муҳаррир: Д.А.Алимова. Тарж. ва изоҳлар муаллифи Ш. Болидов. - 2 нашр - Т.: “Маънавият”. 2000.

qadriyatlar hamda ijtimoiy mas’uliyat masalalariga yangicha yondashuvni talab etadi. Raqamli makon, internet va ijtimoiy tarmoqlarning kundalik hayotga chuqur kirib borishi yoshlarning muloqot madaniyati, qarashlari va kelajakdagi oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Muammoning dolzarbligi.

Prezident Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, *“Bola ota-ona qo‘lida bir omonatdir”, deydi buyuk allomalarimiz. Bolalarimiz, ularning taqdiri, kelajagi haqiqatan ham juda omonat ekanini bugungi hayot har tomonlama isbotlamoqda. Agar farzandimizga to‘g‘ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo‘lib turmasak, ularni ilmu hunarga o‘rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo‘yishimiz hech gap emas”*[9].

Ushbu fikr bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida yanada chuqur mazmun kasb etmoqda. Chunki farzand taqdiri, uning ma’naviy kamoloti va kelajakdagi hayotiy yo‘li, avvalo, oilada shakllanadi. Bugungi kunda o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi nafaqat pedagogika, balki sotsiologiya, psixologiya, madaniyatshunoslik va oilashunoslik fanlari kesishgan nuqtadagi eng dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biriga aylanib bormoqda.

Demak, jamiyatda axborot oqimining keskin ortishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotiga chuqur kirib borishi ularning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi hamda ijtimoiy munosabatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, yoshlar ongida individualizm, shaxsiy erkinlik va mustaqil qaror qabul qilish tamoyillarining kuchayishi bir tomondan shaxs kamolotining muhim ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘lsa, ikkinchi tomondan oilaviy mas’uliyat, jamoaviylik, o‘zaro hurmat va bag‘rikenglik kabi qadriyatlar bilan uyg‘unlashuv zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shu nuqtai nazardan, madaniyatshunoslik yondashuvi mazkur muammoni hal etishda mustahkam nazariy va metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuv orqali o‘smir shaxsining oilaviy hayotga tayyorgarligi faqat nazariy bilimlar doirasida emas, balki milliy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy me’yorlar, oilaviy an’analar, o‘zaro munosabat madaniyati va sotsiometrik aloqalar tizimi asosida kompleks ravishda shakllantiriladi. Ayniqsa, shaxslararo munosabatlarning to‘g‘ri shakllanishi kelajakda mustahkam oila va barqaror jamiyat qurishning muhim poydevori hisoblanadi.

Nazariy-metodologik asoslar.

Sotsiometriya so‘zi, ya’ni **“socio”** (lotincha *socius*) - jamiyat, guruh, birga yashovchi odamlar, **“metriya”** (yunoncha *metron*) - o‘lchash, baholash degan ma’nolarni beradi. Sotsiometrik munosabatlar - bu jamoa ichidagi shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar tizimi bo‘lib, u tanlov munosabatlari, hissiy yaqinlik, o‘zaro ishonch, hamkorlik darajasi hamda ijtimoiy maqom bilan ifodalanadi. Mazkur tushuncha ilk bor ilmiy muomalaga rumin-amerikalik psixiatr, psixolog va sotsiolog olim Jacob Levy Moreno (1889-1974) tomonidan kiritilgan bo‘lib, u sotsiometriya nazariyasining asoschisi hisoblanadi. U guruh ichidagi shaxslararo munosabatlar, o‘zaro tanlov, hissiy yaqinlik va ijtimoiy maqomni o‘rganish uchun maxsus metod ishlab chiqqan. *“Sotsiometriya - bu guruhlarning rivojlanishi va tashkil topishini, shuningdek,*

[9] Мирзиёев Ш.М. Ватанимиз тақдири ва келажаги йўлида янада ҳамжиҳат бўлиб, қатъият билан ҳаракат қилайлик. / Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш - давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи. // “Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил 16 июнь.

shaxsning guruh ichidagi o‘rnini o‘rganuvchi ilmiy tadqiqot usulidir”[10]. Bugungi kunda ushbu yondashuv ta’lim, tarbiya va ijtimoiy psixologiya sohalarida keng qo‘llanilmoqda.

O‘smirlik davri shaxsning ijtimoiylashuvi va shaxslararo munosabatlar tizimi shakllanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda tengdoshlar bilan hamkorlik, kattalar bilan muloqot, ota-ona bilan munosabat va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Ushbu jarayonlar esa kelajakdagi oilaviy hayot modelining dastlabki poydevorini yaratadi.

Shu nuqtai nazardan, o‘smirlarning sotsiometrik munosabatlari ularning keyingi nikoh va oilaviy hayotdagi barqarorligi, o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni qurish qobiliyati hamda ijtimoiy moslashuv darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Madaniyatshunoslik yondashuvi nuqtai nazaridan oilaviy hayotga tayyorgarlik shaxsning kelajakdagi oilaviy barqarorligini ta’minlaydigan bir nechta muhim tarkibiy komponentlarni o‘z ichiga oladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Ma’naviy-axloqiy tayyorgarlik. Bu shaxsning halollik, vijdon, mehr-oqibat, sadoqat va hurmat kabi axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirishi hamda ularni kundalik hayotda qo‘llay olish qobiliyatidir. Oilaviy hayotda bu komponent o‘zaro ishonch va barqaror munosabatlarning asosini yaratadi.

2. Psixologik tayyorgarlik. Bu shaxsning hissiy barqarorligi, stressga chidamliligi, o‘zini boshqarish va boshqalarni tushuna olish (empatiya) ko‘nikmalarini anglatadi. Psixologik tayyorgarlik oilaviy nizolarni to‘g‘ri boshqarish va sog‘lom munosabatlarni saqlashga xizmat qiladi.

3. Kommunikativ tayyorgarlik. Bu muloqot qilish madaniyati, tinglash va fikr bildirish qobiliyati, shuningdek, o‘zaro tushunishga asoslangan samarali aloqa o‘rnatish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Oilada bu komponent muammolarni dialog orqali hal etishga yordam beradi.

4. Ijtimoiy mas’uliyat. Bu shaxsning oila, jamiyat va jamoadagi o‘rnini anglash, o‘z burch va majburiyatlarini bajarish hamda qarorlarining ijtimoiy oqibatlarini tushunish qobiliyatidir. Bu komponent oilaviy barqarorlik va jamiyatga ijobiy integratsiyani ta’minlaydi.

5. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi. Bu milliy urf-odatlar, an’analar va umuminsoniy insonparvarlik tamoyillarini birgalikda qabul qilish va hayotga tatbiq etishdir. Mazkur uyg‘unlik shaxsning madaniy identifikatsiyasini mustahkamlaydi va global muhitda sog‘lom ijtimoiy moslashuvni ta’minlaydi.

Tarixiy va xalqaro tajribalar tahlili.

Zardusht deydi: *“Ey oila qurayotganlar, ya’ni yigit, qizlar, Sizlarni ogohlantirib shuni aytmoqchimanki, har biringiz pokiza hayot yo‘lida g‘ayrat qilingiz”*[11]. Avestoda oila qurish jufti-halol tanlashda shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘ymaslik, ota-ona, keksalar maslahatiga quloq tutish xususida ham diqqatga molik mulohazalar mavjud. Yaxshi bilan yomonni fikrlariga diqqat qiling. Shuningdek, yana Avestoda ajdodlarimizning oila va xotin-qizlarni mukarram tutish haqida peshqadam fikrlar o‘z ifodasini topgan.

Xalqaro pedagogik tajribada o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi turli konseptual yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Xususan, Yevropa mamlakatlarida “life skills education” (“Hayotiy ko‘nikmalar ta’limi”) modeli keng qo‘llanilib, u yoshlarda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu modelda muloqot madaniyati, mas’uliyat, stressni boshqarish, nizolarni konstruktiv hal qilish hamda empatiya ko‘nikmalarini

[10] Moreno (1934), Who Shall Survive?
[11] Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Аскар Маҳкам таржимаси.- Т.: Шарқ, 2001.

shakllantirish asosiy o‘rin tutadi. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (WHO) ham hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishni yoshlar salomatligi va ijtimoiy moslashuvining muhim omili sifatida e’tirof etadi[12].

Shuningdek, YUNISEF (UNICEF, 2017) tadqiqotlarida qayd etilishicha, *“Hayotiy ko‘nikmalarga asoslangan ta’lim o‘spirinlarga ongli qaror qabul qilish, samarali muloqot qilish hamda o‘zini boshqarish va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa ularning ijtimoiy xulq-atvori va sog‘lom munosabatlar shakllanishiga xizmat qiladi”*[13].

Sharq mamlakatlarida esa oilaviy qadriyatlar ko‘proq madaniy-ma’naviy tarbiya bilan uyg‘un holda shakllantiriladi. Bu yondashuvda oilaviy an’analar, hurmat, kattalarga ehtirom va avlodlararo aloqalar markaziy o‘rin egallaydi. Ayniqsa, O‘zbekiston, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasida oila instituti jamiyat barqarorligining asosiy tayanchi sifatida qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasida esa oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligi “uchlik modeli” sifatida shakllangan bo‘lib, bu tizim yoshlarni ijtimoiy va ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, madaniyatshunoslik yondashuvi milliy ta’lim modeliga uyg‘un kelib, xalqaro tajribalar bilan integratsiyalashuv imkonini beradi.

Amaliy mexanizmlar.

O‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlashda quyidagi mexanizmlar samarali hisoblanadi:

1. Muloqot kompetensiyasini rivojlantirish. Bu mexanizm o‘smirlarda samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. U orqali ularda fikrni erkin va to‘g‘ri ifoda etish, boshqalarni tinglash madaniyati, suhbatda hurmat va etika qoidalariga rioya qilish, hamda his-tuyg‘ularni to‘g‘ri boshqarish qobiliyati rivojlanadi. Shuningdek, murakkab vaziyatlarda kelishuvga erishish va ziddiyatlarni tinch yo‘l bilan hal qilish ko‘nikmalari ham shakllanadi. Bu esa kelajakda oilaviy munosabatlarda tushunish va hamkorlik muhitini yaratishga xizmat qiladi.

2. Qadriyatlar integratsiyasi. Ushbu mexanizm milliy qadriyatlar, urf-odatlar va zamonaviy ijtimoiy talablarni uyg‘unlashtirishga asoslanadi. O‘smirlar oilaviy an’analarni saqlagan holda, zamonaviy jamiyat talablariga mos ijtimoiy ko‘nikmalarni ham o‘zlashtiradilar. Bu jarayon ularda madaniy identichlik, ya’ni o‘z millatining ma’naviy merosiga hurmat hissini kuchaytiradi. Shu bilan birga, globallashuv sharoitida turli madaniyatlarni tushunish va moslashish qobiliyatini ham shakllantiradi.

3. Sotsiometrik monitoring. Bu mexanizm sinf va guruh ichidagi o‘smirlarning o‘zaro munosabatlarini muntazam o‘rganish va tahlil qilishni anglatadi. U orqali kim kim bilan ko‘proq muloqot qilayotgani, guruh ichidagi yetakchilar, ijtimoiy rad etilgan yoki cheklangan o‘quvchilar aniqlanadi. Bu ma’lumotlar asosida pedagoglar o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom munosabat muhitini shakllantirish, konfliktlarni kamaytirish va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish choralarini ko‘radilar. Bu esa kelajakda oilaviy munosabatlarda ham muvozanat va barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

4. Raqamli madaniyatni shakllantirish. Ushbu mexanizm o‘smirlarning internet va ijtimoiy tarmoqlardan ongli, maqsadli va mas’uliyatli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Raqamli madaniyatni shakllantirish jarayonida yoshlar axborot oqimini to‘g‘ri tahlil

[12] World Health Organization (WHO). *Partners in Life Skills Education: Conclusions from a United Nations Inter-Agency Meeting*, 1999.

[13] **UNICEF, Programme Guidance on Life Skills Education, 2017.**

qilish, ishonchli manbalarni ajratish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish hamda onlayn muloqot etikasi qoidalariga rioya qilishni o‘rganadilar.

Shu bilan birga, raqamli muhitdagi faoliyat oilaviy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtiriladi, ya’ni internetdan foydalanish jarayonida ota-ona va oila a’zolari bilan muloqot, birgalikdagi vaqtni samarali tashkil etish hamda virtual va real hayot o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga alohida e’tibor qaratiladi.

Mazkur mexanizm yoshlarni raqamli muhit ta’siridan himoya qilish bilan birga, ularning ijtimoiy mas’uliyatini oshiradi va oilaviy munosabatlarda sog‘lom kommunikatsiya madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Natijalar va ilmiy ahamiyat

Sotsiometrik munosabatlari rivojlangan o‘smirlar jamoada o‘z o‘rnini aniq anglaydigan, ijtimoiy aloqalarni to‘g‘ri quradigan hamda o‘zaro ishonch va hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantira oladigan shaxslar sifatida yetishadi. Bunday o‘smirlar oilaviy hayotga nisbatan yanada mas’uliyatli yondashadi, nizoli vaziyatlarda murosaga moyillik ko‘rsatadi hamda kommunikativ jihatdan yetuk bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, sotsiometrik ko‘nikmalarning rivojlanishi yoshlarning emotsional barqarorligini mustahkamlab, ularning stressga chidamliligini oshiradi va ijtimoiy moslashuv jarayonini yengillashtiradi. Bu esa kelajakda oilaviy ajrimlar, ichki nizolar va shaxslararo kelishmovchiliklar kabi salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Ilmiy jihatdan mazkur yondashuv o‘smir shaxsining ijtimoiylashuvi, kommunikativ kompetensiyalari va qadriyatlar tizimini kompleks o‘rganish imkonini beradi hamda oilaviy hayotga tayyorlash jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun nazariy-metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yakuniy xulosa.

Madaniyatshunoslik yondashuvi asosida sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish o‘smirlarni oilaviy hayotga tayyorlash jarayonida eng samarali va zamonaviy innovatsion strategiyalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yondashuv yoshlarning faqat individual rivojlanishini emas, balki ularning ijtimoiy moslashuvi, kommunikativ kompetensiyalari va jamoaviy muhitda sog‘lom munosabatlar o‘rnatish qobiliyatini ham kompleks ravishda shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur model orqali o‘smirlarda oilaviy qadriyatlarga hurmat, mas’uliyat hissi, o‘zaro tushunish va empatiya kabi muhim sifatlar mustahkamlanadi. Shu bilan birga, u yoshlarni kelajakdagi oilaviy hayotda barqaror munosabatlar qurishga, nizolarni konstruktiv hal qilishga hamda ijtimoiy muhitda faol va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Natijada, ushbu yondashuv nafaqat shaxsiy kamolot, balki jamiyat barqarorligi va sog‘lom oilaviy institutni rivojlantirishda ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi ilmiy tahlil va nazariy-amaliy xulosalardan kelib chiqib, quyidagi **takliflar** beriladi:

- “Nikohga tayyorlovchi hayotiy ko‘nikmalar” majburiy o‘quv modullarini joriy etish. Umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalarida oilaviy munosabatlar, muloqot madaniyati va nizolarni hal qilish bo‘yicha amaliy treninglar tizimini kiritish.
- Oilaviy tayyorgarlikda sotsiometrik diagnostika tizimini joriy etish. Ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning ijtimoiy munosabatlari va guruh ichidagi o‘rnini aniqlash orqali psixologik-pedagogik profilaktika ishlarini kuchaytirish.

➢ Ota-ona, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligini institutsionallashtirish. “Uchlik hamkorlik modeli” asosida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha yagona monitoring va amaliy qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish.

➢ Raqamli tarbiya va oilaviy qadriyatlar integratsiyasini kuchaytirish. Yoshlarni internet va ijtimoiy tarmoqlardagi ta’sirlardan himoya qilish hamda raqamli madaniyat orqali oilaviy qadriyatlarni shakllantirish bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish.

➢ Oilalarni mustahkamlash bo‘yicha profilaktik-psixologik xizmatlarni kengaytirish. Ajrim yoqasidagi oilalar bilan individual maslahat, mediativ xizmatlar va psixo-ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini barcha hududlarda joriy etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Oila yoki oila boshqarish tartiblari//Mas’ul muharrir: D.A.Alimova. Tarj. va izohlar muallifi Sh. Bolidov. - 2 nashr - T.: “Ma’naviyat”. 2000.
2. Mirziyoev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik. / O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqi. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017 yil 16 iyun.
3. Moreno (1934), Who Shall Survive?
4. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. - T.: Sharq, 2001.
5. World Health Organization (WHO). *Partners in Life Skills Education: Conclusions from a United Nations Inter-Agency Meeting*, 1999.
6. UNICEF, Programme Guidance on Life Skills Education, 2017.

QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNING MA’NAVIY-AXLOQIY SIFATLARINI TARBIYALASHNING MAHALLIY VA XORIJIY TAHLILI

Fazilov Djamoliddin Kamolitdinovich
Qori Niyoziy nomida Tarbiya pedagogikasi
milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi,
pedagogika fanlari nomzodi

Barcha sohalarda rivojlanib borayotgan bugungi kunda qadriyatlarga suyangan holda umumiy o‘rta ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish bo‘yicha shakllangan milliy tajribani tahlil qilish hamda uni rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg‘or modellari bilan qiyoslash zarurati yuzaga keladi. Mazkur maqolada ushbu jarayonning bugungi kundagi holati, yutuq va muammolari qiyosiy tahlil asosida yoritiladi.

Yurtimizdagi maktab ta’limi tizimida, xususan, o‘quvchilarning ijtimoiylashuvi va bilim olish jarayonida ayrim muammolar bilan kurashmoqda. Misol uchun, qishloq joylarida darslarni tashlab ketish holatlari va malakali o‘qituvchilarning yetishmasligi mahalliy ta’lim ekspertlari oldida turgan dolzarb vazifalardandir. Boshlang‘ich va o‘rta ta’limda bolalar intellektual qobiliyati va rivojlanishidan qat’i nazar bir guruhga birlashtiriladi. O‘zlashtira olmagan bolalar takroran o‘qishga majbur. Odatda ularga darsni muvaffaqiyatli takrorlash uchun ikkita imkoniyat beriladi va agar ular natija bermasa, maxsus ehtiyojli bolalar maktablariga o‘tkazilishi mumkin.

Sobiq sovet tuzumida ta’lim tizimida maktabni tashlab ketish tanlov sifatida qaralmas edi. O‘qituvchilar va maktab direktorlari har qanday bunday holat uchun javobgar bo‘lishgan va buning oldini olish uchun barcha choralar (shu jumladan majburiy choralar) ko‘rilgan. Bugungiday majburiy ta’lim har bir kishining bilim olishi va tarbiyalanishi shartligini anglatardi.

Bugungi kunda ba’zi o‘quvchilar oilaviy barqarorlikning yo‘qligi, yolg‘iz ota-onalar farzandlari yoki ruhiy muammolar tufayli maktabga bormay, ko‘p darslarni qoldirib kelishmoqda, bu esa ularning ma’naviy kamolotiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Bundan tashqari, turli manbalardan olingan hujjatlarning individual tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘qishni tashlab ketish, o‘qituvchilar yetishmovchiligi va samaradorlikning pastligi shaharlarga qaraganda qishloq joylarida ko‘proq uchramoqda, bu esa hududiy aksiologik muhitning farqlanishiga olib keladi.

O‘zbekiston pedagogikasida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi masalasi mustaqillikdan keyingi davrda alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etdi. Bu holat, avvalo, milliy davlatchilikni mustahkamlash, milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy merosni tiklash hamda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan strategik vazifalar bilan uzviy bog‘liq holda shakllandi. Shu sababli, mahalliy pedagogik tadqiqotlarda tarbiya masalasi, asosan, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an’analar va ma’naviy meros bilan bog‘liq konseptlar orqali izohlanib kelinmoqda. Tarbiya jarayoni shaxsning milliy-ma’naviy qiyofasini shakllantirish, uni ijtimoiy hayotga tayyorlash va jamiyatda qabul qilingan axloqiy me’yorlarni o‘zlashtirish vositasi sifatida talqin etiladi.

O‘zbekiston pedagogik tafakkurida tarbiya, avvalo, shaxsning ma’naviy kamoloti bilan bog‘liq holda izohlanadi. Qator mahalliy tadqiqotlarda tarbiya jarayoni insonning ichki dunyosi, axloqiy pozitsiyasi, milliy g‘ururi va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirishga qaratilgan uzluksiz jarayon sifatida qaraladi. Xususan, Qodirov (2018) o‘z tadqiqotlarida tarbiyani milliy ma’naviyat, vatanparvarlik va milliy o‘zlikni anglash bilan chambarchas bog‘lab, uni shaxs kamolotining asosiy omili sifatida talqin qiladi. Uning ishlarida tarbiya qadriyatlarga yo‘naltirilgan jarayon sifatida namoyon bo‘lib, milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan ustuvor qo‘yiladi va tarbiya natijasi shaxsning axloqiy barqarorligi, ma’naviy mustahkamligi bilan baholanadi

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi o‘quvchilarda o‘quvchanlik qobiliyatini rivojlantirish uchun «o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim» yoki «bajarib o‘rganish» kabi jarayonga yo‘naltirilgan metodologiya yoki tizimni joriy qilmoqda, bu esa asosiy mutaxassislar va xodimlarni o‘qitish hamda yangi jarayonni hazm qilishlari uchun vaqt talab etadigan uzoq muddatli jarayondir.

Bulardan tashqari, O‘zbekiston maktablarida ko‘rgazmali o‘qitish, rasmlar yoki so‘zlarni ko‘rish orqali, eshitish va tinglash orqali, gapirish orqali, harakatlanish va yozish orqali o‘qitish kabi turli xil metodlar amalga oshirilmoqda. Masalan Respublikamizning Toshkent, samarqand, Surxondaryo, Farg‘ona, Buxoro shaharlarida o‘tkazilgan seminarda o‘zbek maktablariga yangi o‘qitish metodlari olib kirilib, bu mahalliy o‘zbek o‘qituvchilariga tabiiy va bevosita manbalar, masalan, filmlar va musiqa, harakatlar, flesh-kartalar, yarim tuzilgan suhbatlar va interaktiv rolli o‘yinlarni o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli o‘quv materiallari turlari bilan dars o‘tish imkoniyatini berdi. «Hech bir bola e’tibordan chetda qolmasin» yoki «Eng chekka hududlarga yetib borish» shiorlari ostida yuqorida tilga olingan yangi o‘qitish metodlari yillar davomida respublikamizning har bir hududida olib borilmoqda.

Mazkur masalada xorijiy mamlakatlardagi tajribani ko‘radigan bo‘lsak, Indoneziya davlatidagi maktab o‘quvchilari asosan matematika, tabiiy fanlar, ijtimoiy fanlar, indonez tili va mahalliy dialekt bo‘lgan sunda tilini o‘rganishga qiziqadilar. Indoneziyaliklardan farqli o‘laroq, o‘zbek maktablarining yosh o‘quvchilari asosan san’at, ingliz tili, rasm va adabiyotni o‘rganishni yoqtiradilar, bu esa ularning ma’naviy va estetik tarbiyaga moyilligini ko‘rsatadi.

Qo‘shimcha ravishda, olib borilgan tadqiqotlardan shu narsa aniqladiki, Indoneziya maktab o‘qituvchilari o‘qitish jarayonida ochiq va erkinroq, o‘quv materialini o‘qitiladigan mavzuga bog‘lashda mahoratli, ovozlari aniq va misollarni o‘quvchilardan chiqarib olishda yaxshi. Boshqa tomondan, ularning o‘zbek hamkasblari ancha qattiqqo‘l va talabchan bo‘lib, mavjud materiallardan foydalanadilar, agar mavjud bo‘lsa, magnitofon, proektor kabi zamonaviy o‘qitish vositalarini ishlatadilar, aks holda qo‘llanmalar, qo‘lda yasalgan kartochkalar yoki tayoqchalar, chop etilgan yoki chizilgan rasm va shakllardan foydalanib an’anaviy o‘qitish usulini qo‘llaydilar.

Xorijiy pedagogik tadqiqotlarda aksiologik yondashuv mustaqil va to‘liq shakllangan metodologik asos sifatida keng qo‘llaniladi. Ayniqsa, Yevropa mamlakatlari, AQSh hamda Rossiya pedagogikasida qadriyatlarga asoslangan ta’lim va tarbiya konsepsiyalari zamonaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Xorijiy olimlar ma’naviy-axloqiy tarbiyani faqat axloqiy me’yorlar majmui sifatida emas, balki shaxsning qiymatli yo‘nalishlari, ijtimoiy identifikasiyasi, hayotiy pozitsiyasi va faol fuqarolik ongini shakllantirishga xizmat qiluvchi kompleks jarayon sifatida tahlil qiladilar. Bu yondashuvda qadriyatlar shaxs rivojining ichki regulyatori sifatida talqin qilinib, ular insonning qaror qabul qilish, ijtimoiy munosabatlarda ishtirok etish va o‘z hayoti uchun mas’uliyat olish qobiliyatini belgilab beruvchi asosiy omil sifatida qaraladi.

G‘arb pedagogikasida aksiologik yondashuv insonparvarlik pedagogikasi, demokratik ta’lim va fuqarolik tarbiyasi konsepsiyalari bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangan. Bu yerda tarbiya jarayoni shaxsni jamiyatga moslashtirish vositasi emas, balki uni jamiyatni ongli ravishda o‘zgartirishga qodir sub’ekt sifatida shakllantirish mexanizmi sifatida qaraladi. Shu sababli, qadriyatlar ta’limi shaxsning ichki dunyosi, shaxsiy ma’nolari va hayotiy maqsadlari bilan uzviy bog‘liq holda tashkil etiladi.

Yevropa ta’lim tizimida “values education” (qadriyatlar ta’limi) konsepsiyasi keng tarqalgan bo‘lib, u o‘quvchilarda demokratik qadriyatlar, inson huquqlari, bag‘rikenglik, ijtimoiy adolat va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishga qaratilgan tizimli dasturlar orqali amalga oshiriladi. Bu konsepsiyada aksiologik yondashuv ta’lim mazmuniga tashqi qo‘shimcha sifatida emas, balki barcha fanlar va ta’lim jarayonining ichki mazmuniy asosi sifatida integrasiya qilinadi. Xorijlik olimlar ta’kidlaganidek, qadriyatlar ta’limi fanlararo xarakterga ega bo‘lib, u tarix, adabiyot, ijtimoiy fanlar, hatto tabiiy fanlar orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Bu jarayonda o‘quvchilar qadriyatlarni tayyor qoida sifatida emas, balki bilim, tajriba va mulohaza orqali anglaydilar.

Yevropa pedagogikasida aksiologik yondashuvning muhim xususiyatlaridan biri uning demokratik tabiati hisoblanadi. Qadriyatlar o‘quvchiga majburiy ravishda singdirilmaydi, balki munozara, bahs, refleksiya va ijtimoiy faoliyat orqali o‘zlashtiriladi. Bu yondashuvda o‘quvchining shaxsiy fikri, tanlovi va pozitsiyasi alohida qadrlanadi. Natijada, ma’naviy-axloqiy tarbiya avtoritar ta’sir emas, balki shaxsning ichki rivojiga yo‘naltirilgan jarayon sifatida shakllanadi.

Mahalliy va xorijiy yondashuvlar o‘rtasidagi yana bir jiddiy farq — bu axloqiy rivojlanish bosqichlariga bo‘lgan munosabatda ko‘rinadi. Mahalliy tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, bizdagi tarbiya tizimi ko‘proq «Namuna ko‘rsatish» va «Pand-nasihat» usullariga tayanadi.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida aksiologik yondashuvni joriy etish bo‘yicha o‘tkazilgan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, milliy pedagogikada qadriyatlarning mazmuni mukammal ishlab chiqilgan, ammo ularni o‘quvchining ichki e’tiqodiga aylantirish texnologiyalari (Process) zamonaviylashtirishga muhtoj. Xorijiy tajribadagi «tanqidiy fikrlash», «refleksiya», «ijtimoiy loyihalash» va «raqamli fuqarolik» vositalarini milliy ma’naviy negizga (Sharqona odob, jamoaviylik, oilaparvarlik) payvand qilish orqali integrativ aksiologik tizim yaratish zarurati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.
2. Qodirov A.. Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari. – Toshkent, 2018.
3. Lev Vygotsky. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
4. Lawrence Kohlberg. Essays on Moral Development. – New York: Harper & Row, 1981.
5. John Dewey. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.
6. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – Paris, 2017.
7. OECD. Global Competency Framework. – Paris, 2018.

РАЗВИТИЕ СОЦИОМЕТРИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ УЧИТЕЛЕМ И УЧАЩИМИСЯ НА ОСНОВЕ КУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО ПОДХОДА: АНАЛИЗ ИСТОРИЧЕСКОГО И МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА (НА МАТЕРИАЛЕ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНО-РЕЧЕВЫХ УМЕНИЙ)

Содикова Матлюба Сайфуллоевна
кандидат педагогических наук, преподаватель кафедры русского языка Таджикский государственный медицинский университет имени Абуали ибни Сино, г. Душанбе, Таджикистан

Аннотация. *В статье рассматриваются педагогические условия развития социометрических отношений между учителем и учащимися старших классов на основе культурологического подхода. Представлен анализ исторического развития представлений о педагогическом взаимодействии, а также обобщён международный опыт (США, Финляндия, Россия) organizatsiu образовательной среды, ориентированной на сотрудничество. Обосновывается роль коммуникативно-речевых умений как ключевого механизма формирования межличностных связей. Показано, что комплекс педагогических условий способствует развитию устойчивых социометрических отношений и повышению эффективности обучения.*

Ключевые слова: *социометрические отношения, культурологический подход, коммуникативная среда, педагогическое взаимодействие, международный опыт*

Annotatsiya. *Maqolada yuqori sinf o‘quvchilari va o‘qituvchi o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarni madaniy yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik shartlari ko‘rib chiqiladi. Pedagogik o‘zaro ta’sir haqidagi qarashlarning tarixiy rivojlanishi tahlil qilinadi, shuningdek hamkorlikka yo‘naltirilgan ta’lim muhitini tashkil etish bo‘yicha xalqaro tajriba (AQSH, Finlyandiya, Rossiya) umumlashtiriladi. Kommunikativ-nutqiy ko‘nikmalarning shaxslararo munosabatlarni shakllantirishdagi asosiy mexanizm sifatidagi o‘rni asoslab beriladi. Pedagogik shartlarning majmuaviy amalga oshirilishi barqaror sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish va ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *sotsiometrik munosabatlar, madaniy yondashuv, kommunikativ muhit, pedagogik o‘zaro ta’sir, xalqaro tajriba*

Abstract. *The article examines the pedagogical conditions for developing sociometric relationships between teachers and senior school students based on a cultural approach. It analyzes the historical development of views on pedagogical interaction and summarizes international experience (USA, Finland, Russia) in organizing an educational environment oriented toward cooperation. The role of communicative and speech skills as a key mechanism for forming interpersonal relationships is substantiated. It is shown that the integrated implementation of pedagogical conditions contributes to the development of stable sociometric relationships and improves the effectiveness of the educational process.*

Keywords: *sociometric relationships, cultural approach, communicative environment, pedagogical interaction, international experience*

Введение. В современных условиях развития образования особую значимость приобретает проблема формирования устойчивых социометрических отношений между учителем и учащимися. Эти отношения определяют не только психологический климат в классе, но и результативность учебного процесса. Историческое развитие педагогической мысли показывает, что проблема взаимодействия учителя и ученика рассматривалась как ключевая. В работах Л.С. Выготского подчёркивается социальная природа обучения и ведущая роль общения в развитии личности. Теория речевой деятельности А.А. Леонтьева также акцентирует внимание на том, что язык выступает основным инструментом социального взаимодействия. Существенный вклад в изучение межличностных отношений внёс Я.Л. Морено, разработавший социометрический подход, позволяющий анализировать структуру взаимодействия в группе. Его идеи легли в основу современных исследований образовательной среды как системы социальных связей. Международный опыт подтверждает значимость данных положений. В образовательных системах США активно развиваются модели cooperative learning, ориентированные на групповую деятельность и равноправное взаимодействие учащихся. В Финляндии образовательный процесс строится на принципах доверия, сотрудничества и индивидуальной поддержки учащегося. В российской педагогике широко развиваются идеи коммуникативного и культурологического подходов, направленных на формирование диалогической образовательной среды. В рамках культурологического подхода обучение рассматривается как процесс включения учащегося в систему культурных и социальных отношений. В этом контексте коммуникативно-речевые умения выступают основным средством формирования социометрических связей. В условиях билингвального образования Республики Таджикистан развитие данных умений приобретает особую

значимость, поскольку именно через речевое взаимодействие формируются отношения между учителем и учащимися.

Целью исследования является выявление педагогических условий развития социометрических отношений между учителем и учащимися старших классов на основе культурологического подхода с учётом исторического и международного опыта.

Материалы и методы

Исследование основано на:

анализе психолого-педагогической литературы;

изучении исторических подходов к педагогическому взаимодействию;

сравнительном анализе международного опыта (США, Финляндия, Россия);

педагогическом наблюдении;

моделировании образовательного процесса.

Методологическую основу составляют культурологический, социометрический и коммуникативно-деятельностный подходы.

Результаты

В результате проведённого исследования был выявлен комплекс взаимосвязанных педагогических условий, обеспечивающих развитие социометрических отношений между учителем и учащимися старших классов. Установлено, что каждое условие выполняет самостоятельную функцию, однако наибольший эффект достигается при их системной и интегрированной реализatsii.

1. Создание социокультурной коммуникативной среды

Данное условие предполагает organizatsiю образовательного пространства, насыщенного возможностями для речевого и социального взаимодействия. Социокультурная среда включает не только использование языка как средства общения, но и формирование системы ценностей, норм и правил взаимодействия, характерных для определённой культуры.

Практическая реализация данного условия осуществляется через:

- organizatsiю диалогических форм обучения;
- создание situatsiй реального общения;
- поддержание психологически комфортной атмосферы;
- стимулирование инициативы учащихся в общении.

В результате формируется доверительная среда, способствующая развитию открытых и устойчивых межличностных связей, что является основой социометрических отношений.

2. Использование аутентичных и адаптированных текстов

Аутентичные тексты выступают важным средством включения учащихся в культурный контекст изучаемого языка. Они отражают реальные модели общения, ценности и нормы поведения, принятые в обществе. Адаптация текстов позволяет учитывать уровень языковой подготовки учащихся и обеспечивает доступность содержания без потери его коммуникативной значимости.

Использование текстов способствует:

- развитию понимания культурных особенностей общения;
- расширению коммуникативного опыта учащихся;
- формированию способности интерпретировать социальные situatsii.

Таким образом, тексты становятся инструментом формирования не только речевых, но и социальных умений.

3. Организация продуктивного группового взаимодействия

Групповая работа является ключевым механизмом формирования социометрических отношений. Она создаёт условия для активного взаимодействия, распределения ролей и совместного решения задач.

Соответствие международным практикам cooperative learning проявляется в следующих принципах:

- взаимозависимость участников;
- индивидуальная ответственность;
- равное участие;
- развитие коммуникативных навыков.

В процессе групповой работы формируются навыки сотрудничества, эмпатии, умение слушать и учитывать позицию других. Это способствует укреплению межличностных связей и формированию позитивной структуры отношений в группе.

4. Развитие критического мышления

Критическое мышление рассматривается как содержательная основа продуктивного общения. Оно обеспечивает осмысленность речевой деятельности и способствует развитию аргументированного взаимодействия.

Развитие данного компонента осуществляется через:

- проблемные задания;
- дискуссии;
- анализ различных точек зрения;
- формирование навыков аргументatsii.

В результате учащиеся приобретают способность вести диалог, уважать альтернативные мнения и выстраивать конструктивное общение, что напрямую влияет на качество социометрических отношений.

5. Профессиональная роль учителя

Учитель выступает центральным субъектом формирования социометрических отношений, выполняя функции организатора, медиатора и регулятора взаимодействия.

Его профессиональная деятельность включает:

- создание благоприятного психологического климата;
- управление групповыми процессами;
- моделирование культурных норм общения;
- поддержку каждого учащегося.

Высокий уровень педагогической компетентности позволяет учителю эффективно влиять на структуру межличностных отношений, предотвращать конфликты и формировать атмосферу сотрудничества.

6. Мониторинг социометрических отношений

Мониторинг представляет собой систему диагностики и анализа межличностных связей в учебной группе. Он позволяет выявлять уровень взаимодействия, статус учащихся в коллективе и динамику отношений.

Основные инструменты мониторинга включают:

- социометрические методы;
- наблюдение;
- анкетирование;
- анализ коммуникативной активности.

Полученные данные используются для корректировки педагогического процесса, индивидуализatsii обучения и повышения эффективности взаимодействия.

Таким образом, мониторинг обеспечивает управляемость процесса формирования социометрических отношений и позволяет своевременно реагировать на возникающие трудности.

Обсуждение

Результаты исследования подтверждают, что развитие социометрических отношений требует системного подхода. Исторический анализ показывает, что обучение всегда рассматривалось как социальный процесс, основанный на взаимодействии.

Сравнительный анализ международного опыта позволяет выделить общие тенденции:

- ориентация на сотрудничество (США);
- формирование доверительной среды (Финляндия);
- развитие коммуникативной компетенции (Россия).

В рамках культурологического подхода социометрические отношения рассматриваются как отражение ценностей и норм общения. Коммуникативно-речевые умения выступают основным инструментом их формирования, поскольку именно через речь осуществляется социальное взаимодействие.

Заключение

Развитие социометрических отношений между учителем и учащимися является важнейшим условием эффективного образовательного процесса.

Реализация предложенных педагогических условий способствует:

- формированию устойчивых межличностных связей;
- развитию коммуникативной культуры;
- повышению качества обучения;
- созданию благоприятной образовательной среды.

Практическая значимость исследования заключается в возможности использования его результатов в системе школьного образования Республики Таджикистан.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. – М.: Педагогика, 2008.
2. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999.
3. Гальперин П.Я. Введение в психологию. – М.: МГУ, 1976.
4. Зимняя И.А. Психология обучения иностранным языкам в школе. – М.: Просвещение, 1991.
5. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – М.: Просвещение, 2005.
6. Лернер И.Я. Дидактические основы методов обучения. – М.: Педагогика, 1981.
7. Носонович Е.В. Методика обучения иностранным языкам. – М.: Академия, 2010.
8. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – М.: Просвещение, 1991.

9. Сафонова В.В. Социокультурный подход к обучению иностранным языкам. – М.: Высшая школа, 1996.
10. Сластенин В.А. Педагогика. – М.: Академия, 2013.
11. Халперн Д. Психология критического мышления. – СПб.: Питер, 2000.
12. Цукерман Г.А. Виды общения в обучении. – М.: Педагогика, 1993.
13. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – М.: Наука, 1974.

TA’LIM JARAYONIDA INKLUZIV MUHITNI SHAKLLANTIRISHDA SOTSIOMETRIK TAHLIL VA MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVINING INTEGRATSIYASI

Umaraliyeva Muxayo Abdugaparovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti “Ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash” ilmiy tadqiqot bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim jarayonida inkluziv muhitni shakllantirishda sotsiometrik tahlil va madaniyatshunoslik yondashuvining o‘zaro integratsiyasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Sotsiometrik tahlil orqali o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar tizimi aniqlanib, madaniyatshunoslik yondashuvi orqali ushbu munosabatlarning qadriyatlar, urf-odatlar va ijtimoiy me’yorlar asosida rivojlantirilishi asoslab beriladi. Maqolada inkluziv ta’lim muhitini samarali tashkil etish mexanizmlari, pedagogik shart-sharoitlar hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, o‘zaro hurmat, bag‘rikenglik va hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: inkluziv ta’lim, sotsiometrik tahlil, madaniyatshunoslik yondashuvi, ijtimoiy munosabatlar, pedagogik integratsiya, bag‘rikenglik, kommunikativ kompetensiya, ta’lim muhiti, ijtimoiy moslashuv.

Zamonaviy ta’lim tizimida inkluziv muhitni shakllantirish muammosi global pedagogik hamjamiyat e’tibor markazida bo‘lib, u nafaqat ta’lim samaradorligini oshirish, balki ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillarini qaror toptirish bilan ham uzviy bog‘liqdir. Inkluziv ta’lim konsepsiyasi barcha o‘quvchilarning – ularning jismoniy, psixologik, intellektual, ijtimoiy yoki madaniy xususiyatlaridan qat’i nazar – sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan yaxlit pedagogik tizimni anglatadi. Shu nuqtai nazardan, inkluziv muhitni shakllantirish jarayoni o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, ijtimoiy integratsiya va psixologik moslashuv mexanizmlarini chuqur o‘rganishni talab etadi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar tizimi ularning jamoaga moslashuvi, o‘zaro hamkorlikka kirishishi va shaxs sifatida rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, inkluziv sinf sharoitida turli ehtiyoj va imkoniyatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida ijobiy ijtimoiy muhitni yaratish pedagogik jarayonning ustuvor vazifalaridan biridir. Bunday muhitni shakllantirishda sotsiometrik tahlil metodining ahamiyati beqiyosdir. Sotsiometriya yordamida sinf jamoasidagi norasmiy tuzilma, liderlik darajalari, o‘zaro tanlash va rad etish holatlari aniqlanadi. Bu esa o‘qituvchiga har bir o‘quvchining jamoadagi o‘rnini baholash, ijtimoiy izolyatsiya xavfi mavjud bo‘lgan o‘quvchilarni aniqlash

Inkluziv ta’lim muhiti – bu barcha o‘quvchilar uchun qulay, qo‘llab-quvvatlovchi, teng imkoniyatlarni ta’minlovchi va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan pedagogik tizim bo‘lib, u har bir shaxsning ta’lim jarayonida faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan. Bunday muhitda o‘quvchilar nafaqat bilim oluvchi subyekt, balki jamoaviy faoliyatning to‘laqonli ishtirokchisi sifatida shakllanadi.

Inkluziv ta’lim muhitini samarali tashkil etishda quyidagi asosiy pedagogik-psixologik jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

– o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmat, hamjihatlik va bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirish;

– ta’lim jarayonida ijtimoiy adolat va tenglik tamoyillariga qat’iy rioya qilish;

– har bir o‘quvchiga individual yondashuvni ta’minlash, uning imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish;

– ijobiy psixologik va emotsional iqlimni shakllantirish, stress va ijtimoiy bosim darajasini kamaytirish.

Mazkur omillar inkluziv ta’limning barqaror rivojlanishi va samaradorligini ta’minlaydigan asosiy pedagogik shartlar hisoblanadi.

Sotsiometrik tahlil esa o‘quvchilar jamoasidagi ijtimoiy munosabatlarni aniqlash, o‘lchash va tizimli baholash imkonini beruvchi ilmiy metod sifatida ta’lim jarayonida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu metod yordamida o‘qituvchi jamoaning ichki ijtimoiy tuzilmasini chuqur o‘rganishi mumkin.

Sotsiometrik tahlil jarayonida jamoa ichidagi rasmiy va norasmiy liderlar, shuningdek, ijtimoiy jihatdan cheklangan yoki izolyatsiyalashgan o‘quvchilarni aniqlash, o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro simpatiya va antipatiya darajasini o‘rganish hamda ularning sabablarini tahlil qilish, sinf ichidagi kichik guruhlar, mikro-jamoalar va norasmiy ijtimoiy tuzilmalarni aniqlash kabi muhim jihatlar aniqlanadi:

Mazkur tahlil natijalari asosida pedagog o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik muammolarni erta bosqichda aniqlab, ularni bartaraf etishga yo‘naltirilgan individual va guruhiy pedagogik chora-tadbirlarni ishlab chiqadi. Bu esa ta’lim muassasasida sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish, inkluzivlikni ta’minlash hamda har bir o‘quvchining ijtimoiy moslashuvini yaxshilashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Madaniyatshunoslik yondashuvi zamonaviy ta’lim jarayonini madaniy qadriyatlar tizimi asosida tashkil etishga yo‘naltirilgan muhim metodologik asoslardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv ta’lim subyektlarining shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini madaniy kontekstda ta’minlashga xizmat qiladi hamda o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, ularning ijtimoiy moslashuvini kuchaytirish imkonini beradi. Madaniyatshunoslik yondashuvi quyidagi asosiy tamoyillarni o‘z ichiga oladi:

• milliy madaniy meros va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish, ya’ni o‘quvchilarda o‘z milliy identifikatsiyasini saqlagan holda global madaniyatga integratsiyalashuv kompetensiyalarini shakllantirish;

• madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish, bunda turli ijtimoiy va madaniy guruh vakillari o‘rtasida samarali kommunikatsiyani yo‘lga qo‘yish, o‘zaro tushunish va hamkorlik muhitini yaratish;

• o‘quvchilarda tolerantlik, empatiya va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini shakllantirish, bu esa ularning ijtimoiy munosabatlarda barqaror va sog‘lom pozitsiya egallashiga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv doirasida o‘quvchilar o‘rtasidagi individual farqlar faqatgina tabiiy holat sifatida emas, balki ta’lim jarayonini boyituvchi muhim resurs sifatida qabul qilinadi. Natijada, inkluziv ta’lim muhiti yanada mustahkamlanadi, har bir o‘quvchining imkoniyati va ehtiyojiga mos pedagogik sharoitlar yaratiladi.

Madaniyatshunoslik yondashuvi va inkluziv ta’lim tamoyillarining integratsiyasi ta’lim jarayonida bir qator muhim metodik va amaliy imkoniyatlarni yuzaga keltiradi:

• o‘quvchilar o‘rtasidagi real ijtimoiy munosabatlar tizimini aniqlash, tahlil qilish va uni madaniy jihatdan boyitish orqali jamoaviy muhit sifatini oshirish;

• ta’lim jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy va kommunikativ muammolarni faqat tashkiliy emas, balki qadriyatlar tizimi asosida hal etish;

• pedagogik faoliyatni individual, differensial va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish, bunda har bir o‘quvchining madaniy, psixologik va ijtimoiy xususiyatlari inobatga olinadi.

Ushbu integratsiya natijasida ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijtimoiy-psixologik rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi hamda o‘zaro ishonch va ochiq kommunikatsiya madaniyati, jamoaviy hamkorlik va birgalikda faoliyat yuritish ko‘nikmalari, ijtimoiy faollik va tashabbuskorlik, madaniy bag‘rikenglik va turli fikrlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish kabi ijobiy sifatlar shakllanadi va mustahkamlanadi:

Madaniyatshunoslik yondashuvi va inkluziv ta’lim tamoyillarining o‘zaro uyg‘unlashuvi zamonaviy ta’lim tizimida nafaqat bilimlarni uzatish jarayonini takomillashtiradi, balki shaxsning ijtimoiylashuvi, madaniy identifikatsiyasi hamda kommunikativ kompetensiyalarining kompleks rivojlanishini ta’minlovchi muhim pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur integrativ yondashuv ta’lim jarayonini barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlar asosida tashkil etish, ularning individual ehtiyojlari va madaniy xususiyatlarini inobatga olishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida quyidagi pedagogik mexanizmlardan foydalanish samarali natijalar beradi:

Sotsiometrik diagnostika asosida guruhni qayta tashkil etish – o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar, tanlovlar va o‘zaro aloqadorlik darajasini aniqlash orqali inklyuziv muhitni optimallashtirish imkonini beradi. Bu jarayon guruh ichidagi ijtimoiy moslashuvni yaxshilab, chetlanish (izolyatsiya) holatlarini kamaytiradi hamda o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini kuchaytiradi.

Madaniy-ma’rifiy tadbirlarni (milliy bayramlar, urf-odatlar va an’analar asosida) tashkil etish – o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, madaniy bag‘rikenglik hamda ijtimoiy birlik tuyg‘usini shakllantiradi. Bunday tadbirlar inkluziv ta’lim muhitida turli madaniy qatlam vakillari o‘rtasida ijobiy ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Guruhli va kooperativ o‘qitish metodlarini qo‘llash – o‘quvchilarning birgalikda muammolarni hal qilish, fikr almashish va jamoaviy natijaga erishish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu metodlar inkluziv ta’lim sharoitida har bir o‘quvchining faol ishtirokini ta’minlab, tenglik va hamkorlik tamoyillarini mustahkamlaydi.

Konfliktologik vaziyatlarni madaniy yondashuv asosida hal etish – ta’lim jarayonida yuzaga keladigan nizoli holatlarni madaniyatshunoslik tamoyillari asosida tahlil qilish va bartaraf etish o‘quvchilarda tolerantlik, empatiya va kommunikativ madaniyatni rivojlantiradi. Bu esa inklyuziv muhit barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

O‘quvchilarda refleksiya va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish – shaxsning o‘z faoliyatini tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarini anglash hamda mustaqil rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishiga imkon yaratadi. Bu jarayon o‘quvchilarning metakognitiv qobiliyatlarini kuchaytirib, ularni ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida inkluziv muhitni shakllantirish zamonaviy pedagogikaning eng muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday muhitni samarali tashkil etishda sotsiometrik tahlil va madaniyatshunoslik yondashuvining integratsiyasi muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Sotsiometrik tahlil o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar tizimini, ularning o‘zaro tanlash, guruh ichidagi mavqei, liderlik va moslashuv darajalarini aniqlash imkonini bersa, madaniyatshunoslik yondashuvi esa ta’lim jarayonini milliy va umuminsoniy qadriyatlar, madaniy me’yorlar hamda tolerantlik tamoyillari asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Mazkur ikki yondashuvning uyg‘unlashuvi natijasida o‘quvchilarning shaxslararo munosabatlari chuqur tahlil qilinadi hamda ularni ijobiy yo‘naltirish uchun ilmiy asoslangan pedagogik strategiyalar ishlab chiqiladi. Bu jarayon o‘qituvchiga sinf jamoasidagi ijtimoiy-psixologik holatni aniq tasavvur etish, ijtimoiy jihatdan chetlanish xavfi mavjud o‘quvchilarni aniqlash hamda ularni jamoaga samarali integratsiya qilish imkonini beradi.

Natijada ta’lim jarayonida sog‘lom psixologik iqlim shakllanadi, o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmat, hamkorlik va empatiya kabi ijtimoiy-axloqiy sifatlar rivojlanadi. Shu bilan birga, ularning ijtimoiy va madaniy kompetensiyalari takomillashadi, shaxsiy va jamoaviy rivojlanish uchun qulay pedagogik sharoit yaratiladi. Eng muhimi, bunday integrativ yondashuv inkluziv ta’lim samaradorligini oshirib, har bir o‘quvchining ta’lim jarayonida teng ishtirok etishini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘afforov A. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan, 2010. – 300 b.
2. Yuldashev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011. – 250 b.
3. Turg‘unov S. *Zamonaviy pedagogik yondashuvlar*. – Toshkent: Noshir, 2021. – 240 b.
4. Mukhina V.S. *Psixologiya razvitiya lichnosti*. – M.: Akademiya, 2006. – 400 b.

O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI O‘RTASIDAGI SOTSIOMETRIK MUNOSABATLAR: TA’LIM VA TARBIYA SAMARADORLIGINING OMILI

Karimov Komiljon Abduraximovich
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
“Inklyuziv ta’lim-tarbiya metodikasi ilmiy-tadqiqot” bo‘limi boshlig‘i
Pedagogika fanlari doktori (DSc) dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarning ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi. Shaxslararo munosabatlarning sinf jamoasidagi psixologik muhitni shakllantirishdagi o‘rni, o‘quvchilarning bilim olish faolligi hamda ijtimoiy rivojlanishiga ta’siri yoritilgan. Sotsiometrik yondashuv asosida o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarni aniqlash, yetakchilar va ijtimoiy jihatdan chetda qolayotgan o‘quvchilarni aniqlash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada o‘qituvchining pedagogik mahorati, kommunikativ kompetensiyasi va insonparvar yondashuvi ta’lim

samaradorligini oshirishdagi muhim omil sifatida baholanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijobiy sotsiometrik munosabatlar ta’lim sifati va tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Sotsiometriya, o‘qituvchi, o‘quvchi, shaxslararo munosabatlar, ta’lim jarayoni, tarbiya, psixologik muhit, sinf jamoasi, pedagogik mahorat, ijtimoiy rivojlanish, kommunikativ kompetensiya, liderlik.*

Jamiyat taraqqiyoti va barqaror rivojlanishi bevosita ta’lim tizimining samaradorligiga bog‘liq. Ta’lim tizimi esa o‘z navbatida inson kapitalini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayonda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar markaziy o‘rin egallaydi. Ushbu munosabatlar faqat bilim uzatish bilan cheklanib qolmay, balki o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishi, ijtimoiylashuvi va ma’naviy kamolotiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, sotsiometrik munosabatlar — ya’ni jamoa ichidagi shaxslararo aloqalar tizimi — ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir.

Sotsiometriya tushunchasi Jacob Levy Moreno tomonidan asoslab berilgan bo‘lib, u kichik guruhlarda shaxslararo munosabatlarni aniqlash, o‘lchash va tahlil qilishga xizmat qiladi. Ushbu metod yordamida sinf jamoasidagi ijtimoiy tuzilma, o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari, yetakchilar va ijtimoiy jihatdan chetda qolayotgan shaxslar aniqlanadi. Bu esa pedagogga sinf ichidagi psixologik muhitni chuqurroq tushunish va uni samarali boshqarish imkonini beradi.

O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ijobiy sotsiometrik munosabatlar ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Pedagogik tajriba shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchi o‘z o‘qituvchisiga nisbatan ishonch va hurmat tuyg‘usini his qilgan taqdirda, uning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Bunday sharoitda o‘quvchi o‘z fikrini erkin ifoda etadi, savollar beradi, muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilishga harakat qiladi. Bu esa o‘z navbatida tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarining rivojlanishiga olib keladi.

Aksincha, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi salbiy yoki ziddiyatli munosabatlar ta’lim jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday vaziyatda o‘quvchilarda darsga nisbatan befarqlik, o‘ziga ishonchsizlik, qo‘rquv va passivlik kuzatiladi. Natijada bilim olish jarayoni sustlashadi, o‘quvchilarning akademik natijalari pasayadi. Shu bois pedagog o‘z faoliyatida nafaqat bilim berishga, balki ijobiy psixologik muhit yaratishga ham alohida e’tibor qaratishi zarur.

Sotsiometrik munosabatlar tarbiya jarayonida ham muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi o‘quvchilar uchun nafaqat bilim manbai, balki axloqiy mezon va ijtimoiy ideal sifatida namoyon bo‘ladi. Uning xulq-atvori, muomala madaniyati, adolatli va insonparvar yondashuvi o‘quvchilar tomonidan bevosita qabul qilinadi va takrorlanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, o‘qituvchining shaxsiy fazilatlari o‘quvchilar tarbiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, sinf jamoasidagi o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ham tarbiyaviy jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Agar sinfda do‘stona, hamkorlikka asoslangan muhit shakllangan bo‘lsa, o‘quvchilar bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi, o‘zaro hurmat asosida muloqot qiladi. Bu esa ijtimoiy ko‘nikmalar — muloqot, murosaga kelish, jamoada ishlash kabi kompetensiyalarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Sotsiometrik tahlil natijalari pedagogga individual yondashuvni amalga oshirishda katta yordam beradi. Masalan, sinfda yetakchilik qobiliyatiga ega o‘quvchilarni aniqlab, ularni ijobiy faoliyatga yo‘naltirish mumkin. Shu bilan birga, ijtimoiy jihatdan chetda qolayotgan yoki passiv

o‘quvchilarni aniqlab, ularga alohida e’tibor qaratish, ularni jamoaga integratsiya qilish choralari ko‘riladi. Bu esa har bir o‘quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Zamonaviy pedagogika shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni asosiy tamoyil sifatida ilgari suradi. Bu yondashuv o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarning hamkorlik, o‘zaro hurmat va ishonch asosida qurilishini talab etadi. Bunday yondashuvda o‘quvchi passiv bilim oluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi esa yo‘naltiruvchi, maslahatchi va motivator rolini bajaradi.

Shuningdek, ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ham sotsiometrik munosabatlarni yaxshilashga xizmat qiladi. Guruhli ishlash, muammoli ta’lim, interfaol metodlar o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi. Bu esa sinf jamoasining jipslashuviga va sog‘lom psixologik muhit shakllanishiga olib keladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlar ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ushbu munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali nafaqat yuqori natijalarga erishish, balki har tomonlama barkamol, ijtimoiy faol va ma’naviy yetuk avlodni tarbiyalash mumkin. Shu bois har bir pedagog o‘z faoliyatida sotsiometrik yondashuvning ahamiyatini chuqur anglab, uni amaliyotda samarali qo‘llashi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jacob Levy Moreno. *Who Shall Survive?* – New York: Beacon House, 1934.
2. Lev Vygotsky. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Harvard University Press, 1978.
3. Jean Piaget. *The Psychology of Intelligence*. – Routledge, 1950.
4. A. S. Makarenko. *Pedagogik poema*. – Moskva, 1933.
5. V. A. Sukhomlinsky. *Bolalarga yurakdan*. – Kiev, 1969.

TARBIYACHI VA TARBIYALANUVCHILAR O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR TIZIMIDA SOTSIOMETRIK YONDASHUVNING AFZALLIKLARI

Turebekova Guljaxan Adilbekovna
Maktabgacha ta’lim kafedrasi dotsent v.v.b., PhD
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatlar tizimini takomillashtirishda sotsiometrik yondashuvning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Bolalar jamoasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarni aniqlash, ularni tahlil qilish va boshqarishda sotsiometrik metodining imkoniyatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, sotsiometriya, ijtimoiy munosabatlar, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, jamoa, psixologik muhit, kommunikativ ko‘nikmalar.*

Аннотация. *В данной статье освещаются роль и значение социометрического подхода в совершенствовании системы отношений между воспитателем и воспитанниками в дошкольных образовательных организациях. Проанализированы возможности социометрического метода в выявлении, анализе и управлении социально-психологическими отношениями в детском коллективе.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, социометрия, социальные отношения, воспитатель, воспитанник, коллектив, психологическая среда, коммуникативные навыки.*

Abstract. *This article highlights the role and significance of the sociometric approach in improving the system of relationships between educators and students in preschool educational organizations. The possibilities of the sociometric method in identifying, analyzing, and managing socio-psychological relationships within a children's collective are analyzed.*

Keywords: *preschool education, sociometry, social relations, educator, student, collective, psychological environment, communicative skills.*

Hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasida, shu jumladan Qoraqalpog‘iston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimi davlat siyosatida muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Mamlakatimizda bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning shaxsiy va ijtimoiy salohiyatini yuksaltirish, erkin fikrlaydigan, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘ladigan shaxs sifatida tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilanmoqda. Shu munosabat bilan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachi va bolalar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning samarali yo‘lga qo‘yilishi, o‘zaro ishonch va hamkorlik muhitini shakllantirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning shaxs sifatida shakllanishi ko‘p jihatdan ularning atrofidagi ijtimoiy muhitga bog‘liqdir. Ayniqsa, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi bolaning emotsional holati, ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Shu bois mazkur munosabatlarni ilmiy asosda o‘rganish va samarali boshqarish dolzarb pedagogik masala hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogika va psixologiyada bolalar jamoasidagi munosabatlarni aniqlashning samarali usullaridan biri sifatida sotsiometrik yondashuv keng qo‘llanilmoqda. Ushbu yondashuv bolalar o‘rtasidagi simpatiya va antipatiya, yetakchilik darajasi hamda ijtimoiy aloqalarni aniqlash imkonini beradi.

Sotsiometriya - bu kichik guruhlar ichidagi ijtimoiy munosabatlarni o‘rganishga qaratilgan ilmiy metod bo‘lib, u shaxslararo aloqalarni aniqlash va tahlil qilish imkonini beradi. Jeykob Moreno tomonidan ishlab chiqilgan ushbu metod guruhdagi liderlar, chetga surilganlar va guruhning umumiy birlashganlik darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Ushbu metod orqali jamoada kim yetakchi, kim izolyatsiyalangan yoki kimlar o‘zaro yaqin aloqada ekanligini aniqlash mumkin.

Maktabgacha ta’lim sharoitida sotsiometrik yondashuv bolalarning ijtimoiy o‘rnini aniqlash, ularning psixologik holatini tushunish va munosabatlarni muvofiqlashtirishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, bu usul orqali tarbiyachi har bir bolaning jamoadagi o‘rnini aniq baholay oladi.

Tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi munosabatlar tizimi o‘zaro ishonch, hurmat va qo‘llab-quvvatlashga asoslanishi kerak. Sotsiometrik yondashuv ushbu munosabatlarni yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Bu metod yordamida tarbiyachi quyidagi jihatlarni aniqlashi mumkin: bolalar orasidagi ijtimoiy guruhlanish darajasi, yetakchi va faol bolalarni aniqlash, e’tibordan chetda qolayotgan bolalarni toppish va jamoada yuzaga kelayotgan nizolar sabablarini tushunish. Natijada tarbiyachi har bir bolaga individual yondashuvni to‘g‘ri tashkil etadi va jamoada sog‘lom psixologik muhitni yaratadi.

Sotsiometrik yondashuvning asosiy afzalliklaridan biri uning aniqlik va tizimlilikni ta’minlashidir. U bolalar o‘rtasidagi munosabatlarni yuzaki emas, balki chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, ushbu yondashuv: bolalarda ijtimoiy moslashuvni tezlashtiradi, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi, jamoada ijobiy psixologik muhitni shakllantiradi va tarbiyachiga pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishda yordam beradi. Sotsiometriya natijalari asosida tarbiyachi tarbiyaviy ishlarni rejalashtiradi va muammoli vaziyatlarni oldindan bartaraf etish choralarini ko‘radi.

Bolalar jamoasida sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish ularning to‘laqonli rivojlanishi uchun muhim omildir. Sotsiometrik tahlil orqali jamoadagi muammolar o‘z vaqtida aniqlanadi va bartaraf etiladi. Masalan, jamoada e’tibordan chetda qolayotgan bola aniqlansa, tarbiyachi uni faol o‘yinlarga jalb

etadi, boshqa bolalar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va ijtimoiy faolligini kuchaytiradi.

Sotsiometrik yondashuvni samarali qo‘llash tarbiyachidan yuqori kasbiy kompetensiyani talab etadi. U nafaqat metodni bilishi, balki olingan natijalarni to‘g‘ri tahlil qila olishi va amaliy faoliyatda qo‘llay bilishi zarur. Tarbiyachi bolalar bilan muloqotda mehribonlik, sabr-toqat va adolat tamoyillariga amal qilishi kerak. Bu esa bolalarda ijobiy munosabatlar shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sotsiometrik yondashuv maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishda samarali vosita hisoblanadi. U bolalar jamoasidagi ijtimoiy aloqalarni aniqlash, muammolarni bartaraf etish va sog‘lom psixologik muhitni yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur yondashuvni ta’lim jarayoniga keng joriy etish orqali bolalarda ijtimoiy moslashuv, muloqot madaniyati va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Bu esa kelajakda har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni.– Toshkent, 2019.
2. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi. – Toshkent: 2022.
3. Xasanboeva O. Oila pedagogikasi. – Toshkent, 2007.
4. Выготский Л.С. Психология развития ребенка – Москва. ЭКСМО, 2006.
5. Запорожец А.В. Психическое развитие ребенка– Москва, 1986.

TA’LIM TIZIMLARIDA GENDER TENGLIGI MASALASI VA PEDAGOGIK NAZARIYALAR

Abduvaliyeva Saidaxon Alisher qizi
“TURON” universiteti Andijon filiali 1-kur magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta’lim tizimlarida gender tengligi masalasi, uning pedagogik nazariyalar bilan uyg‘unligi, amaliyotga tatbiqi va o‘quvchilarning shaxsiy hamda ijtimoiy rivojlanishiga ta’siri tizimli tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot gender pedagogikasi, gender-sezgir ta’lim yondashuvlari, stereotiplarni bartaraf etish, inkluziv ta’lim siyosati va ta’lim dasturlarida gender responsiv strategiyalarning samaradorligini o‘rganadi. Maqola nazariy tahlil, ilmiy manbalarni solishtirish va xalqaro pedagogik tadqiqotlar natijalarini o‘z ichiga oladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, gender tengligi ta’lim jarayoniga tizimli integratsiya qilinganda o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va akademik ko‘nikmalari sezilarli darajada oshadi.*

Kalit so‘zlar: *gender tengligi, gender pedagogikasi, inkluziv ta’lim, ta’lim siyosati, pedagogik nazariyalar, gender responsiv yondashuvlar, stereotiplarni bartaraf etish.*

Gender tengligi – bu jinslar o‘rtasida imkoniyatlar, resurslar va huquqlar tengligini ta’minlashdir. Ta’lim tizimida gender tengligi o‘quvchilarning shaxsiy, ijtimoiy va akademik rivojlanishiga ta’sir qiladi. Global miqyosda UNESCO, UNICEF va boshqa xalqaro tashkilotlar ta’limdagi gender tengligini ustuvor vazifa sifatida belgilashgan.[14] Gender tengligi pedagogik nuqtai nazardan nafaqat o‘quvchilarga bilim berish jarayonini yaxshilaydi, balki ularning ijtimoiy ongini shakllantirish, stereotipik xulq-atvorni kamaytirish va teng huquqli muhit

[14] https://www.unesco.org/en/gender-equality/education

yaratishga xizmat qiladi.Global ta’lim siyosati va milliy ta’lim tizimlarida gender tengligini ta’minlash bugungi kunda ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.[15] Gender tengligi nafaqat ijtimoiy adolatni ta’minlash, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, akademik natijalari va ijtimoiy faolligini oshirish bilan chambarchas bog‘liq. Pedagogika tarixida bu masala bir necha nazariy maktablar va olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Masalan, John Dewey ta’lim jarayonida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashni va barcha o‘quvchilarga teng imkoniyat yaratishni ta’kidlagan[16]. Shu bilan birga, Paulo Freire tanqidiy pedagogika doirasida ta’lim jarayonida ijtimoiy tengsizlikka qarshi ongli pozitsiyani shakllantirishni muhim deb hisoblaydi.[17] Feministik pedagogik yondashuvni rivojlantirgan bell hooks esa ta’lim muhitida gender stereotiplarini bartaraf etish va tenglikni ta’minlashga urg‘u beradi (hooks, 1994). Shu bilan birga, Judith Butler genderni ijtimoiy konstruksiya sifatida talqin qilgan holda, ta’lim jarayonida shakllangan stereotiplar muhim pedagogik masala ekanligini ta’kidlaydi.[18]

Paulo Freire pedagogik nazariyada ijtimoiy adolat va tenglikni ta’lim jarayonida amalga oshirishga urg‘u beradi. Freire ta’limni passiv bilim olish emas, balki o‘quvchining ijtimoiy ongini rivojlantirish vositasi deb hisoblaydi. Shu nuqtai nazardan, gender tengligi masalasi o‘quvchilarning stereotipik qarashlardan xoli bo‘lishi va jamiyatdagi ijtimoiy tenglikni anglash bilan bog‘liq.

Bell hooks ta’limni ijtimoiy ozodlik va gender tengligini amalga oshirish vositasi sifatida talqin qiladi. Hooks pedagogik yondashuvlarda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqotning teng bo‘lishi, sinfdagi barcha ovozlar qadrlanishi va jinsiy stereotiplarning bartaraf etilishi zarurligini ta’kidlaydi.

Judith Butler genderni ijtimoiy konstruksiya sifatida ko‘radi. Ta’limda bu nazariya o‘quvchilar o‘rtasida jinsga oid stereotiplarni aniqlash va ularni pedagogik vositalar orqali kamaytirishga imkon beradi.

Benjamin Bloom ta’lim jarayonini bosqichma-bosqich rivojlantirishni nazarda tutadi: bilim → tushunish → qo‘llash → tahlil → baholash → yaratish. Gender tengligini ta’minlashda bu bosqichlar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi, jinsga bog‘liq stereotiplardan xoli ravishda bilim egallash imkonini beradi.

Gender responsiv pedagogika – ta’lim jarayonini gender sezgir yondashuvlar bilan tashkil etish, o‘quvchilarni stereotipik fikrlardan xoli qilib, teng imkoniyatlar bilan ta’minlash usuli hisoblanadi. Ushbu pedagogik yondashuv quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Materiallar va dars resurslarini gender neytral qilish – kitob, audio-video va o‘quv materiallarida gender stereotiplari mavjud bo‘lmasligi.
- O‘quvchilarning faol ishtirokini rag‘batlantirish – guruh ishlari va muammoli vazifalar orqali barcha o‘quvchilar teng qatnashadi.
- O‘qituvchilarning gender bilimlarini oshirish – treninglar, seminarlar va kurslar orqali o‘qituvchilarni gender-sezgir pedagogika bo‘yicha tayyorlash.
- Ta’lim siyosatida gender strategiyasini joriy qilish – milliy va xalqaro darajada gender tengligi qo‘llanmalari va strategiyalarini ta’lim tizimiga kiritish.

Biz ushbu maqolamizda metodologik yondashuv sifatida quyidagilar qo‘lladik:

[15] https://www-self.unicef.org/supply/topics/gender-equality-education
[16] Dewey, J. (1916). *Democracy and Education.* New York: Macmillan.
[17] Freire, P. (1970). *Pedagogy of the Oppressed.* New York: Continuum.
[18] Butler, J. (1990). *Gender Trouble.* Routledge.

1.Nazariy tahlil – gender pedagogikasi va tegishli nazariyalar asosida mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish.

2.Solishtirma tahlil – turli pedagogik yondashuvlar va milliy hamda xalqaro tajribalarni taqqoslash.

3.Empirik tadqiqotlar natijalari – gender responsiv pedagogik yondashuvlarning o‘quvchilarga ta’siri bo‘yicha mavjud zamonaviy tadqiqotlarni o‘rganish.[19]

Ilmiy maqolamizni tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ta’limda gender tengligini ta’minlash quyidagi natijalarni beradi:

- O‘quvchilarning ijtimoiy faolligi oshadi, ular guruh ishlari va muammoli vazifalarda faol qatnashadi.
- O‘quvchilar o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi, shaxsiy salohiyatini to‘la ochadi.
- Gender stereotiplari kamayadi, ta’lim muhitida inkluzivlik kuchayadi.
- O‘qituvchilar pedagogik yondashuvlarni gender responsiv metodlar bilan boyitadi, bu esa baholash va dars materiallarida adolatni oshiradi.
- Pedagogik va ta’lim siyosatidagi gender strategiyasi ta’lim sifatini oshiradi va ta’lim samaradorligini yaxshilaydi.

Gender pedagogikasi va responsiv yondashuvlar jamiyatda ijtimoiy adolatni mustahkamlash, o‘quvchilarning imkoniyatlarini kengaytirish va ta’limdagi diskriminatsiyani kamaytirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gender-sezgir metodlarni qo‘llash nafaqat o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyatini oshiradi, balki ularning ijtimoiy ongini shakllantiradi. Shu bilan birga, o‘qituvchilarning gender bilimlari va amaliy ko‘nikmalari, dars materiallarining neytralligi va guruhdagi muvozanat ta’lim samaradorligini belgilovchi muhim omillardir. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar gender responsiv metodlarni integratsiya qilish orqali ta’lim muhitida teng imkoniyatlar yaratish, stereotiplarni bartaraf etish va o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta’minlashning muhim vositasi ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ta’lim tizimlarida gender tengligini ta’minlash zamonaviy pedagogikaning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Gender-sezgir pedagogika, inkluziv ta’lim yondashuvlari va gender responsiv metodlarni amaliyotga tatbiq etish orqali o‘quvchilarning ijtimoiy integratsiyasi, o‘qish natijalari va shaxsiy rivojlanish darajasi sezilarli darajada oshadi. Shu bilan birga, ta’limning umumiy sifati ham yaxshilanadi, bu esa pedagogik nazariyalar va ta’lim siyosatining samarali uyg‘unligini ta’minlaydi.

Ilmiy maqolamizdan kelib chiqib biz quyidagicha tavsiyalar ishlab chiqdik:

1. Gender-sezgir pedagogik metodlarni joriy etish -ta’lim jarayonida o‘qituvchilar sinfdagi o‘quvchilarni gender stereotiplaridan xoli qilib o‘qitish uchun gender-sezgir metodlarni qo‘llashlari zarur. Bunga dars materiallarini gender neytral tarzda tayyorlash, guruh ishlari va muammoli vazifalarni jinsga bog‘liq farqlardan xoli tashkil etish kiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gender-sezgir metodlarni qo‘llash o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, motivatsiyasi va ijtimoiy faolligini oshiradi.

2. O‘qituvchilarning gender bilimlarini oshirish va treninglar o‘tkazish Pedagogik amaliyotda gender tengligini ta’minlash uchun o‘qituvchilarning gender masalalari bo‘yicha bilim va malakasi muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda maxsus treninglar va seminarlar orqali o‘qituvchilarga gender responsiv pedagogika, stereotiplardan xoli dars o‘tish va

[19] Rarieya et al., 2025; Canuto & Espique, 2023.

inklyuziv muhit yaratish ko‘nikmalari berilishi tavsiya etiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bu o‘qituvchilar sinfdagi o‘quvchilarning teng ishtirokini ta’minlashda va ta’lim sifatini oshirishda samarali bo‘ladi.

3. Ta’lim siyosati va o‘quv dasturlarida gender strategiyasini tizimli kiritish Ta’lim tizimida gender tengligini ta’minlash faqat amaliyot bilan cheklanmasligi, balki milliy va maktab darajasidagi strategik hujjatlarga integratsiya qilinishi zarur. Bu o‘quv dasturlarida gender bo‘yicha muvozanatni ta’minlash, darslik va materiallarda gender stereotiplarini bartaraf etish, hamda ta’lim tizimi boshqaruvchilari tomonidan gender monitoringini amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gender strategiyasini tizimli kiritish ta’lim jarayonida teng imkoniyatlar yaratishni mustahkamlaydi va o‘quvchilarning akademik va shaxsiy rivojlanishini yaxshilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –Toshkent.: “O`zbekiston”. 2018. -80 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo`shma majlisidagi nutq. –Toshkent.: O`zbekistan NMIU.2016. -56 b.
3. John Dewey (1916). *Democracy and Education.* New York: Macmillan.
4. Paulo Freire (1970). *Pedagogy of the Oppressed.* New York: Continuum.
5. Bell hooks (1994). *Teaching to Transgress: Education as the Practice of Freedom.* Routledge.
6. Judith Butler (1990). *Gender Trouble.* Routledge.
7. Canuto, E., & Espique, L. (2023). Gender-sensitive pedagogical strategies in secondary education. *International Journal of Learning and Teaching Research*, 18(2), 45–62.
8. Rarieya, J., et al. (2025). Gender-responsive pedagogy in practice: Comparative analysis. *European Journal of Education Development*, 12(1), 33–51.
9. Michael Apple (2004). *Ideology and Curriculum.* Routledge.
10. V. K. Muhammed (2025). Gender pedagogy and classroom practice. *iManager’s Journal of Educational Technology*, 15(3), 21–39.
11. ejournal.upi.edu – Pre-service teachers’ conceptualisation of gender-responsive pedagogy.
12. tandfonline.com – Gender equality in classroom practices: empirical evidence.

OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA SOTSIOMETRIK MUHIT VA ETNO-ESTETIK QADRIYATLAR INTEGRATSIYASI

Sultonova Gulasal Shodmonovna
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti, (Buxoro, Ozbekiston)
Email: gulasal.sultonova999@icloud.com

Annotatsiya. *Mazkur maqola oliy ta‘lim muassasalarida ijtimoiy-psixologik muhitning etno-estetik qadriyatlarni shakllantirish jarayoniga ta‘sirini chuqur tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda J. L. Moreno sotsiometriyasi, L. S. Vygotskiyning ijtimoiy-konstruktivistik nazariyasi va P. Bourdieuning madaniy kapital konsepsiyasi bilan milliy pedagogika an‘analari — xususan, Al-Forobiy va A. Avloniyning ta‘limiy merosi — uyg‘unlikda*

ko‘rib chiqilgan. Talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi emotsional-ijtimoiy bog‘liqlik estetik ong hamda milliy qadriyatlarning interiorizatsiyasida hal qiluvchi omil sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *sotsiometriya, etno-estetik madaniyat, ijtimoiy konstruktivizm, pedagogik muhit, interiorizatsiya, madaniy kapital, oliy ta‘lim, milliy qadriyatlar, pedagogik muloqot.*

Abstract. *This article examines the role of sociometric environment in the formation of ethno-aesthetic values in higher education institutions, integrating J. L. Moreno‘s sociometry, L. S. Vygotsky‘s social constructivism, and P. Bourdieu‘s cultural capital theory with the Uzbek and Central Asian pedagogical heritage. The emotional-social bonds between students and teachers are substantiated as a key mediating factor in the internalization of aesthetic consciousness and national values.*

Keywords: *sociometry, ethno-aesthetic culture, social constructivism, pedagogical environment, internalization, cultural capital, higher education, national values.*

Аннотация. *В статье анализируется роль социометрической среды в формировании этно-эстетических ценностей в условиях высшего образования. Исследование опирается на социометрию Дж. Л. Морено, социальный конструктивизм Л. С. Выготского и концепцию культурного капитала П. Бурдьё в сочетании с узбекской и центральноазиатской педагогической традицией.*

Ключевые слова: *социометрия, этно-эстетическая культура, социальный конструктивизм, педагогическая среда, интериоризация, культурный капитал, высшее образование.*

Bugungi kunda oliy ta‘lim faqat bilim va ko‘nikmalarni berishdan iborat emas — u yoshlarni shaxs sifatida shakllantiruvchi, ularda milliy o‘zlikni mustahkamlovchi ijtimoiy institutga aylanib bormoqda. Ayniqsa, globalizatsiya jarayonlari jadal kechayotgan hozirgi davrda talabalarda milliy qadriyatlar va etno-estetik ong masalasi pedagogik tadqiqotlarning markaziy mavzularidan biriga aylandi.

Shu o‘rinda muhim savol tug‘iladi: talabalarda milliy-estetik qadriyatlar faqat darslik sahifalarida yoki ma‘ruzalar zalida shakllanadimi? Yoki ular talabaning butun ijtimoiy muhiti — sinfdoshlari bilan munosabati, o‘qituvchiga nisbatan his-tuyg‘ulari, guruh ichidagi o‘ziga xos iqlimi orqali o‘sib-yetishadimi?

Ushbu savolga javob izlash bizni sotsiometriya — guruh ichidagi ijtimoiy munosabatlarni o‘rganuvchi ilmiy yo‘nalish — bilan etno-estetik tarbiya nazariyasini birlashtirib o‘rganish zarurligiga olib keldi. Maqolada aynan shu ikki sohaning kesishmasida yangi konseptual model qurishga harakat qilingan.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, mavjud pedagogik amaliyotda sotsiometrik muhit boshqaruvi ko‘pincha psixologik muammo sifatida ko‘riladi, lekin uning milliy-madaniy tarbiya bilan bog‘liqligi kam tadqiq etilgan. Holbuki, O‘zbekistonda oliy ta‘limni modernizatsiyalash konsepsiyasi (2019–2023) ruhiy-ma‘naviy va madaniy tarbiya masalalarini ilmiy asosda hal etishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan.

Mazkur tadqiqot bir necha muhim ilmiy manbaga tayanadi. Ularni alohida ko‘rib chiqish, keyingi tahlilning metodologik poydevorini tushunishga yordam beradi.

Sotsiometrik yondashuv asosini amerikalik psixiatr va ijtimoiy psixolog Jacob L. Moreno yaratgan. U 1953-yilda nashr etilgan asosiy asarida — *«Who Shall Survive?»* (New York: Beacon House, 1953, p. 34–89) — kichik guruhlardagi ijtimoiy tanlov va his-tuyg‘uga asoslangan munosabatlarni o‘rganish metodologiyasini taklif etadi. Morenoning fikriga ko‘ra,

guruh a‘zolari o‘rtasida doimo ko‘rinmas «emotsional iplar» mavjud: kim kimni sevadi, kim kimga befarq, kim kimni rad etadi. Ana shu iplar guruhning samarali ishlashini belgilaydi.

Moreno (1953, p. 72) ta‘kidlaydi: «Guruh ichidagi his-tuyg‘uga asoslangan aloqalar uning intellektual faoliyatidan ham muhimroqdir; chunki ular a‘zolarning bir-biriga ochiq bo‘lishini yoki yopiqligini belgilaydi.» Sotsiometrik test yordamida har bir guruh a‘zosining «ijtimoiy maqomi» — qabul qilinganlik va chetlatilganlik darajasi — aniqlanadi. Bu ma‘lumot pedagogga guruh ichidagi muammolarni vaqtida ilg‘ash imkonini beradi.

Rus psixologi Lev Semyonovich Vygotskiy ta‘lim nazariyasiga tub burilish olib kirgan. Uning *«Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes»* (Cambridge: Harvard University Press, 1978, p. 84–91) asarida «yaqin rivojlanish zonasi» (Zone of Proximal Development) konsepsiyasi bayon etiladi. Bu nazariyaga ko‘ra, shaxs o‘z imkoniyatlarining chegarasida — ya‘ni mustaqil bajara olmaydigan, lekin boshqalar yordamida uddalay oladigan ishlar darajasida — eng faol rivojlanadi.

Vygotskiy (1978, p. 88) shunday yozadi: «Bolaning madaniy rivojlanishidagi har bir funksiya ikki marta, ikki darajada namoyon bo‘ladi: birinchidan, ijtimoiy darajada — odamlar o‘rtasida; ikkinchidan, individual darajada — bolaning ichki dunyosida.» Bu g‘oya bizning tadqiqotimizda juda muhim: etno-estetik qadriyatlar ham avvalo ijtimoiy muhitda — sinfda, guruhda, ustozning timsolida — namoyon bo‘ladi, so‘ngra talabaning shaxsiy e‘tiqodiga aylanadi.

Fransuz sotsiologi Pierre Bourdieuning *«The Forms of Capital»* (In J. Richardson (Ed.), Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. New York: Greenwood, 1986, p. 241–258) asari madaniy kapital tushunchasini ta‘lim sotsiologiyasiga olib kirdi. Bourdieu (1986, p. 243) ta‘kidlashicha, madaniy kapital — ya‘ni til bilimi, estetik did, madaniy amaliyotlar — shaxs ijtimoiy muhitida, ayniqsa oila va ta‘lim muassasasida, ongsiz ravishda «singib» ketadi.

Bourdieu nazariyasi bizga shuni tushuntiradi: nega ba‘zi talabalar milliy san‘at va estetikaga darhol mos tushsa, boshqalari uni begona his qiladi. Javob — ularning oldingi ijtimoiy tajribasida, ya‘ni kichikligidan qanday muhitda ulg‘ayganida yotadi. Ta‘lim muassasasi esa ushbu madaniy kapital boyligidagi farqlarni qisman qoplay oladi, agar pedagogik muhit bunga qulay bo‘lsa.

G‘arb nazariyotshunosligini O‘zbekiston pedagogik an‘anasi bilan bog‘lash uchun Abu Nasr al-Forobiyning *«Fozil odamlar shahri»* (Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993, 30–48-betlar) asariga murojaat etamiz. Al-Forobiy insonning ijtimoiy muhit orqali shakllanishini ta‘kidlaydi: «Shaxs yolg‘iz holda kamolotga erisha olmaydi; u doimo jamiyat va muloqot tizimiga ehtiyoj sezadi.» Bu fikr Vygotskiydan ham oldinroq aytilgan, lekin mohiyatan unga yaqin.

Abdulla Avloniyning *«Turkiy guliston yohud axloq»* (Toshkent: O‘qituvchi, 1992, 12–27-betlar) asarida milliy-ma‘naviy tarbiya masalalari bayon etiladi. Avloniy (1992, 15-bet) shunday yozadi: «Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir.» Bu fikr bugungi kun pedagoglari uchun ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan.

John Deweyning *«Art as Experience»* (New York: Minton, Balch & Company, 1934, p. 35–57) asarida estetik tajribani intellektual va ijtimoiy faoliyatdan ajratib bo‘lmasligi asoslanadi. Dewey (1934, p. 46) ta‘kidlaydi: «Estetik tajriba hayotiy tajribaning cho‘qqisi; u oddiy kundalik hayotdan ajralgan emas, balki uning chuqur va to‘liq ifodasidir.» Bu qarash etno-estetik tarbiyani faqat «san‘at darsidagina» cheklab qo‘ymaslikni tavsiya etadi.

Sotsiometrik muhit — bu faqat psixologik komfort yoki noqulaylik masalasi emas. U ta‘lim jarayonining o‘ziga xos «iqlimi» sifatida talabalarning o‘rganishga bo‘lgan munosabatini, shaxslararo ochiqlik darajasini va nihoyat — milliy qadriyatlarni o‘zlashtirishga tayyor bo‘lishini belgilaydi.

Tadqiqot jarayonida sotsiometrik muhitning uchta asosiy pedagogik funksiyasi aniqlandi:

Kommunikativ funksiya: guruh ichidagi ijtimoiy aloqalar talabalar o‘rtasida erkin muloqot maydonini hosil qiladi. Ijobiy sotsiometrik muhitda talabalar o‘z fikrlarini, shu jumladan milliy madaniyat va estetika haqidagi kuzatishlarini baham ko‘rishdan cho‘chimaydi.

Integrativ funksiya: guruhdagi yaxshi iqlim turli kelib chiqishli, turli madaniy tajribaga ega talabalarga birlashish imkonini beradi. Bu o‘z navbatida madaniyatlararo o‘zaro boyitish uchun zamin yaratadi.

Motivatsion funksiya: o‘qituvchi va sinfdoshlar tomonidan qabul qilinganlik hissi talabada ichki motivatsiyani oshiradi. U yangi, murakkab narsalarni — jumladan, estetik va ma‘naviy qadriyatlarni — o‘rganishga dadilroq kirishadi.

Ayniqsa e‘tiborli topilma shunda bo‘ldiki: sotsiometrik maqomi yuqori — ya‘ni tengdoshlari tomonidan ko‘proq qabul qilingan — talabalar estetik ijodkorlik mashg‘ulotlarida ham faolroq ishtirok etadi. Bu ikki ko‘rsatkich o‘rtasidagi bog‘liqlik statistik jihatdan ishonchli tarzda tasdiqlandi.

«Interiorizatsiya» — psixologiyada tashqi ijtimoiy tajribaning ichki e‘tiqod, his va munosabatga aylanish jarayonini bildiradi. Xo‘sh, milliy estetik qadriyatlar qanday qilib talabaning ichki dunyosiga kirib boradi?

Vygotskiy (1978, p. 57) jarayonni ikki bosqichli deb tavsiflaydi: «Har qanday funksiya bola rivojlanishida ikki marta paydo bo‘ladi: avval ijtimoiy darajada (interpsixologik), keyin individual darajada (intrapsixologik).» Biz ushbu sxemani etno-estetik qadriyatlarda qo‘llaganimizda quyidagi manzara chiqadi:

Birinchi bosqich (ijtimoiy): o‘qituvchi milliy musiqa, naqqoshlik yoki adabiyot asari haqida so‘zlaganda; sinfdoshlari o‘z madaniy tajribalarini ulashganda — talabada dastlabki «tashqi tanishlik» hosil bo‘ladi.

Ikkinchi bosqich (ichki singish): bu tanishlik guruhda ijobiy his-tuyg‘u bilan kuzatilsa — o‘qituvchi talabani hurmat bilan tinglasa, guruhda masxara qilish bo‘lmasa — u chuqur interiorizatsiyaga o‘tadi va shaxsiy qadriyatga aylanadi.

Uchinchi bosqich (ijodiy ifodalash): interiorizatsiya tugallanganida talaba o‘zlashtirilgan estetik qadriyatni o‘z ijodida — inshosida, loyihasida, kundalik nutqida — namoyon eta boshlaydi.

Demak, sotsiometrik muhit ushbu jarayonning «termostati» vazifasini bajaradi: muhit iliq va qabul qiluvchi bo‘lsa, interiorizatsiya tezlashadi; sovuq va rad etuvchi bo‘lsa, jarayon sekinlashadi yoki to‘xtaydi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi besh bosqichli konseptual model taklif etiladi:

Sotsiometrik muhit → ijtimoiy interaksiya sifati →Estetik idrok → madaniy kapital → etno-estetik qadriyatlar interiorizatsiyasi

Modelning har bir bo‘g‘ini alohida tavsifni talab etadi:

– Sotsiometrik muhit bosqichi: bu yerda guruh ichidagi munosabatlar haritasi (sotsiogramma) tuziladi. O‘qituvchi guruhning ijtimoiy tuzilmasini anglaydi va «chetlatilgan» talabalarni jamoaga qo‘shib olish uchun maqsadli ish olib boradi.

- Ijtimoiy interaksiya sifati bosqichi: o‘qituvchi hamkorlik asosidagi topshiriqlar, guruhli loyihalar va munozaralar orqali sifatli muloqotni ta‘minlaydi.
- Estetik idrok bosqichi: o‘qish jarayonida milliy musiqa, san‘at va adabiyot namunalarini ijtimoiy muhokama orqali taqdim etish. Bu erda emotsional rezonans juda muhim.
- Madaniy kapital shakllanishi bosqichi: Bourdieu nazariyasiga ko‘ra, talabalar guruh tajribasini individual madaniy resursga aylantiradi.
- Interiorizatsiya bosqichi: qadriyatlar shaxsiy e‘tiqod va estetik didi sifatida mustahkamlanadi.

Tadqiqot natijalari bir necha muhim xulosani beradi. Birinchidan, sotsiometrik maqomi yuqori (SM ≥ 0.6) talabalar etno-estetik faoliyat ko‘rsatkichlari bo‘yicha o‘rta va pastki guruh talabalaridan sezilarli darajada ustunlik qiladi (farq: 34%). Ikkinchidan, o‘qituvchining sotsiometrik salohiyati — ya‘ni uning talabalar bilan qanchalik yaqin emotsional aloqa o‘rnata olishi — interiorizatsiya jarayonining tezligi va sifatiga bevosita ta‘sir etadi.

Ayniqsa qiziqarli topilma: sotsiometrik muhiti past bo‘lgan guruhlarda talabalar milliy san‘at namunalarini «majburiy o‘qimish» sifatida idrok etgan, ijobiy muhitli guruhlarda esa u «shaxsiy kashfiyot» sifatida qabul qilingan. Bu ikki guruh o‘rtasidagi farq nafaqat motivatsiya, balki kognitiv natijalar bo‘yicha ham aniq ko‘rinib turadi.

Shuningdek, o‘qituvchining muloqot uslubi ham muhim omil ekani aniqlandi. «Subekt-subekt» tarzida muloqot qiladigan — ya‘ni talabani sherik sifatida ko‘ruvchi — pedagoglar guruhidagi sotsiometrik muhit an‘anaviy «subekt-obekt» uslubiga nisbatan ancha yuqori bo‘lgan. Bu esa qadriyat interiorizatsiyasini bevosita ragbatlantiruvchi omilga aylangan.

Tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik nazariyalar bilan izchil mos keladi, ammo bir qancha yangi nuanslarni ham ochib beradi.

Birinchidan, Vygotskiyning interiorizatsiya nazariyasi etno-estetik qadriyatlar sohasida ham o‘z kuchini to‘la tasdiqlaydi. Biroq tadqiqot bu jarayon uchun faqat «guruh» emas, balki aniq sotsiometrik strukturaning — ya‘ni kim kimni qanday qabul qilishining — ham ahamiyatli ekanini ko‘rsatdi. Bu Vygotskiy (1978, p. 90) ta‘kidlagan «muhit» tushunchasini yanada aniqlashtirishga imkon beradi.

Ikkinchidan, Bourdieu (1986, p. 248) nazariyasiga ko‘ra, ta‘lim muassasasi ijtimoiy tengsizlikni ko‘pincha takror hosil qiladi. Ammo bizning tadqiqot ko‘rsatdiki, maqsadli sotsiometrik boshqaruv — ya‘ni o‘qituvchi tomonidan guruh ichidagi munosabatlarni ongli tarzda yaxshilash — ushbu tengsizlikni qisman qoplash imkonini beradi. Bu Bourdieu nazariyasiga aniq «pedagogik korrektiv» sifatida qarash mumkin.

Uchinchidan, Al-Forobiy va Avloniy merosi bilan zamonaviy G‘arb nazariyalarini solishtirish shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy muhit orqali shaxsni shakllantirish g‘oyasi O‘rta Osiyo klassik pedagogikasida ham markaziy o‘rin egallagan. Bu bizga milliy pedagogik merosni xalqaro ilmiy tilda ifodalash imkonini beradi.

Tadqiqotning cheklovi sifatida shuni ta‘kidlash kerak: tanlab olingan namuna O‘zbekistonning faqat uchta oliy ta‘lim muassasasini qamrab olgan. Kelajakdagi tadqiqotlarda geografik qamrov kengaytirilishi, shuningdek, vaqt seriyali (longitudinal) yondashuv qo‘llanilishi lozim.

Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, oliy ta‘lim muassasalarida etno-estetik qadriyatlarni shakllantirish — bu faqat o‘quv dasturi yoki darslik masalasi emas. Bu, avvalo, insoniy muhit masalasi.

Talabalar milliy qadriyatlarni chuqur va barqaror o‘zlashtirishi uchun ularga bilim berish kifoya emas — bu bilimni his eta oladigan, erkin muhokama qila oladigan, o‘zini qabul qilingan his etadigan ijtimoiy makon kerak. Aynan shu maydon — sotsiometrik muhit — etno-estetik madaniyatning asosi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: pedagogik jarayonga sotsiometrik monitoring joriy etilishi; o‘qituvchilarni sotsiometrik boshqaruv usullari bo‘yicha o‘qitish; hamda milliy-estetik tarbiya dasturlarini guruh dinamikasini hisobga olgan holda loyihalash.

Kelajakdagi tadqiqotlarda raqamli ta‘lim muhitida sotsiometrik munosabatlarning etno-estetik qadriyatlarga ta‘sirini o‘rganish istiqbolli yo‘nalish sifatida ko‘zga tashlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Al-Forobiy, A. N. (1993). Fozil odamlar shahri. Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 30–48-betlar.
2.Avloniy, A. (1992). Turkiy guliston yohud axloq. Toshkent: O‘qituvchi, 12–27-betlar.
3. Bourdieu, P. (1986). The forms of capital. In J. Richardson (Ed.), Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. New York: Greenwood Press, pp. 241–258.
4. Dewey, J. (1934). Art as Experience. New York: Minton, Balch & Company, pp. 35–57.
5. Karimov, I. A. (2008). Yuksak ma‘naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: Ma‘naviyat, 40–67-betlar.
6. Moreno, J. L. (1953). Who Shall Survive? Foundations of Sociometry, Group Psychotherapy and Sociodrama. New York: Beacon House, pp. 34–89, 72.
7. Muslimov, N. A. (2004). Kasb ta‘limi o‘qituvchisining kasbiy shakllanishi. Toshkent: Fan, 55–80-betlar.
8. Musayeva, M. (2016). Milliy qadriyatlarni o‘quvchilarga singdirish yo‘llari. Toshkent: O‘qituvchi, 18–35-betlar.
9. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press, pp. 57, 84–91.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 8-oktabrdagi «Oliy ta‘limni rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida»gi Qarori. Toshkent: Adolat.

O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHILAR O‘RTASIDAGI SOTSIOMETRIK MUNOSABATLARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Atayeva Xulkaroy Murod qizi
Innovatsion rivojlanish agentligi mutaxassisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarning pedagogik-psixologik asoslari yoritilgan. Sotsiometriya metodining mohiyati, uning ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, sinf jamoasidagi shaxslararo munosabatlar tuzilmasi, o‘quvchilarning ijtimoiy maqomi, yetakchilik va ijtimoiy ajralish holatlari ko‘rib chiqilgan. O‘qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatlari, o‘quvchilarning individual xususiyatlari hamda sinfdagi psixologik muhitning sotsiometrik munosabatlarga ta’siri asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga tayangan holda, pedagogik amaliyotda sotsiometrik tahlildan foydalanishning samarali yo‘llari tavsiya etilgan.*

Kalit so‘zlar: *sotsiometriya, pedagogik psixologiya, shaxslararo munosabatlar, sinf jamoasi, ijtimoiy maqom, yetakchilik, psixologik muhit, o‘qituvchi, o‘quvchi, ta’lim jarayoni, kommunikatsiya, individual yondashuv.*

Ta’lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo‘lib, unda nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish, ijtimoiy muhitga moslashtirish va ijobiy munosabatlar tizimini shakllantirish ham asosiy vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, umumta’lim maktablarida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlar o‘quvchilarning bilim olish darajasi, psixologik holati hamda ijtimoiy faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, sotsiometrik munosabatlarni o‘rganish pedagogik psixologiyaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Sotsiometriya kichik guruhlardagi shaxslararo munosabatlarni aniqlash va tahlil qilishga qaratilgan ilmiy metod bo‘lib, u orqali guruh a’zolari o‘rtasidagi simpatiya va antipatiya, ijtimoiy yaqinlik darajasi, norasmiy yetakchilar va chetda qolgan shaxslar aniqlanadi. Sinf jamoasi ham aynan kichik ijtimoiy guruh sifatida qaraladi va undagi o‘zaro munosabatlar tizimi o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli sotsiometrik tahlil o‘qituvchi uchun muhim diagnostik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik-psixologik jihatdan o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlar bir qator omillar asosida shakllanadi. Ushbu omillarni chuqurroq tahlil qilish ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Birinchi omil - o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatlaridir. O‘qituvchi sinfdagi asosiy boshqaruvchi va yo‘naltiruvchi shaxs sifatida nafaqat bilim beruvchi, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi ham hisoblanadi. Uning adolatliligi o‘quvchilarda ishonchni shakllantiradi. Agar o‘qituvchi baholashda xolis bo‘lsa, barcha o‘quvchilarga teng munosabatda bo‘lsa, bu sinfda sog‘lom ijtimoiy muhitni yuzaga keltiradi. Aksincha, tarafkashlik yoki ayrim o‘quvchilarga alohida munosabat bildirish ijtimoiy tengsizlik hissini kuchaytiradi va sotsiometrik nomutanosiblikka olib keladi.

O‘qituvchining kommunikativ qobiliyati ham alohida ahamiyatga ega. Samarali muloqot o‘quvchilarni dars jarayoniga jalb etadi, ularning fikrini erkin ifoda etishiga imkon yaratadi. Ochiq va samimiy muloqot mavjud bo‘lgan sinflarda o‘quvchilar o‘zaro ham yaqinlashadi. Bundan tashqari, o‘qituvchining emotsional barqarorligi, sabr-toqati va pedagogik taktga rioya qilishi ham ijobiy sotsiometrik munosabatlarni shakllantiradi. O‘qituvchi o‘z hissiyotlarini boshqara olmasa yoki tez-tez salbiy munosabat bildirsa, bu o‘quvchilarning psixologik holatiga salbiy ta’sir qiladi.

Ikkinchi muhim omil - o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlaridir. Har bir o‘quvchi o‘ziga xos temperament, xarakter va ijtimoiy tajribaga ega bo‘lib, bu uning guruhdagi o‘rnini belgilaydi. Masalan, sangvinik yoki xolerik temperamentga ega o‘quvchilar ko‘proq faol, tashabbuskor va muloqotga kirishuvchan bo‘lib, ular ko‘pincha sinfda yetakchi rolni egallaydi. Flegmatik yoki melanxolik o‘quvchilar esa ko‘proq tortinchoq, kamgap bo‘lishi mumkin, bu esa ularning sotsiometrik tanlanish darajasini pasaytiradi.

O‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash darajasi ham muhim ahamiyatga ega. O‘ziga ishongan o‘quvchilar ijtimoiy faolroq bo‘ladi, boshqalar bilan tez aloqa o‘rnatadi. Past o‘zini baholash esa ijtimoiy chekinishga olib kelishi mumkin. Shuningdek, oilaviy muhit ham o‘quvchining ijtimoiy xulq-atvoriga ta’sir qiladi. Mehr-muhabbatga boy, qo‘llab-quvvatlovchi oilada tarbiyalangan o‘quvchilar odatda ijtimoiy jihatdan faol va ochiq bo‘ladi.

Uchinchi omil - sinf jamoasining umumiy ijtimoiy-psixologik muhitidir. Sinfdagi psixologik iqlim o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari, hamkorlik darajasi va umumiy kayfiyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Ijobiy muhit mavjud bo‘lgan sinflarda o‘quvchilar bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi, jamoaviy ishlarda faol ishtirok etadi va o‘zaro hurmat asosida munosabat o‘rnatadi. Bunday muhit o‘quvchilarning akademik muvaffaqiyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Salbiy psixologik muhit esa aksincha, nizolar, guruhlanish (klasterlash), kamsitish va ijtimoiy ajralish kabi holatlarni yuzaga keltiradi. Bunday vaziyatda ayrim o‘quvchilar yetakchilikni egallab, boshqalar ustidan hukmronlik qilishga intiladi, boshqalar esa passiv yoki izolyatsiyada qoladi. Bu esa sotsiometrik nomutanosiblikni kuchaytiradi va ta’lim samaradorligini pasaytiradi.

To‘rtinchi omil - ta’lim jarayonining tashkil etilish shakllari va pedagogik texnologiyalardir. Interfaol metodlardan foydalanish, guruhiy ishlash, muammoli vaziyatlar yaratish o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqotni kuchaytiradi. Masalan, kichik guruhlarda ishlash jarayonida o‘quvchilar bir-biri bilan yaqinroq tanishadi, hamkorlik qilishni o‘rganadi va o‘zaro ishonch shakllanadi. Bu esa ijobiy sotsiometrik aloqalarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Beshinchi omil - o‘qituvchining boshqaruv uslubi hisoblanadi. Demokratik boshqaruv uslubi mavjud bo‘lgan sinflarda o‘quvchilar o‘z fikrini erkin bildira oladi, qaror qabul qilishda ishtirok etadi va o‘zini jamoaning muhim a’zosi sifatida his qiladi. Avtoritar uslub esa aksincha, o‘quvchilarning faolligini pasaytiradi va ijtimoiy munosabatlarni cheklaydi.

Sotsiometrik tahlil natijalari o‘qituvchiga sinfdagi ijtimoiy tuzilmani aniq ko‘rish imkonini beradi. Bu orqali norasmiy yetakchilarni aniqlab, ularni ijobiy faoliyatga yo‘naltirish mumkin. Shuningdek, ijtimoiy jihatdan chetda qolayotgan o‘quvchilar bilan individual ishlash, ularni jamoaga integratsiya qilish muhim vazifa hisoblanadi. Bunda psixologik qo‘llab-quvvatlash, motivatsiyani oshirish va moslashtirilgan pedagogik yondashuvlardan foydalanish talab etiladi.

Yana bir muhim jihat - o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi emotsional aloqadir. Ijobiy emotsional aloqa mavjud bo‘lgan muhitda o‘quvchilar o‘zlarini xavfsiz va erkin his qiladi. Bu esa ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ijodiy fikrlashini rivojlantiradi va faol ishtirokini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlar ta’lim jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Ushbu munosabatlarni chuqur o‘rganish va to‘g‘ri boshqarish orqali sog‘lom psixologik muhit yaratish, har bir o‘quvchining ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini ta’minlash mumkin. Shu bois pedagoglar sotsiometriya metodidan tizimli ravishda foydalanishi va uni amaliy faoliyatiga tatbiq etishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Moreno J.L. Sociometry: Experimental Method and the Science of Society. — New York, 1951.
2. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Harvard University Press, 1978.
3. Leontyev A.N. Activity, Consciousness, and Personality. — Moscow, 1975.
4. Davydov V.V. Problems of Developmental Teaching. — Moscow, 1986.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. — Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
6. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. — Toshkent: O‘zbekiston, 2010.

ФОРМИРОВАНИЕ КУЛЬТУРНОГО МЫШЛЕНИЯ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ КАК ФАКТОР ГАРМОНИЗАТSII СОЦИОМЕТРИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Халмуратова Мухтарам Ульмасовна
преподаватель Кыргызско-Узбекского Международного университета им.Б.Сыдыкова
(Ош, Кыргызская Республика)
email: muhtaramhalmuratova1@gmail.com

Аннотация. В статье рассматривается проблема формирования культурного мышления будущих учителей начальных классов как фактора гармонизатsii социометрических отношений в образовательной среде. Представлены теоретические основы культурологического подхода, проанализированы взгляды отечественных и зарубежных ученых. Особое внимание уделено эмпирическому исследованию уровня сформированности культурного мышления студентов педагогических направлений и его влияния на характер межличностных отношений. Выявлены педагогические условия и эффективные методы формирования культурного мышления.

Ключевые слова: культурное мышление, будущий учитель, социометрия, педагогическая культура, начальная школа, культурологический подход.

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich maktab o‘qituvchilarida madaniy tafakkurning rivojlanishi ta'lim muhitida sotsiometriya munosabatlarini uyg‘unlashtirish omili sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada madaniy tadqiqotlar yondashuvining nazariy asoslari keltirilgan va rus va xalqaro olimlarning qarashlari tahlil qilingan. Pedagogika mutaxassisligi talabalarida madaniy tafakkurning rivojlanish darajasi va uning shaxslararo munosabatlar tabiatiga ta'sirini empirik o‘rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Madaniy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik shartlari va samarali usullari aniqlangan.

Kalit so‘zlar*:* madaniy tafakkur, kelajakdagi o‘qituvchi, sotsiometriya, pedagogik madaniyat, boshlang‘ich maktab, madaniy tadqiqotlar yondashuvi.

Abstract. The article examines the problem of the formation of cultural thinking of future primary school teachers as a factor in the harmonization of sociometric relations in the educational environment. The theoretical foundations of the cultural approach are presented, the views of domestic and foreign scientists are analyzed. Special attention is paid to the empirical study of the level of formation of cultural thinking of students in pedagogical fields and its impact on the nature of interpersonal relationships. The pedagogical conditions and effective methods of forming cultural thinking are revealed.

Keywords: cultural thinking, future teacher, sociometry, pedagogical culture, elementary school, cultural approach.

Введение

Современная система образования ориентируется на развитие личности педагога как носителя культуры и субъекта межкультурного взаимодействия. В условиях поликультурного общества возрастает значимость формирования культурного мышления будущего учителя, особенно в начальной школе, где закладываются основы межличностных отношений.

По мнению Е.В. Бондаревской, образование должно быть направлено на формирование «человека культуры» [4]. В свою очередь, Л.С. Выготский подчеркивал, что развитие мышления происходит в социокультурной среде [2].

Несмотря на теоретическую разработанность проблемы, недостаточно изученным остается вопрос влияния культурного мышления учителя на социометрические отношения учащихся, что и определяет актуальность данного исследования.

Культурное мышление — это интегративное качество личности, включающее знание культурных норм и ценностей, способность к межкультурному взаимодействию и умение применять культурные знания в педагогической практике.

А.В. Брушлинский отмечает, что мышление формируется в процессе активного взаимодействия личности с окружающей средой [3].

Культурное мышление будущего учителя включает три компонента:

1. **Когнитивный** — знание культуры
2. **Ценностный** — принятие культурного разнообразия
3. **Поведенческий** — культуросообразное поведение

Культурологический подход рассматривает образование как процесс включения личности в культуру, что позволяет формировать ценностные ориентatsii и социально значимые качества обучающихся. Е.В. Бондаревская определяет воспитание как «процесс становления культурной идентичности личности» [4], подчеркивая его глубокую связь с освоением культурных норм и смыслов. В свою очередь, Г. Хофстеде доказал, что культура оказывает существенное влияние на поведение и взаимодействие людей [6], что особенно важно учитывать в образовательной среде. J. Banks акцентирует внимание на значимости мультикультурного образования в формировании толерантности и социальной компетентности личности [7]. Таким образом, культурологический подход выступает методологической основой формирования культурного мышления.

Социометрические отношения отражают структуру межличностных взаимодействий в группе и включают такие параметры, как статус ученика в коллективе, уровень его принятия другими участниками и характер взаимодействий. По мнению Г.С. Батищева, социальные связи формируются под влиянием культурных факторов [1], что подтверждает важность учета культурного контекста в образовательном процессе. Учитель с развитым культурным мышлением способен формировать благоприятный психологический климат в коллективе, предотвращать конфликтные ситуatsii и эффективно развивать сотрудничество между обучающимися.

Цель и гипотеза исследования

Цель:

выявить влияние уровня культурного мышления будущих учителей на характер социометрических отношений.

Гипотеза:

чем выше уровень культурного мышления будущего учителя, тем более гармоничны социометрические отношения в учебной группе.

В исследовании приняли участие 60 студентов педагогического направления 2–4 курсов Гуманитарно-педагогического факультета Кыргызско-Узбекского Международного университета им.Б.Сыдыкова. Для получения достоверных данных был использован комплекс взаимодополняющих методов исследования, включающий

авторскую методику диагностики культурного мышления, социометрию по методу Дж. Морено, наблюдение, а также анкетирование.

Оценка уровня сформированности культурного мышления проводилась на основе выделенных критериев, которые позволили дифференцировать три уровня его развития. Высокий уровень характеризуется осознанным межкультурным взаимодействием, способностью учитывать культурные особенности в коммуникatsii и проявлением толерантности. Средний уровень отражает частичное понимание культурных различий, при котором студенты в определённых ситуациях учитывают культурный контекст, но не всегда делают это последовательно. Низкий уровень свидетельствует об игнорировании культурных факторов, недостаточной сформированности межкультурной чувствительности и ограниченном понимании значимости культурного разнообразия.

Анализ полученных результатов показал, что 28% студентов продемонстрировали высокий уровень культурного мышления, 47% находятся на среднем уровне, тогда как у 25% респондентов выявлен низкий уровень его сформированности. Полученные данные свидетельствуют о преобладании среднего уровня развития культурного мышления у большинства студентов, что указывает на необходимость целенаправленной педагогической работы по его дальнейшему развитию.

Социометрические показатели:

- студенты с высоким уровнем культурного мышления получили больше положительных выборов;
- низкий уровень коррелирует с изоляцией в группе.

Выводы исследования показывают, что наблюдается прямая зависимость между уровнем культурного мышления студентов и качеством их межличностных отношений. Полученные результаты подтверждают выдвинутую гипотезу исследования и свидетельствуют о значимой роли культурного мышления в формировании эффективного взаимодействия в образовательной среде. Установлено, что студенты с высоким уровнем культурного мышления проявляют развитую эмпатию, способны к конструктивному и результативному взаимодействию, а также демонстрируют выраженные лидерские качества в группе. Данные положения согласуются с идеями Л.С. Выготского о социальной природе мышления, согласно которым развитие мышления происходит в процессе социального взаимодействия и обусловлено культурно-историческим контекстом [2].

На основе проведённого исследования были определены ключевые педагогические условия, способствующие формированию культурного мышления студентов. К их числу относятся культурно-ориентированное содержание образования, обеспечивающее включение межкультурных аспектов в учебный процесс; использование активных методов обучения, стимулирующих познавательную и коммуникативную деятельность обучающихся; развитие рефлексии как способности осмысливать собственный опыт и поведение; а также организация практики в поликультурной среде, позволяющей применять полученные знания в реальных условиях взаимодействия.

В рамках реализatsii указанных условий особое значение приобретают методы формирования культурного мышления. Так, применение кейс-метода способствует развитию аналитического мышления, так как требует от студентов анализа ситуatsiй с учётом культурного контекста. Дискуссия формирует толерантность, развивая умение принимать и уважать различные точки зрения. Ролевая игра способствует развитию

эмпатии через проживание различных социальных и культурных ролей. Проектная деятельность обеспечивает формирование практической готовности к межкультурному взаимодействию, позволяя студентам интегрировать знания и навыки в процессе решения реальных или приближенных к реальности задач.

Заключение

Проведённое исследование подтвердило, что культурное мышление будущего учителя является значимым фактором гармонизatsii социометрических отношений в образовательной среде. Основные выводы заключаются в том, что выявлена прямая зависимость между уровнем культурного мышления и статусом личности в группе, доказана необходимость внедрения культурологического подхода в профессиональную подготовку педагогов, а также определены эффективные педагогические условия, способствующие развитию данного качества. Полученные результаты позволяют утверждать, что развитие культурного мышления способствует не только улучшению межличностного взаимодействия, но и повышению общей педагогической компетентности будущих специалистов. Особое значение приобретает системное включение межкультурного компонента в содержание образовательных программ высшей школы. Это требует пересмотра традиционных подходов к обучению и акцентирования внимания на формировании ценностных ориентatsiй и коммуникативных навыков студентов. Кроме того, важно развивать у будущих учителей способность к рефлексии и критическому осмыслению культурного разнообразия. Практическая значимость исследования заключается в возможности использования его результатов при разработке учебных курсов и методических рекомендatsiй. Перспективы дальнейших исследований связаны с созданием и апробatsieй комплексных программ формирования культурного мышления, а также с изучением их влияния на профессиональное становление будущих педагогов.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1.Батищев Г.С. Социальные связи человека в культуре. – М., 1987.
2. Выготский Л.С. Психология развития человека. – М., 1984.
3. Брушлинский А.В. Психология мышления. – М., 2002.
4. Бондаревская Е.В. Педагогика: личность в гуманистической теории. – Ростов н/Д, 1995.
5. Исаев И.Ф. Педагогическая культура преподавателя. – М., 2002.
6. Hofstede G. Culture’s Consequences. – London, 2001.
7. Banks J.A. Multicultural Education. – New York, 1995.
8. Хуторской А.В. Современная дидактика. – СПб., 2001.

ZAMONAVIY TA’LIMDA SOTSIOMETRIK MUNOSOBATLAR ORQALI O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI O‘RTASIDAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLAR MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Kojabaeva Gulistan Talasbaevna
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Pedagogogik mahorat markaz diorektori
(Nukus, O‘zbekiston) electron pochta: gulistankojabaeva@mail.ru

Annotasiya. *Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlar madaniyatini rivojlantirishda sotsiometrik yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Sotsiometriya orqali sinf jamoasidagi ijtimoiy-psixologik muhitni aniqlash, ijobiy munosabatlarni shakllantirish va ta’lim samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *sotsiometriya, shaxslararo munosabatlar, pedagogik muloqot, intellekt, ta’lim sifati, ijtimoiy muhit.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar yoshlarga xorijdagi tengdoshlari bilan fan, madaniyat, tadbirkorlik, sport va boshqa sohalarda faol muloqot qilish uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda, bu ularga global miqyosda o‘z salohiyatini namoyish etish imkonini bermoqda. Davlatimizda fan, intellektual salohiyat, zamonaviy kadrlar tayyorlash va yuqori texnologiyalar bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi kerakligi talab qilinmoqda. Ijodiy va innovatsion fikrlashni rivojlantirish muhim ko‘rsatkich sifatida e’tirof etilmoqda. Bularning barchasi globallashuv talablariga asoslanib, bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘qitish mahoratini oshirishni taqozo etadi.

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimi nafaqat bilim berish, balki shaxslararo munosabatlarni shakllantirish, ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish vazifasini ham bajaradi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida sotsiometrik munosabatlar, ya’ni o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalar, o‘zaro tanlash va muloqot tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon samaradorligi esa bevosita o‘qituvchining kasbiy mahoratiga bog‘liq.

Ta’lim sotsiometriyasi ta’lim jamiyatning barcha jabhalariga ijtimoiy, iqtisodiy va axloqiy sohalarga ta’sirini baholashga yordam beradi. Lekin, eng avvalo, u ichki ta’lim masalalarini o‘rganadi. Boshqaruv va tashkil etish, kasbiy tayyorgarlik sifati va o‘qitish salohiyatini baholaydi.

Sotsiometrik munosabatlar madaniyati deganda biz umuminsoniy gumanistik qadriyatlarga muvofiq shaxslararo o‘zaro ta’sir jarayonida odamlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni tushunamiz. Shaxslararo munosabatlarning rivojlangan madaniyati ta’lim jarayonida inson xatti-harakatlarini tartibga soluvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi va shaxsning ijtimoiy va axloqiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Yaxshi xulq-atvor darajasida inson endi norma va qoidalarni qayerda, qachon, kim bilan yoki qay darajada qo‘llash haqida o‘ylamaydi. Axloqiy norma va qoidalar insonning "qonida va tanasida" bo‘lib qolgan va shuning uchun u hamma joyda, har doim va hamma bilan xushmuomala va odobli bo‘ladi, ya’ni u har qanday vaziyatda o‘zini munosib tutadi. Bunday xatti-harakatlar uning xarakterining tarkibiy qismidir. Agar inson shaxslararo munosabatlarning rivojlangan madaniyati darajasiga yetgan bo‘lsa, bu uning nima qilish kerakligini, qanday qilishni va nima uchun qilishni bilishini, qilayotgan ishlari va aytayotgan gaplarining oqibatlarini tushunib, oldindan bilishini anglatadi.

Bu daraja shaxslararo munosabatlar madaniyatini rivojlantirishning eng yuqori cho‘qqisi va shaxslararo munosabatlar madaniyati sohasida o‘zini yanada takomillashtirish uchun zarur shartdir.

Sotsiometrik tadqiqotlar nafaqat zamonaviy ta’lim sohasidagi ishlarning hozirgi holatini aniqlaydi va baholaydi, balki kelajakdagi ta’lim natijalarini ham bashorat qiladi. Pedagogik bashorat, obyektiv ilmiy bashorat sifatida kelajakdagi harakatlar usuliga pedagogik texnologiyalar, ta’lim jarayonining samaradorligi va o‘qitish va metodologik qo‘llab-quvvatlashga qarab, dastur ishlab chiqish va ta’limning rivojlanish maqsadlariga erishishning potentsialini aniqlash imkonini beradi.

Pedagogikadagi sotsiometrik tadqiqot dasturi asosan zarur ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish tartibini belgilaydi. U tadqiqot obyekti va predmetini dastlabki tahlil qilishni, maqsad va vazifalarni tavsiflashni, asosiy tushunchalar va ishchi gipotezalarni ishlab chiqishni, ma’lumotlarni to‘plash usullarini tavsiflashni, ma’lumotlarni tahlil qilish usulini tavsiflashni va xulosalarni shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Bugugi kunda pedagoglar va psixologlar ta’lim jarayonining metodik jihatlari, instrumentariysi sifatida ko‘plab innovatsion g‘oyalarni ilgari surmoqdalar. Chunki ta’lim vositalari, metodlari va texnologiyalari uning sifatini ta’minlashda etakchi ahamiyat kasb etadi. Ularning muayyan shart-sharotlarida qo‘llanilishi, pedagogik samaradorlikka egaligini baholash, har bir metod yoki texnologiyaning afzal jihatlari, kamchiliklari ta’lim sifatiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Bunday yondashuvlar nafaqat o‘qituvchilar uchun muhim ahamiyat kasb etadi, balki o‘quvchi uchun ham bilish faoliyatini rivojlantiruvchi vosita hisoblanadi [Safarova R.G. 11].

Sotsiometrik tadqiqotlar o‘tkazishda bir vaqtning o‘zida bir nechta ko‘rsatkichlar asosida tanlab olish tavsiya etiladi. Masalan, o‘qituvchilar tarkibini tahlil qilishda jins, yosh, malaka darajasi, ish staji, ish haqi va boshqalarni hisobga olish foydalidir. Shuningdek, boshqa asosiy tadqiqot o‘zgaruvchilari bilan o‘zaro bog‘liqlikni o‘rnatish ham muhimdir. Masalan, kasb-hunar ta’limi rahbarining malaka darajasi boshqa ko‘rsatkichlarning aksariyati bilan chambarchas bog‘liq va yosh ko‘rsatkichi ham tegishli ko‘rsatkichlarga olib keladi.

Amaliyot ko‘p bosqichli tanlab olishning samaradorligini ko‘rsatdi, bunda ko‘rsatkichlarning tegishli guruhlari oldindan tanlanadi va keyin ushbu tanlangan guruhlar ichida tanlanadi. Masalan, tumandagi barcha korxonalar ro‘yxatini tuzish, keyin ma’lum miqdordagi korxonalarni tanlash, kasb-hunar ta’limi muassasalarini bitirganlarning ro‘yxatini ushbu korxonalardan olish va ulardan kerakli ma’lumotlarni olish mumkin.

Bilish jarayonida shaxs har xil bilimlarni oladi. Masalan, hayot faoliyati mahsuli haqidagi bilimlar – bu qadryatlarning shaxsiy tizimi bo‘lib, ular oddiy qadriyatlardan shu bilan farqlanadiki, ular shaxs uchun shaxsiy ahamiyatga ega, ular tanlashda, qaror qabul qilishda qadriyatli mo‘ljal bo‘lib, faoliyatda rag‘batlantiruvchi kuch, shaxsiy qiziqish bo‘lib xizmat qiladi [Daminov O.O. 100].

Zamonaviy ta’limda sotsiometrik munosobatlarni shakillantirishda o‘qituvchi kadrlarning kasbiy mahoratini, ularning axloqiy fazilatlarini zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga muvofiq shakllantirish va uzluksiz rivojlantirishni ta’minlash kerak. O‘qitish usullarini optimal tashkil etish mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatini ta’minlaydi. O‘qituvchilarda pedagogik mahoratni rivojlantirish ijodiy ko‘nikmalarni, muloqot madaniyatini va pedagogik texnika ko‘nikmalarini, o‘qitishning salohiyatini rivojlantirishni, kuzatuvchanlik, ijodkorlik va ilg‘or pedagogik amaliyotlarni mustaqil o‘zlashtirish sirlarini

o‘rgatishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, u o‘qitish va o‘rganish jarayonida diqqat va bilimlarni boshqarish, ko‘nikmalar va ruhiy holatlar ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘quvchilarga mafkuraviy va siyosiy ta’lim berish orqali o‘qituvchi tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot va tafakkurning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rgatadi, yoshlarni ishga tayyorlaydi, mustahkam professional rivojlanishga ko‘maklashadi va muhim ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlarni tez va sifatli amalga oshirishni ta’minlaydi.

Zamonaviy ta’lim nafaqat bilim berishga, balki uyg‘un shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishga ham qaratilgan. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish ayniqsa muhimdir, chunki ular o‘rganish motivatsiyasiga, psixologik muhitga va o‘rganish samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Madaniy yondashuv bizga ta’lim jarayonini madaniyatlar, qadriyatlar va udumlarning o‘zaro ta’siri uchun makon sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Maktab jamiyat ko‘zgusidir, shuning uchun o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlar madaniyatini rivojlantirish ham maqsad, ham ijobiy ijtimoiy o‘zgarishlarning natijasidir. Bundan tashqari, dunyoga, odamlarga va o‘ziga ijodiy, gumanistik yondashuvga ega faol shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan innovatsion maktablarning paydo bo‘lishi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida yangi shaxslararo munosabatlarni talab qiladi.

Ma’lumki, bolalarning muloqotga bo‘lgan ehtiyoji bosqichma-bosqich rivojlanadi. Dastlab, bu kattalarning e’tiborini, keyin esa hamkorlikni istaydi. Keyinchalik, bolalar nafaqat hamkorlik qilishni, balki hurmatga sazovor bo‘lishni ham xohlashadi va nihoyat, o‘zaro tushunishga ehtiyoj paydo bo‘ladi. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar va ularning bu munosabatlardagi o‘rni ularning o‘zlariga qanday qarashlarini belgilaydi. Munosabatlarni tashkil etish muammosi ta’lim va tarbiya ishlarida markaziy o‘rin tutadi. Bu tasodif emas, shunki bolalar guruhi ichida o‘qituvchi uchun alohida e’tibor va kuch talab qiladigan munosabatlar shakillanadi.

Noto‘g‘ri pedagogik muloqot qo‘rquv, ishonchsizlik, diqqat, xotira va ishlashning pasayishi, nutq dinamikasining buzilishi va natijada o‘quvchilarda stereotipik bayonotlarni keltirib chiqaradi. Ularning mustaqil fikrlash istagi va qobiliyati pasayadi va xulq-atvor noqulayligi ortadi. Oxir-oqibat, o‘qituvchiga va ko‘pincha fanga nisbatan doimiy salbiy munosabat rivojlanadi. O‘qituvchiga nisbatan bu tushkunlik ba’zi o‘quvchilarda bir necha yil davom etadi.

O‘qituvchilarni tizimli sotsiometrik tadqiqotlarga jalb qilish ularning kasbiy tayyorgarligiga, pedagogik ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlariga tadqiqot amaliyoti bo‘yicha maxsus kursni kiritishga va ushbu mavzuni o‘qituvchilarni tayyorlash tizimiga kiritishga ehtiyoj tug‘diradi. Bu ehtiyoj amalda tobora ko‘proq sezilmoqda. Professor V.I.Lisov haqli ravishda ta’kidlaganidek, "Birinchidan, ta’lim-tarbiya tizimida nafaqat ma’lum sohalardagi fan mutaxassislarini, balki ta’lim faoliyatining ma’lum sohalarini boshqarish sohasidagi mutaxassislarni ham rivojlantirish va ko‘paytirish zarurati tobora ortib bormoqda. Ta’lim faoliyati sohasida menejerlarni tayyorlash vazifasi hozirgi kunda barcha darajadagi va ta’lim-tarbiya turlaridagi eng murakkab muammolardan biridir" [Лисов В.И. 123]. Shuni ta’kidlash kerakki, ta’limni boshqarish muammolarini hal qilish vaziyatni baholashning obyektiv usullaridan biri sifatida sotsiometrik tadqiqotlar natijalariga asoslanishi kerak.

O‘qituvchi sotsiometrik munosabatlarni boshqaruvchi asosiy subyekt hisoblanadi. Uning pedagogik yondashuvi quyidagi omillar orqali muhim ahamiyat kasb etadi. Adolatli va xolis baholash, har bir o‘quvchiga individual yondashuv, muloqot madaniyatini shakllantirish, ijtimoiy

faoliyatlarni tashkil etishdan iborat. Shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchilar o‘rtasidagi yashirin ziddiyatlarni aniqlash va ularni bartaraf etishda muhim vositachi bo‘lib xizmat qiladi. Sotsiometrik yondashuvlar zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlar madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Interfoal metodlar orqali sinf jamoasidagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilash, o‘quvchilarning faolligini oshirish va ta’lim sifatini yuksaltirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Safarova R.G. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar. Monografiya. Science and innovation. 2023 – 190 bet.
2. Daminov O.O. Kasbiy pedagogika. -T.: Adabiyot uchquni, 2018, 256 bet
3. Лисов В. И. Совершенствование управления кадровым потенциалом: концептуальные и методические положения, их реализация на примере образовательных учреждений «Менеджмент и бизнес-администрирование» 2009, № 1, ст. 122-153

SOTSIOMETRIK MUNOSABATLAR ASOSIDA O‘QUVCHILARNING MA’NAVIY-AXLOQIY RIVOJLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH: SHARQ TARBIYA MODELLARI KONTEKSTIDA

Surayyo Raximova Otabek qizi
Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘quvchilar jamoasidagi sotsiometrik munosabatlarning nazariy asoslari va ularning ma’naviy-axloqiy rivojlanishga ta’siri chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotda Sharq tarbiya modellari bilan sotsiometrik yondashuvning integratsiyasi asosida o‘quvchilarda ijtimoiy hamkorlik, axloqiy barqarorlik va shaxsiy kamolotni rivojlantirish mexanizmlari ishlab chiqiladi. Natijalar sotsiometrik maqom va axloqiy sifatlar o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *sotsiometriya, ma’naviy-axloqiy tarbiya, jamoa, Sharq pedagogikasi, ijtimoiy maqom, o‘quvchi shaxsi*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri bu – o‘quvchilarning nafaqat intellektual salohiyatini, balki ularning ma’naviy-axloqiy kamolotini ham ta’minlashdan iboratdir. Globallashuv jarayonlari, axborot oqimining keskin ortishi hamda ijtimoiy qadriyatlar transformatsiyasi sharoitida yosh avlodning axloqiy barqarorligini saqlash va rivojlantirish muammosi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayonda o‘quvchilar faoliyat yuritadigan ijtimoiy muhit, ayniqsa sinf jamoasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi hal qiluvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, sotsiometrik munosabatlarni o‘rganish va ularni tarbiyaviy jarayonga ongli ravishda integratsiya qilish zarurati yuzaga keladi.

Sotsiometrik yondashuv ilk bor Jacob L. Moreno tomonidan asoslab berilgan bo‘lib, u kichik guruhlardagi shaxslararo tanlov va munosabatlarni aniqlash orqali jamoaning ichki tuzilmasini tahlil qilish imkonini yaratadi. Uning fikricha, har qanday guruhda rasmiy tuzilma bilan bir qatorda norasmiy, ya’ni emotsional tanlovlarga asoslangan yashirin tuzilma ham mavjud bo‘lib, aynan shu tuzilma shaxs rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Kurt Lewin tomonidan ishlab chiqilgan “maydon nazariyasi” ham shaxs xulq-atvorining uning atrofidagi ijtimoiy-

psixologik muhit bilan bevosita bog‘liqligini asoslab beradi. Bu nazariyalar o‘quvchilar jamoasidagi ijtimoiy aloqalarni chuqur o‘rganish orqali tarbiya jarayonini samarali tashkil etish mumkinligini ko‘rsatadi.

O‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishini tushuntirishda Lawrence Kohlberg ning axloqiy rivojlanish bosqichlari nazariyasi muhim o‘rin tutadi. Unga ko‘ra, shaxsning axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati bosqichma-bosqich rivojlanadi va bu jarayonda ijtimoiy muhit, ayniqsa tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlar muhim rol o‘ynaydi. Lev Vygotsky esa rivojlanishning ijtimoiy tabiati haqidagi qarashlari orqali bilim va qadriyatlar muloqot jarayonida o‘zlashtirilishini ilmiy asoslab bergan. Bu yondashuvlar sotsiometrik munosabatlarning o‘quvchi shaxsini shakllantirishdagi bevosita ahamiyatini tasdiqlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sinf jamoasida har bir o‘quvchi ma’lum bir sotsiometrik maqomga ega bo‘ladi. Ushbu maqomlar odatda lider, qabul qilingan, izolyatsiyalangan va rad etilgan kabi toifalarga ajratiladi. Lider o‘quvchilar ko‘pincha faol, tashabbuskor va boshqalar tomonidan hurmat qilinadigan shaxslar bo‘lib, ularning axloqiy ko‘rsatkichlari nisbatan yuqori bo‘ladi. Qabul qilingan o‘quvchilar jamoaga moslashgan, barqaror psixologik holatga ega bo‘ladi. Izolyatsiyalangan o‘quvchilar esa ijtimoiy aloqalarning yetishmasligi sababli o‘ziga ishonchsizlik, ichki tortinish va passivlikka moyil bo‘lishadi. Eng muammoli toifa sifatida rad etilgan o‘quvchilar ajralib turadi, chunki ularda agressivlik, konfliktga moyillik va axloqiy og‘ishlar kuzatilishi ehtimoli yuqori bo‘ladi.

Mazkur holat Social Learning Theory doirasida ham izohlanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, shaxs xulq-atvori kuzatish va taqlid qilish orqali shakllanadi. Agar o‘quvchi ijobiy ijtimoiy muhitda bo‘lsa, u ham ijobiy xulq-atvorni o‘zlashtiradi, aksincha, salbiy muhit axloqiy rivojga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Demak, sotsiometrik munosabatlar faqat psixologik ko‘rsatkich emas, balki axloqiy rivojlanishning muhim determinantidir.

Shu o‘rinda Sharq tarbiya modellari alohida ahamiyat kasb etadi. Sharq pedagogik tafakkuri tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, unda jamoaviylik, mehr-oqibat, o‘zaro hurmat va axloqiy poklik asosiy qadriyatlar sifatida qaralganini ko‘ramiz. Abu Nasr Forobiy o‘zining ijtimoiy-falsafiy qarashlarida jamiyat uyg‘unligini shaxslarning o‘zaro hamjihatligi bilan bog‘laydi. Abu Ali ibn Sino esa tarbiyada axloqiy fazilatlarni shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida ko‘rsatadi. Alisher Navoiy asarlarida insonparvarlik, saxovat va halollik kabi fazilatlar ulug‘lanadi.

Mazkur ilmiy qarashlar zamonaviy o‘zbek pedagogikasida ham davom ettirilmoqda. Xususan, mahalliy olimlarimiz o‘z tadqiqotlarida o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar va ijtimoiy muhitning o‘zaro bog‘liqligini asoslab beradi. Ularning fikricha, tarbiya jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, balki o‘quvchilar o‘rtasida ijobiy munosabatlarni shakllantirish orqali amalga oshirilishi lozim. Bu yondashuv sotsiometrik munosabatlarning tarbiyaviy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuningdek, ta’lim jarayonida jamoaviylik va ijtimoiy faollikni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. O‘quvchilarni jamoa orqali tarbiyalash, ularni ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllantirish zarurligini ta’kidlanadi. Bu esa sotsiometrik yondashuv bilan bevosita uyg‘unlashadi, chunki sotsiometriya aynan jamoa ichidagi ijtimoiy aloqalarni aniqlash va boshqarishga xizmat qiladi.

Sharq tarbiya modelining o‘ziga xosligi shundaki, u shaxsni faqat individual mavjudot sifatida emas, balki jamiyat bilan uzviy bog‘liq ijtimoiy mavjudot sifatida talqin etadi. Shu bois, ushbu model sotsiometrik yondashuv bilan uyg‘unlashganda juda samarali pedagogik mexanizmga aylanadi. Amaliy jihatdan bu quyidagilarda namoyon bo‘ladi: sinfda ijobiy

psixologik iqlim yaratish, o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish, o‘zaro yordam va hurmat muhitini shakllantirish, shuningdek, ijtimoiy izolyatsiyani kamaytirish.

Tadqiqot natijalari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, sotsiometrik munosabatlarni boshqarish orqali o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishini sezilarli darajada takomillashtirish mumkin. Buning uchun, avvalo, jamoadagi ijtimoiy tuzilmani muntazam ravishda diagnostika qilish zarur. Sotsiometrik tahlil yordamida muammoli o‘quvchilar aniqlanadi va ular bilan individual ishlash imkoniyati yaratiladi. Keyingi bosqichda esa maqsadli pedagogik ta’sir choralari amalga oshiriladi. Bular qatoriga psixologik treninglar, jamoaviy faoliyatlar, rolli o‘yinlar va axloqiy muhokamalar kiradi. Ushbu jarayonda Sharqona qadriyatlarni singdirish, ya’ni hurmat, sabr, mehr-oqibat kabi fazilatlarni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, o‘qituvchining shaxsiy namunasini ham alohida ta’kidlash lozim. Chunki o‘quvchilar ko‘pincha o‘qituvchining xulq-atvorini kuzatish orqali o‘rganadilar. Agar o‘qituvchi adolatli, mehribon va talabchan bo‘lsa, bu bevosita sinfdagi ijtimoiy muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmat va ishonch mustahkamlanadi.

Xulosa qilib aytganda, sotsiometrik munosabatlar o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishida muhim, ammo ko‘pincha yetarlicha baholanmaydigan omil hisoblanadi. Ularni Sharq tarbiya modellari bilan uyg‘unlashtirish orqali ta’lim jarayonida sifat jihatidan yangi bosqichga erishish mumkin. Bunday yondashuv o‘quvchilarni nafaqat bilimli, balki yuksak axloqli, ijtimoiy faol va jamiyatga foydali shaxslar etib tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Moreno, J. L. (1934). Who Shall Survive? Beacon House.
2. Lewin, K. (1951). Field Theory in Social Science. Harper & Row.
3. Kohlberg, L. (1981). Essays on Moral Development. Harper & Row.
4. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society. Harvard University Press.
5. Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Prentice Hall.
6. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri.
7. Safarova, R. (2019). O‘quvchilar ma’naviy tarbiyasi masalalari. Toshkent.
8. Ibragimov, X. (2018). Pedagogik jarayonda jamoaviylikni rivojlantirish.
9. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
10. Karimov, I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.

TALABALARNING O‘QUV TASHABBUSKORLIGINI OSHIRISHDA SOTSIOMETRIK YONDASHUVNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Azimova Nilufar Nuriddinovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talabalarning o‘quv tashabbuskorligini oshirishda sotsiometrik yondashuvning nazariy-metodologik asoslari tahlil etiladi. Oliy ta’lim muassasalarida talabalar jamoasida shakllanadigan sotsiometrik munosabatlarning mohiyati, ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hamda o‘quv faoliyatiga ta’siri ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Maqolada sotsiometriya nazariyasi asoschisi Jacob Morenoning qarashlari, shuningdek, Lev Vygotskyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi hamda Edward Deci va Richard Ryanning motivatsiyaga oid yondashuvlari integratsiyalashgan holda yoritiladi. Talabalar jamoasidagi ijobiy sotsiometrik muhit o‘quv tashabbuskorligini rivojlantirishning muhim omili sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, sotsiometrik yondashuv asosida talabalarning o‘quv tashabbuskorligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari, shart-sharoitlari va metodik imkoniyatlari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *sotsiometrik yondashuv, o‘quv tashabbuskorligi, talabalar jamoasi, ijtimoiy-psixologik muhit, motivatsiya, o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi, kommunikativ munosabatlar, pedagogik qo‘llab-quvvatlash, refleksiya, oliy ta’lim, hamkorlik, tashabbuskorlik*

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabalarning o‘quv tashabbuskorligini rivojlantirish masalasi dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, balki talabalarning mustaqil fikrlashi, tashabbus ko‘rsatishi, ijtimoiy faolligi va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompleks tizimga aylanmoqda. Shu bois talabalarning o‘quv tashabbuskorligini shakllantirish va rivojlantirishda pedagogik, psixologik hamda ijtimoiy omillarni uyg‘un holda o‘rganish zarurati ortib bormoqda.

O‘quv tashabbuskorligi - bu talabaning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishi, mustaqil qaror qabul qilishi, yangi g‘oyalarni ilgari surishi va o‘z bilimini chuqurlashtirishga intilishi bilan tavsiflanadigan murakkab shaxsiy sifatdir. Ushbu sifatning shakllanishi ko‘p jihatdan talabaning ichki motivatsiyasi, qiziqishi, refleksiv fikrlashi hamda ta’lim muhitidagi ijtimoiy-psixologik sharoitlarga bog‘liqdir. Ayniqsa, talabalar jamoasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi - ya’ni sotsiometrik aloqalar - o‘quv tashabbuskorligining rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Sotsiometrik yondashuv ijtimoiy guruh a’zolari o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash, tahlil qilish va ularni boshqarish imkonini beruvchi ilmiy-uslubiy asos hisoblanadi. Ushbu yondashuvning asoschisi Jacob Moreno bo‘lib, u sotsiometriyani “guruh ichidagi hissiy tanlovlar va o‘zaro munosabatlarni o‘lchash usuli” sifatida izohlaydi. Jacob Moreno tomonidan ishlab chiqilgan sotsiometriya nazariyasi ijtimoiy guruh ichidagi yashirin va ochiq munosabatlarni chuqur tahlil qilishga qaratilgan muhim ilmiy yondashuv hisoblanadi. Moreno sotsiometriyani nafaqat oddiy diagnostik usul, balki guruh ichidagi ijtimoiy jarayonlarni boshqarish va takomillashtirishga xizmat qiluvchi amaliy mexanizm sifatida talqin etadi. Uning fikricha, har qanday guruh - bu faqat tashkiliy tuzilma emas, balki murakkab hissiy-psixologik bog‘lanishlar

tizimi bo‘lib, aynan shu bog‘lanishlar shaxsning faoliyati va rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Moreno “ijtimoiy tanlov” tushunchasini ilgari surib, guruh a’zolari o‘rtasidagi yaqinlik, simpatiya va antipatiya munosabatlari shaxsning ijtimoiy maqomi va faolligini belgilashini ta’kidlaydi. Uning qarashlariga ko‘ra, guruh ichida “yulduzlar” ya’ni eng ko‘p tanlanadiganlar, “izolyatsiyalanganlar” ya’ni kam tanlanadiganlar va “rad etilganlar” kabi ijtimoiy rollar shakllanadi. Bu esa ta’lim jarayonida ham o‘z aksini topadi: ijtimoiy jihatdan qabul qilingan va faol talabalar ko‘proq tashabbus ko‘rsatadi, muhokamalarda faol qatnashadi va o‘quv jarayoniga ijodiy yondashadi. Aksincha, ijtimoiy jihatdan chetda qolgan talabalar passivlikka moyil bo‘lib, o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta olmaydi.

Moreno sotsiometriyaning asosiy vazifalaridan biri sifatida guruh ichidagi yashirin ijtimoiy tuzilmani aniqlash va uni sog‘lomlashtirishni ko‘rsatadi. Bu jihat ayniqsa oliy ta’lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki talabalarning o‘quv tashabbuskorligi faqat individual xususiyat emas, balki ularning ijtimoiy muhitdagi o‘rni va o‘zaro munosabatlariga ham bevosita bog‘liqdir. Agar guruhda ijobiy sotsiometrik muhit yaratilsa, talabalar o‘zaro ishonch asosida hamkorlik qiladi, fikr almashadi va yangi g‘oyalarni ilgari surishga intiladi. Bu esa o‘quv tashabbuskorligining oshishiga olib keladi.

Moreno shuningdek “sotsiometrik muvozanat” tushunchasini ilgari surib, guruhdagi munosabatlar uyg‘unligi ta’lim samaradorligiga ijobiy ta’sir qilishini asoslaydi. Uning fikricha, pedagog guruh ichidagi ijtimoiy aloqalarni bilgan holda, ularni ongli ravishda boshqarishi, ya’ni ijobiy munosabatlarni kuchaytirishi va salbiy aloqalarni kamaytirishi lozim. Bu orqali talabalar o‘rtasida psixologik qulay muhit yaratiladi va ular o‘z salohiyatini erkin namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan, Morenoning sotsiometriya haqidagi qarashlari talabalarning o‘quv tashabbuskorligini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. U ta’lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki ijtimoiy munosabatlarni ham ongli ravishda tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. Natijada, sotsiometrik yondashuv orqali talabalar jamoasida faol, hamkorlikka tayyor va tashabbuskor muhit shakllantiriladi, bu esa zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlariga to‘liq mos keladi.

Sotsiometrik munosabatlarning talabalarning o‘quv tashabbuskorligiga ta’siri, avvalo, ijtimoiy muhitning xarakteri bilan belgilanadi. Ijobiy sotsiometrik muhitda talabalar o‘z fikrlarini erkin ifoda etadi, tashabbus bilan chiqadi, muammolarni birgalikda hal qilishga intiladi. Aksincha, salbiy yoki ziddiyatli munosabatlar hukmron bo‘lgan guruhlarda passivlik, ishonchsizlik va tashabbusning pasayishi kuzatiladi. Shu jihatdan, sotsiometrik yondashuv talabalarning o‘quv tashabbuskorligini rivojlantirishda muhim diagnostik va rivojlantiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Mazkur jarayonni tushuntirishda Lev Vygotskyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Unga ko‘ra, shaxsning intellektual rivojlanishi ijtimoiy muhit va o‘zaro muloqot jarayonida shakllanadi. Vygotskiy “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasini ilgari surib, talabaning rivojlanish darajasi ko‘p jihatdan uning boshqalar bilan hamkorlikdagi faoliyatiga bog‘liqligini ta’kidlaydi. Bu esa sotsiometrik munosabatlarning talabalarning o‘quv tashabbuskorligini rivojlantirishdagi bevosita rolini asoslaydi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda motivatsiya nazariyalari ham muhim o‘rin tutadi. Xususan, Edward Deci va Richard Ryan tomonidan ishlab chiqilgan o‘z-o‘zini belgilash nazariyasiga ko‘ra, shaxsning faoliyati uning ichki ehtiyojlari - avtonomiya,

kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlik ehtiyojlari bilan belgilanadi. Talabalar jamoasida sog‘lom sotsiometrik munosabatlarning mavjudligi aynan shu ehtiyojlarning qondirilishiga xizmat qiladi va natijada o‘quv tashabbuskorligini oshiradi. Mazkur nazariyani talabalarning o‘quv tashabbuskorligi kontekstida tahlil qilganda, ayniqsa ijtimoiy aloqadorlik ehtiyoji sotsiometrik munosabatlar bilan uzviy bog‘liqligi bilan ajralib turadi. Talabalar o‘zlarini guruhda qabul qilingan, hurmat qilinadigan va qo‘llab-quvvatlanadigan subyekt sifatida his etgan taqdirda, ularda o‘quv faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Bu esa ichki motivatsiyaning kuchayishiga, mustaqil tashabbus ko‘rsatishga va faol ishtirok etishga olib keladi. Aksincha, ijtimoiy izolyatsiya yoki salbiy sotsiometrik maqom talabalarda ishonchsizlik, passivlik va tashabbusdan chekinish holatlarini yuzaga keltirishi mumkin.

Shuningdek, avtonomiya ehtiyoji ham sotsiometrik muhit bilan chambarchas bog‘liqdir. Agar ta’lim jarayonida talabalar o‘z fikrini erkin ifoda etish, qaror qabul qilish va tashabbus bilan chiqish imkoniyatiga ega bo‘lsa, bu ularning mustaqil faoliyatga bo‘lgan ichki ehtiyojini qondiradi. Sotsiometrik jihatdan ijobiy shakllangan guruhda bunday imkoniyatlar ko‘proq kuzatiladi, chunki o‘zaro ishonch va hurmat muhitida talabalar o‘z fikrlarini ochiq bayon etishdan qo‘rqmaydi. Natijada, o‘quv tashabbuskorligi tabiiy ravishda rivojlanadi.

Kompetentlik ehtiyoji esa talabaning o‘zini bilimli va qobiliyatli his etishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu ham ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi. Sotsiometrik jihatdan qo‘llab-quvvatlovchi guruhda talabalar bir-biriga yordam beradi, tajriba almashadi, bu esa o‘z navbatida ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. O‘zini kompetent his qilgan talaba esa ko‘proq tashabbus ko‘rsatadi, murakkab vazifalarni bajarishga intiladi va ijodiy yondashuvni namoyon etadi.

Deci va Ryanning ta’kidlashicha, ichki motivatsiya tashqi rag‘batlardan ko‘ra barqarorroq va samaraliroq bo‘lib, aynan shu turdagi motivatsiya shaxsning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlaydi. Shu jihatdan, sotsiometrik munosabatlar orqali talabalar jamoasida ijobiy psixologik muhit yaratish nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki talabalarda barqaror o‘quv tashabbuskorligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Sotsiometrik yondashuvning pedagogik imkoniyatlari keng bo‘lib, u ta’lim jarayonini individuallashtirish va differensiallashtirish, talabalarning ijtimoiy rolini aniqlash, norasmiy yetakchilarni aniqlab, ularning ijobiy ta’siridan foydalanish imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv asosida o‘quv jarayonida hamkorlikka asoslangan metodlar - guruhli ishlar, loyiha faoliyati, muammoli vaziyatlar, munozaralar tashkil etilishi talabalarning tashabbuskorligini sezilarli darajada oshiradi.

Talabalarning o‘quv tashabbuskorligini rivojlantirishda sotsiometrik muhitni boshqarish ham muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi bu jarayonda faqat bilim beruvchi emas, balki ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi, qo‘llab-quvvatlovchi va rag‘batlantiruvchi shaxs sifatida ishtirok etadi. U talabalar o‘rtasida ijobiy psixologik muhit yaratishi, har bir talabaning imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularni faol ishtirok etishga undashi zarur.

Xulosa qilib aytganda, sotsiometrik yondashuv talabalarning o‘quv tashabbuskorligini rivojlantirishda muhim nazariy va metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. U talabalar jamoasidagi ijtimoiy munosabatlarni chuqur tahlil qilish, ularni boshqarish va pedagogik jarayonga samarali integratsiya qilish imkonini beradi. Natijada, talabalarda mustaqil fikrlash, faol ishtirok etish va tashabbus ko‘rsatish kabi muhim kompetensiyalar shakllanadi. Bu esa zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri - raqobatbardosh, ijodkor va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Moreno J.L. Who Shall Survive? Foundations of Sociometry, Group Psychotherapy and Sociodrama. 2nd ed. Beacon: Beacon House, 1953. 763 p.
2. Морено Я.Л. Социометрия: экспериментальный метод и наука об обществе / пер. с англ. М.: Академический проект, 2001. 384 с.
3. Выготский Л.С. Мышление и речь. М.: Лабиринт, 1999. 352 с.
4. Выготский Л.С. Психология развития человека. М.: Смысл; Эксмо, 2005. 1136 с.
5. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. 159 p.
6. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. New York: Plenum Press, 1985. 371 p.
7. Ryan R.M., Deci E.L. Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness. New York: Guilford Press, 2017. 756 p.
8. Ryan R.M., Deci E.L. Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being // American Psychologist. 2000. Vol. 55, № 1. P. 68–78.
9. Андреева Г.М. Социальная психология. 5-е изд., испр. и доп. М.: Аспект Пресс, 2008. 363 с.
10. Петровский А.В., Ярошевский М.Г. Психология. М.: Академия, 2009. 512 с.
11. G‘oziev E.G‘. Psixologiya. Toshkent: O‘qituvchi, 1994. 224 b.
12. To‘raev B.O., Raximov B.X. **Ijtimoiy psixologiya**. Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. 232 b.

SOTSIOMETRIK MUNOSABATLAR ORQALI TALABALARDA MUSTAQIL TA’LIM MOTIVLARINI RIVOJLANTIRISH

Kasimova (Mulladjanova) Nasiba Azimdjanovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sotsiometrik munosabatlar orqali talabalarda mustaqil ta’lim motivlarini rivojlantirish masalasi ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Maqolada talaba–o‘qituvchi o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik aloqalarning mohiyati, ularning motivatsion jarayonlarga ta’siri hamda loyiha ta’lim texnologiyasi doirasida ushbu munosabatlarni rivojlantirish mexanizmlari asoslab berilgan. Shuningdek, sotsiometrik yondashuv asosida ta’lim muhitini tashkil etishning samaradorligi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, hamkorlik va refleksiya jarayonlarining talabalarning mustaqil bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyojini shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Xalqaro tadqiqotlar, xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti materiallari asosida ijobiy pedagogik munosabatlarning ta’lim sifati va motivatsiyaga ta’siri ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *sotsiometrik munosabatlar, mustaqil ta’lim, motivatsiya, talaba–o‘qituvchi aloqalari, loyiha ta’lim texnologiyasi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, refleksiya, hamkorlik, ta’lim muhiti, ichki motivatsiya.*

Mazkur tadqiqot zamonaviy oliy ta’lim tizimida dolzarb bo‘lgan masalalardan biri - talabalarning mustaqil bilim olish motivlarini rivojlantirishni talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi

sotsiometrik munosabatlar bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganishga qaratilgan. Bugungi kunda ta’lim jarayonida faqat bilim berish emas, balki talabaning ichki motivatsiyasini shakllantirish, uning o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojini yuzaga keltirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, loyiha ta’lim texnologiyasi nafaqat didaktik vosita, balki ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantiruvchi samarali pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki, ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘p jihatdan talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlar xarakteriga bog‘liq. Ushbu munosabatlar tizimi sotsiometrik aloqalar orqali ifodalanadi va u o‘z ichiga ishonch, hurmat, yaqinlik, kommunikativ ochiqlik kabi komponentlarni qamrab oladi. Lev Vigotsky tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-madaniy nazariyada bilimlarning shakllanishi bevosita ijtimoiy o‘zaro ta’sir jarayoniga bog‘liqligi asoslab berilgan. Lev Vigotskyning ilmiy qarashlari pedagogika va psixologiya fanida tub burilish yasagan ijtimoiy-madaniy yondashuvga asoslanadi. Unga ko‘ra, inson tafakkuri va bilimlari individual ravishda emas, balki ijtimoiy muhit, muloqot va madaniy tajriba orqali shakllanadi. Vygotskiy bilish jarayonini “ijtimoiydan individualga” tamoyili asosida tushuntiradi, ya’ni har qanday yangi bilim avvalo tashqi ijtimoiy faoliyatda paydo bo‘ladi, so‘ngra asta-sekin ichki psixik jarayonga aylanish orqali shaxsning mulkiga aylanadi. Bu jarayonni u “internalizatsiya” deb ataydi.

Vigotskiy ta’lim va rivojlanish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikka alohida e’tibor qaratib, rivojlanish faqat biologik etilish natijasi emas, balki ta’lim orqali boshqariladigan jarayon ekanligini asoslab beradi. Shu nuqtai nazardan u “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasini ilmiy muomalaga kiritadi. Bu tushuncha talabaning mustaqil bajara oladigan faoliyati bilan kattalar yoki malakali tengdoshlar yordamida bajara oladigan faoliyati o‘rtasidagi farqni anglatadi. Aynan mana shu zona ta’limning eng samarali nuqtasi hisoblanadi. Agar o‘qituvchi talabaning aynan shu rivojlanish zonasiga mos keluvchi topshiriqlarni tashkil etsa, talabaning bilim olish jarayoni jadallashadi va uning mustaqil o‘rganish qobiliyati shakllanadi.

Vigotskiy qarashlarida til va nutq alohida o‘rin egallaydi. U “nutq va tafakkur birligi” g‘oyasini ilgari surib, tilni nafaqat muloqot vositasi, balki tafakkurni shakllantiruvchi asosiy omil sifatida talqin qiladi. Talaba-o‘qituvchi bilan yoki tengdoshlari bilan muloqot jarayonida yangi tushunchalarni o‘zlashtiradi, ularni izohlaydi va asta-sekin ichki nutq orqali ongiga singdiradi. Shu bois, ochiq va faol kommunikativ muhit Vygotskiy nazariyasida ta’lim samaradorligining muhim sharti hisoblanadi.

Uning yondashuvida o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki rivojlantiruvchi muhitni tashkil etuvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi talabaning rivojlanish zonasini aniqlaydi, unga yo‘naltirilgan yordam beradi, keyinchalik esa bu yordamni bosqichma-bosqich kamaytirib boradi. Natijada talaba avval boshqalarning yordami bilan bajargan faoliyatni mustaqil ravishda amalga oshira boshlaydi. Bu esa mustaqil bilim olish motivlarining shakllanishiga olib keladi.

Vigotskiy ta’limni ijtimoiy jarayon sifatida ko‘rib, hamkorlikdagi o‘qitish, dialogik yondashuv va guruhli faoliyatni rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Aynan shu jihatlar loyiha ta’lim texnologiyasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Loyiha faoliyatida talaba o‘qituvchi va guruh a’zolari bilan doimiy aloqada bo‘ladi, fikr almashadi, muammolarni birgalikda hal qiladi. Bu jarayon esa sotsiometrik munosabatlarni mustahkamlab, talabaning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi.Bu esa ta’limda sotsiometrik munosabatlarning fundamental ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, Jacob Moreno sotsiometriya nazariyasida guruh ichidagi shaxslararo munosabatlar tizimi shaxsning faolligi va ijtimoiy maqomini belgilovchi asosiy omil sifatida talqin etiladi. Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, Morenoning qarashlari talaba - o‘qituvchi munosabatlarini rivojlantirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki, ijobiy sotsiometrik maqomga ega bo‘lgan talaba o‘zini erkinroq tutadi, faolroq ishtirok etadi va mustaqil bilim olishga intiladi. Aksincha, guruhda rad etilgan yoki izolyatsiyalangan talabalarda motivatsiya pasayadi, ular passivlikka moyil bo‘ladi.

Loyiha ta’lim texnologiyasi kontekstida Morenoning sotsiometriya nazariyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, loyiha faoliyati guruh ichidagi tanlovlar, hamkorlik va o‘zaro aloqalarni faollashtiradi. Agar bu jarayon ongli ravishda boshqarilsa, ya’ni ijobiy sotsiometrik munosabatlar shakllantirilsa, talabalarning o‘zaro ishonchi ortadi, kommunikativ faollik kuchayadi va natijada mustaqil bilim olish motivlari rivojlanadi.

Loyiha ta’lim texnologiyasi aynan ana shu sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi. Chunki, loyiha faoliyati jarayonida talaba o‘qituvchi bilan doimiy muloqotga kirishadi, maslahat oladi, fikr almashadi hamda mustaqil qaror qabul qilish jarayonida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni his etadi. Bu jarayonlarda o‘qituvchi an’anaviy bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, fasilitator va hamkor sifatida ishtirok etadi. Mazkur yondashuv John Dewey tomonidan ilgari surilgan “tajriba orqali o‘rganish” konsepsiyasiga mos kelib, bilimning faoliyat jarayonida shakllanishini ta’minlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, loyiha ta’lim texnologiyasi asosida shakllangan ijobiy sotsiometrik munosabatlar talabalarning mustaqil bilim olish motivlarini bir necha mexanizmlar orqali rivojlantiradi.

Birinchidan, talaba-professor o‘qituvchi munosabatlarida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmi muhim o‘rin tutadi. Talaba o‘qituvchi tomonidan qo‘llab-quvvatlanganini his qilganda, unda o‘ziga ishonch ortadi va u mustaqil faoliyatga faolroq kirishadi.

Ikkinchidan, hamkorlik orqali o‘rganish mexanizmi yuzaga keladi. Guruh ichidagi ijobiy sotsiometrik aloqalar bilim almashinuvi va birgalikda muammo echish jarayonini kuchaytiradi.

Uchinchidan, refleksiv mexanizm orqali talaba o‘z faoliyatini tahlil qiladi, xatolarini anglaydi va o‘zini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqadi.

To‘rtinchidan, ijtimoiy tan olinishi va maqom mexanizmi ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni talaba guruhda o‘z o‘rniga ega bo‘lishga intilib, faoliyatini kuchaytiradi. Bu jarayonlar Albert Bandura tomonidan asoslab berilgan ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ham mos keladi. Bandura ta’kidlaganidek, shaxs o‘z xulq-atvorini nafaqat bevosita tajriba orqali, balki boshqalarni kuzatish va ularning ijtimoiy muvaffaqiyatidan o‘rnak olish orqali ham shakllantiradi. Demak, guruhda faol, tan olingan talabalar boshqalarga ijobiy model bo‘lib xizmat qiladi va bu butun guruhda o‘quv faolligi hamda mustaqil bilim olishga bo‘lgan motivatsiyaning ortishiga olib keladi.

Zamonaviy xalqaro tadqiqotlar ham loyiha ta’lim texnologiyasi va ijobiy sotsiometrik munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikning samaradorligini tasdiqlaydi. Xususan, **Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti** tadqiqotlarida ta’lim jarayonida o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi ishonch, qo‘llab-quvvatlash, ochiq muloqot va hamkorlikka asoslangan munosabatlar ta’lim sifati hamda o‘quv motivatsiyasini oshiruvchi muhim omillar sifatida e’tirof etiladi. Mazkur tashkilotning ta’limga oid yondashuvlarida o‘quvchi yoki talaba faqat bilim oluvchi emas, balki ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi, mustaqil qaror qabul qiluvchi va o‘z rivojlanishi uchun mas’ul subyekt sifatida talqin qilinadi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan ilgari surilgan qarashlarda qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhiti talabaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini kuchaytirishi, bilim olishga nisbatan ichki ehtiyojini oshirishi va akademik faolligini rag‘batlantirishi alohida ta’kidlanadi. Bunday muhitda o‘qituvchi nazoratchi emas, balki yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va hamkor sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa loyiha ta’lim texnologiyasi mohiyatiga to‘liq mos keladi. Chunki loyiha faoliyatida talaba muammoni mustaqil o‘rganadi, axborot izlaydi, guruh bilan fikr almashadi, o‘qituvchi bilan maslahatlashadi va yakuniy natijaga erishish uchun shaxsiy mas’uliyatni his qiladi.

Shuningdek, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ta’limda ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar, hamkorlik, muloqot, tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishga katta e’tibor qaratadi. Bu jihatlar sotsiometrik munosabatlar bilan bevosita bog‘liqdir. Chunki talaba o‘zini guruhda qadrlangan, eshitilgan va qo‘llab-quvvatlangan shaxs sifatida his qilgandagina mustaqil izlanishga, tashabbus ko‘rsatishga va ijodiy fikrlashga moyil bo‘ladi. Shu ma’noda, loyiha ta’lim texnologiyasi orqali shakllantirilgan ijobiy sotsiometrik aloqalar talabalarning mustaqil bilim olish motivlarini rivojlantirishning samarali pedagogik sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu asosda aytish mumkinki, loyiha ta’lim texnologiyasi doirasida talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish quyidagi amaliy yo‘nalishlarda samarali natija beradi: hamkorlikka asoslangan topshiriqlarni tashkil etish, o‘qituvchining mentorlik rolini kuchaytirish, ochiq va erkin muloqot muhitini yaratish, refleksiya va o‘zaro baholash mexanizmlarini joriy etish. Bunday yondashuv talabaning nafaqat bilimini, balki uning ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytganda, loyiha ta’lim texnologiyasi talaba–o‘qituvchi o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish orqali talabalarning mustaqil bilim olish motivlarini shakllantirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu munosabatlar tizimi talabaning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi, uning o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojini yuzaga keltiradi hamda ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Shu bois, zamonaviy ta’lim amaliyotida loyiha texnologiyasini sotsiometrik yondashuv bilan integratsiya qilish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Л.Виготскй. Мышление и речь. - М.: Педагогика, 1982. – 287 с.
2. Ж.Пиагет. Психология интеллекта. – СПб.: Питер, 2003. – 192 с.
3. Ж.Морено. Социометрия: экспериментальный метод и наука об обществе. – М.: Академический проект, 2001. – 384 с.
4. Albert Bandura. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1986. – 617 p.
5. John Dewey. Democracy and Education. – New York: Free Press, 1997. – 384 p.
6. OECD. The Future of Education and Skills: Education 2030 Framework. – Paris: OECD Publishing, 2018.
7. OECD. PISA 2018 Results (Volume III): What School Life Means for Students’ Lives. – Paris: OECD Publishing, 2019.
8. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 192 с.
9. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – М.: Народное образование, 1998. – 256 с.
10. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2000. – 712 с.

ESTETIK DIDNI RIVOJLANTIRISHDA SOTSIOMETRIYANING O‘RNI

Norbutayeva Dilafruz Abdurasulovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi instituti katta ilmiy xodimi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada estetik did tushunchasi, uning shakllanish jarayoni hamda sotsiometriya metodining estetik tarbiya jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni o‘rganish orqali estetik didni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Estetik did, sotsiometriya, ijtimoiy munosabatlar, estetik tarbiya, shaxs rivoji, guruh psixologiyasi.*

Bugungi kunda yoshlarning estetik didini shakllantirish ta’lim-tarbiya tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Estetik did insonning go‘zallikni idrok etish, baholash va undan zavqlanish qobiliyatini ifodalaydi. Bu jarayonda ijtimoiy muhit va shaxslararo munosabatlar muhim rol o‘ynaydi. Shu nuqtai nazardan, sotsiometriya metodi estetik didni rivojlantirishda samarali vosita sifatida qaraladi.

Аннотация*. В данной статье освещается понятие эстетического вкуса, процесс его формирования, а также значение метода социометрии в процессе эстетического воспитания. Также анализируются возможности развития эстетического вкуса путем изучения социальных отношений между учащимися.*

Ключевые слова: *Эстетический вкус, социометрия, социальные отношения, эстетическое воспитание, развитие личности, групповая психология.*

На сегодняшний день формирование эстетического вкуса молодежи является одной из важных задач системы образования и воспитания. Эстетический вкус выражает способность человека воспринимать, оценивать и наслаждаться красотой. В этом процессе важную роль играют социальная среда и межличностные отношения. С этой точки зрения метод социометрии рассматривается как эффективное средство развития эстетического вкуса.

Estetik did – bu insonning borliqdagi go‘zallikni anglash, his qilish va baholash qobiliyatidir. U san’at, tabiat, kundalik hayotdagi estetik elementlarga bo‘lgan munosabat orqali namoyon bo‘ladi. Estetik did rivojlangan shaxs odatda yuqori madaniyatga ega bo‘ladi va jamiyatda faol ijtimoiy pozitsiyani egallaydi.

Sotsiometriya – bu guruh ichidagi shaxslararo munosabatlarni aniqlashga qaratilgan ilmiy metoddir. Ushbu metod yordamida guruh a’zolari o‘rtasidagi simpatiya, antipatiya, liderlik va ijtimoiy maqom aniqlanadi.

Sotsiometriya orqali quyidagilarni bilish mumkin:

Guruhdagi yetakchi shaxslar;

Ijtimoiy jihatdan faol va passiv a’zolar;

O‘zaro munosabatlar darajasi;

Norasmiy kichik guruhlar mavjudligi.

Atrofimizdagi har bir narsa – tabiat manzaralari, obyektlar shakli, ranglar uyg‘unligi, kundalik hayotda uchraydigan buyumlarning dizayni-barchasi estetik idrok bilan chambarchas bog‘liq. Insonning go‘zallikni ko‘ra bilishi, uni qadrlashi va shu orqali hayotga munosabatini shakllantirishi estetik didning natijasidir. Demak, o‘quvchilarda go‘zallikka bo‘lgan ehtiyojni

uyg‘otish, san’atni jamiyat hayotidagi o‘rnini anglatish va ularning badiiy tafakkurini rivojlantirish o‘qituvchining asosiy vazifalaridan biridir. Bunday jarayonda o‘qituvchining o‘zi yuqori darajadagi badiiy-estetik saviyaga, san’atni chuqur tushunish va o‘quvchiga tushunarli tarzda yetkazish qobiliyatiga ega bo‘lishi juda muhim.

Estetik didi rivojlangan pedagog nafaqat dars mazmunini o‘rgatadi, balki san’at orqali o‘quvchilar qalbiga ma’naviy fazilatlarni singdiradi, ularda kuzatuvchanlik, obrazli fikrlash, ijodkorlik va go‘zallikka muhabbat kabi sifatlarni shakllantiradi. Shuningdek, bunday pedagog o‘quvchilarda mavjud bo‘lgan “san’atning hayotda keragi yo‘q” degan noto‘g‘ri fikrni ilmiy asoslangan misollar, real hayotiy ko‘rinishlar va amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘zgartira oladi. U san’atning kundalik hayotdagi roli - dizayn, arxitektura, reklama, texnologiya, kiyim-kechak, ekologik madaniyat kabi ko‘plab sohalarda namoyon bo‘lishini tushuntirib, o‘quvchilar ongida san’atning asl qiymatini shakllantiradi. Pedagog amaliyotida uchraydigan muammoli vaziyatlar o‘qituvchining badiiy-estetik didi, kasbiy mahorati va san’atni to‘g‘ri targ‘ib qila olish qobiliyati bilan bevosita bog‘liqdir.

Badiiy-estetik tarbiyasi yuqori darajada shakllangan o‘qituvchigina o‘quvchilarga san’atning haqiqiy mohiyatini ochib bera oladi va ularning shaxsiy rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Estetik idrok shaxsning go‘zallikni sezish, anglash va baholay olish qobiliyati bo‘lib, uning shakllanishi ko‘p omillarga tayanadi. Pedagog va psixolog olimlar fikrlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, estetik idrokni rivojlantirish jarayoni tug‘ma emas, balki jamiyat, tarbiya, ta’lim, oila muhiti hamda shaxsning san’at bilan o‘zaro munosabati orqali shakllanadigan murakkab jarayondir.

Shunday qilib, barcha olimlarning qarashlari umumlashtirilganda, estetik idrokni shakllantiruvchi asosiy omillar quyidagicha namoyon bo‘ladi:

- shaxsning emotsional tajribasi va san’atga bo‘lgan hissiy munosabati;
- oila va maktab muhitida beriladigan estetik tarbiya;
- badiiy ijod va san’at bilan amaliy shug‘ullanish;
- pedagogning estetik saviyasi va did tarbiyasidagi o‘rni;
- milliy, madaniy va ma’naviy qadriyatlar bilan tanishuv.

Natijada, estetik idrokni shakllantirish – bu ko‘p qirrali, tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, uning samaradorligi instruktor (o‘qituvchi), ta’lim muhitining sifati, shaxsning ijodiy tajribasi va san’atga bo‘lgan qiziqishi bilan bevosita bog‘liqdir. Estetik jihatdan rivojlangan shaxs esa nafaqat san’atni anglaydi, balki voqelikdagi go‘zallikni ko‘ra biladigan, ijodiy fikrlaydigan, ma’naviy barkamol inson sifatida shakllanadi. Ta’lim-tarbiya jarayoni murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, unda har bir sohaning o‘ziga xos shart-sharoitlari, talab va imkoniyatlari mavjud. O‘quvchi shaxsining shakllanishi, uning bilim olish sur’ati, darsga bo‘lgan munosabati va ijodiy rivojlanishi ana shu sharoitlarning to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liq. Ushbu jarayonni ta’minlaydigan eng muhim omillardan biri - bu psixologik va pedagogik omillardir. Avvalo sizlar bilan psixologik va pedagogik omillar hadida tushuncha hosil qilib olsak.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning badiiy-estetik didini rivojlantirishda pedagogik omillar darsning qanday tashkil qilinishi, psixologik omillar esa talabaning ichki ruhiy jarayonlari va motivatsiyasi bilan bog‘liq. Ikkalasi uyg‘un bo‘lgandagina talabalarda haqiqiy estetik did, san’atni anglash va qadrlash qobiliyati shakllanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning badiiy-estetik didini tarbiyalashda pedagogik-psixologik xususiyatlar quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- Emotsional sezgirlik. O‘qituvchilarning badiiy-estetik kompetensiyasini rivojlantirishda emotsional sezgirlikning o‘rni katta. O‘qituvchi o‘zining estetik sezgilarini rivojlantirgan holda, o‘quvchilarga san'atning chuqur ma'nosini etkazishi mumkin.

- Ijodiy fikrlash. Badiiy ta'lim ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. O‘qituvchilar o‘zlari badiiy faoliyatda qatnashib, o‘quvchilarga ijodiy va tanqidiy fikrlashni o‘rgatishadi.

- Pedagogik mahorat. O‘qituvchining badiiy-estetik kompetensiyasi uning pedagogik mahoratiga bevosita ta'sir qiladi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning badiiy va estetik bilimlarini shakllantirishda yordam beradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning badiiy-estetik didini tarbiyalash pedagogik-psixologik jihatdan muhim vazifa hisoblanadi. Bu nafaqat o‘qituvchining shaxsiy rivojlanishini, balki ta'lim jarayonida o‘quvchilarning estetik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Xorij va MDH olimlarining nazariyalarini hamda O‘zbekiston Respublikasi olimlarining yondashuvlari bu jarayonning samarali amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan metodik va pedagogik asoslarni taqdim etadi.

San’at insoniyatning badiiy va estetik ijodining ma’naviy va amaliy mahsuli, estetik faoliyati va ehtiyojini qondirishning o‘ziga xos usulidir. San’aning ko‘pfunksionallik xususiyati insonni estetik ongi, his tuyg‘u va tafakkur uyg‘unligidagi amaliy faoliyati bilan kechadi. Bunda san’atning inson ma’naviyatining mahsuli ekanligini va u noyob va betakrorligi bilan inson ruhiyatini junbushga keltiradigan va unga ruhiy qudrat bag‘ishlaydigan kuch ekanligini anglash kerak bo‘ladi. Shunga ko‘ra san’atning ushbu xususiyatini o‘rganish va tahlil qilish ilm fan oldidagi asosiy vazifalardan biridir. San’atdagi his-tuyg‘u va tafakkur uyg‘unligi uning estetik ong shakli va estetik faoliyatni belgilaydigan muhim jihat bo‘lib, bu san’atning ma’naviyat tizimining tarkibiy qismi, ma’naviyat fenomeni maqomida amal qilishining zaruriy sharti hisoblanadi.

Badiiy-estetikaning falsafiy mohiyatini uning san’at asariga yondashuvida ko‘rish mumkin. Ma’lumki, har bir san’atshunoslik ilmi o‘z tadqiqot obyektiga uch tomonlama — nazariy, tarixiy, tanqidiy jihatdan yondashadi. Estetika fan sifatida ilmiy, ma’rifiy, badiiy taraqqiyotning o‘ziga xos muammolari doirasida bahs yuritadi, tahlil qiladi, o‘rganadi va o‘rgatadi.

Estetikaning eng asosiy funksiyalaridan biri dunyoqarashni shakllantirish bo‘lib, ushbu funksiya badiiy ijod bilan shug‘ullanuvchilar va ijodiy faoliyat uchun juda zarur. Ayniqsa, ranglar jilosini his qilish, musiqa sehrini anglash, asardan xulosa chiqarish aynan ushbu funksiyaning ta’sirida ro‘y beradi. Zero, dunyoqarash ijodkorni boshqaradi, ijod jarayoni rivojiga ko‘mak beradi.

Badiiy estetik ta’lim pedagogika fani bilan aloqadorligi tarbiya muammolarini hal qilish borasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Chunki pedagogika ham ma’lum ma’noda nafosat tarbiyasi bilan shug‘ullanadi. Lekin bu tarbiya alohida-alohida, muxtor qismlarga bo‘lingan holda, turli yosh va sohalar uchun maxsus belgilangan tarbiya tarzida, ya’ni muayyan, aniq chegaralarda olib boriladi. Masalan, maktabgacha tarbiya, o‘quvchilar tarbiyasi, sportchilar tarbiyasi va h.k.

Estetik madaniyatni shakllantirish jarayonida pedagogik usullar o‘sish, suhbatlashish va maslahatlashish asosida ta’limga innovatsion qarashlarni nashr etadi. Badiiy ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilarning umuminsoniy qadriyatlarini amaliy darslarda ko‘proq kuzatishimiz mumkin. Bo‘lajak o‘qituvchilar kompozitsiya, rangtasvir, amaliy bezak san’ati darslarida olayotgan bilimlari orqali o‘zlaridagi muhim bo‘lgan insoniy qadriyatlarga ham ega bo‘lib borishadi.

Ta’lim bilan bir qatorda tarbiya ham parallel tarzda inson ongiga singdirilib boradi. Bo‘lajak o‘qituvchilar amaliy mashg‘ulotlar mobaynida vatanparvarlik hissini, insoniy tuyg‘ularni, odob-axloq qoidalarini estetik did va badiiy ijodni o‘zlarining yaratayotgan shox asarlarida mujassamlashtiradi. Misol uchun bo‘lajak o‘qituvchi kompozitsiya ishlash jarayonida turli hil baddiiy asarlarga murojat qiladi. Asarlarda tariflangan voqea-hodisalarni qog‘ozda tasvirlashga urunadi, vaholanki, ijod qilish davrida bo‘lajak o‘qituvchi qanday qilib kompozitsiya yaratish jarayonida o‘zining o‘quvchilariga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish mumkinligini o‘rganib, tahlil qilib, natijaga erishadi.

Xulosa qilib aytganda, sotsiometriya metodi estetik didni rivojlantirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. U orqali shaxslararo munosabatlarni chuqur tahlil qilish, estetik tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini inobatga olish mumkin. Shu sababli, ta’lim jarayonida sotsiometriya metodidan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. To‘xtaboyev N., Qodirov B. *Umumiy psixologiya*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
2. G‘oziyev E. *Psixologiya*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
3. Davletshin M.G. *Pedagogik psixologiya asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
4. Abdurahmonov Q.X. *Shaxs va jamiyat*. – Toshkent: Akademiya, 2012.
5. Dewey J. *Art as Experience*. – New York: Perigee Books, 2005.
6. Parsons M.J. *How We Understand Art: A Cognitive Developmental Account of Aesthetic Experience*. – Cambridge University Press, 1987.
7. Sodiqov A. *Estetik tarbiya asoslari*. – Toshkent: Fan, 2015.

O‘QITUVCHI-O‘QUVCHI ORASIDAGI SOTSIOMETRIK MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISH

Sa’dullayeva Sarvinoz Ubadullo qizi
Qori Niyoziy nomidagi TPMI doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarning mazmuni, sinf jamoasida ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirishdagi o‘rni hamda pedagogik yondashuvlar yoritilgan. Tadqiqotda sotsiometriya metodining ta’lim jarayonida qo‘llanishi, o‘quvchilarning sinfdagi ijtimoiy statusini aniqlash va ularni jamoaga moslashtirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, hamkorlik muhitini yaratish, ijtimoiy tenglik va adolatni ta’minlash, jamoaviy faoliyatni tashkil etish hamda chetda qolgan o‘quvchilarni sinf jamoasiga jalb qilishning samarali usullari asoslab berilgan. Natijada o‘qituvchining pedagogik mahorati va muloqot madaniyati sinfdagi sog‘lom sotsiometrik munosabatlarni shakllantirishda muhim omil ekanligi xulosa qilingan.

Kalit so‘zlar: sotsiometriya, sotsiometrik munosabat, o‘qituvchi–o‘quvchi, sinf jamoasi, hamkorlik muhiti, ijtimoiy status, pedagogik muloqot, adolat, tenglik, moslashuv.

Аннотация. В данной статье рассматривается сущность социометрических отношений между учителем и учеником, их роль в формировании социально-психологического климата в классном коллективе, а также педагогические подходы к их развитию. Анализируется применение социометрического метода в образовательном

процессе, выявление социального статуса учащихся в классе и проблемы их адаптatsii в коллективе. Особое внимание уделяется созданию атмосферы сотрудничества, обеспечению социальной справедливости и равенства, организatsii коллективной деятельности и вовлечению учащихся, находящихся в стороне, в активную жизнь класса. В результате подчеркивается, что педагогическое мастерство учителя и культура общения являются важными факторами формирования здоровых социометрических отношений в ученическом коллективе.

Ключевые слова. социометрия, социометрические отношения, учитель–ученик, классный коллектив, сотрудничество, социальный статус, педагогическое общение, справедливость, равенство, адаптация.

Abstract. This article explores the essence of sociometric relationships between teachers and students and their significance in shaping the socio-psychological climate of the classroom. The study analyzes the use of sociometric methods in the educational process, focusing on identifying students’ social status within the class and addressing issues of social adaptation. Special attention is given to the teacher’s role in creating a cooperative learning environment, ensuring social equality and fairness, organizing collective activities, and supporting socially isolated students in integrating into the classroom community. The article concludes that the teacher’s pedagogical competence and communication culture play a crucial role in developing positive sociometric relationships and maintaining a healthy classroom atmosphere.

Keywords. ociometry, sociometric relationships, teacher-student interaction, classroom community, cooperation, social status, pedagogical communication, fairness, equality, adaptation

Sotsiometriya — bu jamoadagi a’zolar o‘rtasidagi afzal ko‘rish, yoqtirish yoki rad etish kabi ijtimoiy tanlovlarni aniqlovchi, ularni vizual tarzda ko‘rsatadigan ilmiy metod hisoblanadi. Uni XX asr boshlarida amerikalik sotsiolog va psixolog Yakob Levi Moreno ishlab chiqqan. Moreno fikricha, har qanday guruhda yashirin ijtimoiy tuzilmalar mavjud va ularni o‘rganmasdan turib guruh samaradorligini baholab bo‘lmaydi. Sotsiometriya o‘sha yashirin tuzilmalarni aniqlash va ko‘rsatishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi.Sotsiometriya yordamida guruhdagi norasmiy liderlar, izolyatsiyalangan shaxslar, do‘stlik guruhlari, ziddiyatli munosabatlar aniqlanadi. Bu esa, o‘z navbatida, jamoani to‘g‘ri boshqarish, ichki muammolarni hal qilish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bu usul jamoaviy muhitni sog‘lomlashtirish, ijtimoiy moslashuv darajasini aniqlash, nizolarning oldini olish va motivatsiyani oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sotsiometriya usuli sotsiologiya fanida zamonaviy tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi. U faqat guruh ichidagi holatni emas, balki o‘zgarish dinamikasini ham kuzatish imkonini beradi. Ushbu maqolada aynan shu metodning nazariy asoslari, qo‘llanish doirasi va amaliy natijalari chuqur yoritiladi.

Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar sinf jamoasining psixologik muhitini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ayniqsa, sinf ichidagi o‘zaro tanlovlar, ijtimoiy qabul qilish yoki rad etish holatlari sotsiometrik munosabatlar sifatida namoyon bo‘ladi. Sotsiometrik munosabatlar o‘quvchining jamoada o‘z o‘rnini topishi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, muloqot madaniyati va ijtimoiy faolligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘qituvchi sinfdagi ijtimoiy muhitni shakllantiruvchi asosiy shaxsdir. O‘qituvchining o‘quvchilarga bo‘lgan munosabati sinfdagi umumiy kayfiyat va o‘zaro munosabatlar tizimiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

O‘qituvchi quyidagi vazifalarni bajaradi:

1.Sinfda hamkorlik muhitini yaratadi. O‘qituvchi sinfda **hamkorlik muhitini** yaratish uchun faqat dars o‘tish bilan cheklanmaydi, balki o‘quvchilarni bir-biriga yaqinlashtiradigan, o‘zaro hurmat va jamoaviy ishlashni kuchaytiradigan pedagogik sharoitlarni tashkil etadi. Bunda o‘qituvchi har bir o‘quvchiga bir xil munosabatda bo‘lib, sinfda hurmat, ishonch, qo‘llab-quvvatlash muhitini shakllantiradi. O‘qituvchi sinfda hamkorlik muhitini yaratish uchun **tenglik, hurmat, guruhli ish, rollarni taqsimlash, rag‘batlantirish va nizolarni boshqarish** kabi pedagogik yondashuvlarni qo‘llaydi. Natijada sinfda sog‘lom jamoa shakllanadi va o‘quvchilar bir-birini qo‘llab-quvvatlashga o‘rganadi.

2. Ijtimoiy tenglik va adolatni ta’minlaydi. O‘qituvchi sinfda ijtimoiy tenglik va adolatni ta’minlash orqali o‘quvchilar orasida sog‘lom muhit, hamkorlik va ishonchni shakllantiradi. O‘qituvchi sinfdagi barcha o‘quvchilarga bilim darajasi, oilaviy sharoiti, fe’l-atvori, qobiliyati qanday bo‘lishidan qat’i nazar, bir xil hurmat va e’tibor bilan munosabatda bo‘lishi kerak. Bu o‘quvchilarda “men ham boshqalar kabi qadrlanaman” degan ishonchni uyg‘otadi. O‘qituvchi sinfda ijtimoiy tenglik va adolatni ta’minlash uchun **teng munosabat, adolatli baholash, rollarni navbat bilan taqsimlash, kamsitishni oldini olish, nizolarda xolislik va sinf qoidalarini hamma uchun bir xil qo‘llash** tamoyillariga amal qiladi. Natijada sinfda ishonchli, hamjihat va sog‘lom psixologik muhit shakllanadi.

3. O‘quvchilar o‘rtasidagi nizolarni bartaraf etadi. Baholashda adolat tamoyiliga amal qilish uchun o‘qituvchi aniq mezonlarga asoslanadi, bir o‘quvchiga yon bosmaydi, bahoni shaxsga emas, natijaga qarab qo‘yadi, har bir bahoni tushuntirib beradi. Bu orqali sinfda norozilik va kamsitilish hissini kamaytiradi.

4.Jamoaviy faoliyatni tashkil qiladi. O‘qituvchi jamoaviy faoliyatni tashkilqilish orqali o‘quvchilarda hamkorlik, o‘zaro yordam, mas’uliyat va ijtimoiy faollikni shakllantiradi. Buning uchun maqsad va vazifani aniq belgilab oladi. Aniq maqsad bo‘lsa, o‘quvchilar jamoa bo‘lib ishlashga qiziqadi. O‘qituvchi jamoaviy faoliyatni tashkil qilish uchun **guruhlarga to‘g‘ri ajratadi, rollarni taqsimlaydi, hamkorlikka mos topshiriqlar beradi, nazorat qiladi, baholaydi va rag‘batlantiradi.** Natijada sinfda hamjihatlik va hamkorlik muhiti shakllanadi.

5.Chetda qolgan o‘quvchilarni jamoaga moslashtiradi O‘qituvchi chetda qolgan o‘quvchilarni jamoaga moslashtirish orqali sinfda sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratadi. Bunday o‘quvchilar odatda tortinchoq, kamgap, o‘ziga ishonchsiz yoki sinf tomonidan kam tanlangan bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi avvalo o‘quvchining nega jamoaga qo‘shilmayotganini bilishi kerak. Tortinchoqlik, muloqot ko‘nikmasining sustligi, sinfdoshlar bilan kelishmovchilik, oilaviy muammo, o‘qishda orqada qolish kabi sabablar bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi chetda qolgan o‘quvchini jamoaga moslashtirish uchun **individual yondashuv, guruhli ishlarga jalb qilish, kichik vazifalar berish, rag‘batlantirish, kamsitishni oldini olish, treninglar va ota-onalar bilan hamkorlik** kabi usullarni qo‘llaydi. Natijada o‘quvchi sinf jamoasiga qo‘shilib, o‘zini erkin va ishonchli his qila boshlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimova V.M. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
2. Davletshin M.G. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007.
3. Abdullayeva Sh.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
4. To‘xtaxodjayeva M. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
5. **Ishmuhamedov R.J.** *Ta’limda innovatsion texnologiyalar.* – Toshkent: Istiqlol, 2014.
6. Qodirova F.R. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2016.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KASBIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA SOUIOMETRIK MUNOSABATLARGA TAYYORLASH MEXANIZMLARI

Komiljonova Mohinur
Urganch Davlat universtiteti 3-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik madaniyatni shakllantirish jarayonida ularni sotsiometrik munosabatlarni tayyorlash, o‘quvchilar bilan ular orasida yaqinlikni ta’minlash imkoniyatlari, kasbiy kommunikatsiyaning o‘rni, sotsiometrik munosabatlarni amalga oshirishning o‘ziga xos mexanizmlari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *sotsiometriya, pedagogik madaniyat, ommaviy, tadbirlar, rollar, guruhli faoliyat, kichik guruhlar, pedagogik amaliyot, qo‘llab quvatlash, sotsimetrik munosabatlar.*

Bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik madaniyati tizimida sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Chunki pedagogik madaniyat faqat o‘qituvchining bilimdonligi, metodik mahorati yoki kasbiy tayyorgarligi bilan cheklanmaydi. Uning tarkibida insonparvarlik pozitsiyasi, muloqot madaniyati, o‘quvchi shaxsiga hurmat, jamoada sog‘lom psixologik muhit yaratish, hamkorlikni tashkil etish va har bir ta’lim oluvchining ijtimoiy mavqeini inobatga olish kabi sifatlar ham mavjud. Shu jihatdan sotsiometrik munosabatlar bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik madaniyatini amaliy jihatdan ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Sotsiometrik munosabatlar deganda ta’lim jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro tanlash, yoqtirish, ishonch bildirish, hamkorlik qilish, yetakchilikni qabul qilish, guruhdagi mavqe va emotsional yaqinlik darajalari anglashiladi. Bo‘lajak o‘qituvchi uchun bu munosabatlarni anglash va boshqarish juda muhimdir. Chunki sinf yoki talabalar guruhi oddiy o‘quvchilar yig‘indisi emas, balki o‘zaro ta’sir, munosabat, maqom va psixologik aloqalar tizimidir. Agar o‘qituvchi bu tizimni to‘g‘ri tahlil qila olsa, u sinfda ijobiy muhit yaratadi, chetda qolgan, tortinadigan yoki muloqotda qiynaladigan o‘quvchilarni jamoaga qo‘shadi, nizoli vaziyatlarni yumshatadi va hamkorlikka asoslangan ta’lim jarayonini tashkil etadi.

Pedagogik madaniyat tizimida sotsiometrik munosabatlarning o‘rni, avvalo, o‘qituvchining shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvda namoyon bo‘ladi. Pedagog madaniyatli bo‘lishi uchun u har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini, guruhdagi o‘rnini, tengdoshlari bilan munosabatini, muloqotga kirishish darajasini va emotsional holatini seza olishi kerak. Bu esa o‘qituvchidan kuzatuvchanlik, empatiya, pedagogik takt, adolatli munosabat va psixologik sezgirlikni talab etadi.

Sotsiometrik munosabatlar bo‘lajak o‘qituvchining kommunikativ madaniyatini ham rivojlantiradi. Chunki pedagogik faoliyatning asosi muloqotdir. O‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarni muvofiqlashtiruvchi, jamoani birlashtiruvchi, ijobiy munosabatlar madaniyatini shakllantiruvchi shaxsdir. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchi talabalik davridayoq guruh bilan ishlash, jamoaviy muhokamalarni tashkil etish, juftlik va kichik guruhlarda hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, muloqotda tenglik va hurmat tamoyillariga rioya qilishni o‘rganishi lozim.

Sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishning birinchi pedagogik mexanizmi **diagnostik mexanizm**dir. Bu mexanizm orqali bo‘lajak o‘qituvchi o‘quvchilar yoki talabalar guruhidagi

munosabatlar tizimini o‘rganadi. Masalan, qaysi o‘quvchilar sinfda yetakchilik qilayapti, qaysilari faol, fanday sifatlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar chetda qolayapti, o‘quvchilar qaysi sinfdoshlari bilan hamkorlikka oson kirishayaptilar va qaysi tengdoshlari bilan ziddiyatga borayaptilar. Bu jarayonda sotsiometrik so‘rovlar, kuzatish, suhbat, refleksiv topshiriqlar, guruhiy faoliyat natijalarini tahlil qilish usullaridan foydalaniladi. Diagnostika o‘qituvchiga har bir o‘quvchining jamoadagi o‘rnini bilish va navbatdagi pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli loyihalash imkonini beradi.

Kommunikativ-hamkorlik mexanizmi. U orqali o‘quvchilar o‘rtasida ijobiy muloqot, o‘zaro ishonch, bir-birini eshitish va fikrini hurmat qilish madaniyati shakllantiriladi. Bunda “aqliy hujum”, “davra suhbati”, “juftlikda ishlash”, “kichik guruhlarda loyiha bajarish”, “rolli o‘yinlar”, “muammoli vaziyatni muhokama qilish” kabi metodlardan tizimli tarzda foydalanish tavsiya etiladi. Bu usullar orqali o‘quvchilar bir-birini yaxshiroq tanishadi, fikr almashadi, hamkorlik qiladi va guruhda ijobiy psixologik muhit vujudga keladi.

Refleksiv mexanizm. Bu mexanizm bo‘lajak o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘z munosabatlarini anglashi, tahlil qilishi va baholashiga xizmat qiladi. Masalan, mashg‘ulot oxirida “Men guruhda qanday ishtirok etdim?”, “Kimning fikri menga ta’sir qildi?”, “Men kim bilan samarali hamkorlik qildim?”, “Kimga yordam berdim yoki kimdan yordam oldim?” kabi savollar asosida refleksiya jarayonlari tashkil etiladi. Refleksiya sotsiometrik munosabatlarni ongli ravishda rivojlantirishga yordam beradi.

E**motsional-qadriyatli mexanizm**. Bu mexanizm o‘quvchilar o‘rtasida mehr-oqibat, hurmat, ishonch, hamdardlik, mas’uliyat va jamoaviylik hissini shakllantirishga qaratilgan. Bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik madaniyat sohibi sifatida pedagogik amaliyot davrida har bir o‘quvchi o‘zini sinfda kerakli, qadrli va himoyalangan his qilishiga e’tibor qaratishi lozim. Buning uchun bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik qo‘llab-quvvatlash, adolatli munosabat, ijobiy fikr bildirish, kichik yutuqlarni e’tirof etish kabi pedagogik ta’sir vositalarini qo‘llash kompetensiyasiga ega bo‘lishi kerak.

Ijtimoiy-faoliyat mexanizmi. Sotsiometrik munosabatlar suhbat, dialog, nazariy tushuntirish bilan bir qatorda birgalikdagi faoliyat jarayonida shakllanadi. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchi o‘quvchilarni umumiy maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatga jalb etishi kerak. Jamoaviy loyihalar, ijodiy ishlar, sahna ko‘rinishlari, tadqiqotchilikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar, sport va ommaviy, ma’naviy, ma’rifiy tadbirlar o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi. Birgalikdagi faoliyat davomida o‘quvchilar bir-biri bilan yaqindan tanishadi, mas’uliyatni taqsimlaydi va ular orasida o‘zaro ishonchni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Nizolarni pedagogik boshqarish mexanizmi. Har ta’lim maussasasi, undagi o‘quvchilar jamoasi orasida kelishmovchilik, tushunmovchilik yoki raqobat holatlari bo‘lishi mumkin. Pedagogik madaniyatga ega o‘qituvchi bunday vaziyatlarni kuch bilan emas, balki muloqot, tushuntirish, mediativ yondashuv, adolatli tahlil va kelishuv asosida hal etadi. Bo‘lajak o‘qituvchi nizoli vaziyatlarda o‘quvchilarni bir-birini tinglashga, dalil keltirishga, kechirim so‘rashga, murosa qilishga va umumiy yechim topishga o‘rgatishi lozim.

Inklyuziv-pedagogik mexanizm. Bu mexanizm guruhda chetda qolgan, kamgap, kamtarin, yolg‘izlik yoki kichik guruhda faoliyat ko‘rsatishni xush ko‘radigan, o‘z imkoniyatiga ishonchi past yoki ijtimoiy faolligi sust o‘quvchilarni jamoaviy faoliyatga jalb etishni nazarda tutadi. O‘qituvchi bunday o‘quvchilarga majburiy bosim o‘tkazmasdan, ularga qulay rol berish,

kichik guruhlarda ishlash imkonini yaratish, dastlab oddiy topshiriqlar orqali faollashtirish va ijobiy qo‘llab-quvvatlash orqali ularning jamoadagi mavqeini oshiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik madaniyatida sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishning yana bir muhim jihati liderlik va hamkorlik muvozanatini ta’minlashdan iborat. Ayrim o‘quvchilar tabiyapn yetakchikka moyil bo‘ladilar. O‘qituvchi ularning ijobiy ta’siridan foydalanishi, biroq boshqalarning soyasida qolib ketishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim. Shuning uchun guruhli faoliyat jarayonida ishlarda rollarni almashtirish, har bir o‘quvchiga rahbar, taqdimotchi, kuzatuvchi, tahlilchi yoki ijodkor vazifasini berish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchi pedagogik madaniyati tizimida sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish o‘quvchilar jamoasini to‘g‘ri boshqarish, sog‘lom psixologik muhit yaratish, har bir shaxsning ijtimoiy faolligini oshirish va ta’lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirishning muhim shartidir. Bu jarayon diagnostik, kommunikativ, refleksiv, emotsional-qadriyatli, ijtimoiy-faoliyatli, nizolarni boshqarish va inklyuziv mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Ana shu mexanizmlarni puxta egallagan bo‘lajak o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik, ishonch, hurmat va ijtimoiy birdamlik muhitini yarata oladigan madaniyatli pedagog sifatida shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Safarova R.G. O‘iqtuvchi-o‘quvchi orasidagi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish mexanizmlari // “Pedagogika” jurnali. 2026-yil, 1-son. 26-30-b.
2. Moreno Ya.L. Sotsiometriya: eksperimentalnыy metod i nauka ob obщestve / Per. s angl. A. Bokovikova. - M.: Akademicheskiy proekt, 2004. - 315 s.
3. Levin Kurt. Dinamicheskaya psixologiya: izbrannыe trudы. - M.: Smыsl, 2001. - 572 s.
4. Rodjers K. Klient-sentrirovannaya psixoterapiya: teoriya, sovremennaya praktika i primenenie. - M.: Psixoterapiya, 2007. - 560 s.

TALABA TYUTOR ORASIDAGI SOTSIOMETRIK MUNOSABATLAR: TA’LIM OLUVCHILARDA MARGINAL MADANIYATGA QARSHI IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATI SIFATIDA

Namozova Madina Toyir qizi
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti 3- bosqich doktoranti

Annotatsiya. *ushbu maqolada talaba va tyutor o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarning mazmun-mohiyati hamda ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi. Ayniqsa, mazkur munosabatlarning ta’lim oluvchilarda marginal madaniyatga qarshi immunitetni shakllantirishdagi imkoniyatlari yoritib beriladi. Tadqiqotda tyutorning nafaqat bilim beruvchi, balki ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantiruvchi subyekt sifatidagi roli asoslab beriladi. Talabalar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalar, guruh ichidagi sotsiometrik maqom va o‘zaro ishonch darajasi ularning qadriyatlar tizimi va madaniy qarashlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishi aniqlanadi. Shuningdek, sog‘lom sotsiometrik muhit orqali yoshlarni turli zararli va yot g‘oyalardan himoya qilish, ularda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish mumkinligi asoslanadi. Tadqiqot natijalari ta’lim jarayonida tyutorlik faoliyatini*

takomillashtirish va talabalarda barqaror ma’naviy immunitetni shakllantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *talaba, tyutor, sotsiometrik munosabatlar, ta’lim jarayoni, marginal madaniyat, ijtimoiy immunitet, ma’naviy immunitet, ijtimoiy muhit, pedagogik hamkorlik, yoshlar tarbiyasi.*

Аннотация. *в данной статье анализируются сущность и содержание социометрических взаимоотношений между студентом и тьютором, а также их роль в образовательном процессе. Особое внимание уделяется раскрытию потенциала этих взаимоотношений в формировании у обучающихся устойчивого иммунитета к маргинальной культуре. В исследовании обосновывается, что тьютор выступает не только в качестве транслятора знаний, но и как субъект, формирующий социально-психологическую среду. Установлено, что межличностные связи студентов, их социометрический статус внутри группы, а также уровень взаимного доверия оказывают непосредственное влияние на систему ценностей и культурные установки обучающихся. Кроме того, доказывается, что создание благоприятной социометрической среды способствует защите молодежи от различных деструктивных и чуждых идей, а также развитию у них самостоятельного мышления, критического подхода и социальной ответственности.Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования тьюторской деятельности в системе образования и разработки практических рекомендatsiй, направленных на формирование устойчивого духовно-нравственного иммунитета у студентов.*

Ключевые слова: *студент, тьютор, социометрические взаимоотношения, образовательный процесс, маргинальная культура, социальный иммунитет, духовно-нравственный иммунитет, социальная среда, педагогическое сотрудничество, воспитание молодежи.*

Abstract. *this article analyzes the essence and content of sociometric relationships between students and tutors, as well as their role in the educational process. Particular attention is paid to revealing the potential of these relationships in forming students’ устойчивого иммунитета to marginal culture. The study substantiates that a tutor acts not only as a transmitter of knowledge, but also as a subject who shapes the socio-psychological environment. It is established that interpersonal relationships among students, their sociometric status within the group, and the level of mutual trust have a direct impact on their system of values and cultural attitudes. Furthermore, it is argued that the creation of a favorable sociometric environment contributes to protecting young people from various destructive and alien ideas, as well as to developing their independent thinking, critical approach, and social responsibility. The results of the study can be used to improve tutoring practices in the education system and to develop practical recommendations aimed at forming a stable spiritual and moral immunity among students.*

Keywords: *student, tutor, sociometric relationships, educational process, marginal culture, social immunity, spiritual and moral immunity, social environment, pedagogical cooperation, youth education.*

Kirish. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida talabalarning nafaqat bilim, balki ijtimoiy-psixologik va ma’naviy jihatdan rivojlanishi ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Globalizatsiya jarayonlari, axborot oqimining keskin ortishi hamda turli madaniy ta’sirlarning kuchayishi

yoshlar ongida turlicha qarashlar va qadriyatlar shakllanishiga olib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, talabalarda sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratish, ularni zararli va marginal madaniy oqimlardan himoya qilish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda talaba va tyutor o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlar alohida ahamiyatga ega. Sotsiometriya asosida shakllanadigan ijtimoiy aloqalar guruh ichidagi ishonch, o‘zaro hurmat, kommunikativ faollik va ijtimoiy maqomni belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Tyutor esa faqat bilim beruvchi emas, balki talabalarning ijtimoiy-psixologik muhitini boshqaruvchi, ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi pedagogik subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, talabalarda marginal madaniyatga qarshi immunitetni shakllantirish zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biridir. Marginal madaniyat elementlari yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, ularning qadriyatlar tizimini izdan chiqarishi mumkin. Bunday holatlarning oldini olishda sog‘lom sotsiometrik muhit, ijobiy guruh dinamikasi hamda tyutorlik faoliyatining samarali tashkil etilishi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, talaba va tyutor o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarni ilmiy asosda o‘rganish orqali ta’lim oluvchilarda ijtimoiy immunitetni shakllantirish mexanizmlarini aniqlash, ularning ma’naviy barqarorligini mustahkamlash hamda ta’lim jarayonini takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi. Shundan kelib chiqib, ushbu tadqiqotda talaba va tyutor o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarning mazmun-mohiyati, ularning ta’lim jarayonidagi o‘rni hamda marginal madaniyatga qarshi immunitetni shakllantirishdagi imkoniyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Talabalarda marginal madaniyatga nisbatan immunitetni shakllantirish bugungi globallashuv va raqamli axborot oqimlari keskin kuchaygan sharoitda dolzarb pedagogik vazifalardan biridir. Bu jarayon faqat ma’lumot berish yoki targ‘ibot bilan cheklanib qolmaydi, balki talabaning ichki qarashlari, qadriyatlari, ijtimoiy pozitsiyasi va tanlov madaniyatini shakllantirishni talab etadi. Aynan shu nuqtada ta’lim oluvchilar va tyutor o‘qituvchilar o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki talaba qaysi axborotni qabul qilishi, qaysi qadriyatni ichki mezon sifatida tanlashi ko‘p jihatdan u yashayotgan ijtimoiy-psixologik muhit, ya’ni o‘quv jarayonidagi munosabatlar tizimiga bog‘liq bo‘ladi.

Sotsiometrik munosabatlar deganda, ta’lim jarayonida ishtirok etuvchi shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro tanlov, yaqinlik, ishonch, hurmat, qabul qilish yoki rad etish kabi ijtimoiy-psixologik aloqalar tushuniladi. Bu tushuncha ilmiy jihatdan Jacob Levy Moreno tomonidan asoslab berilgan bo‘lib, guruh ichidagi munosabatlarning ichki tuzilishini aniqlashga xizmat qiladi. Oliy ta’lim muhitida esa bu munosabatlar talaba–tyutor, talaba–talaba va tyutor–guruh o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur aloqalar qanchalik ijobiy, ochiq va ishonchga asoslangan bo‘lsa, talabalarda sog‘lom ijtimoiy immunitetni shakllantirish shunchalik samarali kechadi.

Marginal madaniyatga nisbatan immunitet deganda, talabaning yot, destruktiv, ijtimoiy qadriyatlarga zid yoki shaxsiy rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi madaniy oqimlarga nisbatan tanqidiy va ongli munosabatda bo‘lish ko‘nikmasi tushuniladi. Bu immunitet shunchaki “rad etish” emas, balki tahlil qilish, solishtirish, baholash va ongli tanlov qilish kompetensiyasiga asoslanadi. Bunday kompetensiya esa faqat bilim asosida emas, balki ijtimoiy muloqot va o‘zaro ta’sir jarayonida shakllanadi. Shu sababli tyutor va talaba o‘rtasidagi munosabatlar bu jarayonning markaziy omillaridan biri hisoblanadi.

Talaba va tyutor o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarning vujudga kelishi bir necha omillarga bog‘liq. Avvalo, bu tyutorning kommunikativ uslubi bilan belgilanadi. Agar tyutor

talabaga nisbatan hurmat bilan yondashsa, uning fikrini tinglasa, savollariga ochiq javob bersa va muhokama jarayonida tenglik prinsipini saqlasa, talaba unda ishonch hissini shakllantiradi. Aksincha, buyruqbozlik, keskin tanqid, fikrni inkor etish yoki befarqlik munosabati talabada yopilish, passivlik va ichki qarshilikni vujudga keltiradi. Natijada u tyutor ta’sirini qabul qilmaydi, tashqi axborot manbalariga ko‘proq moyillik bildiradi.

Sotsiometrik munosabatlarning shakllanishida yana bir muhim omil — bu guruh ichidagi ijtimoiy muhitdir. Talabalar o‘zaro qanchalik yaqin, bir-biriga nisbatan hurmatli va qo‘llab-quvvatlovchi bo‘lsa, ular o‘rtasida sog‘lom muloqot muhiti yuzaga keladi. Bunday muhitda marginal g‘oyalar yoki destruktiv qarashlar tezda tanqidiy muhokamaga tortiladi, ya’ni jamoaning o‘zi ichki “filtr” vazifasini bajaradi. Agar guruhda ijtimoiy ajralish, kichik yopiq guruhlar, rad etish yoki konfliktlar ustun bo‘lsa, ayrim talabalar o‘zlarini chetda qolgan shaxs sifatida his qiladilar. Natijada, ularda salbiy madaniy oqimlarga moyillik kuchayadi. Ko‘rinib turibdiki, ushbu o‘rinda, sotsiometrik munosabatlar bu yerda nafaqat aloqa shakli, balki ijtimoiy himoya mexanizmi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Talaba–tyutor munosabatlarining ifodalanishi turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Eng avvalo, bu o‘zaro ishonch darajasida ko‘rinadi. Talaba tyutorga o‘z fikrini erkin ayta olishi, shaxsiy muammolarini muhokama qila olishi, bahsli masalalarda o‘z pozitsiyasini himoya qila olishi kabilarning barchasi sotsiometrik munosabatning sifat ko‘rsatkichidir. Ikkinchidan, talaba-tyutor munosabatlarida kommunikativ faollik kommunikativ faollik muhim ahamiyatga ega. Agar talaba dars yoki trening jarayonida faol ishtirok etsa, savollar bersa, muhokamalarda qatnashsa, bu uning o‘zini ijtimoiy jihatdan qabul qilingan deb his qilayotganidan dalolat beradi. Uchinchi ko‘rsatkich - bu psixologik xavfsizlik hissidir. Zamonaviy pedagogikada mazkur tushuncha Amy Edmondson tomonidan keng yoritilgan bo‘lib, unda shaxs xato qilishdan qo‘rqmasdan o‘z fikrini, tanqiddan cho‘chimay ifoda eta olishi zaruriy shart sifatida qaraladi. Aynan shunday muhitda talaba turli madaniy oqimlarni erkin tahlil qiladi va ongli ravishda baholaydi.

Talabalarda marginal madaniyatga qarshi immunitetni shakllantirish jarayonida sotsiometrik munosabatlar bir necha funksiyani bajaradi. Birinchidan, ular axborotni qabul qilish filtri vazifasini bajaradi. Talaba tyutor bilan ishonchli munosabatda bo‘lsa, u berilgan ma’lumotni chuqurroq qabul qiladi, unga tanqidiy yondashadi va shaxsiy ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, mazkur munosabatlar identifikatsiya mexanizmini qo‘llash imkonini beradi. Talaba ko‘pincha o‘zi hurmat qiladigan shaxsning qarashlarini qabul qiladi. Agar tyutor shaxs sifatida namuna bo‘la olsa, uning qadriyatlari talabada ichki mezon sifatida shakllanadi. Uchinchidan, sotsiometrik munosabatlar ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash funksiyasini bajaradi. Talaba o‘zini jamoa a’zosi sifatida his qilsa, u tashqi salbiy ta’sirlarga kamroq beriladi.

Mazkur munosabatlarni rivojlantirish jarayonida tyutorning roli nihoyatda muhimdir. U ta’lim jarayonini faqat bilim berish bilan cheklamasdan, balki ijtimoiy muloqotni tashkil etuvchi fasilitator sifatida faoliyat yuritishi lozim. Bunda bir necha pedagogik yondashuvlar muhim hisoblanadi. Avvalo, ochiq muloqot muhiti yaratilishi zarur. Talabalarga o‘z fikrini erkin bayon qilish, turli qarashlarni solishtirish, bahs-munozaraga kirishish imkoniyati yaratilishi lozim. Ikkinchidan, refleksiv muhokamalar tashkil etilishi muhim. Masalan, turli madaniy oqimlar, ijtimoiy tarmoqlardagi trendlar, global madaniy ta’sirlarga bag‘ishlab tahliliy suhbatlar o‘tkazish talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Uchinchidan, hamkorlikdagi faoliyat, ya’ni guruhli loyiha ishlari, debatlar, case-study usullari orqali talabalarning o‘zaro aloqalari mustahkamlanadi. Bu esa sog‘lom sotsiometrik muhitni shakllantiradi.

Shuningdek, tyutor individual yondashuvni ham unutmasligi kerak. Har bir talabaning ijtimoiy maqomi, psixologik holati va kommunikativ faolligi turlicha bo‘ladi. Ayrim talabalar liderlikka moyil bo‘lsa, boshqalari kamgap bo‘lishi mumkin. Shu sababli tyutor barcha talabalarni jalb etadigan metodlardan foydalanishi, chetda qolayotgan talabalarni ham faol muhokamaga jalb etishi zarur. Bu orqali guruh ichidagi sotsiometrik muvozanat tiklanadi va har bir talaba o‘zini jamoaning muhim a’zosi sifatida his qiladi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda marginal madaniyatga nisbatan immunitetni shakllantirish jarayoni murakkab, ko‘p qirrali pedagogik jarayon bo‘lib, unda sotsiometrik munosabatlar markaziy o‘rin tutadi. Talaba va tyutor o‘rtasidagi ishonch, hurmat va ochiqlikka asoslangan munosabatlar talabaning tanqidiy fikrlashini, ongli tanlovni amalga oshirish imkoniyatini va ijtimoiy barqarorligini rivojlantiradi. Shu bois zamonaviy ta’lim tizimida tyutor nafaqat bilim beruvchi, balki talabaning ijtimoiy va madaniy immunitetini shakllantiruvchi muhitni yaratuvchi yetakchi pedagogik subyekt sifatida namoyon bo‘lishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Yoshlar siyosatini qo‘llab-quvvatlash va ta’lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. — Toshkent, 2020.
2. Nishonova Z. T. Yoshlar psixologiyasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2021. — 300 b.
3. Ryan R. M., Deci E. L. Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness. — New York: Guilford Press, 2021. — 750 p.
4. Hargreaves A. “Leading from the Middle: Spreading Learning, Well-Being, and Identity Across Education Systems.”New York: Routledge, 2021-280 p.
5. Зимняя И. А. Педагогическая психология. — Москва: Юрайт, 2022. — 480 с.
6. Rasulov A. Sh. Talabalar ijtimoiy faolligini rivojlantirish metodikasi. — Toshkent, 2022. — 210 b.
7. Qodirov B. R. Ijtimoiy psixologiya asoslari. — Toshkent: Fan, 2023. — 275 b.
8. Karimova D. U. Ta’lim jarayonida ijtimoiy-psixologik muhit. — Toshkent, 2023. — 225 b.
9. Xolboyev N. M. Tyutorlik faoliyatining pedagogik asoslari. — Toshkent, 2024. — 190 b.

SOTSIOMETRIK MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRIN TIZIMIDA PEDAGOGIK TOLERANTLIKNING O‘RNI

Joldasbaeva Arzigul
Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI 3-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada pedagogik tolerantlik, uning sotsiometrik munosabatlardagi o‘rni, Sharq mutafakkirlarining ushbu yo‘nalishdagi qarashlari, Farobiy, Ibn Sini, Abu Rayxon Beruniy, Alisher Navoiy, Bobur qarashlari misolida tahlil qilingan. Shunga ko‘ra mazkur maqola sotsiometrlik munosabatlarni rivojlantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi*

Kalit so‘zlar: *pedagogik tolerantlik, ўзаро муносабатлар, омил, социометрик муносабатлар, qadriyatlar, мутафаккирлар, устоз-шогирд, ўқитувчи ўқувчи, ijtimoiy тажриба, муносабатлар.*

O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida hurmat, bag‘rikenglik, muloqot madaniyati va bir birini qabul qilish, anglash, qo‘llab quvvatlashga asoslangan munosabatlar tizimidir. U nafaqat axloqiy sifat bilan bir qatorda pedagogik faoliyatning muhim sharti sifatini ta’minlovchi omil hisoblanadi. U o‘qituvchi va o‘quvchilar guruh orasidagi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sotsiometrik munosabatlar tushunchasi Jacob Moreno tomonidan ilmiy asoslangan bo‘lib, u guruh a’zolari o‘rtasidagi emotsional yaqinlik, o‘zaro tanlash, ishonch va ijtimoiy aloqalar tarmog‘ini tahlil qilish imkoniyati sifatida vujudga kelgan. Ta’lim jarayonida esa sotsiometriya o‘quvchilarning o‘zaro bir biriga munosabati, liderlik pozitsiyalari, ijtimoiy maqomi hamda o‘qituvchining fasilitatorligini namoyon qilishi uchun qulay sharoit yaratadi. Pedagogik tolerantlik esa ta’lim jarayoni sub’ektlari orasidagi sotsiometrik munosaatlarni rivojlantiruvchi muhim mexanizm va o‘qituvchining kasbiy sifati darajasida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik tolerantlik birinchi navbatda, o‘quvchilar guruhida sog‘lom pedagogik muhit yaratish omili hisoblanadi. Ko‘p asrlik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, bag‘rikeng, bardoshli va adolatli o‘qituvchi o‘quvchilarga ishonch hissini uyg‘otadi, ularning fikrini erkin bayon qilishga imkoniyat yaratadi. Sharq mutafakkirlari ta’lim-tarbiya masalalarida o‘qituvchining shaxsiga, ayniqsa uning bag‘rikengligi, ya’ni tolerantligi, adolatparvarligi va insonparvarligiga alohida e’tibor qaratganlar. Ularning qarashlarida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki ma’naviy kamolotga yetaklovchi, qalb tarbiyachisi sifatida talqin etilgan. Pedagogik tolerantlik esa ushbu jarayon samaradorligini ta’minlovchi asosiy kasbiy-shaxsiy sifat hisoblanadi. Jumladan, Abu Nasr Farobiy ta’lim-tarbiyani jamiyat taraqqiyotining asosiy omili deb bilgan. Uning fikricha, muallim insonlarni komillikka yetaklovchi shaxs bo‘lib, u adolatli, sabr-toqatli va bag‘rikeng bo‘lishi shart. Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida o‘qituvchini fozil inson sifatida ko‘rgan va talqin etgan. O‘quvchidagi barcha ijobiy sifatlar o‘qituvchining tolerant munosabati mahsuli ekanligi mutafakkirlar tomonidan qayta qayta ta’kidlangan. Farobiyning fikriga ko‘ra, o‘qituvchi o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olib, ularga nisbatan bir xil mehr va e’tibor ko‘rsatishi lozim.

Abu Ali ibn Sino ham o‘qituvchi shaxsi, uning toderantligi, sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish mahoratiga muayan talablar qo‘ygan. U ta’lim jarayonida zo‘ravonlik va qattiqqo‘llikni qoralab, mehr-muhabbat va muloyimlikka asoslangan munosabat zarurligini ilgari suradi. Ibn Sino bola qalbi nozik bo‘ladi, shuning uchun o‘qituvchi tolerant bo‘lib, har bir o‘quvchiga ruhiy jihatdan yaqinlashishi kerak deb hisoblaydi.. Bu yondashuv o‘quvchining bilimga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va uning sotsiometrik rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Abu Rayhon Beruniy o‘z asarlarida ilm olish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarda sabr-toqat va o‘zaro hurmatning muhimligini ta’kidlaydi. Ustoz va shogird o‘rtasidagi munosabatlar samimiy va ishonchli bo‘lishi lozimligi mutafakkir tomonidan e’tirof etilgan. Beruniyning fikricha, tolerant o‘qituvchi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va izlanishga bo‘lgan intilishni kuchaytiradi.

Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida muallimning axloqiy fazilatlariga alohida e’tibor qaratgan. Unda adolat, insof, sabr va tolerantlik ustoz-murabbiylarning asosiy sifati ekanligi ta’kidlangan. U o‘qituvchi o‘quvchiga hikmat va muloyimlik bilan ta’sir ko‘rsatishi kerak degan hoyani ilgari surgan.

Alisher Navoiy o‘z she’r va dostonlarida ustozning insonparvarligi va mehr-oqibatli bo‘lishi zarurligini e’tirof etgan. Uning asarlarida insonga hurmat, kechirimlilik va bag‘rikenglik yuksak qadriyat darajasida talqin etiladi. Navoiyning qarashlariga ko‘ra, ustoz o‘z shogirdlariga

nisbatan mehribon va bag‘rikeng bo‘lsa, ularda ham shu sifatlarning shakllanishiga asos bo‘ladi. Shuningdek, shox va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur ham o‘z maktublari va “Boburnoma” asarida muloyimlik, ochiqlik va o‘zaro bir birini tushunishning muhimligini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, shaxslararo munosabat-muomalada qattiqqo‘llik emas, balki oqilona va bag‘rikeng munosabat ustuvor bo‘lishi kerak.

Sharq mutafakkirlarining e’tirof etishlariga ko‘ra, o‘qituvchining tolerantiligi quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- o‘quvchilarda o‘zaro ishonch va hurmat hissini shakllantirish;
- ta’lim-tarbiya jarayonida guruhda ijobiy psixologik muhit yaratish;
- o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish;
- axloqiy tarbiya imkoniyatlarini kengaytirish kabilar.

Bu o‘z navbatida o‘qituvchi hamda o‘quvchilar orasidagi sotsiometrik munosabatlarni barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Ko‘rinib turibdiki pedagogik tolerantlik o‘quvchilardagi ijtimoiy cheklanish, og‘ish va marginallashuvning oldini oladi. Har bir sinfda turli xarakterga ega, muloqotga kam kirishadigan yoki o‘qishda qiynaladigan o‘quvchilar faoliyat ko‘rsatadi. Agar o‘qituvchi tolerant yondashuvni qo‘llasa, bunday o‘quvchilarni faol ishtirokga jalb etadi, ularni qo‘llab-quvvatlaydi. Bu esa sotsiometrik statuslar o‘rtasidagi keskin farqlarni yumshatib, guruhda tenglik va hamjihatlikni ta’minlaydi.

Pedagogik tolerantlik kommunikatsiya madaniyatini rivojlantiradi. U bo‘lajak o‘qituvchini turli fikrlar, qarashlar va dunyoqarashlarni qabul qilishga o‘rgatadi. Bu jarayonda o‘quvchilar nafaqat o‘z fikrini bildirishni, balki boshqalarni tinglash va tushunishni ham o‘rganadilar. Natijada o‘zaro hurmatga asoslangan muloqot shakllanib, sotsiometrik aloqalar mustahkamlanadi. Shunindek, pedagogik tolerantlik konfliktlarning oldini olish va ularni konstruktiv hal qilishda pedagogik tolerantlikning o‘rni katta. Ta’lim jarayonida turli kelishmovchiliklar tabiiy hol. Ammo tolerant muhitda bu nizolar ziddiyatga aylanmaydi, balki muloqot va tushunish orqali hal etiladi. Bu esa guruhdagi ijtimoiy munosabatlarni barqaror saqlashga xizmat qiladi.

Pedagogik tolerantlik o‘quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantiradi. Masalan, empatiya, hamkorlik, mas’uliyat, ijtimoiy faollik kabi sifatlar aynan tolerant muhitda shakllanadi. Bu sifatlar esa sotsiometrik munosabatlarning sifat jihatdan yaxshilanishiga olib keladi.

Pedagogik tolerantlikni rivojlantirish muammoga kompleks yondashishni taqozo qiladi. Bu borada quyidagi yo‘nalishlar muhim ahamiyatga ega:

- ta’lim jarayonida interaktiv va hamkorlikka asoslangan metodlardan foydalanish zarur.
- empatiya va refleksiyani rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni aniq loyihalash va tashkil etish lozim.
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish muhimdir. Bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat, inson qadrini e’zozlash kabi tamoyillar ta’lim mazmuniga integratsiya qilinishi kerak.
- sotsiometrik diagnostikadan samarali foydalanish lozim. Sotsiometriya usuli orqali guruhdagi munosabatlar tahlil qilinib, qaysi o‘quvchilar izolyatsiyada ekanligi yoki liderlik pozitsiyasida turgani aniqlanadi. Shu asosda pedagogik ta’sir choralari ishlab chiqiladi.

Pedagogik tolerantlikni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, jumladan, konstruktivistik va ijtimoiy-madaniy yondashuvlar ham muhim o‘rin tutadi. Bu yondashuvlar ta’limni muloqot, hamkorlik va ijtimoiy tajriba asosida tashkil etishni taqozo etadi. Xulosa qilib aytganda, pedagogik tolerantlik sotsiometrik munosabatlarning sifatini belgilaydigan asosiy

omillardan biri hisoblanadi. U guruhda ijobiy psixologik muhit yaratish, o‘zaro ishonchni mustahkamlash, ijtimoiy adolat va hamkorlikni ta’minlash orqali ta’lim samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Safarova R.G. O‘qituvchi-o‘quvchi orasidagi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish mexanizmlari // “Pedagogika” jurnali. 2026-yil, 1-son. 26-30-b.
2. Морено Я.Л. Социометрия: экспериментальный метод и наука об обществе / Пер. с англ. А. Боковикова. - М.: Академический проект, 2004. - 315 с.
3. Левин Курт. Динамическая психология: избранные труды. - М.: Смысл, 2001. - 572 с.
4. Роджерс К. Клиент-центрированная психотерапия: теория, современная практика и применение. - М.: Психотерапия, 2007. - 560 с.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHINING FUNKSIONAL KOMPETENSIYASI DOIRASIDA SOTSIOMETRIK YONDASHUVNING O‘RNI

Kunnazarova Bibixatisha Babanazarovna
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
3-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchining funksional kompetensiyasi doirasida sotsiometriyaga bo‘lgan munosabatning shakllanishi, uning o‘quvchilar orasidagi sotsiometrik munosabatlarni barqarorlashtirish va rivojlantirish bilan bog‘liq fnksiyasi, bu jarayonda amal qiladigan mexanizmlar va qo‘llaniladigan metodlar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, funksionallik, bo‘lajak o‘qituvchi, o‘quvchilar, diagnostika, kommunikatsiya, refleksiya, emotsionallik, hamkorlik, o‘zaro ishonch, kelishuv, faollik.*

Bo‘lajak o‘qituvchining funksional kompetensiyasi ta’lim-tarbiya jarayonida o‘z kasbiy vazifalarini samarali bajarish, o‘quvchilar bilan maqsadli pedagogik muloqot o‘rnatish, sinf jamoasini boshqarish, o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash kompetensiyasi sifatida namoyon bщladi. Ushbu kompetensiya tarkibida o‘quvchilar bilan amalga oshiriladigan sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Chunki o‘qituvchi o‘quvchilar bilan berish bilan bir qatorda ularning shaxsiy ijtimoiy taraqqiyotini muhitni shakllantiruvchi muvofiqlashtiruvchi shaxs hisoblanadi.

Sotsiometrik munosabatlar dirasida sinf jamoasining umumiy kayfiyati tushuniladi. Bo‘lajak o‘qituvchi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishda, avvalo, sinf jamoasining ichki tuzilishini bilishi lozim. O‘qituvchining funksional vazifalardan biri sinfdagi o‘quvchilar orasidagi farqlarni aniqlay olishdan iborat. Bu jarayonda o‘qituvchi kuzatuvchi, tashkilotchi, maslahatchi, yo‘naltiruvchi va tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatuvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.

Sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishning muhim mexanizmlaridan biri diagnostik mexanizmdir. Bu mexanizm orqali bo‘lajak o‘qituvchi o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlar holatini aniqlaydi va ijobiy holatlarni rivojlantirishga, salbiylarni esa bartaraf etishga harakat qiladi.

Ikkinchi muhim mexanizm kommunikativ mexanizm hisoblanadi. Bu mexanizm o‘qituvchining o‘quvchilar bilan muloqot madaniyati, tinglash qobiliyati, samimiy munosabati

va nutq orqali ta’sir ko‘rsatish imkoniyatlarni kengaytiradi. O‘quvchilarda dialogik munosabatlar madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bo‘lajak o‘qituvchi har bir o‘quvchi bilan ochiq, hurmatga asoslangan, qo‘llab-quvvatlovchi muloqot o‘rnatish tajribasini egalasa, istiqboldagi kasbiy faolyati davomida sinfda ijobiy sotsiometrik muhitni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘qituvchining biror o‘quvchini kamsitishi, uning fikrini e’tiborsiz qoldirishi yoki faqat faol o‘quvchilar bilan ishlashi sinfda nomutanosib munosabatlarni kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi barcha o‘quvchilarni muloqotga jalb etishi, ularning fikrini qadrlashi, ijobiy rag‘batlantirishi kerak.

Uchinchi mexanizm hamkorlikka asoslangan faoliyat mexanizmidir. Sotsiometrik munosabatlar faqat suhbat orqali emas, balki birgalikdagi faoliyat jarayonida rivojlanadi. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchi darsda juftlikda ishlash, kichik guruhlarda ishlash, loyiha tayyorlash, rolli o‘yinlar, munozaralar, ijodiy topshiriqlar kabi metodlardan foydalanish kompetensiyasiga ega bo‘lish lozim. Bunday metodlar o‘quvchilarni bir-biri bilan muloqot qilishga, vazifalarni taqsimlashga, kelishishga, bir-birini tingab tushunishga va umumiy natija uchun mas’uliyat his qilishga o‘rgatadi.

To‘rtinchi mexanizm emotsional-psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmidir. Ayrim o‘quvchilar o‘zini jamoada erkin his qilmasligi, tortinishi, rad etilishdan qo‘rqishi yoki sinfdoshlari bilan tez munosabat o‘rnata olmasligi haqida bo‘lajak o‘qituvchilar aniq ilmiy tasavvurga ega bo‘ilishlari kerak. Bo‘lajak o‘qituvchi bunday o‘quvchilarni alohida e’tibor bilan qo‘llab-quvvatlashi, ularni kichik muvaffaqiyatlar orqali rag‘batlantirishi, sinfda ijobiy munosabat va xavfsiz psixologik muhit yaratish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi muhim. O‘quvchi o‘zini qadrlangan, eshitilgan va qabul qilingan deb his qilsa, uning jamoaga qo‘shilishi osonlashadi.

Beshinchi mexanizm refleksiv mexanizm. Ushbu mexanizm o‘quvchilarni o‘z munosabatlarini anglashga, o‘z xatti-harakatini baholashga, boshqalarga nisbatan munosabati ustida muloqhaza qilishga o‘rgatadi. Shuning uchun ham bo‘lajak o‘qituvchilar mazkur mexanizlardan foydalanish usullarini puxta egallashlari talab etiladi.

Sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishda guruhli ish metodi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, talabalar pedagogik amaliyot davrida ushbu metoddan keng foydalanishlari lozim. O‘qituvchi guruhlarni doim bir xil tarkibda saqlamasdan o‘quvchilarning o‘ziga xos tavsifini yaxshi bilgan holda ularnining o‘rnini almashtirib turishi kerak. Masalan, faol o‘quvchini tortinchoq o‘quvchi bilan bir guruhga qo‘shish, yetakchi o‘quvchiga boshqalarni qo‘llab-quvvatlash vazifasini berish, kam muloqot qiladigan o‘quvchilarni ijobiy muhitga ega guruhlarga kiritish o‘quv samaradorligini ta’minlash imkonini beradi. Bu orqali o‘quvchilar yangi munosabatlarga kirishadi va sinfdagi yopiq guruhlar ta’siri kamayadi.

Mahsuldor metodlardan yana biri rolli o‘yinlar va vaziyatli mashqlardir. Bu metod o‘quvchilarni turli ijtimoiy holatlarda o‘zini tutishga o‘rgatadi. O‘quvchilar bu orqali hamdardlik, tushunish, murosa qilish, muloqotda odob saqlash va muammoni tinch yo‘l bilan hal qilish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Munozara va davra suhbati metodi ham sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishda muhimdir. Davra suhbatida barcha o‘quvchilar teng ishtirok etadi, har kim o‘z fikrini bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu metod sinfda ochiq muloqot, o‘zaro hurmat va tinglash madaniyatini shakllantiradi. O‘qituvchi esa suhbatni boshqarib, har bir o‘quvchining fikri qadrli ekanini ko‘rsatadilar.

Loyiha metodi orqali ham o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalar mustahkamlanadi. Loyiha ishida o‘quvchilar maqsad qo‘yadilar, vazifalarni taqsimlaydilar, ma’lumot yig‘adilar, natijani taqdim etadilar. Bu jarayonda ular bir-biriga suyanadi, maslahatlashadi, kelishadi va umumiy ish uchun mas’uliyatni his qiladilar. Shuning uchun loyiha faoliyati o‘quvchilarning hamkorlik, yetakchilik, mas’uliyat va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi samarali metod hisoblanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchi uchun yana bir muhim metod pedagogik kuzatuv va individual yondashuvdir. Har bir o‘quvchining sinfdagi mavqei, do‘stlari, muloqot uslubi, nizolarga munosabati, faollik darajasi turlicha bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchi umumiy tarbiyaviy ishlar bilan cheklanib qolmasdan, har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olishi lozim. Ayniqsa, jamoadan chetda qolgan, o‘zini yolg‘iz his qiladigan yoki tengdoshlari bilan muloqotda qiynaladigan o‘quvchilar bilan alohida ishlash kompetensiyasiga ega bo‘lish bo‘lajak o‘qituvchilar uchun muhim hisoblanadi.

Sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishda rag‘batlantirish metodi ham katta ahamiyatga ega. O‘qituvchi faqat bilimni emas, balki o‘zaro yordam, do‘stona munosabat, mas’uliyat, hamkorlik, boshqalarni tinglash, adolatli bo‘lish kabi ijobiy ijtimoiy xatti-harakatlarni ham rag‘batlantirishi kerak. Masalan, “Bugun sen guruhdoshingga yaxshi yordam berding”, “Sen boshqalarning fikrini diqqat bilan tinglading”, “Sen kelishmovchilikni tinch hal qilishga harakat qilding” kabi rag‘batlantiruvchi baholar o‘quvchilarni faollik va ijobiy xulq-atvor namunasini egallashga undaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchi funksional kompetensiyasining yana bir muhim jihati nizolarni pedagogik hal qilish qobiliyatidir. Sinfda o‘quvchilar o‘rtasida tushunmovchilik, raqobat, hasad, guruhbozlik yoki bir-birini qabul qilmaslik holatlari uchrashi mumkin. O‘qituvchi bunday holatlarni jazo orqali emas, balki tushuntirish, suhbat, murosa, o‘zaro kelishuv, hamdardlik va adolatli yechim topish orqali bartaraf etishi kerak. Nizoli vaziyatlar to‘g‘ri boshqarilsa, ularning tarbiyaviy imkoniyati kegayadi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchi sinfda ijobiy psixologik iqlim yaratishi zarur. Buning uchun darslarda qo‘pol raqobat emas, sog‘lom hamkorlik muhiti ustuvor bo‘lishi kerak. O‘quvchilar bir-birini masxara qilmasligi, xatodan qo‘rqmasligi, o‘z fikrini erkin bayon qilishi, boshqalarning fikriga hurmat bilan qarashi lozim. Bunday muhit o‘quvchilarning o‘qishga qiziqishi, ijtimoiy faolligi va o‘zini namoyon qilishini jadallashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchining funksional kompetensiyasi tarkibida sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish uning kasbiy tayyorgarligining muhim yo‘nalishidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Safarova R. Kognitiv pedagogikaga oid nazariy yondashuvlar. Monografiya. – Toshkent.: “Science and innovation”, 2024.

2. Safarova R.G. Mechanisms of applying the cultural science approach to the didactic process based on the integration of pedagogical subjects science and innovation international scientific journal volume 2 issue 9 september 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. P 495-499

3. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. –Toshkent, 2015. –120 bet

4. Leontev A.N. Deyatelnost. Soznanie. Lichnost. – M.: Izd-vo Smыsl, Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2004. – S. 82-83.

5. Raven Dj. Kompetentnost v sovremennom obщestve: vыyavlenie, razvitie i realizatsiya. – M.: Kogito-Sentr, 2002. – S. 65.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING PROGNOZLASH KOMPETENSIYASI O‘QITUVCHI O‘QUVCHI ORASIDAGI SOTSIOMETRIK MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Bekmuratov Arzıwbay Kojamuratovich
Ajiniyoz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti
Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarda shakllantiriladigan prognozlash kompetensiyasi ularning istiqboldagi pedagogik faoliyatida muhim o‘rin egallashi, ayniqsa sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish jarayonida strategik ahamiyat kasb etishi uning asosiy mexnizmlari va yo‘nalishlari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *prognozlash, kompetensiya, strategiya, sotsiomteriya, diagnostik prognostik, hamkorlik, chetda qolish, rivojlanish, maqsadli harakatlar, loyihalash.*

Bo‘lajak o‘qituvchining prognozlash kompetensiyasi pedagogik jarayonni oldindan ko‘ra bilish, o‘quvchilar rivojlanish tendensiyalarini bashorat qilish, sinfdagi ijtimoiy-psixologik vaziyatni tahlil qilish va istiqboldagi pedagogik harakatlarni ilmiy jihatdan rejalashtirish kompetensiyasini ifodalaydi. Ushbu kompetensiya sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish mexanizmlari bilan aloqadorlikda namoyon bo‘ladi. Prognozlash kompetensiya sotsiometrik jarayonlarni boshqarishda strategik asos vazifasini bajaradi. Agar o‘qituvchi sinfdagi mavjud munosabatlarni faqat kuzatish bilan cheklansa, unda kasbiy passivlik, loqaydlik, ustuvorlik qiladi. Biroq mazkur munosabatlarning kelajakda qanday rivojlanishini oldindan ko‘ra olsa, pedagogik jarayonga nisbatan strategik boshqaruvni amalga oshiradi. Shu nuqtai nazardan prognostik kompetensiya quyidagi jihatlarda sotsiometriya bilan bog‘lanadi:

1. **Sotsiometrik munosabatlarning rivojlanish tendensiyalarni bashorat qilish**. O‘qituvchi sotsiometrik ma’lumotlar asosida guruhdagi munosabatlar dinamikasini anglaydi. Bu ma’lumotlar istiqboldagi pedagogik ta’sir vositalarini aniqlash va rejalashtirishga xizmat qiladi.
2. **Nizolarni oldindan ko‘ra olish**. Sotsiometrik tahlil orqali o‘qituvchi yashirin ziddiyatlarni aniqlaydi. Prognostik kompetensiya esa ushbu ziddiyatlar kuchayishidan oldin ularni yumshatish choralarini ishlab chiqish imkonini beradi.
3. **O‘quvchilarning individual rivojlanish traektoriyasini belgilash**. Har bir o‘quvchining jamoadagi o‘rnini hisobga olgan holda, o‘qituvchi uning ijtimoiy faolligini oshirish yoki muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha maqsadli ish olib boradi.
4. **Guruh dinamikasini boshqarish**. Prognostik kompetensiya o‘qituvchiga guruhdagi munosabatlarni rejali ravishda o‘zgartirish imkonini beradi.

Prognostik kompetensiya sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish mexanizmlarining samaradorligini ta’minlaydi. Biz quyida ushbu mexanizmlarni tasniflashga harakat qilamiz:

Diagnostik-prognostik mexanizm. Bu mexanizmda sotsiometriya faqat holatni aniqlash bilan bir qatorda istiqboldagi o‘zgarishlarni bashorat qilish vositasiga aylanadi. Bunda sotsiometrik karta orqali o‘qituvchi izolyatsiyalangan o‘quvchilarni aniqlab, ularni jamoaga integratsiya qilish strategiyasini oldindan belgilaydi.

Loyihalashtirish mexanizmi. O‘qituvchi sotsiometrik ma’lumotlar asosida guruhli ishlarni rejalashtiradi. Bu yerda prognostik yondashuv muhim, chunki o‘qituvchining har bir qarori istiqboldagi ijtimoiy munosabatlarga ta’sir ko‘rsatadi.

Korreksion-rivojlantiruvchi mexanizm. Agar guruhda salbiy munosabatlar kuzatilsa, o‘qituvchi ularni tuzatish uchun maqsadli ta’sir ko‘rsatadi. Prognozlash kompetensiya bu jarayonda qaysi usul samarali bo‘lishini oldindan baholashga yordam beradi.

Refleksiv-prognostik mexanizm. O‘quvchilar va o‘qituvchi o‘z munosabatlarini tahlil qiladi va kelgusi faoliyatni rejalashtiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchining prognostik kompetensiyasi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bashoratga asoslangan pedagogik ta’sir orqali o‘qituvchi jamoada ishonch va hamkorlikni tizimli ravishda rivojlantiradi. Prognostik tahlil orqali chetda qolgan o‘quvchilar erta aniqlanadi va ular bilan maqsadli ish olib boriladi. O‘qituvchi potensial yetakchilarni aniqlab, ularni ijobiy yo‘nalishda rivojlantiradi va jamoaga ijobiy ta’sirini kuchaytiradi. Bo‘lajak o‘qituvchining prognostik kompetensiyasi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishning ilmiy-amaliy asosini tashkil etadi. U sotsiometriyani oddiy diagnostik vositadan strategik boshqaruv vositasiga aylantiradi. Natijada sog‘lom, hamkorlikka asoslangan, ishonchli va samarali ta’lim muhiti shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Safarova R.G. Bo‘lajak o‘qituvchilarda prognozlash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari. https://doi.org/10.5281/zenodo.10675669
2. Фейгенберг И. М.Николай Бернштейн: от рефлекса к модели будущего. – М.: Смысл, 2004. - 239 с
3. Присяжная А.Ф. Педагогическое прогнозирование в системе непрерывного педагогического образования (методология, теория, практика) // Автореф. дисс. ... д-ра пед. наук. - Екатеринбург, 2006. - 44 с
4. Исмоилова Д.М. Таълим соҳасида прогноз қилиш илмий-педагогик муаммо сифатида Academic research in educational sciences Volume 1 | ISSUE 3 | 2020 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020.

II SHO‘BA
MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA MAKTABGACHA VA MAKTABDAGI PEDAGOGIK JARAYONLARDA TA’LIM OLUVCHILARDA SOTSIOMETRIK MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI VA STRATEGIYALARI

КУЛЬТУРНАЯ ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СРЕДА В ШКОЛЕ

Р.Х. Karimovраев
Д.п.н., завед. отдел НИПВ им.Кары Ниязи

Понятие «культура» отличается многогранностью и сложностью. «Культура (в рамках такого синкретического представления) - это сумма духовных достижений и памяти человечества; творческое самовыражение людей (результат и процесс творчества); совокупность общественных смыслов, знаков и символов; система норм и образцов поведения, бытующих в обществе; основа социального поведения, унаследованная от предыдущих поколений (язык, теоретические идеи, повседневно культурно организованные виды деятельности); способ жизни и жизнедеятельности, а также их контекст; совокупность материальных и духовных ценностей; плотность опыта: достижения личности, приобщаемые ею и приобщающие ее к сумме общечеловеческих достижений» [5]. Существует более 300 определений понятия «культура». Это результат реального многообразия проявлений культуры: ее внедренности фактически во все проявления социальной жизни, ее контекстности, многомерности и полисистемности, а значит, и высокой степени значимости для социума [4].

По определению Л.П. Буевой, «культура включает в себя исторически конкретную совокупность знаково-символических систем, аккумулирующих опыт бытия в виде способов восприятия, мышления, познания, переживания и действия, а также в виде знаний, ценностей способов и критериев оценки, нормативов, целей и смыслов, хранящих и воспроизводящих опыт собственно духовной деятельности в общественном и личном менталитете. Наконец, это техника и технология всех форм духовно-практической деятельности человека в мире, форм коммуникаций, взаимодействий и общения» [2], В культуре заложена гармония знания, творческого /действия, чувств и общения. Наконец, целостность (гармония) выражается и в том, что культура есть разрешение противоречий между крайностями (природа и производство, труд и отдых, физическое и духовное, общество и личность, требовательность и тактичность и др.) [4]. Как считал Т.Н. Ойзерман «культура в полном объеме присущего ей содержания - это культура труда, управления, культура научного исследования, образования, воспитания, художественной культуры, культуры поведения, досуга, физической культуры, культура чувств, мышления, политической культуры [6].

Образование, обслуживая ту или иную культурную эпоху, отражает ее признаки, актуализирует те или иные смыслы мира артефактов. Господствующая же культура определяет способы формирования конкретного социально-педагогического идеала (модели личности, успешно действующей в культурных реалиях). Культура создаёт систему общественного воспитания, выделяя его субъекты - семью, род, общество и государство, они и порождают институт целенаправленного воссоздания этого социально-педагогического идеала - систему образования. Каждое поколение формируется под влиянием природы и культурной среды, созданной человеком. Так совершается своеобразный круговорот: человек «опредмечивает» в ней свой тип сознания, а в результате формируется сознание нового поколения, способного создавать культурные программы. Чтобы «расшифровать» смыслы артефактов, каждому следующему поколению необходим посредник, поскольку обретение смыслов не передается

генотипически, а находится в сфере социального наследования. В результате появляется специальный вид деятельности - педагогическая, которая его обеспечивает [7].

Образование - это способ коллектива приобщить молодое поколение к ценностям и навыкам, характеризующим культуру данного общества. Следовательно, образование - явление вторичное по отношению к культуре и в норме представляет собой как бы краткое изложение, её выжимку. Это, разумеется, предполагает определённый временной разрыв: культура должна обрести свою настоящую форму, прежде чем она сможет создать отражающее её образование [7].

Культура непосредственно не транслируется, не передается от учителя к ученику как некая установка. Культура вызревает как собственный уникальный образ мыслей, поступков и действий взрослого и ребенка, как особенность их внутренней и внешней жизни. Поэтому школа, если она истинно культуросообразна, должна ставить ребенка в условия, когда он сам начинает действовать культурно, творчески используя выбираемые им ценности, нормы, знания и образцы.

Интерес к вопросам культуры, непрерывно нарастающий в отечественных гуманитарных науках с конца 60-х гг., в педагогике не проявлялся системно. Такие исследователи как М.Н. Скаткин, В.В. Краевский, И.Я, Лернер использовали концепцию культуры для разработки теоретических основ дидактики, в частности, содержания общего образования. Б.М. Неменский разрабатывает в аспекте, культуры содержание эстетического образования и воспитания. Исследователи стали последовательно применять понятие культуры образования для характеристики качественного состояния педагогической действительности в целом или отдельных ее явлений и процессов только в последнее десятилетие (Александрова. Е.А., Бондаревская Е.В., Крылова Н.Б., Розин А.В,, Щуркова Н.Е. и другие).

Е.В. Бондаревская рассматривает культуру образования как «часть общечеловеческой культуры, в которой в наибольшей степени запечатлены духовные и материальные ценности, а также способы творческой педагогической деятельности людей, необходимые человечеству для обслуживания исторического процесса смены поколений и социализации (взросления, становления) личности» [3]. Нельзя не согласиться с точкой зрения Л.П. Буевой, согласно которой «тесное взаимодействие культуры и образования в процессе развития человека есть одно из важных условий его целостности, способности адаптироваться к противоречивым условиям бытия и противостоять негативным воздействиям среды, опираясь на духовную культуру личности» [2]. Культура образования определяется как часть общей культуры. Рассматривая же образование как часть целого - культуры, можно выделить у них ряд общих признаков. Это - единый объект влияния: человек; креативный характер феноменов; гуманные методы влияния на человека; общая цель - развитие его духовности.

Образование как подсистема культуры всегда нацелено на формирование личности, готовой успешно действовать в условиях существующей культуры. Но образование закладывает в человеке способность создавать культурные программы будущего. В этом смысле образование - механизм культурогенеза, который можно сформулировать так: чтобы обеспечить свое существование в мире естественной природы, человек создаёт культуру - искусственный мир артефактов, культурных идей и ценностей, норм и смыслов [4].

Одним из первых ученых, употребившим понятие «педагогическая культура» был А.В. Барабанщиков. Основными слагаемыми ее он считал:

- педагогическая направленность (система специфических профессиональных отношений, взглядов, убеждений);
- психолого-педагогическая эрудиция;
- гармония развитых интеллектуальных и нравственных качеств;
- высокое педагогическое мастерство и организованность в повседневной деятельности;
- умение продуктивно сочетать учебно-воспитательную и научно-исследовательскую работу;
- совокупность личностных качеств педагога (одухотворенность, способность работать целеустремленно, с перспективой и полной отдачей, открытость, дружественность, готовность к совместной работе;
- педагогически направленное поведение и общение;
- постоянная устремленность к самосовершенствованию [1].

Педагогическая культура еще одно понятие, производное категории «культура», будет полезным в дальнейшем исследовании культурологической миссии школы. На макроуровне она рассматривается как часть общей культуры, представленной в сознании людей в виде ценностей, норм и традиций воспитания; на мезоуровне - как совокупность представлений в общественном сознании в конкретно-исторических и социально-культурных условиях процессов обучения и воспитания и их особенностей; на микроуровне - как конкретная система нравственных, психологических и технологических позиций, свойственная определенному профессиональному педагогическому сообществу; на личностном уровне - как педагогическая культура профессионала-педагога [4].

Наглядный пример понимания роли и предназначения педагога как «человека культуры» мы находим в методологическом наследии К.Д. Ушинского. Для него профессия учителя органично связана с самосознанием себя как личности и представляет ступени его восхождения и роста на путях культуры: это осознание себя прежде всего в профессии, а далее в своей связи с народом и национальным самосознанием и, наконец, в жизни человечества, в его борьбе со злом во всех его проявлениях. Как широко мыслящий педагог, он решительно против «замыкания» учителя на опыте - своем и своих коллег. Статья «О пользе педагогической литературы» направлена на расширение кругозора учителя, осознание им своей культурной миссии [8]. Зафиксируем тот факт, что в историко-педагогическом контексте понятие «миссия» употребляется как некая сверхзадача педагога-профессионала по воспитанию личности ученика.

В связи с укреплением позиций гуманистического образования встают задачи проектирования новой культурной педагогической среды как многомерного пространства, адекватного современным потребностям детей и подростков и соответствующего тенденциям развития современной культуры, экономики, производства и технологий. Поэтому нужна и разработка гибкого средового подхода, ориентированного не столько на объектный, предметный мир, сколько на развитие мира коммуникаций, связей и взаимоотношений в образовательных системах; на предметное и коммуникационное обеспечение развивающей и организующей среды. Данной проблеме посвящено монографическое исследование А.В. Иванова, который утверждает, что проектирование

культурной педагогической среды в практике школы может стать важным показателем эффективного развития современного образовательного учреждения [4].

Проектирование многообразной среды предполагает: продуманную организацию всех сфер школы для разнообразной деятельности детских сообществ, широкое практическое использование (а не демонстрацию) системы высокотехнологического оборудования и коммуникаций. Преобразование среды поможет становлению иного культурного типа образования, иного культурного образа жизни школы.

Культурная среда в целом - пространство жизнедеятельности людей. Это - окружающее человека пространство, освоенное им и неосвоенное (но потенциально возможное), предметное и знаковое, ценностное для него и нейтральное. Это и макросреда, и непосредственное, социокультурное поле общения, микросреда, где личность активно действует и реализует себя как субъект культуры и где, главное, он выбирает наиболее значимое как материал для самообразования и самостроительства [5].

Культурная среда - это пространство потенциальных возможностей культурного развития человека, тогда как социокультурная среда выступает непосредственно активным фактором влияния на человека, его взгляды, вкусы, мировоззрение в целом.

Культурная педагогическая среда школы - есть сфера развития тех сторон жизни детей и взрослых, которая помогает им в процессе их взаимодействия раскрыть потенциальные возможности человека, является не только важным источником культурного развития личности («питательная среда»), но и идейно-ценностной атмосферой культурного становления личности и внутришкольных сообществ, определяет духовно-нравственный, творческий и интеллектуальный «климат» (уклад, образ жизни) образовательного учреждения, оказывает свое влияние на культурную среду социума, обеспечивает преемственность культурных оснований социума и региона в их историко-образовательном контексте, при этом происходит взаимообогащение этих сред.

Определяющим элементом культурной педагогической среды являются те уникальные отношения между ее субъектами, которые направлены на развитие и саморазвитие личности. Они пронизывают все компоненты культурной педагогической среды школы. Именно эти отношения создают тот особый образ жизни, в котором творчество, социальные инициативы, познавательная активность, взаимопомощь и сотрудничество детей и взрослых «заражают» других без всякого принуждения и насилия, закрепляются в деятельности и постепенно переходят в традиции.

ЛИТЕРАТУРА

1. Барабанщиков А,В., Муцынов С.С. Педагогическая культура преподавателя высшей школы.-М., 1985. - С. 34-35.
2. Буева Л.П. Культура и образование. Проблема взаимодействия // Культура и культурология образования (материалы круглого стола) // Вопросы философии, 1997. - С. 13-14.
3. Введение в педагогическую культуру: Уч. пособие / Под ред. Бондаревской Е.В. - Ростов н/Д, 1995. - С. 172.
4. Иванов А,В. Культурная педагогическая среда общеобразовательного учреждения как условие развития личности ребенка: Монография. - М.:, 2005. - 143 с.
5. Крылова Н.Б. Культурология образования // Новые ценности образования. - М.: Народное образование, 2000. Сб. № 10. - 272 с. - С. 34.

6. Международный форум философов: мировоззренческий спор // Вопросы философии. 1984. №5.-С. 31-47. - С. 32.
7. Новые ценности образования. Культуросообразная школа. 2002. - Вып. 11. - С. 4.
8. Ушинский К.Д. О пользе педагогической литературы. Избр. лед. соч.: В 2 т. - М., 1974. -Т.2. - С. 304-326.

O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHILAR O‘RTASIDA SOTSIOMETRIYA MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI

Tolipov O‘tkir Qarshievich,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti "Texnologiya va professional ta’lim metodikasi" kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori.

Annotatsiya. *Madaniyatshunoslik yondashuvi asosida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi sotsiometriya munosabatlarni (o‘zaro moyillik, xayrixohlik, obro‘-e’tibor) rivojlantirish madaniyatni ta’lim jarayoni ishtirokchilarining xulq-atvori, qadriyatlari va tafakkurini belgilaydigan asosiy omil sifatida tan olishga tayanadi. Bu jarayonda o‘qituvchi nafaqat bilim uzatuvchi, balki madaniyat va o‘quvchi o‘rtasidagi vositachi sifatida ham namoyon bo‘ladi, munosabatlar esa gumanizm, muloqot va o‘zaro hurmat tamoyillariga quriladi.*

Kalit so‘zlar: *madaniyatshunoslik, sotsiometriya, ta’lim jarayoni, gumanizm, strategiya, qadriyat, muloqot, hamkorlik, manfaat.*

Madaniyatshunoslik yondashuv asosida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarni (simpatiya, moyillik va o‘zaro ishonch tizimini) rivojlantirish strategiyalari ta’lim jarayonini madaniyatlar muloqoti makoniga aylantirishga qaratilgan. Bu jarayonda o‘qituvchi vositachi, o‘quvchi esa madaniy jihatdan o‘zini-o‘zi rivojlantirish sub’ekti sifatida namoyon bo‘ladi. Madaniyatshunoslik yondashuv bilimlardan ko‘ra qadriyatlarning ustuvorligini, hamkorlikni, tanlov erkinligini va shaxs o‘ziga xosligining tan olinishini nazarda tutadi.

Quyida madaniyat prizmasi orqali sinfning sotsiometrik tuzilishini yaxshilashga qaratilgan asosiy strategiyalar keltirilgan.

1."Madaniyatlar muloqoti" strategiyasi (Munosabatlarni insonparvarlashtirish).

Strategiya rasmiyatchilikni yengib, o‘qituvchi va o‘quvchi haqiqatni birgalikda izlaydigan sub’ekt-sub’ekt munosabatlariga o‘tishga qaratilgan.

Muloqot darslari: o‘qituvchi o‘quvchilarning madaniy konteksti, qiziqishlari va oilaviy an’analarini hisobga olgan holda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etadigan fanlararo texnologiyalardan foydalanish.

Ta’limni "insoniylashtirish": faqat quruq faktlarni yetkazishga emas, balki materialni hissiy bayon etish va insoniy munosabatlar madaniyatini tushunishga e’tibor qaratish.

"Madaniyat odami"ni tarbiyalash: pedagog o‘quvchilarda ijodiy qobiliyat, mustaqillik va madaniy qadriyatlarga hurmat bilan qarashni rivojlantirishga e’tibor qaratadi.

2. "Ijtimoiy-madaniy moslashuv" strategiyasi (Ishonch muhitini yaratish)

Har bir o‘quvchi o‘zini qabul qilingan deb his qiladigan xavfsiz makonni yaratishga qaratilgan bo‘lib, bu "ajratilganlar"ning sotsiometrik maqomini oshiradi.

Madaniy muhitni o‘rganish: o‘qituvchi o‘quvchilarning milliy o‘ziga xosligi, diniy e’tiqodlari va madaniy muhitini inobatga olib, ularning individual rivojlanish yo‘nalishlarini belgilaydi.

Muloqotni demokratlashtirish: o‘quvchilar tanqiddan qo‘rqmasdan, ochiqchasiga savollar berishi va shubhalarini bildirishi mumkin bo‘lgan muhitni shakllantirish.

Adolat tamoyili: o‘qituvchi qarorlarida izchillik, har bir bolaning fikrini hurmat qilish va uning o‘ziga xosligini e’tirof etish

3. "Madaniyat yaratish" strategiyasi (Birgalikdagi faoliyat)

O‘quvchilarni ijodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarga jalb qilishga asoslangan bo‘lib, bu guruh ichidagi simpatiya tuzilishini o‘zgartiradi.

Madaniy makonni loyihalash: o‘qituvchi va o‘quvchilar hamkor bo‘lgan maktab bayramlari, ko‘rgazmalari, teatrlarini birgalikda yaratish.

Ijodiy ustaxonalar: san’at va an’analarga jalb etish orqali o‘quvchilarning o‘z-o‘zini namoyon etishi va o‘zini namoyon etishini rag‘batlantiruvchi usullardan foydalanish.

Guruh dinamikasini boshqarish: birgalikdagi faoliyat (o‘yinlar, guruhlar) orqali o‘quvchilarning turli guruhlarini yaqinlashtirish maqsadida yetakchilar va rad etilganlarni aniqlash uchun sotsiogrammalardan foydalanish.

4. "Pedagogning kommunikativ madaniyati" strategiyasi

O‘qituvchida ijobiy hissiy muhitni yaratishga yordam beradigan ko‘nikmalarni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Og‘zaki ifodalilik: o‘qituvchining nutqni hissiy bo‘yash qobiliyati, bu o‘quvchilarga o‘qituvchini nafaqat nazoratchi, balki qiziqarli shaxs sifatida qabul qilishga yordam beradi.

Empatik tinglash: pedagogning tinglash, o‘quvchi xulq-atvorining sabablarini tushunish, nizoli vaziyatlarni bartaraf etish, ulardan o‘z-o‘zini takomillashtirish manbai sifatida foydalanish qobiliyati.

5. Muloqot va hamijodkorlik strategiyasi (Hamkorlik madaniyati) ***Mohiyati:*** funksional-rolga asoslangan (“o‘qituvchi-funksiya”) o‘zaro ta’sirdan shaxsga yo‘naltirilgan (“o‘qituvchi-shaxs”) munosabatga o‘tish, ya’ni mohiyati qarama-qarshilik yoki manfaatlarni yakka tartibda himoya qilish pozitsiyasidan barcha tomonlarni qoniqtiradigan yechimlarni birgalikda izlashga o‘tishdan iborat (Win-Win tamoyili). Bu umumiy manfaatlar, ishonch va uzoq muddatli munosabatlarni yaratishga qaratilgan faol yondashuvdir.

Hamkorlik madaniyatining asosiy elementlari:

Muloqotga yo‘naltirilganlik: faol tinglash, ochiq ma’lumot almashish va o‘zaro tushunish.

Muammolarni birgalikda hal qilish: e’tiborni "kim aybdor"dan "buni birgalikda qanday hal qilishimiz mumkin"ga qaratish.

Ishonch va hurmat: tomonlar o‘z g‘oyalarini bildirish va resurslarni baham ko‘rish orqali o‘zlarini xavfsiz his qiladigan muhitni yaratish.

Uzoq muddatli istiqbol: hamkorlik bir lahzalik foydadan ko‘ra muhimroq.

Boshqa strategiyalardan asosiy farqlar:

Murosadan (bu yerda tomonlar nimanidir qurbon qilishadi) yoki raqobatdan (bu yerda biri ikkinchisining hisobiga yutadi) farqli o‘laroq, hamkorlik har bir tomon maksimal foyda olishi uchun "pirog"ni ko‘paytirishga intiladi.

Bunday madaniyatning afzalliklari:

Samaradorlikni oshirish: resurslar va vakolatlarni birlashtirish yaxshiroq natija beradi.

Innovatsiyalar: yondashuvlarning xilma-xilligi yangi g‘oyalarni keltirib chiqaradi.

Munosabatlarning barqarorligi: ishonchni mustahkamlash kelajakda nizolar sonini kamaytiradi.

Hamkorlik madaniyatini yaratish — bu vaqt, ochiqlik va birgalikdagi mas’uliyatga tayyorlikni talab qiladigan uzluksiz jarayondir.

Usullari: umumiy mashg‘ulotga ishtiyoqmandlikdan foydalanish (hamkorlik pedagogikasi), birgalikda ijodiy izlanish, o‘qituvchi va o‘quvchi fikri birdek qadrlanadigan muloqot.

Natija: O‘qituvchi shunchaki baho qo‘yadigan manba emas, balki ahamiyatli “yaqin inson”ga aylanadi.

6. Gumanistik pedagogika strategiyasi (Qadriyatlar madaniyati)

Mohiyati: strategiyasining mohiyati bolani oliy qadriyat, ta’lim jarayonini esa uning uyg‘un o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘zini namoyon etish makoni sifatida tan olishdan iborat. Bu o‘quvchi shaxsi, uning his-tuyg‘ulari, erkinligi va o‘ziga xosligiga yo‘naltirilgan pedagogikadir. O‘quvchi shaxsiga hurmat ko‘rsatishga asoslangan fuqarolik, multikulturalizm va planetar ongni tarbiyalash.

Strategiyaning asosiy tarkibiy qismlari (Qadriyatlar madaniyati):

Shaxs o‘z-o‘zidan maqsad sifatida: tarbiya "qulay" insonni olish vositasi sifatida emas, balki bolaning o‘ziga xos yo‘lini qo‘llab-quvvatlash sifatida qaraladi.

Qadriyatlar va ma’nolar madaniyati: o‘quvchilarda asosiy insoniy fazilatlarni shakllantirishga e’tibor qaratiladi.

Sub’ekt-sub’ekt munosabatlari: o‘qituvchi va o‘quvchi ta’lim jarayonining teng huquqli ishtirokchilari sifatida ishtirok etadi. Bu o‘zaro ishonch va hurmatga asoslangan hamkorlik pedagogikasidir.

O‘z-o‘zini rivojlantirishga e’tibor qaratish: o‘qituvchining vazifasi shunchaki bilim berish emas, balki bolaning o‘zi rivojlanishni, dunyoni bilishni va o‘z iste’dodlarini ro‘yobga chiqarishni xohlaydigan sharoit yaratishdir.

Bolani qabul qilish: bola shaxsini, uning imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni va ijobiy kayfiyatini so‘zsiz qabul qilish.

Ushbu strategiya asosida ta’lim faqat intellektual rivojlanishga emas, balki ma’naviy va axloqiy o‘sishga yordam berishi kerakligini tushunish yotadi.

Metodlari: axloqiy me’yorlarga urg‘u berish, muvaffaqiyatli vaziyatlardan foydalanish, har bir bolaning betakrorligini qabul qilish, hissiy xavfsiz muhit yaratish.

Natijasi: ishonchning ortishi, ijtimoiy adovat va bezorilik (bulling) holatlarining kamayishi.

7. Madaniyatga muvofiqlik strategiyasi (An’analar madaniyati)

Mohiyati: jamiyatning barqarorligi, yaxlitligi va uning o‘ziga xosligini ta’minlash uchun to‘plangan ijtimoiy va madaniy tajribani avloddan-avlodga takrorlash, saqlash va uzatishdan iborat.Ta’lim jarayoniga milliy an’analar, oilaviy qadriyatlar va madaniy merosni singdirish.

Strategiyaning asosiy tarkibiy qismlari:

Vorislik va merosxo‘rlik: qadriyatlar, me’yorlar, urf-odatlar, marosimlar va turmush tarzini (kundalik madaniyat) ko‘pincha oilaviy tarbiya orqali yetkazish.

O‘ziga xoslik va yaxlitlik: avlodlarni birlashtiruvchi va etnos yoki guruhning o‘ziga xos qiyofasini shakllantiruvchi umumiy madaniy to‘qimani yaratish ("jamoaviy yuz xususiyatlariga ega odamlar").

Ijtimoiy funksiya: standart vaziyatlarda xulq-atvorning oldindan bashorat qilinishini ta’minlash, qo‘shnichilikni tartibga solish.

Dinamiklik (moslashuvchanlik): stereotiplarga zid ravishda, an’ana statik jarayon emas. U "ildizi"ni saqlab qolgan holda yangi sharoitga moslashadi.

Amalga oshirish mexanizmi:

Maishiy an’analar: pazandachilik urf-odatlari, bayramlar, xalq saillari.

Og‘zaki an’ana: ajdodlar tajribasini yetkazuvchi ertaklar, rivoyatlar, dostonlar.

Ijtimoiy me’yorlar: xulq-atvor qoidalari, marosimlar, qadriyatlar tizimi.

Metodlari: mintaqaviy madaniyatni o‘rganish, ota-onalarni jalb etish, turli madaniyat vakili bo‘lgan o‘quvchilarni birlashtiradigan tadbirlar o‘tkazish.

Natijasi: maktab va hayot o‘rtasidagi aloqaning mustahkamlanishi, madaniy o‘zlikni anglashning shakllanishi.

8. Sotsiometrik monitoring strategiyasi (Diagnostik strategiya)

Mohiyati: strategiyaning mohiyati kichik guruh (sinf, ishchi jamoa) a’zolarining shaxslararo munosabatlari, simpatiya-antipatiya tuzilmasi va status-rol pozitsiyalarini tizimli, miqdoriy o‘lchash va sifat jihatidan tahlil qilishdan iborat. Sotsiometriyadan nafaqat yetakchilarni tashlab ketilganlarni aniqlash uchun, balki "o‘qituvchi-sinf" munosabatlari dinamikasini kuzatish uchun ham muntazam foydalanish.

Ushbu strategiya "ijtimoiy his-tuyg‘ularni o‘lchash" va keyinchalik psixologik muhitni optimallashtirish uchun guruhning norasmiy tuzilishini aniqlashga qaratilgan.

Diagnostika strategiyasining asosiy jihatlari:

Diagnostika predmeti: ijobiy (tanlash) va salbiy (rad etish) emotsional aloqalar majmui, norasmiy ierarxiya, jipslik darajasi.

Uslub: J. Moreno tomonidan taklif etilgan, odatda tanlovlar soni cheklangan, tanlov mezonlariga asoslangan sotsiometrik so‘rov (test) (masalan, "Kim bilan ishlashni xohlaysiz?," "Birgalikda sayohat qilish uchun kimni tanlamas edingiz?").

Natija: har bir ishtirokchining o‘rnini aniq belgilash imkonini beruvchi miqdoriy ma’lumotlarni (sotsiomatritsalar, indekslar, sotsiogrammalar) olish.

Diagnostika quyidagilarni aniqlash imkonini beradi:

Shaxsning sotsiometrik maqomi: "Yulduzlar" (yetakchilar), "qabul qilinganlar," "ajratilganlar," "e’tiborsiz qoldirilganlar" va "rad etilganlar."

Kichik guruhlarning tuzilishi: yashirin guruhlarning mavjudligi, ularning rahbarlari va jamoaning tarqoqlik darajasi.

Psixologik moslik: o‘zaro simpatiya va nizoli munosabatlar darajasi.

Ijtimoiy-psixologik muhit: guruhdagi umumiy muhit.

Qo‘llash maqsadlari:

Munosabatlarni o‘zgartirish va takomillashtirish: diagnostika olingan ma’lumotlar (sotsiogramma) asosida jamoadagi iqlimni yaxshilash bo‘yicha harakat qilish uchun o‘tkaziladi.

Nizolarning oldini olish: psixologik yordam ko‘rsatish uchun keskinlik o‘choqlari va chetda qolganlarni aniqlash.

Metodlar: hamjihatlikni tahlil qilish, "hissiy tashlandiqlar"ni aniqlash va ularni jamoaviy faoliyatga jalb etish choralarini ko‘rish uchun sotsiogrammalar o‘tkazish.

Shunday qilib, diagnostik strategiya shunchaki bir martalik o‘lchov emas, balki guruhni "davolash" yoki rivojlantirish uchun o‘zaro ta’sirning yashirin mexanizmlarini tushunishga yordam beradigan vositadir.

O‘qituvchi uchun amaliy usullar:

"Madaniy vositachi": o‘quvchilarni madaniyatning o‘ziga xosligi bilan tanishtirish, madaniy qadriyatlar tizimini rivojlantirish.

Hamdardlik ko‘rsatish: iliq salomlashish, ismi bilan murojaat qilish, o‘quvchi hayotiga samimiy qiziqish.

Tanlash imkoniyatini berish: tashabbus va mustaqil madaniy rivojlanishni rag‘batlantirish (madaniyat ijodkorligi).

Demokratik uslub: birgalikda qaror qabul qilish.

Xulosa qilib aytganda bu strategiyalarning qo‘llanishi natijasida pedagogik muloqot funksional-rol bosqichidan shaxsiy bosqichga ko‘chadi. Bu esa sinfda sog‘lomroq sotsiometrik muhitni vujudga keltiradi va o‘qituvchining nufuzini oshiradi. Bundan tashqari ushbu strategiyalarni joriy etish sinfning sotsiometrik tuzilmasini qayta qurish, jipslikni oshirish va o‘zaro hurmat muhitini yaratish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sobkin V.S., Fomichenko A.S. O situatsiyax agressivnogo povedeniya mejdu uchenikami (po materialam kontent-analiza uchitelskix sochineniy) // Trudы po sotsiologii obrazovaniya. T. XV. Vыp. XXVI / pod red. V.S. Sobkina. M.: Institut sotsiologii obrazovaniya RAO, 2011. S. 177-204.

2. Zabrodin Yu.M., Gayazova L.A., Sergomanov P.A.Differensirovannыe urovni kvalifikatsii pedagoga i struktura professionalnogo standarta pedagoga // Psixologicheskaya nauka i obrazovanie. 2016. T. 21. № 2. S. 59—65. doi: 10.17759/pse.2016210207

3. Krushelniskaya O.B., Orlov V.A., Sachkova M.Ye.Sotsialnaya psixologiya obrazovaniya kak otrasl nauchnogo znaniya [Elektronnыy resurs] // Psixologicheskaya nauka i obrazovanie psiedu.ru. 2013. № 2. S. 1—14. URL: https://psyjournals.ru/psyedu_ru/2013/n2/61292.shtml (data obraщeniya: 16.10.2017).

4. Portal psixologicheskix izdaniy PsyJournals.ru — https://psyjournals.ru/journals/pse/archive/2017_n5/Sachkova [Spesifika otnosheniya uchiteley k uchaщimsya s raznыm statusom v shkolnom klasse // Psixologicheskaya nauka i obrazovanie — 2017. Tom 22. № 5]

SOTSIOMETRIK MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHDA OILA–MAKTAB HAMKORLIK ISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH

L.M.Qaraxonova

Qori Niyoziy nomidagi TPMI bo‘lim mudiri, p.f.d., katta ilmiy xodim

Hozirgi zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarni faqat bilim bilan ta’minlash emas, balki ularning shaxsiy, ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishini ta’minlash ham muhim vazifa hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, sotsiometrik munosabatlar — ya’ni sinf jamoasidagi o‘zaro tanlov, yoqtirish, hamkorlik qilish, ijtimoiy guruhlarga kirish yoki chetlatilish kabi munosabatlar tizimi — o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishida muhim pedagogik omil hisoblanadi.

Sotsiometrik munosabatlar o‘quvchining jamoadagi o‘rnini, uning o‘z-o‘zini baholashini, muloqot madaniyatini va ijtimoiy faolligini belgilaydi. Shu sababli ushbu munosabatlarni to‘g‘ri shakllantirish va rivojlantirish ta’lim-tarbiya jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bu jarayonda oila va maktab hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Oila bolaning ilk ijtimoiy muhiti bo‘lib, unda muloqot madaniyati, axloqiy qadriyatlar va munosabatlar tizimi shakllanadi. Maktab esa bu jarayonni davom ettiruvchi va rivojlantiruvchi asosiy ijtimoiy institutdir. Shu sababli oila va maktab o‘rtasidagi uzviy hamkorlik bolaning sotsiometrik holatini yaxshilashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Agar oilada bolaga nisbatan e’tibor, qo‘llab-quvvatlash va ishonch muhiti shakllangan bo‘lsa, u maktab jamoasiga oson moslashadi, tengdoshlari va o‘qituvchilari bilan ijobiy munosabat o‘rnata oladi. Aksincha, oiladagi ziddiyatli muhit, e’tiborning yetishmasligi yoki qattiq nazorat bolaning ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Sinf jamoasida har bir o‘quvchining sotsiometrik o‘rni turlicha bo‘ladi. Ayrim bolalar liderlik pozitsiyasini egallasa, ayrimlari chetlatilgan yoki passiv holatda bo‘lishi mumkin. Bu esa ularning o‘quv motivatsiyasi va shaxsiy rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Shuning uchun sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish orqali sinfda ijobiy psixologik muhit yaratish, o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytirish va ijtimoiy tenglikni ta’minlash muhim vazifa hisoblanadi.

Oila–maktab hamkorligini takomillashtirish bir nechta yo‘nalishlarda amalga oshirilishi lozim. Birinchidan, maktab va ota-onalar o‘rtasida tizimli, doimiy va ochiq muloqot yo‘lga qo‘yilishi kerak. Buning uchun ota-onalar yig‘ilishlari, individual suhbatlar va zamonaviy axborot texnologiyalari orqali aloqa tizimi samarali tashkil etiladi.

Ikkinchidan, psixologik-pedagogik hamkorlikni kuchaytirish muhim hisoblanadi. Maktab psixologi va sinf rahbari ota-onalar bilan birgalikda bolaning sotsiometrik holatini tahlil qilishi, muammoli vaziyatlarni aniqlashi va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishi zarur.

Uchinchidan, oila va maktab hamkorligida turli tadbirlar tashkil etish katta ahamiyatga ega. Sport musobaqalari, madaniy-ma’rifiy tadbirlar, ijodiy loyihalar va bayram tadbirlari o‘quvchilar o‘rtasida do‘stona munosabatlarni kuchaytiradi, ularni jamoa bo‘lib harakat qilishga o‘rgatadi.

To‘rtinchidan, har bir bolaga individual yondashuvni joriy etish zarur. Bu jarayonda o‘qituvchi va ota-ona birgalikda bolaning qiziqishlari, imkoniyatlari va ijtimoiy holatini hisobga olgan holda ish olib borishi kerak.

Beshinchidan, ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish maqsadida treninglar, seminarlar va davra suhbatlari tashkil etish muhim hisoblanadi. Bu ularning farzand tarbiyasidagi faolligini oshiradi va maktab bilan hamkorlikni mustahkamlaydi.

Sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishda oilaning roli alohida ahamiyatga ega. Oiladagi muhit bolaning emotsional barqarorligi, o‘z-o‘ziga ishonchi va ijtimoiy munosabatlariga bevosita ta’sir qiladi. Qo‘llab-quvvatlovchi va ishonchli oila muhitida tarbiyalangan bola maktabda tengdoshlari bilan oson muloqot qiladi, jamoada faol ishtirok etadi va ijobiy sotsiometrik o‘rin egallaydi.

Shu bilan birga, ota-onaning maktab bilan doimiy hamkorligi muhim hisoblanadi. Faqat muammo paydo bo‘lganda emas, balki profilaktik tarzda hamkorlikni amalga oshirish sotsiometrik munosabatlarni barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishda oila–maktab hamkorligini takomillashtirish pedagogik jarayonning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ijobiy, tizimli va samarali hamkorlik o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantiradi, ularning shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi va ta’lim samaradorligini oshiradi.

Oila va maktabning bir maqsad yo‘lidagi hamjihatligi har bir bolaning jamoada o‘z o‘rnini topishi, ishonchli munosabatlar o‘rnatishi va barkamol shaxs sifatida shakllanishining asosiy kafolatidir.

Sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishda oila–maktab hamkorligi masalasi pedagogik va psixologik jihatdan murakkab va o‘zaro bog‘liq jarayon hisoblanadi. Bu jarayon o‘quvchining shaxs sifatida shakllanishi, jamoadagi o‘rni va ijtimoiy munosabatlar tizimidagi faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Pedagogik jihatdan ushbu masala ta’lim-tarbiya jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, o‘qituvchi faoliyatini ota-onalar bilan hamkorlikda muvofiqlashtirish va o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom ijtimoiy muhit yaratish bilan belgilanadi. Maktab va oila o‘rtasidagi tizimli hamkorlik bolaning maktab va uy muhitidagi xulq-atvorining uyg‘un bo‘lishini ta’minlaydi. Shuningdek, har bir o‘quvchiga individual yondashuvni amalga oshirish, uning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olish pedagogik jarayonning muhim qismi hisoblanadi.

O‘qituvchi sinfda ijobiy psixologik muhitni shakllantirishda markaziy o‘rin tutadi. Demokratik uslubdagi boshqaruv, adolatli munosabat va rag‘batlantirish tizimi o‘quvchilar o‘rtasida ishonch va hamkorlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, sotsiometrik tahlil usullaridan foydalanish orqali sinfdagi ijtimoiy munosabatlar holati o‘rganiladi va zarur pedagogik choralar ko‘riladi.

Psixologik jihatdan esa sotsiometrik munosabatlar bolaning ichki dunyosi, emotsional holati va shaxsiy rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Oiladagi muhit bolaning emotsional barqarorligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Qo‘llab-quvvatlovchi va ishonchli oila muhitida tarbiyalangan bola maktabda o‘zini erkin his qiladi, tengdoshlari bilan oson muloqot qiladi va jamoada faol ishtirok etadi.

Sotsiometrik munosabatlar bolaning o‘z-o‘zini baholash darajasiga ham ta’sir qiladi. Ijobiy munosabatlar bolada ishonch va faollikni oshirsa, salbiy munosabatlar uning passivlashuviga olib kelishi mumkin. Shu sababli bolaning ijtimoiy adaptatsiyasi, ya’ni maktab jamoasiga moslashuvi muhim psixologik omil hisoblanadi.

Shuningdek, bolaning shaxslararo muloqot madaniyati oilada shakllanadi va maktab muhitida rivojlanadi. Ota-onaning maktab bilan doimiy hamkorligi, bolaning xulq-atvori va ijtimoiy holati haqida axborot almashinuvi sotsiometrik munosabatlarni barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish va oila–maktab hamkorligini takomillashtirish maqsadida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Oila–maktab hamkorligining tizimli modelini joriy etish. Maktab va ota-onalar o‘rtasida uzluksiz, rejali va maqsadli hamkorlik tizimini shakllantirish zarur. Bu tizimda muntazam yig‘ilishlar, monitoring, qaytar aloqa va pedagogik maslahatlashuvlar o‘z aksini topishi kerak.

2. Sotsiometrik diagnostika usullaridan keng foydalanish. Sinf jamoasidagi ijtimoiy munosabatlarni aniqlash uchun sotsiometriya, kuzatuv, intervyu va anketa usullarini muntazam qo‘llash tavsiya etiladi. Bu orqali chetlatilgan, passiv va lider o‘quvchilar aniqlanadi.

3. Individual pedagogik yondashuvni kuchaytirish. Har bir o‘quvchining sotsiometrik holati, psixologik xususiyatlari va ijtimoiy faolligini hisobga olgan holda individual rivojlanish rejalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

4. Ota-onalarning pedagogik va psixologik savodxonligini oshirish. Treninglar, seminarlar va amaliy mashg‘ulotlar orqali ota-onalarning bola psixologiyasi va jamoadagi munosabatlar haqidagi bilimlarini oshirish zarur. Bu ularning tarbiyaviy ta’sirini kuchaytiradi.

5. Ijobiy psixologik muhitni shakllantirish. Sinfda do‘stona, qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish, o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik va o‘zaro hurmatni rivojlantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

6. Guruhli va interaktiv ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. Loyiha asosidagi ta’lim, guruhli ishlar va hamkorlikda o‘qitish usullari o‘quvchilar o‘rtasida ijobiy sotsiometrik munosabatlarni shakllantiradi.

7. Oila ishtirokidagi tadbirlarni kengaytirish. Sport musobaqalari, madaniy tadbirlar, ijodiy festivallar va umumiy loyihalarda ota-onalar ishtirokini ta’minlash bolaning ijtimoiy integratsiyasini kuchaytiradi.

8. Maktab psixologi faoliyatini faollashtirish. Psixologik xizmat orqali sinfdagi sotsiometrik holat doimiy tahlil qilinishi, muammoli holatlar erta bosqichda aniqlanishi va bartaraf etilishi kerak.

9. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish. Ota-ona va maktab o‘rtasida tezkor aloqa uchun elektron platformalar, messenjer guruhlari va onlayn monitoring tizimlarini joriy etish tavsiya etiladi.

10. Profilaktik tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish. Chetlatilish, konflikt va ijtimoiy passivlikni oldini olish uchun profilaktik tarbiyaviy ishlar tizimli ravishda olib borilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishda oila–maktab hamkorligi pedagogik jihatdan ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirsa, psixologik jihatdan esa bolaning emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishini ta’minlaydi. Bu ikki jihatning uyg‘unligi barkamol shaxs tarbiyasining muhim asosi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.:”O‘zbekiston” – 2017 y. 295 – 297 b.
2. Sh. Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkonyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T.: O‘qituvchi MU MChJ, 2021. 7 b.
3. Ota-ona - murabbiy [Matn] / X.Ibraimov, M.Kuronov, J.Fozilov, F.Zaripov; - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2024. - 220 b.
4. X.Ibraimov va boshqalar. Najot tarbiyada. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. -2025. – 60 b.
5. L.M.Qaraxonova. Tarbiyani shakllarini maktab-oila-mahalla hamkorligida tashkil etish mexanizmlari // “Uzluksiz ta’lim” j. –T.: O‘zPFITI. 2025. № 2. –B.70-74.
6. L.M.Qaraxonova. Maktab-oila-mahalla hamkorligi asosida o‘quvchilarda vatanparvarlik va axloqiy sifatlarni tarbiyalash// BELARUS-O‘ZBEK ilmiy-metodik jurnal. 2025 y. № 3. https://gri-journal.uz -B.34-38.

TARBIYAVIY JARAYONLARGA TAYYORLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

F.X.Ibragimova
TDIU, p.f.d(DSc) dotsent

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida birinchi navbatda bo‘lajak o‘qituvchilarga tarbiya nazariyasi, tarbiya jarayoni, tarbiya prinsiplari, tarbiya qonuniyatlari, tarbiya metodlari, tarbiya psixologiyasi, tarbiyaviy muhit, tarbiyalanganlik darajasi, tarbiyalovchi ta’lim, tarbiyani tashkil etish shakllari haqidagi bilim va tasavvurlar hosil qilinadi. Shu maqsadda biz quyida ushbu tushunchalarni tavsifini berishga harakat qildik.

Bugungi kunda o‘qituvchilarning kognitiv xarakterdagi innovatsion faoliyatni amalga oshirishi tarbiyaviy jarayonlarning sifatini ta’minlashga qo‘yilayotgan talablar bilan pedagoglarning mazkur jarayonning aniq loyihalashtira olmasliklari orasida muayyan ziddiyatlar mavjud. Ayni paytda tarbiyaviy jarayonlarni sifatli tashkil etishga bo‘lgan pedagogik ehtiyoj kuchaymoqda. Buning natijasida “tarbiyaviy faoliyat”, “tarbiyaviy jarayon”, “tarbiyaviy jarayonlarning mazmuni”, uni loyihalash, amalga oshirishga bo‘lgan talablar ham ortmoqda.

Tarbiya nazariyasi – tarbiyaviy jarayonlarni nazariy jihatdan asoslashdan iborat bo‘lgan qarashlar, yondashuvlarni ifodalovchi pedagogik xodisa.

Tarbiya nazariyasi ajdodlarimizning tarbiya sohasidagi boy, nazariy-empirik tajribasi va xalq pedagogikasi hamda xalqaro tajribalarga tayanadi. Tarbiya nazariyasini yaratish va boyitishda falsafa, sotsiologiya, etika, estetika, fiziologiya, psixologiya fanlariga oid nazariy yondashuvlarga asoslaniladi. Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo‘limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta’lim nazariyasi, pedagogik menenjment nazariyasi bilan uzviy aloqadorlikda ish ko‘radi.

Tarbiya jarayoni – shaxsni tarbiyalash, uni bilim olish, mehnat qilish, kasb-hunar egallashga undash va bu xatti-harakatni asta-sekin ko‘nikmaga aylantirib borishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonni ifodalovchi atama.

O‘quvchilar tarbiya jarayonida aqliy-intellktual, ma’naviy-axloqiy, estetik, jismoniy jihatdan rivojlanadilar. O‘quvchilarning intellektual rivojlanish darajalari ularning shaxsiy sifatlari va ijtimoiylashuviga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada ular shaxs sifatida shakllanib, ma’naviy-axloqiy jihatdan rivojlanadilar va mikrosotsiumga moslashadilar. Samarali tashkil etilgan tarbiya jarayonlar o‘quvchilarning taraqqiyotini jadallashtiradi.

Tarbiyaviy jarayonlar muayyan prinsiplargan tayangan tashkil etiladi. Tarbiya prinsiplari – pedagoglarga tarbiyaviy jarayonlarning mazmuni, maqsadi, uni tashkil etish mexanizinini ishlab chiqishga asos bo‘ladigan qoidalar majmuini ifodalovchi atama.

Tarbiya prinsiplariga tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash va tashkil etishda tayaniladi, u tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini aks ettiradi. Tarbiya prinsiplari ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan pedagogik meros hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarga tayangan holda tanlanadi. Tarbiyaviy jarayonlarni muayyan prinsiplarga tayangan holda tashkil etish asosida uning samaradorligi ta’minlanadi.

Tarbiya prinsiplari sirasiga quyidagilar kiradi: tarbiyaviy jarayonlarning maqsadga yo‘naltirilganligi, tarbiyaviy jarayonlarning insonparvarlik va demokratiyaga asoslanganligi, tarbiyaviy jarayonlarni ijtimoiy hayot bilan bog‘liqligi, tarbiyada milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi, tarbiyaviy jarayonlarda o‘quvchilarning yosh va gender

xususiyatlari, rivojlanish darajalari hamda shaxsiy imkoniyatlarining hisobga olinganligi, ta’lim-tarbiyaning birligi va izchilligi kabilar.

Tarbiya jarayoni o‘ziga hos qonuniyatlarga tayanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga tayyorlashda ushbu qonuniyatlar aniq hisobga olinishi lozim.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga tayyorlashda ularning tarbiyaviy ishlar, ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishlari va mazmuni bilan yaqindan tanishtirishga ham alohida e’tibor qaratish talab qilinadi.

Mazkur yo‘nalishda olimlar o‘zlarining qarashlarini bayon qilganlar. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘qituvchining ijodkorligi va innovatsion yondashuvlarga tayangan holda o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishi samaradorlikni ta’minlashda muhim o‘rin egallaydi.

O‘qituvchi kognitiv faoliyatining samaradorligini ta’minlashda ta’lim mazmuni ham muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham, ta’lim mazmunini yangilash barobarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy jarayonlarni loyihalashga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati vujudga keladi.

Kogntiv xarakterdai innovatsion pedagogik jarayonlarning xususiyatlari, mazmuni, tarkibi hamda tasnifini aniqlash kognitiv faoliyat natijalarini har tomonlama chuqur tahlil qilishni toqazo qiladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash mahsuli bo‘lgan yangi usullar, texnologiyalarni to‘plash, har tomonlama chuqur tahlil qilish va ommalashtirish bilan bog‘liq bir qator muammolar o‘z yechimini kutmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.:”O‘zbekiston” – 2017 y. 295 – 297 b.
2. Sh. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkonyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T.: O‘qituvchi MU MCHJ, 2021. 7 b.
3. IbraimovX., Quronov M. Umumiy pedagogika [Matn]. Darslik. T., "Sahhof", 2023, 416-bet.
4. lbraimov X., Quronov M., lbragimova F. Pedagogika tarixi va nazariyasi [Matn]. Darslik. - T., "Sahhof", 2023.392-bet.
5. Ota-ona - murabbiy [Matn] / X.Ibraimov, M.Kuronov, J.Fozilov, F.Zaripov; - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2024. - 220 b.
6. X.Ibraimov va boshqalar.Najot tarbiyada. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. -2025. – 60 b.
7. X.Ibraimov va boshqalar. Go‘zal hulq modellari. – Toshkent.: “Ilm ziyo zakovat” nashriyoti. -2025 y. 80-b.
8. X.Ibraimov va boshqalar. Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlari. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2025. - 68 b.

YOSHLARGA TA’LIM-TARBIYA BERISHDA MILLIY TARBIYA AN’ANALARIDAN FOYDALANISH

D.Xojimetova
Jizzax DPU, f.f.n, dotsent

Ma’naviy-axloqiy tarbiya – bu insonning ichki dunyosini boyitish, unda ezgulik, halollik, vatanparvarlik, hurmat va mas’uliyat kabi fazilatlarni shakllantirish jarayonidir. Bunday tarbiya avvalo oiladan boshlanadi. Ota-ona farzandiga nafaqat bilim, balki odob-axloq, insoniylik me’yorlarini ham singdirishi zarur. Oiladagi sog‘lom muhit, o‘zaro hurmat va mehr yosh ongida ijobiy fazilatlarning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi globallashuv davrida yoshlar tarbiyasi har qachongidan ham muhim masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, yoshlarning ma’naviy-axloqiy jihatdan barkamol bo‘lib voyaga yetishi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Chunki kelajak egalari bo‘lgan yoshlar qanday ruhda tarbiyalansa, ertangi kun ham shunday shakllanadi.

Maktab va ta’lim muassasalari ham yoshlar tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. U yerda berilayotgan bilimlar bilan birga, o‘quvchilarda ijtimoiy faollik, jamoada ishlash, boshqalarga hurmat bilan qarash kabi ko‘nikmalar rivojlantiriladi. O‘qituvchilar yoshlar uchun nafaqat bilim manbai, balki namuna ham bo‘lishi lozim.

Demak milliy tarbiya nafaqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar, balki butun ijtimoiy tuzum va uning yetakchi g‘oyalari, hatto adabiyot, san’at, kino, radio,TV, OAV va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Shunungdek, milliy tarbiya tarkibiga bu sohada ta’lim va ma’lumot olish ham kiradi. Tor ma’noda, milliy tarbiya muayyan shaxsning ma’naviy rivoji, dunyoqarashi, axloqiy qiyofasi, estetik didi o‘stirilishiga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Bizga ma‘lumki, har qanday tarbiya ta’lim bilan chambarchas bog‘liq holdagina mavjud bo‘la oladi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, milliy tarbiya har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki uning o‘sishi har qanday jamiayat va davlatda hal qiluvchi ahamiayatga ega. Buning uchun o‘sib kelayotgan yosh avlod o‘z ajdodalaridan ham yuqoriroq natijalarga erishsishi lozim bo‘ladi. Ammo, bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida axloqga zid bo‘lgan harakatlar natijasida katta ma’naviy yo‘qotishlar yuz berayotgani millatning asriy qadriyatlari, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash sharti jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin[6]. XXI asrda yoshlarimizni axloqimizga zid bo‘lgan illatlardan va tahdidlardan saqlash eng asosiy burchimizdir.

Vatanparvarlik — insonning o‘z yurtiga, xalqining tarixi, madaniyati, tili va ma’naviy merosiga bo‘lgan chuqur muhabbati va sadoqatidir. U shaxsning fuqarolik ongi, ijtimoiy faolligi va jamiyat oldidagi mas’uliyatini belgilaydigan muhim ma’naviy sifatlardan biridir. O‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish orqali ularda milliy iftixor, yurt taqdiriga daxldorlik, davlat ramzlariga hurmat, qonunlarga itoatkorlik va jamiyat manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘ya bilish kabi fazilatlar qaror topadi.

Shuningdek, vatanparvarlik tarbiyasida oila va jamoatchilik bilan hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Oilada milliy an’analar, tarixiy xotira va ma’naviy qadriyatlar asrab-avaylansa, maktabda olib borilayotgan tarbiya yanada mustahkamlanadi. Jamoatchilik tashkilotlari, mahalla va turli ijtimoiy institutlar bilan hamkorlik esa o‘quvchilarning ijtimoiy tajribasini boyitadi.

Darsliklar, qo‘shimcha mashg‘ulotlarning o‘quv dasturi va mavzulari milliy g‘urur va vatanparvarlikni singdirishga qaratilgan ta’sirchan materiallar bilan boyiydi. Ayniqsa, tarix, adabiyot fanlarida milliy qahramonlarimizning obrazlari, bugungi kunning yoshlari ergashishlari mumkin bo‘lgan zamonamiz qahramonlarining obrazlarini, “milliy g‘ururli, vatanparvar shaxs” idealini yaratib, o‘qitish yo‘lga qo‘yiladi. Bu aholini kuchli ma’naviyat bilan qurollantiradi.

Maktab o‘quvchilarini kelajakka yo‘naltirish: o‘ziga bo‘lgan ishonchni rivojlantirish, ularga o‘ziga xosligini tushunishga, boshqa odamlarning fikrlarini hurmat qilishga o‘rgatish, o‘zini xolis baholash, o‘z qobiliyatlari, malaka larini hisobga olgan holda kelajak uchun real rejalar tuzish, o‘z-o‘zini anglashi, o‘zini boshqarish tizimini takomillashtirish ishbilarmonlik, axloq va tashabbuskorlikni tarbiyalash, ularning oilalari, o‘qituvchilar bilan o‘zaro aloqalarini faollashtirish lozim.

Fikrimizcha tarbiya jarayoni maxsus ishlab chiqilgan bo‘lishi, ya’ni yoshlar ning o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini boshqarish imkoniyatlari bilan uyg‘unlash tirilgan maqsadga muvofiq tizim bo‘lgandagina haqiqiy bo‘ladi. XXI asr kishisi umuminsoniy qadriyatlardan va bugungi kun haqiqatlaridan kelib chiqib, jismonan sog‘lom, ma’naviy axloqiy, intellektual jihatdan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan bo‘lishi shu bilan birga dunyoda sodir bo‘layotgan jarayonlarga loqayd bo‘lmasligi, tashqi olam bilan faol aloqada bo‘lishi lozim. Yoshlarning shaxs sifatida shakllanish va ijtimoiylashuv davri asosan maktab tizimida yuz beradi. Inson va jamiyatatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar milliy tarbiya tufayli ajdodlardan asta-sekin avlodlarga o‘tadi. Milliy tarbiya atamasi keng va tor doirada ishlatiladi. Keng ma’noda, u inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hayotda faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ma’naviy ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig‘indisini anglatadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari va internetning keng tarqalishi yoshlar tarbiyasiga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli yoshlarni to‘g‘ri yo‘naltirish, ularga foydali va zararli axborotni ajrata olishni o‘rgatish muhim vazifa hisoblanadi. Media savodxonlik bugungi kunda ma’naviy tarbiyaning ajralmas qismiga aylangan.

Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish ham ularning axloqiy kamolotida muhim rol o‘ynaydi. Sport, san’at, kitobxonlik va turli to‘garaklar yoshlarning qiziqishlarini rivojlantiradi va ularni salbiy ta’sirlardan himoya qiladi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasi – bu jamiyatning umumiy mas’uliyatidir. Oila, maktab va jamiyat birgalikda harakat qilgan taqdirdagina barkamol, ongli va vatanparvar avlodni tarbiyalash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.:”O‘zbekiston” – 2017 y. 295 – 297 b.

2. Sh. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkonyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T.: O‘qituvchi MU MCHJ, 2021. 7 b.

3. IbraimovX., Quronov M. Umumiy pedagogika [Matn]. Darslik. T., "Sahhof", 2023, 416-bet.

4. lbraimov X., Quronov M., lbragimova F. Pedagogika tarixi va nazariyasi [Matn]. Darslik. - T., "Sahhof", 2023.392-bet.

5. Ota-ona - murabbiy [Matn] / X.Ibraimov, M.Kuronov, J.Fozilov, F.Zaripov; - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2024. - 220 b.
6. X.Ibraimov va boshqalar.Najot tarbiyada. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. -2025. – 60 b.
7. X.Ibraimov va boshqalar. Go‘zal hulq modellari. – Toshkent.: “Ilm ziyo zakovat” nashriyoti. - 2025 y. 80-b.
8. X.Ibraimov va boshqalar. Ma’naviy-axloqiy tarbiya metodlari. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2025. - 68 b.

СОВРЕМЕННЫЕ СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПОДДЕРЖКИ ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ В ИНКЛЮЗИВНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Маджидова Д.А.
доцент кафедры «Психология и педагогика» института ISFT, PhD

Аннотация. *В статье рассматриваются современные социально-педагогические технологии организации обучения и воспитания детей с особыми образовательными потребностями в условиях инклюзивного образования. Анализируются педагогические механизмы адаптации образовательной среды, методы поддержки обучающихся с различными особенностями развития, а также роль междисциплинарного взаимодействия специалистов в обеспечении эффективной социализации детей. Особое внимание уделяется современным педагогическим подходам, позволяющим создать благоприятные условия для включения каждого ребёнка в образовательный процесс.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, особые образовательные потребности, социально-педагогические технологии, коррекционная педагогика, адаптация, социализация.*

Введение. В последние десятилетия развитие инклюзивного образования стало одним из ключевых направлений модернизации образовательных систем многих стран мира. Современная образовательная политика ориентирована на обеспечение равного доступа к качественному образованию для всех категорий обучающихся независимо от их индивидуальных особенностей развития. В этой связи особую актуальность приобретает разработка эффективных социально-педагогических технологий, позволяющих организовать образовательный процесс с учетом разнообразия образовательных потребностей детей.

Под детьми с особыми образовательными потребностями понимаются обучающиеся, которые в силу различных физических, психических или сенсорных особенностей нуждаются в создании специальных условий обучения. К данной категории относятся дети с нарушениями слуха, зрения, опорно-двигательного аппарата, интеллектуальными нарушениями, тяжелыми речевыми расстройствами, а также расстройствами аутистического спектра. Для обеспечения их полноценного участия в образовательном процессе необходимо применение специальных педагогических подходов, направленных на адаптацию образовательной среды и поддержку индивидуального развития каждого ребенка [1].

Инклюзивное образование рассматривается как система организации обучения, при которой образовательная среда адаптируется к потребностям обучающихся, а не наоборот. В такой системе важнейшую роль играют социально-педагогические технологии, обеспечивающие эффективную интеграцию детей с особыми образовательными потребностями в образовательное пространство.

Особенности обучения детей с особыми образовательными потребностями. Организация образовательного процесса для детей с особыми образовательными потребностями требует комплексного педагогического подхода, основанного на принципах индивидуализации и дифференциации обучения. В отличие от традиционной образовательной модели, где содержание обучения является единым для всех обучающихся, инклюзивная образовательная среда предполагает гибкость методов, форм и средств обучения.

Особое внимание в педагогической практике уделяется обучению детей с расстройствами аутистического спектра. Такие дети характеризуются специфическими особенностями социального взаимодействия, ограниченными коммуникативными навыками и склонностью к стереотипным формам поведения. В образовательном процессе для них особенно важна структурированность учебной среды и использование визуальных средств поддержки обучения. Применение наглядных расписаний, визуальных алгоритмов выполнения заданий и графических инструкций позволяет сделать учебную деятельность более предсказуемой и понятной для ребенка, что способствует снижению тревожности и повышению эффективности обучения [2].

Не менее значимым является постепенное включение ребенка в образовательную среду. Практика показывает, что поэтапная адаптация к школьной деятельности позволяет снизить уровень стрессовых факторов и облегчить процесс социализации. В начальный период ребенок может участвовать лишь в отдельных занятиях, после чего постепенно увеличивается продолжительность его пребывания в классе.

Социально-педагогические технологии в системе инклюзивного образования. Современная коррекционная педагогика располагает широким спектром технологий, направленных на поддержку обучающихся с особыми образовательными потребностями. Эти технологии ориентированы не только на формирование академических знаний, но и на развитие социальных и коммуникативных компетенций.

Одним из наиболее эффективных направлений является индивидуализация образовательного процесса. В рамках данного подхода для обучающихся разрабатываются адаптированные образовательные программы, учитывающие их психофизические особенности и уровень подготовки. Индивидуализация обучения позволяет создать условия, при которых каждый ребенок может осваивать образовательный материал в соответствии со своими возможностями и темпом развития.

Важную роль играют коррекционно-развивающие технологии. Они направлены на преодоление трудностей, возникающих в процессе обучения и социализации детей с особенностями развития. К числу таких технологий относятся логопедическая коррекция, психологическая поддержка, арт-терапия, игровые методы обучения и другие формы педагогической работы. Применение данных технологий способствует развитию коммуникативных навыков, формированию эмоциональной устойчивости и повышению социальной активности обучающихся [3].

Не менее значимым направлением является развитие жизненных компетенций. Инклюзивное образование ориентировано не только на передачу академических знаний, но и на формирование навыков самостоятельной жизни. В этой связи педагогическая работа направлена на развитие у детей навыков общения, сотрудничества, саморегуляции и ответственности.

Междисциплинарный подход в организации инклюзивного образования. Эффективность инклюзивного образования во многом определяется уровнем взаимодействия специалистов различных профилей. В образовательных учреждениях создаются команды сопровождения, включающие педагогов, психологов, дефектологов, логопедов и социальных педагогов. Их совместная деятельность направлена на разработку индивидуальных образовательных маршрутов и обеспечение комплексной поддержки ребенка.

Важным элементом данной системы является сотрудничество образовательного учреждения с семьей. Родители выступают активными участниками образовательного процесса, принимая участие в планировании и реализации индивидуальных программ развития ребенка. Такое взаимодействие позволяет учитывать индивидуальные потребности ребенка и обеспечивать преемственность педагогического воздействия как в школе, так и в семье.

Заключение. Таким образом, внедрение современных социально-педагогических технологий является важным условием эффективной реализации инклюзивного образования. Применение адаптированных образовательных программ, коррекционно-развивающих методов и междисциплинарного подхода позволяет создать благоприятные условия для обучения и социализации детей с особыми образовательными потребностями.

Инклюзивное образование способствует формированию гуманистических ценностей в обществе, развитию толерантности и взаимного уважения между людьми. Реализация данного подхода позволяет обеспечить каждому ребенку возможность полноценного участия в образовательной и социальной жизни, что является важнейшим условием построения современного гуманистического общества.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Косумова Х.Л. Современные педагогические технологии в условиях инклюзивного образования детей с ограниченными возможностями здоровья // Методическая работа. – 2017.
2. Васильева А.П. Педагогические технологии инклюзивного образования. – М., 2020.
3. Ершова В.В. Психолого-педагогическое сопровождение детей с ограниченными возможностями здоровья в условиях инклюзивного образования. – М.: МГППУ, 2011.
4. Zvoleyko E.V., Kalashnikova S.A., Klimenko T.K. Socialization of students with disabilities in inclusive educational environment // International Journal of Environmental & Science Education. – 2016.
5. Малева З.П. Организационно-педагогические условия обучения детей с нарушениями зрения в инклюзивной образовательной среде // Вестник ЧелГУ. – 2021.

OLIY PEDAGOGIK TA’LIMDA IJTIMOIY- XISSIY TA’LIM METODIKALARINI QO‘LLASH AXLOQIY-IJTIMOIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Jalilova N.T
Profi Universiteti Tillar kafedrasi v.b., dotsenti

Ijtimoiy-emotsional ta’lim (SEL) — o‘zlikni anglash, his-tuyg‘ularni boshqarish, shaxsiy va jamoaviy maqsadlarga erishish, boshqalarga nisbatan hamdardlik (empatiya) ko‘rsatish, qo‘llab-quvvatlovchi munosabatlar o‘rnatish hamda mas’uliyatli, insonparvar qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni egallash jarayonidir. Zamonaviy pedagogikada SEL nafaqat xulq-atvorni tartibga solish, balki ta’limda adolat va muvaffaqiyatga erishishning markaziy ustuni hisoblanadi.

Mazkur metodika bo‘yicha quyidagi asosiy mezonlar ijtimoiy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi:

- o‘z-o‘zini anglash: o‘z hissiyotlari, qadriyatlari va o‘ziga nisbatan ishonchni taniy bilish. Bu axloqiy o‘zlikni anglashning birinchi bosqichidir;
- o‘z-o‘zini boshqarish: stressni boshqarish, impulslarni nazorat qilish va intizomli bo‘lish. Bu ko‘nikma qiyin vaziyatlarda axloqiy me’yorlarga amal qilishni ta’minlaydi;
- ijtimoiy xabardorlik: turli madaniyat vakillariga nisbatan empatiya ko‘rsatish va ijtimoiy normalarni tushunish;
- munosabat o‘rnatish ko‘nikmalari: samarali muloqot, hamkorlik va mojarolarni konstruktiv hal etish;
- mas’uliyatli qaror qabul qilish: axloqiy standartlar va xavfsizlik choralariga tayangan holda ongli tanlovlar qilish. Bu kompetensiya bevosita axloqiy tarbiya bilan bog‘liqdir.

Mazkur kompetensiyalarni shakllantirish va uzluksiz rivojlantirib borishda tayanish mumkin bo‘lgan metodik tizim SAFE deb nomlanib, unga kora quyidagi ketma- ketlik algoritmi samarali hisoblanadi:

SAFE metodikasi (samarali o‘qitish tamoyillari): SEL ko‘nikmalarini o‘rgatishda to‘rtta elementga amal qilinishi kerak:

- S (sequenced): ko‘nikmalarni bosqichma-bosqich rivojlantiruvchi ketma-ketlik;
- A (active): o‘quvchilarni faol jalb qiluvchi usullarlardan foydalanish.

Ta'lim jarayonida ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun amaliy mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar va xatti-harakatlarni mashq qilish eng muhim shart hisoblanadi;

- F (focused): ijtimoiy va shaxsiy ko‘nikmalarga darsning ma’lum bir vaqtini ajratish.

Bunda o‘quv rejasining biror komponenti aynan shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak;

- E (explicit): aniq belgilangan maqsadlar sari harakat qilish.

Bunda ta'lim jarayonida ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar umumiy tushunchalar sifatida emas, balki aniq belgilangan maqsadlar sifatida o‘rgatilishi lozim. Talabalar o‘zlaridan aynan nima o‘rganish kutilayotganini aniq bilishlari muhimdir.

Ushbu elementlarni amalda qollash uchun samarali metod va usullar zarur bo‘lib, bunday innovativ usullarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. "Men" ifodalari orqali o‘z xis-tuyg‘ularini bildirish: bu usul o‘quvchilarga o‘z his-tuyg‘ularini boshqalarni ayblamasdan, aniq va hurmat bilan yetkazishni o‘rgatadi. Masalan: *"Siz*

gapimni bo‘lganingizda, men xafa bo‘laman, chunki fikrim bo‘linib ketadi". Bu o‘z-o‘zini anglashni rivojlantiradi va ijtimoiy munosabatlarda axloqiy muloqotni shakllantiradi;

2. Davra suhbatlari: ishtirokchilar o‘rtasida iyerarxiyani yo‘qotadigan va xavfsiz muhit yaratadigan format. Maxsus "gapirish navbati" (talking piece) yordamida o‘quvchilar faqat o‘zlariga navbat kelganda gapiradilar, bu esa o‘z-o‘zini boshqarish (impulsivlikni nazorat qilish) va boshqalarni faol tinglash ko‘nikmasini mustahkamlaydi;

3. Tinchlik doiralari (peace circles): nizolarni hal qilish va yetkazilgan zararni tuzatish uchun qo‘llaniladi. Bunda nizo ishtirokchilari birgalikda to‘planib, sodir bo‘lgan voqeaning boshqalarga ta’sirini muhokama qiladilar va mas’uliyatli qaror qabul qilish orqali munosabatlarni tiklash yo‘llarini izlaydilar;

4. Hissiy savodxonlik (emotional literacy): o‘quvchilarga hissiyotlar lug‘ati yoki "Hissiyotlar g‘ildiragi" yordamida o‘z holatlarini aniq nomlashni o‘rgatish. Bu o‘z tuyg‘ularini ongli ravishda boshqarish (self-management) va boshqalarning holatini tushunish (social awareness) uchun poydevor yaratadi;

5. Rollarni ijro etish va empatiya mashqlari (role-playing): turli ijtimoiy vaziyatlarni (masalan, kimdir chetlatilgan holat yoki kelishmovchilik) sahnalashtirish. Bu o‘quvchilarga vaziyatga boshqalar ko‘zi bilan qarashga (perspective-taking) va qiyin holatlarda axloqiy tanlov qilishni mashq qilishga imkon beradi;

6. Birgalikdagi sinf kelishuvlari (shared agreements): o‘qituvchi va o‘quvchilar birgalikda bir-birlariga qanday munosabatda bo‘lishlari haqidagi "va’dalar" ro‘yxatini tuzadilar. Bu tashqi qoidalarga shunchaki bo‘ysunishdan ko‘ra, o‘quvchilarda ichki axloqiy mas’uliyat va jamoaga daxldorlik hissini kuchaytiradi;

7. Kattalar namunasi (adult modeling): pedagoglarning o‘zlari ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni namoyish etishlari. O‘qituvchi o‘z xatosini tan olishi, qiyin vaziyatda xotirjamlikni saqlashi yoki o‘quvchilarni har kuni ism bilan qarshi olishi eng kuchli axloqiy tarbiya vositasidir.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida ijtimoiy-hissiy ta’lim metodikalarini qo‘llash talabalarining axloqiy-ijtimoiy kompetensiyalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi. Xususan, reflektiv muloqot, rol o‘ynash va hissiy kundalik kabi metodikalar talabalarda empatiya, o‘zini anglash hamda ijtimoiy mas’uliyat hissini shakllantiradi. Ushbu yondashuvlar orqali talabalar turli pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini egallaydilar. Shuningdek, metodikalar o‘zaro muloqot madaniyatini rivojlantirib, jamoada samarali ishlashni ta’minlaydi. Natijada, ijtimoiy-hissiy ta’lim metodikalarini tizimli qo‘llash bo‘lajak pedagoglarning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarini yuksaltirishda muhim omil hisoblanadi.

Reflektiv muloqot metodikasida talabalar o‘z fikr va hissiyotlarini ochiq ifoda etish, boshqalarni tinglash va empatiya ko‘rsatishni o‘rganadilar. Unda quyidagi qadamba-qadam algoritm asosida faoliyat amalga oshiriladi:

- dars jarayonida muammoli vaziyat (case) beriladi;
- talabalar kichik guruhlarda muhokama qiladi;
- har bir talaba o‘z hissiy reaksiyasini va qarashini bildiradi;
- yakunda umumiy refleksiya qilinadi (“Men nimani his qildim?”, “Nimani o‘rgandim?”).

Natijda esa empatiya rivojlanadi, ijtimoiy muloqot ko‘nikmalari shakllanadi, axloqiy qaror qabul qilish mustahkamlanadi.

“Hissiy kundalik” metodikasida talabalar o‘z hissiyotlarini yozma tarzda tahlil qilish orqali o‘zini anglash va boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Unda har darsdan so‘ng talabalar qisqa yozuv yozadilar.

O‘z kundaliklarida dars davomida refleksiv savollarga javob yozadilar:

- Bugun men nimani his qildim?
- Qaysi vaziyat menga ta’sir qildi?
- Men qanday qaror qabul qildim?

Natijada o‘z-o‘zini anglash (self-awareness) rivojlanadi, hissiy boshqaruv shakllanadi hamda axloqiy o‘sish va shaxsiy refleksiya kuchayadi.

Xulosa qilib aytganda, oliy pedagogik ta’lim tizimida ijtimoiy-hissiy ta’lim metodikalarini qo‘llash bo‘lajak pedagoglarning axloqiy-ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Reflektiv muloqot, rol o‘ynash va hissiy kundalik kabi metodikalar orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini ham egallaydilar. Bu jarayon ularda empatiya, o‘zini anglash va ijtimoiy mas’uliyat kabi muhim sifatlarni shakllantiradi. Natijada ijtimoiy-hissiy yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta’lim bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy yetukligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Креславская Т.А., Иванова Г.В., Травина С.А. Формирование профессионально-нравственных компетенций в процессе педагогической практики будущих учителей начальных классов // Вестник ТвГУ. Серия «Педагогика и психология». 2020. № 3(52). С. 164–174.

2. Шабанова Т.Л., Лебедева И.В. Психолого-педагогические условия формирования эмоциональной зрелости у студентов в процессе обучения в вузе // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. 2015. № 12(9). С. 1710–1713.

3. Сламбекова Т.С., Конырова А.А. Психолого-педагогические механизмы формирования социальной ответственности у будущих педагогов // Вестник ЕНУ им. Л.Н. Гумилева. Серия Педагогика. Психология. Социология. 2024. № 2(147). С. 453–467.

4. Савинова Т.В., Варданян Ю.В., Вдовина Н.А., Сюбаева Р.Р. Развитие рефлексии будущего педагога в процессе освоения психологических дисциплин // Мир науки. Педагогика и психология. 2023. Т. 11, № 4.

5. Трофимова Н.Б., Орлова Г.В. Развитие эмоционального интеллекта будущих педагогов как условия успешности профессиональной деятельности // Известия Воронежского государственного педагогического университета. 2023. № 2(299). С. 41–47.

6. Даниярова А., Садикова Ш. Применение кейс-технологий в подготовке студентов университета к педагогической деятельности // Общество и инновации. 2024. Т. 5, № 2. С. 70–75.

7. Туякова У.Ж., Орынбекова А.С., Алекешова Л.Б. Формирование эмоционального и социального интеллекта будущих педагогов в образовательном процессе вузов // Scientific Journal of Pedagogy and Economics (Вестник НАН РК). 2025. Т. 415, № 3. С. 300–314.

8. Смолянинова О.Г., Иманова О.А., Трофимова В.В. Развитие и оценка социальных компетенций студента педагогического вуза средствами е-портфолио // Современные проблемы науки и образования. 2013.

9. Савина Т.А. Формирование эмоциональной устойчивости будущего педагога: автореф. дис. … канд. пед. наук. М., 2010. 20 с..
10. Cordeiro E. P. B., Marques M. M. C., Costa M. T. N. Socio-emotional education: paths to inspire studies, research and practices // Revista Tempos e Espaços em Educação. 2021. Vol. 14, № 33. e13729

KITOBXONLIK SOTSIOMETRIK MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRUVCHI MADANIY VOSITA SIFATIDA

Dilfuza Kamoljonova Xoldorovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti matbuot kotibi, p.f.b.f.d.

Annotatsiya. *Maqolada madaniyatshunoslik yondashuvi asosida o‘quvchilar o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishda bolalar kitobxonligining o‘rni, mutolaa jarayonini o‘quvchining fikrlash qobiliyati, nutqi, atrofidagilar bilan munosabati va empatiyasiga ta’siri haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *madaniy mexanizm, sotsiometrik munosabatlarini rivojlantirish, bolalar kitoblari, empatiya, qahramonlar va xarakter xususiyatlari, nutq va fikrlash qobiliyatining o‘sishi.*

Аннотация. *В статье рассматривается роль детского чтения в развитии социометрических отношений между учащимися на основе культурологического подхода, а также влияние чтения на мыслительные способности, речь, отношения с окружающими и эмпатию читателя.*

Ключевые слова: *культурный механизм, развитие социометрических отношений, детские книги, эмпатия, герои и черты характера, рост речевых и мыслительных способностей.*

Kitob mutolaasi jarayonida o‘quvchilarning empatik qobiliyati ya’ni boshqalarning his-tuyg‘usi, ichki kechinmalarini tushunish va baham ko‘rish qobiliyati shakllanadi. Kitobxon mutolaa jarayonida o‘zini asar qahramonlari obrazida tasavvur qiladi. O‘quvchi o‘qigan ma’lumot va haqiqiy hayotdagi ma’lumot chap miya sharida qayta ishlanadi. Nutq uchun mas’ul bo‘lgan chap miya sharining yuqori qismida asar qahramoni aslida nima qilyapti deb o‘ylashga majbur qiladigan jarayon kechadi. Turkiyalik pedagog, bolalar kitoblari bo‘yicha mutaxassis Duygu Yamanning fikricha bu holat kunning aksar qismini gadjetlar bilan o‘tkazayothan bolada sodir bo‘lmaydi. Ya’ni bola bosma shakldagi kitobdan olgan ruhiy, nutqiy, aqliy rivojini gadjet orqali o‘qigan vositasidan ololmaydi. Psixologiyada bu hodisa “bilimlarni umumlashtirish” deb nomlanadi .

Kitobxonlik ko‘nikmasi – deb kitob o‘qish qoidalaridan boxabar bo‘lish, mutolaaga qiziqish, kitobxonning ehtiyojidan kelib chiqqan holda kitob (badiiy asarni) tanlash, kitob o‘qishga odatlanish, bu harakatning izchil va uzluksiz davom etishi, o‘qigan kitobning mazmunini anglash, kitob mutolaasidan keyin taassurotlarni ifoda etish ko‘nikmalarning malakaga aylanishini ta’minlashga qaratilgan pedagogik faoliyat natijasiga aytiladi.

Mutola bilim olishning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, olamni idrok etish, o‘rganishda kitob mutolaasi asosiy o‘rin tutadi. Kitoblar tematik, janr jihatdan va yosh xususiyatlariga ko‘ra tasniflanadi.

Birgalikda kitob o‘qish va muhokama qilish – o‘quvchilar o‘rtasida yaqinlikni oshiradi, muloqotni rivojlantiradi, ijtimoiy pozitsiyalarni yumshatadi.

Bolalar adabiyotining dastlabki namunalarini o‘zbek xalq og‘zaki ijodi asarlari tashkil qiladi. Zamonaviy bolalar kitobining tarixi yaqin o‘tmishga borib taqaladi. Badiiy adabiyotlar, kitoblar dastlab kattalar uchun nashr qilingan bo‘lib, XVII asrga kelib bolalar uchun ta’lim ommalashishi kerakligi g‘oyasi ilgari suriladi. Bu borada chex pedagogi va yozuvchisi taniqli olim Yan Amos Komenskiyning hissasi kattadir. Komenskiy yashab o‘tgan davrlardan boshlab bolalarga atalgan kitoblar ommashib kitoblarning asosiy maqsadi didaktikaga qaratildi. Ilk bolalar kitoblari ertak janrida shakllangan. “Ertak” so‘zining lug‘aviy ma’nosi aytib bermoq, hikoya qilmoq degani. Shundan kelib chiqib aytganda, o‘zbek xalq ertaklarining eng qadimiy namunalarida ham xalqning orzu, umid, maqsadlari ifoda etiladi. Masalan, “Ochildasturxon” to‘kin hayotni ifodalasa, “Qimmat va Zumrad” ertagida mehnatsevarlik, rostg‘ylikning mukofoti yaxshilik, dangasalik va tanballikning mukofoti yomonlik, “Ur to‘qmoqda” – yolg‘onchilikning oqibati to‘qmoq ekanligi bilan izohlanadi.

Asar qahramonlari obrazi asosida o‘quvchi o‘zida bag‘rikenglik, mehr-shafqat, tog‘rilik, halollik, mehnatsevarlik kabi xislatlarni tarbiyalaydi. “Zumrad va Qimmat”, “Egri va To‘g‘ri”, “Uch og‘a-ini botirlar”, “Ur to‘qmoq” kabi o‘zbek xalq ertaklari, “Sariq devni minib” (X.To‘xtaboyev), “Meshpolvon” (A.Obidjon), “Kokilli ilon” (M.Xamidova), Z.Ibrohimova “Alisher va mehmon chumoli” “Quloqsiz filcha” (D.Kamoljonova) asarlari kitobxonda mana shunday fazilatlarni tarbiyalovchi badiiy asarlar hisoblanadi. Kitobxon o‘quvchining dunyoqarashi keng bo‘ladi.

Yoshlar o‘rtasida kitob mutolaasi yakka tartibda, ommaviy tarzdan, elektron yoki audio shaklda bo‘lishi mumkin. Kitob aql va tafakkurni chiniqtiradi, so‘z boyligini oshirib, kishilar bilan muloqotni yaxshilaydi.

Yuqoridagi tahlillar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik ko‘nikmasini rivojlantirishning ijtimoiy texnologiyasi tanlab olindi:

1. “Sinfdan tashqari” kitobxonlik mashg‘ulotlariga qaratilgan matnlar o‘quvchilarning yosh xususiyatiga mos bo‘lishi.

2. Mutolaa ko‘nikmasini rivojlantirishga qaratilgan texnologiyada maqsad, tizimlilik, texnologiyani qayta qo‘llash orqali ijtimoiy samaradorlikka erishish.

3. Sinfdan tashqari kitobxonlik mashg‘ulotlarida milliy qahramonlar Zumrad – Qimmat, Kenja botir, Egrivoy – To‘g‘rivoy ertak qahramonlari obrazlari misolida interfaol darslarda “Insert” texnologiyasi asosida rolli o‘yinlarni amaliyotga tatbiq etish.

4. Qahramonlik obrazidagi ertak, hikoya, qissa – Zumrad, To‘g‘rivoy, Jimjiloq Botirning ijobiy fazilatlari haqida o‘qish orqali o‘quvchilar ma’naviy-axloqiy sifatlarning shakllanishi.

5. Egrivoy, Qimmatxon misolida salbiy qahramonlarni yaxshi qahramonga aylanish uchun qanday salbiy odatlardan voz kechishini kves topshiriqlar asosida shakllantirish.

6. Kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid kvestlarda ijodiy topshiriqlar tizimidan foydalanish.

O‘quvchilarining kitobxonlik ko‘nikmlarini rivojlantirishning ijtimoiy texnologiyasini ishlab chiqish tadqiqotning asosini tashkil etadi. Mazkur jarayonni milliy sharoitda samarali tashkil etishda milliy kontent alohida ahamiyat kasb etadi. Demak, ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili “milliy kontent xalqning ertaklari, rivoyatlari, maqollari, dostonlari, tarixiy va adabiy manbalari bo‘lib, o‘quvchilarni ma’naviy, axloqiy va intellektual jihatdan kamol toptiruvchi ta’limiy resurslar majmui hisoblanadi” deb ta’kidlashga asos bo‘ldi.

Milliy kontent vositasida kitobxonlikni rivojlantirish, bir tomondan, o‘quvchilarning so‘z boyligini kengaytirish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglash kabi kognitiv jarayonlarni mustahkamlaydi, ikkinchi tomondan esa, vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat, mehr-oqibat kabi ma’naviy fazilatlarni shakllantiradi. Shuningdek, milliy ertak va hikoyalarni sahnalashtirish, “Qahramonni tanla”, “Rolli o‘yin”, “Insert” kabi interaktiv metodlar, “Muloqot”, “Tushunchalar tahlili” (Insert), “Kvest” pedagogik texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarda kitob mutolaasini qiziqarli va mazmunli faoliyatga aylantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda maktab, oila, jamiyatdagi muhit muhim rol o‘ynaydi. Oilada ota-ona, bobo-buvi, opa-singil, aka-uka kitob mutolaasiga qiziqsa, o‘qigan adabiyotlarini oilaviy tahlil qilsa, o‘quvchida mutolaaga refleksiya hissi paydo bo‘ladi va bu oilaviy an’anaga aylanadi. Dars jarayonida o‘qituvchi darslikdagi materialga qo‘shimcha tarzda badiiy va ilmiy kitoblardan ijodiy topshiriqlar bersa, sinfda kitobxonlik muhiti shakllanadi.

O‘quvchilarida kitobxonlik ko‘nikmalarini ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlari folklor namunalari, milliy qahramonlar haqidagi asarlar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tarkib topgan bolalar kontenti vositasida rivojlantirish, ushbu badiiy adabiyot namunalarini “O‘qish savodxonligi” darsligi, “Tarbiya” fanlariga integratsiyalash, oila, mahalla va maktabda kitobxonlik muhitini tashkil qilish, kitobxonlikni targ‘ib etuvchi ijodiy-badiiy kechalar tashkil etish, yozuvchi-shoirlar bilan uchrashuv, kitob do‘konlari, kutubxonalarga muntazam va davomli borish, mutolaani tashkil etish orqali o‘quvchilarni mutolaaga qiziqtirish, ijtimoiy qadiriyatlarga sodiqlik hissini tarbiyalash vazifasini maqsad qilib qo‘ymoqda. O‘quvchilarining kitobxonlik ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi tadqiqot ishi mazmuni quyidagilardan tarkib topadi. Badiiy adabiyot va folklor namunalari vositasida, zamonaviy kontentlar orqali o‘quvchilarining kitobxonlik ko‘nikmalarini oila, mahalla va maktab muhitida rivojlantirish, ularning hamkorlikdagi faoliyatida zanjir mexanizmini ishlab chiqish, kichik yoshdagi o‘quvchilarida o‘qigan kitoblari yuzasidan tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish kitobxonlikni rivojlantirishning ijtimoiy ehtiyojlarini keltirib chiqaradi.

Ta’kidlash joizki, jamoaviy suhbat asnosida kitoblarni o‘qish, obrazlarni yoki voqealarni muhokama qilish o‘quvchilarda ijtimoiy qadriyatlarni egallash va amal qilishga yo‘naltirishda alohida o‘rin egallaydi. Bunday suhbatlar jarayonida o‘quvchilar o‘qigan kitoblari haqidagi fikrlarini bayon qiladi, bir-biri bilan o‘zaro fikr almashadi, o‘z g‘oyalari, qarashlarini bayon etadi, asar qahramonlarining harakatlariga, fikrlashiga baho beradi, tanqidiy va mantiqiy xulosalar chiqaradi, o‘zaro munozaraga kirishadi, shaxsiy nuqtayi nazarlarini bayon qilib, bu masalada o‘z pozitsiyasini belgilaydi. Bunday suhbatlar kitobxonlikni rivojlantirishning ijtimoiy asoslarini mustahkamlashda muhim komponent hisoblanadi.

O‘quvchilarning kitobxonlik vositasida ijtimoiylashuvining asosiy omilidan biri o‘zi o‘qigan yoki o‘qiyotgan kitobidan chuqur ta’sirlana olishi va o‘zidagi taassurotlarni muloqot, munozara jarayonlariga tatbiq eta olishidir. O‘quvchi o‘zi o‘qigan kitob qahramonlari, ular amalga oshirgan ishlar, ular duch kelgan vaziyatlarni oilada, jamiyatda, sinfda o‘z yaqinlari, tanishlari, do‘stlari bilan muhokama qilishi o‘quvchini ijtimoiylashuviga jadal ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchi o‘zi o‘qigan kitob mazmunini anglab etsagina, unda munosabat, muhokama, baho, xulosa kabi fikrlar amaliyoti vujudga keladi. U kitobning asosiy mazmunini, g‘oyasini, natijasini o‘z atrofidagilar, sinfdoshlari, tengdoshlari, oila a’zolariga targ‘ib qila oladi, so‘zlab beradi, targ‘ibotchiga aylanadi va o‘zining ijtimoiy faolligini ko‘rsatadi.

XX asr oxirlariga kelib bolalar kitobxonligi tushunchasini va amaliyoti, noshirlik faoliyati butunlay o‘zgardi. Zamonaviy bolalar kitoblari bugun bu adabiy, ilmiy-ommabop, badiiy, ijodiy

asar bo‘lib, bolalarning yosh, psixologik, aqliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda bolalar uchun mo‘ljallangan to‘plam sanaladi.

Ilmiy-ommabop adabiyotlar konkret dalil va asoslarga tayanib yoziladi. Xorijda bunday adabiyotni non-fantastik – sarguzashtdan yiroq, badiiy to‘qimadan xoli asar deb ta’rif beriladi. U real hayot haqidagi dalillar yoki fikrlarni etkazish uchun yoziladi. Audio yoki videoda mavzu bo‘yicha asosli ma’lumotlarni taqdim etish imkoniyati paydo bo‘lgandan beri ilmiy-ommabop asarlar faqat yozma matn bilan cheklanmay qolgan.

Badiiy adabiyot esa ijodkor (yozuvchi, shoir)ning ijod mahsuli hisoblanadi.

Asotir (mif)lar badiiy adabiyotning ilk namunalari hisoblanadi. Badiiy ijod bilishga qaratilgan jarayon ekan, demak, badiiy adabiyot ham ongga aloqador hodisa, faqat bunda bilishning san’atga xos yo‘lidan boriladi

Bolalar uchun badiiy kitoblar, turlari va badiiy kitoblarga qo‘yiladigan talablar:

– badiiy kitoblar bolaning dunyoqarashi va tassavurini boyitib, undagi ijodkorlik (kreativlik) qobiliyatini rivojlantiradi.

– bolaning nutqi rivonlashib, so‘z boyligi ortadi.

– rivoyat, ertak, cho‘pchak, asotir va hikoyalarda tilga olingan biron-bir voqea hayotiy yoki to‘qima bo‘lishidan qat’i nazar, qahramonlarning xatti-harakati va fe’l-atvori kitobxonni voqea-hodisa va harakatlardan saboq chiqarishga undaydi. O‘zbek xalq ertaklaridan “Ur to‘qmoq” asarini misol qilib keltirsak, ertakda chol laylakka yaxshilik qiladi. Bu yaxshilikdan biron bir manfaat ko‘zlamaydi. Laylak ham chol qilgan yaxshilikni qaytarmoqchi bo‘ladi. Unga “Qaynar xumcha”ni sovg‘a qiladi. Bu ertakning pedagogik ahamiyati shundaki, bolalar yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish kerakligini o‘rganadi. Cholni uchratgan ayyor boy esa sehrli xumchani oddiy xumchaga almashtirib qo‘yadi, ertak yakunida qilgan qing‘ir ishlari evaziga ur to‘qmoqdan jazosini oladi. Bu sujet orqali har qanday egrilik albatta yomon oqibitlar bilan tugashi muqarrarligi bolaga hayotiy misollar bilan tushuntirib beriladi. She’riy kitoblar kichik kitobxonga estetik zavq berishi bilan uning xotirasini mustahkamlaydi. Bolalar she’r yod olishi bilan xotirasiga ko‘plab badiiy misralar saqlana boshlaydi. Topishmoqlar topqirlikka chorlasa, tezaytishlar nutqni rivojlantiradi. Topishmoq xalq og‘zki ijodining eng kichik janrlaridan biri bo‘lib, unda xalq zukkoligi aks etadi. Sifati keltirilgan narsa-buyum nomi keltirilgan ta’rifga berkitiladi. Tezaytish nutqni ravonlashtiruvchi vosita bo‘lib, bo‘g‘inlar ketma-ketligiga ahamiyat qaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdulazizov A.H. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida mutolaa madaniyatini shakllantirish jarayoning sotsiologik tahlili sots.f.nom. dissertatsiya Avtoreferati. – Toshkent: 2010.30 b.

2. Chinniyeva S.A. O‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari. – Toshkent: TDMI, 2007. – 48 b. https: //phoenixpublication.

3. Egamberdiyeva N. Ijtimoiy pedagogika: darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Respublika kutubxonasi, 2009. – 323 b.

4. Ibraimov X.I., Quronov M.Q. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Shaffof. 2023. – 415 b.

MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARI TARBIYALANUVCHILARI BILAN TARBIYACHILAR O‘RTASIDAGI SOTSIOMETRIK MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISHDA SEL METODIKALARNING AHAMIYATI

Xakimova B.M.
Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti
katta ilmiy xodimi, p.f.b.f.d., (PhD)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchilar va tarbiyachilar o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarni shakllantirishda ijtimoiy-emotsional o‘rganish (SEL) metodikalarining ahamiyati ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Sotsiometriya tushunchasining mohiyati, uning pedagogik jarayondagi o‘rni va maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsiy rivojlanishidagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, SEL metodikalari orqali bolalarda emotsional ong, empatiya, ijtimoiy moslashuvchanlik va samarali muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ijobiy sotsiometrik muhitni shakllantirish mexanizmlari ochib beriladi. Maqolada xalqaro tajriba (CASEL modeli, UNESCO MGIEP yondashuvlari) hamda milliy pedagogik qadriyatlar asosida ishlab chiqilgan metodikalar integratsiyasi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, SEL metodikalari asosida tashkil etilgan tarbiya jarayoni bolalar va tarbiyachilar o‘rtasida o‘zaro ishonch, hurmat va ijobiy emotsional aloqalarni mustahkamlaydi.*

Kalit so‘zlar: *SEL, sotsiometriya, maktabgacha ta’lim, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, empatiya, tarbiyachi-bola munosabatlari, ijtimoiy kompetensiya, emotsional intellekt, pedagogik muhit, kommunikativ ko‘nikmalar.*

Maktabgacha ta’lim tizimi shaxs rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, aynan shu davrda bola ijtimoiy muhitga moslashadi, muloqot ko‘nikmalarini egallaydi hamda o‘zini anglash jarayonini boshlaydi. Ushbu jarayonda tarbiyachi bilan o‘rnatilgan munosabatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bola uchun tarbiyachi nafaqat bilim beruvchi, balki ijtimoiy model, emotsional tayanch va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi shaxs hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchilar va tarbiyachilar o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarni shakllantirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida qaraladi.

Sotsiometriya tushunchasi ilk bor amerikalik olim J.Moreno tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, u guruh ichidagi shaxslararo munosabatlarni o‘rganish va baholash metodikasini anglatadi. Uning ta’kidlashicha, “har qanday ijtimoiy guruhning samaradorligi undagi emotsional aloqalar sifatiga bevosita bog‘liq” [1]. Maktabgacha ta’lim muassasasida ham guruh ichidagi munosabatlar, ayniqsa tarbiyachi va bolalar o‘rtasidagi aloqalar bolaning psixologik farovonligi va rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy pedagogikada ijtimoiy-emotsional o‘rganish (SEL) metodikalari aynan shu jarayonni qo‘llab-quvvatlovchi innovatsion yondashuv sifatida qaralmoqda. CASEL tomonidan ishlab chiqilgan modelga ko‘ra, SEL beshta asosiy kompetensiyani o‘z ichiga oladi: o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, ijtimoiy ong, munosabatlar o‘rnatish va mas’uliyatli qaror qabul qilish. Ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish orqali bolalarda sog‘lom ijtimoiy muhitga moslashish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish va ijobiy sotsiometrik aloqalarni shakllantirish imkoniyati ortadi [2].

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda SEL metodikalarini qo‘llashning asosiy ustunligi shundaki, bu metodikalar bolalarning tabiiy rivojlanish xususiyatlariga mos keladi. Masalan, emotsiyalarni tanish va ifodalashga qaratilgan o‘yinlar, empatiyani rivojlantiruvchi rolli mashg‘ulotlar, hamkorlikka asoslangan faoliyatlar bolalar o‘rtasida ijobiy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “erta yoshda rivojlantirilgan emotsional kompetensiyalar keyingi ijtimoiy muvaffaqiyatlarning muhim prediktori hisoblanadi”[3].

Tarbiyachi va bola o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarning sifatini oshirishda tarbiyachining emotsional kompetensiyasi ham muhim rol o‘ynaydi. Agar tarbiyachi bolalarning emotsiyalarini to‘g‘ri anglay olsa, ularning ehtiyojlariga mos ravishda yondasha olsa, bu bolalarda ishonch hissini shakllantiradi. Daniel Goleman ta’kidlaganidek, “emotsional intellekt yuqori bo‘lgan shaxslar boshqalar bilan samarali va ijobiy munosabatlar o‘rnatishda muvaffaqiyatli bo‘ladi” [4].

Shuningdek, UNESCO MGIEP tomonidan ishlab chiqilgan SEL dasturlari ham maktabgacha ta’lim tizimida ijobiy sotsiometrik muhitni yaratishga xizmat qiladi. Ushbu dasturlarda mindfulness, empatiya mashqlari, konfliktlarni tinch yo‘l bilan hal etish strategiyalari muhim o‘rin egallaydi. Bu esa bolalar va tarbiyachilar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishni kuchaytiradi.

Sotsiometrik munosabatlarni shakllantirishda muhim omillardan biri bu kommunikativ muhitdir. Agar muassasada ochiq, qo‘llab-quvvatlovchi va ijobiy kommunikatsiya muhiti yaratilsa, bolalar o‘z fikrlarini erkin ifoda eta oladi, boshqalarni tinglashni o‘rganadi. Bu esa ijtimoiy moslashuvchanlikni oshiradi. Lev Vygotsky nazariyasiga ko‘ra, ijtimoiy o‘zaro ta’sir bola rivojlanishining asosiy omillaridan biridir. Demak, SEL metodikalari orqali tashkil etilgan muloqot jarayoni bolalarning rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, SEL metodikalari asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda bolalar bir-biriga nisbatan ijobiy munosabat bildiradi, konfliktlar soni kamayadi va guruh ichidagi ijtimoiy maqomlar muvozanatlashadi. Bu esa sotsiometrik jihatdan sog‘lom muhitni shakllantiradi. Ayniqsa, “do‘stlik aylanalari”, “his-tuyg‘ular termometri”, “empatiya o‘yinlari” kabi metodlar samarali natija beradi.

Milliy pedagogik an’analar nuqtai nazaridan ham SEL metodikalari muhim ahamiyatga ega. O‘zbek xalqining “mehr-oqibat”, “hurmat”, “hamjihatlik” kabi qadriyatlari SEL kompetensiyalari bilan uyg‘unlashadi. Shu sababli, SEL metodikalarini milliy tarbiya tizimi bilan integratsiya qilish orqali yanada samarali natijalarga erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchilar va tarbiyachilar o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarni shakllantirishda SEL metodikalari muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ular nafaqat bolalarning emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlaydi, balki ijobiy, sog‘lom va qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik muhitni yaratishga xizmat qiladi. Shu bois, zamonaviy ta’lim tizimida SEL metodikalarini keng joriy etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Moreno J.L. *Who Shall Survive?* Beacon House nashriyoti. 1953. – 399 b.
2. Weissberg R.P., Durlak J.A., Domitrovich C.E., Gullotta T.P. *Social and Emotional Learning: Past, Present, and Future.* Chicago nashriyoti. 2015. – 350 b.
3. Denham S.A. *Social-Emotional Competence as Support for School Readiness.* New York nashriyoti. 2006. – 280 b.

4. Daniel Goleman. *Emotional Intelligence.* Bantam Books nashriyoti. 1995. – 352 b.
5. Lev Vygotsky. *Mind in Society.* Harvard University Press nashriyoti. 1978. – 159 b.
6. UNESCO MGIEP *SEL. Framework for Transformative Education.* UNESCO nashriyoti. 2020. – 120 b.
7. Khakimova B.M. *Transformation of Educational System of Uzbekistan: SEL Methodology.* European International Journal of Pedagogics jurnali. 2025. – 38–40-betlar.
CASEL. *Core SEL Competencies Framework.* CASEL nashriyoti. 2020. – 50 b.

MAKTABGACHA TA’LIMDA INKLYUZIV MUHITNI YARATISH, SOTSIOMETRIK MUNOSABATLARNING O‘RNI VA UNI BARQARORLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Gulyamova Aziza Otabek qizi
Qori Niyoziy nomidagi TPMI, “Inklyuziv ta’lim-tarbiya metodikasi” bo‘limi, katta ilmiy hodim (PhD)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tizimida inklyuziv muhitni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.*

Xususan, tarbiyalanuvchilar va tarbiyachilar o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarning mazmuni, ularning bolalar ijtimoiylashuvidagi o‘rni hamda inklyuziv ta’lim sharoitida ushbu munosabatlarni shakllantirish va barqarorlashtirish mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqotda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, differensial ta’lim, hamkorlikka asoslangan faoliyat va ijtimoiy-psixologik muhitni optimallashtirish muhim omil sifatida asoslab berilgan. Shuningdek, inklyuziv guruhlarda sotsiometrik barqarorlikni ta’minlashda pedagog kompetensiyasi va oila bilan hamkorlikning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, maktabgacha ta’lim, sotsiometrik munosabatlar, ijtimoiylashuv, pedagogik yondashuv, differensial ta’lim, ijtimoiy-psixologik muhit, tarbiya, integratsiya, kommunikativ kompetensiya.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimining rivojlanish tendensiyalarida inklyuziv yondashuvni joriy etish ustuvor pedagogik yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichida barcha bolalar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini yaratish, ularning individual rivojlanish xususiyatlari, ehtiyoj va qobiliyatlarini inobatga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta’lim konsepsiyasi faqatgina alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalarni umumiy ta’lim muhitiga integratsiya qilish bilan cheklanib qolmay, balki barcha tarbiyalanuvchilar o‘rtasida ijtimoiy adolat, tenglik va o‘zaro hurmat tamoyillariga asoslangan sog‘lom ijtimoiy-psixologik munosabatlarni shakllantirishni ham nazarda tutadi.

Maktabgacha yosh davri shaxsning ijtimoiylashuvi, kommunikativ kompetensiyalarining shakllanishi hamda ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Mazkur davrda bola ijtimoiy muhit bilan faol o‘zaro ta’sirga kirishadi, shaxslararo munosabatlarni idrok etish va ularni amalga oshirish ko‘nikmalarini egallaydi. Shu jihatdan, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o‘rtasida yuzaga keladigan sotsiometrik munosabatlar tizimi ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon

bo‘ladi. Sotsiometrik munosabatlar orqali guruh ichidagi ijtimoiy maqomlar, o‘zaro tanlovlar, liderlik pozitsiyalari hamda bolalarning ijtimoiy moslashuv darajasi aniqlanadi va baholanadi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida sotsiometrik munosabatlar tizimi murakkablashgan va ko‘p qatlamli xarakter kasb etadi. Bu holat guruh tarkibida rivojlanish darajasi, psixofiziologik imkoniyatlari, ijtimoiy tajribasi hamda kommunikativ kompetensiyalari turlicha bo‘lgan bolalarning mavjudligi bilan izohlanadi. Natijada, pedagogik jarayonni tashkil etishda differensial yondashuv, individual ta’lim strategiyalari hamda moslashuvchan metodik vositalardan foydalanish zarurati yuzaga keladi. Shu bilan birga, tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi, xususan, empatik munosabatni shakllantirish, tolerantlikni rivojlantirish va inklyuziv madaniyatni qaror toptirishga qaratilgan faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, maktabgacha ta’lim muassasalarida inklyuziv muhitni shakllantirish jarayonida sotsiometrik munosabatlarning o‘rnini ilmiy jihatdan asoslash, shuningdek, ularni samarali shakllantirish va barqarorlashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri sifatida qaraladi.

Inklyuziv muhitni yaratishda quyidagi mexanizmlar muhim hisoblanadi:

1. Shaxsga yo‘naltirilgan va differensial yondashuv. Mazkur yondashuv inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, har bir bolaning individual rivojlanish xususiyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini inobatga olishga asoslanadi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvda tarbiyachi bolaning shaxsiy tajribasi, psixologik holati va ijtimoiy moslashuv darajasini hisobga olib, unga individual pedagogik ta’sir ko‘rsatadi. Differensial yondashuv esa guruhdagi bolalarning rivojlanish darajasidagi farqlarni hisobga olib, ta’lim mazmuni, metodlari va vositalarini moslashtirishni nazarda tutadi. Natijada, har bir bola o‘z imkoniyatlari doirasida faol ishtirok etadi, bu esa guruh ichidagi ijtimoiy tenglikni ta’minlab, sotsiometrik maqomlarning keskin tafovutini kamaytiradi.

2. Ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish. Inklyuziv guruhda samarali sotsiometrik munosabatlarni shakllantirish uchun qulay ijtimoiy-psixologik muhit yaratish zarur. Bunday muhit o‘zaro hurmat, ishonch, qo‘llab-quvvatlash va xavfsizlik hissiga asoslanadi. Tarbiyachi tomonidan do‘stona kommunikatsiya uslublaridan foydalanish, bolalarning emotsional holatini nazorat qilish hamda konfliktlarni konstruktiv hal etish muhim ahamiyatga ega. Ijobiy psixologik iqlim mavjud bo‘lgan guruhda bolalar o‘z fikrlarini erkin ifoda etadi, boshqalarni qabul qiladi va ijtimoiy aloqalarga faol kirishadi. Bu esa sotsiometrik tanlovlar muvozanatli shakllanishiga xizmat qiladi.

3. Kooperativ (hamkorlikka asoslangan) faoliyatni tashkil etish. Kooperativ faoliyat inklyuziv ta’limda bolalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir. Bu jarayonda bolalar umumiy maqsadga erishish yo‘lida birgalikda harakat qiladi, vazifalarni taqsimlaydi va o‘zaro yordam ko‘rsatadi. Juftlikda yoki kichik guruhlarda tashkil etilgan o‘yinlar, rolli vaziyatlar va loyiha faoliyati bolalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, turli imkoniyatlarga ega bolalar o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali ijtimoiy integratsiya kuchayadi va sotsiometrik izolyatsiya holatlari kamayadi.

4. Sotsiometrik monitoring va diagnostika. Sotsiometrik monitoring guruh ichidagi ijtimoiy munosabatlarni aniqlash, tahlil qilish va baholashga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Bu jarayon orqali tarbiyachi bolalarning o‘zaro tanlovlari, ijtimoiy maqomlari (liderlar, qabul qilinganlar, izolyatsiyadagi bolalar) hamda kommunikativ faollik darajasini aniqlaydi. Diagnostika natijalari asosida pedagog individual yondashuv strategiyalarini ishlab chiqadi,

ijtimoiy muvozanatni ta’minlashga qaratilgan tarbiyaviy choralarni belgilaydi. Mazkur mexanizm sotsiometrik munosabatlarni boshqarish va ularni barqarorlashtirishda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

5. Pedagog va ota-onalar hamkorligini rivojlantirish. Inklyuziv ta’lim samaradorligi ko‘p jihatdan pedagog va oila o‘rtasidagi hamkorlik darajasiga bog‘liq. Ota-onalar bilan muntazam muloqot qilish, ularni pedagogik jarayonga jalb etish hamda bolaning rivojlanish dinamikasi haqida ma’lumot almashish muhimdir. Hamkorlik asosida bola uchun yagona rivojlantiruvchi muhit yaratiladi, bu esa uning ijtimoiy moslashuvini tezlashtiradi. Ayniqsa, maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda ota-onalar bilan individual maslahatlar, treninglar va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish sotsiometrik munosabatlarning ijobiy shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Inklyuziv ta’lim sharoitida maktabgacha ta’lim muassasalarida sotsiometrik munosabatlarni shakllantirish va ularni barqaror rivojlantirish bolalarning shaxs sifatida kompleks rivojlanishida muhim ijtimoiy-pedagogik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayon nafaqat ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, balki bolalarning ijtimoiylashuvi, kommunikativ kompetensiyalarining rivojlanishi hamda jamiyatga moslashuv jarayonini jadallashtiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv muhitda sotsiometrik munosabatlarning samarali shakllanishi pedagogik jarayonning maqsadli va tizimli tashkil etilishi bilan bevosita bog‘liqdir. Xususan, shaxsga yo‘naltirilgan va differensial yondashuvni qo‘llash, ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish, hamkorlikka asoslangan faoliyatni yo‘lga qo‘yish, sotsiometrik monitoringni muntazam amalga oshirish hamda pedagog va ota-onalar o‘rtasidagi samarali hamkorlikni ta’minlash mazkur jarayonning asosiy determinantlari sifatida e’tirof etiladi.

Shu bilan birga, inklyuziv ta’lim sharoitida sotsiometrik munosabatlar tizimi bolalarning ijtimoiy maqomini muvozanatlashtirish, ijtimoiy izolyatsiya va diskriminatsiya holatlarining oldini olish hamda har bir bolaning guruhdagi faolligini oshirish imkonini beradi. Natijada, bolalarda o‘zaro hurmat, ishonch, tolerantlik va hamkorlikka asoslangan ijtimoiy xulq-atvor shakllanadi. Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, samarali tashkil etilgan inklyuziv muhit har bir tarbiyalanuvchining o‘zini ijtimoiy jihatdan ahamiyatli subyekt sifatida anglashiga, o‘z imkoniyatlarini namoyon etishiga hamda ijobiy “Men-konsepsiya”ni shakllantirishiga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, ularning keyingi bosqichlardagi ta’lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi va ijtimoiy faol hayotga tayyorlanishiga mustahkam zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim muassasalarida inklyuziv muhitni shakllantirish va uning doirasida sotsiometrik munosabatlarni ilmiy asosda boshqarish zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u nafaqat alohida shaxs rivojiga, balki jamiyatda ijtimoiy adolat va inklyuziv madaniyatni qaror toptirishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maktabgacha ta’limga oid me’yoriy hujjatlari.
3. Karimova V.M. Pedagogika va psixologiya asoslari. – Toshkent.
4. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. – Moskva: Pedagogika.
5. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development. – Harvard University Press.

6. Rogers C. On Becoming a Person. – Boston.
7. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent.
8. UNICEF. Inclusive Early Childhood Education Report.
9. UNESCO. Guidelines for Inclusion: Ensuring Access to Education for All.

УДК: 37.017:82.09

АДАБИЙ ПСИХОЛОГИЯНИНГ МАЪНАВИЙ ҚАДРИЯТЛАРИ ВА ҚИРҒИЗИСТОН ШАРОИТИДА ЎҚУВЧИЛАРНИ ТАРБИЯЛАШ МАСАЛАЛАРИ

Сатыбалдиев Мусабек Маматович
катта ўқитувчи
Ош давлат педагогика университети
ORCID - 0009-0007-6326-4184
E-mail: michurinsk59@inbox.ru
Ош шаҳри, Қирғизистон

Турдубекова Эльвира Турдубековна
ўқитувчи
Ош давлат университети
ORCID - 0009-0004-5422-7988
E-mail: e-turdubekova@mail.ru
Ош шаҳри, Қирғизистон

Аннотация. *Мақолада Қирғизистоннинг поликультур ва билингвал муҳитида ўқувчиларни маънавий тарбиялаш воситаси сифатида адабий психологиянинг салоҳияти ўрганилади. Рус, қирғиз ва жаҳон адабиёти материаллари асосида қаҳрамонларнинг ички дунёси таҳлилига оид методик ёндашувлар ёритилади. Рақамли таълим трансформацияси шароитида ўқувчиларда эмпатия, миллий ўзликни англаш, танқидий фикрлаш ва ахлоқий рефлексияни шакллантиришга алоҳида эътибор қаратилган. Қирғиз Республикасининг ҳудудий хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда адабий-психологик таҳлилни ўқув жараёнига интеграция қилишнинг амалий стратегиялари таклиф этилади.*

Калит сўзлар: *адабий психология, маънавий қадриятлар, ўқувчиларни тарбиялаш, Қирғизистон, поликультур таълим, эмпатия, билингвизм, характер таҳлили.*

Аннотация. *В статье исследуется потенциал литературной психологии как средства нравственного воспитания учащихся в поликультурной и билингвальной среде Кыргызстана. Раскрываются методические подходы к анализу внутреннего мира персонажей на материале русской, кыргызской и мировой литературы. Особое внимание уделяется формированию эмпатии, национального самосознания, критического мышления и этической рефлексии у школьников в условиях цифровой трансформации образования. Предлагаются практические стратегии интеграции литературно-психологического анализа в учебный процесс с учётом региональных особенностей КР*

Ключевые слова: *литературная психология, нравственные ценности, воспитание учащихся, Кыргызстан, поликультурное образование, эмпатия, билингвизм, анализ характера.*

Abstract. *The article examines the potential of literary psychology as a means of moral education of students in the multicultural and bilingual environment of Kyrgyzstan. Methodological approaches to analyzing the inner world of characters are revealed based on Russian, Kyrgyz, and world literature. Special attention is paid to the development of empathy, national self-awareness, critical thinking, and ethical reflection among school students in the context of the digital transformation of education. Practical strategies for integrating literary-*

psychological analysis into the educational process are proposed, taking into account the regional characteristics of the Kyrgyz Republic.

Keywords: *literary psychology, moral values, student education, Kyrgyzstan, multicultural education, empathy, bilingualism, character analysis.*

Продолжая анализ практических аспектов, важно подчеркнуть, что эффективность использования литературной психологии в школах Кыргызстана напрямую зависит от системной подготовки учителя к интерпретации внутреннего мира героя как нравственной проблемы. Как показывает опыт передовых педагогов Бишкека, Оша и Каракола, наиболее высокие результаты достигаются при реализации модели «трёх шагов»:

1) эмоциональное отождествление (ученик ставит себя на место персонажа в момент нравственного выбора;

2) культурное опосредование (сравнение мотивов поступка героя с нормами кыргызской традиционной этики – салт, адат, ырыс;

3) рефлексивное обобщение (формулирование личного нравственного суждения и его проекция на реальные жизненные ситуации)[3, с. 55].

Особую значимость этот подход приобретает при изучении произведений, где психологический конфликт разворачивается на фоне культурного или языкового пограничья. Например, рассказ Ч. Айтматова «Свидание с сыном» даёт уникальный материал для анализа переживаний матери, чей сын уехал на заработки в Россию – ситуация, типологичная для тысяч кыргызстанских семей[6, с. 45]. Через психологический портрет героини (её надежды, обиды, страх одиночества) учащиеся не только осваивают категории родительского долга и сыновней благодарности, но и учатся проговаривать собственные, часто вытесненные эмоции, связанные с миграцией близких. Литературная психология здесь выполняет психотерапевтическую функцию, легитимируя сложные чувства в безопасной учебной обстановке.

В то же время сохраняется серьёзная проблема дефицита адаптированных дидактических материалов. Большинство существующих учебников по литературе для школ Кыргызстана (как на русском, так и на кыргызском языке) ориентированы на сюжетно-тематический или историко-литературный анализ. Вопросы «Почему герой поступил так?», «Какие чувства он испытывал?», «Что бы ты сделал на его месте?» либо отсутствуют, либо носят формальный характер. В ответ на это автор предлагает разработку «Карты нравственных дилемм» – методического приложения к 5–9 классам, где каждое программное произведение сопровождается перечнем психологических опорных точек: момент стыда, момент гнева, момент прощения, момент выбора между личным и общим. Апробация такой карты в трёх школах Сокулукского района (Чуйская область) показала повышение уровня вовлечённости учащихся в обсуждение на 42% и снижение числа формальных пересказов[1, с. 55]. Не менее важным является вопрос учёта гендерной специфики нравственного воспитания через литературную психологию. В традиционном кыргызском обществе ожидания от мальчиков и девочек различаются (например, от мальчиков ждут защиты рода – уруу коргоо, от девочек – терпения и заботы о младших – тазалык, ырайым). Современная школа, однако, должна формировать универсальные нравственные качества, не разрушая культурную идентичность. Литературная психология позволяет обсуждать эти противоречия через анализ персонажей обоего пола: например, сравнивая внутренний мир Джемили («Джамиля» Ч. Айтматова) и Родиона Раскольникова («Преступление и наказание» Ф.М. Достоевского), учащиеся приходят к выводу, что мужество, ответственность и способность любить не имеют гендерной привязки, но их психологические проявления могут различаться в зависимости от культурного контекста[5, с. 96].

В условиях цифровизации (активное использование TikTok, Instagram и мессенджеров кыргызстанскими подростками) возникает иллюзия, что классическая литература «не работает» для нравственного воспитания. Однако исследования показывают обратное: именно глубокий психологический анализ персонажа, сопровождаемый визуализацией эмоций (например, создание

«эмоциональных графиков» героя на смартфонах в Google Jamboard), повышает интерес подростков. В школах г. Бишкек успешно применяется метод «психологического комикса»: ученики разбивают сцену нравственного выбора на 4–6 кадров, в каждом подписывают мысли и чувства героя, а затем обсуждают альтернативные варианты поведения. Этот метод, основанный на идеях литературной психологии, был представлен на республиканском семинаре учителей-словесников в Кыргызской академии образования (октябрь 2024 г.) и рекомендован к распространению. Таким образом, шестнадцатая страница нашего исследования подтверждает, что нравственные ценности, транслируемые через литературную психологию, не являются архаизмом. Напротив, в условиях Кыргызстана, где переплетаются традиционные этические системы (исламские, общинные, родоплеменные) и глобальные цифровые культуры, именно вдумчивый психологический анализ литературного героя становится тем мостом, который позволяет ученику не просто «пройти» произведение по программе, но присвоить его нравственный урок как свой собственный. Задача учителя – не читать мораль, а помочь увидеть душу другого человека (пусть и вымышленного) и через это переживание стать чуть более человечным. А для этого необходима системная работа: пересмотр учебных программ, подготовка кадров, создание региональных методических пособий и, что важнее всего, признание литературной психологии не вспомогательной дисциплиной, а ядром школьного литературного образования в Кыргызской Республике[3, с. 45].

Продолжая анализ экспериментальных данных, отметим, что одним из наиболее значимых результатов стало изменение мотивации чтения. Учащиеся экспериментальных групп стали чаще обращаться к тексту не ради фабулы («что случилось дальше»), а ради понимания внутреннего мира героя («почему он так поступил», «как он решился на это»). Это подтверждается и письменными рефлексивными отчётами, которые ученики вели на протяжении четверти. Приведём типичную запись (8 класс, сельская школа, мальчик, билингв): «Раньше я думал, что литература – это скучно, надо запоминать, кто сказал и что значит. А теперь, когда мы разбирали, почему Момун предал Манаса, я понял, что это не просто "трус", а ему страшно за внука, и он старый, и он боится остаться один. Я вспомнил своего дедушку, он тоже всегда боится, что мы его бросим. Теперь я иначе читаю». Такие высказывания показывают, что литературная психология не просто формирует нравственные ценности (сострадание, понимание слабости другого), но и укрепляет связь поколений – критически важный фактор для кыргызского общества, переживающего миграционный отток молодёжи.

Однако нельзя игнорировать и методические риски, которые возрастают при недостаточной подготовке учителя. В ходе эксперимента в одной из школ (условно назовём её «СШ №7»), несмотря на предварительный инструктаж, педагог допустил следующие ошибки: Навязывание единственной интерпретации. Учитель утверждал, что чувства героя могут быть только такими, как в «ключе» (ответах к учебнику), что убивало саму идею психологического анализа. Пренебрежение билингвальным мостом. Учитель не использовал кыргызские эквиваленты эмоций, и часть учащихся (со слабым русским) просто не понимала заданий типа «опишите амбивалентность чувств героя». Форсирование темпа. Учитель требовал быстрых ответов, не давая времени на внутреннее «проживание» ситуации. В связи с этим нами разработаны четыре методических принципа для школ Кыргызстана (апробированы и рекомендованы к внедрению): Принцип культурного согласия. Психологический анализ не должен разрушать традиционные ценности (уважение к старшим, стыдливость, почтительность). Любое обсуждение внутреннего конфликта героя должно завершаться рефлексией: «А как бы поступили наши предки в этой ситуации? А что говорит эпос "Манас"?». Принцип билингвальной безопасности. Все ключевые психологические термины (страх – коркуу, стыд – уят, вина – күнөө, сострадание – боорукердик, долг – милдет) должны быть выписаны на доске на двух языках. Это особенно важно в классах, где есть учащиеся с разным уровнем владения русским. Принцип добровольности самораскрытия. Запрещены задания типа «Расскажи о случае, когда ты

испытывал такие же чувства, как герой». Вместо этого – «Как ты думаешь, почему герой испытал именно это? А какие чувства были бы у тебя, если бы ты оказался в такой ситуации? (можно не говорить вслух, просто подумать)». Принцип пошагового усложнения. В 5–6 классах – распознавание базовых эмоций (радость, гнев, страх). В 7–8 классах – анализ смешанных чувств (стыд + благодарность, любовь + ревность). В 9 классе – введение понятий «психологический подтекст» и «внутренний монолог». Отдельный блок рекомендаций касается работы с цифровыми инструментами. В условиях Кыргызстана, где даже в отдалённых школах есть доступ к смартфонам (часто более мощным, чем школьные компьютеры), эффективны: Создание коротких аудиодневников от имени героя (3–5 предложений). Просмотр фрагментов экранизаций с остановкой и вопросом: «Как актёр передал чувства героя? А в книге это описано иначе?». Использование Google-форм для анонимного опроса: «Какое чувство героя тебе понятнее всего? Почему?» – ответы обсуждаются без имён, что снижает страх ошибки. Важно подчеркнуть: литературная психология в кыргызской школе не должна превращаться в самоцель. Она остаётся средством нравственного воспитания. Её критерий – не количество выученных терминов, а реальные изменения в отношении учащихся к людям, их способность замечать чужие чувства, уважать иные точки зрения, сопротивляться жестокости и равнодушию[2, с. 120].

Литературная психология предоставляет учителю-словеснику Кыргызстана эффективный инструмент для нравственного воспитания, особенно актуальный в условиях билингвизма и поликультурности. Систематический анализ внутреннего мира персонажа (эмпатия, рефлексия, ценностное самоопределение) статистически значимо повышает уровень морального развития учащихся, их интерес к чтению и способность к состраданию[4, с. 240]. Учёт кыргызских этнопедагогических традиций (уважение к старшим, взаимопомощь, категории уят, милдет, боорукердик) не противоречит, а обогащает методы литературной психологии, позволяя избежать культурного конфликта. Билингвальный аспект требует специальной методической работы: введения двуязычных эмоциональных словарей, параллельного перевода ключевых терминов, использования приёма «эмоционального моста» (от кыргызского слова к русскому контексту). Типичные ошибки (редукция к диагностике, чрезмерная психологизация, игнорирование возрастных особенностей) преодолимы через целенаправленную подготовку учителей на курсах повышения квалификации при Кыргызской академии образования. Цифровые инструменты (видеодневники, аудиомонологи, анонимные опросы) органично дополняют традиционный анализ, но не заменяют живого обсуждения и письменной рефлексии. Перспективным направлением является создание регионального банка «нравственных ситуаций» из произведений кыргызских писателей (Ч. Айтматов, К. Баялинов, Т. Касымбеков, А. Жакшылыков) с готовыми психологическими вопросами для учащихся 5–9 классов. Воспитание нравственных ценностей в школах Кыргызстана невозможно без опоры на литературную психологию. Она превращает чтение из формального «прохождения произведений» в глубокий диалог о человеческих чувствах, выборе и ответственности. Учитель, владеющий методами психологического анализа персонажа, становится не просто передатчиком знаний, а наставником, помогающим подростку выработать собственную нравственную позицию – уважительную к традициям своего народа и открытую к другим культурам. Это и есть главный ответ на вызовы времени.

Заключение. В условиях поликультурной и билингвальной среды Кыргызстана литературная психология выступает эффективным инструментом формирования нравственных ценностей учащихся. Анализ внутреннего мира литературных персонажей способствует развитию эмпатии, критического мышления и способности к этической рефлексии. Интеграция литературно-психологического подхода в образовательный процесс позволяет не только углубить понимание художественных текстов, но и формировать у школьников устойчивые моральные ориентиры, национальное самосознание и уважение к культурному многообразию. Особую значимость данный подход приобретает в условиях цифровизации образования, где возрастает необходимость осмысленного восприятия информации и развития личностных качеств

учащихся.Таким образом, использование потенциала литературной психологии в школьной практике Кыргызстана является перспективным направлением, требующим дальнейшей методической разработки и внедрения.

ЛИТЕРАТУРА

1. Б.С. Ормушев Психология чтения и нравственное развитие школьников в билингвальной среде // Вестник Кыргызского государственного университета им. И. Арабаева. – 2022. 61 с.
2. К.С. Исаев Этнопедагогика кыргызов: традиции воспитания и современность. – Бишкек: Илим, 2015. – 220 с.
3. Концепция цифровизации образования в Кыргызской Республике на 2023–2027 годы. – Бишкек: Министерство образования и науки КР, 2023. – 67 с.
4. Л.С. Выготский Психология искусства. – М.: Искусство, 1986. – 573 с.
5. М.М. Бахтин Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Художественная литература, 1972. – 470 с.
6. Ч.Т. Айтматов Джамиля. Свидание с сыном // Собрание сочинений: в 3 т. Т. 1. – М.: Художественная литература, 1982. 112 с.

УДК 159.9

РАЗВИТИЕ КОГНИТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ СТАРШЕКЛАССНИКОВ В СВЯЗИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Саханова Акерке Жумабаевна
Бекботаева Фариза Оралбайқызы
Город Шымкент., Республика Казахстан

Развитие цифровых технологий изменило наше поведение, связанное с обучением, общением и социализацией в обществе. Благодаря тому, что расширился доступ к образовательным ресурсам и появились возможности сотрудничать со сверстниками и преподавателями в режиме реального времени цифровые технологии открылись новые возможности для образования и личностного роста. Однако технологии также создали ряд проблем, таких как зависимость, социальная изоляция и отвлекающие факторы, которые могут иметь значительные последствия для психического здоровья и благополучия человека.

Актуальность проблемы обусловлена тем, что в настоящее время интенсивность спектра возможностей, которые дают информационно-коммуникативные технологии и интенсивность воздействия на человека информационной среды настолько обширна, что с трудом поддается регуляции. Из этого вытекает ряд специфических особенностей, отличающих развитие молодежи от тех условий, которые существовали еще 10 - 15 лет назад. Современные дети и молодежь находятся под постоянным и интенсивным воздействием информационных потоков, одновременно поступающих по разным каналам. Они живут в условиях двоичности мира: реального и виртуального, причем в цифровом мире количество времени молодёжь проводит все больше. Множество видов деятельности и возможностей перешло в формат цифрового пространства: коммуникация через социальные сети и мессенджеры, обучение с помощью дистанционных информационно телекоммуникационных технологий, широкий спектр возможностей для досуга (видео,

игры и др.), востребованность цифровых профессий и работа «не выходя из дома», возможности заниматься бизнесом и совершать покупки через интернет-магазины и многое другое [3, 23с].

С одной стороны, цифровой мир расширил возможности для современной молодежи. Но, с другой стороны, интенсивное воздействие цифровых технологий и продолжительность погружения в виртуальную реальность негативно сказывается на жизни человека в реальности, на его когнитивных способностях и психике. Кроме того, возникли такие специфические угрозы, которых не было ранее: нехимические формы зависимости.

В последние годы вопросы воздействия цифровой среды на человека являются одним из актуальных направлений исследований в областях психологии, педагогики, социологии, технических и других научных дисциплин. Несмотря на широкий спектр исследований, большинство научных публикаций констатируют положительные и отрицательные факторы влияния информационных технологий на человека, но пока отсутствует комплексное понимание проблемы. В публикациях последних лет, исследователи озвучивают новые данные и ставят новые вопросы, требующие дополнительного изучения. И большая часть этих вопросов связана с особенностями развития молодежи в условиях цифровой реальности и проблема уменьшения рисков психологической, когнитивной, поведенческой деформации личности. Вышесказанное обусловило выбор темы исследования. Проблема исследования заключается в необходимости выявления научно обоснованных эффектов и тенденций развития высших психических функций представителей современной молодежи для возможной коррекции и профилактики неблагоприятных последствий взаимодействия человека с интенсивно развивающимися информационно-коммуникативными технологиями. Положительное воздействие Т.О. Боброва видит в том, что компьютерные и цифровые технологии позволяют обогатить образовательный процесс и программы обучения становятся интерактивными. Наличие видео и аудио контента, визуализации, анимации, геймификации в образовательном процессе повышает его эффективность и вызывает интерес у детей [3, 55с].

Т.О. Боброва отмечает, что компьютерные игры позитивно воздействуют на формирование мышления, а именно:

1) способствуют формированию таких операций, как обобщение и классификация;
2) стимулируют развитие критического мышления;
3) развивают логику, образное мышление, воображение
4) стимулируют развитие внимания;
5) развивают координацию.

В числе негативных проявлений Т.О. Боброва выделяет: ухудшение внимания; снижение мотивации к обучению; фиксацию на компьютерной игре (зависимость) и отказ от других увлечений; нарушение функций извлечения информации из долговременной памяти (ухудшение памяти) [3, 65с].

Развитие цифровых технологий приносит множество позитивных эффектов для молодёжи. Среди них выделяют:

1. Доступ к образованию: Цифровые технологии предоставляют молодым людям доступ к образовательным ресурсам, которые ранее были недоступны. Онлайн-курсы, видеоуроки и интерактивные образовательные платформы позволяют молодым людям

расширять свои знания и навыки, независимо от места проживания или уровня доступных ресурсов. Цифровые технологии позволяют молодежи из отдаленных или малообеспеченных регионов получить доступ к образовательным ресурсам, которые раньше были недоступны. Онлайн-курсы, электронные библиотеки и видео-лекции позволяют получать знания в любом месте и в любое время.

2. Социальное взаимодействие: Социальные медиа, сообщества и мессенджеры позволяют молодым людям поддерживать связь с друзьями и семьей на расстоянии. Это помогает им чувствовать себя социально связанными и поддерживать взаимодействие с разными культурами и точками зрения. Цифровые технологии облегчают глобальное обучение и сотрудничество между молодыми людьми со всего мира. Они могут обмениваться идеями, работать над проектами на расстоянии и участвовать в международных образовательных программах.

3. Творчество и самовыражение: Цифровые инструменты, такие как фото и видеокамеры, программы для монтажа и дизайна, аудиоредакторы и софт для создания игр, позволяют молодым людям развивать свою творческую самореализацию. Они могут создавать и делиться своими произведениями с миром, что способствует их личностному росту и развитию.

4. Развитие навыков: Использование цифровых технологий помогает молодым людям развивать ценные навыки, такие как коммуникация, критическое мышление, решение проблем, сотрудничество и техническая грамотность. Они могут учиться новым навыкам через онлайн-курсы, игры и приложения, что способствует их личностному и профессиональному развитию.

5. Повышение эффективности: Цифровые технологии упрощают и автоматизируют многие процессы, что помогает молодым людям быть более продуктивными и эффективными. От использования онлайн-планировщиков и органайзеров до совместной работы в облаке, эти инструменты помогают управлять временем и задачами, улучшая производительность и достижение целей. Все эти позитивные эффекты содействуют развитию молодежи, обеспечивая им больше возможностей для образования, социализации, самовыражения и развития навыков.

Л.Г. Зверева и А.А. Сафонова рассматривают аспекты влияния информационных технологий на воспитание школьников [4, 150с]. Они считают, что применение информационно-коммуникативных технологий (ИКТ) ведет к более эффективному обучению детей, поскольку позволяет «перейти от объяснительно-иллюстрированного метода к деятельностному, где ребёнок превращается в активного субъекта воспитательной деятельности» [15]. Исследователи отмечают позитивное влияние ИКТ на формирование проектного мышления, активизирует познавательную активность поскольку предлагает более широкий и интересный спектр форм представления информации: мультипликации, тесты, игры, видео и др. [15].

ЛИТЕРАТУРА

1. Юрьева Л.Н. Компьютерная зависимость: формирование, диагностика, коррекция и профилактика: Монография / Л.Н. Юрьева, Т.Ю. Больбот. – Днепропетровск: Пороги, 2022. – 196 с.
2. Газзали А. Рассеянный ум. Как нашему древнему мозгу выжить в мире новейших цифровых технологий: пер. с англ. / А. Газзали, Л.Д. Розен. – М.: Эксмо, 2024. – 416 с.

3. Боброва Т.О. Влияние компьютерных и информационных технологий на познавательно-интеллектуальные способности детей // Экономика и социум. – 2020. – № 3 (22). – С. 1533 – 1537.
4. Зверева Л.Г. Влияние ИКТ на уровень воспитания школьников / Л.Г. Зверева, А.А. Сафонова // Международный журнал гуманитарных и естественных наук. – 2022. – № 2 (1). – С. 126–128.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SOTSIOMETRIYA METODIKASIDAN FOYDALANISHDA O‘QUVCHILARARO MUNOSABATLARNING TAHLILI

Utemuratov Bayrambay Kulmuratovich
Qoraqalpog‘iston Respublikasi Pedagogogik mahorat markazi Maktabgacha, boshlang‘ch va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi mudiri f.f.n. dotsent
(Nukus, O‘zbekiston) electron pochta: bayram75@list.ru

Annotasiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni o‘rganishda sotsiometriya metodikasining o‘rni, o‘quvchilararo munosabatlarning tahlili, ahamiyati va amaliy qo‘llanilishi yoritiladi. Shuningdek, mazkur metod orqali sinf jamoasidagi liderlik, ijtimoiy moslashuv va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni aniqlash imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: sotsiometriya, metodika, boshlang‘ich sinf, tahlil, ijtimoiy munosabatlar, liderlik, jamoa, o‘quvchi, psixologik tahlil.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida muhim davr hisoblanadi. Bu davrda nafaqat bilim olish, balki tengdoshlar bilan muloqot qilish, jamoaga moslashish va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish jarayoni ham faol kechadi. Shu sababli o‘quvchilararo munosabatlarni chuqur tahlil qilish pedagog va psixologlar uchun muhim vazifalardan biridir. Shaxslararo munosabatlarni o‘rganish chuqurroq yondashuvni talab qiladi, chunki bolalar guruhining ijtimoiy tuzilishi turli omillar ta’sirida shakllanadi. Jumladan, bolalarning individual xususiyatlari, o‘qituvchining o‘qitish uslubi, oilaviy tarbiya va hatto madaniy kontekstga bog‘lik boladi.

Sotsiometriya – bu kichik guruhlar ichidagi shaxslararo munosabatlarni aniqlash va baholashga qaratilgan psixologik metod hisoblanadi. Ushbu metod yordamida sinfdagi o‘quvchilarning bir-biriga bo‘lgan munosabati, kim bilan ishlashni xohlashi yoki aksincha, kimdan uzoqroq bo‘lishni afzal ko‘rishi aniqlanadi. Sotsiometrik usullar nafaqat munosabatlarning hozirgi holatini aniqlash, balki ularning vaqt o‘tishi bilan dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

Sotsiometrik usullar - bu amerikalik psixiatr va ijtimoiy psixolog Jeykob Moreno tomonidan ishlab chiqilgan shaxslararo munosabatlarni o‘lchash usullari. Shaxslararo munosabatlar tuzilishini o‘rganishning sotsiometrik usullari.

Sotsiometriya yordamida o‘quvchilar «tug‘ilgan kuningizga kimni taklif qilasiz, kim bilan sayrga chiqmoqchisiz» kabi savollar bilan so‘rovnoma shakllarini to‘ldirishadi. Bunda o‘quvchilarning guruhdagi o‘rlarini belgilanadi. Yetakchilar, guruhda eng ko‘p ijobiy ovoz olganlar, kamroq ijobiy ovoz olganlar, e’tiborsiz qoldirilganlarni, minimal ijobiy ovoz olganlar va rad etilganlar, bitta ham ijobiy ovoz olmaganlarni aniqlaydilar.

Ijtimoiy psixologiyada muloqot juda muhim hodisadir, chunki u axborot almashinuvi, odamlarning bir-birlarini idrok etishi, yetakchilik, hamjihatlik va mojaro, xushyoqish va antipatiya kabi hodisalarni keltirib chiqaradi. Muloqot, faoliyatga ko‘tarilgan mustaqil tushuncha sifatida, quyidagicha ta’riflanishi mumkin: bu sheriklarning keng doiradagi haqiqiy ehtiyojlari bilan vujudga keladigan, ushbu ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan va ma’lum shaxslararo munosabatlar vositachiligidagi shaxslararo o‘zaro ta’sir jarayonidir. Samarali pedagogik muloqotning eng muhim shartlari maqsadga muvofiqlik qonuniga rioya qilish, o‘quvchilarning o‘qituvchiga bo‘lgan ishonchi, ularning halolligi, qat'iyligi va adolatliligidir.

Boshlang‘ich sinflardagi ijobiy muloqot va o‘zaro ta’sirga erishish o‘quvchilarning bir-biri haqida ma’lumot to‘plash va to‘g‘ri sintez qilish natijasida yuzaga keladi. Bu o‘qituvchining kommunikativ qobiliyatiga, ularning hamdardlik va mulohaza yuritish qobiliyatiga, kuzatuvchanligiga, sezgi o‘tkirligiga, yaqinlikni o‘rnatishga va suhbatdoshning vakillik tizimini hisobga olish qobiliyatiga bog‘liq. Bu shuningdek, ularning o‘quvchilarni ishontirish, hissiy va muloqot uslublari va pozitsiyalarini o‘zgartirish orqali tinglash, tushunish va ta’sir o‘tkazish qobiliyatiga ham bog‘liq. Bundan tashqari, ularning manipulyatsiya va mojarolarni yengib o‘tish qobiliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘qituvchining muloqot va o‘zaro ta’sirning psixologik xususiyatlaridagi psixologik va pedagogik kompetensiyalariga e’tibor qaratish kerak.

Ta’lim va kognitiv motivlarning asosi kognitiv ehtiyojlar va o‘zini rivojlantirish zarurati, o‘rganishning ahamiyatini oshiradi. Ijtimoiy motiv, ma’lum bir mavqega, raqobatga va boshqalar tomonidan ma’qullanishga erishish istagi sifatida qaraladi. L.I.Bojovich «... bolaning ta’lim faoliyati turli kelib chiqishi va turli psixologik xususiyatlarga ega bo‘lgan ikki turdagi motivlar bilan rag‘batlantiriladi» deb ta’kidlagan. [Божович Л.И. 107]. Uning ta’kidlashicha, «ularning ba’zilari, kognitiv motivlar, ta’lim faoliyatining o‘zi tomonidan yaratiladi va o‘rganish mazmuni va jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Boshqalari, go‘yo ta’lim jarayonidan tashqarida yotadi. Bular bola va atrofdagi voqelik o‘rtasidagi mavjud bo‘lgan butun munosabatlar tizimi tomonidan yaratilgan motivlardir. Bular, ko‘p jihatdan, ijtimoiy motivlardir».

O‘qituvchi ta’sirida bolalar natijalarga asoslanib o‘z ishlarini nazorat qilishni o‘rganadilar. O‘z ishlarini oxirigacha mustaqil ravishda nazorat qilishni o‘rganish muhim va murakkab pedagogik vazifadir.

Kichik guruhlardagi munosabatlarni o‘rganishning eng samarali usullaridan biri bu sotsiometrik usuldir. U shaxslararo muloqot va o‘zaro ta’sir davomida duch keladigan afzalliklar, befarqliklar yoki nafratlarni aniqlash uchun mo‘ljallangan. Sotsiometrik tahlil ma’lumotlari guruhlardagi individual farovonlikni o‘rganish, boshlang‘ich sinf guruhlarining tuzilishini aniqlash, kichik guruhlarda liderlik va yetakchilikni taqsimlash usullari va shakllarini o‘rganish, biznes faolligi darajasini baholash va boshqalar uchun keng qo‘llaniladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda sotsiometriya metodikasini qo‘llashda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish zarur:

savollar sodda va tushunarli bo‘lishi kerak;

jarayon o‘yin shaklida tashkil etilishi maqsadga muvofiq;

o‘quvchilarda qo‘rquv yoki noto‘g‘ri tushuncha uyg‘otmaslik muhim.

Sotsiometrik tadqiqotlar odatda maxsus savollar orqali amalga oshiriladi. Masalan: “Qaysi sinfdoshing bilan bir guruhda ishlashni xohlaysan?”, “Qaysi o‘quvchi bilan bir partada o‘tirishni istaysan?”. Bu savollarga berilgan javoblar asosida sinf ichidagi ijtimoiy aloqalar xaritasi tuziladi.

Sotsiometrik metod bolalarning tabiiy sotsializatsiya jarayonini osonlashtirishi uchun juda muhimdir. Boshlang‘ich sinf bolalari birinchi marta ijtimoiy tizimga kirganlarida o‘tish davrini boshdan kechiradilar, bu yerda ular tengdoshlari bilan rasmiy va norasmiy munosabatlarni o‘rnatishni o‘rganishlari kerak. Ushbu bosqichni muvaffaqiyatli yakunlash shaxsning keyinchalik hayotda ijtimoiy integratsiyasiga ta’sir qilishi mumkin. Shuning uchun, boshlang‘ich sinf yoshidagi yuqori va past ko‘ratkishli bolalarning sotsio-psixologik xususiyatlarini o‘rganish, ularning bolalarda shaxslararo munosabatlarning rivojlanishi bilan qanday bog‘liqligini tahlil qilish kerak.

Bolalar guruhlari uchun sotsiometriya testining bir versiyasi Y.L.Kolominskiy tomonidan ishlab chiqilgan [Коломинский Я.Л. 87]. Bolalarning javoblari asosida yuqori eng ko‘p ijobiy ovoz olganlar va eng kam ovoz olgan va eng ko‘p rad etilgan past ko‘rsatkishga ega o‘quvchilar aniqlanadi. Shuning uchun, turli sotsiometriya maqomiga ega bolalarning sotsiopsixologik xususiyatlarini o‘rganish qiziqarli bo‘lib, bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilari guruhida ma’lum bir sotsiometrik tahlil natijalarini berishga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlashga yordam beradi.

Sotsiometrik metod orqali sinf tomonidan qadrlanadigan ijobiy ahamiyatga ega shaxsiy fazilatlarning mavjudligi o‘quvchi shaxsi qadriyatlarining sinf qadriyatlari bilan mos kelishi va o‘ziga yetarli yoki hatto biroz past bahoda bo‘lishi aniqlanadi. Shu bilan birga, past sotsiometriyaga ega bolaning muloqot qobiliyati, o‘ziga ishonchning yo‘qligi, guruh tomonidan qadrlanadigan shaxsiy xususiyatlarning rivojlanmaganligi va o‘ziga xos xulq-atvor va hissiy reaktsiyalar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. O‘ziga ishonchsizlikni boshqa guruh a’zolariga nisbatan haddan tashqari tajovuzkorlik, befarqlik, xudbinlik va beparvolik orqali yashiradiganlar ham tengdoshlarida salbiy munosabatni uyg‘otishadi. Natijalarni tahlil qilishda o‘qituvchi bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

O‘quvchilar birinchi navbatda, o‘zlarining shaxsiy nuqtai nazarlari va intellektual imkoniyatlarini namoyon eta olish layoqatiga ega bo‘lishlari kerak. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tarbiyaviy jarayonlarda o‘quvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash, ularning mantiqiy, tanqidiy bilish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etish hamda amalga oshirish nazarda tutilishi lozim [Safarova R.G. 40] .

O‘quvchilarning muloqot qobiliyatlari guruh ichidagi shaxslararo munosabatlarni shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Kommuniokatsiyaning yuqori darajasi yuqori sotsiometrik metodga bevosita bog‘liq. Biroq, past ijtimoiylik va introvertlik sinfda do‘stlikning shakllanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin, bu esa o‘z navbatida past sotsiometrik ko‘rsatkishga olib keladi. «Yulduz» va «afzal ko‘rilgan» toifasidagi bolalar «e’tiborsiz qoldirilgan» toifadagi bolalarga qaraganda ongining rivojlanishi, kommunikativ va og‘zaki ko‘nikmalar va ish faoliyati bo‘yicha yuqori ball olishadi.

Yuqori ko‘rsatkishga ega bolalar odatda muammoli vaziyatlarni mojarosiz hal qiladilar, past ko‘rsatkishga ega bolalar esa tengdoshlari bilan ijtimoiy muloqotga bo‘lgan ehtiyojlari qondirilmaganda tajovuzkorlikni namoyon etish ehtimoli ko‘proq. Bundan tashqari, bolalar ma’lum xususiyatlarga asoslanib potentsial do‘stlarni tanlashga moyil ekanligi aniqlandi. Bu xususiyatlarga altruizm va guruhga yo‘naltirilganlik kiradi. Yuqori sotsiometrik ko‘ratkishga ega bolalarning asabiylashish ehtimoli kamroq va shaxslararo ko‘nikmalari yaxshiroq bo‘ladi. Shuningdek, tengdoshlarni qabul qilish va do‘stlik, yuqori ijtimoiylik, o‘ziga ishonch va o‘zini o‘zi qadrlash bilan bog‘liqligi, bunday munosabatlarning yo‘qligi yoki doimiy rad etilishi esa izolyatsiya, depressiya, yomon ijtimoiylik, yomon prososial faollik va buzg‘unchi xatti-harakatlarni keltirib chiqaradi.

Tarbiyalash masalalari o‘qiyotganlarda g‘oyaviy qadriyatlarni, estetik xulq-atvorni va boshqa odamlarga bo‘lgan munosabatlarni shakillantirishga yo‘nalgan, rivojlantiruvchi masalalarni yechish orqali o‘qiyotganlar shaxsining asosiy psixik sifatlari o‘zgaradi [Daminov O.O. 52]

Sinfdoshini tanlash orqali o‘quvchi o‘sha do‘sti bilan muloqot qilish istagini va unga bo‘lgan mehr-muhabbatini namoyish etadi. Shunday qilib, guruh a’zolari qancha ko‘p odam bilan muloqot qilishni xohlasalar, shuncha ko‘p tanlovga ega bo‘ladilar. Bu raqam o‘quvchining shaxslararo munosabatlar tizimidagi mavqeini belgilaydi. Bu raqam qancha ko‘p bo‘lsa, o‘sha guruh a’zosining sotsiometrik mavqei shuncha yuqori bo‘ladi.

Guruhda shakllangan shaxsiy munosabatlardagi o‘quvchining hissiy barqarorligi nafaqat ularni qancha sinfdosh tanlashiga, balki bu tanlovlar qay darajada o‘zaro bog‘liqligiga ham bog‘liq bo‘ladi. O‘quvchiuchun nafaqat tanlovlar soni, balki ularni qaysi sinfdoshlarni tanlashi ham muhimdir. Bu ma’lumot guruh ichidagi munosabatlar tuzilishini ochib berish va o‘quvchining sinfdoshlar bilan o‘zaro munosabatlardan qoniqishini o‘rganish uchun ham zarur.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchining munosabatlarida hissiy moyillik boshqa barcha omillardan ustun turadi. Tengdoshlar bilan munosabatlarda o‘quvchi turli pozitsiyalarni egallashi mumkin:

1. Diqqat markazida bo‘lish.
2. Ko‘p sonli tengdoshlar bilan muloqot qilish.
3. Rahbarlikka intilish.
4. Faqat kichik doira bilan muloqot qilish.
5. Uzoqroq turish.
6. Hamkorlikka rioya qilish.
7. Hammaga yaxshi niyat ko‘rsatish.
8. Qarama-qarshi pozitsiyalarni egallash.
9. Hammadagi kamchiliklar va kamchiliklarni ko‘rish.
10. Tashqi tomondan boshqalarni qo‘llab-quvvatlash.

Bolaning egallagan pozitsiyasi oilaga va uning munosabatlariga, individual xususiyatlariga, tengdoshlari orasidagi muloqotga bog‘liq bo‘ladi. To‘g‘ri muloqot amaliyoti bolaning shaxsiyatining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Sotsiometriya yordamida quyidagi jihatlarni aniqlash mumkin:

sinf liderlari;

ijtimoiy faol bo‘lmagan yoki chetda qolgan o‘quvchilar;

kichik guruhlar va do‘stlik aloqalari;

konfliktli vaziyatlar mavjudligi.

Bu ma’lumotlar o‘qituvchiga sinf muhitini yaxshilash, ijtimoiy moslashuvni qo‘llab-quvvatlash va har bir o‘quvchiga individual yondashuvni ishlab chiqishda yordam beradi.

Sosiometrik metodlar boshlang‘ich sinf guruhlaridagi asosiy jarayonlarni tushunish uchun kuchli vosita bo‘lib hisoblanadi. Munosabatlarni muntazam tahlil qilish nafaqat muammolarni aniqlashga yordam beradi, balki har bir bola o‘zini qadrli va guruhning bir qismi deb his qiladigan sog‘lom, qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratadi.

Sotsiometriya natijalari asosida sinf jamoasini mustahkamlash bo‘yicha treninglar tashkil etiladi, ijtimoiy jihatdan chetda qolgan o‘quvchilar bilan individual ishlanadi, liderlik salohiyati mavjud bolalar aniqlanadi va rivojlantiriladi. Bu esa sinfda sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinflarda sotsiometriya metodikasidan foydalanish

o‘quvchilararo munosabatlarni chuqur o‘rganish va samarali boshqarish imkonini beradi. Ushbu metodika pedagoglarga sinf jamoasini yaxshiroq tushunish, muammolarni erta aniqlash va ularni bartaraf etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Божович Л.И. Проблемы формирования личности. — М.: Просвещение, 1995. — 352 с.
2. Коломинский Я.Л. Психология детского коллектива. – Минск: Народный асвет, 1984. – 238 с.
3. SafarovaR.G. Mutafakkir va jadidlarning konseptual qarashlari asosida o‘quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid yondashuvlar. Monografiya. – Toshkent: “Science and Innovation”, 2025. – 170 bet.
4. Daminov O.O. Kasbiy pedagogika. -T.: Adabiyot uchquni, 2018, 256 bet

O‘QUVCHI YOSHLAR MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY O‘ZLIKNING O‘RNI

Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich
Andijon davlat universiteti Psixologiya va pedagogika kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘quvchi yoshlar madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda milliy o‘zlikning tutgan o‘rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, yoshlar ongiga singdirishning dolzarbligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *milliy o‘zlik, yoshlar madaniyati, ma’naviyat, qadriyat, tarbiya, globallashuv, milliy meros, ijtimoiy ong.*

Bugungi kunda globallashuv jarayoni jahon miqyosida barcha sohalarga, jumladan, ta’lim tizimi va o‘quvchi-yoshlar tarbiyasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, turli madaniyatlarning o‘zaro integratsiyasi natijasida o‘quvchi-yoshlar ongida yangicha qarashlar shakllanmoqda. Bu esa o‘z navbatida milliy o‘zlikni saqlab qolish va rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Chunki har qanday jamiyatning barqaror rivoji, avvalo, uning yosh avlodining ma’naviy barkamolligiga bog‘liqdir.

Milliy o‘zlik tushunchasi insonning o‘z millatiga mansubligini anglash, uning tarixiy ildizlari, madaniy merosi, tili, dini, urf-odatlari va an’analariga hurmat bilan qarashini anglatadi[20]. Bu tushuncha shaxsning ichki dunyosida shakllanib, uning ijtimoiy hayotdagi xulq-atvori va faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Milliy o‘zlikni anglagan inson o‘zligini yo‘qotmaydi, aksincha, o‘z madaniyati asosida rivojlanib, boshqa madaniyatlar bilan ham uyg‘unlashib boradi.

O‘quvchi yoshlar madaniyati esa keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki axloqiy fazilatlar, estetik did, nutq madaniyati, muomala madaniyati, kiyinish odobi va ijtimoiy xulq-atvor kabi ko‘plab jihatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu omillar yoshlarning shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda,

[20] Qarang.Abdurahmonov Q.X. *Yoshlar ma’naviyati va tarbiyasi.* Toshkent: Fan va texnologiya, 2023**. – b. 32–35**

milliy o‘zlik yoshlar madaniyatining asosiy poydevorlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, o‘quvchi yoshlar madaniyatini rivojlantirishda milliy o‘zlik bilan bir qatorda milliy qadriyatlar, globallashuv jarayoni, ta’lim tizimi, oila va jamiyat ham muhim axamiyat kasb etadi.

Milliy qadriyatlar asosida tarbiya topgan yoshlar o‘zligini anglagan holda jamiyatda faol ishtirok etadi, o‘z fikriga ega bo‘ladi va ijtimoiy mas’uliyatni his qiladi. Bunday yoshlar nafaqat o‘z millatining, balki butun insoniyatning qadriyatlariga hurmat bilan qaraydi. Bu esa jamiyatda bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va hamjihatlik muhitini shakllantiradi.

Globallashuv jarayonida turli madaniyatlarning o‘zaro aralashuvi tabiiy holat hisoblanadi. Biroq bu jarayon ayrim hollarda milliy qadriyatlarning so‘nishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, yoshlar orasida chet madaniyatiga ortiqcha taqlid qilish, milliy an’analarga befarqlik bilan qarash kabi holatlar kuzatilmoqda. Bu esa milliy o‘zlikning zaiflashuviga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois milliy o‘zlikni mustahkamlash, uni yoshlar ongiga singdirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta’lim tizimi milliy o‘zlikni shakllantirishda yetakchi rol o‘ynaydi. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida o‘quvchilarga nafaqat zamonaviy bilimlar, balki milliy qadriyatlar ham singdirilishi lozim. Dars jarayonlarida milliy tarix, adabiyot, san’at va madaniyatga oid bilimlarni chuqur o‘rgatish yoshlarning milliy o‘zligini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, tarbiyaviy tadbirlar, madaniy kechalar, bayramlar va ijodiy uchrashuvlar orqali ham milliy ruhni kuchaytirish mumkin.

Oila esa milliy o‘zlikni shakllantirishning birlamchi maskani hisoblanadi. Bola ilk tarbiyani oilada oladi va aynan shu muhitda uning qadriyatlari shakllanadi. Ota-onaning milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati farzand tarbiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Agar oilada milliy an’analarga hurmat bo‘lsa, bola ham shu ruhda tarbiyalanadi.

Yoshlar tarbiyasida jamiyat ham muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy muhit, ommaviy axborot vositalari, madaniy muassasalar yoshlarning dunyoqarashiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhitni yaratish, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish joiski, milliy o‘zlikni anglash yoshlarning ma’naviy kamolotini ta’minlaydi. Bunday yoshlar o‘z tarixini biladi, ajdodlari merosini qadrlaydi, ona tiliga hurmat bilan qaraydi. Ular jamiyat oldidagi mas’uliyatini anglab, uning rivojiga hissa qo‘shishga intiladi. Bu esa mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Shuningdek, milliy o‘zlik yoshlarning ijtimoiy faolligini oshiradi. O‘zligini anglagan yoshlar jamiyatdagi jarayonlarga befarq bo‘lmaydi, balki faol ishtirok etadi. Ular o‘z fikrini erkin bayon eta oladi, tashabbus ko‘rsatadi va ijtimoiy muammolarni hal etishda faol bo‘ladi.

Bugungi kunda o‘quvchi yoshlar madaniyatini rivojlantirishda, milliy o‘zlikni shakllantirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish zarur. Zamonaviy texnologiyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish samarali natija berishi mumkin. Masalan, milliy madaniyatga oid videolar, maqolalar, loyihalar orqali yoshlarning qiziqishini oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchi yoshlar madaniyatini rivojlantirish milliy o‘zlikni shakllantirish omillardan biridir. Milliy o‘zlikni shakllantirish orqali barkamol, ma’naviy yetuk va ijtimoiy faol avlod tarbiyalanadi. Shu bois ta’lim tizimida milliy qadriyatlarga asoslangan yondashuvni kuchaytirish, oila va jamiyat hamkorligini mustahkamlash, yoshlar ongiga milliy o‘zlikni chuqur singdirish bugungi davrning dolzarb vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurahmonov Q.X. *Yoshlar ma’naviyati va tarbiyasi.* Toshkent: Fan va texnologiya, 2023**. – b. 32–35**
2. Rasulov A. Globallashuv va milliy o‘zlik masalalari. Toshkent: Innovatsiya, 2023.
3. To‘xtayeva R. Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. Toshkent: Akademnashr, 2024.

ҲАРБИЙ ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА СОЦИОМЕТРИК МУНОСАБАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА КУРСАНТЛАРДА ВАТАНПАРВАРЛИК ҒОЯЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Комилова Муяссар Мавжудовна

Perfect-University доценти в.б., педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация. *Мазкур мақолада ҳарбий олий таълим муассасаларида курсантларда ватанпарварлик туйғуларини шакллантиришнинг назарий ва амалий жиҳатлари таҳлил қилинган. Жумладан, культурологик ёндашув асосида таълим жараёнини ташкил этиш ва социометрик муносабатларни ривожлантиришнинг ўзаро уйғунлиги очиб берилган. Муаллиф томонидан жамоада ижобий ижтимоий-психологик муҳит яратиш, курсантларда миллий қадриятларга ҳурмат, жамоавийлик, масъулият ва Ватанга садоқат каби сифатларни шакллантиришда мазкур ёндашувларнинг аҳамияти асослаб берилган. Шунингдек, ватанпарварлик тарбиясини самарали ташкил этишга қаратилган методик стратегиялар, жумладан дифференциал ёндашув, рефлексия, жамоавий тадбирлар ва социометрик таҳлил усулларини қўллашнинг афзалликлари кўрсатиб ўтилган. Тадқиқот натижалари культурологик ва социометрик ёндашувларни интеграциялаш ҳарбий таълим самарадорлигини ошириш, курсантларнинг маънавий-ахлоқий ва касбий тайёргарлигини юксалтиришда муҳим омил эканлигини тасдиқлайди.*

Калит сўзлар: *культурологик ёндашув, социометрик муносабатлар, ватанпарварлик тарбияси, ҳарбий таълим, курсант, ижтимоий-психологик муҳит, миллий қадриятлар, жамоавийлик, ички мотивация, дифференциал таълим, рефлексия, маънавий-ахлоқий тарбия.*

Бугунги глобаллашув шароитида ёш авлод тарбияси, айниқса ҳарбий кадрлар тайёрлаш жараёнида маънавий-ахлоқий омилларнинг аҳамияти янада ортиб бормоқда. Ҳарбий олий таълим муассасаларида курсантларни нафақат касбий жиҳатдан, балки юксак ватанпарварлик руҳида тарбиялаш долзарб вазифа ҳисобланади. Бу жараёнда маданиятшунослик ёндашуви асосида социометрик муносабатларни ривожлантириш алоҳида аҳамият касб этади.

“Профессионал-педагогик тушунчалар” луғатида [140] мавзуга оид терминларга қуйидаги таъриф берилган: “тарбия” бу – инсонни ривожлантириш учун мақсадли равишда шарт-шароитлар (моддий, маънавий, ташкилий) яратиш; “ватанпарварлик тарбияси” – жамият қадриятлари, Ватаннинг мавжудлиги ва уни ҳимоя қилиш билан боғлиқ юксак ғояларни шакллантириш ва сингдиришдир.

Мустақил Давлатлар Ҳамдўстлиги (МДҲ) мамлакатларида ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, ҳарбий шахсни шакллантириш масалалари кенг ёритилган. Жумладан, Д.М.Нуждиннинг фикрига кўра: “Таълим жараёни, ўқитувчи ва

қўмондонлар таркибининг хизмат-педагогик фаолияти, бўлинманинг ички тартиби, унинг турмуш тарзи, ҳаёт фаолияти ва умумий муҳити — буларнинг барчаси, аввало, курсантда ҳарбий шахсни шакллантиради” [1].

Ўз халқига, унинг маданияти ва анъаналарига муҳаббат билан қарайдиган, Ватанни ҳимоя қилишга тайёр, қонун ва ҳуқуқ-тартиботни ҳурмат қиладиган бўлажак ҳарбийни тарбиялаш педагоглар олдида турган мураккаб ва масъулиятли вазифадир.

И.Н.Глазунова ватанпарвар шахсни тарбиялашни “ижтимоий муҳитнинг объектив омиллари таъсири остида кечадиган ижтимоий жараён” сифатида талқин қилади [2].

С.А.Алиева эса ватанпарварликни инсоннинг алоҳида ахлоқий сифати деб ҳисоблаб, уни Ватанга бўлган муҳаббат, унга садоқат билан хизмат қилишга тайёрлик, шунингдек, бошқа мамлакатлар халқлари, уларнинг тили, маданияти ва анъаналарига ҳурмат билан муносабатда бўлишда намоён бўлади, деб таърифлайди [3].

А.П.Петренкина ёшлар ўртасида ватанпарварлик тарбиясига оид ишларни қайта тиклаш ва такомиллаштиришни шахснинг фуқаролик жиҳатдан шаклланиш самарадорлигини оширишнинг энг муҳим шарти деб билади [4].

Мавзуга доир илмий-амалий манбаларни таҳлил қилиш, амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ўрганиш давомида шу хулосага келиндики, ҳарбий олий таълим муассасаларида социометрик муносабатларни ривожлантириш, жамоада ижобий психологик муҳитни шакллантириш ҳамда курсантларда ватанпарварлик ғояларини тарбиялаш, шунингдек бўлажак ҳарбий мутахассисларда ижтимоий фаоллик, жамоавийлик, масъулият ва Ватанга садоқат каби муҳим сифатларни шакллантириш масалалари бугунги куннинг долзарб масалаларидан биридир.

Культурологик ёндашув таълим жараёнини миллий ва умуминсоний қадриятлар билан бойитишни назарда тутади. Ушбу ёндашув шахсни фақат билим олувчи сифатида эмас, балки муайян маданий муҳит ва ижтимоий муносабатлар тизимида шаклланувчи субъект сифатида қарашни тақозо этади. Ҳарбий таълим тизимида мазкур ёндашув курсантларнинг миллий ўзликни англаши, тарихий хотираси ва маънавий баркамоллигини ривожлантиришга хизмат қилади.

Культурологик ёндашув асосида тарбияни ташкил этиш миллий қадриятларга таянган жамоавий тадбирларни ўтказиш, тарихий қаҳрамонлар ва ҳарбий анъаналар мисолида тарбиявий суҳбатлар олиб бориш, шунингдек, мулоқот маданияти ва жамоавий масъулиятни ривожлантириш орқали амалга оширилади. Бу эса курсантларда “мен”дан кўра “биз” тушунчасини устувор қилади, яъни Ватан манфаатларини шахсий манфаатлардан устун қўйиш кўникмасини шакллантиради.

Мазкур жараён самарадорлиги эса кўп жиҳатдан жамоадаги социометрик муносабатлар ҳолатига боғлиқ. Социометрик муносабатлар жамоа аъзолари ўртасидаги ўзаро алоқалар, симпатия ва антипатиялар, норасмий лидерлик ҳамда ижтимоий мақом тизимини ифода этади. Ҳарбий жамоада бундай муносабатлар интизом, ўзаро ишонч ва жипсликни таъминлашда ҳал қилувчи омил ҳисобланади. Курсантлар ўртасидаги ижобий ижтимоий-психологик муҳит жамоавий руҳни мустаҳкамлайди, ўзаро ёрдам ва масъулият ҳиссини кучайтиради ҳамда лидерлик қобилиятларининг намоён бўлишига шароит яратади. Шу нуқтаи назардан, социометрик таҳлил усуллари орқали жамоадаги норасмий муносабатларни аниқлаш ва уларни мақсадли равишда ривожлантириш муҳим аҳамият касб этади (1-жадвал).

1-жадвал

Культурологик ва социометрик ёндашувлар уйғунлиги

Тушунча	Мазмуни	Ҳарбий таълимдаги аҳамияти
культурологик ёндашув	таълимни маданий қадриятлар асосида ташкил этиш	миллий ўзлик ва маънавиятни шакллантиради
социометрик муносабатлар	жамоадаги ўзаро танлов ва муносабатлар	жипслик ва ўзаро ишончни таъминлайди
Ватанпарварлик	ватанга садоқат ва хизмат қилиш ҳисси	ҳарбий бурчни англашни кучайтиради

Ушбу жадвалдан кўриниб турибдики, культурологик ва социометрик ёндашувларнинг уйғунлиги ҳарбий таълим тизимининг самарадорлигини оширишда муҳим методологик асос бўлиб хизмат қилади. Культурологик ёндашув орқали курсантларда миллий қадриятларга ҳурмат, маънавий барқарорлик ва ўзликни англаш шаклланса, социометрик муносабатлар орқали жамоада соғлом психологик муҳит, ўзаро ишонч ва ҳамжиҳатлик таъминланади. Бу икки омилнинг биргаликда амал қилиши таълим жараёнини фақат билим бериш билан чеклаб қолмасдан, балки шахсни ҳар томонлама тарбиялашга йўналтиради.

Айниқса, ҳарбий таълим шароитида мазкур уйғунлик курсантларнинг нафақат касбий, балки ахлоқий-психологик тайёргарлигини ҳам юксалтиришга хизмат қилади. Жамоавий фаолиятга асосланган муҳитда шаклланган ватанпарварлик туйғуси, бурч ва масъулиятни англаш, интизом ва садоқат каби сифатлар уларнинг келгусидаги хизмат фаолиятида мустаҳкам пойдевор бўлиб хизмат қилади.

Шу нуқтаи назардан, таълим жараёнида маданий қадриятларга асосланган мазмунни кучайтириш, жамоадаги муносабатларни мунтазам таҳлил қилиш ва ижобий ижтимоий-психологик муҳитни шакллантиришга қаратилган методик ёндашувларни кенг жорий этиш мақсадга мувофиқ. Бу эса ўз навбатида, юксак маънавиятли, жипс жамоада ишлай оладиган, Ватанга садоқатли ва профессионал ҳарбий кадрларни тайёрлашга хизмат қилади.

Ҳарбий-ватанпарварлик тарбияси бугунги кунда энг долзарб муаммолардан бири ҳисобланади. Ватанпарварлик фақат чақириқлар доирасида қолмасдан, амалда ва мунтазам равишда шакллантирилиши лозим. Бу жараённи самарали ташкил этишда айнан социометрик муносабатлар муҳим ўрин тутади, чунки шахснинг ватанпарварлик туйғулари унинг жамоадаги ўрни ва ижтимоий муносабатлари билан чамбарчас боғлиқ.

Айниқса, турли фанларни ўрганиш, жумладан чет тиллари орқали ватанпарварлик туйғусини ривожлантириш ҳарбий таълим муассасаларида таълим жараёнининг муҳим жиҳати ҳисобланади. Бунда ўқув гуруҳларида социометрик жиҳатдан ижобий муҳит яратиш, ҳамкорликка асосланган ўқитиш усулларини қўллаш, ўзаро қўллаб-қувватлаш ва самарали мулоқотни таъминлаш курсантларнинг нафақат тилни ўзлаштириш даражасини, балки улардаги ватанпарварлик ҳиссини ҳам мустаҳкамлайди.

Шу билан бирга, курсантларнинг чет тилини ўрганиш жараёнида ватанпарварлик туйғусини бойитишдаги ютуқлари нафақат уларнинг шахсий интилишлари, қизиқишлари

ва психологик хусусиятлари, балки гуруҳ ичидаги социометрик ҳолат – ўзаро ишонч, қўллаб-қувватлаш ва жамоавий бирдамлик даражаси билан ҳам белгиланади.

Сўнгги йилларда жаҳон таълим тизимида тарбия ва таълимни дифференциациялаш масаласи тобора долзарб аҳамият касб этмоқда, шу асосда янги ёндашув ва моделлар ишлаб чиқилмоқда. Бу жараёнда ҳам социометрик таҳлил муҳим ўрин тутади, чунки у билим олувчиларни гуруҳлаш, уларнинг индивидуал хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда таълимни ташкил этиш имконини беради. Мутахассислар фикрича, ишлаб чиқилган турли даражадаги таълим моделлари ҳали етарли даражада мустаҳкам назарий ва амалий асосга эга эмас. Шу боис, уларни такомиллаштиришда жамоа ичидаги муносабатларни чуқур илмий ўрганиш ва социометрик ёндашувдан самарали фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади.

Таклиф ўрнида айтиш лозимки, ватанпарварлик ғояларини шакллантиришда социометрик ёндашувнинг ўрни муҳим бўлиб, ҳарбий таълим жараёнида қуйидаги методик стратегиялар самарали ҳисобланади:



– *мулоқот маданиятини ривожлантириш, ўзаро ҳурмат ва ишонч муҳитини яратиш;*

– *курсантларнинг индивидуал психологик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда дифференциал ёндашувни амалга ошириш;*

– *тарихий мисоллар, миллий қаҳрамонлар ва ҳарбий анъаналар асосида тарбиявий тадбирларни жамоавий шаклда ташкил этиш;*

– *ўқув жараёнида рефлексия ва ўзаро баҳолаш элементларини жорий этиш орқали курсантларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш* каби стратегиялар социометрик муносабатларни мақсадли бошқариш орқали курсантларда ватанпарварлик туйғусини самарали шакллантиришга хизмат қилади.

Айрим ҳолларда курсантлар ўртасида белгиланган вазифадан оғиш, шунингдек ҳарбий бурчни тўлиқ адо этмаслик ёки ватанпарварлик ғояларининг етарлича чуқур сингдирилмаганлиги ҳолатлари кузатилади. Бундай ножўя ҳолатлар ватанпарварлик тарбиясига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Фикримизча, бу муаммоларни ҳал этиш учун қуйидагиларни тавсия этиш мумкин:

– ўқитувчи ҳамда командирларнинг педагогик маҳоратини ошириш;

– индивидуал ёндашувни кучайтириш;

– психологик қўллаб-қувватлаш механизмларини жорий этиш.

Биз қуйида ватанпарварликни шакллантиришнинг қисқа механизмини таклиф этамиз (1-чизма)

1-чизма.

Ватанпарварликни ривожлантириш механизми



Бу жараён босқичма-босқич, изчил ва мақсадга йўналтирилган тарзда амалга оширилгандагина маданий муҳит, миллий қадриятлар ва маънавий омиллар таъсирида курсантларда ички мотивация шаклланади. Натижада уларда ўз-ўзини англаш, касбий бурчга масъулият билан ёндашиш, Ватанга садоқат ва хизмат қилишга онгли интилиш каби муҳим сифатлар мустаҳкамланиб боради.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, культурологик ёндашув асосида социометрик муносабатларни ривожлантириш ҳарбий олий таълим муассасаларида курсантларни ҳар томонлама камол топтиришнинг муҳим омилидир. Ушбу методика жамоада соғлом ижтимоий-психологик муҳит яратиш орқали бўлажак ҳарбийларда юксак ватанпарварлик туйғуларини шакллантиришга хизмат қилади.

Шунингдек, мазкур ёндашувни таълим жараёнига тизимли равишда жорий этиш курсантларнинг нафақат касбий, балки маънавий-ахлоқий тайёргарлигини ҳам юксалтириб, уларни Ватан ҳимоясига ҳар томонлама тайёр шахс сифатида шакллантириш имконини беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Нуждин Д.М. Формирование у курсантов военного института военно-профессиональных знаний, умений и навыков: Учеб.-метод. пособие. – Челябинск: Изд-во ЧВАИ, 2002. – 149 с.
2. Глазунова И.Н. Патриотическое воспитание старшеклассников в учебно-воспитательной деятельности: Автореф. дис. канд. пед. наук. – Липецк, 2002, 24 с.
3. Алиева С.А. Военно-патриотическое воспитание старшеклассников на современном этапе: Автореф. дисс.канд. пед. наук. Махачкала, 2002. – 22 с.
4. Петренкина А.П. Воспитание патриотически ориентированной личности старшеклассников в процессе изучения истории в современных условиях (на материале Чувашской республики): Автореф. дисс. .канд. пед. наук. – Казань, 2002. 24 с.
5. https://vg.mskobr.ru/files/2022/prof-of-pedagoga-dopobr/tezaurus/4%20prof-pedagog-ponyatiya.pdf

MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUVI ASOSIDA O‘QITUVCHI-O‘QUVCHILAR ORASIDAGI SOTSIOMETRIK MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI: TARIXIY HAMDA XALQARO TAJRIBAALAR TAHLILI

Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi
Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi v/b. dotsenti
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori **(PhD)**
O‘roqova Gulsanam Shuhratjon qizi
Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti
Pedagogika yónalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada madaniyatshunoslik yondashuvi asosida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish strategiyalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonida ijtimoiy-psixologik muhitni sog‘lomlashtirish, o‘zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlash muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Maqolada sotsiometrik munosabatlarning mohiyati, ularni shakllantirishda madaniy omillarning o‘rni hamda tarixiy va xalqaro tajribalar asosida samarali strategiyalar yoritiladi. Shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida ijobiy kommunikatsiya, tolerantlik va jamoaviylikni rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *madaniyatshunoslik yondashuvi, sotsiometrik munosabatlar, o‘qituvchi-o‘quvchi aloqasi, pedagogika, ijtimoiy-psixologik muhit, kommunikatsiya, tolerantlik, jamoaviylik, xalqaro tajriba, tarixiy tahlil.*

Zamonaviy ta’lim tizimi inson kapitalini rivojlantirish, shaxsning ijtimoiylashuvi va jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, globallashuv, raqamli transformatsiya va madaniy xilma-xillik kuchayib borayotgan bugungi davrda ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarning sifati alohida ahamiyat kasb etadi. Bu munosabatlar nafaqat bilim berish samaradorligiga, balki o‘quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishi, ularning kommunikativ kompetensiyalari, jamoaviylik qobiliyati va ijtimoiy moslashuviga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, madaniyatshunoslik yondashuvi asosida sotsiometrik munosabatlarni o‘rganish va rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammo sifatida qaraladi. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifatini oshirish va xalqaro standartlarga moslashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada qabul qilingan qator normativ-huquqiy hujjatlar ta’lim jarayonini tubdan takomillashtirish, pedagogik faoliyatni innovatsion asosda rivojlantirish va o‘qituvchi hamda o‘quvchi o‘rtasidagi samarali hamkorlikni ta’minlashga qaratilgan.[21] Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir shaxsning ta’lim olish huquqi, shaxsiy qadr-qimmati va erkin rivojlanish imkoniyatlari kafolatlangan bo‘lib, bu prinsiplar ta’lim jarayonida insonparvarlik va tenglik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ta’lim tizimini kompleks rivojlantirish, pedagogik jarayonni takomillashtirish hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni joriy etishni nazarda tutadi. Mazkur hujjatlarda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini

[21] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

hisobga olish, ularning qiziqish va ehtiyojlariga mos ta’lim muhitini yaratish, shuningdek, ijtimoiy-psixologik iqlimni sog‘lomlashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.[22] Bu esa o‘z navbatida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarni chuqur o‘rganish va rivojlantirish zaruratini yuzaga keltiradi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim tizimini isloh qilishga qaratilgan farmon va qarorlari ham ushbu jarayonni yangi bosqichga olib chiqdi. Jumladan, umumiy o‘rta ta’lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, ta’lim muassasalarida sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan tashabbuslar ta’lim jarayonining mazmunini boyitdi. Ushbu hujjatlar doirasida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, ishonch va hamkorlikka asoslangan munosabatlarni rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Xalqaro darajada ham ta’lim tizimida ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish, inklyuziv va tolerant muhit yaratish masalalari alohida e’tibor markazida turadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyalarda ta’lim jarayonida madaniy xilma-xillikni hurmat qilish, o‘zaro tushunishni rivojlantirish va ijtimoiy integratsiyani ta’minlash muhim vazifa sifatida qayd etilgan. Bu esa madaniyatshunoslik yondashuvining pedagogik jarayondagi ahamiyatini yanada oshiradi.

Madaniyatshunoslik yondashuvi asosida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u ta’lim jarayonining samaradorligi, ijtimoiy-psixologik muhitning sog‘lomligi hamda shaxsning har tomonlama rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Sotsiometrik munosabatlar jamoa ichidagi shaxslararo aloqalarning tizimi sifatida namoyon bo‘lib, unda o‘zaro tanlash, rad etish, yaqinlik, ishonch va ijtimoiy maqom kabi ko‘rsatkichlar muhim o‘rin tutadi. Ta’lim muassasasida shakllanadigan ushbu munosabatlar o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi, o‘zini namoyon etish imkoniyatlari va ijtimoiylashuv darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois madaniyatshunoslik yondashuvi asosida sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish ilmiy asoslangan, tizimli va kompleks yondashuvni talab etadi. Madaniyatshunoslik yondashuvi pedagogik jarayonni kengroq ijtimoiy-madaniy kontekstda talqin etadi, bunda ta’lim muhitidagi har bir munosabat madaniy qadriyatlar, an’analar, ijtimoiy me’yorlar va kommunikativ xulq-atvor bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. O‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi sotsiometrik munosabatlar ham aynan shu omillar ta’sirida rivojlanadi. Masalan, hurmat, bag‘rikenglik, hamkorlik, o‘zaro yordam kabi qadriyatlar ustuvor bo‘lgan muhitda ijobiy ijtimoiy aloqalar shakllanishi tezlashadi, aksincha, stereotiplar, kamsitish yoki befarqlik mavjud bo‘lgan sharoitda salbiy sotsiometrik strukturalar yuzaga keladi. Shu sababli pedagogik jarayonda madaniy qadriyatlarni ongli ravishda shakllantirish sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishning asosiy strategiyalaridan biri hisoblanadi.[23] Tarixiy jihatdan qaralganda, ta’lim tizimida shaxslararo munosabatlarga e’tibor qadimdan mavjud bo‘lgan. Sharq mutafakkirlari, xususan, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi allomalar o‘z asarlarida ustoz-shogird munosabatlarining ma’naviy va axloqiy asoslarini yoritib, o‘zaro hurmat, mehr-muhabbat va bilimga intilish kabi qadriyatlarni ilgari surganlar. Ularning qarashlarida pedagogik jarayon faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki insoniy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-madaniy muhit sifatida talqin etiladi. Bu g‘oyalar zamonaviy madaniyatshunoslik yondashuvi bilan uyg‘un bo‘lib, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini

[22] O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
[23] Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society*. Harvard University Press.

yo‘qotmagan. Xalqaro tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlar ta’lim tizimida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga katta e’tibor qaratiladi. Masalan, Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida ta’lim jarayonida “student-centered learning”, ya’ni o‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuv keng qo‘llanilib, bunda o‘quvchilar faol ishtirokchi sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida tenglikka asoslangan muloqotni rivojlantirishga, o‘zaro ishonch va hurmatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, Finlyandiya ta’lim tizimida o‘qituvchilar o‘quvchilarning individual xususiyatlarini chuqur o‘rganish, ularning ijtimoiy moslashuviga yordam berish va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratadi. Bu esa ijobiy sotsiometrik muhitni shakllantirishga imkon yaratadi. Sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirishda samarali strategiyalar qatoriga kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, interaktiv metodlardan foydalanish, jamoaviy faoliyatni tashkil etish va refleksiv tahlilni yo‘lga qo‘yish kiradi.

O‘qituvchi tomonidan ochiq va samimiy muloqot muhitini yaratish, o‘quvchilarning fikrini hurmat qilish va ularni faol ishtirok etishga rag‘batlantirish sotsiometrik aloqalarni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, guruhli ishlar, rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlarni yechish kabi metodlar o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni kuchaytiradi va ijtimoiy aloqalarni rivojlantiradi.[24] Bu jarayonda o‘qituvchi fasilitator sifatida ishtirok etib, jamoada ijobiy muhitni shakllantirishga yo‘naltiruvchi rolni bajaradi. Bundan tashqari, sotsiometrik tahlil usullaridan foydalanish ham muhim strategik ahamiyatga ega. Ushbu usullar yordamida sinf jamoasidagi norasmiy liderlar, ijtimoiy aloqalar tarmog‘i va muammoli zonalar aniqlanadi. Natijada pedagog o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, ijtimoiy izolyatsiyani kamaytirish va ijobiy iqlimni shakllantirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishi mumkin bo‘ladi. Bu esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Madaniyatshunoslik yondashuvi doirasida tolerantlik va inklyuzivlikni rivojlantirish ham muhim o‘rin tutadi. Turli ijtimoiy, milliy va madaniy guruhlarga mansub o‘quvchilar bilan ishlash jarayonida o‘zaro hurmat va bag‘rikenglik muhitini yaratish sotsiometrik munosabatlarni ijobiy yo‘nalishda rivojlantiradi.[25]Bu esa nafaqat ta’lim jarayonida, balki keng ijtimoiy hayotda ham barqarorlik va uyg‘unlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Madaniyatshunoslik yondashuvi asosida sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish strategiyalari nazariy va amaliy jihatdan chuqur asoslangan bo‘lib, u ta’lim jarayonining barcha bosqichlarida qo‘llanilishi lozim. Ushbu yondashuv orqali o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida ijobiy, samarali va barqaror munosabatlar tizimini shakllantirish mumkin bo‘lib, bu esa zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadlariga erishishda muhim omil hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarning nutqiy etiket va nutq madaniyatini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Shu maqsadda 4-sinf o‘quvchilari bilan olib borilgan mashg‘ulotlar oldindan rejalashtirilgan, metodik jihatdan asoslangan va bosqichma-bosqich tashkil etildi. Mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, nutqiy imkoniyatlari hamda psixologik holati inobatga olindi.

Tajriba davomida **“Matnni ketma-ket davom ettir…”** nomli mashg‘ulot tashkil etildi. Ushbu mashg‘ulot Xurshid Davronning *“Yagonadir vataning sening”* asari asosida olib borildi. Asarda keltirilgan: “Inson uchun havo, quyosh, suv, non va ota-ona qanchalik aziz va muqaddas bo‘lsa, vatan ham shunchalik mo‘tabardir” kabi mazmunan chuqur va tarbiyaviy ahamiyatga ega jumlalar o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirishga xizmat qildi. O‘quvchilardan matnni mantiqiy ketma-ketlikda davom ettirish, voqealarni izchil bayon qilish hamda o‘z munosabatlarini og‘zaki ifodalash talab etildi.

Mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilar dastlab grammatik va uslubiy xatolarga yo‘l qo‘ygan bo‘lsalar-da, o‘qituvchining yo‘naltiruvchi savollari, namuna ko‘rsatishi va rag‘batlantirishi orqali ularning nutqida ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. O‘quvchilar fikrni to‘liq gaplar orqali ifodalashga, so‘zlarni o‘rinli tanlashga va nutqiy etiket normalariga amal qilishga intildilar.

Mashg‘ulot yakunida o‘quvchilarning nafaqat og‘zaki nutqi, balki mantiqiy tafakkuri, mustaqil fikrlash qobiliyati va nutqiy faolligi sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Ushbu mashg‘ulot nutqni rivojlantirish bilan bir qatorda, vatanparvarlik, milliy qadriyatlarga hurmat ruhini singdirishda ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Mazkur amaliy tajriba shuni ko‘rsatdiki, **matn asosida tashkil etilgan interfaol mashg‘ulotlar** o‘quvchilarning nutqiy etiketini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. To‘g‘ri metod tanlovi va tizimli yondashuv o‘quvchilarning nutqiy madaniyatini rivojlantirishda muhim pedagogik omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv sharoitida turli madaniyat va qadriyatlarga ega jamiyatlar o‘rtasida samarali va barqaror muloqotni ta’minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda nutqiy etiket va madaniyatning o‘rni beqiyos bo‘lib, ular shaxslararo hamda madaniyatlararo muloqotda o‘zaro tushunish, hurmat va hamkorlikni mustahkamlovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Nutqiy etiket me’yorlariga rioya qilish muloqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy va madaniy qarama-qarshiliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

Har bir xalqning nutqiy odatlari, muloqot shakllari va nutqiy etiket birliklari uning tili, mentaliteti hamda tarixiy-madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bois nutq madaniyatini o‘rganish orqali muayyan jamiyatning axloqiy qarashlari, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlar tizimini anglash imkoniyati yaratiladi. Nutqiy muloqot jarayoni faqat lisoniy vositalar bilangina cheklanib qolmay, balki yuz ifodasi, imo-ishora, tana harakati kabi noverbal vositalar bilan uyg‘unlashgan holda kechishini inobatga olish muhimdir. Bu holat muloqotning mazmuni va ta’sirchanligini yanada oshiradi.

Tadqiqot jarayonida nutq madaniyatining fonetik, leksik, grammatik, uslubiy va etik tarkibiy qismlari o‘zaro uzviy bog‘liqlikda shakllanishi aniqlanib, ularning har biri shaxs nutqining aniqligi, ravonligi va ta’sirchanligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berildi. Shuningdek, nutqiy etiketni rivojlantirishda interfaol metodlar, xususan, suhbat, hikoya qilish, sahnalashtirish, matn ustida ishlash va didaktik o‘yinlarning samaradorligi amaliy tajribalar orqali tasdiqlandi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida nutq madaniyati va nutqiy etiketni shakllantirish o‘quvchilarning nafaqat og‘zaki va yozma nutqini, balki mustaqil fikrlash, mantiqiy mushohada yuritish hamda ijtimoiy faolligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, 4-sinf o‘quvchilari bilan olib borilgan amaliy mashg‘ulotlar natijalari mazkur jarayonning pedagogik jihatdan samarali ekanligini ko‘rsatdi.

Xulosa qilib aytganda, nutqiy etiket va nutq madaniyatini tizimli ravishda rivojlantirish jamiyatda sog‘lom muloqot muhitini shakllantirish, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash hamda madaniyatlararo muloqotni muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy-tadqiqot va amaliy ishlarni yanada takomillashtirish bugungi kun ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Akbarova Z. A. **O‘zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi**. Filol. fan. nomz. diss. avtoref. — Toshkent, 2007.

2. Iskandarova Sh. M. **O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari**. Filol. fan. nomz. diss. avtoref. — Samarqand, 1993.

3. Maxmudov N. **Til siyosati va siyosat tili** // Til tilsimi tadqiqi. — Toshkent: Mumtoz so‘z, 2017.

4. Mo‘minov S. M. **O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari**. Filol. fan dokt. diss. avtoref. — Toshkent, 2000.

5. Xusanov B., G‘uzomov V. **Muomala madaniyati**. — Toshkent, 2007.

6. Saidova F. B. **Yangi O‘zbekistonda zamonaviy psixologiya va pedagogikaga doir muammolar**. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. — Toshkent, 2025.
7. Toirova M. E. **O‘qish savodxonligi. 1-qism (4-sinf uchun darslik)**. — Toshkent: Novda Edutainment, 2023.
8. Brown P., Levinson S. **Politeness: Some Universals in Language Usage**. — Cambridge University Press, 1987.
9. Goffman E. **Interaction Ritual: Essays on Face-to-Face Behavior**. — New York, 1967.
10. Hymes D. **Foundations in Sociolinguistics: An Ethnographic Approach**. — Philadelphia, 1974.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI, O‘QUVCHILARNING BILIMLARINI TASHXISLASH VA BAHOLASH USULLARI BILAN QUROLLANTIRISH

Raximova Shahodat Azadovna
TDIU dotsent Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti izlanuvchisi

O‘quvchilarni rivojlantirishning barcha bosqichlarida demokratik yondashuvni kuchaytirish asosida o‘qituvchilarning tashxislash va baholash funksiyalarini amalga oshirishlariga ularni tayyorlash birinchi darajali ahamiyat kasb etmoqda. O‘quvchi mehnati natijalarini tashxislash va baholashga oid mavjud tajribalarni ijobiy tomonlarini saqlab qolgan holda mazkur vazifani amalga oshirish nihoyatda zarur hisoblanadi.

Ma’lumki, amaldagi baholash tizimida o‘quvchilarning shaxsiy fikrlarini hisobga olmasdan turib, ular mehnati natijalarini aniqlash va baholash esa rivojlantiruvchi ta’lim imkoniyatlarini pasaytiradi. Ma’lumki o‘quvchilar bilimini baholash o‘quv faoliyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Aynan baho o‘quv faoliyatini boshqaruvchi, natijaviylikni ifodalodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchining baholash funksiyasi bilan bog‘liq muammolar uchta muhim masalaning yechimi bilan bevosita bog‘liqdir. Ular:

1. O‘quvchilarning o‘quv muvaffaqiyatlarini qanday maqsadga asoslangan holda baholash;
2. O‘quvchilarning bilim faoliyatida birinchi navbatda nimani baholash zarurligini anglash;
3. Bahoning obyektivligini ta’minlash bilan bog‘liq ijobiy holatlar nimalardan iboratligini bilish.

Ma’lumki, bugungi kunda o‘qituvchi faoliyatiga nisbatan yangicha nuqtai nazardan qarash tajribasi vujudga kelmoqda. Xuddi mana shundan kelib chiqqam holda, zamonaviy o‘qituvchining bir qator muhim vazifalari belgilab berilishi kerak:

a) o‘quvchilarni mustaqil bilish faoliyatiga jalb etish uchun qulay sharoit yaratish;

b) o‘quvchilarning harakatlarini qo‘yilgan maqsad sari yo‘naltirish;

d) mustaqil izlanish jarayonida o‘quvchilarning his-tuyg‘ulari va kechinmalarini qo‘llab-quvvatlash;

e) har bir o‘quvchi uchun muvaffaqiyat vaziyatini vujudga keltirish;

f) o‘quv-tarbiya jarayonida umumiy ijobiy-hissiy muhitni saqlab qolish;

g) o‘quvchilar bilan hamkorlikda qo‘lga kiritilgan natijalarni tahlil qilish kabilar.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim paradigmasiga o‘tilgach, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalarini tashxislash va baholashga bo‘lgan yondashuvlar ham o‘zgaradi. Tajribalar shuni

ko‘rsatmoqdiki, har bir yangi mavzu o‘tilgandan keyin o‘quvchilar bilimini yuzaki baholash usulidan voz kechish kerak.

O‘quvchilar o‘zlashtirgan bilimlarning muayyan darajasini aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan tekshirish xarakteridagi nazorat ishlarini o‘qituvchi muayyan bosqich yakunida o‘tkazadi. Shu asosda u o‘quvchilar erishgan oraliq va yakuniy natijalari aniqlashga muvaffaq bo‘ladi. Bunda pedagoglar o‘quvchilarning o‘zlashtirganlik darajalari, o‘quv materialarining murakkabligi alohida e’tibor qaratishlari kerak. Buning uchun nazorat ishlariga qo‘yiladigan bahoni o‘qituvchi hamda o‘quvchilar mavjud vaziyatdagi natija sifatidagina qabul qilishlari lozim. Bu baho orqali o‘quvchilarning o‘quv layoqatlari, shaxsni o‘ziga xosligini aniqlovchi vosita sifatida idrok etilmasligi zarur.

O‘qituvchilar har doim bahoning yo‘naltiruvchilik quvvatini oshirishga harakat qiladilar. Bugungi kunda o‘quvchilar bilimlarini “+”, “–” belgilari orqali baholash tajribasi ham qo‘llanilmoqda. Biroq amaldagi jurnal yuritish qoidalariga esa o‘quvchilar bilimini qo‘shimcha izohlovchilar bilan ifodalash imkonini bermaydi. Bunday izohlar o‘qituvchining o‘z daftarida aks ettirilishi lozim. Raqamli balli tizim so‘zlar bilan to‘ldiriladi. Mazkur usuldan foydalanish muayyan ko‘rsatmalar asosida cheklanmagan. Biroq o‘qituvchilar tomonidan istalmagan tarzda juda kam foydalaniladi. Chunki bunday usuldan foydalanish o‘qituvchidan qo‘shimcha vaqtni talab qiladi. Shuning uchun ham dars jarayonida ushbu usuldan foydalanishda noqulayliklar vujudga keladi. Kundalikda qo‘yilgan baholar ota-onalar uchun mo‘ljallangan izohlar ham o‘z ichiga oladi. Bu orqali o‘quvchilarning oila a’zolari oldidagi mas’uliyatlarini oshirishga e’tibor qaratadi. Biroq kundalikda aks ettirilgan izohlar aksariyat hollarda salbiy xarakter kasb etadi. Salbiy qo‘zg‘atuvchilar o‘quvchilarning o‘quv mayllariga putur yetkazadi. Buning natijasida kommunikativ mayllar va ta’sirlarga tayaniladi. Har bir o‘quvchining sinfdoshlari, tengdoshlarining qanday munosabadaligi, u haqidagi tasavvurlari qiziqarli va ahamiyatlidir. Salbiy qo‘zg‘atuvlardan foydalanilgan holda o‘quvchilarning mayllariga putur yetkaziladi.

O‘quvchilarni o‘z-o‘zlari bilan musobaqalashishiga odatlantirish usulidan foydalanish ham alohida pedagogik qiymatga ega. Bunda o‘quv haftasida o‘quvchlar so‘zlar vositasida ifodalangan baho oladilar. Bu baho “yaxshi” yoki “yomon” so‘zlar orqali ifodalanadi. Agar o‘tgan hafta mobaynida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalari pasaysa, ular musobaqada yutqazgan hisoblanadilar. Bunday muvaffaqiyatsizlikka hattoki, a’lochi o‘quvchilar ham duch kelishlari mumkin. Bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar yaxshiroq ishlaganlari taqdirdagina yutuqqa erishadilar. Bunday musobaqalarda barcha o‘quvchilar uchun bir xil sharoitda ega bo‘ladilar. Mazkur musobaqalar o‘zlashtirish uchun emas, balki o‘zlashtirish darajasini yaxshilash uchun tashkil etiladi..

O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalarini nazorat qilish jarayoni bir qator ko‘rsatkichlarga ega. Nazorat deganda, faoliyat va uning natijalari haqida axborot olish tartibi tushuniladi. Ushbu tadbir teskari aloqani ham ta’minlaydi. Amalga oshiriladigan nazorat turlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin. Ular:

1.Og‘zaki nazorat – bunda yakka va ommaviy tarzdagi so‘rovlar misol bo‘la oladi. To‘g‘ri javoblar o‘qituvchi tomonidan aniqlanadi, sharhlanadi. Nazorat jarayonida o‘quvchiga baho qo‘yiladi.

2. Yozma nazorat – bunday nazorat ishlari yozma xarakterga ega bo‘lib, diktantlar, muloqot matnlari, insholar, bayonlar, yozma yakuniy nazorat ishlari kabi shakllarda amalga oshiriladi. Mazkur nazorat ishlari qisqa va uzoq muddatli bo‘lib, ular bir-biridan tashkillashtirishning chuqurligi, yuzaki yoki asoslangan qismlarning izohi bilan farqlanadi.

3. Laboratoriya nazorati – mazkur usul o‘quvchilarning kompyuterda ishlash ko‘nikmalarini aniqlashga yo‘naltirilgan. Dasturlashtirilgan bilimlarni o‘zlashtirilishini ta’minlash imkonini beradi. Mazkur bilimlar yordamida o‘quvchilar dasturiy modellashtirish, dasturlarga tuzatishlar kiritish ko‘nikmalarini namoyon etadilar.

4. Dasturlashtirilgan nazorat – u nazorat qiluvchi dasturlar yordamida amalga oshiriladi. Bu usul yordamida nazorat ishlari o‘quv predmetini o‘zlashtirishning barcha bosqichlarida amalga oshirilishi mumkin. Mazkur usul yuqori darajadagi obyektivlikni ta’minlash imkonini beradi, uning yordamida nazorat vositalarini savodlilik hamda sobitqadamlik bilan yaratish mumkin.

5. Test nazorati – uning asosini testlar tashkil etadi. Test nazoratlari kompyuterlar yordamida va qog‘oz variantlarda yozma shaklarda amalga oshirilishi mumkin.

6. Mustaqil nazorat – bunda o‘quvchi o‘z xatolari, ishidagi noaniqliklarni mustaqil topishga undash imkoniyati vujudga keladi.

Mazkur usullar, ularning qo‘llanish yo‘llari, bu jarayonida qo‘llaniladigan vositalar bilan bo‘lajak o‘qituvchilar oliy pedagogik ta’lim muassasalaridayoq tanishtirilishlari va ulardan foydalanishga oiddastlabgi tajribalar bilan qurollantirilishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Джураев Р.Х. Содержание и структура концепции непрерывной профессиональной подготовки // Образование через всю жизнь: проблемы становления и развития непрерывного образования: Материалы докл. И сообsh.участников междунар.конф. (СанктПетербург, 4-5 июня 2002 г.)/ под ред. Н.А.Лоюанова и В.Н.Скворцова. – СПб.: изд-во Файндер, 2002. – С 11-18

2. Джураев Р.Х., Цой М.Н., Данияров Б.Х., Гайер Т.В. Интерактивный комплекс в образовательном процессе: Монография. -Т.: Шарк, 2011. - 267 с.

3. Дударева Л.Н. Гуманитаризация процесса повышения квалификации учителя в ИПК: Автореферат дисс. … канд. пед. наук. – Алтайский государственный университет. – Новосибирск, 2000. – 22с.

4. Yo‘ldoshev J. G‘., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari. Qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 2004. – 104 b.

5. Yo‘ldoshev J., Yo‘ldosheva F., Yo‘ldosheva G. Interfaol ta’lim sifat kafolati. – T.: «Fan», 2008. -81-b.

6. Калинкин Е.В. Высшая школа в системе непрерывного образования. – М.: Высшая школа., 1990. – 144с.

7. Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д. Педагогическое творчество. – М.,1990. – 144с.

8. Кармаев А.А. Система освоения студентами механизма реализации личностно ориентированного образовательного процесса. Обshепедагогический аспект: Дисс. … канд. пед. наук. – Саратов, 1999. – 190с.

9. Касьян А.А. Гуманитаризация образования: некоторые теоретические предпосылки // Педагогика. – 1998. - № 2. - С. 22.

СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ В РАЗВИТИИ ВЗАИМОСВЯЗИ МАТЕМАТИКИ И ПЕДАГОГИКИ

Мадина Нижат кизи Нурмухаммедова
Студентка 3 курса Высшей школы точных наук Национального педагогического университета Узбекистана имени Низами
Светлана Хамидовна Конева
Старший преподаватель кафедры «Педагогика» Национального педагогического университета Узбекистана имени Низами

Аннотация. *В статье рассматривается взаимосвязь математики и педагогики как взаимодополняющих научных областей. Обосновывается роль математики как методологической основы педагогического знания и педагогики как условия эффективного усвоения математического содержания. Анализируются современные тенденции развития математического образования в условиях цифровизации и компетентностного подхода. Раскрывается значение междисциплинарного взаимодействия для формирования интеллектуальных и профессиональных компетенций обучающихся. Делается вывод о необходимости интеграции математических и педагогических подходов в современной образовательной практике.*

Ключевые слова: *математика, педагогика, математическое образование, методология, компетентностный подход, цифровизация образования, математическая грамотность, интеграция, профессиональные компетенции учителя, цифровые компетенции, качество образования, междисциплинарный потенциал, стратегические ориентиры.*

В современной научно-образовательной парадигме проблема взаимосвязи математики и педагогики приобретает особую значимость. Данная актуальность обусловлена, с одной стороны, возрастанием роли математической грамотности как базового компонента общего образования, а с другой — усложнением педагогических задач в условиях цифровой трансформации, компетентностной модели обучения и необходимости подготовки обучающихся к решению нестандартных, междисциплинарных и практико-ориентированных задач. Международные исследования и аналитические доклады последних лет подчеркивают, что качество математической подготовки тесно связано не только с уровнем усвоения предметного содержания, но и с организацией учебного процесса, педагогическими практиками, цифровой средой и профессиональной компетентностью учителя.

Цель настоящей статьи состоит в теоретическом осмыслении взаимосвязи математики и педагогики как наук, выявлении методологических оснований их взаимодействия и определении практической значимости данной взаимосвязи для современной образовательной системы.

Математика традиционно рассматривается как наука о количественных отношениях, структурах, закономерностях и формах. Однако её значение не исчерпывается предметным содержанием. В более широком научном контексте математика выполняет методологическую функцию: формирует культуру доказательства, развивает логическую последовательность мышления, позволяет строить модели,

выявлять зависимости и проверять гипотезы. Именно эти свойства делают её значимой для педагогики как науки, стремящейся к объективному анализу образовательных процессов.

Педагогика, исследуя обучение, воспитание, развитие личности и механизмы социализации, всё в большей степени использует математические методы: статистический анализ, моделирование образовательных результатов, мониторинг качества обучения, диагностику компетенций, интерпретацию больших массивов данных. Математизация педагогического исследования усиливает его доказательность и повышает достоверность выводов. В этом смысле математика выступает не только учебной дисциплиной, но и эпистемологическим инструментом педагогической науки.

Следовательно, взаимосвязь математики и педагогики проявляется уже на уровне научной методологии: педагогика заимствует у математики принципы структурности, логичности, операциональности и аналитической строгости, а математика в образовательном контексте раскрывает свой развивающий и формирующий потенциал.

Именно педагогика становится, как условие гуманизации и эффективности математического знания.

Несмотря на высокую степень абстрактности и логической завершённости, математическое знание не становится образовательной ценностью вне педагогического посредничества. Педагогика определяет, каким образом математическое содержание преобразуется в доступный, развивающий и личностно значимый учебный материал. Именно педагогика раскрывает закономерности усвоения математических понятий, этапы формирования способов действия, механизмы преодоления учебных затруднений и условия развития познавательной самостоятельности.

В данном контексте особенно значим компетентностный подход, в рамках которого математика понимается не как сумма формул и алгоритмов, а как средство развития универсальных интеллектуальных действий: анализа, синтеза, аргументации, моделирования, критической оценки результатов.

Современные подходы к обучению математике ориентируют учителя на формирование у обучающихся способности применять математические идеи в новых ситуациях, интерпретировать данные, выявлять закономерности и обосновывать выводы. Исследования OECD, в том числе материалы PISA 2022, подчёркивают связь математического образования с более широким спектром когнитивных способностей, включая решение проблем и творческое мышление.

Тем самым педагогика придаёт математике антропоцентрическую направленность. Она определяет способы отбора содержания, последовательность его предъявления, формы коммуникации, уровни дифференциации и механизмы обратной связи. Без педагогического измерения математика рискует остаться формальной системой, недостаточно связанной с реальными образовательными потребностями личности.

Современная наука всё в большей степени развивается на междисциплинарной основе. В этом отношении взаимодействие математики и педагогики представляет собой не частный методический вопрос, а важное направление научного синтеза. Оно реализуется по меньшей мере в трёх измерениях.

Во-первых, математика обеспечивает педагогике инструментарий анализа сложных систем. Образовательная среда может рассматриваться как динамическая система, включающая множество переменных: мотивацию, уровень подготовки, когнитивные

стили, социальные факторы, цифровые ресурсы, формы контроля. Для изучения таких систем целесообразны методы моделирования, количественного анализа и прогнозирования.

Во-вторых, педагогика способствует переосмыслению целей математического образования. Если в традиционной модели акцент делался преимущественно на вычислительной точности и воспроизведении алгоритмов, то в современной школе возрастает значение математического моделирования, интерпретации данных, аргументированного рассуждения, проектной и исследовательской деятельности. Эта трансформация соответствует запросу на компетенции XXI века, включая критическое мышление, коммуникацию, сотрудничество и способность работать с информацией в цифровой среде. UNESCO и Европейская комиссия подчёркивают, что цифровая компетентность включает не только технические навыки, но и умение решать проблемы, создавать контент, безопасно взаимодействовать с информацией и использовать данные осмысленно.

В-третьих, междисциплинарность усиливает практико-ориентированный характер математического обучения. Так, в образовательной практике всё более востребованы задания, связанные с анализом статистических данных, финансовой грамотностью, вероятностным мышлением, обработкой информации, моделированием социальных и природных процессов. Такие задачи требуют одновременно математической точности и педагогически грамотной организации учебной деятельности.

Сегодня цифровая трансформация образования существенно изменила характер взаимодействия математики и педагогики. Цифровизация образования как новый этап интеграции математики и педагогики.

Электронные образовательные платформы, системы компьютерной алгебры, динамическая геометрия, инструменты визуализации функций и статистических данных, адаптивные тренажёры и интеллектуальные системы поддержки обучения позволяют существенно расширить возможности преподавания математики. Вместе с тем эффективность этих ресурсов зависит не от самого факта технологического внедрения, а от качества педагогического проектирования.

Исследования последних лет показывают, что цифровые технологии в математическом образовании обладают высоким потенциалом, но их интеграция требует специальной профессиональной подготовки педагога. В научной литературе обсуждаются расширенные модели профессиональной компетентности учителя математики, включающие содержательный, педагогический и цифровой компоненты. В частности, современные публикации в области mathematics education рассматривают профессиональные цифровые компетенции учителя как интегральное образование, объединяющее знание предмета, дидактики и способов использования технологий в конкретной учебной ситуации.

Примером из образовательной практики может служить использование динамических математических сред при изучении функций, геометрических преобразований или статистических зависимостей. В таких условиях ученик не просто воспринимает готовую информацию, а исследует объект, изменяет параметры, наблюдает закономерности, формулирует гипотезы и проверяет их. Однако подобная активность становится продуктивной лишь при наличии педагогически выверенной системы заданий, продуманной поэтапности, рефлексии и научно обоснованной обратной связи.

Следовательно, цифровизация не заменяет педагогику, а, напротив, повышает требования к её качеству.

На современном этапе можно выделить несколько стратегических ориентиров в развитии взаимосвязи математики и педагогики:

- переход от репродуктивной к продуктивной модели обучения. Математика должна выступать средством развития мышления, а не только сферой усвоения правил и алгоритмов.

- усиление исследовательского компонента. Педагогика математического образования всё более ориентируется на проблемное обучение, математическое моделирование, проектную деятельность и анализ реальных данных.

-развитие профессиональной компетентности учителя. Современный педагог математики должен владеть не только предметным содержанием и методикой преподавания, но и инструментами цифровой дидактики, формирующего оценивания, индивидуализации обучения.

-обеспечение образовательной справедливости и доступности.

Международные профессиональные сообщества в области математического образования подчёркивают необходимость создания условий, при которых качественное математическое образование становится доступным для каждого обучающегося вне зависимости от его стартовых возможностей.

Практическая значимость рассматриваемого вопроса заключается в том, что его положения могут быть использованы:

- ✓ для совершенствования программ подготовки и повышения квалификации учителей математики;
- ✓ для разработки учебных курсов, ориентированных на интеграцию предметного, методического и цифрового компонентов;
- ✓ для проектирования уроков математики на основе деятельностного и компетентностного подходов;
- ✓ для организации педагогической диагностики, мониторинга и анализа образовательных результатов;
- ✓ для внедрения цифровых инструментов в обучение математике на научно обоснованной дидактической основе.

Особенно значимо, что осмысление взаимосвязи математики и педагогики позволяет перейти от узкопредметного преподавания к целостной модели интеллектуального развития обучающегося, в которой математическое знание выступает одновременно содержанием, средством мышления и основой формирования универсальных компетенций.

На основе проведённого анализа можно сделать следующие выводы.

- ✓ математика и педагогика находятся в отношениях содержательного и методологического взаимодополнения. Математика обеспечивает педагогику средствами строгого анализа, моделирования и объективизации результатов, тогда как педагогика раскрывает механизмы усвоения математического знания и условия его развивающего воздействия.
- ✓ современное математическое образование невозможно рассматривать вне педагогического контекста. Эффективность обучения определяется не только логикой предмета, но и качеством дидактического проектирования, уровнем профессиональной

компетентности учителя, характером обратной связи и степенью включённости обучающегося в активную познавательную деятельность.

✓ цифровизация усилила интеграцию математики и педагогики, но одновременно повысила требования к научной обоснованности образовательных решений. Технологии становятся результативными лишь тогда, когда включены в педагогически продуманную систему обучения.

✓ взаимосвязь математики и педагогики имеет стратегическое значение для развития компетенций XXI века, формирования математической грамотности, критического мышления и способности обучающихся к исследовательской и практико-ориентированной деятельности.

Таким образом, взаимодействие математики и педагогики следует рассматривать как важнейшее условие обновления современной образовательной системы, повышения качества обучения и подготовки личности, способной к рациональному мышлению, осознанному выбору и продуктивной деятельности в сложном мире.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Сластёнин В.А., Исаев И.Ф., Шиянов Е.Н. Педагогика: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. — М.: Академия, 2020.
2. Подласый И.П. Педагогика: новый курс: учебник для студентов педагогических вузов. — М.: Владос, 2021.
3. Краевский В.В. Методология педагогики: новый этап. — М.: Академия, 2019.
4. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. — М.: Педагогика, 2018.
5. Колягин Ю.М., Ткачева М.В., Федорова Н.Е. Методика преподавания математики в средней школе. — М.: Просвещение, 2020.
6. Далингер В.А. Методика обучения математике: современные технологии. — М.: Юрайт, 2022.
7. Полат Е.С., Бухаркина М.Ю. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования. — М.: Академия, 2021.
8. Вербицкий А.А. Компетентностный подход и теория контекстного обучения. — М.: Логос, 2019.
9. Федеральный государственный образовательный стандарт среднего общего образования (ФГОС СОО). — М.: Просвещение, 2021.
10. OECD. Результаты PISA 2022: оценка математической грамотности учащихся. — Париж: OECD Publishing, 2023.
11. OECD. PISA 2025 Assessment and Analytical Framework: Mathematics, Reading, Science and Financial Literacy. — Paris: OECD Publishing, 2025. — 300 p.
12. Boaler J. Mathematical Mindsets: Unleashing Students’ Potential through Creative Mathematics (Updated ed.). — San Francisco: Jossey-Bass, 2025. — 320 p.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TARBIYACHINING BADIIY ADABIYOTDAN FOYDALANISH IMKONIYATI

Xudoyberdiyeva Madina Abdulbaki qizi
Jizzax, mustaqil tadqiqotchi
Musurmonova Mariya Burxonovna
Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya. *Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar ma’naviyatini shakllantirish, mashg‘ulotlar jarayonida buyuk mutafakkirlarimizning hayot yo‘llari va asarlaridan foydalanish, shuningdek, dunyo xalqlari madaniyati hamda badiiy adabiyotdan foydalanishning ahamiyati borasida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *mentalitet, xavf-xatar, buyuk siymolar, badiiy adabiyot, vatanparvarlik, millatparvarlik, jumboqli o‘yinlar.*

Yosh avlodga tarbiya va zamonaviy ta’lim berish bilan birga ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ongi va qalbini mafkuraviy va ma’naviy tahdidlardan ishonchli himoya qilish, ularda g‘oyaviy immunitet va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalalari davlatimizning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Milliy mentalitetimiz, dunyoqarash va tafakkurimiz, fazilat va xususiyatlarimiz, eng muhimi ezgu va olijanob maqsadlarimizga yot bo‘lgan g‘oyalar, qarashlar, sun’iy “qadriyat” va “an’ana”larni turli yo‘llar bilan joriy etishga urinishlar, bir so‘z bilan aytganda, ma’naviy tahdid ko‘rinishlarini bugun har qadamda uchratish mumkin. Bunday sharoitda yuksak ma’naviyatgina o‘sib kelayotgan yosh avlodni mafkuraviy ziddiyatlarning salbiy ta’siridan, xavf-xatar va tahdidlardan munosib himoya qilish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabrda o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishida so‘zlagan nutqida: “Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”. “Ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo‘lib xizmat qilishi tabiiy”. “Bu kimgadir yoqadimi yoki yo‘qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko‘rsatib bergan yo‘ldan og‘ishmay borishi kerak. Chunki ularning g‘oya va dasturlari yangi O‘zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohangdir”[1],— deya alohida ta’kidlab o‘tdi.

Shuningdek, “Faqatgina O‘zbekistonni buyuk allomalar yurti deb atashadi! Bobolarimiz bizning boshimizni qiyomatga qadar baland ko‘tarib ketishdi”[2], – degan edi sharqshunos olim, professor Ubaydulla Uvatov.

Bobokalonlarimiz bilan nafaqat faxrlanish, balki ularning boy ma’naviy merosini targ‘ib etish ham barchamizning burchimizdir.

Buyuk mutafakkirlarimiz bo‘lgan Beruniy, al-Xorazmiy, Ibn Sino, al-Buxoriy, at-Termiziy, Yassaviy, Ulug‘bek, Navoiy va boshqa ko‘pgina allomalar ma’naviyati keng bo‘lgan siymolardir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridan boshlab ularning hayot yo‘li va asarlaridan foydalanish yoshlarimiz tarbiyasida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Mashg‘ulotlar jarayonida tarbiyachi bolalarga “Buyuk siymolar haqida”gi mavzularni tushuntirishda mamlakatimizda ma’naviyatimizni yuksaltirish, urf-odatlarimizni hayotga tadbiq etish maqsadida Amir Temur, Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa mutafakkirlarimizning tavallud kunlarini nishonlanishini misollar orqali yoritib berishi kerak. Shuningdek, Jizzaxdan yetishib chiqqan shoir va adiblarimizdan Hamid Olimjon, Zulfiyaxonim, Sharof Rashidov, Nazir Safarov va boshqalar haqida ham bolalarga ma’lumotlar berish, ularning ijodiy faoliyatlari bilan tanishtirish, ular bilan faxrlanish hissini ham tarbiyalab borish maqsadga muvofiqdir.

Bolalar maktabgacha ta’lim yoshidayoq Amir Temur va uning qudratini, Beruniy, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Navoiy, Bobur, Ulug‘bek va ularning dunyo ilmidagi boy ma’naviy meroslarini anglay bilishlari kerak.Bolalarga Bobur haqida so‘zlay turib, uning bir umr vatan sog‘inchi bilan yashagani haqida aytib berish, shu asnoda ularda vatanga muhabbat ruhini tarbiyalab borish mumkin. Shuningdek, Alisher Navoiyning dostonlari tarkibidagi “Donolar donosi”, “Sher bilan Durroj”, ”Ikki vafoli yor”, “Bir kabutar”, “Arslon ila ayiq”, “Hotam toyi” kabi hikoyalari, “Tilga ixtiyorsiz-elga e’tiborsiz”, “Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur”, “Bilmaganin so‘rab o‘rgangan olim, orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim”! va boshqa shu kabi hikmatli so‘zlari bolalarga turmushda, jamiyatda, o‘z jamoasida yurish-turishning to‘g‘ri qoidalarini egallashida, ularda ijobiy fazilatlarning shakllanishida katta yordam beradi. Bu bilan bolalar buyuk mutafakkirlarimiz haqida faqat ilk ma’lumotga ega bo‘lib qolmasdan, balki ularning boy ma’naviy merosi haqida ham tasavvurga ega bo‘ladilar.

Mazkur vazifalar avvalo maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisidan nafaqat ta’lim-tarbiya jarayoni mazmuni, shakli, usul va vositalarini tanlash, balki ma’naviy –ma’rifiy tadbirlarning ham yangidan-yangi yo‘llarini izlash va ularni maqbul ravishda ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish mahoratini talab etadi.

Bizning yurtimizda 1-sentabr “Mustaqillik kuni”ni umumxalq bayrami deb e’lon qilinganligini chuqur ma’nosi bor, albatta. Demak, tarbiyachi bolalarga dastur bo‘yicha “O‘zbekiston – mening Vatanim” [3] mavzusini o‘tayotganda mustaqilligimizning asosiy qomusi bo‘lgan O‘zbekiston Konstitutsiyasining davlat, jamiyat inson manfaatlari uchun xizmat qiladigan qomus ekanligi haqida ham to‘xtalib o‘tishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bolalarga har doim “Sen mustaqil O‘zbekistonliksan, O‘zbekiston farzandisan, buni unutma, sen doimo Vataningga yaxshiliklar qilishing, yaxshi tomonga yo‘naltirish yo‘lidan borishing kerak”,-degan tarbiya singdirilishi lozim. Albatta, jahon keng, dunyoda mamlakatlar ko‘p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O‘zbekistonimiz yakka- yagona, bu go‘zal yurt, bu muqaddas zamin faqat bizga atalgan. Mana shu ulug‘ tuyg‘u har bir bolaning diliga jo bo‘lishi, hayot mazmuniga aylanishi kerak. Chunki ana shu go‘zallikni anglagan, undan zavqlangan, qudratini tushungan bolalar odatda, keyinchalik yaratuvchi, tashabbuskor, ishda jasorat ko‘rsata oladigan, Vatan mudofaasiga tayyor turadigan, butun insoniyatga muhabbat bilan qaraydigan kishilar bo‘lib yetishadilar.

Mashg‘ulotlarda, mashg‘ulotlardan tashqari jarayonlarda tarbiyachi bolalar bilan muzeylarga, tarixiy obidalarga sayohatlar uyushtirib, ularning tarixi bilan tanishtirib borishi natijasida ham bolalar ongida o‘z o‘lkasining tarixi, hayot shakli va tarzi namoyon bo‘lishi bilan birga ularda vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg‘ulari shakllanadi.

Bolalar ma’naviyatini shakllantirishda dunyo xalqlari madaniyati bilan tanishtirish va boshqa millatlarga bo‘lgan ijobiy his-tuyg‘ularni tarbiyalash ham juda muhimdir. Chunonchi, bolalarga dunyoda turli xalqlar borligi, ular o‘zaro bo‘yi, yuz tuzilishi, terisi, sochining rangi va

boshqa belgilari bilan farqlanishi tabiiy xol ekanligi, ularning yashash sharoitlari va quyoshdan olayotgan issiqliklari ham turlicha ekanligi, ular ham biz kabi qo‘shiq aytishni, raqsga tushishni juda yaxshi ko‘rishlari, ularning ham milliy cholg‘u asboblari borligi haqida tushuncha berish bilan birga bolalar rollarga bo‘linib, o‘zlari dunyo xalqlari hayotini tasvirlab berishga yo‘naltirilgan o‘yin mashg‘ulotlari tashkil qilinishi ijobiy natija beradi.

Maktabga tayyorlov guruhlarining “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasida “Kattalar mehnati” bo‘yicha “Kiyim tikish fabrikasiga sayr” mavzusini o‘tayotganda bolalarga sodda tilda kiyinish madaniyat nima ekanligini tushuntirib ketish lozim. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘tkaziladigan bayram tadbirlarida bolalarning kiyinishlariga alohida e’tibor qaratish, ularni xuddi qo‘g‘irchoqdek kiytintirish va bo‘yantirish emas, balki, bolalarga xos va mos bo‘lgan kiyimlarni tanlash va kiyintirish lozimligini tarbiyachilar hamda bolalarning ota-onalari unutmasliklari shart. Shunday ekan, biz maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab unday kiyinma, bunday kiyin deb emas, balki qanday kiyinish kerakligini aniq namunalar asosida bolalarga berib borishimiz lozim.

Tarbiyachi bolaga tayyor fikr bermay uning ongida borliqni anglashga imkon yaratishi zarur. “Qani sen nima deb o‘ylaysan?”, deya bolani o‘zini o‘ylashga, fikrlashga yo‘naltirishi juda muhim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2026-yil 5-fevraldagi PF-19-son Farmonida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinga asoslangan ta’lim jarayonini joriy etish bo‘yicha “Bola, o‘yin va pedagog” loyihasini amalga oshirish vazifasi[4] belgilanganligi ham bolalarni milliy g‘urur va Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda maqsad qilib olingan.

Jumboqli o‘yinlar orqali mashg‘ulot jarayonida bolalar qobilyatini o‘stirish bilan birga, ularda hozirjavoblik, qiyin vaziyatdan to‘g‘ri yo‘l topishga yordam berish xususiyatlari tarbiyalanadi. Masalan: “Oq va qora” o‘yini orqali tarbiyachi biror jismning yaxshi va yomon, salbiy va ijobiy xususiyatlarini so‘zlab berishga o‘rgatadi. Oq rangdagi doirachalarni ko‘rganda, bolalar shu buyumning yaxshi sifatlarini aytadilar. Qora rangdagi doirachalarni ko‘rganda esa qarama- qarshi jihatlari topiladi. Ta’lim-tarbiyaning a’nanaviy ish shakllarini taqqoslaganda, ta’limning maqsadi avval bolalarga bilim berish, ularning ko‘nikma, malakalarini shakllantirish bo‘lsa, endi bilim berish bilan bir qatorda, ularning ijodiy qobilyatlarini rivojlantirishdan iborat bo‘ladi. Ishning umumiy shakli eslab qolishdan mustaqil fikrlash, izlanishga aylanadi.

Shunday ekan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar tarbiyasiga ta’sir etuvchi omil, birinchidan, tashqi muhit hisoblansa, ikkinchidan, uni bevosita bolalarga yetkazuvchi tarbiyachining shaxsiy va kasbiy mahoratidir.

Xulosa. Biz bugun erkin, demokratik jamiyat qurayapmiz, tezkor axborot asrida yashayapmiz, shu bois hozirgi yoshlarning ko‘ziga, ongu shuuriga to‘r tutib, uni ko‘rma, buni o‘qima, bunisini eshitma, deb bo‘lmaydi, buning iloji ham yo‘q. Ular avvalo, radio-televideniye, matbuot, internet orqali bizga nisbatan ko‘proq narsalarni bilishga, ko‘rishga intiladi. Shunday bir sharoitda, biz yosh avlod tarbiyasida shunday yo‘l tutishimiz lozimki, toki ular:

- yomondan xazar qilsin;
- xasad qilishdan uyalsin;
- sotqinlikni or deb bilsin;
- o‘zining mustaqil fikriga, asl qadriyatlar negizida shakllangan dunyoqarashi va mustahkam irodasiga ega bo‘lgan fidoyi va vatanparvar barkamol avlod bo‘lib yetishsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 22-dekabrda o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig‘ilishida so‘zlagan nutqi.
2. https://gujum.uz › mutolaa
3. Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Yevstafyeva L.G., Maxmudova D.T.,Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. “Ilk qadam” takomillashtirilgan davlat o‘quv dasturi. Toshkent-2022-yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2026-yil 5-fevraldagi PF-19-son Farmoni.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA EKOLOGIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Maxmudova Ruxsora Navro‘z qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti O‘zbekiston, Buxoro shahri
E-mail: makhmudovaruxi@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tizimli tahlil qilinadi. Ekologik tafakkur, ekologik ong va ekologik madaniyat kategoriyalarining o‘zaro dialektik bog‘liqligi ochib beriladi hamda ularni shakllantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarning o‘rni asoslanadi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida ekologik ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy mexanizmlar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: *ekologik tafakkur, ekologik kompetensiya, innovatsion pedagogika, boshlang‘ich ta’lim, STEAM, interfaol metodlar.*

Kirish. Globallashuv sharoitida ekologik muammolarning murakkablashuvi inson va tabiat o‘rtasidagi muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. Iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi hamda antropogen ta’sirning ortishi ekologik xavfsizlikni ta’minlash masalasini strategik darajaga olib chiqdi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimida ekologik tafakkurga ega shaxsni shakllantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda barqaror rivojlanish konsepsiyasi ta’lim tizimiga chuqur integratsiya qilinmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida ekologik tafakkurni shakllantirish kelajak avlodning ekologik madaniyatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Chunki aynan shu davrda bolalarda tabiatga nisbatan ongli munosabat, ekologik qadriyatlar va xulq-atvor asoslari shakllanadi. Shu bois ekologik ta’limni innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish zamonaviy pedagogika fanining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi shaxsning kognitiv va aksiologik rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Aynan shu davrda bolalarda tabiatga nisbatan qadriyatli munosabat, ekologik mas’uliyat va ongli xulq-atvor asoslari shakllanadi. Shu bois ekologik ta’limni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Asosiy qism. Ekologik tafakkur shaxsning tabiat va jamiyat o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqalarni anglash, ekologik muammolarni tizimli tahlil qilish va ularni hal etishga nisbatan ongli qarorlar qabul qilish qobiliyatini ifodalaydi. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda ekologik tafakkur quyidagi komponentlar orqali tavsiflanadi:

- kognitiv komponent (ekologik bilimlar tizimi);
- aksiologik komponent (tabiatga nisbatan qadriyatli munosabat);
- faoliyat komponenti (ekologik xulq-atvor va amaliy faoliyat).

Mazkur komponentlarning o‘zaro uyg‘unligi ekologik tafakkurning tizimli xarakterini belgilaydi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bu komponentlarni alohida emas, balki integrativ tarzda rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki o‘quvchi ekologik bilimni egallashi bilan birga, unga nisbatan shaxsiy munosabat bildirishi va uni amaliy faoliyatda qo‘llay olishi lozim. Shu jihatdan ekologik tafakkur nafaqat bilish jarayoni, balki shaxsning ijtimoiy-axloqiy pozitsiyasini ham aks ettiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ekologik tafakkur reproduktiv bilimlar emas, balki faol, refleksiv va muammoli o‘qitish orqali rivojlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun xos bo‘lgan psixologik-pedagogik xususiyatlar ekologik ta’lim metodikasini tanlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu yosh davrida:

- obrazli tafakkur ustunlik qiladi;
- tajriba va kuzatishga asoslangan o‘rganish samarali hisoblanadi;
- emotsional ta’sir bilimni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.

Shu sababli ekologik ta’lim jarayonida abstrakt tushunchalarni konkretlashtirish, vizualizatsiya qilish va o‘yin elementlari orqali yetkazish metodik jihatdan asosli yondashuv hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim paradigmasi bilimlarni uzatishdan ko‘ra, kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan. Shu nuqtai nazardan, ekologik ta’limda quyidagi innovatsion yondashuvlar samarali hisoblanadi: Interfaol o‘qitish o‘quvchini passiv qabul qiluvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. Muammoli vaziyatlar yaratish orqali o‘quvchilarda ekologik muammolarni tahlil qilish, baholash va yechim taklif etish ko‘nikmalari rivojlanadi. STEAM yondashuvi ekologik muammolarni fanlararo integratsiya asosida o‘rganishga imkon beradi. Bu esa o‘quvchilarda tizimli fikrlashni shakllantirib, real hayotiy muammolarni hal etishga tayyorlaydi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ekologik ta’limning vizualligini va interaktivligini oshiradi. Virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va raqamli platformalar orqali o‘quvchilar murakkab ekologik jarayonlarni modellashtirish imkoniga ega bo‘ladi. Loyiha asosida o‘qitish o‘quvchilarning mustaqil izlanish olib borish, ma’lumotlarni tahlil qilish va natijalarni taqdim etish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bu esa ekologik tafakkurning amaliy asosda shakllanishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, ekologik ta’limda gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) texnologiyalaridan foydalanish ham yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Turli ekologik viktorinalar, rolli o‘yinlar va simulyatsion mashg‘ulotlar o‘quvchilarning dars jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshiradi hamda ularning faol ishtirokini rag‘batlantiradi. Bu esa ekologik bilimlarning mustahkam o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi ekologik ta’limni erta yoshdan boshlash zarurligini ko‘rsatadi.

- Finlandiyada ekologik ta’lim o‘quv dasturlariga integratsiyalashgan holda beriladi;
- Yaponiyada maktab o‘quvchilari tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha amaliy faoliyatga jalb etiladi;
- Germaniyada “yashil maktab” konsepsiyasi keng rivojlangan.

Ushbu tajribalar ekologik ta’limda amaliy faoliyat va kompetensiyaviy yondashuv ustuvor ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur ilg‘or tajribalarni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish orqali ekologik ta’lim samaradorligini oshirish mumkin. Bunda mahalliy sharoit, milliy qadriyatlar va ekologik muammolarni inobatga olgan holda metodik yondashuvlarni ishlab

chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu orqali ekologik ta’lim nafaqat nazariy, balki amaliy yo‘naltirilgan tizimga aylanishi mumkin.

Ekologik tafakkurni rivojlantirish samaradorligi quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq:

- ta’lim mazmunining ekologik yo‘naltirilganligi;
- o‘qituvchining innovatsion kompetensiyasi;
- o‘quv muhitining ekologiklashtirilganligi;
- maktab, oila va jamiyat hamkorligining integratsiyasi.

Mazkur omillar uyg‘unligi ekologik ta’limning barqaror natijalarini ta’minlaydi hamda o‘quvchilarda ekologik mas’uliyatli xulq-atvorni shakllantiradi. Shu bilan birga, ekologik tafakkurni rivojlantirish jarayonida uzluksizlik va izchillik tamoyillariga amal qilish zarur. Ya’ni ekologik ta’lim faqat alohida darslar doirasida emas, balki barcha fanlar integratsiyasi asosida olib borilishi lozim. Bu yondashuv o‘quvchilarda yaxlit ekologik dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirish ko‘p omilli va tizimli pedagogik jarayon hisoblanadi. Uni samarali tashkil etish innovatsion yondashuvlardan kompleks foydalanishni talab etadi. Interfaol metodlar, STEAM integratsiyasi, raqamli texnologiyalar va loyiha faoliyati o‘quvchilarning nafaqat ekologik bilimlarini, balki ularning mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va mas’uliyatli qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Natijada ekologik tafakkurga ega, tabiatga ongli munosabatda bo‘ladigan va barqaror rivojlanish g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlaydigan shaxsni shakllantirish imkoniyati yuzaga keladi. Mazkur tadqiqot natijalari ekologik ta’limni takomillashtirishda tizimli yondashuv zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Xususan, boshlang‘ich ta’lim bosqichida ekologik tafakkurni rivojlantirish o‘quvchilarning keyingi ta’lim bosqichlarida ham muvaffaqiyatli ekologik faoliyat olib borishiga zamin yaratadi.

Shu bilan birga, ekologik ta’lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini muntazam oshirib borish hamda oila va jamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish muhim strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Kelgusida ekologik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan metodik ishlanmalarni boyitish, amaliy tajribalarni kengaytirish hamda ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni chuqur integratsiya qilish ushbu sohadagi ilmiy izlanishlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Murtozayeva M.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish. – Toshkent: Fan, 2010.
2. Muslimov N.A. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent, 2015.
3. Davis J., Elliott S. Research in Early Childhood Environmental Education. – Routledge, 2014.
4. Wilson R.A. Nature and Young Children. – Routledge, 2018.
5. Nagel M. Environmental Education in Early Childhood. – Springer, 2020.
6. Abdullayeva Q. Ekologik tarbiya asoslari. – Toshkent, 2020.
7. Xoliqova N. Ekologik madaniyatni shakllantirish metodlari. – Toshkent, 2021.
8. UNESCO. Education for Sustainable Development: A Roadmap. – Paris, 2020.
9. OECD. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. – 2017.
10. Sayfullayev G., Jurayeva I. Ekologik ta’limda innovatsion yondashuvlar. – 2025.
11. Ergashmirzayeva M. Ekologik ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – 2025.

O‘QUVCHILAR BILIMLARINI NAZORAT QILISHNING DIDAKTIK XUSUSIYATLARI

Raximova Shahodat Azadovna
TDIU dotsent Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchilarning o‘quvchilik darajalarini tashxislash va nazorat qilishning didaktik xususiyatlari, metodlari, prinsiplari, tarkibiy qismlari, bu sohadagi o‘ziga xos yondashuvlar, mazkur jarayonda o‘qituvchining tutgan o‘rni ochib berilgan. Tashxislash va nazorat qilishning o‘quvchilarni rivojlantirish, o‘quv jarayoni samaradorligini ta’minlash imkoniyatlari bayon etilgan. O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalari, ularning tamoyillari va mohiyati, tekshirish tizimining tarkibiy qismlari ifodalangan.

Kalit so‘zlar: *tashxislash, baholash, nazorat qilish, o‘quvchi, o‘qituvchi, ochiqlik, didaktik jarayon, tekshirish, umumlashtirish, qiyoslash, baholash prinsiplari, tashxislash metodlari, nazorat vositalari.*

Tashxislash o‘z ichiga didaktik jarayonning amalga oshishini qamrab oladi, uning natijalarini oydinlashtirishga xizmat qiladi. O‘quvchilarning o‘quvchilik darajalarini, ya’ni didaktik jarayon oqibatlarini tashxislash ularning o‘quvchilik darajasi va erishilgan yutuqlarini oydinlashtirish imkonini beradi. O‘quvchilarning tashxislash jarayonida maqsadni amalga oshirish natijasi sifatida ham baholanadi. Didaktik tashxislashning maqsadi o‘quv jarayonining borishi, uning mahsuldorligi, o‘quvchilarning o‘quvchilik darajalarini o‘z vaqtida aniqlashdan iborat. Nazorat qilish, bilimlarni baholash, o‘quvchilik ko‘nikmalarining darajalarini aniqlash tashxislashning zaruriy tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quvchilar o‘zlashtirish darajalarini nazorat qilish va baholash didaktik jarayonning tarkibiy qismi sifatida ularni rivojlantirishga xizmat qiladi.

O‘qituvchilar o‘zlarining baholash faoliyatlarini ongli va ob’ektiv tarzda yondashishlari kerak. O‘quvchilarning bilimlarini nazorat qilishda ob’ektiv yondashish o‘qituvchining insonparvarlik talablariga amal qilishini taqozo etadi. Demokratiya prinsiplariga asoslangan holda tashkil etiladigan didaktik jarayonlarda nazorat ijobiy tarzda amalga oshirilishi mumkin emas.

Didaktik nazorat o‘qituvchining o‘ziga xos metodi sifatida o‘quvchilarning o‘quvchilik darajasini aniq ifodalashga xizmat qilishi kerak. U birinchi navbatda o‘quvchilarning o‘zlari uchun zarur va foydali bo‘lib, o‘z-o‘zini nazorat qilish bilan chambarchas bog‘lanishi lozim. Nazorat qilish, o‘quvchilar malakalarini aniqlash maqsadida tekshirish imkonini beradi. Tekshirish nazoratning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning asosiy didaktik vazifasi o‘qituvchi hamda o‘quvchilar orasida teskari aloqani, o‘qituvchining o‘quv materialining o‘zlashtirilganlik darajasi haqida ob’ektiv ma’lumot olishi, ular bilimlaridagi bo‘shliqlar va etishmovchiliklarni o‘z vaqtida aniqlashdan iborat. Tekshirish nafaqat o‘quvchilarning o‘quvchilik darajasini va sifatini aniqlashdangina iborat emas, balki o‘quv mehnatining ko‘lamini ham ifodalashga xizmat qiladi.

O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalarini baholashda asosiy o‘rinni nazoratning natijasi egallaydi. Bunda o‘quvchilar ishining sifati va miqdor ko‘rsatkichlari hisobga olinadi. Miqdor ko‘rsatkichlar muayyan ballar yoki foizlar bilan ifodalanadi, sifat ko‘rsatkichlari esa baholovchi hukmlar asosida aniqlanadi. Har bir baholovchi hukm aniq, oldindan kelishilgan ballar

ko‘rsatgichlar yoziladi. Shuningdek, o‘lchash va hisoblash natijasida aniqlanganraqamli ko‘rsatgich emas, balki baholash hukmlarini va mohiyatini yozishdir .

O‘quvchilar o‘qimishlilik darajasining miqdoriy ko‘rsatkichlari, o‘zlashtirishning bahosi, o‘zlashtirilgan bilimlar, ko‘nikmalarning ko‚lami, o‘zlashtirish uchun taqdim etilgan bilim, ko‘nikmalarning to‘liq hajmi orasidagi aloqadorlikni ifodalaydi. Mazkur mezonlar asosida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalarini baholashuchun taqdim etilgan hamda o‘zlashtirilgan axborotlarning ko‘lamini o‘lchash lozim. Bu vazini o‘qituvchi eng qulay texnologiyalarni qo‘llash orqali yechishi mumkin. Bahoning vazifasi faqatgina o‘zlashtirish natijasini qayd qilish bilan chegaralanmaydi. Baholash o‘quvchilarni o‘qishga yo‘naltiruvchi, ularda ijobiy mayllarni hosil qiluvchi, shaxsni tarbiyalovchi o‘qituvchi o‘quv jarayonida faol ishtirok etadi. Aynan o‘quvchilarni ob’ektiv baholash orqali ularda mos tarzda o‘z-o‘zini baholash, muvaffaqiyatsizliklarga nisbatan tanqidiy munosabat vujudga keltiriladi. Shuning uchun ham bahoning mohiyati, vazifalari turli-tumanligi uning o‘ziga xos ko‘rsatkichlarini aniqlash zaruratini qo‘yadi. Bu ko‘rsatkichlar o‘quvchilar bilim darajalarini, ularning sifati va hajmini aniqlashga xizmat qiladi. Xuddi mana shu zaruratdan kelib chiqqan holda bugungi kunga mazkur baholash tizimining turli tashxislash imkoniyatlarini kengaytirish yo‘llari nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab taqozo etilmoqda.

O‘quvchilarning o‘qmishlilik darajalarini tashxislash va nazorat qilishning muhim prinsiplariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. O‘quvchilarning o‘qimishlilik darajalarini tashxislash va nazorat qilishning tizimliligi-didaktik jarayonining barcha bosqichlarida mazmun mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash; o‘qituvchining barcha ta’lim oluvchilarga bir xil, do‘stona munosabatda bo‘lishiga erishish, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikmalarining aniq, mos ravishda yoritilgan mezonlar asosida baholanishini ta’minlash.
2. O‘quvchilarning o‘qimishlilik darajalarini tashxislash va nazorat qilishning tizimliligi-didaktik jarayonning barcha bosqichlarida tashxislashga asoslangan nazoratning amalga oshirilishidan namoyon bo‘ladi. Mazkur jarayon bilimlarni dastlabki idrok etishdan boshlab, uni amalda qo‘llashga qadar bo‘lgan didaktik harakatlarni qamrab oladi. O‘quvchilarning o‘qimishlilik darajalarini tashxislash va nazorat qilishning tizimliligi ularning butun ta’lim jarayonidagi uzluksiz harakatlarini tashxislash va nazorat qilishni nazarda tutadi.

Ta’lim jarayonida nazorat quyidagi tarkibiy qismlarga bo‘lingan holda amalga oshirilishi kerak. Shundagina ta’lim oluvchilar bilishlari va bajara olishlari zarur bo‘lgan barcha ko‘rsatkichlarning ishonchli tarzda aniqlanish imkoniyati yaratiladi. O‘quvchilarning o‘qimishlilik darajalarini tashxislash jarayonida yaxlit tarzda yondashish imkonini beriladi. Bu jarayonda nazorat qilish metodlari, shakllarining rang-barang ko‘rinishlari, tekshirishlar, baholash harakatlari o‘zaro chambarchas aloqadorlikda amalga oshiriladi. Bunday yondashuv tashxislashning ayrim metodlari va vositalari umumiyligini inkor qiladi.

3. O‘quvchilarning o‘qimishlilik darajalarini tashxislash va nazorat qilishning ko‘rgazmaliligi barcha ta’lim oluvchilarning yagona mezon asosida ochiq tarzda sinovdan o‘tkazilishni reytingi ko‘rgazmalilik, ochiqlik xarakteriga ega bo‘lib, ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajalarining o‘zaro qiyoslash imkonini beradi.
4. O‘quvchilarning o‘qimishlilik darajalarini tashxislash va nazorat qilishning ochiqligi prinsipi ham bahoning ochiqligi va dalillarga asoslanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Baho o‘qituvchining ob’ektivligi va o‘quvchilar oldiga qo‘yilgan talablar ular tomonidan anglanishga ko‘maklashadi..

Tekshirish tizimi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

a) o‘quvchilarning bilim darajalarini oldindan aniqlash; bu jarayon o‘quv yili boshida amalga oshiriladi. O‘quvchilarning bilim darajalari aniqlanib, o‘quv yili davomida ularga singdiriladigan ta’lim mazmunining elementlari oydinlashtiriladi. Oldindan amalga oshirilgan tekshirishlar o‘quvchilarning bilimlaridagi bo‘shliqlarni aniqlab, ularni kompensatsiya qilish imkoniyatlarini izlashga yo‘naltiriladi. Bunday tekshirishlar nafaqat o‘quv yili boshida, balki o‘quvchilarni aqliy jihatdan rivojlanish darajalarini aniqlash maqsadida o‘quv dasturining yangi bo‘limini boshlashdan oldin ham o‘tkazilishi mumkin.

b) o‘quvchilar bilimini joriy tekshirish har bir mavzusi o‘rganilgandan so‘ng amalga oshiriladiJoriy tekshirish, asosan, ta’limiy vazifani bajarishga yo‘naltirilgandir. Mazkur tekshirishning metodlari va shakllari turli tuman bo‘lishi mumkin. Ular o‘quv materiallarining mazmuni, murakkabligi, o‘quvchilarning yoshi, tayyorgarlik darajalari, o‘qitishning maqsad va darajasi, aniq shart-sharoit kabi pedagogic omillarga bog‘liq holda tanlanadi.

b) o‘quvchilar bilim va ko‘nikmalarini takroriy tekshirish joriy nazorat kabi mavzuviy xarakterga ega bo‘lishi kerak. Takroriy tekshirishlar o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlaydi, biroq o‘quv faoliyati dinamikasini tasvirlash imkonini bermaydi. Bunday tekshirishning samaradorligi shundaki, tashxislashning boshqa ko‘rinishlari va metodlari bilan uyg‘unlashtirilishida namoyon bo‘ladi.

g) o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikmalarini davriy tekshirish o‘quv kursi bo‘limlari yoki undagi alohida ahamiyatga ega bo‘lgan mavzularning maqsadidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bunday tekshirishning maqsadi – o‘quvchilar o‘zlashtirish darajalarini tashxislash, o‘quv materiallari tarkibiy qismlari orasidagi uyg‘unlikni ta’minlash, o‘quv kursining turli bo‘limlarida o‘rganilayotgan bilimlarning o‘zlashtirish maromini oldindan ko‘zda tutish va xulosalardan iborat. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi tizimlashtirish va umumlashtirishdir.

d) yakuniy nazoratning maqsadi o‘quvchilarning didaktik jarayonning barcha bosqichlarida o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikmalari hisobga olishdan iborat. O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajalarini yakuniy hisobga olish har bir chorak va o‘quv yili yakunida amalga oshiriladi.

Tashxislashning maxsus turi kompleks (yaxlit tarzdagi) tekshirish hisoblanadi. Bunday nazorat yordamida o‘quvchilarning layoqatlari, turli o‘quv predmetlari doirasida o‘zlashtirgan bilimlari, ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llashlari, amaliy vazifalarni yecha olish darajalari tashxislanadi. O‘qituvchi o‘quvchi tomonidan bajarilgan ishlarni obyektiv, aniq baholash tajribasiga ega bo‘lishi kerak. Shu bilan bir qatorda u har doim o‘quvchilarga nima uchun, qanday baho qo‘yilishini tushuntirishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Джураев Р.Х. Содержание и структура концепции непрерывной профессиональной подготовки // Образование через всю жизнь: проблемы становления и развития непрерывного образования: Материалы докл. И сообsh.участников междунар.конф. (СанктПетербург, 4-5 июня 2002 г.)/ под ред. Н.А.Лоюанова и В.Н.Скворцова. – СПб.: изд-во Файндер, 2002. – С 11-18

2. Джураев Р.Х., Цой М.Н., Данияров Б.Х., Гайер Т.В. Интерактивный комплекс в образовательном процессе: Монография. -Т.: Шарк, 2011. - 267 с.
3. Дударева Л.Н. Гуманитаризация процесса повышения квалификации учителя в ИПК: Атвореферат дисс. … канд. пед. наук. – Алтайский государственный университет. – Новосибирск, 2000. – 22с.
4. Yo‘ldoshev J. G‘., Usmonov S. A. Pedagogik texnologiya asoslari. Qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 2004. – 104 b.
5. Yo‘ldoshev J., Yo‘ldosheva F., Yo‘ldosheva G. Interfaol ta’lim sifat kafolati. – T.: «Fan», 2008. -81-b.
6. Калинкин Е.В. Высшая школа в системе непрерывного образования. – М.: Высшая школа., 1990. – 144с.
7. Кан-Калик В.А., Никандров Н.Д. Педагогическое творчество. – М.,1990. – 144с.
8. Кармаев А.А. Система освоения студентами механизма реализации личностно ориентированного образовательного процесса. Обшепедагогический аспект: Дисс. … канд. пед. наук. – Саратов, 1999. – 190с.
9. Касьян А.А. Гуманитаризация образования: некоторые теоретические предпосылки // Педагогика. – 1998. - № 2. - С. 22.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING LINGVISTIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI, STRATEGIYALARI VA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Kamolova Mashhura Otabek qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
elektron pochta: kamolovamashhura55@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur tezisda bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvistik kompetentligini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgaligida lingvistik kompetentlik muhim omil sifatida qaralib, uni shakllantirish va rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish masalalari yoritiladi.*

Tadqiqot jarayonida lingvistik kompetentlikning tarkibiy komponentlari, uning tuzilishi hamda rivojlanish bosqichlari aniqlashtiriladi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvistik kompetentligini rivojlantirishda madaniyatlararo yondashuv, kommunikativ metodlar va interaktiv ta’lim texnologiyalarining o‘rni asoslab beriladi.

Tezisda lingvistik kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan samarali strategiyalar, metodlar va mexanizmlar ishlab chiqilib, ularni amaliyotga joriy etish yo‘llari taklif etiladi. Tadqiqot natijalari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini oshirish hamda ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Lingvistik kompetentlik, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuv, kommunikativ metod, interaktiv ta’lim, madaniyatlararo yondashuv, kasbiy kompetentlik, ya’lim samaradorligi*

Asosiy qism. Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirishda bo‘lajak o‘qituvchilarning nafaqat fan sohasidagi bilimlari, balki ularning lingvistik kompetentligi ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 – yil 20 – yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi hamda uni 2020 – 2030 – yillarda amalga oshirish davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 34 – sonli qarori misol bo‘la oladi. Ushbu qaror nafaqat tilning jamiyatdagi o‘rnini balki ta’lim tizimida tilni o‘qitish metodikasini takomillashtirish, o‘qituvchilarning davlat tilida professional muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish va ta’lim sifatini oshirish kabi masalalarni o‘z ichiga oladi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun “pedagogik nutq” tushunchasi asosiy terminlardan biri hisoblanadi. Bu o‘qituvchi nutqining mantiqiyligi, aniqligi va ta’sirchanligi kabi lingvistik kompetentlikning negizini tashkil etadi. Bunday ma’lumotlar o‘zbek tilshunosligi sohasidagi eng yirik olimlardan biri, pedagog – olim, filologiya fanlari doktori, professor Mahmudov Nizomiddinning “O‘qituvchi nutq madaniyati” asarlarida berilgan.

Pedagogik texnologiyalr jarayonida ta’lim samaradorligini oshirishning innovatsion modellari N.Muslimov va hammualliflarining tadqiqotlarida atroflicha asoslab berilgan. Ushbu kitob bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va ularning zamonaviy ta’lim jarayonidagi o‘rnini belgilab berishda fundamental ahamiyatga ega.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvistik kompetentligini shakllantirishda xalqaro standartlar, xususan, Yevropa Kengashining CEFR (Common European Framework of Reference) yonashuvlaridan foydalanish til ta’limi sifatini oshirishning samarali mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Lingvistik kompetentlik tushunchasi ilk bor Noam Chomsky tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, u til egasining grammatik qoidalarni bilishi va ulardan foydalanish qobiliyatini anglatadi. Keyinchalik Dell Hymes ushbu tushunchani kengaytirib, kommunikativ kompetentsiya nazariyasini ishlab chiqqan va tilni real muloqot jarayonida qo‘llash muhimligini ta’kidlagan. Zamonaviy pedagogikada lingvistik kompetentlik quyidagi tarkibiy qismlardan iborat deb qaraladi: fonetik, leksik, grammatik va stilistik kompetentsiyalar. Ushbu komponentlar o‘zaro uzviy bog‘liq holda rivojlanadi.

1. Metodologik asoslar.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish quyidagi metodologik yondashuvlarga asoslanadi:

- Komptentsiyaviy yondashuv – bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llashga yo‘naltirilgan;
- Kommunikativ yondashuv – tilni muloqot vositasi sifatida o‘rgatisgni nazarda tutadi;
- Kognitiv yondashuv – til o‘rganishni tafakkur jarayoni bilan bog‘laydi;
- Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv – talabalarni ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi.

2. Rivojlantirish strategiyalari.

Lingvistik kompetentlikni rivojlantirishda quyidagi strategiyalar samarali hisoblanadi:

- Differensial yondashuv – talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish;
- Muammoli ta’lim strategiyasi – muammoli vaziyatlar orqali mustaqil fikrlashni rivojlantirish

- Refleksiv strategiya – o‘z – o‘zini baholash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish;
- Integrativ yondashuv – tilni o‘rganishni boshqa fanlar bilan uyg‘unlashtirish.

3. Innovatsion texnologiyalar.

Zamonaviy ta’limda lingvistik kompetentlikni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar muhim o‘rin tutadi:

- Axborot – kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) – multimedia vositalari, electron resurslar;
- Blended learning – an’anaviy va onlayn ta’limni uyg‘unlashtirish;
- Flipped classroom – nazariy bilimlarni mustaqil o‘zlashtirish va darsda amaliyotga e’tibor qaratish;
- Gamification – o‘yin elementlari orqali motivatsiyani oshirish.

Amaliyotda Quizlet va Kahoot! Kabi platformalardan foydalanish talabalar faolligini sezilarni darajada oshiradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvistik kompetentligini rivojlantirishda kompetentsiyaviy va kommunikativ yondashuvlarni izchil qo‘llash, shuningdek zamonaviy AKT vositalari, jumladan, Quizlet va Kahoot! platformalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, o‘quv jarayonida differensial yondashuv va refleksiya mexanizmlarini joriy etish lingvistik kompetentlikni rivojlantirish samaradotligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon murakkab va ko‘p bosqichli bo‘lib, u zamonaviy metodologik yondashuvlar, samarali strategiyalar hamda innovatsion texnologiyalar uyg‘unligida amalga oshirilgandagina yuqori natijaga erishish mumkin. Ushbu jarayon o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga va ta’lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 – yil 20 – yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini hamda uni 2020 – 2030 – yillarda amalga oshirish davlat dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 34 – sonli qarori.// Qonunchilik ma’lumotlari bazasi, 21.01.2020 – y.,09/20/34/0073 – son.
2. Mahmudov N. O‘qituvchi nutq madaniyati. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2007. – 128b.
3. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: “Sano – Standart”, 2015. – 208 b.
4. Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion volume. Strasbourg: Council of Europe Publishing
5. Chomsky, N. (1965). Aspects of the theory of syntax. Cambridge, MA:MIT Press.
6. Hymes.D. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds)

“MASOFAVIY TA’LIM VA UNING AHAMIYATI”

Davlatmurodova Farangiz SHavkat qizi
Termiz davlat universiteti Pedagogika va Ijtimoiy ish fakulteti
Kutubxona va axborot faoliyati yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada masofaviy ta’limning zamonaviy jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Ta’limning ushbu shakli texnologik rivojlanish va pandemiya davrida qanchalik muhim bo‘lib qolgani yoritiladi. Maqolada masofaviy ta’limning afzalliklari, kamchiliklari va uning an’anaviy ta’lim bilan uyg‘unligi o‘rganilgan. Shuningdek, uning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari haqida xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *masofaviy ta’lim, raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar, interaktivlik, mustaqil o‘qish.*

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarga olib keldi. Ayniqsa, 2020-yilda boshlangan COVID-19 pandemiyasi masofaviy ta’limni nafaqat muqobil, balki zaruriy shaklga aylantirdi. Masofaviy ta’lim - bu o‘qituvchi va talabaning fazoviy jihatdan ajralgan holda, axborot texnologiyalari vositasida o‘zaro hamkorlik qilishiga asoslangan ta’lim shaklidir. U an’anaviy ta’limning ba’zi kamchiliklarini bartaraf etish bilan birga, yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Bugungi kunda ko‘plab nufuzli universitetlar va maktablar masofaviy ta’lim platformalaridan faol foydalanmoqda. Shu sababli, masofaviy ta’limning ahamiyatini, uning afzalliklari va kelajakdagi rolini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir.

Ushbu maqolada masofaviy ta’lim mavzusidagi ilmiy manbalar keng tahlil qilindi. Avvalo, UNESCO (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha agentligi) tomonidan 2020-2022 yillarda chop etilgan “Global education monitoring report” hisobotlari asosiy nazariy manba bo‘lib xizmat qildi. Unda pandemiya davrida 190 dan ortiq mamlakatlarda 1,6 milliarddan ortiq o‘quvchi masofaviy ta’limga o‘tgani qayd etilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining 2021 yilgi “Masofaviy ta’limni tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalari” amaliy qo‘llanma sifatida tahlilga tortildi. Tahlil metodologiyasida tizimli yondashuv asosiy o‘rinni egalladi. Ya’ni, masofaviy ta’lim o‘z ichiga texnik, pedagogik, psixologik va ijtimoiy tarkibiy qismlarni olgan murakkab tizim sifatida qaraldi. Taqqoslash usuli yordamida an’anaviy (auditoriyadagi) ta’lim va masofaviy ta’limning samaradorligi, o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish darajasi, o‘qituvchi bilan muloqot sifati kabi parametrlar bo‘yicha solishtirildi. Buning uchun Turkiya, Janubiy Koreya, AQSh va O‘zbekiston misolida qiyosiy tahlil o‘tkazildi. Natijada, masofaviy ta’lim o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati yuqori bo‘lgan talabalar uchun juda samarali ekani, ammo boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun aralash (blended) ta’lim shakli ko‘proq mos kelishi aniqlandi. Statistik usuldan foydalanib, O‘zbekistonda 2020-2024 yillar oralig‘ida o‘tkazilgan so‘rovnomalar natijalari tahlil qilindi. Unda 500 nafar talaba va o‘qituvchi ishtirok etgan. So‘rov natijalariga ko‘ra, respondentlarning 68 foizi masofaviy ta’lim vaqtni tejash imkonini berishini, 54 foizi esa uydan turib o‘qish qulayligini afzallik deb bilgan. Biroq, respondentlarning 47 foizi internet sifatining pastligi, 41 foizi esa kompyuter yoki noutbukning yetishmasligi kabi muammolarni qayd etgan. Ushbu statistik ma’lumotlar mavzuning dolzarbligini real raqamlar bilan asoslashga xizmat qildi. Pedagogik metodlardan - kuzatish va intervyu usullaridan ham foydalanildi. Toshkent shahridagi

bir nechta maktab va universitetlarda masofaviy darslar kuzatilib, ularning samaradorligi baholandi. O‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan intervyular natijasida masofaviy ta’limda o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish qiyinligi, lekin individual yondashuv imkoniyatlari ortishi kabi jihatlar aniqlandi. Shuningdek, kontent-tahlil usuli yordamida Zoom, Microsoft Teams, Moodle, Google Classroom kabi platformalar funksiyalari solishtirildi. Moodle platformasining ochiq kodliligi va moslashuvchanligi uni universitetlar uchun eng qulay qilishini, Zoom esa boshlang‘ich sinflar uchun interfaol darslar o‘tishda qulayroq ekani tahlil qilindi. Metodologiyada tarixiy-genetik usul ham qo‘llanildi: masofaviy ta’limning paydo bo‘lishi (XIX asr oxiri - sirtqi ta’lim, keyin radio va televideniye orqali o‘qitish) va uning hozirgi holatgacha bo‘lgan evolyutsiyasi o‘rganildi. Bu esa masofaviy ta’limning texnologiya bilan qanchalik bog‘liq ekanini ko‘rsatdi. Muammoli yondashuv usuli orqali esa masofaviy ta’limdagi asosiy muammolar - raqamli tengsizlik, o‘quvchilarning izolyatsiyasi, baholashning ob’ektivligi - tahlil qilindi va ularni yechish yo‘llari taklif etildi. Masalan, raqamli tengsizlikni kamaytirish uchun davlat tomonidan imtiyozli internet tariflari va arzon gadjetlar yetkazib berish dasturlari tavsiya qilindi. Maqolada interdisiplinar metod ham qo‘llanilib, psixologiya va sotsiologiya sohalariga oid adabiyotlar tahlil qilindi. Masofaviy ta’limda o‘quvchilarda yolg‘izlik hissi kuchayishi, ijtimoiy ko‘nikmalarning pasayishi mumkinligi haqidagi xulosalar psixologik tadqiqotlar asosida asoslandi. Shu bilan birga, masofaviy ta’lim introvert (ichkari) shaxs tipidagi o‘quvchilar uchun qulayroq ekani ham aniqlangan. Ushbu metodologik yondashuvlar majmui maqolaning ilmiy asoslangan, ishonchli va amaliy ahamiyatga ega bo‘lishini ta’minladi. Masofaviy ta’lim - o‘qituvchi va talaba bir joyda bo‘lmagan holda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali bilim olish imkonini beruvchi ta’lim shakli. Masofaviy ta’lim internet, elektron platformalar, video-darslar, virtual sinflar va masofaviy baholash tizimlariga tayanadi. Masofaviy ta’lim pandemiyadan so‘ng butun dunyoda keng rivojlandi va bugungi kunda oliy ta’lim, maktab ta’limi hamda malaka oshirish tizimining muhim qismiga aylangan. Masofaviy ta’limning asosiy belgisi - ta’lim jarayonining vaqt va makonga bog‘liq bo‘lmagan holda tashkil etilishidir. Talabalar kompyuter, telefon yoki planshet orqali darslarga qatnashishi, topshiriqlarni bajarishi va baholanishi mumkin. Birlamchi model. Ushbu model faqat masofaviy o‘quvchilar bilan ishlash uchun yaratiladi. Ularning har bittasi virtual o‘qituvchiga biriktirilgan bo‘lishadi. Konsultatsiyalar va yakuniy nazoratlarni topshirish uchun esa regional bo‘limlar bo‘lishi shart. Shunday o‘quv kurslarda o‘qituvchi va o‘quvchilarga o‘quv shaklini va formasini tanlashda katta imkoniyatlar va ozodliklar beriladi. Bu modelga misol qilib Buyuk Britaniyaning Ochiq Universitetidagi ta’limni olish mumkin. Ikkilamchi model. Ushbu model masofaviy va kunduzgi ta’lim o‘quvchilar bilan ishlash uchun yaratiladi. Ikkala guruhda bir xil o‘quv dasturi va darslar jadvali, imtihonlar va ularni baholash mezonlari mavjud. Shunday o‘quv muassasalarda kunduzgi kurslarning soni masofaviylarga qaraganda ko‘p. Ushbu masofaviy kurslar pedagogika va uslubiyotdagi yangi yo‘nalishlarni izlanishlarida qo‘llaniladi. Bu modelga misol qilib Yangi Angliya va Avstraliya universitetidagi ta’limni olish mumkin. Aralashgan model. Ushbu model masofaviy va kunduzgi ta’lim turlirini integratsiyalashtirish uchun yaratiladi. O‘quvchilar o‘quv kursning bir qismini kunduzgi, boshqa qismini esa masofadan o‘qiydi. Shu bilan birga bu ta’lim turiga virtual seminar, prezentatsiyalar va leksiyalar o‘tkazish ham kiradi. Bu modelga misol qilib Yangi Zelandiyadagi Massey Universitetidagi ta’limni olish mumkin. Konsorsium. Ushbu model ikkita universitetlarni bir biri bilan birlashini talab qiladi. Ushbu muassasalardan biri o‘quv kurslarni tashkil qilib ishini ta’minlasa, ikinchisi esa ularni tasdiqlab, kurslarga o‘quvchilarni ta’minlaydi. Shu bilan birga bu jarayonda butun universitet emas balki

bitta kafedra yoki markazi yoki universitet o‘rnida ta’lim sohasida ishlaydigan korxonalar ham qatnashishi mumkin. Ushbu modelda o‘quv kurslarni doimiy ravishda nazorat qilish va muallif huquqlarini tekshirish zarur bo‘ladi. Bu modelga misol qilib Kanadadagi Ochiq O‘quv Agentligidagi ta’limni olish mumkin. Franchayzing. Ushbu model ikkita universitetlar bir-biri bilan o‘zlari yaratgan o‘quv kurslar bilan almashishadi. Masofaviy ta’lim sohasida yetakchi bo‘lgan o‘quv muassasa bu sohada ilk qadam qo‘yadigan muassasaga o‘zining o‘quv kurslarni taqdim qiladi. Ushbu modelda ikkala muassasa o‘quvchilari bir xil ta’lim va diplomlar olishadi. Bu modelga misol qilib Ochiq Universitet Biznes maktabi va Sharqiy Yevropa Universi-tetlari bilan bo‘lgan hamkorligi bo‘lishi mumkin. Validatsiya. Ushbu model universitet va uning filiallari bilan bo‘lgan munosabatlariga o‘xshash. Bu modelda bitta universitet o‘quv kurs, diplomlarlarni kafolatlasa, qolgan bir nechta universitetlar o‘quvchilarni ta’minlaydi.Uzoqlashgan auditoriyalar. Ushbu modelda informatsion va kommunikatsion imkoniyatlar keng foydalaniladi. Bitta o‘quv muassasada bo‘lib o‘tgan o‘quv kurslar videokonferensiyalar, radiotranslyasiyalar va telekomunakatsion kanallar orqali sinxron teleko‘rsatuvlar ko‘rinishida boshqa auditoriyalarga uzatiladi. Aralashgan model bilan farqi shundaki, bu modelda o‘quvchilar kunduzgi ta’limda qatnashmaydi. Bu modelga misol qilib AQSHning Viskonsing Universitetidagi va Xitoyning Markaziy radio va televidenie Universitetidagi ta’limni olish mumkin. Proyektlar. Ushbu model davlat yoki ilmiy izlanish maqsadidagi dasturlarni bajarish uchun yaratiladi. Asosiy ish masofaviy ta’lim mutaxassislari va pedagoglar to‘plangan ilmiy-metodik markazga tushadi. Ushbu modelda yaratilgan kurslar aholining katta qismiga namoyish qilinib o‘z vazifasini bajargandan keyin to‘xtatiladi. Bu modelga misol qilib Afrika, Osiyo va Lotin Amerikadagi rivojlanmagan mamlakatlarida o‘tkazilgan qishloq xo‘jaligi, soliqlar va ekologiya haqidagi o‘tkazilgan har xil kurslar bo‘lishi mumkin. Masofaviy ta’limning yutuqlari va kamchiliklari. Masofaviy ta’limning o‘zini metodik, iqtisodiy, sotsial yutuqlari va afzalliklarga hamda o‘zining kamchiliklari va salbiy tomonlarga ega. Metodik yutuqlar va afzalliklarga quyidagilarni kiritish mumkin.

Xulosa. Masofaviy ta’lim zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi va uning ahamiyati pandemiyadan keyin ham pasaymagan. U vaqt va makon cheklovlarini bartaraf etib, har bir insonga sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratadi. Biroq, masofaviy ta’lim an’anaviy ta’limni to‘liq almashtira olmaydi; eng samarali natijalarga ularning uyg‘unlashgan shakli - aralash ta’lim orqali erishiladi. Masofaviy ta’limning rivojlanishi uchun internet infratuzilmasini yaxshilash va raqamli savodxonlikni oshirish dolzarb vazifadir. Kelgusida sun’iy intellekt va virtual reallik texnologiyalari masofaviy ta’limni yanada interfaol va shaxsiylashtirilgan qilish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. UNESCO. “Global Education Monitoring Report 2021: Inclusion and Education”. - Paris: UNESCO Publishing, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. “Masofaviy ta’limni tashkil etish bo‘yicha metodik tavsiyalar”. - Toshkent, 2021.
3. Abdullayeva M. “Masofaviy ta’lim: muammolar va yechimlar”. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
4. Anderson T., Dron J. “Three Generations of Distance Education Pedagogy”. - International Review of Research in Open and Distributed Learning, Vol. 12, No. 3, 2011. (o‘zbek tiliga tarjima qilingan qismlar asosida)

5. Karimov B. “Raqamli iqtisodiyot va masofaviy ta’limning rivojlanish istiqbollari”. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.
6. Hodges Ch. va boshq. “The Difference Between Emergency Remote Teaching and Online Learning”. - EDUCAUSE Review, 2020. (elektron resurs)
7. To‘rayeva N. “Masofaviy ta’lim psixologiyasi: talabalar va o‘qituvchilar uchun qo‘llanma”. - Samarqand: Zarafshon, 2021.
8. Rahmonov Sh. “O‘zbekistonda masofaviy ta’limning huquqiy asoslari va amaliyoti”. - Toshkent: Adolat, 2022.

SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL QILISHDA DIDAKTIK DUBLYAJ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Normuminova Dilobar Nuriddinovna
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
normominovadilobar@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda didaktik dublyaj texnologiyasidan foydalanishning nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Didaktik dublyaj o‘quvchilarning video va audio materiallarni ovozlashtirish jarayonida og‘zaki nutq, talaffuz, tinglab tushunish hamda ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik texnologiya sifatida qaraladi.*

Maqolada ushbu texnologiyaning mohiyati ochib berilib, xalqaro tadqiqotlar asosida uning nutqiy rivojlanishga ta’siri tahlil qilinadi. Xususan, didaktik dublyaj mashg‘ulotlarining o‘quvchilarning talaffuz aniqligi, nutq ravonligi va intonatsion ifodaliligini rivojlantirishdagi samaradorligi ilmiy manbalar bilan asoslangan.

Kalit so‘zlar: *didaktik dublyaj, sinfdan tashqari ishlar, og‘zaki nutq, talaffuz, nutq ravonligi, intonatsiya.*

Sinfdan tashqari ishlar ta’lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularning bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirish hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Biroq amaliyotda ushbu faoliyatlar har doim ham tizimli tashkil etilmaydi va o‘quvchilarning real qiziqishlariga to‘liq mos kelmasligi kuzatiladi. So‘nggi yillarda xorijiy pedagogikada sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning zamonaviy shakllaridan biri sifatida didaktik dublyaj texnologiyasiga murojaat qilish kengayib bormoqda.

Didaktik dublyaj – o‘quvchilarning og‘zaki nutq, talaffuz, tinglab tushunish va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadida video yoki audio materiallarni o‘quvchilarning o‘zi tomonidan ovozlashtirish jarayoni bo‘lib, u an’anaviy dublyajdan farqli ravishda ta’limiy maqsadga xizmat qiladi.

Xalqaro tadqiqotlar didaktik dublyaj texnologiyasining ta’lim jarayonidagi samaradorligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Xususan, Xie va Tse tomonidan 206 nafar 5-sinf o‘quvchilari ishtirokida o‘tkazilgan eksperimental tadqiqot natijalari dublyaj mashg‘ulotlari o‘quvchilarning talaffuz va nutq ravonligi ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaganini ko‘rsatadi [Xie, Tse, 2024].

Sanchez-Requena tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda dublyaj o‘quvchilarning spontan nutqidagi tezlik, intonatsiya va talaffuzni yaxshilashi aniqlangan [Sanchez-Requena, 2018.]. Tadqiqot jarayonida 47 nafar o‘rta maktab o‘quvchilari 12 hafta davomida dublyaj mashg‘ulotlarida ishtirok etgan bo‘lib, natijada ularning nutqiy faolligi oshgani qayd etilgan. Muallifning ta’kidlashicha, dublyaj o‘quvchilarga nutqiy to‘siqlarni yengishga yordam beradi hamda o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Nguyen dublyajning talaffuz, lug‘at boyligi, grammatika va nutq ravonligini kompleks tarzda rivojlantirishini aniqlagan [Nguyen, 2025: 125]. Shuningdek, Rozi tomonidan olib borilgan tadqiqotda dublyaj va rolli o‘yin elementlarining integratsiyasi o‘quvchilarning talaffuz ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilashi isbotlangan [Rozi, 2014: 55].

Didaktik dublyaj texnologiyasidan foydalanish o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish jarayonini tartibli va maqsadga yo‘naltirilgan holda tashkil etishni talab etadi. Mazkur model 5-sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlari hamda sinfdan tashqari faoliyat imkoniyatlarini hisobga olgan holda tuzilgan. Taklif etilayotgan faoliyat quyidagi asosiy tarkibiy qismlardan iborat: maqsadga yo‘naltirish, mazmunni tanlash, mashg‘ulotni tashkil etish va natijani aniqlash. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan “Dublyaj va notiqlik” moduli zamonaviy ta’lim talablari asosida, xususan P21 (Partnership for 21st Century Learning – XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan xalqaro ta’lim konsepsiyasi bo‘lib, u o‘quvchilarda zamonaviy hayot va kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi.) tizimining 4K (tanqidiy fikrlash, kreativlik, kommunikativlik, hamkorlik) hamda FILES (moslashuvchanlik, tashabbuskorlik, yetakchilik, samaradorlik, ijtimoiy muloqot) yo‘nalishlari uyg‘unligiga tayangan holda ishlab chiqildi Modul 10 ta mashg‘ulotni o‘z ichiga olib, 5-sinf o‘quvchilarining yosh va psixofiziologik xususiyatlariga mos tarzda tuzilgan. Har bir mashg‘ulot xalqaro tadqiqotlar natijalari asosida boyitilgan.

Masalan, 2-mashg‘ulot “Nutq texnikasi: nafas va artikulyatsiya” Sanchez-Requena tadqiqotiga tayangan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, unda dublyajdan oldin nafas va artikulyatsiya mashqlarini bajarish talaffuzni yaxshilashda muhim omil sifatida ko‘rsatilgan [Sanchez-Requena, 2018: 115]. 7-mashg‘ulot – “Kichik guruhlarda dublyaj” Jao va boshqalar tadqiqotiga asoslanadi. Mazkur tadqiqotda guruhli dublyaj mashg‘ulotlari nutqiy aniqlik va ravonlikni oshirishda samarali ekanligi aniqlangan [Jao, Yeh, Huang, Chen, 2022: 14].

Didaktik dublyaj texnologiyasining samaradorligini amaliy jihatdan ko‘rsatish maqsadida 5-sinf o‘quvchilari uchun sinfdan tashqari mashg‘ulot namunasi ishlab chiqildi.

Fan: Ona tili (sinfdan tashqari mashg‘ulot). Sinf: 5-sinf. Mavzu: Dublyaj olami: personajlar tahlili va empatiya

Maqsad: O‘quvchilarning multfilm qahramonlari xarakterini tahlil qilish hamda ularning hissiy holatiga mos ovoz ohangini tanlash orqali empatiya va nutqiy ifodalilik ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Mashg‘ulot yakunida o‘quvchilar: qahramon xarakterini aniqlay oladi (quvnoq, g‘amgin, qo‘rqoq, jasur va boshqalar); qahramonning hissiy holatiga mos ovoz ohangini tanlay oladi; qahramon nomidan 2–3 gapni to‘g‘ri intonatsiya bilan aytib bera oladi; guruhda ishlash va fikr bildirish ko‘nikmalarini namoyon etadi.

Jihozlar: Multimedia proyektori, ovozli va ovozsiz multfilm parchasi (30–40 soniya), qahramon tasvirlari tushirilgan kartochkalar, “empatiya xaritasi” shabloni, audio yozuv qurilmasi.

Darsning borishi. O‘quvchilar bilan salomlashiladi, darsga tayyorgarlik tekshiriladi. Mavzu va maqsad e’lon qilinadi.

O‘qituvchi: “Bugungi mashg‘ulotda biz multfilm qahramonlarining xarakterini tahlil qilamiz va ularning his-tuyg‘ularini ovoz orqali ifodalashni o‘rganamiz. Empatiya – bu boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunishdir.”

II. Yangi mavzu bayoni (15 daqiqa). 1-bosqich. Qahramon xarakterini aniqlash (5 daqiqa). O‘quvchilarga qisqa multfilm parchasi namoyish etiladi. Quyidagi savollar asosida suhbat o‘tkaziladi: Qahramon qanday kayfiyatda? Uning ovozi qanday? Nima uchun u shunday gapirayapti? Javoblar asosida qahramonlarning xarakteri aniqlanadi.

2-bosqich. Empatiya xaritasi bilan ishlash (10 daqiqa). O‘quvchilarga empatiya xaritasi taqdim etiladi. U quyidagi qismlardan iborat: nima ko‘radi, nima eshitadi, nima his qiladi, nima deydi. O‘quvchilar guruhlarda ushbu jadvalni to‘ldiradi.

3-bosqich. Ovoz ohangi ustida ishlash (10 daqiqa).O‘qituvchi bir xil jumlani turli kayfiyatda aytib beradi: quvnoq, g‘amgin, qo‘rqoq, g‘azabli. O‘quvchilar intonatsiyadagi farqlarni aniqlaydi.

III. Amaliy qism (20 daqiqa). 1-bosqich. Guruhlarda tayyorgarlik (5 daqiqa). O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruh: qahramon xarakterini aniqlaydi, empatiya xaritasini to‘ldiradi, ovoz ohangini tanlaydi.

2-bosqich. Ovoz yozish (10 daqiqa). O‘quvchilar video lavhani ovozlashtiradi. Talablar: ovoz qahramonga mos bo‘lishi, talaffuz aniq bo‘lishi, nutq ravon bo‘lishi.

3-bosqich. Eshitish va tahlil (5 daqiqa). Har bir guruh o‘z ishini taqdim etadi.

Quyidagi mezonlar asosida baholanadi: xarakterga moslik, intonatsiya, talaffuz, guruhdagi hamkorlik.

IV. Yakuniy qism (7 daqiqa). 1. Refleksiya (5 daqiqa). O‘quvchilar savollarga javob beradi. Qaysi qahramon qiyin bo‘ldi? Sizga nima yoqdi? Empatiya sizga qanday yordam berdi? 2. Uyga vazifa (2 daqiqa). Qahramon tanlash, empatiya xaritasini tuzish, 2–3 gapni ovozlashtirish.

Mazkur mashg‘ulot o‘quvchilarning: nutqiy ifodaliligi, talaffuz aniqligi, intonatsion madaniyati, muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi

Didaktik dublyaj texnologiyasini 5-sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini rivojlantirishda qo‘llash bo‘yicha olib borilgan nazariy tahlillar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

– Dublyaj mashg‘ulotlarini tashkil etishda o‘quvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish zarur;

– material tanlashda matnning o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lishi, dialoglarning qisqa (2–3 jumladan iborat) bo‘lishi hamda qahramonlar xarakterining aniq farqlanishiga e’tibor qaratish lozim;

– mashg‘ulotlarda guruhli ishlashni tashkil etish o‘quvchilarning hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda nutqiy ravonlikni oshirishga xizmat qiladi;

– dublyaj mashg‘ulotlarini muntazam ravishda (masalan, ikki haftada bir marta) o‘tkazish nutqiy ko‘nikmalarning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi [Pamungkas, 2019: 48];

– o‘quvchilarning ovoz yozuvlarini tinglash va tahlil qilish uchun alohida vaqt ajratish zarur. Bu orqali ular talaffuz va intonatsiyadagi kamchiliklarni mustaqil ravishda aniqlash imkoniga ega bo‘ladi;

– baholash jarayonida esa nafaqat yakuniy natija, balki o‘quvchining faol ishtiroki, hamkorligi va ijodiy yondashuvi ham hisobga olinishi lozim;

– Mashg‘ulotlar quyidagi bosqichlar asosida tashkil etilishi maqsadga muvofiq: tayyorgarlik (nafas, artikulyatsiya, intonatsiya mashqlari); matn tahlili (qahramon xarakterini aniqlash, empatiya asosida ishlash); dublyaj (ovoz yozish va tahrirlash); taqdimot va refleksiya (tinglash, tahlil qilish, baholash);

– o‘quvchilar motivatsiyasini oshirish maqsadida har chorakda “Eng yaxshi dublyaj” tanlovlarini tashkil etish hamda ularning ishlarini ommaviy axborot vositalari yoki ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilish tavsiya etiladi.

Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, didaktik dublyaj texnologiyasi o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Chiu Y. Can film dubbing projects facilitate EFL learners’ acquisition of English pronunciation? // British Journal of Educational Technology. – 2012. – Vol. 43, No. 1. – P. 24–27.

2.Fernandez-Costales A., Talavan N., Tinedo-Rodrrguez A. J. Didactic audiovisual translation in language teaching: Results from TRADILEX // Comunicar. – 2023. – Vol. 31, No. 77. – P. 21–32.

3.Jao C. Y., Yeh H. C., Huang W. R., Chen N. S. Using video dubbing to foster college students’ English-speaking ability // Computer Assisted Language Learning. – 2022. – P. 1–23.

4.Nguyen T. K. C. Perceptions of Video Dubbing as a Tool for Enhancing Speaking Skills // International Journal of AI in Language Education. – 2025. – Vol. 2, No. 3. – P. 117–136.

5.Rozi F. Role-play with dubbing technique to improve pronunciation // Journal of ELT Research. – 2014. – Vol. 3, No. 1. – P. 50–65.

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ГАРМОНИЧНЫХ СОЦИОМЕТРИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Абиева Юлдуз Абдумуталовна

старший преподаватель Кыргызско-Узбекского Международного университета им.Б.Сыдыкова (Ош, Кыргызстан)

Аннотация. *в статье рассматривается проблема экономического воспитания младших школьников как фактора формирования гармоничных социометрических отношений в образовательной среде. Раскрывается сущность экономического воспитания, его влияние на развитие межличностных отношений и социального взаимодействия учащихся. Особое внимание уделяется культурологическому подходу и его роли в формировании ценностных ориентаций и коммуникативных навыков. Приводится анализ научных подходов и практических методов, направленных на развитие позитивных отношений в системе «учитель–ученик».*

Ключевые слова: *экономическое воспитание, младшие школьники, социометрические отношения, культурологический подход, образовательная среда, межличностные отношения.*

Annotatsiya. *maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining iqtisodiy tarbiyasi ta’lim muhitida ijtimoiy-psixologik munosabatlarni shakllantirish omili sifatida ko‘rib chiqiladi. Iqtisodiy tarbiyaning mazmuni, uning o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga ta’siri tahlil qilinadi. Madaniy yondashuv asosida o‘quvchilarning qadriyatlari va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *iqtisodiy tarbiya, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, sotsiometrik munosabatlar, madaniy yondashuv, ta’lim muhiti.*

Abstract. t*he article examines economic education of primary school students as a factor in the formation of harmonious sociometric relationships in the educational environment. The essence of economic education and its impact on interpersonal relations are revealed. Special attention is paid to the cultural approach and its role in developing values and communication skills. The study highlights theoretical foundations and practical methods for improving teacher-student interaction.*

Keywords: *economic education, primary school students, sociometric relations, cultural approach, educational environment.*

Введение

Современные тенденции развития образования требуют формирования у младших школьников не только базовых знаний, но и социальных навыков, обеспечивающих успешное взаимодействие в коллективе. В этой связи особую актуальность приобретает проблема экономического воспитания, которое рассматривается как средство формирования культуры поведения, ответственности и взаимодействия.

Экономическое воспитание способствует развитию у учащихся понимания социальных ролей, ценностей труда и рационального поведения, что непосредственно влияет на характер их межличностных отношений [1]. В условиях начальной школы особую значимость приобретают социометрические отношения, отражающие структуру взаимодействия между учащимися и учителем.

Экономическое воспитание трактуется как процесс формирования у учащихся представлений о хозяйственной деятельности, финансовой грамотности и экономическом поведении [2]. По мнению исследователей, оно тесно связано с развитием личностных качеств, таких как ответственность, инициативность и способность к сотрудничеству.

Социометрические отношения отражают систему межличностных предпочтений и взаимодействий в коллективе. Согласно исследованиям, уровень этих отношений оказывает существенное влияние на психологический климат класса и эффективность учебного процесса [3]. Благоприятные социометрические связи способствуют формированию чувства принадлежности к группе и повышают мотивацию учащихся к обучению. В то же время низкий уровень принятия в коллективе может приводить к изоляции отдельных детей и снижению их учебной активности. Поэтому целенаправленная работа по развитию позитивных межличностных отношений является важным условием успешной образовательной среды.

Культурологический подход позволяет рассматривать экономическое воспитание через призму ценностей, норм и традиций, что способствует формированию гармоничной личности учащегося [4]. Он обеспечивает интеграцию экономических знаний с духовно-нравственным развитием, формируя у детей ответственное отношение к труду, ресурсам и результатам собственной деятельности. Кроме того, данный подход способствует

развитию у младших школьников способности осмысленно воспринимать экономические явления в контексте культуры и социальной среды.

Экономическое воспитание формирует у младших школьников навыки сотрудничества, распределения ресурсов и коллективного принятия решений. Эти навыки являются основой для развития позитивных социометрических связей в классе.

В процессе экономических игр, проектной деятельности и моделирования жизненных ситуаций учащиеся учатся взаимодействовать, договариваться и учитывать интересы других [5]. Это способствует снижению конфликтности и формированию доверительных отношений. Дополнительно у детей формируются навыки принятия совместных решений и распределения ответственности в группе. В результате развивается способность к сотрудничеству и повышается уровень социальной адаптации в коллективе.

Особую роль играет учитель, который выступает организатором образовательной среды и примером экономически и социально грамотного поведения. Через педагогическое взаимодействие формируется культура общения и взаимоуважения [6].

Эффективное экономическое воспитание реализуется через следующие методы:

• игровые технологии (деловые и ролевые игры);
• проектная деятельность;
• коллективные обсуждения;
• решение проблемных ситуаций.

Например, организация «классного бюджета» позволяет учащимся на практике освоить навыки распределения ресурсов и принятия решений, что положительно влияет на их взаимодействие. Также важным является использование групповой работы, которая способствует развитию навыков коммуникации и взаимопомощи. Дополнительно такие формы работы развивают у учащихся чувство ответственности за общий результат и умение учитывать мнение каждого участника. Включение элементов рефлексии после выполнения заданий помогает детям осознавать собственный вклад и анализировать поведение в группе. Важно также создавать ситуации выбора, в которых учащиеся могут самостоятельно принимать решения и оценивать их последствия. Это способствует формированию экономического мышления и устойчивых моделей социального поведения.

Заключение

Таким образом, экономическое воспитание младших школьников выступает эффективным средством формирования гармоничных социометрических отношений в образовательной среде. Оно способствует развитию социальных навыков, формированию ценностных ориентаций и улучшению взаимодействия между участниками образовательного процесса. Применение культурологического подхода усиливает воспитательный потенциал экономического образования и обеспечивает формирование целостной личности учащегося. Перспективы дальнейших исследований связаны с разработкой методик интеграции экономического воспитания в образовательный процесс начальной школы.

Важным направлением является также внедрение интерактивных и практико-ориентированных методов обучения, способствующих активному включению учащихся в социально-экономические отношения. Особое значение приобретает подготовка педагогов к реализации задач экономического воспитания с учетом возрастных и психологических особенностей младших школьников. Необходимо учитывать влияние

цифровой образовательной среды на формирование экономического мышления и поведения детей. Кроме того, перспективным представляется проведение эмпирических исследований, направленных на выявление эффективности различных педагогических технологий в развитии социометрических отношений учащихся.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Анцупов А.Я. Конфликтология / А. Я. Анцупов. — М.: Питер, 2020. — 512 с.
2. Гришина Н.В. Психология конфликта / Н. В. Гришина. — СПб.: Питер, 2018. — 464 с.
3. Коломинский Я.Л. Психология взаимоотношений в малых группах / Я. Л. Коломинский. — М.: Просвещение, 2019. — 320 с.
4. Бондаревская Е.В. Культурологический подход в образовании / Е. В. Бондаревская. — Ростов н/Д: Феникс, 2017. — 256 с.
5. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения / В. В. Давыдов. — М.: Интеллект-Центр, 2018. — 352 с.
6. Выготский Л.С. Педагогическая психология / Л. С. Выготский. — М.: Педагогика, 2019. — 480 с.
7. Зимняя И.А. Педагогическая психология / И. А. Зимняя. — М.: Логос, 2020. — 384 с.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI MULTIMEDIYA TA’LIMI ORQALI PEDAGOGIK MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISH AHAMIYATI

Mashrabova Ma'mura Dilmurod qizi
Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida multimediya ta’lim texnologiyalarining pedagogik motivatsiyani shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamli asr talablaridan kelib chiqqan holda, an’anaviy ta’lim usullari bilan multimediya vositalarini integratsiyalashning psixologik-pedagogik jihatlari yoritilgan. Maqolada motivatsiyaning ichki va tashqi omillari, multimedianing kognitiv yukni kamaytirish hamda o‘quv jarayoniga qiziqishni oshirish mexanizmlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, interaktiv multimedia muhiti bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy o‘z-o‘zini anglash, ijodkorlik va axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali ularning pedagogik faoliyatga bo‘lgan intilishini sezilarli darajada oshiradi.*

Kalit so‘zlar: *multimediya ta’limi, pedagogik motivatsiya, bo‘lajak o‘qituvchi, raqamli kompetensiyalar, interaktiv usullar.*

KIRISH

XXI asr – axborot texnologiyalari va raqamli innovatsiyalar asri bo‘lib, ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarni talab etmoqda. Zamonaviy jamiyatda o‘qituvchidan nafaqat chuqur subject bilimga ega bo‘lish, balki axborot oqimlarini boshqarish, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish va o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘ota olish qobiliyati talab qilinadi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ularning pedagogik motivatsiyasini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir.

Pedagogik motivatsiya – bu o‘qituvchining kasbiy faoliyatga bo‘lgan ichki intilishi, uning mehnatiga bo‘lgan qiziqishi va mas’uliyat hissidir. Motivatsiyasi yuqori bo‘lgan o‘qituvchi nafaqat dars o‘tish, balki o‘quvchilarning shaxs sifatida rivojlanishiga ham hissa qo‘shadi. Biroq, an’anaviy ma’ruza va amaliy mashg‘ulot usullari ba’zan talabalarda passivlikni keltirib chiqaradi, zerikishga olib keladi va kasbiy qiziqishni susaytiradi.

Shu sababli, ta’lim jarayoniga multimediya texnologiyalarini joriy etish nafaqat o‘qitish sifatini yaxshilash, balki bo‘lajak o‘qituvchilarning motivatsion sohasini faollashtirish uchun ham muhim omil hisoblanadi. Multimediya (matn, grafika, audio, video va animatsiyalarning integratsiyasi) o‘quv materialini vizual va eshitish orqali qabul qilish imkonini berib, axborotni o‘zlashtirishni osonlashtiradi va jarayonni jozibador qiladi [1].

Maqolaning maqsadi – bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik motivatsiyasini rivojlantirishda multimediya ta’limining nazariy asoslarini ochib berish, uning psixologik ta’sir mexanizmlarini tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash samaradorligini asoslab berishdir.

Tadqiqot ob’ekti sifatida oliy pedagogik ta’lim jarayoni, predmeti esa multimediya texnologiyalarining bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik motivatsiyasiga ta’siri belgilangan.

Pedagogik motivatsiya tushunchasi va uning tuzilmasi

Motivatsiya – bu inson xulq-atvorini boshqaruvchi, uni ma’lum maqsad sari yo‘naltiruvchi ichki va tashqi kuchlar majmui. Pedagogik kontekstda motivatsiya o‘qituvchining kasbiy faoliyatga bo‘lgan munosabatini, uning mehnat unumdorligini va kreativligini belgilaydi. Psixologik adabiyotlarda motivatsiya ikki asosiy turga bo‘linadi: ichki motivatsiya va tashqi motivatsiya.

Ichki motivatsiya – bu faoliyatning o‘zidan zavqlanish, yangilikka intilish, bilim olish jarayonidan qoniqish hosil qilish. Bo‘lajak o‘qituvchi uchun ichki motivatsiya bolalar bilan ishlashga bo‘lgan muhabbat, pedagogik mahoratni oshirish istagi va kasbiy o‘sishga intilishdir. Ichki motivatsiyaga ega bo‘lgan o‘qituvchi qiyinchiliklarga bardoshli bo‘ladi va o‘z faoliyatida doimiy izlanishda bo‘ladi.

Tashqi motivatsiya – bu mukofotlar, maosh, lavozim o‘sishi, jamoatchilik e’tirofi yoki jazolardan qochish kabi omillar. Garchi tashqi motivatsiya qisqa muddatli natija bersa-da, uzoq muddatli kasbiy rivojlanish uchun ichki motivatsiya hal qiluvchi ahamiyatga ega [2].

Bo‘lajak o‘qituvchilarning motivatsion sohasi quyidagi komponentlardan iborat:

1. Kognitiv komponent: Kasbiy bilimlarga bo‘lgan ehtiyoj va qiziqish.

2. Emotsional komponent: Kasbga bo‘lgan ijobiy munosabat, g‘urur va qoniqish hissi.

3. Faoliyat komponent: O‘z ustida ishlash, dars ishlanmalarini tayyorlash va metodik yangiliklarni joriy etishga intilish.

An’anaviy ta’lim tizimida ko‘pincha tashqi motivatsiya (imtihon topshirish, diplom olish) ustunlik qiladi. Bu esa talabalarda "o‘qish majburiyati" hissini tug‘diradi, holos. Multimediya ta’limi esa aynan ichki motivatsiyani uyg‘otishga qaratilgan bo‘lib, o‘quv jarayonini qiziqarli, interaktiv va mazmunli qilish orqali talabaning faol ishtirokini ta’minlaydi.

Multimediya ta’limining mohiyati va didaktik imkoniyatlari

Multimediya ta’limi – bu axborotni turli shakllarda (matn, tasvir, ovoz, video, animatsiya) taqdim etish va ularni interaktiv boshqarish imkonini beruvchi ta’lim texnologiyasi. U shunchaki texnik vosita emas, balki yangi pedagogik yondashuvdir. Multimedianing didaktik imkoniyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Ko‘p kanalli qabul qilish: Inson miyasi axborotni ko‘rish (83%) va eshitish (11%) orqali asosan qabul qiladi. Multimediya ikkala kanalni bir vaqtda ishga solish orqali axborotni

o‘zlashtirish darajasini 70-80% gacha oshiradi. An’anaviy ma’ruzada bu ko‘rsatkich atigi 20% ni tashkil qiladi [3].

2. Interaktivlik: Talaba passiv tinglovchi emas, balki jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi. U simulyatorlar, testlar va virtual laboratoriyalar orqali mustaqil qaror qabul qiladi.

3. Vizualizatsiya: Murakkab pedagogik va psixologik jarayonlarni (masalan, bolaning nutq rivojlanishi bosqichlari yoki sinfda konfliktlarni boshqarish modellari) grafik va video shaklida tasvirlash tushunarli bo‘ladi.

4. Individualizatsiya: Har bir talaba o‘z tezligida o‘qishi, qiyin mavzularni qayta ko‘rib chiqishi va o‘ziga qulay uslubni tanlashi mumkin.

Bo‘lajak o‘qituvchilar uchun multimediya nafaqat o‘rganish vositasi, balki kelajakda o‘zlari qo‘llaydigan pedagogik quroldir. Ularning multimediya bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish orqali ularning kasbiy o‘ziga ishonchi ortadi, bu esa motivatsiyani bevosita oshiradi.

Multimedianing bo‘lajak o‘qituvchilar motivatsiyasiga ta’sir mekanizmlari

Multimediya ta’limi bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik motivatsiyasiga quyidagi psixologik mexanizmlar orqali ta’sir ko‘rsatadi:

1. Qiziqish va Yangilikka Intilishni Uyg‘otish

Yangi texnologiyalar har doim qiziqish uyg‘otadi. Video-darslar, virtual ekskursiyalar va interaktiv prezentatsiyalar an’anaviy matnlarga qaraganda diqqatni ko‘proq jalb qiladi. Bu "qiziquvchanlik" ichki motivatsiyaning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Talaba "Bu qanday ishlaydi?" va "Men buni qanday qo‘llay olaman?" degan savollar bilan faol izlanishga kirishadi.

2. Muvaffaqiyat Vaziyatini Yaratish

Multimedia dasturlari odatda darhol fikr-mulohaza (feedback) berish imkonini beradi. Masalan, interaktiv test yoki pedagogik vaziyat simulyatorida talaba to‘g‘ri javob berganda yoki to‘g‘ri qaror qabul qilganda, tizim buni tasdiqlaydi. Bu "muvaffaqiyat hissi"ni keltirib chiqaradi, dopamin gormoni ajralishiga sabab bo‘ladi va keyingi harakatlar uchun rag‘batlantiruvchi kuch vazifasini o‘taydi. Aksincha, an’anaviy imtihonda natija uzoq kuttiladi va xatolarni tuzatish imkoni cheklangan bo‘ladi.

3. Kognitiv Yukni Kamaytirish va O‘ziga Ishonchni Oshirish

Pedagogika va psixologiya kabi fanlar nazariy jihatdan murakkab bo‘lishi mumkin. Matnli ma’lumotlarni qayta ishlash katta kognitiv energiya talab qiladi. Multimediya esa murakkab tushunchalarni sodda vizual shaklda taqdim etib, miyaning yukini kamaytiradi. Talaba mavzuni oson tushunganda, uning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi ("Men buni uddalay olaman"). O‘ziga ishonch esa motivatsiyaning eng muhim tarkibiy qismidir [4].

4. Kasbiy Identifikatsiyani Mustahkamlash

Bo‘lajak o‘qituvchi multimedia loyihalari (masalan, o‘zi video-dars yaratishi, elektron resurs tayyorlashi) orqali o‘zini haqiqiy mutaxassis sifatida his qila boshlaydi. U nafaqat talaba, balki kontent yaratuvchi va metodist rolida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon uning kasbiy "Men" konsepsiyasini shakllantirishga yordam beradi va kasbga bo‘lgan hurmatini oshiradi.

5. Hamkorlik va Ijtimoiy Motivatsiya

Zamonaviy multimediya platformalari (LMS tizimlari, forumlar, bulutli xizmatlar) talabalar o‘rtasida hamkorlikni rag‘batlantiradi. Loyihaviy ishlar davomida guruh bo‘lib multimedia mahsulot yaratish jamoaviy ruhni shakllantiradi. Tengdoshlar e’tirofi va rahbariyat maqtovi tashqi motivatsiyani kuchaytiradi, bu esa asta-sekin ichki motivatsiyaga aylanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni multimediya orqali o‘qitishning amaliy modellari

Oliy ta’lim muassasalarida pedagogik motivatsiyani rivojlantirish uchun multimedyadan foydalanishning bir necha samarali modellari mavjud:

1. Interaktiv Ma’ruza va Seminar Modellari

An’anaviy ma’ruza o‘rniga slayd-shoular, qisqa video-roliklar va onlayn so‘rovnomalar (Kahoot, Mentimeter) bilan boyitilgan ma’ruzalar o‘tkaziladi. Talabalar real vaqtda savol berishlari, fikr almashishlari va ovoz berishlari mumkin. Bu passiv tinglashni faol muhokamaga aylantiradi.

2. Virtual Pedagogik Laboratoriyalar

Simulyatsiya dasturlari yordamida talabalar turli pedagogik vaziyatlarni (masalan, qiyin o‘quvchi bilan ishlash, darsda nizoli vaziyatni hal qilish) virtual muhitda mashq qiladilar. Xatolar xavfsiz muhitda amalga oshiriladi va tahlil qilinadi. Bu tajriba orttirish va stressni kamaytirish imkonini beradi.

3. Loyihaviy Faoliyat va Kontent Yaratish

Talabalarga o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha multimedia mahsulotlar (video-dars, podkast, infografika, elektron o‘quv qo‘llanma) yaratish topshiriladi. Bu jarayonda ular nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki metodik fikrlashni ham rivojlantiradilar. Yakuniy mahsulotni himoya qilish va uni amaliyotda qo‘llash imkoniyati katta motivatsion kuch hisoblanadi [5].

4. Masofaviy va Aralash Ta’lim Platformalari

Moodle, Google Classroom kabi platformalar orqali talabalar o‘z faoliyatini monitoring qilishlari, reyting jadvalini ko‘rishlari va o‘z yutuqlarini qayd etishlari mumkin. Gamifikatsiya elementlari (ballar, badge lar, liderlar taxtasi) raqobat ruhini uyg‘otadi va o‘qish jarayonini o‘yinga aylantiradi.

Muammolar va ularning yechimlari

Multimediya ta’limining afzalliklariga qaramay, uni joriy etishda bir qator muammolar mavjud:

1. Texnik Ta’minot Yetishmovchiligi: Ba’zi oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy kompyuterlar, dasturiy ta’minot va internet tezligi yetarli emas.

Yechim: Davlat-xususiy sheriklik orqali texnik bazani yangilash, ochiq kodli bepul dasturlardan foydalanish.

2. O‘qituvchilarning Raqamli Savodxonligi Pastligi: Professor-o‘qituvchilarning o‘zlari multimedyadan samarali foydalana olmasligi mumkin.

Yechim: Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish, metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish.

3. Axborot Yuklamasi (Information Overload): Haddan tashqari ko‘p multimedia elementlari diqqatni chalkashtirishi va asosiy maqsaddan chalg‘itishi mumkin.

Yechim: Didaktik jihatdan asoslangan, mo‘tadil va mazmunli kontent tanlash. "Kamroq, lekin sifatli" prinsipiga amal qilish.

4. Motivatsiyaning Vaqtinchalik Bo‘lishi: Yangilik effekti yo‘qolgach, qiziqish pasayishi mumkin.

Yechim: Multimedyani doimiy ravishda yangilab borish, murakkablik darajasini bosqichma-bosqich oshirish va talabalarning ijodiy potensialini doimiy rag‘batlantirish [6].

Natijalar va muhokama

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, multimediya texnologiyalarini qo‘llagan guruhlardagi talabalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishi nazorat guruhiga nisbatan 30-40% ga yuqori bo‘lgan.

Ularda kasbiy faoliyatga bo‘lgan ijobiy munosabat shakllangan, dars jarayonida faol ishtirok etish darajasi ortgan.

Shuningdek, multimedia orqali o‘qitilgan talabalar o‘zlarining kelajakdagi kasbiy faoliyatida AKT dan foydalanishga tayyor ekanliklarini bildirishgan. Ular nafaqat texnik ko‘nikmalarga, balki pedagogik dizayn (o‘quv materialini qanday qiziqarli qilib taqdim etish) ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishgan. Bu esa ularning raqobatbardoshligini oshiradi va ish beruvchilar tomonidan yuqori baholanadi.

Muhim jihat shundaki, multimediya motivatsiyani nafaqat o‘qish davrida, balki hayot davomida o‘qish (lifelong learning) ko‘nikmasini shakllantirish orqali uzoq muddatli perspektivada ham qo‘llab-quvvatlaydi. Raqamli muhitda o‘zini erkin his qilgan o‘qituvchi kelajakda ham yangi metodikalarni o‘zlashtirishga ochiq bo‘ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik motivatsiyasini rivojlantirishda multimediya ta’limi hal qiluvchi ahamiyatga ega. U an’anaviy ta’limning kamchiliklarini bartaraf etib, o‘quv jarayonini interaktiv, vizual va shaxsga yo‘naltirilgan holatga keltiradi.

Multimediya ta’limi quyidagi natijalarni beradi:

1. Ichki motivatsiyani uyg‘otadi va kasbiy qiziqishni saqlab qoladi.
2. Kognitiv jarayonlarni optimallashtiradi va o‘zlashtirish sifatini oshiradi.
3. Talabalarda raqamli kompetensiyalar va kasbiy o‘ziga ishonchni shakllantiradi.
4. Kelajak o‘qituvchisini zamonaviy ta’lim muhitiga moslashuvchan va innovatsion mutaxassis sifatida tayyorlaydi.

Shu sababli, oliy pedagogik ta’lim muassasalarida o‘quv rejalariga multimediya texnologiyalarini keng joriy etish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish zarur. Multimediya nafaqat o‘qitish vositasi, balki bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy ruhiyati va motivatsion salohiyatini rivojlantiruvchi kuchli pedagogik resursdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mayer R.E. Multimedia Learning. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021. – 350 p.
2. Deci E.L., Ryan R.M. Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness. – New York: Guilford Publications, 2017. – 608 p.
3. Sweller J. Cognitive Load Theory. – Psychology of Learning and Motivation, Vol. 55. – Academic Press, 2011. – P. 37-76.
4. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. – New York: W.H. Freeman, 1997. – 604 p.
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. "Raqamli ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi". – Toshkent, 2023. – 24 b.
6. Prensky M. Teaching Digital Natives: Partnering for Real Learning. – Thousand Oaks: Corwin Press, 2010. – 208 p.

PEDAGOG-TARBIYACHILARNING KASBIY MOBILLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ILG‘OR PEDAGOGIK TAJRIBALARNI AMALIYOTGA JORIY ETISH

Yo‘ldasheva Sohiba Azamat qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog-tarbiyachilarining kasbiy mobilligini shakllantirish muammosi tahlil qilinadi. Pedagog-tarbiyachilarning kasbiy mobilligini rivojlantirishga qaratilgan tarkibiy-funksional model ishlab chiqilib, uning asosiy komponentlari va funksional imkoniyatlari yoritib beriladi. Tajriba-sinov ishlari natijalari asosida modelning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kalit so‘zlar: kasbiy mobillik, pedagog-tarbiyachi, maktabgacha ta’lim, tarkibiy-funksional model, kasbiy kompetensiya, innovatsion faoliyat, pedagogik refleksiya.

Oliy ma’lumotli mutaxassisning kasbiy mobilligi ko‘p jihatdan o‘zi yashaydigan hududning mintaqaviy xususiyatlari bilan belgilanadi. Shu bilan birga, mutaxassislarning kasb mobilligi darajasi va o‘ziga xos xususiyatlarining mintaqaviy bog‘liqligi muammolari, afsuski, ijtimoiy va kasb mobilligi muammolari bo‘yicha zamonaviy ilmiy adabiyotlarda bu muammo deyarli o‘z aksini topmagan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilari bilan ishlashda turli xil kasbiy rivojlanish shakllari, jumladan, ustozlik, o‘z-o‘zini o‘qitish, metodik kengashlarda ishtirok etish va maktabgacha ta'lim tadbirlari qo‘llanildi. Katta pedagog-tarbiyachi bilan hamkorlikda quyidagi seminarlar tayyorlandi va o‘tkazildi: doimiy kollokvium va respondentlar uchun "Pedagog-tarbiyachilar uchun o‘z-o‘zini o‘qitish" nomli amaliy seminarlar tashkil qilindi. Tajriba guruhidagi pedagog-tarbiyachilar tarkibi nisbatan kichik bo‘lsa-da, ular tarkibiga o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘zini o‘qitishga sodiq bo‘lgan ilg‘or pedagog-tarbiyachilar ham kiritildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilari o‘z hamkasblari uchun ustoz bo‘lib, o‘z-o‘zini o‘qitish sohasidagi shaxsiy tajribalari bilan o‘rtoqlashdilar. Pedagog-tarbiyachilarni o‘z-o ‘zini o‘qitish ustida ishlashni boshlashga undash uchun ular chuqur o‘rganish uchun mavzularga qaratilgan loyiha asosidagi tadbirlarda ishtirok etdilar. Barcha yosh pedagog-tarbiyachilarga o‘z-o‘zini o‘qitish uchun mavzular taklif qilindi va ularga keyingi rivojlanish uchun amaliy tavsiyalar berildi. Shunday qilib, o‘z-o‘zini o‘qitish uchun quyidagi tavsiya etilgan mavzular tanlandi: "Maktabgacha yoshdagi bolalarda iqtisodiy tushunchalarni rivojlantirish", "Tayyorlov guruhidagi bolalar uchun robototexnika "Mini asalari roboti", "Teatrlashtirilgan mashg‘ulotlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda hamdardlikni rivojlantirish", "Bolalarning zamonaviy dunyo sharoitlariga ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish" va "Loyihaga asoslangan mashg‘ulotlar va tajribalar orqali katta maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv jarayonlarini kuchaytirish". Har bir mavzu 2-3 yil davomida chuqur o‘rganish va rivojlantirish uchun mo‘ljallangan edi.

Kasbiy mobillikni rivojlantirish bo‘yicha tajriba ishlari quyidagi bosqichlarda olib borildi. Kirish va o‘quv bosqichida respondentlar o‘z-o‘zini o‘qitish ishlariga tayyorlandilar va chuqur o‘rganish uchun mavzu tanladilar. Amaliy bosqichda pedagogik faktlar to‘plandi, yangi ish usullari tahlil qilindi va sinovdan o‘tkazildi. Mustaqil ish davomida pedagog-tarbiyachilar pedagogik faktlarni tushundilar, tahlil qildilar va umumlashtirdilar hamda bolalar va ularning

ota-onalari bilan rejalashtirilgan tadbirlarni amalga oshirdilar. Ushbu bosqichda tizimli va izchil ishlarni ta'minlash uchun o‘z-o‘zini o‘qitish kundaliklari kiritildi. Pedagog-tarbiyachilar ularda o‘zlarining ishlanmalarini qayd etdilar.

Yakuniy nazorat bosqichida o‘z-o‘zini o‘qitish ishlari natijalari umumlashtirildi, ular ijodiy hisobotlarda aks ettirildi. Hisobot shakli bepul edi; pedagog-tarbiyachilarning o‘zlari tadqiqot mavzularini taqdim etish uchun eng qulay shaklni tanladilar. Quyidagi tamoyillar tashkilotning asosini tashkil etdi: ishda tizimlilik va izchillik, o‘z-o‘zini o‘qitishning pedagog-tarbiyachining amaliy faoliyati bilan bog‘liqligi; mutaxassislarning o‘z-o‘zini o‘qitishga tayyorgarligida ilmiy va metodologik bilimlar o‘rtasidagi bog‘liqlik, mavzuni har tomonlama o‘rganish va o‘z-o‘zini o‘qitish mazmunining mosligi.

Pedagog-tarbiyachilarning o‘zini o‘zi o‘qitish jarayonida metodik yordam muhokamalar, fikr almashish, dars tizimlari va odatiy jarayonlarni birgalikda modellashtirish va konsultatsiyalar kabi ish shakllari orqali ko‘rsatildi. Pedagog-tarbiyachilar shuningdek, darslarda didaktik materiallardan foydalanishda metodik yordam oldilar, o‘zaro tashriflar va ta'lim tadbirlarining ochiq namoyishlarini o‘tkazdilar, o‘zini o‘zi o‘qitish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarning oraliq natijalari bo‘yicha taqdimotlar bilan seminar va konferensiyalarda ishtirok etdilar, o‘zlarining pedagog-tarbiyachilik tajribalarini namoyish etdilar. Shunday qilib, pedagog-tarbiyachilar o‘zini o‘zi o‘qitish zarurati rivojlangan shaxsning o‘ziga xos xususiyati, ma'naviy hayotning zaruriy tarkibiy qismi ekanligini bilib oldilar. O‘zini o‘zi o‘qitishsiz kasbiy mobil pedagog-tarbiyachining shaxsiy va kasbiy rivojlanishi g‘oyasini amalga oshirish mumkin emasligini angladilar. Pedagog-tarbiyachilar o‘zlarini ijodiy shaxslar sifatida qabul qila boshladilar va endi o‘zlarining individual o‘qitish uslublarini ifoda etishdan qo‘rqmadilar, chunki ular qiziqarli mavzular ustida, birinchi navbatda o‘zlari uchun ishladilar, o‘zlarining kasbiy kompetentsiyalarini yaxshiladilar va shu bilan ularning kasbiy harakatchanligi oshirildi.

Ikkinchi shart pedagog-tarbiyachilardan individual kasbiy rivojlanish traektoriyasiga ega bo‘lishni talab qildi. Ushbu shartni amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tashkilotining metodik ishi muhim rol o‘ynadi. Tajriba guruhi sifatida xizmat qilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti nisbatan yangi va uning metodik xizmati hali ham boshlang‘ich bosqichda, ya'ni bu ishning barcha mexanizmlari hali yaratilmagan. Kasbiy rivojlanish bosqichma-bosqich ta'sir ko‘rsatdi, bu pedagog-tarbiyachilarga o‘zlarining shaxsiy ta'lim yo‘llarini loyihalash, o‘zlarining kasbiy ehtiyojlari va ko‘nikma darajasiga qarab mazmun, vaqt va mos o‘quv usulini mustaqil ravishda tanlash imkonini berdi.

Uchinchi pedagogik shart kasbiy rivojlanish uchun faol va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Respondentlarga kasbiy ishlarida zamonaviy dasturiy mahsulotlar va ilovalar paketlaridan foydalanish va pedagog-tarbiyachi sifatidagi ishlarida qo‘llaniladigan zamonaviy texnologiyalarning funktsional va pedagogik salohiyatidan to‘liq foydalanishga yordam berish maqsadida qisqa amaliy kurs - "Ishonchli kompyuter foydalanuvchisi" o‘tkazildi. Pedagog-tarbiyachilar hujjatlarini chiroyli formatlash, yorqin, rang-barang taqdimotlar yaratish va ijodiy salohiyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun Microsoft Office dasturlaridan foydalanishni o‘rgandilar. Shuningdek, ular pedagog-tarbiyachilar uchun turli platformalar va maydonlarda ro‘yxatdan o‘tishni va o‘z ishlarida elektron ta'lim resurslaridan foydalanishni o‘rgandilar.

Pedagog-tarbiyachilarga shuningdek, kasbiy yutuqlarning individual portfellarini yaratish va yig‘ishda yordam taklif qilindi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan amaliy tajriba orttirgandan so‘ng, ular ijodiy faollikni namoyish eta boshladilar. Bu taklif qilingan dasturda

ustuvor yo‘nalish sifatida tanlangan, chunki u pedagog-tarbiyachilar uchun kasbiy mobillik mezonlari va ko‘rsatkichlaridan biriga javob beradi. Faol o‘rganish usullaridan foydalanish ham ushbu kasbiy rivojlanish jarayonida muhim qo‘shimcha qiymat yaratadi va kasbiy mobillikning asosiy elementlariga hissa qo‘shadi. Masalan, "Maktabgacha ta'lim tizimining o‘zgaruvchanligi" moduli ham qiymatga asoslangan motivatsiyani, ham ishlash mezonlarini rivojlantiradi, chunki u pedagog-tarbiyachilarga shaxsiy qiziqishlarini rag‘batlantirish orqali o‘zlarining kasbiy rivojlanishini shakllantirishga imkon beradi. Har bir modul nafaqat maktabgacha ta'limga, balki pedagog-tarbiyachining shaxsiy rivojlanishiga ham tegishli mavzuga qaratilgan. To‘rtta modul butun o‘quv yilini qamrab oladi va har bir modul bir chorakda yakunlanadi. Shaxsiy va guruhli ustozlik ularga bilim oqimida yo‘l topishga va shaxsiylashtirilgan yondashuv bilan yuqori toifa yo‘llarini rejalashtirishga yordam berdi. Ushbu kasbiy rivojlanish dasturi pedagog-tarbiyachilarning me'yoriy hujjatlarga nisbatan kasbiy bilimlarini mustahkamlashga, ularning kompetensiyalari va harakatlarini yetarlicha baholashga va kasbiy rivojlanish uchun ma'lumotlarni qidirish, qayta ishlash va qo‘llashda yangi tajribalarni yangilashga yordam berdi.

Muammolarni hal qilish me'yoriy hujjatlarni tahlil qilish orqali pedagog-tarbiyachilar kasbiy rivojlanish zarurligini tushunishlari mumkin bo‘ladi. Loyihalar, davra suhbatlari, munozaralar, munozaralar, amaliy o‘yinlar va mashqlar orqali pedagog-tarbiyachilar yangi muhitda o‘z vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan shaxsiy fazilatlarni: dinamizm, ijodkorlik va moslashuvchanlikni rivojlantirishlari mumkin.

Quyida shakllantirish ishlari davomida qo‘llaniladigan faol kasbiy rivojlanish shakllariga misollar va qisqacha tavsif keltirilgan. "Pedagog-tarbiyachining pedagogik mahorati" biznes o‘yinida ishtirok etish orqali pedagog-tarbiyachilarning kasbiy mobilligining barcha jihatlarini umumiy rivojlantirishga hissa qo‘shadilar. Ular o‘yinlar va musobaqalar orqali o‘zlarining pedagogik va huquqiy bilimlarini oshiradilar. Biznes o‘yinlari davomida pedagog-tarbiyachilar kasbiy muammolarni hal qiladilar va fikr almashadilar. O‘yinlar oxirida ular pedagogik model yaratish orqali o‘zlarining ijodkorligi va ixtirochiligini namoyish etadilar.

Munozaralar pedagog-tarbiyachilarga muammolarni hal qilish, kelishuvga erishishga yordam beradigan kasbiy va konstruktiv munozaralarda qanday ishtirok etishni o‘rgatadi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagog-tarbiyachilarning kasbiy mobilligi davra suhbatlari orqali muhokama qilindi, unda pedagog-tarbiyachilar o‘z bilimlarini kengaytirdilar, fikrlarini bildirdilar va o‘zlarning kasbiy fazilatlari haqida fikr yuritdilar.

"Zamonaviy pedagog-tarbiyachi: Kasbmi yoki chaqiriqmi?" mavzusidagi treninglar seriyasi pedagog-tarbiyachilarning ko‘nikmalarini rivojlantirishning ijobiy usuli hisoblanadi. Trening bosqichi musobaqadan iborat edi. Pedagog-tarbiyachilar bilan ishlashning ushbu shakli ularga psixologik - pedagogik madaniyatini oshirish imkonini berdi; tashabbuskorlik, ijodkorlik, badiiylik, pedagogik izlanish va o‘zini kashf etishga qiziqishni uyg‘otdi. Trening pedagog-tarbiyachilar bilan ishlashning turli usullari va yondashuvlari orasida alohida o‘rin tutadi. Ushbu trening pedagog-tarbiyachilarning kasbiy mahoratini oshiradi va ularning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. "Tasavvur mamlakati" treningi pedagog-tarbiyachilar bilan oltita mashqni o‘z ichiga oldi: "Salomlar", "Mening ijodiy fazilatlarim", "Tasavvur qiling va tegining", " Kichik guruhda ishlash", "Mulohaza" va "Xayrlashuv".

Xulosa qilib aytganda, biz tomondan tashkil etilgan tajribaning samaradorligi maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilarining pedagog-tarbiyachilik faoliyatini davom ettirish bilan birga malaka oshirish orqali ularning kasbiy harakatchanligi uchun pedagogik sharoitlar yaratish orqali ta'minlandi. Muammolarni hal qilish bo‘yicha mashg‘ulotlar,

muhokamalar va davra suhbatlari maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog-tarbiyachilari uchun qiziqarli bo‘lgan keng ko‘lamli mavzularni qamrab oldi, bu esa kursni moslashuvchan amaliyotchi pedagog-tarbiyachining ehtiyojlari va talablariga javob beradigan qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-sonli “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. https://lex.uz/ru/docs/- 4333062

2.Yo‘ldasheva S.A. Talabalar akademik mobilligi kasbiy kompetensiyalarni shakllantiruvchi omil sifatida. Pedagogik mahorat Ilmiy nazariy metodik jurnal. 3-son 2025- yil mart. 145-148 betlar

3. Yo‘ldasheva S.A. Talabalarni ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarini pedagogika fani konsepsiyasi asosida takomillashtirishning pedagogik-psixologik omillari. МуҒаллим хем узликсиз билимлендириў илмий-методикалық журнал. №6/3. 2024. 75-80 бетлар.

4. Yo‘ldasheva S.A. Maktabgacha ta’lim tahkiloti prdagog-tarbiyachilarining kasbiy mobilligini shakllantirishning shakl,metod va vositalari. Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar. 2025-yil 9-son 1819-1825 betlar

5. Yo‘ldasheva S.A. Ta’limda mobillik tushunchasining qo‘llanilishi. Termiz davlat pedagogika instituti Globallashuv sharoitida pedagogik media ta’limni rivojlantirish mexanizmlari: muammolari va yechimlari ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, – Surxondaryo: Termiz publishing center, 2025. 632-635 betlar

6. Yo‘ldasheva S.A. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog - tarbiyachilarining kasbiy mobilligini shakllantirish pedagogik muammo. “Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida” mavzusidagi Respublika ilmiy konferensiyasi. 10/12/2024. 148-151 betlar.

7. Yo‘ldasheva S.A. Shaxs mobilligini shakllantirishda metodik tizimning nazariy asoslari. “Arnawlı hám inklyuziv bilimlendiriwdi rawajlandırıwdıń zamanagóy tendenciyaları” atamasındağı respublikalıq ilimiy-ámeliy konferenciya materiyalları. Nókis - 2025 j. 154-159 betlar

8.Yo‘ldasheva S.A. Maktabgacha ta’lim tahkiloti prdagog-tarbiyachilarining kasbiy mobilligini shakllantirishning mazmuni, shakllari, bosqichlari. “O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot: barqaror rivojlanishning yangi modeli” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari [Matn]: konferensiya materiallari / jamoa. – Urganch: Khwarezm publication, 2025. – 654-656 betlar.

9. Salayeva M.S. Umumiy pedagogika. [Matn]: darslik / –Toshkent: “Nodirabegim” nashriyoti, 2021.- 598 b.

10. Salayeva M.S., Yusufzoda Sh.Y., Abdullayeva M.R., Yo‘ldosheva S.A. Tarbiyaviy ishlar metodikasi [Matn]: darslik / –Toshkent: "ZUXRO BARAKA BIZNES" nashriyoti 2026. – 279 b.

БАРЬЕРЫ КОММУНИКАЦИИ В КОЛЛАБОРАТИВНОЙ СРЕДЕ И ПУТИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ В ПРАКТИКЕ ВЫСШЕЙ ШКОЛЫ

К.Бекмуратов

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза, докторант

Annotatsiya. *Maqola oliy maktab ta’lim jarayoniga hamkorlik texnologiyalarini joriy etishda yuzaga keladigan kommunikativ to‘siqlarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Muallif muloqotni shunchaki axborot almashinuvi sifatida emas, balki maxsus pedagogik loyihalashni talab qiladigan birgalikda ma’no yaratish jarayoni sifatida ko‘rib chiqadi.*

Kalit so‘zlar: *muloqot to‘siqlari, hamkorlik muhiti, oliy maktab, hamkorlik pedagogikasi, interfaol usullar, ma’no hosil qilish, fasilitatsiya.*

Коллаборативные технологии становятся результативными только тогда, когда совместная деятельность организована как управляемый процесс. Принципиальное значение имеет не просто работа «в группе», а осознание участниками глубокой взаимозависимости и личной ответственности каждого за общий результат. Если эти элементы не заданы программно, коммуникация в группе затухает, превращаясь в разрозненные действия отдельных участников.

Для высшей школы особенно важно рассматривать коллаборацию как системную педагогическую технологию, требующую проектирования процедур, которые формируют у студентов устойчивые нормы профессионального общения, распределения ролей и совместного принятия решений. Связи с этим можно привести классификацию и анализ коммуникативных барьеров:

1. **Инструментально-технологический барьер** связан с распространенным заблуждением, что использование платформы автоматически порождает сотрудничество. На практике введение общего чата или документа без методического проектирования не создает условий для диалога.

Что должен делать педагог в таких случаях? Педагог должен проектировать коммуникацию внутри задания: определять, кто отвечает за синтез мнений, как фиксируются промежуточные обсуждения и каким образом организована обратная связь. Задание должно быть сконструировано так, чтобы одному участнику было недостаточно выполнить свой фрагмент — требовалось бы обязательное согласование и объединение знаний с коллегами.

2. **Организационно-регламентирующий барьер** возникает на уровне вуза при отсутствии единых правил взаимодействия. Если каждый преподаватель задает свои требования к каналам связи, срокам и форматам оформления, студенты тратят ресурс на адаптацию к форме, а не на содержательную дискуссию.

В таких случаях необходима разработка единых регламентов и методического сопровождения совместной работы в организации. Стабильные правила и прозрачные критерии качества взаимодействия позволяют поддерживать атмосферу доверия, без которой устойчивая совместная деятельность невозможна.

3. **Методический барьер и дефицит этапности** связан с изменением позиции преподавателя, который в коллаборативной среде должен выступать модератором и

фасилитатором. Отсутствие четкой этапности работы (подготовка, организация, реализация, рефлексия) приводит к хаотичности коммуникации.

В таких случаях соблюдение этапности позволяет удерживать учебную цель и предотвращать ситуацию, когда обсуждение становится поверхностным, а наиболее активные студенты подавляют инициативу остальных участников.

Особое место среди коммуникативных барьеров занимает проблема неравномерного распределения нагрузки, известная как «эффект безбилетника» или «социальное иждивенчество». В условиях коллаборативной среды этот феномен возникает тогда, когда система оценивания ориентирована исключительно на конечный групповой продукт, что делает индивидуальные усилия конкретного студента «невидимыми». Без четко установленных критериев любая совместная деятельность начинает восприниматься обучающимися как несправедливая, что провоцирует у наиболее активных участников чувство фрустрации, а у менее мотивированных — соблазн минимизации трудозатрат.

Для преодоления данного барьера в практике высшей школы необходимо внедрение комплексной методики оценивания, которая сочетает в себе фиксацию группового результата с детальным анализом персонального вклада каждого субъекта. Вклад должен стать верифицируемым через цифровой след и протоколы взаимодействия: учет выполнения закрепленных ролей, качество представленной аргументации в дискуссиях и строгое соблюдение внутригрупповых дедлайнов. Важнейшим инструментом здесь выступает включение элементов самооценки и взаимного рецензирования (peer-assessment), которые позволяют участникам рефлексировать не только над содержанием задачи, но и над качеством самой коммуникации.

Методически грамотно выстроенная система оценивания превращает контроль из карательного инструмента в механизм поддержки персональной ответственности. Когда каждый участник осознает, что его действия фиксируются и влияют на итоговый балл, риск формального включения в работу существенно снижается. Таким образом, объективность и прозрачность оценивания становятся фундаментом для здоровой коммуникации, предотвращая конфликты на почве несправедливости и обеспечивая управляемость всего образовательного процесса.

В интерактивных методах подчеркивается, что активность обучающихся должна проистекать не из внешнего движения, а из образовательной ситуации, требующей совместного решения задачи через аргументацию и сравнение позиций. Продукт совместной работы должен быть итогом глубокого обсуждения и взаимного уточнения смыслов, а не механическим объединением фрагментов.

Значит, эффективная коллаборация невозможна без культуры уважительного взаимодействия и доверия. Если в группе доминирует жесткая конкуренция или страх ошибки, студенты выбирают стратегию отчуждения, а коммуникация становится формальной. Создание психологически безопасной среды, где конструктивная критика и обсуждение являются нормой, — обязательное условие преодоления барьеров.

В заключении можно сказать, что коммуникативные барьеры в коллаборативной среде высшей школы носят комплексный характер: они проявляются там, где технологическая сторона подменяет собой педагогическое проектирование. Преодоление этих барьеров возможно только при системном подходе, включающем в себя установление четких правил взаимодействия, распределение ролей, обеспечение

прозрачности индивидуального вклада и обязательную рефлексию процесса общения. Только превращая сотрудничество из эпизодического приема в норму учебного процесса, можно достичь реального образовательного эффекта, выраженного в развитии коммуникативной компетентности и культуры мышления будущих специалистов.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования / Под ред. Е. С. Полат. — М.: Академия, 2002.
2. Энциклопедия образовательных технологий. Том 1 / Г. К. Селевко. — М.: Народное образование, 2005.
3. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / D. Ro‘ziyeva, M. Usmonboyeva, Z. Xoliqova. — Toshkent, 2013.
4. Pedagogik texnologiya (o‘quv-uslubiy material). — Toshkent, 2024.

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNING AXBOROT BILAN ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Qandimova Nasiba Ramazonovna
Buxoro davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi
Ashurova Rushanabonu Ziyodullo qizi
4-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Zamonaviy ta’lim jarayonida axborot oqimining keskin ortib borishi o‘quvchilardan ma’lumotlarni izlash, saralash, tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini talab etadi. Shu nuqtai nazardan, kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, muammoli vaziyatlarga innovatsion yechim topish qobiliyatini hamda axborot bilan ishlash madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish, raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda muammoli vaziyatlar yaratish orqali o‘quvchilarning axborot kompetensiyasini shakllantirish yo‘llari yoritilgan. Shuningdek, kreativ yondashuv o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishi, ularni faol o‘quv jarayoniga jalb etishi va axborotni tanqidiy baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi asoslab berilgan. Natijada, mazkur yondashuv ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini mustahkamlash hamda ularni zamonaviy axborot jamiyatiga mos ravishda tayyorlashda muhim omil ekanligi aniqlangan.*

Kalit so‘z*: kreativ yondashuv, axborot bilan ishlash, zamonaviy pedagogika, ijobiy fikr, raqamli texnologiya, axborotni tahlil qilish, loyihaviy ta’lim, tahliliy fikrlash,*

Kirish

Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda ta’lim tizimi oldiga yangi va dolzarb vazifalar qo‘yilmoqda. Axborot oqimining keskin ortishi, turli manbalarning ko‘pligi o‘quvchilardan nafaqat bilim olishni, balki axborotni izlash, uni tanqidiy tahlil qilish, saralash va amaliyotda samarali qo‘llash ko‘nikmalarini ham talab etadi. Shu bois, o‘quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta’limning

muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. An’anaviy o‘qitish usullari ko‘pincha o‘quvchilarning faolligini to‘liq ta’minlay olmaydi hamda ularni mustaqil fikrlashga yetarli darajada yo‘naltirmaydi. Shu sababli, ta’lim jarayoniga kreativ yondashuvni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Kreativ yondashuv o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish hamda yangi g‘oyalarni ilgari surish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur ishning maqsadi — kreativ yondashuv asosida o‘quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishning samarali usul va vositalarini aniqlash hamda ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlarini o‘rganishdan iborat. Shu bilan birga, tadqiqotda interfaol metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning axborot kompetensiyasini shakllantirish masalalari yoritiladi. Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarida axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi ta’lim tizimini ham tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamli muhitning rivojlanishi natijasida axborot olish manbalari ko‘payib, ularning sifati va ishonchliligini aniqlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shunday sharoitda o‘quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish, ya’ni axborotni izlash, tahlil qilish, baholash, qayta ishlash va undan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta’limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimida “kreativlik”, “axborot, axborot kompetensiyasi, axborot texnologiyalari” tushunchalari va unga asoslangan yondashuv davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylangan. Bunga bir nechta asosiy dalillar (normativ-huquqiy asoslar)bor:

- **2020-yildagi “Ilm- ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”**- davlat dasturidagi kreativ fikrlash, innovatsion yondashuv asosiy qadriyatlardan biri sifatida belgilandi;
- **2022-yil Umumiy o‘rta ta’lim konsepsiyasi**da o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va axborot tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor maqsad sifatida ko‘rsatilgan;
- **2023-2026-yillarga mo‘ljallangan milliy ta’lim dasturida** kreativ fikrlash, tanqidiy tahlil, loyiha asosidagi o‘qitish(PBL), STEAM yondashuvlar targ‘ib qilinmoqda.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ta’lim mazmuni va metodlarining yangilanishi, kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quvchilarning ijtimoiy, shaxsiy va akademik salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalda o‘z ifodasini topmoqda. Ushbu jarayonda axborot bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarining asosiy maqsadi o‘quvchilarni o‘qishga o‘rgatish, ularning tilga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish, o‘quvchilarni mukammal o‘qish, tushunish, tahlil qilish va sharhlash ko‘nikmalariga ega qilish, vazifasi esa o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish, o‘qish texnikasini takomillashtirish, o‘qishni tushunish, tahlil qilish va izohlash kompetensiyalarini yanada takomillashtirishdan iborat.

Boshlang‘ich sinfda o‘qish savodxonligi darslarini samarali va innovatsion holda o‘tkazishga erishish uchun ta’lim jarayonida turli zamonaviy ta’lim vositalari, metodlari, axborot-kommunikatsion texnologiyalari vositalari, interaktiv usullardan foydalanish samarali natija beradi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida kreativlik- yangi g‘oyalarni ilgari surish, muammolarga noodatiy yechimlar topish, o‘z fikrini mustaqil ifoda etish, o‘rganilgan bilimlarni amaliyotda

qo‘llash ko‘rinishida talqin qilinmoqda. Asosan, boshlang‘ich sinflarda ijodiy yondashuv orqali o‘quvchilarning individual salohiyatini ochish va rivojlantirish borasida quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ishlar olib borilmoqda.

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi nafaqat bilim olish jarayonida, balki o‘quvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida ham muhim o‘rin tutadi. Chunki bugungi mehnat bozori ijodiy fikrlay oladigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, muammolarni yangicha yondashuv asosida hal eta oladigan shaxslarni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularni mustaqil izlanishga undash va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab ta’lim jarayonlarida hali ham an’anaviy, reproduktiv usullar ustunlik qilmoqda. Bu esa o‘quvchilarning axborotni tayyor shaklda qabul qilishiga olib kelib, ularning mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini yetarli darajada rivojlantirmaydi. Natijada o‘quvchilar axborot manbalari ko‘pligiga qaramay, ularni to‘g‘ri tanlash va ulardan samarali foydalanishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Mazkur muammoni hal etishda kreativ yondashuv muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Kreativ yondashuv ta’lim jarayonini faollashtiradi, o‘quvchilarni darsning faol ishtirokchisiga aylantiradi hamda ularning qiziqishini oshiradi. Bunda loyiha asosida o‘qitish, muammoli vaziyatlar yaratish, keys-stadi, debat, klaster, aqliy hujum kabi interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa,

raqamli texnologiyalar — internet resurslari, elektron kutubxonalar, multimedia vositalari orqali ishlash o‘quvchilarning axborotni izlash va tahlil qilish kompetensiyasini yanada mustahkamlaydi. Shuningdek, kreativ yondashuv o‘quvchilarda quyidagi muhim sifatlarni shakllantiradi: mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv, muammolarni hal qilish qobiliyati, ijodkorlik va innovatsion fikrlash. Bu esa ularni nafaqat ta’lim jarayonida, balki kundalik hayotda ham axborotdan ongli va samarali foydalanishga tayyorlaydi. Mazkur ishning dolzarbligi shundaki, unda kreativ yondashuv asosida o‘quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi — o‘quvchilarning axborot kompetensiyasini oshirishda samarali bo‘lgan pedagogik yondashuvlarni aniqlash va ularni ta’lim amaliyotiga joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Hozirgi kunda axborotlashgan jamiyat sharoitida bilim va ma’lumotlar hajmining keskin ortib borishi ta’lim tizimi oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. O‘quvchilar nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishi, balki axborotni mustaqil izlash, uni tanqidiy tahlil qilish, saralash va undan samarali foydalanishni ham o‘rganishi zarur. Shu bois, o‘quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish bugungi ta’limning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim muhitida turli xil axborot manbalari — internet, ijtimoiy tarmoqlar, elektron resurslar keng tarqalgan bo‘lib, ular o‘quvchilar uchun katta imkoniyatlar yaratish bilan birga, ma’lumotlarning ishonchliligini baholash muammosini ham yuzaga keltiradi. Bu esa o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish zaruratini kuchaytiradi. Zamonaviy jamiyatda o‘quvchilar turli manbalardan kelayotgan katta hajmdagi axborot bilan ishlashga majbur bo‘lmoqda, biroq ularni

to‘g‘ri saralash, tahlil qilish va ishonchliligini baholash ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan bo‘lishi mumkin. Shu sababli, o‘quvchilarda axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish muhim vazifaga aylanmoqda. Ayniqsa, kreativ yondashuvni qo‘llash bu jarayonni yanada samarali qiladi, chunki u o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, muammolarni noodatiy yechish qobiliyatini va axborotdan ijodiy foydalanish malakasini rivojlantiradi. Bundan tashqari, globallashuv sharoitida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, ularni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Shu nuqtai nazardan, kreativ yondashuv asosida axborot kompetensiyasini rivojlantirish masalasi nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy ahamiyatga ham egadir.

Xulosa qilib aytganda, kreativ yondashuv asosida o‘quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bunday yondashuv o‘quvchilarda nafaqat axborotni izlash, saralash va tahlil qilish ko‘nikmalarini, balki uni tanqidiy baholash, qayta ishlash va ijodiy tarzda qo‘llash qobiliyatlarini ham shakllantiradi.

Kreativ metodlar — loyihaviy ishlar, muammoli vaziyatlar, interfaol mashg‘ulotlar va raqamli vositalardan foydalanish — o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini kuchaytiradi va ularni axborot oqimida to‘g‘ri yo‘nalish topishga o‘rgatadi. Natijada, o‘quvchilar passiv bilim oluvchidan faol, izlanishga intiluvchi va axborotni ongli ravishda boshqaruvchi shaxsga aylanadi. Xulosa:

1. **Axborot bilan ishlash kompetensiyasi**- bu o‘quvchining o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish, tanqidiy va tizimli fikrlash, axborotni tahlil qilish, izlash, baholash va foydalanish qobiliyatini shakllantirishda asosiy omillardan biridir. Boshlang‘ich sinf davrida bu kompetensiyani shakllantirishga alohida e’tibor qaratish zarur

2. **Kreativ yondashuv**- o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, ularda noan’anaviy fikrlash, muammoni turli burchaklardan ko‘ra olish, mustaqil qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Bu yondashuv axborot bilan ishlash kompetensiyasini samarali shakllantirishdamuhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘rganilgan adabiyotlar, ilmiy maqolalar, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, axborot bilan ishlash kompetensiyasi **rivojlanishida interfaol metodlar, axborot – kommunikatsion texnologiyalar hamda ijodiy topshiriqlar** muhim rol o‘ynaydi. Biroq ushbu yondashuvning boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun maxsus ishlab chiqilgan metodik tizimi yetarlicha shakllanmagan.

3. **Pedagogik zarurat tahlili** natijalariga ko‘ra, zamonaviy ta’lim sharoitida o‘quvchilarning nafaqat bilim olishi, balki axborotni izlash, saralash, tahlil qilish va foydali natijalarga erisha olish qobiliyatlarini rivojlantirihs talab etiladi. Bu esa, aynan boshlang‘ich ta’lim bosqichidanoq kreativ va axborotga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlarni joriy etishni talab qiladi. Boshlang‘ich sing ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklarini tahlil qilish natijasida, bu kompetensiyani shakllantirihsga xizmat qiluvchi imkoniyatlar mavjud bo‘lsada, ularning mazmunida kreativ yondashuvga asoslangan topshiriqlar va faoliyat turlarining nisbatan cheklanganligi kuzatildi. Bu holat amaliyotda metodik takomillashtirishga ehtoyoj borligini ko‘rsatadi.

4. **Ilmiy adabiyotlar tahlili** shuni ko‘rsatadiki, kreativ yondashuv va axborot kompetensiyasining o‘zaro bog‘liqligi hali yetarli darajada chuqur ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bosqichma-bosqich o‘zlashtiriladigan, yoshga moslashtirilgan, ijodiy va interfaol uslublarni uyg‘unlashtirgan maxsus metodik tizim mavjud emas.

5. **Xalqaro va mahalliy tajribalar tahlili** shuni ko‘rsatmoqdaki, rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida(Finlandiya, Singapur, Estoniya, Janubiy Korea) axborot bilan ishlash kompetensiyasi boshlang‘ich bosqichdan boshlab mustahkam yo‘lga qo‘yilgan. Bunda kreativ metodika asosiy rol o‘ynaydi va o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga ustuvor e’tibor beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2012.
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik mahorat. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011.
3. Polat E.S. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari. – Moskva, 2010.
4. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish. – Toshkent: Fan, 2014.
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2013.

БОШЛАНҒИЧ МАКТАБЛАРДА ИННОВАЦИОН ЎҚИТИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА УЛАРНИНГ РОЛИ

Хажаева Кандилай Кучкарваевна
Б.Сидиқов номли Кирғиз-Ўзбек Халқаро университети катта ўқитувчиси(Ўш, Қирғизистон)

Аннотация. Мақолада бошланғич таълим жараёнида инновацион педагогик технологиялардан фойдаланиш орқали ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасидаги социометрик муносабатларни ривожлантириш масаласи культурологик ёндашув асосида таҳлил қилинган. Таълим муҳити маданий мулоқот ва ижтимоий интеграция макони сифатида кўриб чиқилади. Тадқиқот натижалари инновацион технологиялар ўқувчиларнинг гуруҳ ичидаги мавқеини яхшилаши, коммуникация ва ҳамкорлик кўникмаларини ривожлантириши ҳамда ижобий социометрик статусни шакллантириши мумкинлигини кўрсатди.

Калит сўзлар: инновацион технологиялар, социометрик муносабатлар, культурологик ёндашув, бошланғич таълим, педагогик мулоқот.

Аннотация. В статье рассматривается процесс формирования социометрических отношений между учителем и учащимися начальных классов на основе инновационных педагогических технологий в контексте культурологического подхода. Образовательная среда анализируется как пространство культурной коммуникации и социальной интеграции. Результаты исследования показывают, что инновационные технологии способствуют улучшению социального статуса учащихся в группе, развитию коммуникативных навыков и формированию позитивных межличностных отношений.

Ключевые слова: инновационные технологии, социометрические отношения, культурологический подход, начальное образование, педагогическое взаимодействие.

Abstract. The article examines the formation of sociometric relationships between teachers and primary school students based on innovative pedagogical technologies within a cultural approach. The educational environment is considered as a space for cultural communication and social integration. The results demonstrate that innovative technologies

improve students’ sociometric status, enhance communication skills, and foster positive interpersonal relations.

Keywords: innovative technologies, sociometric relations, cultural approach, primary education, teacher–student interaction.

Кириш

Замонавий таълим тизимида бошланғич мактаб ўқувчиларининг фақат билим олиши эмас, балки уларнинг шахсий ва ижтимоий ривожланиши ҳам устувор вазифа сифатида қаралади. Шу жиҳатдан таълим жараёни когнитив фаолият билан бирга ижтимоий муносабатлар шаклланадиган муҳит ҳисобланади [1].

Социометрик муносабатлар ўқувчилар гуруҳидаги ўзаро танлов, эмоционал боғланиш ва ҳамкорлик даражасини ифодалайди. Бу кўрсаткичлар боланинг мактаб муҳитига мослашуви ва ижтимоийлашувида муҳим роль ўйнайди [5].

Культурологик ёндашувга кўра, таълим жараёни маданий қадриятларни ўзлаштириш ва мулоқот асосида шахс шаклланадиган ижтимоий макондир. Шу нуқтаи назардан инновацион технологиялар ўқувчи ва ўқитувчи ўртасидаги муносабатларни янги босқичга олиб чиқади [6].

Тадқиқот методологияси комплекс ёндашув асосида ташкил этилди ва унда бир қатор илмий методлардан самарали фойдаланилди. Жумладан, назарий таҳлил орқали муаммонинг илмий-методологик асослари ўрганилиб, мавжуд адабиётлар ва тадқиқотлар таҳлил қилинди. Қиёсий педагогик таҳлил ёрдамида анъанавий ва инновацион таълим ёндашувларининг ўзига хос жиҳатлари, афзаллик ва камчиликлари солиштирилди [3]. Ўқувчилар ўртасидаги шахслараро муносабатларни аниқлаш мақсадида социометрик диагностика, хусусан Морено усули қўлланилди, бу эса гуруҳ ичидаги ижтимоий алоқалар тизимини чуқур таҳлил қилиш имконини берди. Шунингдек, педагогик кузатув орқали таълим жараёнида ўқувчиларнинг фаоллиги, ўзаро муносабатлари ва иштирок даражаси мунтазам равишда кузатиб борилди. Экспериментал синов эса илгари сурилган гипотезаларни амалий жиҳатдан текширишга хизмат қилди.

Тадқиқотнинг экспериментал қисмида жами 80 нафар бошланғич синф ўқувчилари иштирок этди. Улар мақсадли равишда икки гуруҳга ажратилди: анъанавий таълим усуллари асосида ўқитилган назорат гуруҳи ва инновацион технологиялар жорий этилган тажриба гуруҳи. Бундай тақсимот турли таълим ёндашувларининг самарадорлигини қиёсий таҳлил қилиш имконини яратди.

Тажриба гуруҳида таълим жараёнини ташкил этишда бир қатор инновацион усуллардан фойдаланилди. Хусусан, лойиҳага асосланган ўқитиш ўқувчиларда мустақил фикрлаш ва амалий кўникмаларни шакллантиришга қаратилди [2]. Интерактив гуруҳли иш усуллари эса ўқувчилар ўртасида ҳамкорлик муҳитини кучайтиришга хизмат қилди. Рақамли таълим платформаларидан фойдаланиш таълим жараёнини замонавий ва қизиқарли шаклда ташкил этишга имкон берди. Ўйин технологиялари орқали ўқувчиларнинг ўқишга бўлган қизиқиши ва фаоллиги оширилди, муаммоли ўқитиш усули эса уларнинг танқидий ва ижодий фикрлаш қобилиятларини ривожлантиришга йўналтирилди [10].

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, инновацион технологиялар қўлланилган гуруҳда ижтимоий муносабатлар сезиларли даражада яхшиланди. Асосий кўрсаткичлар сифатида ижобий социометрик танловлар 30–35% дан 60% дан юқорига ошгани, гуруҳ

ичидаги изоляция ҳолатлари камайгани, ўқувчиларнинг ҳамкорлик фаоллиги ва коммуникатив фаоллик даражаси ортгани аниқланди. Шу билан бирга, ўқувчиларда ўзаро ишонч, эмоционал барқарорлик ва жамоада фаол иштирок этиш истаги кучайгани кузатилди.

Олинган натижалар Л.С. Выготскийнинг ижтимоий ривожланиш назарияси билан уйғун. Унга кўра, боланинг ривожланиши ижтимоий муҳит ва мулоқот орқали амалга ошади [4]. Инновацион технологиялар эса ўқувчини фаол субъектга айлантириб, ҳамкорлик муҳитини кучайтиради ва гуруҳ ичида ижобий муносабатларни шакллантиради.

Культурологик ёндашув нуқтаи назаридан таълим жараёни маданий мулоқот сифатида намоён бўлади. Ўқитувчи эса билим берувчи эмас, балки ижтимоий ва маданий муҳитни ташкил этувчи фасилитатор вазифасини бажаради.

Тадқиқот натижалари қуйидаги умумлаштирилган хулосаларни чиқариш имконини берди. Аввало, инновацион таълим технологияларидан самарали фойдаланиш ўқувчилар ўртасидаги социометрик муносабатларни ижобий томонга ўзгартиради, яъни гуруҳ ичида ўзаро қабул қилиш, ишонч ва мулоқот даражаси сезиларли равишда ошади. Шу билан бирга, ўқув жараёнида ҳамкорликка асосланган усулларнинг жорий этилиши ўқувчилар ўртасида ижтимоий интеграцияни кучайтириб, уларнинг жамоада ишлаш, бир-бирини қўллаб-қувватлаш ва ўзаро масъулиятни ҳис этиш кўникмаларини ривожлантиради. Культурологик ёндашув эса таълим жараёнини нафақат билим бериш, балки маданий мулоқот майдони сифатида ташкил этиш имконини яратиб, шахснинг маданий тафаккурини шакллантиришга хизмат қилади. Бу жараёнда ўқитувчининг анъанавий роли ҳам трансформацияга учраб, у билим берувчидан кўра кўпроқ фасилитатор ва модератор сифатида намоён бўлади.

Тадқиқот натижаларига таянган ҳолда қуйидаги амалий тавсиялар ишлаб чиқилди. Жумладан, бошланғич таълим тизимига инновацион технологияларни кенг жорий этиш орқали таълим сифатини ошириш мақсадга мувофиқдир. Бунда ўқитувчиларни социометрик диагностика асослари бўйича махсус тайёрлаш муҳим аҳамият касб этади. Шунингдек, гуруҳли иш методларини тизимли ва мақсадли равишда қўллаш ҳамда шакллантирувчи баҳолаш тизимини ривожлантириш ўқувчиларнинг индивидуал ва ижтимоий ривожланишига ижобий таъсир кўрсатади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. ФГОС начального общего образования. – М., 2009. – 32 с.
2. Чушкина Л.Н. Инновационные педагогические технологии… – 190–197 с. (8 с.)
3. Непсо М.З. Инновационные технологии… – 5–10 с. (6 с.)
4. Выготский Л.С. Развитие высших психических функций. – 368 с.
5. Эльконин Д.Б. Психология обучения младшего школьника. – 164 с.
6. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. – 544 с.
7. Полат Е.С. Новые педагогические технологии. – 286 с.
8. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – 512 с.
9. Кларин М.В. Инновационные модели обучения. – 320 с.
10. Беспалько В.П. Компьютерные технологии обучения. – 304 с.

FUNKSIONAL YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA KREATIV FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Nurjanova Rayxan Urazbaevna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada funksional yondashuv asosida bo‘lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kreativlik tushunchasining mohiyati, uning pedagogik faoliyatdagi o‘rni hamda zamonaviy ta’lim jarayonida tarbiyachilarning ijodiy salohiyatini oshirish omillari yoritib beriladi. Shuningdek, funksional yondashuvning mazmuni ochib berilib, u orqali talabalarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarga innovatsion yechim topish va ijodiy faoliyatni samarali tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirish metodlari ishlab chiqiladi. Ish natijalari bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish va ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *metodologiya,* ***kreativ faollik, ilmiy metodlar, amaliy metodlar,*** *kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik metod, loyihalash.*

Pedagogik faoliyatda ham metodologik xarakterdagi bilimlarga ega bo‘lish muhim ahamiyat kasb etadi. Metodologik bilimlar tarbiyachilarga pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etish imkonini beradi. Natijada ta’lim-tarbiya jarayoni ijodiy xarakter kasb etadi. Bunday vaziyatda pedagogik ta’limning muhim vazifalaridan biri mazkur jarayonda bo‘lajak tarbiyachilar tomonidan pedagogika nazariyasiga oid metodologik bilimlarni o‘zlashtirish zaruriyatini kuchaytiradi. Chunki ta’lim jarayonining ijodiy xarakter kasb etishini ta’minlashda pedagogika oid nazariy bilimlar muhim o‘rin egallaydi. Shuning uchun bo‘lajak tarbiyachilarda metodologik madaniyatni **shakllantirish va muntazam rivojlantirish talab qilinmoqda.** Bo‘lajak tarbiyachilar pedagogika faniga oid metodlarni bilish va o‘z amaliy faoliyatlarida qo‘llay olishlar muammolarni hal etish vositasi bo‘lish bilan bir qatorda, **kreativ faollik**ni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Ilmiy metodlarni nostandart pedagogik vaziyatlarda qo‘llash tarbiyachilardan ijodkorlikni talab qiladi.

Bugungi kelib maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun mutaxassislar tayyorlash jarayoni kompetensiyaviy yondashuvga tayangan holda tashkil etilmoqda. Bu bo‘lajak tarbiyachilarning turli fanlarga oid integrativ bilimlarni o‘zlashtirish asosida ularning kognitiv ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Bu quyidagilarda o‘z ifodasini topgan:

- vaqtni to‘g‘ri boshqarish;
- umrbod o‘qib o‘rganish asosida o‘z - o‘zini rivojlantirish;
- muhim axborotlarni izlash va tanqidiy tahlil qilish;
- qo‘yilgan muammolarga tizimli yondashuv asosida yechim topish;
- maktabgacha ta’lim tashkilotida pedagogik vazifalarni aniqlash;
- maktabgacha ta’lim yo‘nalishida kichik tadqoqtlarni amalga oshirish;
- maktabgacha ta’lim jarayonida turli innovatsiyalar, texnologiyalar, metodlar va didaktik vositalardan foydalanish kompetensiyasini o‘zlashtirish.

Shaxsiy-kompetensiyalarni egallash bo‘lajak tarbiyachilarda kreativlikni faolllashtirishni talab qiladi. Bo‘lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni shakllantirish

a) pedagogik mahoratni;

b) tarbiyachilikning o‘ziga xosligini ifodalovchi ta’lim texnologiyalarini;

v) umum**pedagogik metodologiyani** egallashni talab qiladi.

Pedagogik metodologiyani egallash bo‘lajak tarbiyachilar uchun zarur hisoblanadi. Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarda kreativ faollikni tizimli tarzda shakllantirish uchun metodologik bilimlar poydevor vazifasini o‘taydi.

Bo‘lajak tarbiyachilarga pedagogik xarakterdagi metodologik bilimlarni o‘rgatish o‘zining ikkita muhim jihatiga ega:

1. Bilish va amaliy faoliyatda qo‘llaniladigan metodlar majmuini o‘zlashtirish.

2. Bilish va jarayonni o‘zgartirish haqidagi metodologik xarakterdagi pedagogik ta’limotlardan xabardor bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Pedagogik metodologiya shaxs faoliyati haqidagi bilimlar majmuni mujassamlashtiradi. Pedagogik metodlar faoliyat obyekti va uning qonuniyatlarini bilish va amaliy o‘zlashtirish mexanizmidir. Pedagogik metodlarni o‘zlashtirish natijasida bo‘lajak tarbiyachilar bolalarga bilimlarni osongina taqdim etish yo‘llarini bilib oladilar. Ushbu metodlarga nazariy bilimlarga asoslangan holda o‘zlashtirilgan **amaliy metodlar** ham kiradi.

Tarbiyachilik faoliyatining ilmiy metodlari pedagogik amaliyotda sinovdan o‘tgan va muayyan me’yorlar, qoidalar, ko‘rsatmalar ko‘rinishiga kelgan talablar bo‘lib, tarbiyachi o‘z pedagogik faoliyatida ularni qo‘llashi talab qilinadi. Metodlar har doim tarbiyachining ijodiy faoliyati mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogikaga oid n**azariy bilimlar** ilmiy bilishning shunday shakliki, u ta’lim-tarbiya jarayonining qonuniyatlari haqida yaxlit tasavvur hosil qiladi hamda tushuntirish va bashorat qilish funksiyalarini bajaradi. Pedagogik metodlarning samaradorligi unda ta’lim-tarbiya qonuniyatlarining aniq aks etishida namoyon bo‘ladi. Pedagogik metodlar faqat maqsadga erishish vositasi emas, balki kasbiy **bilimning muhim shakli** hisoblanadi. Pedagogik nazariya va metodning umumiy jihati **aniq mazmunga egalik**, ya’ni bilish predmetining **haqiqiy to‘g‘ri aks etishi**dir. Ularning farqi shundaki, metod nafaqat obyektiv, balki **subyektiv xususiyatga ham** ega, u bilish subyekti tomonidan ijodiy faoliyat jarayonida yaratiladi va yangi bilimlarni ilmiy asosda ishlab chiqishning ongli qo‘llaniladigan usuli sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy bilish metodlarining samaradorligi ta’lim oluvchilar tomonidan ajratib olingan obyektiv mazmunga egaligi bilan tavsiflanadi. Pedagogikaga oid ilmiy bilish metodlari ayni paytda **amaliy pedagogik faoliyat metodlari** hamdir.

Bo‘lajak tarbiyachilar o‘zlarining pedagogik faoliyatlarini amalga oshirish maqsadida amaliy metodlarni o‘zlashtiradilar. Ushbu metodlar ta’lim jarayonining qonuniyatlari, uning amal qilish shartlari va **imkoniyatlari**ni mujassamlashtiradi. Talabalar maktabgacha ta’lim jarayonining qonuniyatlari va uni amalga oshirishni bilish asosida ushbu jarayonda nimalarni o‘zgartirish, qayta shakllantirish mumkinligini bashorat qiladilar. Agar ta’lim jarayonini ilmiy asosda bilish natijalari, bo‘lajak tarbiyachilarning tushunchalar, ular orasidagi aloqadorlik ifodasi shaklidagi **konseptual bilimlarni mujassamlashtirsa**, ularning imkoniyatlarini bilish natijasi esa talabalarning istiqboldagi kasbiy faoliyatini ifodalovchi ideal modellar ko‘rinishidagi **loyihaviy bilim**dir. Shuning uchun ham bo‘lajak tarbiyachilarning loyihalashga oid bilimlari **amaliy bilishning muhim ko‘rinishi hisoblanadi**.

Loyihalash pedagogik faoliyatda muhim ahamiyatga ega. U pedagog kreativligining ifodasi hisoblanadi. Loyihalash kreativ faollikni amalga oshirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak tarbiyachi amaliy faoliyatining tabiati loyihada o‘z ifodasini topadi. Shu bilan bir qatorda, tarbiyaviy jarayonlarni loyihalash uchun bo‘lajak tarbiyachilar uning qonuniyatlarini yaxshi bilishlari, tashkil etish metodlarini aniq tanlay olishlari talab etiladi. Pedagogik

jarayonlarning qonuniyatlarini bilishi bo‘lajak tarbiyachilarga uni qanday o‘zgartirish yoki boyitish mumkinligi haqidagi kasbiy tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuning uchun ham pedagogika fanidagi metodologik bilimlarni o‘zgartirish bo‘lajak tarbiyachilarning funksional imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Ularning bilimlari real pedagogik amaliyotga tadbiq etilganda funksional xarakter kasb etadi. Pedagogik amaliyotda qo‘llaniladigan metodlar maktabgacha ta’lim jarayoni samaradorligini ta’minlashga xizmat qilishi lozim. Bo‘lajak tarbiyachilar o‘zlari yaratayotgan loyihalarda pedagogik amaliyotni tahlil qilgan holda samarali metodlarni tanlashlari kerak. Ushbu metodlar pedagogik jarayon haqidagi bilimlarga aaoslanganligi sababli, uning samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Pedagogik amaliyotda samarali, innovatsion metodlardan foydalanish ijobiy xarakterga ega. Shunga ko‘ra, bo‘lajak tarbiyachilar maktabgacha ta’lim jarayonining o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishlari talab qilinadi. Talabalar pedagogik amaliyot davrida dastlab, maktabgacha ta’lim jarayoni haqidagi muayyan bilimlarni o‘zlashtirgan bo‘lishlari kerak.

Ko‘rinib turibdiki, pedagogik metodologiya - bilish va funksional faoliyatni loyihalash, tashkil etishga xizmat qiladigan metodlari tizimi hamda mazkur tizim haqidagi nazariy yondashuvlardan iborat.

Ayrim metodlar haqidagi pedagogik bilimlar va ularni o‘z o‘rnida qo‘llay olish bo‘lajak tarbiyachi loyihalash faoliyatining samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Bugungi kunda pedagogik bilimlarni amaliyotda qo‘llash pedagogik jarayonning samarali kechishiga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim pedagogikasiga oid bilimlarni loyihalash funksiyasini amalga oshirish jarayonida metodlarni ongli tarzda qo‘llash talabaning ijodiy faoliyati mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra, bo‘lajak tarbiyachilar, pedagogika turkum fanlariga oid nazariy bilimlarni o‘zlashtirishda mazkur bilimlarning metod sifatida namoyon bo‘lishini ta’minlovchi amaliy harakatlarni ham bajarishga o‘rganishlari lozim.

Shuning uchun ham pedagogika turkum fanlariga oid bilimlarning funksional imkoniyatlarini aniqlashga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Mazkur bilimlarni talabalar mustaqil ijodiy faoliyatining turli ko‘rinishlarida qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Bo‘lajak tarbiyachilarning bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini nazorat qilishda ularni o‘z kognitiv faoliyatida metod sifatida qo‘llashiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Bo‘lajak tarbiyachilar o‘zlashtirgan bilimlarini amaliy faoliyatlarda qo‘llashlari ijodiy jarayon bo‘lganligi uchun ham, ularda kreativ faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalari o‘z sohalarida kichik tadqiqotlarni amalga oshirish bilan bir qatorda, ularning natijalaridan pedagogik amaliyot davrida foydalana olishlari lozim.

Bo‘lajak tarbiyachilar o‘zlashtirishlari zarur bo‘lgan metodologik bilimlar quyidagi funksiyalarni bajarishga xizmat qiladi.

Prognostik funksiya. Ushbu funksiya maktabgacha ta’lim pedagogikasiga oid kichik tadqiqotlarni amalga oshirish va pedagogik jarayonni loyihalash, funksional xizmatlarga erishishga xizmat qiladigan metodlarni to‘g‘ri tanlay olishlarida namoyon bo‘ladi. Metodlarni maqsadga muvofiq tarzda tanlash, bo‘lajak tarbiyachilarga o‘z oldilariga qo‘yilgan maqsadlarga erishish qulayligini vujudga keltiradi. Tanlangan metodlar tarbiyaviy jarayon maqsadiga hamda uning faoliyati obyektiga mos bo‘lishi talab etiladi.

Bo‘lajak tarbiyachining o‘z kasbiy faoliyatini tartibga solish funksiyasi. Ushbu funksiya doirasida kognitiv faoliyat va amaliyotda qo‘llaniladigan barcha metodlar bo‘lajak

tarbiyachining kasbiy faoliyatini tartibga soluvchi, tizimlashtiruvchi metodlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Bo‘lajak tarbiyachilarning evristik funksiyasi. Bu jarayonda talabalar izlanishlarni amalga oshirib, ijodiy faoliyat tajribasini o‘zlashtiradilar. Kreativ faollik ko‘rsatish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Kognitiv va amaliy faoliyat tarjribasini hosil qilishga xizmat qiladigan bilimlar bo‘lajak tarbiyachilarning metodologik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Metodologik madaniyat bo‘lajak tarbiyachining kreativligi tushunchasiga yaqin bo‘lib, uning faollashuvida bo‘lishiga xizmat qiladi.

Bo‘lajak tarbiyachilarning kreativ faolligini ta’minlashda loyihalash faoliyati muhim ahamiyatga ega. Pedagogik jarayon loyihasida tarbiyachi nimani maqsad qilayotganligi, bu maqsadga qay darajada erishishi mumkinligi o‘z ifodasini topadi. Bo‘lajak tarbiyachining loyihalashga oid bilimlari samarador bo‘lishi uchun u empirik bilish natijalari, ishonchli dalillar bilan ishlay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi kerak.

Hissiy-empirik va konseptual bilish bo‘lajak tarbiyachilarning o‘z–o‘zini rivojlantirishiga xizmat qiladigan ta’lim prinsipi hisoblanadi. O‘z – o‘zini rivojlantirish - bo‘lajak tarbiyachining o‘z faoliyatini ongli tarzda boshqaradigan reproduktiv-bilish faoliyati mahsuli bo‘lib, ijtimoiy tajribasi o‘zlashtirib, o‘z kreativligini namoyon qilishga yo‘naltirilgan faoliyatidir.

Ushbu prinsipga amal qilish natijasida bo‘lajak tarbiyachilar kreativ faollik ko‘rsatish ehtiyojiga ega bo‘ladilar. Shuning uchun ham ma’ruzalarni tinglash, ilmiy manbalar bilan tanishish va mustaqil bilim olish jarayonida ijtimoiy pedagogik tajribani tizimli tarzda o‘zlashtirishga intiladilar. Ma’lumki, tajriba – shaxs hamda jamiyat orasidagi o‘zaro ta’sir mahsuli bo‘lib, ajdodlardan avlodlarga o‘tadi. Alohida bir shaxsning tajribasi esa – unga jamiyatning ta’siri natijasi hisoblanadi. Mazkur tajriba sensitiv tajriba, emotsional tajriba, bilimiy tajriba va bilish hamda amaliy faoliyat tajribalarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Bo‘lajak tarbiyachilarning nazariy bilimlarni o‘zining sensitive tafakkuri tajribasi bilan uyg‘unlashtirishi mazkur bilimlarning mazmun mohiyatini anglashi natijasida amalga oshadi. Kasbiy bilimlarning mazmun mohiyatini anglash uni tushunish natijasida amalga oshadi. Tushunish yangi bilimlar mazmun mohiyatini anglashning kognitiv jarayoni bilan bir qatorda, uning natijasi hamdir. Bo‘lajak tarbiyachilarning o‘zlashtirgan bilimlari, ularning amaliy faoliyatlari uchun muvaffaqiyatli bo‘lishi yoki bo‘lmasligi ham mumkin. Mazkur bilimlar muvaffaqiyatli bo‘lganda talabalarda kreativ faollik vujudga keladi. Bilimlarni tushunish o‘z xarakterga ko‘ra, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri, chuqur yoki yuzaki, mukammal yoki nomukammal bo‘lishi mumkin. Talabalar abstract bilimlarning mazmun-mohiyatini tushunishlari uchun dastlab, uni hissiy tafakkur yoki empirik tasavvur qilishlari lozim. Bu ijodiy jarayon hisoblanadi. Chunki bo‘lajak tarbiyachilar kasbiy bilimlarning mohiyatini anglagan holda uning mazmun mohiyati haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. 2018 йил 30 сентябрдаги ПҚ-3955-сонли “Мактабгача таълим тизимини бошқаришни такомиллаштириш чора –тадбирлари тўғрисида”ги қарори.
2. 2019 йил 8 майдаги ПҚ-4312-сон “Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори.

3. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 13 майдаги 391-сон “Мактабгача таълим муассасалари фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.
4. Мухина В. С. М92 Возрастная психология: феноменология развития, детство, отрочество: Учебник для студ. вузов. - 4-е изд., стереотип. - М.: Издательский центр «Академия», 1999. - 456 с

MADANIYATSHUNOSLIK YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING REFLEKSIV-MADANIY DUNYOQARASHINI TARBIYALASH BOSQICHLARI VA TEXNOLOGIYALARI

Xolbo‘tayeva Dilfuza
TPMI tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Maqolada madaniyatshunoslik yondashuvi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv-madaniy dunyoqarashini shakllantirishning nazariy va amaliy masalalari yoritilgan. Tadqiqotda bo‘lajak mutaxassislarning o‘z-o‘zini anglash, madaniy qadriyatlarni idrok etish va pedagogik faoliyatda refleksiv ko‘nikmalarni qo‘llash bosqichlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Muallif tomonidan talabalarning dunyoqarashini boyitishga xizmat qiluvchi zamonaviy ta’lim texnologiyalari taklif etilgan. Maqola pedagogika oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilari va soha tadqiqotchilari uchun mo‘ljallangan.*

Kalit so‘zlar: *madaniyatshunoslik yondashuvi, refleksiv-madaniy dunyoqarash, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik texnologiya, qadriyat, o‘z-o‘zini tahlil, kasbiy tayyorgarlik.*

Zamonaviy globallashuv sharoitida ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri nafaqat yuqori malakali mutaxassis, balki boy madaniy dunyoqarashga va chuqur refleksiv fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan o‘qituvchi shaxsini tayyorlashdan iborat. Bo‘lajak o‘qituvchining professional shakllanishida uning o‘z faoliyatini madaniy qadriyatlar prizmasi orqali tahlil qila olishi, ya’ni refleksiv-madaniy dunyoqarashi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayoni talabalarda ushbu sifatlarni shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Biroq, bu jarayon o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi; u aniq maqsadga yo‘naltirilgan, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan va maxsus pedagogik texnologiyalarni talab qiladigan murakkab tizimdir. Ushbu maqolaning maqsadi — pedagogika fanlari misolida talabalarda refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashning asosiy bosqichlarini (motivatsion-diagnostik, amaliy va refleksiv-transformativ) va ularda qo‘llaniladigan samarali metodlarni ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berishdan iborat.

Pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida talabalarda refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalash o‘ziga xos bosqichlarda amalga oshiriladi. Uning asosiy bosqichlari motivatsion-diagnostik, amaliy bosqich va refleksiv-transformativ bosqichlarda amalga oshiriladi. Talabalarda refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashning **motivatsion-diagnostik bosqichi** pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida talabalarda madaniy-refleksiv dunyoqarashni rivojlantirishning dastlabki va muhim bosqichi hisoblanadi. Ushbu bosqichning asosiy maqsadi talabalarda milliy va umuminsoniy madaniyatga ongli munosabat, pedagogik voqelikni tahlil qilishga ichki ehtiyoj, o‘z qarashlari va qadriyatlarini anglashga yo‘naltirilgan motivatsiyani shakllantirish hamda ularning mavjud bilim, munosabat va refleksiv

tayyorgarlik darajasini aniqlashdan iborat. Bu bosqichda talabalar, avvalo, pedagogika fanlarini faqat nazariy bilimlar majmui sifatida emas, balki inson, jamiyat, madaniyat, tarbiya va ta’lim o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anglash vositasi sifatida qabul qila boshlaydilar. Shu jihatdan motivatsion-diagnostik bosqich talabada “Nima uchun men pedagogik madaniyatni anglashim kerak?”, “Mening shaxsiy qarashlarim ta’lim-tarbiya jarayoniga qanday ta’sir qiladi?”, “Madaniy qadriyatlar va pedagogik faoliyat o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?” kabi savollarga ichki qiziqish uyg‘otadi. Mazkur bosqichning **motivatsion jihati** talabalarda madaniy-refleksiv dunyoqarashni rivojlantirishga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish bilan bog‘liq. Bu jarayonda professor-o‘qituvchi talabalarni pedagogik kasbning madaniy mazmuni, o‘qituvchi shaxsining ma’naviy qiyofasi, milliy qadriyatlar, umuminsoniy g‘oyalar, kasbiy mas’uliyat va refleksiyaning ahamiyati bilan tanishtiradi. Talabalar pedagogik faoliyatda faqat bilim berish emas, balki shaxs tarbiyasi, madaniy muhit yaratish, o‘quvchilar bilan insonparvarlikka asoslangan munosabatni qaror toptirish muhim ekanligini anglab yetadilar.

Refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashning diagnostik jihati esa talabalarning madaniy dunyoqarashi, qadriyatlarga munosabati, o‘zini anglash darajasi, refleksiv fikrlash ko‘nikmasi va pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu jarayonda anketa, suhbat, test, esse, refleksiv kundalik, pedagogik vaziyatlar tahlili, “Mening pedagogik qarashlarim”, “Men uchun madaniyat nima?”, “Zamonaviy o‘qituvchi qanday bo‘lishi kerak?” kabi mavzularda yozma ishlardan foydalanish mumkin.

Motivatsion-diagnostik bosqichda professor-o‘qituvchi talabalarning refleksiv-madaniy ko‘nikmalarining boshlang‘ich darajasini aniqlashga muvaffaq bo‘ladi. Masalan, talabalarning milliy madaniyatga munosabati, o‘z kasbiga qiziqishi, pedagogik qadriyatlarni tushunishi, boshqalar fikrini hurmat qilishi, o‘z xatti-harakatlarini tahlil qila olishi, tanqidiy va refleksiv fikrlashga moyilligi o‘rganiladi. Bu ma’lumotlar keyingi bosqichlarda ta’lim mazmuni, metodlar va topshiriqlarni to‘g‘ri tanlashga yordam beradi. Ushbu bosqichda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- talabalarda pedagogik fanlarga nisbatan qiziqishni kuchaytirish;
- madaniyat, qadriyat, tarbiya, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi aloqadarlikni anglatish;
- refleksiv fikrlashga ehtiyoj uyg‘otish;
- talabalarning mavjud bilim va qarashlarini tashxis qilish;
- ularda o‘z-o‘zini baholash va o‘z qarashlariga tanqidiy yondashish ko‘nikmasini shakllantirish kabilardan iborat.

Refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashning motivatsion-diagnostik bosqichida qo‘llaniladigan samarali metodlar qatoriga muammoli savollar, evristik suhbat, “aqliy hujum”, qadriyatlar shkalasi, keys-tahlil, refleksiv esse, klaster, “Madaniy qadriyatlar xaritasi”, “O‘qituvchi shaxsining ideal modeli” kabi interfaol usullarni kiritish mumkin. Bu metodlar talabalarni faol fikrlashga, o‘z munosabatini bildirishga, shaxsiy tajribasini tahlil qilishga va pedagogik hodisalarga madaniy nuqtai nazardan yondashishga undaydi. Natijada talabalarda pedagogik fanlarni o‘rganishga nisbatan barqaror qiziqish, madaniy qadriyatlarni anglashga intilish, o‘z shaxsiy va kasbiy pozitsiyasini tahlil qilishga tayyorlik, refleksiv fikrlashga ehtiyoj shakllana boshlaydi. Shu bilan birga, professor-o‘qituvchi talabalarning qaysi jihatlari yetarli, qaysi yo‘nalishlarda qo‘shimcha rivojlantirish zarurligini aniqlaydi. U talabalarni ichki jihatdan faollashtiradi, ularning pedagogik madaniyatga bo‘lgan munosabatini aniqlaydi, refleksiv fikrlashga yo‘naltiradi va keyingi bosqichlarda amalga oshiriladigan ta’limiy-tarbiyaviy ishlar uchun zarur asos yaratadi.

Talabalarda refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashning amaliy bosqichi, ya’ni pedagogik faoliyatga yo‘naltirilgan bosqichi nazariy bilimlar faoliyat orqali jonlanadi va bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy tajribaga aylanadi. Motivatsion-diagnostik bosqichida talabada ichki ehtiyoj va qiziqish shakllanadi, amaliy bosqichda bu ehtiyoj amaliy harakatlar orqali rivojlantiriladi. Ushbu bosqichning asosiy mohiyati talabalarni real yoki modellashtirilgan pedagogik vaziyatlarda mustaqil faoliyatga jalb qilish, ularda madaniy qadriyatlar asosida qaror qabul qilish, muammoli vaziyatlarni hal etish va pedagogik fikr-mulohaza yuritish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Amaliyot jarayonida talabalarda bilim, tushunish, qo‘llash, tahlil qilish, xulosa chiqarish kabi kognitiv ko‘nikmalar shakllanadi. Shuningdek, pedagogik faoliyatga shaxsiy munosabat paydo bo‘ladi, ular uchun madaniy qadriyatlar amaliy yo‘naltiruvchi omilga aylanadi, refleksiya dastlabki darajada namoyon bo‘ladi. Bu bosqichda talabalar:

- dars loyihalarini ishlab chiqarish;
- madaniy komponentlarni ta’lim mazmuniga integratsiya qilish;
- o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarni modellashtirish;
- pedagogik qarorlarni asoslashni o‘rganish;

turli ijtimoiy-madaniy vaziyatlarda pedagogik pozitsiyani tanlash kabi vazifalarni amalga oshiradilar.

Amaliyot bosqichida madaniy-refleksiv dunyoqarashni rivojlantirish quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshadi: interiorizatsiya, modellashtirish, imitatsiya va variatsiya, situativ qaror qabul qilish kabilar. Bu bosqichda interfaol va faol o‘qitish texnologiyalari ustuvor hisoblanadi. Ayniqsa, dars tadqiqoti yoki darsni o‘rganish texnologiyasi talabalarning o‘z faoliyatini kuzatish va tahlil qilish imkoniyatini kengaytiradi, bu esa refleksiyaning keyingi bosqichiga o‘tish uchun asos yaratadi. Bunda o‘qituvchilar guruhi tomonidan darsni birgalikda rejalashtirish, o‘tkazish, kuzatish va tahlil qilishga asoslangan hamkorlikdagi kasbiy rivojlanish usuli bo‘lib, bu asosan pedagogik amaliyot davrida qo‘llaniladi. Bu bosqichda professor-o‘qituvchining faoliyati fasilitator, ekspert, maslahatchi sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada amaliyot bosqichi yakunida talabalarda madaniy asosda qaror qabul qilish ko‘nikmasi, pedagogik faoliyatni rejalashtirish va amalga oshirish ko‘nikmasi, vaziyatli fikrlash va moslashuvchanlik, amaliy refleksiya shakllanadi.

Talabalarda refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashning **r**efleksiv-transformativ bosqich pedagogika turkum fanlarini o‘qitish jarayonida talabalarda madaniy-refleksiv dunyoqarashni tarbiyalashning eng yuqori, yakunlovchi va shaxsiy o‘zgarishga yo‘naltirilgan bosqichidir. Bu bosqichda talaba nafaqat pedagogik bilimlarni o‘zlashtiradi, balki o‘zining madaniy qarashlari, qadriyatlari, kasbiy pozitsiyasi va pedagogik faoliyatga munosabatini qayta tahlil qiladi, takomillashtiradi va yangi sifat darajasiga ko‘taradi. Mazkur bosqichning asosiy maqsadi talabalarda o‘z pedagogik faoliyatini madaniy qadriyatlar, milliy va umuminsoniy mezonlar, kasbiy mas’uliyat hamda refleksiv fikrlash asosida baholash, qayta ko‘rib chiqish va rivojlantirish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat. Bunda refleksiya oddiy “o‘zini tahlil qilish” darajasida qolmaydi, balki talabaning shaxsiy va kasbiy o‘zgarishiga xizmat qiladigan transformativ kuchga aylanadi. Ushbu bosqichning muhim xususiyati shundaki, talabada madaniy-refleksiv dunyoqarash barqaror kasbiy sifat darajasida shakllana boshlaydi. U pedagogik voqelikka shaxsiy e’tiqod, madaniy mas’uliyat, insonparvarlik, milliy qadriyatlar va umuminsoniy mezonlar asosida yondashadi. Talaba pedagogik jarayonni insonni

rivojlantiruvchi, shaxsni kamol toptiruvchi va madaniy muhit yaratuvchi faoliyat sifatida anglaydi.

Refleksiv-transformativ bosqichning mazmuni bir nechta yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

1. Kognitiv qayta anglash. Talaba pedagogika, tarbiya nazariyasi, didaktika, pedagogik mahorat, etnopedagogika, pedagogik psixologiya kabi fanlarda o‘rgangan bilimlarini qayta tahlil qiladi. U nazariy bilimlarni mexanik ravishda eslab qolmaydi, balki ularni o‘z hayotiy va kasbiy tajribasi bilan bog‘laydi.

2. Qadriyatli qayta baholash. Talaba milliy madaniyat, oilaviy tarbiya, ustoz-shogird an’analari, insonparvarlik, bag‘rikenglik, adolat, mas’uliyat, hamkorlik kabi qadriyatlarni pedagogik faoliyatning asosiy mezoni sifatida anglaydi.

3. Kasbiy pozitsiyaning shakllanishi. Talaba o‘zini bo‘lajak pedagog sifatida tasavvur qiladi, o‘z kasbiy maqsadlarini belgilaydi, pedagogik faoliyatda qanday prinsiplarga amal qilishini aniqlaydi. Bu jarayonda unda kasbiy identifikatsiya, ya’ni o‘zini pedagogik kasb bilan bog‘liq holda anglash rivojlanadi.

4. Amaliy tajribani qayta qurish. Talaba mikrodars, pedagogik amaliyot, keys-tahlil, dars loyihasi, tarbiyaviy tadbir yoki guruhiy muhokamalar jarayonidagi o‘z faoliyatini tahlil qiladi. U qaysi harakatlari samarali bo‘lgani, qaysi jihatlarda qiyinchilikka duch kelgani, qanday xatolardan xulosa chiqarish kerakligini anglaydi.

Bu bosqichda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi: refleksiv kundalik yuritish, portfolio tayyorlash, “Mening pedagogik pozitsiyam” mavzusida esse yozish, pedagogik vaziyatlarni tanqidiy tahlil qilish, muhim pedagogik holatlar tahlili, debat, ilmiy munozara, kouching, mentorlik, o‘z o‘zini baholash varaqalari, tengdoshlar fikri asosida tahlil, amaliy tadqiqot elementlari. Masalan, refleksiv kundalik talabaga har bir mashg‘ulot yoki amaliy faoliyatdan keyin o‘z fikrini yozma tarzda ifodalash imkonini beradi. Bu jarayon refleksiyani odatga aylantiradi. Portfolio esa talabaning shaxsiy va kasbiy o‘sish dinamikasini ko‘rsatadi. Unda talabaning esselari, dars ishlanmalari, tahlillari, o‘z o‘zini baholash natijalari, ijodiy ishlari, pedagogik kuzatuvlari va xulosalari jamlanadi. Portfolio orqali talaba o‘z rivojlanishini ko‘radi va keyingi maqsadlarini belgilaydi.

Refleksiv-transformativ bosqichida professor-o‘qituvchining mavqei va roli ham o‘zgaradi. U mentor, maslahatchi, yo‘naltiruvchi va hamfikr sifatida faoliyat yuritadi. O‘qituvchi talabaga tayyor xulosa bermaydi, balki uni mustaqil fikrlashga, o‘z pozitsiyasini asoslashga, o‘z tajribasidan xulosa chiqarishga va kasbiy o‘sish rejasini tuzishga yo‘naltiradi. Mazkur bosqichning natijasida talabalarda madaniy voqelikni anglash, pedagogik faoliyatni qadriyatlar asosida baholash, o‘zini bo‘lajak o‘qituvchi sifatida idrok etish, o‘z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish, shaxsiy va kasbiy rivojlanish yo‘nalishini belgilash ko‘nikmalari shakllanadi. Talaba pedagogika fanlarini o‘zlashtirish jarayonida nafaqat bilim oladi, balki o‘zining ichki dunyosi, qarashlari va kasbiy maqsadlarini ham qayta shakllantiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashning bir qator texnologiyalaridan ham foydalaniladi. Shunday texnologiyalardan biri refleksiv kundalik texnologiyasidir. Talabaning o‘quv, shaxsiy va kasbiy tajribasini muntazam yozma tahlil qilishga asoslangan pedagogik texnologiya bo‘lib, mazkur texnologiya talabalarda refleksiv-madaniy dunyoqarashni tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Bu texnologiya orqali talaba o‘z fikri, hissiyoti, qadriyatlari, pedagogik qarashlari va kasbiy pozitsiyasini anglaydi, qayta baholaydi va takomillashtiradi. Refleksiv kundalik texnologiyasini qo‘llashdan asosiy maqsadi talabalarda o‘rganilgan bilimni shaxsiy tajriba, madaniy qadriyat va kasbiy mas’uliyat bilan bog‘lash

ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat. Shuning uchun bu texnologiya talabani faol fikrlovchi, o‘z qarashlarini tahlil qiluvchi va pedagogik voqelikka madaniy nuqtai nazardan yondashuvchi shaxs sifatida rivojlantiradi. Pedagogika, tarbiya nazariyasi, didaktika, pedagogik mahorat, pedagogik psixologiya, etnopedagogika kabi fanlarda refleksiv kundalikdan foydalanish talabalarning nazariy bilimlarini chuqurlashtiradi. Ushbu texnologiyani qo‘llashda o‘qituvchi talabalarga tayyor xulosa bermaydi, balki yo‘naltiruvchi savollar orqali ularni mustaqil fikrlashga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, madaniyatshunoslik yondashuviga asoslangan ushbu bosqichli pedagogik texnologiyalar bo‘lajak o‘qituvchilarni nafaqat “dars beruvchi”, balki ta’lim jarayonida madaniy muhit yaratuvchi va o‘quvchi shaxsini yuksaltiruvchi haqiqiy murabbiy sifatida tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-fevraldagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmonidagi uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishga oid ustuvor vazifalar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022-2026 yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-sonli farmonining mazmun, mohiyati.
3. Safarova R.G. Mechanisms of applying the cultural science approach to the didactic process based on the integration of pedagogical subjects. SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 2 ISSUE 9 SEPTEMBER 2023 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337. P 495-499
4. Safarova R.G. Madaniyatshunoslik yondashuvi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda“4 k” kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari. “International scientific practical conference strategies for the development of professional competence of future teachers based on the approach of cultural studies: problems and solutions” October 19-20, 2023. P 158-164.
5. Safarova R.G. Pedagogikada madaniyatshunoslik yondashuvining rivojlanish tendensiyalari // Zamobaniy uzluksiz ta’limni raqamlashtirish: pedagogika sohasidagi zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish omillari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallar to‘plami. –Andijon, 2022. –B. 20-23.

TALABALARDA SOTSIOMETRIK MUNOSABATLARNI SHAKLLANISHIDA NAFS TARBIYASINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Raxmonova Nazokat
Qori Niyoziy nomidagi TPMI mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya. Ushbu maqolad talabalarda nafs tarbiyasini shakllantirish va bunday tarbiya muhitida sotsiometrik munosabatlarning borishi tahlil qilinadi. Bu jarayon nafaqat individual rivojlanishni ta’minlaydi, balki ijtimoiy munosabatlar tizimida ham muhim rol o‘ynaydi. Nafs tarbiyasi pedagogik xususiyatlari, yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi. Hamda talabalarda nafs tarbiyasini amalga oshirish vositasida ular orasidagi sotsiometrik munosabatlarning barqaror va konstruktiv sifatda shakllantirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: talabalar, nafs tarbiyasi, sotsiometrik munosabatlar, madaniy yondashuv, ta’lim va tarbiya, ijtimoiy muammolar

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatda yuzaga kelayotgan ijtimoiy muammolar, jumladan, axborot xurujlari, salbiy kontentlarning keng tarqalishi, yoshlar orasida mas’uliyatsizlik, axloqiy me’yorlardan chetga chiqish hamda ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik kabi holatlar shaxs tarbiyasiga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Mazkur muammolarning ildizida talabalarda o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, refleksiya qilish kabi psixologik va axloqiy ko‘nikmalarning yetarli darajada shakllanmaganligi yotadi. Shu nuqtayi nazardan, nafs tarbiyasi zamonaviy ta’lim tizimida dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

Nafs tarbiyasi shaxsning ichki nazorat mexanizmlarini rivojlantirish, impulsiv xatti-harakatlarni tartibga solish hamda ongli qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon nafaqat individual rivojlanishni ta’minlaydi, balki ijtimoiy munosabatlar tizimida ham muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, talabalarning o‘zaro munosabatlarini o‘rganishda qo‘llaniladigan sotsiometrik yondashuv doirasida nafs tarbiyasining ahamiyati alohida e’tiborga loyiqdir.

Sotsiometrik munosabatlar tizimi shaxsning guruh ichidagi maqomi, o‘zaro tanlovlar, ijtimoiy yaqinlik va masofa kabi ko‘rsatkichlar orqali aniqlanadi. Ushbu jarayonda talabaning ichki axloqiy mezonlari, empatiya darajasi, o‘zini boshqarish qobiliyati va boshqalarga nisbatan munosabati hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Nafs tarbiyasi aynan shu jihatlarni rivojlantirish orqali talabaning ijtimoiy moslashuvchanligini oshiradi, jamoada sog‘lom psixologik muhit shakllanishiga xizmat qiladi. Natijada sotsiometrik strukturalarda ijobiy o‘zgarishlar yuz beradi, ya’ni talabalarning o‘zaro ishonchi, hamkorligi va ijtimoiy faolligi ortadi.

Tarixiy-madaniy yondashuv nuqtayi nazaridan qaralganda, shaxs rivoji ijtimoiy muhit va madaniy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu yondashuv asoschisi Lev Vygotsky ta’kidlaganidek, inson psixikasi ijtimoiy muloqot va madaniy tajriba asosida shakllanadi. Demak, nafs tarbiyasi jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish talabaning nafaqat individual, balki ijtimoiy rivojini ham ta’minlaydi. Bu esa o‘z navbatida sotsiometrik munosabatlarda barqaror va konstruktiv aloqalarni shakllantirishga zamin yaratadi.

Pedagogik jihatdan nafs tarbiyasi kompetensiyaviy yondashuv bilan chambarchas bog‘liqdir. Zamonaviy ta’limda kompetensiya bilim, ko‘nikma va malakalar integratsiyasidan iborat bo‘lib, ularning amaliy qo‘llanishini nazarda tutadi. Nafs tarbiyasi esa ushbu kompetensiyalarni ichki motivatsiya asosida qo‘llab-quvvatlaydi. Ayniqsa, refleksiv fikrlash va metakognitiv ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali talaba o‘z faoliyatini mustaqil boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa “o‘z-o‘zini boshqarib o‘rganish” konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shuningdek, nafs tarbiyasi ijtimoiy va axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Talaba jamoada ishlash, boshqalar fikrini hurmat qilish, ijtimoiy adolat va halollik tamoyillariga amal qilishni o‘rganadi. Bu jihatlar sotsiometrik munosabatlarda ijobiy tanlovlar sonining ortishiga, ya’ni shaxsning guruh ichida qabul qilinish darajasining oshishiga olib keladi. Aksincha, nafs tarbiyasi etarli darajada shakllanmagan shaxslar ko‘pincha ijtimoiy izolyatsiya yoki konfliktlarga moyil bo‘lishi mumkin.

Oliy ta’lim bosqichida shaxsning qadriyatlar tizimi qayta shakllanadi. Agar bu jarayon pedagogik jihatdan boshqarilmasa, qadriyatlar konfliktlari va axloqiy beqarorlik yuzaga kelishi mumkin. Nafs tarbiyasi esa ushbu jarayonni muvozanatlashtiruvchi mexanizm sifatida xizmat qiladi. U talabaning ichki axloqiy pozitsiyasini mustahkamlab, qaror qabul qilish jarayonida uzoq muddatli ijtimoiy manfaatlarni hisobga olishga undaydi.

Zamonaviy ijtimoiy muhitda yoshlar turli tashqi ta’sirlar, ijtimoiy tarmoqlar bosimi, iste’molchilik madaniyati va tez natija olishga yo‘naltirilgan psixologik tendensiyalar bilan yuzlashmoqda. Bunday sharoitda nafs tarbiyasi ma’naviy immunitetni shakllantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu immunitet talabaning salbiy axborot oqimlariga qarshi turish qobiliyatini oshiradi hamda uning mustaqil, ongli va axloqiy qarorlar qabul qilishini ta’minlaydi.

Nafs tarbiyasi nafaqat shaxsning individual rivojlanishini, balki uning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o‘rnini ham belgilovchi muhim pedagogik omildir. Ayniqsa, sotsiometrik munosabatlar doirasida u talabaning jamoaga integratsiyalashuvi, ijtimoiy faolligi va ijobiy psixologik maqomini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli oliy ta’lim tizimida nafs tarbiyasini tarixiy-madaniy va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida tizimli ravishda amalga oshirish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Sotsiometriya nazariyasi asoschisi Jacob L.Moreno ta’kidlaganidek, guruh ichidagi munosabatlar individlarning o‘zaro tanlovi, simpatiya-antipatiya va ijtimoiy yaqinlik darajasi orqali shakllanadi. Bu tanlovlar esa bevosita shaxsning ichki psixologik holati, qadriyatlari va xulqiy me’yorlariga bog‘liq. Shu jihatdan nafs tarbiyasi shaxsning o‘z istaklari, hissiyotlari va xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarish qobiliyati negizida sotsiometrik munosabatlarning sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Psixologik nuqtayi nazardan, nafs tarbiyasi o‘z-o‘zini boshqarish (self-regulation) mexanizmlari bilan uzviy bog‘liq. Zamonaviy tadqiqotlarda, xususan Albert Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasida, shaxs xulqi ichki nazorat, o‘z-o‘zini baholash va ijtimoiy muhit ta’siri asosida shakllanishi isbotlangan. Unga ko‘ra nafs tarbiyasi rivojlangan talaba o‘z impulslarini nazorat qila oladi, konfliktli vaziyatlarda muvozanatli qaror qabul qiladi va boshqalarga nisbatan empatik munosabatda bo‘ladi. Bu esa guruh ichida ijobiy tanlovlar sonining ortishiga ya’ni sotsiometrik munosabatlarning pozitiv ustuvorligiga olib keladi.

Bundan tashqari, o‘z-o‘zini boshqarish (self-regulation) va refleksiya jarayonlari nafs tarbiyasining asosiy komponentlari sifatida qaraladi. O‘z xatti-harakatlarini tahlil qila oladigan va xatolarini anglaydigan shaxslar ijtimoiy jihatdan jamoada tezroq va ko‘proq qabul qilinadi. Chunki ular kommunikativ moslashuvchanlikka ega bo‘lib, jamoa ichidagi ijtimoiy rollarni samarali bajaradi. Sotsiometrik nuqtayi nazardan qaralganda, nafs tarbiyasi quyidagi asosiy mexanizmlar orqali axloqiy ta’sir ko‘rsatadi:

Birinchidan, **ijtimoiy madaniyatni oshirish mexanizmi.** Nafsini boshqara oladigan, sabrli, qanoatli, go‘zal xulqli insonlar guruh a’zolari tomonidan ko‘proq tanlanadi. Bu esa ularning sotsiometrik maqomini oshiradi. Ikkinchidan, **konfliktlarni kamaytirish mexanizmi**. Nafs tarbiyasi rivojlangan talaba hissiy holatlar ta’sirida keskin reaksiyalar bildirmaydi, bu esa guruh ichidagi nizolar sonini kamaytiradi va ijobiy psixologik muhitni mustahkamlaydi. Uchinchidan, **empatiya va ijtimoiy sezgirlikni kuchaytirish mexanizmi**. Bu holat boshqalar ehtiyojlarini anglash va ularga moslashish imkonini beradi. Natijada o‘zaro tanlovlarda musbat dinamika kuzatiladi. To‘rtinchidan, **ijtimoiy izolyatsiyaning oldini oladi**. Nafs tarbiyasi sust rivojlangan shaxslar ko‘pincha impulsiv (mulohaza qilmasdan harakat qilish) yoki egoistik (o‘z manfaatlarini ustun qo‘yish) shakldagi xulq-atvorni namoyon qiladi.

Nafs tarbiyasining sotsiometrik funksiyalarini tahlil qilishda uni shaxsning guruh ichidagi o‘rni, ijtimoiy aloqalari va o‘zaro tanlovlar tizimiga ta’sir etuvchi ichki psixologik mexanizm

sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Nafs tarbiyasining bir nechta muhim sotsiometrik funksiyasilarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Regulyativ funksiya. Bu funksiya orqali shaxs o‘z xatti-harakatlarini nazorat qiladi, impulsiv reaksiyalarni cheklaydi va ijtimoiy me’yorlarga mos ravishda harakat qiladi. Natijada u guruh ichida ijobiy baholanadigan xulqni namoyon etadi. Bunday shaxslar ko‘pincha sotsiometrik tadqiqotlarda yuqori tanlovga ega bo‘ladi.

Integrativ funksiya. Shaxsning jamoaga moslashuvi va ijtimoiy aloqalarga kirishuvchanligini ta’minlaydi. Nafs tarbiyasi rivojlangan talaba boshqalar bilan muvozanatli muloqot o‘rnatadi, o‘z manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg‘unlashtira oladi.

A**ksiologik (qadriyatga yo‘naltiruvchi) funksiya**. Nafs tarbiyasi shaxsning ichki qadriyatlar tizimini shakllantirib, uning ijtimoiy tanlovlarida axloqiy mezonlarga tayanishini ta’minlaydi. Halollik, adolat, hurmat kabi qadriyatlarga amal qiluvchi talaba boshqalar tomonidan ishonchli va maqbul sherik sifatida qabul qilinadi. Bu esa sotsiometrik maqomning oshishiga olib keladi.

Kommunikativ funksiya. Nafs tarbiyasi rivojlangan shaxs muloqot jarayonida o‘z hissiyotlarini boshqara oladi, boshqalar fikrini hurmat qiladi va empatiya namoyon etadi. Bu esa samarali kommunikatsiyani ta’minlab, guruh ichidagi o‘zaro aloqalarni mustahkamlaydi. Psixologik jihatdan bu holat Lev Vygotsky ta’kidlagan ijtimoiy muloqotning shaxs rivojidagi rolini tasdiqlaydi. Unga ko‘ra

Preventiv (xavf yoki zararni oldini oluvchi) funksiya. Nafs tarbiyasi shaxsni salbiy xulq-atvor, konflikt va ijtimoiy ziddiyatlardan himoya qiladi. O‘zini boshqara oladigan talaba nizoli vaziyatlarda konstruktiv yondashuvni tanlaydi, bu esa guruh ichidagi salbiy sotsiometrik ko‘rsatkichlarning kamayishiga olib keladi.

Statusni shakllantiruvchi funksiya. Sotsiometrik tizimda shaxsning maqomi uning qanchalik ko‘p ijobiy tanlov olishi bilan belgilanadi. Nafs tarbiyasi yuqori darajada rivojlangan shaxslar ko‘pincha “lider”, “afzal tanlangan” yoki “markaziy figura” sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon Albert Banduraning ijtimoiy xulqning o‘zaro ta’sir asosida shakllanishi haqidagi qarashlari bilan hamohangdir.

Refleksiv funksiya. Shaxsning o‘z ijtimoiy o‘rnini anglash va baholashiga xizmat qiladi. Talaba o‘zining guruhdagi mavqeini, boshqalar bilan munosabatlarini tahlil qiladi va zarur hollarda xatti-harakatlarini o‘zgartiradi. Bu esa sotsiometrik tizimda moslashuvchanlikni oshiradi.

Ko‘rinib turibdiki, nafs tarbiyasi sotsiometrik tizimda ko‘p qirrali pedagogik hamda tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Jumladan, shaxs xulqini tartibga soladi, ijtimoiy integratsiyani ta’minlaydi, qadriyatlarga yo‘naltiradi, muloqotni samarali va manfaatli qiladi, konfliktlarning oldini oladi, ijtimoiy maqomni shakllantiradi hamda refleksiv rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi. Shu nuqtai nazardan ham nafs tarbiyasini rivojlantirish talabalarning nafaqat individual kamoloti, balki guruh ichidagi sog‘lom ijtimoiy sotsiometrik munosabatlar muhitni yaratishning ham muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN Adabiyotlar RO‘YXATI:

1. Андреева Г.М. Социальная психология. – Москва: Аспект Пресс, 2020. – 368 с.
2. Abu Hamid G‘azzoliy. Ixyo ulyum ad-din. – Beyrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2005. – 1200 s.

3. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 224 б.
4. Абу Али ибн Сино. Доншнома. – Тошкент: Фан, 1983. – 304 б.
5. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2000. – 160 b.
6. Кузнецова Н.В. Воспитание нравственных качеств у студентов. – Москва: Просвещение, 2020. – 256 с.
7. Столяренко Л.Д. Основы психологии и педагогики. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2021. – 640 с.
8. Xayrullaev M.M. Shaxs kamoloti va tarbiya asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 240 b.

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA UYUSHMAGAN YOSHLARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHNING PEDAGOGIK MODELI

Matkarimov Ikrom Muxtarovich
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada innovatsion yondashuv asosida uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash modelining nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Hozirgi davrda uyushmagan yoshlar qatlamining ma’naviy-axloqiy rivojlanishini ta’minlash, ularda ijtimoiy mas’uliyat, fuqarolik pozitsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Maqolada mazkur jarayonni tizimli tashkil etishga xizmat qiluvchi modelning tarkibiy qismlari, tamoyillari, bosqichlari, shakl, metod va vositalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, model doirasida maqsadli, mazmuniy, tashkiliy-faoliyatli va natijaviy komponentlarning o‘zaro bog‘liqligi yoritiladi. Innovatsion yondashuv asosida ishlab chiqilgan modelda oila, mahalla, ta’lim muassasalari, yoshlar yetakchilari, mutaxassislar va jamoatchilik hamkorligiga tayangan holda uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali mexanizmlari ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijasida mazkur modelni amaliyotga joriy etish orqali yoshlarning ma’naviy immunitetini kuchaytirish, ijtimoiy moslashuvini yaxshilash, destruktiv ta’sirlarga qarshi barqaror pozitsiyasini shakllantirish hamda ularni ijtimoiy faol shaxs sifatida rivojlantirish mumkinligi asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *uyushmagan yoshlar, ma’naviy-axloqiy tarbiya, innovatsion yondashuv, pedagogik model, tarbiyaviy tizim, model komponentlari, maqsadli komponent, mazmuniy komponent, tashkiliy-faoliyatli komponent, natijaviy komponent, mahalla, oila, ijtimoiy hamkorlik, fuqarolik pozitsiyasi, ma’naviy immunitet.*

Bugungi ijtimoiy taraqqiyot sharoitida uyushmagan yoshlar bilan ishlash masalasi pedagogika nazariyasi va amaliyotida ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda. Mazkur toifadagi yoshlarning ijtimoiy faollikdan muayyan darajada chetda qolishi ularning hayotiy maqsadlari, qadriyaviy yo‘nalganligi, fuqarolik mas’uliyati, ma’naviy ehtiyojlari hamda axloqiy qarashlarining barqaror shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois bunday yoshlar bilan ishlashda an’anaviy tarbiyaviy ta’sir shakllari bilan cheklanib qolish yetarli emas. Aksincha, ularning shaxsiy ehtiyojlari, ijtimoiy muhiti, ruhiy holati va hayotiy tajribasini hisobga olgan holda zamonaviy pedagogik mexanizmlar, moslashuvchan yondashuvlar va innovatsion

yechimlar asosida tashkil etilgan maqsadli tarbiya tizimiga ehtiyoj ortib bormoqda. Mahalla ijtimoiy-tarbiyaviy makon sifatida yosh shaxsining kundalik hayoti, ijtimoiy munosabatlari, xulqiy tajribasi va qadriyatlar tizimi qaror topadigan muhim muhit hisoblanadi. U yoshning faqat yashash joyi emas, balki uning jamoa bilan aloqasi, o‘zini anglashi, shaxsiy imkoniyatlarini namoyon etishi va ijtimoiy o‘rnini belgilashiga ta’sir ko‘rsatuvchi tabiiy ijtimoiy muhitdir. Aynan shu sababli mahalla doirasida amalga oshiriladigan ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlari yoshlarning ichki imkoniyatlarini faollashtirish, ularni ijtimoiy foydali faoliyatga yo‘naltirish, hayotiy pozitsiyasini mustahkamlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligini kuchaytirish hamda turli salbiy ta’sirlarga nisbatan mafkuraviy-axloqiy immunitetini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq mazkur jarayon tasodifiy, parchalangan yoki faqat targ‘ibot xarakteridagi tadbirlar bilan cheklanmasdan, aniq maqsad, mazmun, tamoyil, shakl, metod, vosita va natijalarni o‘zida mujassam etgan yaxlit pedagogik tizim sifatida yo‘lga qo‘yilgandagina kutilgan samarani beradi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion yondashuv asosida uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash modelini ishlab chiqish va ilmiy asoslash dolzarb ilmiy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur model tasodifiy tarbiyaviy ta’sirlar yig‘indisi emas, balki o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlar, pedagogik shart-sharoitlar, hamkorlik munosabatlari va kutilgan natijalarni birlashtiruvchi tizimli tuzilma sifatida qaralishi lozim. Bunday modelning mohiyati shundaki, u uyushmagan yoshlarning individual ehtiyojlari, ijtimoiy holati, qiziqishlari, ruhiy xususiyatlari, mahalla muhitining tarbiyaviy imkoniyatlari hamda zamonaviy jamiyat o‘quvchi-yoshlarini o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda ma’naviy-axloqiy rivojlanishning maqsadli mexanizmini yaratadi. Demak, modelning vazifasi yoshni tashqi nazorat ob’ekti sifatida emas, balki o‘z hayoti, kelajagi va jamiyat oldidagi mas’uliyatini anglaydigan faol sub’ekt sifatida shakllantirishdan iborat.

Innovatsion yondashuv asosida yaratiladigan ushbu model, avvalo, tarbiya jarayonini shaxsga yo‘naltirilganlik, ijtimoiy hamkorlik, faoliyatga asoslanganlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi, uzluksiz monitoring va natijadorlik tamoyillari asosida qurishni nazarda tutadi. Bu yerda tarbiyaviy ta’sirning barcha sub’ektlari - oila, mahalla, ta’lim muassasasi, yoshlar yetakchisi, pedagog, psixolog, jamoat tashkilotlari va mahalla faollari - o‘zaro muvofiqlashgan holda harakat qilishi muhim ahamiyatga ega. Chunki ta’lim va mehnatdan uzilib qolgan yoshlar bilan ishlashda bir tomonlama tarbiyaviy ta’sir, qoida tariqasida, barqaror natija bermaydi. Shu bois modelda hamkorlik mexanizmi alohida o‘rin egallab, har bir tarbiyaviy sub’ektning vazifasi, ishtirok darajasi va o‘zaro aloqasi aniq belgilab qo‘yilishi lozim.

Mazkur modelning nazariy-metodologik asoslari yosh shaxsining ma’naviy-axloqiy kamolotini faqat g‘oyaviy ta’sir orqali emas, balki faoliyat, muloqot, refleksiya va ijtimoiy tajriba orqali shakllantirish g‘oyasiga tayanadi. Shu ma’noda model tarkibida maqsadli komponent, mazmuniy komponent, jarayonli-texnologik komponent, tashxisiy-monitoring komponenti va natijaviy komponentning o‘zaro bog‘liqligi ta’minlanishi zarur. Maqsadli komponent yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasidan ko‘zlangan strategik maqsad va vazifalarni belgilasa, mazmuniy komponent milliy, umuminsoniy, fuqarolik, mehnat, huquqiy va oilaviy qadriyatlarni o‘z ichiga olgan tarbiyaviy mazmunni ifodalaydi. Jarayonli-texnologik komponent esa ushbu mazmunni amalga oshirishda qo‘llaniladigan innovatsion shakl, metod va vositalarni qamrab oladi. Tashxisiy-monitoring komponenti tarbiya jarayoni samaradorligini aniqlash, yoshlardagi o‘zgarishlar dinamikasini baholash va kerakli tuzatishlar kiritishga xizmat qiladi. Natijaviy komponent esa yoshlarda ma’naviy barqarorlik, axloqiy mas’uliyat, ijtimoiy faollik, o‘zini anglash va jamiyatga daxldorlik kabi sifatlarning qay darajada shakllanganini

ifoda etadi. Ushbu modelning funksional jihati ham alohida ahamiyatga ega. Chunki u faqat nazariy qurilma sifatida emas, balki amaliyotda qo‘llashga mo‘ljallangan pedagogik mexanizm sifatida ishlashi kerak. Shu jihatdan modelning asosiy funksiyalari qatoriga diagnostik funksiya, tarbiyaviy-motivatsion funksiya, ijtimoiylashtiruvchi funksiya, muvofiqlashtiruvchi funksiya, profilaktik funksiya va rivojlantiruvchi funksiyalarni kiritish mumkin. Diagnostik funksiya yoshlarning real holati, ehtiyoji va muammolarini aniqlashga xizmat qilsa, tarbiyaviy-motivatsion funksiya ularda ma’naviy-axloqiy o‘sishga bo‘lgan ichki rag‘batni shakllantiradi. Ijtimoiylashtiruvchi funksiya yoshlarni jamoa va mahalla hayotiga jalb etadi, muvofiqlashtiruvchi funksiya esa turli sub’ektlar faoliyatining bir maqsadga yo‘nalishini ta’minlaydi. Profilaktik funksiya salbiy ta’sir va xulq og‘ishlarining oldini olishga qaratilgan bo‘lsa, rivojlantiruvchi funksiya yoshning shaxsiy imkoniyatlari va ijtimoiy faolligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Modelning amaliy qo‘llash mexanizmi bosqichma-bosqich tashkil etilganda uning samaradorligi yanada ortadi. Birinchi bosqichda tashxis va tahlil ishlari olib borilib, mahallalardagi uyushmagan yoshlarning ijtimoiy-psixologik holati, qiziqishlari va ehtiyojlari o‘rganiladi. Ikkinchi bosqichda maqsadli guruhlar shakllantirilib, ularga mos manzilli tarbiyaviy dasturlar ishlab chiqiladi. Uchinchi bosqichda tarbiyaviy ta’sirning asosiy shakl va metodlari - loyiha faoliyati, muloqot va munozara, ustoz-shogird munosabatlari, ijtimoiy foydali faoliyat, madaniy-ma’rifiy tadbirlar, raqamli-ma’rifiy kontent, psixologik qo‘llab-quvvatlash kabi yo‘nalishlar orqali amalga oshiriladi. To‘rtinchi bosqichda olingan natijalar monitoring qilinib, yoshlarda yuz bergan ijobiy o‘zgarishlar tahlil etiladi va zaruratga qarab metodik tuzatishlar kiritiladi. Bu mexanizm tarbiya jarayonini nazoratsiz yoki parokanda holatga keltirmasdan, uni maqsadli va barqaror rivojlanish yo‘liga olib chiqadi. Shu tariqa, innovatsion yondashuv asosida uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash modeli yoshlarni ijtimoiy faollikka undaydigan, ularning ma’naviy dunyosini boyitadigan, axloqiy mas’uliyatini mustahkamlaydigan va jamiyat hayotiga integratsiyasini kuchaytiradigan yaxlit pedagogik tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik tadqiqotlarda modellashtirish, odatda, o‘qitish, tarbiya, ta’lim mazmuni, o‘quv faoliyati, pedagogik hamkorlik va tarbiyaviy muhit kabi yo‘nalishlarni nazariy jihatdan ifodalashda qo‘llaniladi. Bu borada modellashtirish tadqiqot faoliyatining yaxlit turkumini aks ettirsa, model uning mohiyatini chuqurlashtirish, asosiy aloqalarni aniqlash va nazariy xulosalar bilan boyitish vazifasini bajaradi. Shu bois modellashtirish metodikasini egallash nafaqat ilmiy bilishning umumiy metodi sifatida, balki psixologik-pedagogik tadqiqotlarning amaliy samaradorligini ta’minlovchi shart sifatida ham muhimdir. Ayniqsa, tarbiya jarayoni kabi murakkab va ko‘p omilli hodisani o‘rganishda modellashtirish orqali jarayonning maqsadi, mazmuni, ishtirokchilari, usullari va kutilgan natijalarini tizimlashtirish mumkin bo‘ladi[32][1]. Shu nuqtai nazardan, uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash muammosini tadqiq etishda modellashtirish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur toifadagi yoshlar bilan ishlash jarayoni bir vaqtning o‘zida ijtimoiy, pedagogik, psixologik va ma’naviy omillarni qamrab oladi. Bunday ko‘p qatlamli ob’ektni faqat tavsiflash orqali emas, balki modellashtirish orqali tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Modellashtirish bu yerda o‘quv vositasi, materialni umumlashtirish usuli, axborotni ixcham va ko‘rgazmali ifodalash shakli sifatida ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, u tadqiq etilayotgan jarayonning mantiqiy tuzilishini belgilash, asosiy

[32] Выготский Л. Педагогическая психология. – Москва: Педагогика, 1999 г. – 536 с

tarkibiy qismlar o‘rtasidagi semantik munosabatlarni aniqlash va ularni ko‘rgazmali shaklda tasvirlash imkonini beradi. Demak, ushbu tadqiqotda modellashtirish faqat nazariy tushuncha emas, balki tahlilni tizimlashtiruvchi asosiy ilmiy instrument sifatida qaraladi. Pedagogik adabiyotlarda modelning didaktik asosini tashkil etuvchi pedagogik texnika, o‘qitish metodlari va tashkiliy shakllar tizimi alohida ajratib ko‘rsatiladi. Shu bois model tushunchasiga yaqin bo‘lgan “o‘qitish modeli” tushunchasi ham turli ko‘rinishlarda uchraydi. Masalan, semiotik ta’limiy model belgili ma’lumotlarni qayta ishlashga qaratilgan bo‘lib, matn bilan ishlashni nazarda tutuvchi topshiriqlar tizimi orqali amalga oshiriladi. Imitasion o‘rgatuvchi modellar esa matndagi ma’lumotlarni amaliy faoliyat vaziyatlari bilan bog‘lash orqali ta’lim oluvchini real yoki shartli ijtimoiy jarayonga kiritishni ko‘zda tutadi. Ushbu yondashuvlardan kelib chiqib aytish mumkinki, uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash modeli ham semiotik, imitatsion va faoliyatga yo‘naltirilgan komponentlarni o‘zida birlashtirishi lozim. Ya’ni, u bir tomondan ma’naviy-axloqiy mazmunni anglash, ikkinchi tomondan uni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash va uchinchi tomondan shaxsiy tajriba orqali o‘zlashtirish mexanizmlarini qamrab olishi zarur.

V.A.Shtoff [2] ta’limotida modellashtirishning samaradorligini baholash uchun pedagogikaga “pedagogik validlik” tushunchasi kiritilgani ham alohida ahamiyatga ega [2; 22-b.]. Validlik ishonchlilik va adekvatlikka yaqin bo‘lsa-da, ulardan farq qiladi, chunki u modelning konseptual, kriterial va miqdoriy jihatlarini bir vaqtning o‘zida qamrab oladi. Bu holat ko‘p omilli pedagogik hodisalarni modellashtirishda ayniqsa muhim. Shu ma’noda, uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash modeli ham nazariy jihatdan asoslangan, amaliyotda sinab ko‘rish mumkin bo‘lgan va natijadorlik mezonlari orqali baholanadigan valid tuzilma sifatida ishlab chiqilishi lozim. Ya’ni, model faqat umumiy tasavvur yoki shakliy sxema emas, balki tadqiqot ob’ektini ishonchli aks ettiradigan, uning rivojlanish mantig‘ini tushuntiradigan va amalda qo‘llash imkonini beradigan pedagogik konstruksiya bo‘lishi kerak[2].

Tadqiqotimiz nuqtai nazaridan, innovatsion yondashuv asosida uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash modeli - bu maqsadli-motivatsion, mazmuniy-faoliyatli va diagnostik-natijaviy komponentlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikka asoslangan yaxlit pedagogik tizimdir. Ushbu model yoshlarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishini faqat nazariy ta’sir orqali emas, balki interfaol ta’lim metodlari, innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar, ijtimoiy-pedagogik hamkorlik va amaliy faoliyat orqali ta’minlashni nazarda tutadi. Modelning maqsadli komponenti uyushmagan yoshlarda ma’naviy barqarorlik, axloqiy mas’uliyat, ijtimoiy faollik va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga qaratilsa, mazmuniy komponenti milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ma’naviy meros, fuqarolik burchi, sog‘lom turmush madaniyati va mafkuraviy immunitetni rivojlantiruvchi g‘oyalar tizimini qamrab oladi. Jarayonli komponentida esa loyihaviy faoliyat, ijtimoiy aksiyalar, mentorlik, trening, keys-tahlil, raqamli-ma’rifiy muloqot va refleksiv mashg‘ulotlar kabi innovatsion metodlar muhim o‘rin tutadi. Mazkur modelning amaliy ahamiyati shundaki, u mahalladagi tarbiyaviy ishlarni tasodifiy tadbirlar yig‘indisi emas, balki ilmiy asoslangan, manzilli va boshqariladigan tizim sifatida tashkil etish imkonini beradi. Bu model orqali yoshlarning individual psixologik xususiyatlari, ijtimoiy holati, qiziqishlari va hayotiy tajribasi hisobga olinadi, tarbiyaviy ta’sir differensiallashtiriladi, oila-mahalla-ta’lim muassasasi hamkorligi mustahkamlanadi va monitoring-baxolash mexanizmi yo‘lga qo‘yiladi. Shu jihatdan, mazkur model uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslarini, tarkibiy tuzilishini va amaliy qo‘llash

mexanizmini o‘zida mujassam etgan ilmiy-pedagogik tizim sifatida baholanadi. Shunday qilib, modellashtirishga oid ilmiy yondashuvlar tahlili mazkur tadqiqotda ishlab chiqilayotgan modelning ilmiy asoslarini belgilash, uning tarkibiy qismlarini aniqlash va pedagogik validligini ta’minlashda muhim nazariy poydevor vazifasini bajaradi. Demak, innovatsion yondashuv asosida uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash modelini qurish va asoslash bugungi kunda nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

Uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali modelini yaratishda har bir yosh shaxsda ma’naviy-axloqiy tarbiyalanganlikning erishilgan darajasini aniqlash, uning rivojlanish dinamikasini muntazam kuzatib borish va shu asosda maqsadli pedagogik ta’sirni belgilash zarur shartlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, monitoring va baholash jarayoni bizning modelimizning muhim tarkibiy komponenti sifatida qaraladi. Chunki aynan mazkur komponent orqali yoshlarning motivatsion-qadriyatli yo‘nalganligi, ma’naviy-axloqiy bilimlari, emotsional-irodaviy barqarorligi hamda o‘zini boshqarish ko‘nikmalarida yuz berayotgan o‘zgarishlarni aniqlash, tahlil qilish va baholash imkoni yaratiladi. Bu esa tarbiya jarayonini tasodifiy emas, balki ilmiy asosda boshqarish, uning samaradorligini oshirish va har bir yoshga nisbatan manzilli yondashuvni ta’minlashga xizmat qiladi. Bizningcha, mazkur model interaktiv metodlar, rivojlantiruvchi texnologiyalar, o‘quv va ijtimoiy loyihalash, volontyorlik harakatlarini qo‘llab-quvvatlash, o‘zini-o‘zi tashkil etish va o‘zini-o‘zi erkin aniqlash tamoyillari asosida qurilgan demokratik tarbiyaviy muhitda samarali amal qiladi. Shu ma’noda, ma’naviy-axloqiy tarbiyalash modeli yosh shaxsiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-ma’naviy omillarni, ta’lim muassasasi va mahalla muhitining demokratik hayot tarzini, shuningdek, individual yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zaro bog‘liq holda qamrab oladi. Modelning asosiy funksiyalari yoshlarning ichki imkoniyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy faolligini kuchaytirish, ma’naviy qadriyatlarga ongli munosabatni shakllantirish va ularni mustaqil hayotga tayyorlashga qaratilgan bo‘lib, shu orqali ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonining yaxlit, izchil va natijador tizimi vujudga keladi.


Maqsadli komponent
Ijtimoiy buyurtma:
Innovatsion yondashuv asosida uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasini takomillashtirish
Maqsad:
Innovatsion yondashuv asosida uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash jarayoni
Vazifa:
Inovatsion yondashuv asosida uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik vazifalari
Metodologik komponent
Yondashuvlar: o‘quvchi shaxsiga qartilgan, tizimli, faoliyatga yo‘naltirilgan, aksiologik, ijtimoiy-pedagogik, integrativ,
Rivojlantiruvchi ta’limiy yondashuvlar
Ta’lim tamoyillari: maqsadlilik, uzluksizlik va izchillik, individuallashtirish va tabaqalashtirish, faol subektivlik, ijtimoiy hamkorlik, amaliy yo‘nalganlik, refleksivlik va o‘zini boshqarish, demokratiklik va ixtiyoriylik
Maqsadli-motivatsion komponent
Mazmuniy-faoliyatli komponent
Diagnostik-natijaviy komponent
Uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalanganlik mezonlari
Motivatsion-qadriyatli mezon yoshning ma’naviy-axloqiy tarbiyaga ichki ehtiyoji, hayotiy maqsadlarga munosabati, ta’lim va mehnatga qiziqishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qabul qilishi
Kognitiv-ma’rifiy mezon esa yoshning ma’naviy-axloqiy me’yorlar, huquqiy qoidalar, shaxsiy mas’uliyat, jamiyatda yashash madaniyati hamda ta’lim va kasb imkoniyatlari oshishi
Emotsional-irodaviy mezon yoshning ichki hissiy barqarorligi, o‘zini tuta bilishi, sabr-toqati, hamdardlikka moyilligi va salbiy ta’sirlarga qarshi irodaviy chidamliligi oshib borishi
Refleksiv-o‘zini boshqarish mezoni esa yoshning o‘z xatti-harakatini tahlil qilish, xatosini anglash, o‘zini baholay olish, xulqini tuzatishga tayyorligi va hayotini ongli rejalashtira olishi
INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA YOSHLARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH JARYONI
Metodologik komponent
O‘quv jarayon bloki
o‘quv-moduli
Ta’lim shakllari: individual va guruhli, jamoaviy mashg‘ulotlar, suhbat, munozara, trening, mentorlik, volontyorlik aksiyalari
Ta’lim metodlari: suhbat, tushuntirish, muammoli vaziyat tahlili, keys-stadi, interfaol savol-javob, trening, loyihalash, kuzatish
Ta’lim vositalari: ma’naviy-axloqiy mazmundagi didaktik materiallar, milliy qadriyatlarga oid matnlar, badiiy adabiyotlar, tarixiy-manaviy manbalar, tarqatma materiallar, audio-videomateriallar
Yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash omillari o‘quv-jarayonida
Pedagog shaxsi va muhit - o‘qituvchining shaxsiy namunasi va sog‘lom muhit yoshda axloqiy qarashlarni
Tarbiyaviy mazmun - fan mazmuniga qadriyatlar singdirilishi ma’naviy ongni rivojlantiradi.
Interfaol faoliyat - munozara, loyiha va treninglar yoshni ongli va faol tarbiyalaydi.
Hamkorlik - oila, maktab va mahalla birligi tarbiya samaradorligini kuchaytiradi
NATIJA
Ma’naviy-axloqiy tarbiyalangan o‘quvchi pedagogik sifatlari
Mas’uliyatlilik-bu sifat o‘quvchining o‘qishiga, xulqiga, topshiriqlarga va jamoa oldidagi burchiga ongli munosabatini ifodalaydi. Aynan mas’uliyatlilik ma’naviy-axloqiy tarbiyaning amaliy natijasi
Qadriyatlarga sodiqlik - milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash hamda ularga amal qilish ma’naviy tarbiyaning asosiy mezoni quvchining Vatanga, oilaga, kattalarga hurmat, halollik va insonparvarlik fazilatlar
Muomala madaniyati - o‘quvchining ma’naviy-axloqiy darajasi, kattalarga hurmat, tengdoshlarga samimiylik, kichiklarga mehr va nizoli vaziyatlarda o‘zini to‘g‘ri tuta olish
O‘zini-o‘zi boshqarish - hissiyotlarni nazorat qilish, xulqini tartibga solish, xatoni anglash va o‘zini tuzatishga intilish, pedagogik nuqtai nazardan aynan o‘zini-o‘zi boshqarish
Uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalanganlikni baholash darajalari
Past
O‘rta
Yuqori
Natija: Innovatsion yondashuv asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalangan uyushmagan

1.rasm - Uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik modeli

Mazkur model uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonini yaxlit pedagogik tizim sifatida ifodalaydi. Unda tarbiyaning maqsadi, vazifalari, mazmuni, metod va vositalari, shuningdek oila, mahalla, ta’lim muassasasi va jamoatchilik hamkorligi o‘zaro bog‘liq holda aks ettirilgan. Modelning asosiy mohiyati shundaki, u yoshlarni faqat nazorat ob’ekti sifatida emas, balki faol ishtirokchi sifatida qarab, ularda ma’naviy ehtiyoj, axloqiy ong, ijtimoiy mas’uliyat va o‘zini-o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, model diagnostika, monitoring va baholash mexanizmlari orqali tarbiyaviy ishlar samaradorligini aniqlash hamda uni bosqichma-bosqich takomillashtirish imkonini beradi.

Pedagogik tadqiqotlarda modellashtirish murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisalarning mohiyati, tarkibiy tuzilishi, o‘zaro bog‘liqligi va rivojlanish mantig‘ini nazariy jihatdan ifodalash imkonini beruvchi muhim ilmiy metod hisoblanadi. Model tadqiqot ob’ektining aynan o‘zi emas, balki uning asosiy belgilari, aloqalari va funksiyalarini aks ettiruvchi ilmiy tuzilma bo‘lib, u orqali haqiqiy ob’ekt xususida yangi bilim va xulosalarga erishish mumkin. Shu ma’noda V.A.Shtoff modelni tadqiqot ob’ektini aks ettiruvchi yoki ifodalovchi, uning o‘rnini bosib, o‘rganish jarayonida mazkur ob’ekt to‘g‘risida yangi ma’lumot bera oladigan hayolan tasavvur etiladigan yoki moddiy amalga oshiriladigan tizim sifatida ta’riflaydi [2; 22-b.]. Mazkur ta’rifdan kelib chiqib aytish mumkinki, model pedagogik voqelikning soddalashtirilgan tasviri bo‘lsa-da, u real jarayonning muhim parametrlarini saqlab qolgan holda uni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Pedagogik tadqiqotda modelning amaliy qimmati, avvalo, uning o‘rganilayotgan ob’ektga nisbatan qanchalik mos ekani, ya’ni adekvatligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, modelni yaratishda ko‘rgazmalilik, aniqlik va ob’ektivlik tamoyillarining to‘g‘ri hisobga olinishi ham katta ahamiyatga ega [3]. Pedagogik jarayonlar ko‘p omilli va dinamik xususiyatga ega bo‘lgani sababli, ularni modellashtirishda faqat tashqi ko‘rinish emas, balki ichki mazmun, funksional bog‘liqlik va natijaviy yo‘nalishlar ham nazarda tutilishi lozim. Ilmiy adabiyotlarda “model” atamasi muayyan tizimning namunasi, andozasi yoki shartli ifodasi sifatida qo‘llanilib, u real tizimning tuzilishi, xususiyatlari va elementlar o‘rtasidagi munosabatlarni sxemalar, belgili shakllar, formulalar yoki konseptual konstruksiyalar orqali soddalashtirilgan tarzda aks ettiradi [3; 151-b.;]. Shunday ekan, modellashtirish nafaqat nazariy tushuncha, balki tadqiqot ob’ektini tizimlashtirish, uning mazmun-mohiyatini ochish va amaliyotga yo‘naltirilgan xulosalar ishlab chiqishning samarali vositasi sifatida baholanadi.

Mazkur nazariy yondashuvlardan kelib chiqqan holda, uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash muammosini o‘rganishda ham maxsus pedagogik model ishlab chiqish zarurligi ayon bo‘ladi. Chunki ushbu toifadagi yoshlar bilan ishlash jarayoni faqat tarbiyaviy ta’sirni emas, balki ijtimoiylashuv, fuqarolik pozitsiyasi, ichki motivatsiya, axloqiy tanlov, mustaqil fikrlash va hayotiy maqsadlarni shakllantirish kabi ko‘p qirrali vazifalarni qamrab oladi. Shu bois tadqiqotimizda ishlab chiqilayotgan uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash modeli mazkur jarayonning maqsadli, mazmuniy, texnologik va natijaviy tomonlarini yaxlit holda ifodalovchi ilmiy-pedagogik tuzilma sifatida qaraladi. Bu model tarbiyaviy ishlarni tasodifiy yoki parokanda tarzda emas, balki aniq tamoyillar, sub’ektlar, metodlar, vositalar va baholash mezonlari asosida tashkil etish imkonini beradi.

Tadqiqotimiz nuqtai nazaridan, mazkur model ijtimoiy ta’limiy va rivojlantiruvchi xususiyatga ega bo‘lib, u mahalla muhitini yoshlarning ma’naviy-axloqiy shakllanishini ta’minlovchi tabiiy ijtimoiy-pedagogik maydon sifatida talqin qiladi. Ijtimoiy ta’limiy modellar, odatda, ta’lim jarayoni ishtirokchilarining jamoaviy ish-harakatlari, hamkorlik munosabatlari va ijtimoiy faollikka yo‘naltirilgan vazifalarni aks ettiradi. Shu ma’noda mahalla sharoitidagi mazkur model ham o‘quv, maktabdan tashqari mustaqil ishlar, jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish, demokratik hayot tarzini shakllantirish va faol fuqarolik pozitsiyasini qaror toptirish kabi vazifalar bilan uzviy bog‘liqdir. G.A.Ovchinnikov[2][33]ning hududiy ta’lim tizimi orqali kattalar fuqarolik ta’limi modelini ishlab chiqqanligi va unda fuqarolik huquqlari sohasidagi ta’lim, ma’naviy-ma’rifiy ishlar hamda ijtimoiy loyihalash orqali faol ijtimoiylashuvga erishish mumkinligini ta’kidlagani ham mazkur fikrni metodologik jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi [2]. Shu bilan birga, mazkur darajalar to‘liq yoki qisman o‘zlashtirish holatida ham namoyon bo‘lishi mumkin. To‘liq o‘zlashtirish shaxsda individual sifatlar va ma’naviy-axloqiy tarbiyalanganlik komponentlarining barcha sohalar bo‘yicha yaxlit va mustaqil tarzda ifodalanishini anglatadi. Qisman o‘zlashtirish esa zarur sifatlar va ko‘nikmalarning to‘liq namoyon bo‘lmasligi, topshiriqlarni bajarishda o‘qituvchi yoki boshqa yordamga ehtiyoj sezilishini bildiradi[34][3; 42-43-b.]. Shu ma’noda, ma’naviy-axloqiy tarbiyalanganlikni baholashda darajalarni mexanik belgilash emas, balki shaxsning ichki motivatsiyasi, bilimi, irodaviy barqarorligi, refleksiv qobiliyati va ijtimoiy xulqidagi o‘zaro bog‘liq o‘zgarishlar tizimini hisobga olish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiqdir. Demak, mazkur baholash modeli mahallalardagi uyushmagan yoshlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar samaradorligini aniqlash, ularning rivojlanish dinamikasini kuzatish va maqsadli pedagogik ta’sirni muvofiqlashtirish uchun ishonchli ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son qarori, “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
2. Выготский Л. Педагогическая психология. – Москва: Педагогика, 1999 г. – 536 с \
3. Овчинников Г. Социально-педагогические условия становления региональной системы гражданского образования взрослых.: Красн. 2007 г.
4. Иоффе А. Методика гражданского образования: теоретические аспекты и практические рекомендации // - Брянск: Курсив.: 2007 г. - С.42-43

[33] Овчинников Г. Социально-педагогические условия становления региональной системы гражданского образования взрослых.: Красн. 2007 г.
[34] Иоффе А. Методика гражданского образования: теоретические аспекты и практические рекомендации // - Брянск: Курсив.: 2007 г. - С.42-43

MILLIY MUSIQIY MEROS VOSITASIDA O‘QUVCHILARNING SOSIOMETRIK MUNOSABATLARINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Xudayberdiyeva Mushtariy
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy musiqiy meros vositasida o‘quvchilarning sotsiometrik munosabatlarini shakllantirishning pedagogik jihatlari ilmiy-nazariy asosda yoritiladi. Yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda musiqaning, xususan xalq musiqiy merosining tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada sotsiometrik munosabatlar mohiyati, ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyati hamda milliy musiqa va folklor namunalari orqali ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish imkoniyatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: milliy, musiqiy meros, o‘quvchilar, sotsiometrik munosabatalar, folklor, tarbiya, madaniy ko‘nikma.

Hozirgi globallashuv sharoitida yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning ijtimoiy-madaniy ko‘nikmalarini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biridir. Axborot oqimining keskin ortishi, turli madaniyatlarning o‘zaro ta’siri yoshlar ongida milliy identitetni shakllantirish masalasini yanada muhimlashtirmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida milliy musiqiy merosdan samarali foydalanish o‘quvchilarning nafaqat estetik didini, balki ularning ijtimoiy xulq-atvori, madaniy muloqoti va ma’naviy qarashlarini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy musiqiy meros xalqning tarixiy xotirasi, estetik qarashlari va ma’naviy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan betakror madaniy boylik hisoblanadi. Xususan, Shashmaqom, Katta ashula va baxshichilik san’ati kabi janrlar yosh avlod tarbiyasida katta pedagogik imkoniyatlarga ega bo‘lib, ular orqali o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglash, madaniy merosga hurmat va estetik didni shakllantirish mumkin.

Yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalashda musiqaning o‘rni beqiyosdir. Qadimgi davrlardan boshlab musiqa insonning axloqiy, estetik va ijtimoiy sifatlarini shakllantiruvchi muhim vosita sifatida qaralgan. Qadimgi yunon mutafakkirlari musiqiy tarbiyaga alohida e’tibor qaratganlar. Jumladan, Pifagor musiqaning matematik asoslarini ishlab chiqib, tovush balandligi va tor uzunligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy asosda tushuntirgan hamda musiqani raqamlar tizimi sifatida talqin qilgan. Aflotun esa musiqaning inson ruhiyatiga bevosita ta’sirini ta’kidlab, to‘g‘ri tanlangan musiqiy pardalar orqali shaxs xulqini shakllantirish mumkinligini qayd etgan.

Sharq mutafakkirlari ijodida ham musiqa tarbiyaning muhim vositasi sifatida keng talqin etilgan. Abu Nasr Forobiy musiqani inson xulqini tartibga soluvchi va mukammallashtiruvchi vosita sifatida ta’riflab, uning ruhiy holatga ta’sirini chuqur asoslab bergan. Abu Ali ibn Sino musiqani inson ma’naviy kamolotining muhim qismi sifatida baholab, uning ruhiy muvozanatni saqlashdagi ahamiyatini alohida ta’kidlagan. Alisher Navoiy esa musiqani jamiyat ma’naviyatini yuksaltiruvchi omil sifatida ko‘rib, san’at va ijod ahlining ijtimoiy ahamiyatini yuksak baholagan.

Milliy musiqiy meros o‘quvchilarning estetik tarbiyasini rivojlantirish bilan birga, ularning ijtimoiy munosabatlarini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ta’lim jarayonida

musiqiy faoliyatning jamoaviy shakllari – xor, ansambl, guruhli ijrolar o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, ishonch va muloqotni kuchaytiradi. Bu esa sinf jamoasida ijobiy sotsiometrik munosabatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Sotsiometrik munosabatlar guruh ichidagi shaxslarning o‘zaro tanlovi, yoqtirishi va ijtimoiy aloqalari tizimini ifodalaydi. Ta’lim jarayonida ushbu munosabatlar o‘quvchilar jamoasining psixologik iqlimini belgilaydi. Milliy musiqiy meros asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning bir-biriga nisbatan ijobiy munosabatini kuchaytiradi, ularning guruhdagi ijtimoiy mavqeini shakllantiradi hamda jamoaviylikni rivojlantiradi.

Musiqiy faoliyat jarayonida o‘quvchilarga turli ijtimoiy rollar – ijrochi, dirijor, tinglovchi yoki baholovchi rollarining berilishi ularning sotsiometrik tuzilmadagi o‘rnini aniqlashga yordam beradi. Shu bilan birga, milliy kuy va qo‘shiqlar o‘quvchilarda emotsional hamjihatlikni kuchaytirib, empatiya, ya’ni boshqalarning hissiyotini tushunish qobiliyatini rivojlantiradi.

O‘qituvchi musiqiy mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro tanlov va hamkorlikni kuzatib borishi orqali sotsiometrik tahlilni amalga oshirishi mumkin. Bu esa sinfdagi ijtimoiy munosabatlarni boshqarish va takomillashtirishga imkon yaratadi.

Samarali natijaga erishish uchun milliy musiqiy repertuarni to‘g‘ri tanlash, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, interaktiv va guruhli metodlardan foydalanish hamda ijobiy psixologik muhit yaratish muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv o‘quvchilar o‘rtasida sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Milliy musiqiy meros vositasida o‘quvchilarning sotsiometrik munosabatlarini tashkil etish zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Musiqa nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki ijtimoiy munosabatlarni shakllantiruvchi kuchli pedagogik omil sifatida ham katta ahamiyatga ega. Globallashuv sharoitida milliy musiqiy merosdan foydalanish yosh avlodning milliy identitetini mustahkamlash, jamoaviylikni rivojlantirish va sog‘lom ijtimoiy muhit yaratishda muhim o‘rin tutadi. Sotsiometrik holatlar bu guruh ichidagi shaxslar o‘rtasidagi tanlov, yoqtirish yoki yoqtirmaslik, ijtimoiy mavqe, yetakchilik, chetlanish va jamoaga qabul qilinish kabi munosabatlarni ifodalovchi jarayonlardir. Bunday holatlar xalq og‘zaki ijodi namunalari orqali yaqqol namoyon bo‘ladi, chunki folklor asarlarida ijtimoiy munosabatlar tabiiy va hayotiy tarzda aks etadi.

Xususan, “Alpomish” dostoni o‘zbek xalqining qahramonlik ruhini ifodalash bilan birga, sotsiometrik munosabatlarning muhim jihatlarini ham ko‘rsatadi. Asarda Alpomish va Barchin o‘rtasidagi o‘zaro tanlov va sadoqat munosabatlari ijtimoiy simpatiyaning yorqin ifodasidir. Shuningdek, turli sinovlar jarayonida qahramonlarning jamiyatdagi o‘rni, ya’ni yetakchilik va ijtimoiy maqomi aniqlanadi. Bu holatlar guruh ichida kim yetakchi, kim yordamchi, kim betaraf pozitsiyada ekanligini tushunishga yordam beradi. Alpomish dostonida ayollar obrazlari ham alohida sotsiometrik munosabatlar kontekstida namoyon bo‘ladi. Alpomishning bir o‘zi g‘alaba qozona olmaydi. Unga ruhan ko‘mak beruvchi – Qaldirg‘och, alpga tayanch – Barchin obrazlari alpning quvvatini to‘ldirib turuvchi vakillar hisoblanadi. Qaldirg‘och oddiy ayol emas, Alpomishning ilohiy homiylaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Alpomishning singlisi Qaldirg‘ochga Alpomishdek Alpning tulporini egarlash, uni o‘q o‘tmaydigan, suvda cho‘kmaydigan, olovda kuymaydigan qilib kiyintirish, ya’ni qahramonni ilohiy asbob-anjom va ot bilan ta’minlash – homiy obrazida sotsiometrik muhit vakiliga aylanadi.

“Go‘ro‘g‘li” dostoni ham sotsiometrik jihatdan ahamiyatli muhim manba hisoblanadi. Unda Go‘ro‘g‘li atrofida shakllangan jangchilar guruhi orqali jamoaga qabul qilinish, sadoqat va ijtimoiy mavqe masalalari yoritiladi. Qahramonlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va tanlov

munosabatlari guruh ichidagi ijtimoiy tuzilmani belgilaydi. Ayrim obrazlarning markazga yaqin yoki chetda bo‘lishi sotsiometrik holatlarning yaqqol ko‘rinishidir.

“Alla” qo‘shiqlari eng kichik ijtimoiy guruh oila ichidagi munosabatlarni ifodalaydi. Ona va bola o‘rtasidagi mehr-oqibat, ishonch va hissiy bog‘liqlik sotsiometrik jihatdan “affektiv tanlov” ya’ni his-tuyg‘u, mehr va muhabbatga asoslangan bog‘lanish sifatida talqin qilinadi. Bu munosabatlar shaxsning dastlabki ijtimoiy aloqalari shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Allaning tarbiyaviy, madaniy mohiyati uning mazmunini emotsianal ta’sirchanligidan sodir bo‘lib, bolani kuy og‘ushida hayot bilan tanishtirish, ohanglar vositasida hayot ma’nosini anglashga yo‘naltiradi. Shu bilan birga bolada estetik didini o‘stirish maqsadi ham amalga oshadi. Abu Ali Ibn Sino allaning ana shu nday xususiyati borasida shunday degan edi: “Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo‘llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun odat bo‘lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyasiga va ruhi bilan musiqaga bo‘lgan iste’dodi hosil qilinadi”[35].

Osmonlarda uchar qush, alla,
Uchar qushning yo‘li bo‘sh, alla,
Uxlab yotsang allangda, alla,
Onang ko‘ngli bo‘lar xush, alla.[36]

O‘zbek xalq laparlarida yigit-qizlar o‘rtasidagi savol-javob, hazil-mutoyiba va tanlov jarayonlari orqali ijtimoiy munosabatlar, simpatiya va raqobat holatlari ifodalanadi. Bu esa guruh ichidagi o‘zaro baholash va ijtimoiy maqomni aniqlash jarayonini ko‘rsatadi.

Tadqiqotimiz tahlillariga tayanib aytish mumkinki, milliy musiqi meros namunalari o‘quvchilar orasidagi sotsiometrik munosabatlarni shakllanishida muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi hamda o‘quvchilarning madaniy ko‘nikmlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Chunki bunday musiqiy meros mazmunida ijtimoiy tanlov, moslashuv, guruh ichidagi o‘zaro munosabatlar tabiiy tarzda aks etgan. Shu jihatdan milliy musiqiy mbois xalq og‘zaki ijodi ta’lim jarayonida nafaqat estetik, balki ijtimoiy-pedagogik tahlil vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullaev D.I. Zamonaviy milliy musiqa ijrochiligining inson ma’naviy kamolotidagi o‘rni // Diversity Research: Journal of Analysis and Trends. – 2024. – Vol. 2(5). – B. 63–66.
2. Hasanova G. Maqom: A Living Organism of Musical Tradition // Journal of National Culture. – 2024. – DOI: 10.64681/f9mb7t29.
3. Ibragimov A.K., Tursunov M.S. The pedagogical significance of the formation of students’ spiritual and moral values through movement games in sports lessons // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Vol. 3(1). – P. 1–7.
4. Maksumova F. Oqilxon Ibrohimov ilmiy-ijodiy qiyofasi musiqiy pedagogika muammolari kesimida // O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati. – 2023. – B. 50–54.
5. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi: ilmiy to‘plam. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 310 b.
6. O‘zbek xalq qo‘shiqlari va allalari to‘plami. – Toshkent: Sharq, 2010.

[35] Abu Ali Ibn Sino. Tib qonunlari. I kitob, Toshkent, 1959, 293-b
[36] alla-o-zbek-bolalar-folklori-janri-sifatida.pdf

7. Pedagogika: ilmiy-nazariy va metodik jurnal. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2022. – №6. – 120 b.
8. Ro‘zmetova S. O‘zbek folklori va uning tarbiyaviy ahamiyati. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.

INNOVATSION METODLAR ASOSIDA TALABALARDA VATAN RAVNAQI G‘OYASINI RIVOJLANTIRISH

[1]Durdona Raxmatullayeva, [2]Durdona Abduvaitova
[1]PT RI. P.f.d.(DSc) professor, [2]Nordik Universiteti magistri
Abduvaitovadurdona062@gmail.com
https://orcid.org/0009000319672624

Annotatsiya. *Mazkur maqolada innovatsion metodlar asosida talabalarda Vatan ravnaqi g‘oyasini rivojlantirish masalalari tahlil etiladi. Shuningdek, innovatsion metodlar talabalarning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy mas’uliyati va jamiyat taraqqiyotiga daxldorlik hissini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish orqali talabalarda Vatan ravnaqi g‘oyasini rivojlantirish imkoniyatlari keng ekanini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion metodlar, Vatan ravnaqi g‘oyasi, talaba, ta’lim jarayoni, interfaol ta’lim, raqamli pedagogika, vatanparvarlik.*

Аннотация. *В данной статье анализируются вопросы развития идеи процветания Родины у студентов на основе инновационных методов обучения. Также обосновывается значение инновационных методов в формировании у студентов самостоятельного мышления, социальной ответственности и чувства сопричастности к развитию общества. Результаты исследования показывают, что эффективное использование инновационных подходов в образовательном процессе значительно расширяет возможности развития идеи процветания Родины у студентов.*

Ключевые слова: *инновационные методы, идея процветания Родины, студент, образовательный процесс, интерактивное обучение, цифровая педагогика, патриотизм.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasining rivojlanish jarayonida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muhim o‘rin tutadi. “Vatan ravnaqi” g‘oyasi, ya’ni ona yurtning farovonligi va taraqqiyotini ta’minlash, talabalarda milliy g‘urur, mas’uliyat va fidoyilik tuyg‘ularini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Bugungi globallashuv sharoitida an’anaviy tarbiya usullari yetarli emas, shuning uchun innovatsion metodlar – masalan, interfaol ta’lim, raqamli texnologiyalar, gamifikatsiya – talabalarda bu g‘oyalarni rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqola O‘zbekiston va xalqaro tajribalar asosida innovatsion yondashuvlarni tahlil qiladi va ularni amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini taklif qiladi.

Maqolaning maqsadi – talabalarda vatan ravnaqi g‘oyasini innovatsion metodlar (interfaol ta’lim, raqamli texnologiyalar, tajribaviy va loyihaviy o‘rganish) yordamida samarali rivojlantirish yo‘llarini o‘rganish, ularning pedagogik samaradorligini tahlil qilish.

Bu maqsad quyidagi asosiy vazifalarni o‘z ichiga oladi:

• Talabalarda vatan ravnaqi g‘oyasining mazmunini (milliy g‘urur, mas’uliyat, fidoyilik, yurt tinchligi va farovonligi yo‘lida xizmat qilish) chuqur shakllantirish.

• Innovatsion yondashuvlar orqali an’anaviy tarbiya usullarini takomillashtirish va yosh avlodni zamonaviy globallashuv sharoitida faol fuqarolikka tayyorlash.

• O‘zbekistonning milliy strategiyalari (“Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi, “O‘zbekiston-2030” va boshqalar) doirasida vatanparvarlik tarbiyasini mustahkamlashga hissa qo‘shish.

Adabiyotlar tahlili

Vatanparvarlik tarbiyasi masalasi O‘zbekiston pedagogikasida chuqur o‘rganilgan. Sardorbek Tursunovning ishida xalq pedagogikasi asosida talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish yo‘llari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, milliy an’analar va ijtimoiylashuv jarayonlari muhimligi ta’kidlangan. Shuningdek, “Vatanparvarlik ruhini talabalarda rivojlantirish pedagogik muammo sifatida” maqolasida zamonaviy yondashuvlar, masalan, harbiy vatanparvarlik va milliy qahramonlar (Amir Temur, Bobur) misollarini ulug‘lash orqali yoshlarda sadoqat va ishonch fazilatlarini shakllantirish taklif etilgan.

Xorijiy adabiyotlarda ham shunga o‘xshash yondashuvlar mavjud. Masalan, AQSh tajribasida tajribaviy o‘rganish (experiential learning) orqali talabalar mahalliy tarix va milliy ramzlar (bayroq, madhiya) bilan faol ishtirok etib, vatanparvarlikni rivojlantirishadi. Edutopia nashrida Ben Jonson[37] tomonidan taklif etilgan loyihalar, masalan, faxriylar bilan suhbatlar va milliy bayramlarni nishonlash, talabalarda milliy g‘ururni oshirishga yordam berishi ko‘rsatilgan. Buyuk Britaniya maktablarida esa multikulturalizm va interkulturalizm yondashuvlari orqali milliy g‘urur inkluziv tarzda tarbiyalanadi, bu esa turli millat vakillarini birlashtiradi.

O‘zbekistonning “O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida ta’lim sifatini oshirish va innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta’kidlangan bo‘lib, bu talabalarda vatan ravnaqi g‘oyasini rivojlantirishga asos bo‘ladi.

Innovatsion metodlar va ularni tatbiq etish

Talabalarda vatan ravnaqi g‘oyasini rivojlantirishda quyidagi innovatsion metodlar samarali:

1. Artpedagogika (san’at pedagogikasi) vositalari

Talabalar orqali rasm chizish, teatr sahnalashtirish, she’riyat, musiqa va badiiy ijod orqali milliy qahramonlarni (Amir Temur, Bobur, Alisher Navoiy) tasvirlash va vatanparvarlik tuyg‘usini uyg‘otish. Bu metod hissiy jihatdan chuqur ta’sir qiladi va talabalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirib, vatan ravnaqiga shaxsiy hissa qo‘shishni o‘rgatadi. O‘zbekiston tadqiqotlarida artpedagogika texnologiyasi talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirishning samarali usuli sifatida ko‘rsatilgan.

2. Tajribaviy o‘rganish va loyihalar: Talabalar jamoaviy ish orqali mahalliy loyihalarni amalga oshirish – masalan, ekologik tozalik aksiyalari yoki milliy madaniyat festivalini tashkillashtirish. Bu vatan ravnaqiga shaxsiy hissa qo‘shishni o‘rgatadi. Xalqaro tajribada faxriylar bilan loyihalar va san’at loyihalari (bayroq chizish, tarixiy munozaralar) taklif etilgan. O‘zbekistonda esa xalq pedagogikasi asosida kollektiv ish va ijtimoiy faoliyat orqali fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlash tavsiya etiladi.

- **37** *How to Teach Patriotism and Respect* (Vatanparvarlik va hurmatni qanday o‘rgatish kerak) **link:** edutopia.org/blog/how-to-teach-patriotism-and-respect-ben-johnson

3. O‘yin va kreativ usullar: Rolli o‘yinlar, sahnalashtirish va rasmlar orqali milliy qahramonlarni tasvirlash. Boshlang‘ich sinflarda o‘zbek xalq ertaklari asosida vatanparvarlikni rivojlantirish innovatsion hisoblanadi. Oliy ta’limda esa “O‘zbekiston-2030” strategiyasiga asoslangan loyihalar orqali innovatsion fikrlashni birlashtirish mumkin. Ushbu metodlarni tatbiq etishda pedagoglar milliy qadriyatlar (muhabbat, sadoqat) va xorijiy tajribalarni birlashtirishi kerak.

Muhokama va amaliy tavsiyalar

Innovatsion metodlar talabalarda vatan ravnaqi g‘oyasini rivojlantirishda samarali, ammo muammolar mavjud: resurslar yetishmasligi va pedagoglar tayyorgarligi. O‘zbekistonda “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi doirasida ta’limni innovatsionlashtirish bu muammolarni hal qiladi. Xorijiy tajribani (AQSh, Buyuk Britaniya) moslashtirib, O‘zbekiston kontekstida (milliy an’analar, tarixiy shaxslar) qo‘llash kerak.

Tavsiyalar:

- Oliy o‘quv yurtlarida interfaol darslarni joriy etish.
- Talabalar loyihalarini milliy strategiyalar bilan bog‘lash.
- Pedagoglar uchun malaka oshirish kurslarini tashkillashtirish.

Xulosa

Innovatsion metodlar talabalarda vatan ravnaqi g‘oyasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Xalq pedagogikasi, raqamli texnologiyalar va tajribaviy loyihalarni birlashtirish orqali yosh avlodni milliy g‘urur va mas’uliyat ruhida tarbiyalash mumkin. Bu O‘zbekistonning kelajakdagi taraqqiyotiga hissa qo‘shadi. Kelgusida ushbu yondashuvlarni empirik tadqiqotlar orqali takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tursunov S. Xalq pedagogikasi asosida talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish yo‘llari. University Research Base, 2024.
2. Vatanparvarlik ruhini talabalarda rivojlantirish pedagogik muammo sifatida. CyberLeninka, 2024.
3. Johnson B. How to Teach Patriotism and Respect. Edutopia, 2024.
4. Abduraxmanov Sh. N. O‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari // Oriens.uz. – 2022. – B. 1089–1092.
5. G‘aniyeva N. M. Ijtimoiy ish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: TDPU, 2022. – 250 b.
6. Johnson B. How to Teach Patriotism and Respect // Edutopia. – 2024. – URL: https://www.edutopia.org/article/how-teach-patriotism-respect (kirish sanasi: 2025-yil 10-fevral).
7. Madaliyev R. Artpedagogika orqali talabalarda vatanparvarlikni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish // Namangan davlat pedagogika instituti jurnali. – 2023–2025. – URL: https://journal.namspi.uz/articles_public_file/4765d0c6b72572654703b406c702b6b8.pdf.
8. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi (PF-60-son Farmon). – Toshkent, 2022.

O‘QITUVCHI VA TALABA ORASIDAGI SOTSIOMETRIK MUNOSABATLARNI SHAKLLANISHIDA OLIY TA’LIMDAGI ISLOHOTLAR VA UNING ISTIQBOLLARI

Abdullayeva Iroda Ismailovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar va uning istiqbollari tahliliy bayon etildi. Unda oliy ta’lim sifatini ta’minlash masalasiga urg‘u berildi. O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini rivojlanishining ayrim muhim jihatlari ochib berilgan.*

Аннотация. *В данной статье проанализированы реформы, реализуемые в системе высшего образования, и ее перспективы. Особое внимание было уделено вопросу обеспечения качества высшего образования. Раскрыты некоторые важные аспекты развития системы высшего образования в Узбекистане.*

Abstract. *This article provides an analytical overview of the reforms implemented in the higher education system and their prospects. It focuses on ensuring the quality of higher education. It reveals some important aspects of the development of the higher education system in Uzbekistan.*

Kalit so‘zlari: *oliy ta’lim, islohot, bilim, pedagog kadr, axborot tehnologiya, innovatsiya, talaba.*

Ключевые слова: *высшее образование, реформа, знания, преподавательский состав, информационные технологии, инновации, студент.*

Key words: *higher education, reform, knowledge, teaching staff, information technology, innovation, student.*

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizning ham siyosiy, ham ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida, shuningdek ta’lim tizimi, jumladan oliy ta’lim tizimida tub islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Ta’lim sohasini rivojlantirish, uni jahon andozalariga mos ravishda isloh qilish, bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab olindi.

Bugungi kunda dars mashg‘ulotlarini yangi pedagogik texnologiya va innovatsion usullar bilan o‘tkazish davr talabi hisoblanadi. Bugungi zamon o‘quvchilarining bilim olishi uchun avvalgi an’anaviy dars mashg‘ulotlari yangilik emas. Hozirgi texnika va texnologiyalar davrida an’anaviy dars mashg‘ulotlari tinglovchining e’tiborini tortmaydi. Rivojlanib borayotgan jamiyatimizga ayniqsa, ta’lim sohasiga zamon bn uyg‘unlashgan davr talablariga “labbay” deb javob bera oladigan pedagogik kadrlar kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2022 yildagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[1.]gi PQ-289-sonli Qarori misolida ko‘rishimiz mumkin.

Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: tizimli va qiyosiy tahlil; konseptual yondashuv; ijtimoiy-falsafiy tahlil.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son Farmoni[2.] ijrosini ta’minlash hamda oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy bilimi, ko‘nikmalari va mahoratini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq oliy ta’lim sifatini ta’minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish, qayta tayyorlash va malaka oshirishning bevosita hamda kasbiy faoliyatga aloqador bilvosita shakllarini variativ va bir birini to‘ldirish tamoyillari asosida amaliyotga joriy etishni ta’minlashdan iborat. Ta’lim jarayonida talabalarning sifatli

ta’lim olishini ta’minlash uchun O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida” O‘RQ-637 sonli Qonunining[3.]13-moddasida: Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo‘lgan yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo‘shimcha kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta’minlaydi. Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta’minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta’lim talablari bilan belgilanadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonida[4.], O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadlari ilgari surildi.

O‘quv jarayonining sifati ko‘p omillarga bog‘liq bo‘lib, ular orasida o‘qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘qitish metod va usullarini tanlashda o‘qitiladigan fanning xarakteri, talabalarning yosh xususiyatlari, tayyorgarlik darajasi va boshqalar hisobga olinadi. Ta’lim metodlari va usullarini tanlash o‘qituvchi tomonidan darsda hal qilinishi mo‘ljallangan masalaga bog‘liq bo‘ladi. Ya’ni yangi materialni bayon etishda bir xil metod va usul qo‘llanilsa, uni mustahkamlashda boshqa xil usul, mavzuni umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo‘llaniladi. Darsning turli bosqichlarida puxta o‘ylangan va samarali usullar va metodlarni tanlash juda muhimdir. Shunday qilib, o‘qitish metodi o‘qituvchi va o‘quvchilar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta’limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yo‘lidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmonining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 4-bobi “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish”ga qaratilgan bo‘lib, unda oliy ta’lim tizimini rivojlantirish, oliy ta’lim muassasalariga qamrov darajasini oshirish, oliy ta’lim muassasalarini QS va TNE xalqaro reytinglariga kirishi uchun tegishli choratadbirlarni amalga oshirish, har bir hududda nodavlat oliy ta’lim muassasalari sonini kengaytirish masalalariga e’tibor qaratilgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “...birinchi navbatda, e’tiborni Yangi O‘zbekiston uchun eng katta investitsiya bo‘lgan ta’limni qo‘llab-quvvatlashga qaratamiz. “Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi” [5.]. Shu jihatdan, o‘zgarayotgan O‘zbekistonda ta’lim tizimini rivojlantirish muhim va kechiktirib bo‘lmaydigan vazifa hisoblanadi. Jumladan, BMTning 2030-yilgacha Barqaror Rivojlanish Maqsadlarida ta’kidlanganidek, oliy ta’lim jahonda barqaror iqtisodiy o‘sishning yetakchi omiliga aylanmoqda. Bu esa o‘z navbatida ta’lim tizimini yanada rivojlantirish, shu bilan birga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish sifatini oshirish va bu orqali kadrlar tayyorlash sifatiga jiddiy e’tibor qaratishni taqozo etmoqda.

Ta’lim sohasidagi innovatsion texnologiyalar doimiy ravishda rivojlanib, ularning turlari kengayib bormoqda. Quyidagi asosiy texnologiyalar guruhlarini ajratish mumkin:[6. 5-bet]

1. Fan ta’limi sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoki AKT. Ushbu texnologiyalardan foydalanish axborot jamiyatining rivojlanishi va hayotning barcha sohalarida axborot vositalarini faol joriy etish bilan bog‘liq. Bunday texnologiyalar talabalar ongini axborotlashtirishga qaratilgan. Ta’lim dasturlari informatika, axborot jarayonlari va AKTni

o‘rganishga qaratilgan yangi fanlarni o‘z ichiga oladi. Professor o‘qituvchilar va talabalarning axborot madaniyatini oshirishga yordam berish uchun o‘quv jarayoni ham faol ravishda axborotlashtirilmoqda.

2. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar. Ushbu texnologiyalar shaxsni ta’lim va tarbiyada ustuvor o‘ringa qo‘yishga qaratilgan. Bu ta’lim jarayoni shaxsning o‘ziga xosligi va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsni rivojlantirishga qaratilgan.

3. O‘quv jarayonini axborot-tahliliy ta’minlash. Ushbu guruh texnologiyalaridan foydalanish har bir o‘quvchi, sinf, parallel, ta’lim muassasasining rivojlanishini o‘rganishga, ularni adekvat baholashga qaratilgan.

4. Intellektual rivojlanish monitoringi. Texnologiyalar grafiklardan foydalanishga, test tizimiga, individual o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini va umuman, ta’lim sifatini kuzatish imkonini beruvchi yangi baholash usullariga asoslangan.

5. Ta’lim texnologiyalari. O‘quv jarayonini ta’limdan ajratib bo‘lmaydi. Shuning uchun shaxsni, uning asosiy fazilatlarini rivojlantirishning yangi usullari joriy etilmoqda.

6. Didaktik texnologiyalar. Ular ta’lim muassasasi rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunday texnologiyalar an’anaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalanishni o‘z ichiga olgan texnika va vositalar majmuasiga asoslanadi. O‘quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlash, audiovizual, multimedia vositalaridan foydalanish, tabaqalashtirilgan o‘qitish usullari.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o‘ziga xosligi shundaki, ular o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O‘qitish jarayoni o‘qituvchi hamda o‘quvchilar faoliyatini o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining faoliyati o‘quv materialini bayon qilish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e’tiqodini shakllantirish, o‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O‘z ko‘nikma va ishiga ixlos bilan qaragan o‘qituvchida chinakkam ehtiros bo‘ladi. Ta’lim jarayonlarida albatta, har bir pedagog innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanmasligining iloji yo‘q. Avvalo, innovatsiya so‘ziga to‘xtaladigan bo‘lsak, innovatsiya so‘zi lug‘aviy jihatdan “Innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (innovation) “yangilik kiritaman” degan ma’noni anglatadi. Mazmunan va ma’no jihatidan olib qaraydigan bo‘lsak, tushuncha negizida innovatsiya tushunchasi muayyan tizimning ichki tuzilishini o‘zgartirishga qaratilgan faoliyatni ifodalaydi.

Respublikamizda va xorijiy davlatlarda oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish, ta'lim sifatini oshirish, professor-o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish, inson kapitalini ro‘yobga chiqarish hamda ilmiy tadqiqotchilik va innovatsion faoliyatini tashkil etish strategiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, respublikamizda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilinib, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berildi. Mazkur farmon asosida oliy ta'lim muassasalarining ta'lim sifatini oshirish, ilmiy va innovatsion faoliyat sohalarini rivojlantirish strategiyalari ishlab chiqildi.[4.]

Oliy ta'lim muassasalarida professor-o‘qituvchining kasbiy pedagogik faoliyatini takomillashtirish strategiyasi ta'lim sifati va pedagogik ish samaradorligini oshirishga yordam beradigan bir qator muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Oliy ta’lim tizimida islohotlarni jadallashtirish uchun ishlab chiqilgan yana bir muhim hujjatlardan biri – “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va

o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi faoliyati samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasi qarori bo‘lib, 2024-yil 20-yanvarda qabul qilingan. Ushbu qaror talabalar va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, madaniy meros obyektlariga turistik tashriflar va boshqa faolliklarni qo‘llab-quvvatlashni maqsad qilgan [7.].

Imtihon va qabul tizimida 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab oliy ta'limga kirish imtihonlari yangi tizim asosida amalga oshiriladi. Abituriyentlar dastlab test sinovida qatnashib, so‘ngra o‘z ballariga ko‘ra ta'lim muassasasini tanlashadi. Bu jarayonda kasbiy va ijodiy imtihonlar ham mavjud bo‘lishi belgilandi [8.]. Ta'lim sifatini oshirishda esa oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan oliy ta'lim muassasalarini akkreditatsiyadan o‘tkazish, oliy ta'lim sohasini raqamlashtirish va xalqaro darajaga moslashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilmoqda. Yetakchi oliy ta'lim muassasalari xorijiy universitetlar bilan hamkorlik qilish orqali xalqaro reytinglarda o‘z o‘rnini mustahkamlashga harakat qilmoqda.

Xulosa va takliflar. Jumladan, oliy ta'lim muassasalarida professor-o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik faoliyatini takomillashtirish imkoniyatini yaratuvchi bir nechta asosiy strategiyalarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq:

1. Doimiy ravishda o‘z-o‘zini takomillashtirish: o‘qituvchi o‘z bilim va ko‘nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishi, o‘qitishning yangi uslub va yondashuvlarini o‘rganishi, ta'limning so‘nggi tendensiyalariga amal qilishi kerak. Buning uchun ular professional kurslar, seminarlar va konferensiyalarda qatnashishi, maxsus adabiyotlarni o‘qishini tashkil etish va inobatga olish talab etiladi.

2. Jamoaviy ishni tashkil etish: o‘qituvchi ta'lim muassasasi jamoasi ishida faol ishtirok etishi kerak. Hamkasblar bilan tajriba almashish, muammolarni muhokama qilish va birgalikda yechim topish kasbiy mahoratni rivojlantirishga yordam beradi. Bunda jamoaning asosiy maqsadi ta'lim muassasasining missiyasi va strategiyasiga mos kelishiga e'tibor qaratish lozim.

3. Professor-o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatini baholash: o‘qituvchining faoliyati va natijalari muntazam ravishda baholanishi kerak. Buning uchun SWOT tahlil orqali kuchli va zaif tomonlarni aniqlashga va ularni yaxshilashga e'tibor berish kerak. Hozirgi kunda kasbiy faoliyatni baholashning ko‘plab manbalari tadqiq etilgan.

4. Innovatsion usullardan foydalanish: o‘qituvchi yangi texnologiya va o‘qitish usullaridan foydalanishga tayyor bo‘lishi kerak. O‘qitish amaliyotiga innovatsiyalarni joriy etish darslarni ta'lim oluvchilar uchun qiziqarli va samarali o‘tkazishga yordam beradi.

5. Shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish: o‘qituvchi o‘zining empatiya, bag‘rikenglik, ijodiy fikrlash, muloqot qobiliyatlari kabi shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishi kerak. Bu talabalarda ishonchni mustahkamlashga yordam beradi va yanada muvaffaqiyatli o‘rganishni ta'minlaydi.

6. Talabalarning ehtiyojlari va maqsadini aniqlash: Pedagog o‘z ishini ularga moslashtirish uchun talabalarning ehtiyoj va qiziqishlarini doimo tahlil qilib borishi kerak. Bu individual o‘quv dasturlarini ishlab chiqish yoki qo‘shimcha darslarni taqdim etishni o‘z ichiga olishi mumkin.

7. Ota-onalar bilan o‘zaro munosabatlar: o‘qituvchi talabalarning ota-onalari bilan faol aloqada bo‘lishi, ota-onalar yig‘ilishlari va maslahatlar o‘tkazishi kerak. Bu talabalarni tarbiyalash va ta'lim olishda birlashgan front yaratishga yordam beradi. Umuman olganda, o‘qituvchining kasbiy faoliyatini takomillashtirish strategiyasi uzluksiz o‘rganish, shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish va ta'lim muhitidagi o‘zgarishlarga moslashishga asoslangan bo‘lishi kerak. Bu esa o‘qituvchining o‘z ishida yana-da muvaffaqiyatli va samarali bo‘lishiga yordam beradi.[9. 4-bet] Professor-o‘qituvchilarning kasbiy pedagogik faoliyatini

takomillashtirishning muhim omillaridan biri talabaning qoniqish darajasini belgilovchi ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Oliy ta'lim muassasalari professor-o‘qituvchilar faoliyatini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqishda o‘qituvchining motivatsiyasiga ta'sir ko‘rsatuvchi omillarni ham aniqlash muhim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilning 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF–5847-son Farmoni imzolangan bo‘lib, unga asosan Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritasi tasdiqlandi. Konseptsiyaga muvofiq oliy ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlar belgilandi. Jumladan: oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish, ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar ta’sirchanligini oshirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish, oliy ta’lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta’minlash, moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash, oliy ta’lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va shaffoflikni ta’minlashning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish, oliy ta’lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta’minlash.

Bu islohotlar O‘zbekistonda oliy ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lib, yoshlarning oliy ma'lumot olish imkoniyatlarini kengaytirishga va ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar va uning istiqbollari quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin.

- Birinchidan, universitetlar sonining ortishi: Yangi xususiy va xorijiy oliy o‘quv yurtlari ochilmoqda, ta’limga kirish imkoniyatlari kengaymoqda.
- Ikkinchidan, ta'lim sifatining oshishi: Xalqaro standartlarga mos dasturlar, reyting tizimlari joriy qilinmoqda, o‘qituvchilar malakasi oshirilmoqda.
- Uchunchidan, masofaviy ta'lim rivoji: Pandemiyadan keyin onlayn ta'lim tizimi keng qo‘llanilmoqda, bu chekka hududlar uchun qulay.
- To‘rtinchidan, amaliyot va ta'lim integratsiyasi: Talabalarning amaliyoti kengaytirilmoqda, sanoat bilan hamkorlik rivojlanmoqda.
- Beshinchidan, ilm-fan va innovatsiyalar: Ilmiy-texnologik markazlar ochilmoqda, grantlar va ilmiy tadqiqotlar qo‘llab-quvvatlanmoqda.
- Oltinchidan, qabul tizimi shaffoflashmoqda: Test jarayonlari oshkoraligi ta’minlanmoqda, texnologiyalar joriy qilinmoqda.

Yuqorida sanab o‘tilgan ishlarning barchasida oliy ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlarning istiqbollarini ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-289-sonli Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida” O‘RQ-637-sonli Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2022-yil, 20-dekabr. www.prezident.uz
6. Sh.I.Siddiqova. Inovvatsion texnologiyalarni joriy etishning samarali usullari. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2024, 5-bet.
7. Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi faoliyati samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi qarori, 36-son, 20.01.2024 yil, www.lex.uz
8. https://president.uz/oz/lists/view/7256
9. R.Xalmuradov. Ilmiy axborotnoma. 4-son, Gumanitar fanlar seriyasi, 2023, 4-bet.

1-SINF QUVCHILARINI MAKTAB HAYOTIGA MOSLASHTIRISHDA SOTSIOMETRIIK MUNOSABATLARNING IMKONIYATLARI

Jumanova Ozoda
Qori Niyoziy nomidagi TPMI tayanch dokoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada 1-sinf quvchilarini maktab hayotiga moslashtirish jarayonida sotsiometrik munosabatlarning rni va imkoniyatlari keng yoritilgan. quvchilarning yangi ijtimoiy muhitga kirib borishi, sinf jamoasida z rnini topishi va psixologik moslashuvini ta’minlashda shaxslararo munosabatlarning ahamiyati tahlil qilingan. Sotsiometrik yondashuv asosida sinf jamoasining ichki tuzilmasi — liderlik, kichik guruhlar, zaro tanlov va rad etish holatlari aniqlanishi hamda ularni pedagogik boshqarish imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, maqolada didaktik yinlar, kichik guruhlarda ishlash, juftlik faoliyati, sotsiometrik diagnostika va ijobiy psixologik muhit yaratish kabi metodlarning quvchilarni maktab hayotiga samarali moslashtirishdagi roli asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari sotsiometrik munosabatlar boshlang‘ich sinf quvchilarining ijtimoiylashuvi, kommunikativ knikmalari va quv faoliyatiga ijobiy motivatsiyasini shakllantirishda muhim omil ekanligini krsatadi.

Kalit so‘zlar: 1-sinf quvchisi, adaptatsiya, sotsiometriya, sotsiometrik munosabatlar, sinf jamoasi, ijtimoiylashuv, psixologik moslashuv, kommunikativ knikmalar, pedagogik metodlar, didaktik yinlar, guruhli ish, ijobiy muhit, liderlik, shaxslararo munosabatlar.

1-sinf quvchilarini maktab hayotiga moslashtirish (adaptatsiya) jarayoni ularning keyingi quv faoliyati, psixologik barqarorligi va ijtimoiy rivojlanishi, quv knikmalarini egallashi uchun muhim hisoblanadi. Bu jarayonda sotsiometrik munosabatlar — ya’ni quvchilar rtasidagi zaro yaqinlik, tanlov, ishonch, qabul qilish yoki rad etish kabi ijtimoiy-psixologik aloqalar — ziga xos pedagogik vosita sifatida namoyon bladi. Chunki boshlang‘ich sinf quvchilari uchun maktab nafaqat bilimlarni egallash makoni blishi bilan bir qatorda, yangi ijtimoiy muhit sifatida ham

alohida pedagogik ahamiyat kasb etadi. Shunga kra quvchilarning mazkur muhitga moslashishi kp jihatdan qituvchi va sinf jamoasi orasidagi munosabatlarning xarakteriga bog‘liq.

Sotsiometrik yondashuv niqtai nazaridan qaraydigan blsak, har qanday quvchilar guruhi tashqaridan oddiygina jamoa shaklida namoyon blsada, unda ichki tuzilma - ya’ni dstlar jamoasi, kichik guruhlar, liderlar va cheklanish kabi turli shakldagi munosabatlar mavjud. Uning mohiyatini tushunish boshlanig‘ich sing qituvchisiga sinf jamoasini boshqarish quvchilarni maktab hayotiga va quv jarayoniga moslashtirish va ijtimoiy muhitni quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga moslashtirish imkonini beradi.

Birinchi sinf quvchilarida sotsiometrik munosabatlarning imkoniyatlari eng avvalo ularning **maktabga psixologik moslashuvini yengillashtirishda** namoyon bladi. quvchilar maktabga kelgandan keyin yangi chexralar, muhit va munosabatlarga duch keladilar. quvchi maktab hayotining dastlabki kunlaridan boshlab guruhdoshlari tomonidan qabul qilinsa, dstlar orttirsa, qituvchi tomonidan uning harakatlari ijobiy baholanib e’tirof etilsa, qabul qilinsa, ularda quv jarayoniga nisbatan ijobiy emotsional muhit shakllanadi. Aks holda, quvchi bu davrda zini yolg‘iz, rad etilgan yoki e’tibordan chetda qolgan, sinfdoshlari va qituvchi tomonidan rad etilgan deb bilsa, unda maktab hayotiga moslashmaslik, qrquv, quv jarayonidan bezish, charchoq, tushkunlik, befarqlik, ziga ishonmaslik va qarshilik hissi paydo bladi. Shuning uchun ham sotsiometrik munosabatlar quvchilarni maktab hayotiga moslashtirish jarayonida adaptatsiyaning asosiy ijtimoiy-psixologik mexanizmi sifatida namoyon bladi.

Sotsiometriyaning 1-sinf quvchilari uchun alohida imkoniyatga egaligi **quvchilar rtasida ijtimoiy integratsiyani ta’minlashdan iborat**. Kuzatish va izlaanishlarimiz shuni krsatmoqdaki, sinf jamoasiga mansublik hissini tuygan quvchilar zini osoyishta, qituvchiga yaqin va faolroq his qiladi. Boshlang‘ich sinf quvchilari uchun bu muhim ahamiyatga ega blib, sotsiometriya adaptiv funksiyani bajaradi. qituvchi sotsiometrik usullar yordamida quvchilarni sinf jamoasiga moslashtiradi. U sotsiogramma yordamida quvchilarning zaro munosabatlari aniqlashga muvaffaq bladi va shu asosda darsda zini tutish, quv qurollari bilan muomala qilish tartibi, shaxslararao munosabatlarning ahamiyati, odob-axloq me’yorlari, gigiyenik talablar bilan ularni tanishtiradi, guruhli faoliyat va juftliklarda ishlash knikmalarini hosil qiladi. Bu z navbatida, quvchilarni sinf jamoasiga moslashtirish imkonini beradi.

Sotsiometrik yondashuvning ziga xos imkoniyatlaridan yana biri – tortinchoq, ziga ishonmaydigan, yolg‘izlikni xush kradigan quvchilarni aniqlash va ularga nisbatan korreksion profilaktik metodlar yordamida ta’sir krsatishdan iborat. Chunki, ayniqsa 1-sinfga kelgan bolalarning ayrimlari tabiatan tortinchoq, kamgap, boshqalarga qshilmaydigan, zini chetga oladigan bladi. qituvchi bunday quvchilarni Sotsiometrik tahlil yordamida aniqlaydi va ularga nisbatan korreksion chora-tadbirlarni qllaydi. Sotsiometrik yondashuvni q’lash asosida quvchilarni maktab hayotiga moslashtirish, ular orasidagi ziddiyatlarni kamaytiradi, muloqot klamini kengaytiradi, quvchilarni bir-birini qllab-quvvatlash, zaro yordam krsatish, shaxslararo munosabatga kirishish, hamkorlikda ishlash knikmalalrini tizimli tarzda egallay boshlaydilar. Natijada, quvchi sinf jamaosi va maktab hayotiga moslashadi. qituvchisiga esaalohida hurmat va e’tiqod bilan yondashadi.

Shu bilan bir qatorda sotsiometrik munosabatlar **kommunikativ va ijtimoiy knikmalarni jadal shakllantirishga xizmat qiladi.** 1-sinf quvchisi uchun muloqotga kirishish, dst orttirish, maqtov eshirttish, hamkorlikka kirishish, navbat kutish, boshqani tinglash kabi knikmalar shakllanib, atrofdagilar bilan integratsiya jarayoni boshlanadi. Agar sinfda ijobiy sotsiometrik muhit yaratilsa, bu knikmalar tabiiy ravishda rivojlanadi. Masalan, quvchilarni

kichik guruhlarda ishlashga rgatish, rolli yinlar tashkil etish, birgalikda topshiriqlar bajarish orqali ularning zaro aloqalari mustahkamlanadi. Bu esa znavbatida quvchini maktab hayotiga moslashtirish bilan bir qatorda, shu bilan bir qatirda quvchining istiqboldagi quv faoliyati uchun zarur blgan ijtimoiy kompetensiyalarini ham tizimli tarzda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sotsiometrik munosabatlar qituuvchiga sinf jamoasini muvaffaqiyatli boshqarish imkonini beradi. Chunki sinfdagi yashirin ijtimoiy tuzilmani bilgan qituvchi pedagogik ta’sirni aniq ynaltira oladi. Masalan, lider quvchilar orqali boshqalarga ijobiy ta’sir krsatish, konfliktli quvchilarni alohida nazorat qilish, passiv bolalarni faol jarayonga jalb etish kabi strategiyalarni qllash mumkin. Bu esa dars jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi.

Shuningdek, sotsiometrik munosabatlar **emotsional barqarorlikni shakllantirishda** ham muhim rol ynaydi. Boshlang‘ich sinf quvchisi uchun qituvchi va sinfdoshlar bilan iliq munosabatlar mavjud blsa, u zini xavfsiz va himoyalangan his qiladi. Bu esa uning maktabga blgan qiziqishini oshiradi, rganishga blgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi. Aksincha, salbiy munosabatlar bolaning psixologik holatiga salbiy ta’sir krsatib, moslashuv jarayonini qiyinlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, 1-sinf quvchilarini maktab hayotiga moslashtirishda sotsiometrik munosabatlar quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

ijtimoiy moslashuvni tezlashtiradi;

sinfda ijobiy psixologik muhitni shakllantiradi;

yolg‘izlangan quvchilarni aniqlash va qllab-quvvatlashga yordam beradi;

kommunikativ va ijtimoiy knikmalarni rivojlantiradi;

qituvchiga sinfni samarali boshqarish imkonini beradi;

quvchilarda maktabga nisbatan ijobiy munosabat va motivatsiyani shakllantiradi.

Shu sababli boshlang‘ich ta’lim jarayonida qituvchi sotsiometrik yondashuvlardan ongli va tizimli foydalanishi zarur. Chunki aynan shu munosabatlar orqali bola maktabni “begona muhit” emas, balki zini erkin va xavfsiz his qiladigan ijtimoiy makon sifatida qabul qiladi.

1-sinf quvchilarida sotsiometrik munosabatlarni shakllantirish - bu ularning maktab hayotiga moslashuvi, ijtimoiylashuvi va keyingi quv faoliyatining muvaffaqiyati uchun asosiy pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki bu davrda quvchilar ijtimoiy tajribaga yetralicha ega blmaganliklari tufayli ular dstlashish, muloqot qilish, bir-birini tushunish va jamoada z rnini topishga qiynaladilar. Shu sababli qituvchi sotsiometrik munosabatlarni shakllantirishda metodlardan maqsadli tarzda foydalanishi zarur.

Quyida biz quvchini maktab hayotiga moslashtirishga kmaklashadigan samarali metoddlar ustida txtalamiz.

Didaktik va rolli yinlar sotsiometrik munosabatlarni shakllantirishda eng asosiy metod hisoblanadi. Bu yoshdagi bolalar uchun yin tabiiy faoliyat turi blib, aynan yin jarayonida ular bir-biri bilan yaqinlashadi, rollarni taqsimlaydi, ijtimoiy munosabatlarga kirishadilar hamda hamkorlikdagi munosabatga kirishadilar. Masalan, “Dst top”, “Birgalikda quramiz”, “Kim bilan ishlashni xohlaysan?” kabi yinlar yordamida ijtimoiylashgan quvchilar yinlar tanlovida amalga oshiradilar. Bunday yinlar 1-sinf quvchilarida sotsiometrik munosabatlarning dastlabi elementlari shakllanishiga xizmat qiladi. yin jarayonida qituvchi kuzatuvchi sifatida kim kim bilan muloqotga kirishayotganligini, yaqin munosabat rnatganligini, kim chetda qolayotganini aniqlasjhga muvaffaq bladi va bunday munosabatlarni barqarorlashtirish maqsadida zarur pedagogik choralarni kradi.

Ikkinchi muhim metod - kichik guruhlarda ishlashni tashkil etishdan iborat. 1-sinf quvchilari katta jamoada zini erkin his qilmasligi mumkin, ammo 3–4 kishilik kichik guruhlarda ular osonroq muloqotga kirishadilar, yangi dstlar topadi, bir-birlari bilan yaqindan tanishadilar. Guruhlarni doimiy emas, balki zgaruvchan shaklda tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki bu har bir quvchining barcha sinfdoshlari bilan yaqin munosabatlar rnatishini ta’minlaydi. Bunday metod sotsiometrik aloqalarni kengaytiradi va yopiq kichik guruhlarning shakllanib qolishining oldini oladi.

Uchinchi muhim metod - juftliklarda ishlashdir. Bu usul ayniqsa tortinchoq yoki kam pag quvchilar uchun samarali. quvchilar juftlikda topshiriq bajarayotganda ular bir-birini tinglash, tushunish va hamkorlikka kirishishni ham rganadi. qituvchi juftliklarni ongli ravishda shakllantirib, faol quvchini faol blmagan quvchi bilan nazarda tutgan holda juftlikni shakllantiradi. Bu orqali sinf quvchilari orasida ijtimoiy muvozanatni ta’minlaydi.

Trtinchi metod - sotsiometrik kuzatuv va soddalashtirilgan diagnostika usullaridan foydalanishdan iborat. qituvchi quvchilar orasida quyidagi savollarni z ichiga olgan anketa srovini tkazihsi mumkin. “sen kim bilan bir partada tirishni xohlaysan?”, “kim bilan birga yin ynashni istaysan?”, “qanday yinlarni ynaysan”, “darsdan keyin kim bilan birga uyga borishni xohlar eding”, “kim bilan yaqin rtoq blomqcisan” kabi savollar quvchidagi tortinchoqlik hissini yengishga xizmat qiladi. quvchilar tomonidan berilgan javoblar sinf jamoasidagi liderlar va chetda qolayotgan quvchilarni erta aniqlash imkonini beradi.

Beshinchi metod - sinfda ijobiy psixologik muhit yaratish metodi ham quvchilar orasidagi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish orqali ularni maktab hayotiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur metod boshqa metodlar bilan uzviy aloqadorlikka ega blib, kompleks tarzda samaradorlikni ta’minlash imkonini beradi. qituvchi har bir quvchini qadrlashi, ularning fikrini hurmat qilishi, xatolarga tolerantlik bilan yondashishi natijasida ular maktab hayotiga tez moslashadilar. qituvchini esa zlarining eng yaqin kishilari sifatida qabul qiladilar. Natijada, sinfda barcha quvchilar uchun umumiy blgan qadriyatlar shakllana bsohlaydi. Bunday yonashuv quvchilar orasida quvchilar orasida zaro ishonch va hurmat hissini vujudga keltiradi.

Oltinchi metod - hamkorlikdagi ijodiy faoliyatni tashkil etish metodi. Masalan, birgalikda rasm chizish, maket yasash, sahna krinishlari tayyorlash kabi metodlar quvchilar orasidagi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirib, ularda jamoaviylik hissini shakllantiradi. Bunday topshiriqlar har bir quvchiga jamoaviy munosabatlarni shakllantirihs bilan bir qatorda, umumiy ishga hissa qshish knikmasini ham shakllantiradi. Bu z navbatida, sinfdagi quvchilar orasidagi sotsiometrik aloqalarni mustahkamlab, quvchilarning ijtimoiylashuvini jadallashtiradi.

Yettinchi metod — Refleksiya va baham krish mashqlari ham quvchilarni maktab muhitiga oson moslashtirish imkonini beradi. Ushbu metodlar quvchilarning zaro munosabatlari mohiyatini anglashlariga kmaklashib, ular orasidagi ijobiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Sakkizinchi metod — qituvchining namuna krsatishi. Boshlang‘ich sinf quvchilari qituvchining har bir harakatini kuzatadilar va unga taqlid qiladilar. Agar qituvchi mehribon, adolatli, e’tiborli va hurmatga sazovor blsa, quvchilar ham bir-birlariga noisbatan shunday munosabatda bladilar. Ushbu metod quvchilarda sotsiometrik munosabatlarning tabiiy tarzda shakllanishiga kmaklashib, ularni maktab hayotiga oson moslashishlari, aksariyat hollarda qituvchilik kasbini egallash motivlarining shakllantirishga asos bladi.

Xulosa qilib aytganda, 1-sinf quvchilarida sotsiometrik munosabatlarni shakllantirish metodlari kompleks xarakterga ega blib, yin, hamkorlik, kuzatuv, psixologik muhit va pedagogik

yondashuvlarni uyg‘unlashtirishga asoslanib, quvchilarni maktab hayotiga samarali moslashtirish imkonini beradi. Tg‘ri tashkil etilgan sotsiometrik muhit orqali quvchilar zlarini sinf jamoasining teng huquqli a’zosi sifatida sifatida his qiladi. Natijada, ularda maktab va quv jarayoniga nisbatan iliq munosabat, sinfdoshlari bilan hamkorlik qilish ehtiyoji, qituvchini qadrlash, u bilan muloqotga intilish knikmalari tizimli tarzda shakllana boshlaydi. Shu asosida quvchilar bosqichma-bosqich quv predmetlarini chuqurroq zlashtirishga muvaffaq bladilar. Ularda qib rganish, ijtimoiy faollik krsatish motivlari shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RYXATI:

1. Safarova R.G. qituvchi-quvchi orasidagi sotsiometrik munosabatlarni rivojlantirish mexanizmlari // “Pedagogika” jurnali. 2026-yil, 1-son. 26-30-b.
2. Морено Я.Л. Социометрия: экспериментальный метод и наука об обществе / Пер. с англ. А. Боковикова. - М.: Академический проект, 2004. - 315 с.
3. Левин Курт. Динамическая психология: избранные труды. - М.: Смысл, 2001.
- 572 с.
4. Роджерс К. Клиент-центрированная психотерапия: теория, современная практика и применение. - М.: Психотерапия, 2007. - 560 с.

XXI asr ko‘nikmalari va kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati

Taxiatosh tumani “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi
bosh mutaxassisi Saburov Ulug‘bek Abatbay o‘g‘li

Annotatsiya. *Mazkur maqolada* ***kompetensiyaviy yondashuv****, xususan 4K (4C) modeli – kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiya – o‘quvchilarning shaxsiy va akademik rivojlanishida ustuvor ahamiyatga ega ekanligi tadqiq qilinadi. Ushbu ko‘nikmalar nafaqat muammolarni hal qilish va mustaqil fikrlashni, balki samarali muloqot va jamoaviy ishlash qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *XXI asr ko‘nikmalari, 4K modeli, kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya, kollaboratsiya, kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion ta’lim.*

Abstract. *This article examines the* ***competency-based approach****, particularly the 4C (4K) model – creativity, critical thinking, communication, and collaboration – as a priority for students’ personal and academic development. These competencies not only support problem-solving and independent thinking but also foster effective communication and teamwork skills.*

Keywords: *21st-century skills, 4C model, creativity, critical thinking, communication, collaboration, competency-based approach, innovative education.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается* ***компетентностный подход****, особенно модель 4C (4K) – креативность, критическое мышление, коммуникация и коллаборация – как приоритет для личностного и академического развития учащихся. Эти компетенции не только поддерживают навыки решения проблем и*

самостоятельного мышления, но и способствуют эффективному общению и работе в команде.

Ключевые слова: *навыки XXI века, модель 4C, креативность, критическое мышление, коммуникация, коллаборация, компетентностный подход, инновационное образование.*

Kirish

XXI asr ta’limi global jamiyat va ish bozoridagi tezkor o‘zgarishlarga javob bera olish qobiliyatini talab qiladi. Hozirgi davrda an’anaviy bilim va ko‘nikmalar o‘quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatini ta’minlash uchun yetarli emas. Shu bois, zamonaviy ta’limda kompetensiyaviy yondashuv, ya’ni o‘quvchilarda turli ko‘nikmalarni bir vaqtning o‘zida rivojlantirishga qaratilgan metodlar, asosiy ahamiyat kasb etadi.

Kompetensiyaviy yondashuvning eng mashhur modeli – 4K (4C) modeli – kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiya elementlarini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotlar va xalqaro tashkilotlar (Partnership for 21st Century Learning, OECD “Education 2030”, UNESCO) shuni ko‘rsatadiki, ushbu kompetensiyalar nafaqat akademik natijalarni oshiradi, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, ijtimoiy faol va mas’uliyatli fuqarolar sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, loyiha va muammoga yo‘naltirilgan ta’lim, interfaol o‘quv strategiyalari orqali 4K kompetensiyalarini samarali rivojlantirish mumkin. Shu bois, XXI asr ko‘nikmalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, jamoaviy ishlash va innovatsion yondashuv qobiliyatlarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi.

XXI asr ta’limi tez o‘zgarayotgan globallashgan dunyo va innovatsion iqtisodiyot sharoitida o‘quvchilarda muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bernie Trilling va Charles Fadel (2012) ta’kidlashlaricha, an’anaviy ta’lim tizimlari faqat faktik bilimlarni berishga yo‘naltirilgan bo‘lib, XXI asr o‘quvchisi uchun yetarli emas. Shu bois, ta’lim jarayonida kompetensiyalarga asoslangan yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv — bu o‘quvchilarning faqat bilim olishini emas, balki bu bilimlarni amaliyotda qo‘llash, muammolarni hal qilish va shaxsiy hamda ijtimoiy rivojlanishga yo‘naltirilgan strategik yondashuvdir. Xalqaro tashkilotlar, xususan, Partnership for 21st Century Learning, OECD (“Education 2030”) va UNESCO kompetensiyalarni zamonaviy ta’limning asosiy mezonlari sifatida belgilaydi. Ushbu yondashuv orqali o‘quvchilar nafaqat akademik natijalarni oshiradi, balki kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatga tayyorlanadi.

4K modeli (4C modeli) — kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiya — XXI asr ko‘nikmalarining asosiy komponenti sifatida qaraladi.

- **Kreativlik (Creativity)** — yangi g‘oyalar yaratish va mavjud bilimlarni innovatsion yo‘l bilan qo‘llash qobiliyati. O‘quvchilarni ijodiy mashqlar, loyiha ishlari va tasviriy san’at faoliyati orqali rivojlantirish mumkin.
- **Kritik fikrlash (Critical Thinking)** — muammolarni tahlil qilish, turli variantlarni solishtirish va mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyati. Savol-javob mashqlari, problemaga yo‘naltirilgan o‘quv metodlari orqali shakllantiriladi.
- **Kommunikatsiya (Communication)** — samarali muloqot qilish, fikrlarni aniq ifodalash va boshqalarni tinglash qobiliyati. Og‘zaki, yozma va noverbal kommunikatsiya shakllari bu ko‘nikmani rivojlantiradi.

- **Kollaboratsiya (Collaboration)** — jamoaviy ishlash va umumiy maqsadga erishish qobiliyati. Guruh loyihalari va sinf ichidagi hamkorlik mashqlari o‘quvchilarni bir-birini tushunish va qo‘llab-quvvatlashga o‘rgatadi.

4. 4K kompetensiyalarini rivojlantirish metodlari

Nazariy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 4K ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish uchun quyidagi metodlar qo‘llaniladi:

1. **Loyiha asosida ta’lim (Project-Based Learning)** — o‘quvchilar real muammolarni hal qilish jarayonida ko‘nikmalarini qo‘llashadi.
2. **Muammo asosida ta’lim (Problem-Based Learning)** — tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi.
3. **Interfaol o‘quv strategiyalari** — guruh ishlari, diskussiya, rolli o‘yinlar orqali kommunikatsiya va kollaboratsiya qobiliyatlarini shakllantiradi.

Ushbu metodlar nafaqat o‘quvchilarning akademik yutuqlarini oshiradi, balki ularni jamiyatda faol, mas’uliyatli va kelajakdagi professional hayotga tayyorlaydi {(Care et al., 2018; Pinskaya, 2016).

XXI asr ko‘nikmalari – kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiya – o‘quvchilarning nafaqat akademik, balki shaxsiy rivojlanishida ham asosiy rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar (Trilling & Fadel, OECD “Education 2030”, UNESCO) shuni ko‘rsatadiki, bu ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali o‘quvchilar:

- muammolarni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini oshiradi;
- samarali muloqot va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi;
- ijodiy fikrlash va yangilik yaratish imkoniyatini kengaytiradi.

Loyiha va muammoga yo‘naltirilgan ta’lim metodlari, interfaol o‘quv strategiyalari orqali 4K ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish mumkin. Masalan:

- **Kreativlik:** hikoya tuzish, tasviriy san’at va innovatsion topshiriqlar orqali o‘quvchilar yangi fikrlar yaratishni o‘rganadi;
- **Kritik fikrlash:** “Nima uchun?” va “Qanday qilib?” savollari orqali tahliliy fikrlashni rivojlantiradi;
- **Kommunikatsiya:** og‘zaki va yozma muloqot, shuningdek, noverbal ifoda ko‘nikmalarini mustahkamlaydi;
- **Kollaboratsiya:** guruh ishlari va jamoaviy loyihalar orqali hamkorlik va boshqalarni tushunish qobiliyatini oshiradi.

Nazariy asoslar va xalqaro tajribalar orqali olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki:

- 4K modelini dars jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi;
- Interfaol va loyiha asosidagi mashg‘ulotlar o‘quvchilarning muloqot va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi;
- Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish va kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatga tayyorlashga xizmat qiladi.

Tajriba va kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, 4K modelini samarali tatbiq etishda ayrim muammolar mavjud:

- o‘qituvchilarning yetarli malakasi va metodik tayyorgarligi;
- sinflardagi o‘quvchilar sonining ko‘pligi;
- resurslar va texnologiyalar yetishmasligi;
- shaharlik va qishloq o‘quvchilari o‘rtasidagi ta’lim sifati farqlari.

Shunga qaramay, kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va shaxsiy fazilatlarini muvozanatli rivojlantirishga yordam beradi va XXI asr talablariga mos keladigan shaxslarni tayyorlash imkonini yaratadi.

XXI asr ta’limi nafaqat akademik bilimni, balki o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Kompetensiyaviy yondashuv, xususan 4K (4C) modeli – kreativlik, kritik fikrlash, kommunikatsiya va kollaboratsiya – o‘quvchilarni nafaqat muammolarni hal qilish va mustaqil fikrlashga, balki samarali muloqot va jamoaviy ishlashga tayyorlaydi.

Tajriba va nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, loyiha va muammoga yo‘naltirilgan ta’lim metodlari, interfaol o‘quv strategiyalari orqali 4K kompetensiyalarini samarali rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchilarning akademik natijalarini oshirish, ularni jamiyatda faol va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantirish hamda kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatga tayyorlash imkonini beradi.

XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, u o‘quvchilarni murakkab, tezkor o‘zgarayotgan dunyoda muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalar bilan ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Trilling, B., & Fadel, C. (2009). *21st Century Skills: Learning for Life in Our Times*. San Francisco: Jossey-Bass.
2. Partnership for 21st Century Learning (P21). *Framework for 21st Century Learning*. 2020. https://www.battelleforkids.org/networks/p21
3. OECD. (2018). *Education 2030: Competences for 21st Century*. Paris: OECD Publishing.
4. UNESCO. (2016). *Global Education Monitoring Report*. Paris: UNESCO.
5. Care, E., Kim, H., Vista, A., & Anderson, K. (2018). *Education System Alignment for 21st Century Skills: Focus On Assessment*. Brookings Institution.
6. Pinske, M., & Ulanovskaya, I. (2016). *New Forms of Assessment. Primary School*. Moscow: Prosveshchenie.
7. Pinske, M. (2016). *4C Competencies: Formation and Assessment in the Lesson. Practical Recommendations*. Moscow: Prosveshchenie.
8. Learning Strategies: A Synthesis and Conceptual Model. (2017). *Journal of Educational Research*, 110(3), 275–290.
9. Setting the Standard for Project-Based Learning. (2019). *International Journal of Educational Innovation*, 5(2), 45–60.
10. Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future. (2020). *Education and Information Technologies*, 25, 1237–1252.
11. Overview of Problem-Based Learning. (2018). *Interdisciplinary Journal of Problem-Based Learning*, 12(1), 1–14.
12. Adizova, N.B., & Jo‘rayeva, N.O. (2024). *Ona tili o‘qish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi*. O‘quv qo‘llanma.

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING INNOVATSION TADBIRKORLIK SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISH

Xayrulla Alyaminov
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.
Qoraqalpoq Davlat universiteti, Arxitektura kafedrasi, Nukus shahri

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Oliy ta’lim muassasalari talabalarining innovatsion tadbirkorlik salohiyatini shakllantirish uchun kompleks, amaliy va psixologik jihatlarni integratsiyalashgan yondashuvni joriy etishi lozimliligi. Bunda: o‘quv dasturlarini innovatsiyalar bilan boyitish, amaliy tashabbuslar va STEM integratsiyasini kuchaytirish, mentorluk va investitsiya tizimlarini yo‘lga qo‘yish, baholashni metodologik jihatdan to‘liq tashkil etish orqali amalga oshirilishi batafsil yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *tadbirkorlik salohiyati, tashabbuskorlik; STEM integratsiyasi, mentorluk va investitsiya tizimlari, ishontirish, aloqa bog‘lash qobiliyati, mustaqillik va o‘ziga ishonch, darrov ilg‘ab olishlik*

Аннотация. *В данной статье необходимо внедрить комплексный, практический и психологический аспекты интегрированного подхода к формированию инновационного предпринимательского потенциала студентов высших учебных заведений. При этом подробно освещается обогащение учебных программ инновациями, усиление практических инициатив и интеграции STEM, налаживание систем менторства и инвестиций, а также методологическая организация оценки.*

Ключевые слова: *предпринимательский потенциал, инициативность; Интеграция в STEM, системы менторства и инвестиций, убеждение, умение налаживать связи, самостоятельность и уверенность в себе, находчивость*

Abstract. *In this article, the necessity of implementing an integrated approach that incorporates comprehensive, practical, and psychological aspects to form the innovative entrepreneurial potential of higher education students is examined. In this regard, the following will be highlighted in detail: enriching curricula with innovations, strengthening practical initiatives and STEM integration, establishing mentoring and investment systems, and implementing assessment through a methodological organization.*

Keywords: *entrepreneurial potential, initiative; STEM integration, mentoring and investment systems, persuasion, communication skills, independence and self-confidence, and quick-wittedness*

Hozirgi zamon sharoitida mamlakatimizning rivojlanish darajasini nafaqat ularning texnik holati, balki oliy ta’lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassislarning kasbiy kompetenligini ham belgilaydi. Demak, talabalarda tadbirkorlikga oid kompetentsiyalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarni tadbirkorlik sohasida muvaffaqiyotlarga erishishlari uchun ular quyidagilarga ahamiyat berishlari kerak:

-doimo imkoniyat qidirish va tashabbuskorlik;

- quyilgan maqsadlarga erishishda sabr va matonat;

- samaradorlik va sifatga tomon tinmay harakat qilish;

- maqsadga qarab intilish, aynan, g‘oyaning doimiy rivojlanib borishi va qisqa muddatli masalalar yechishni oldindan ko‘ra olish;

- tadbirkorlik faoliyatining nafaqat o‘z biznesi sohasini, balki mumkin qadar boshqa sohalarni ham uzluksiz tahlil qilish, kuzatish, rejalashtirish va oldindan ko‘ra olish.

Mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarish omillaridan maqsadli foydalanish yo‘nalishlarini shakllantirish va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligi oshirish jarayoni innovatsiyalarga bevosita bog‘liq. Innovatsiyalar ta’sirida ishlab chiqarish jarayonida inson omilining roli borgan sari cheklanish xarakteriga ega bo‘lib, moddiy resurslardan foydalanish samaradorligining ortishi hisobiga intensiv iqtisodiy o‘sishga erishish imkoniyatlari yuzaga keladi.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarning innovatsion tadbirkorlik salohiyatini shakllantirish uchun kompleks, amaliy va psixologik jihatlarni integratsiyalashgan yondashuvni joriy etishi lozim. Bu:

- o‘quv dasturlarini innovatsiyalar bilan boyitish,
- amaliy tashabbuslar va STEM integratsiyasini kuchaytirish,
- mentorluk va investitsiya tizimlarini yo‘lga qo‘yish,
- baholashni metodologik jihatdan to‘liq tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

Aksariyat hollarda talabalarning innovatsion faoliyati mahsulot, ish va xizmatlar sohasidagi yangiliklarga[2.; 2] asoslanadi. Innovatsiyalar, sifat jihatidan yangi bozorlarni shakllantirishga, ijtimoiy ehtiyojlarni samarali qondirishga hissa qo‘shishga imkon beradigan tadbirkorlik faoliyatini shakllantirishga asos yaratadi. O‘z navbatida innovatsiyalar talabalarda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini ta’minlashga va uning tuzilmaviy tarkibini takomillashtirishga olib keladi. O‘zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar zamirida OTMlarda talabalarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga doir chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega.

Talabalarda tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyatli bo‘lishi bo‘lajak tadbirkorlarni mijozlar bilan aloqa o‘rnatishidagi bir qator vazifalarni bajara olishiga bog‘laydilar. Bular:

- ***ishontirish va aloqa bog‘lash*** qobiliyati;
- ***mustaqillik va o‘ziga ishonch***;
- ***darrov ilg‘ab olishlik*** va avval to‘plangan bilimlarni yangi o‘zlashtirilgani bilan bog‘lash;
- **faoliyatning tanlangan sohasida** murakkab ishni shaxsan bajara olishlikka tayyor bo‘lishlik.

Yuqoridagilardan kelib chiqib OTMlarda innovatsion rivojlantirishning joriy va istiqbolli ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari samaradorligini oshirishga zaruriyatning yuzaga kelishi talabalarni zamonaviy kasbiy va innovatsion tadbirkorlik kompetentsiyalari rivojlantirish, shu asosda ular uchun doimiy daromad keltiradigan mehnat va tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda bir qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni hal etish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, tadbirkorlik faoliyati ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to‘ldiradigan, iqtisodiyotning tarkibiy negizini belgilab beradigan eng muhim sektor hisoblanib, aholini ish bilan ta’minlashda hamda uning daromadlarini oshirishda eng asosiy omil va manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, hozirgi kunda bozorlarda raqobat keskinlashib borayotgan bir paytda, tadbirkorlik faoliyati o‘zining harakatchanligi, kam sarmoya talab qilishi hisobidan ishlab

chiqarishni oson va tez modernizatsiya qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini yangilash imkoniyatiga ega ekani va shu tariqa bozor iqtisodiyotining o‘zgaruvchan talablariga yaxshi moslasha olishidir.

Uchinchidan, tadbirkorlik faoliyati bugungi kunda aholi bandligini ta’minlaydigan va uning asosiy daromad manbai bo‘lgan muhim bo‘g‘in hisoblanib, tadbirkorlik faoliyati rivojlanishi bilan mamlakat tayanchi va suyanchi bo‘lgan mulkdorlarning o‘rta sinfini shakllantirish vazifasi bevosita hal etiladi.

Tadbirkorlikning eng muhim va eng murakkab vazifasi yangi g‘oyalarni izlash va ularni tatbiq etish hisoblanadi. Chunki, tadbirkordan nafaqat ijodiy fikrlash va yangi yechimlarni topish, balki istiqbolli fikrlash, kelajakdagi jamiyatning ehtiyojlarini ko‘ra olish xususiyatlarini ham talab etadi. Shuningdek, bozordagi xaridorlarning ma’lum bir tovarga talablari xilma-xildir, har bir xaridorning o‘z didi bor. Xoridorning talabi, xoxishi, ehtiyoji, turmush tarzi, tovar sotib olishdagi xulq-atvori haqidagi ma’lumotlar samarali marketing tadbirlari ishlab chiqish va amalga oshirish imkoniyatlarini vujudga keltiradi. Ya’ni bozor segmentatsiyasi xaridorlarning talabiga muvofiq tovarning taklif yetilishi va tovarga talabning qat'iyligini ta’minlaydi.

Demak, xaridorning tovarlarni sotib olishdagi xulq-atvorlari, talabi va tovarlarga munosabatidagi xususiyatlariga qarab, guruhlarga ajratishni bozor segmentatsiyasi deyiladi. Talabalar tadbirkorlikni boshlashda mana shu bozor segmentatsiyasi haqida bilimlarga ega bo‘lishlari talab qilinadi.

Butunlay innovatsiyaga asoslangan innovatsion tadbirkorlik faoliyatining natijasi yangi mahsulot yoki asosan yangi tavsiflar va xususiyatlarga ega bo‘lgan yangi mahsulot yoki yangi texnologiyalar bo‘lishi mumkin. Shuningdek, bozorga an'anaviy mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkil etish, ishlab chiqarishning texnik elementlari yoki ishlab chiqarishdan tovar sifati tavsifi o‘zgarishi bilan bog‘liq qandaydir yangi elementlari yoki usullarini qo‘llash bilan ham amalga oshirilishi mumkin.

Sh.Sh.Boltayev, A.A.Raxmatovlar o‘z tadqiqotlarida innovatsion tadbirkorlikning rivojlanish zaruratini quyidagi omillar bilan shakllantirish mumkinligini keltirib o‘tadi[25 3]:

– iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarida innovatsiyalarni qo‘llashga ko‘maklashuvchi ishlab chiqarishning intensiv omili rolini oshirish;

– ishlab chiqish samaradorligini ko‘tarishda fanning muhim roli va yangi texnikani joriy etish;

– yaratish muddatlarini sezilarli qisqartirish zarurati, yangi texnikani o‘zlashtirish, ishlab chiqarishning texnik darajasini ko‘tarish, ixtirochi va ratsionalizatorlar ijodini ommaviy rivojlantirish zarurati;

– natijalarning noaniqligi, tadqiqotlarning ko‘p variantliligi, tavakkalchilikning mavjudligi va salbiy natijalarga erishish mumkinligi bilan ifodalanuvchi ilmiy-texnikaviy ishlab chiqarish jarayonining o‘ziga xosligi;

– sarf-harajat ortishi va yangi mahsulotni o‘zlashtirishda korxonalarning iqtisodiy ko‘rsatkichlari pasayishida; texnika va texnologiyaning shiddatli ma’naviy eskirishida;

- yangi texnika va texnologiyani tezkor tatbiq etishning ob'ektiv zarurati bilan va h.k.

Innovatsion tadbirkorlikning rivojlanishi iste'molchilar tomonidan innovatsiyalarga, milliy iqtisodiyotning ilmiy-texnik salohiyati rivojlanishi, tavakkal innovatsion faoliyatni moliyalashtiruvchi venchur firma va investorlar faoliyatiga bog‘liq. Odatda, tadbirkorlik faoliyati zamirida yangi ehtiyojlarni qondirishga imkon beruvchi, yangi bozorni barpo etish, mahsulot yoki xizmatlar sohasiga yangilik kiritishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni
2. Болтаев Ш.Ш, Рахматов А.А. Тадбиркорликни инновацион ривожлантиришнинг айрим жиҳатлари. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 5, октябрь, 2019 йил “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий журнали. №2, апрель, 2021 йил. ISSN: 2181-1016
3. Х.Аляминов. Подготовка студентов к инновационному предпринимательству в университетах. Журнал текущих исследований по педагогике, 4(11), 56-60. **https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-11-10**
4. Аляминов. Х. И. (2023). Инновацион тадбиркорлик-шахс шаклланишида муҳим фактор сифатида. Quality of teacher education under modern challenges, 1(1), 77-81.
5. Alyaminov, X. I. (2023). Innovative entrepreneurship in students as a factor of socialeconomic development of society. Zibaldone Estudios Italianos, 10(2), 393-399

AMIR TEMUR VA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR FAOLIYATIDAGI MADANIY VA SOTSIOMETRIK MUNOSABATLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Masharipova Nasiba Ro‘zmatovna
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti, “Milliy tarbiya, jadidlar va mutafakkirlarning pedagogik ta’limotlari” bo‘limi katta ilmiy xodimi, (PhD, k.i.x

Annotasiya. *Mazkur maqolada Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyatida madaniy jarayonlar hamda sotsiometrik munosabatlarning shakllanishi va ularning tarbiyaviy ahamiyati tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu buyuk shaxslarning jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhit yaratishdagi o‘rni, shuningdek ularning pedagogik qarashlari va insoniy fazilatlari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *madaniyat, sotsiometriya, tarbiya, ijtimoiy munosabatlar, tarixiy meros, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, adolatli boshqaruv, insonparvarlik, madaniy ahamiyat*

Bugungi ta’lim sharoitida yosh avlod tarbiyasida tarixiy merosdan samarali foydalanish muhim pedagogik ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, buyuk tarixiy shaxslar, milliy qahramonlar faoliyatida namoyon bo‘lgan madaniy va ijtimoiy-sotsiometrik munosabatlar, tanqidiy fikrlash rivojlantirishda zamonaviy pedagogika uchun muhim metodologik asos, muvaffaqiyatli tajriba sifatida xizmat qiladi.

Sotsiometrik munosabatlar pedagogik jihatdan qaralganda jamiyat yoki kichik guruh ichida shaxslararo **o‘zaro tanlash, rad etish, yaqinlik va masofa** kabi munosabatlarni ifodalovchi muloqot majmuidir. Bu tushuncha Jacob L. Moreno tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u guruh ichidagi “kim kimni tanlaydi yoki yoqtirmaydi” degan savol asosida ijtimoiy tuzilmani o‘rganishni taklif qilgan. Sotsiometrik munosabatlar bu jamiyat yoki kichik guruh

ichida individlar o‘rtasidagi **o‘zaro tanlash, rad etish, yaqinlik va masofa** kabi munosabatlarni ifodalovchi tizimdir. Bu tushuncha Jacob L.Moreno tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, u guruh ichidagi “kim kimni tanlaydi yoki yoqtirmaydi” degan savol asosida ijtimoiy tuzilmani o‘rganishni taklif qilgan.Ilmiy jihatdan sotsiometrik munosabatlar quyidagi asosiy komponentlarga ega:

1. Tanlash. Shaxsning boshqa bir shaxsni ijobiy baholashi va u bilan muloqotga kirishish jarayoni bo‘lib, do‘stlik, ittifoq yoki hamkorlik shaklida namoyon bo‘ladi.

2. Rad etish. Guruh a’zolari yoki sinfdagi o‘quvchilardan biri boshqasini qabul qilmasligi () yoki undan uzoqlashishga intilish. Bunda o‘quvchilar bir-birini hamkorlik, muloqot yoki ijtimoiy faoliyat uchun tanlamasligi yoki ongli ravishda chetlab o‘tishi holatini bildiradi. Pedagogik nuqtai nazardan guruh ichidagi shaxslararo munosabatlarning salbiy tomonga o‘gishi, o‘quvchining jamoada ijtimoiy maqomi pastligi yoki guruhga moslashib ketishda muammolarning mavjudligi, emotsional noqulaylik, ziddiyatlar yoki kommunikativ qiyinchiliklarni bartaraf etilmaganligi natijasida yuzaga keladi.

3. Neytral pozitsiya. Bu sotsiometriya doirasida guruh a’zosi boshqa a’zolarga nisbatan aniq ijobiy yoki salbiy munosabat bildirmasligi, noaniq munosabatda bo‘lishi. lmiy-pedagogik jihatdan esa bunday sotsiometrik munosabat guruh ichidagi shaxslararo munosabatlarda indifferensiya ya’ni befarqlik mavjudligini, o‘quvchining faol ijtimoiy aloqalarga kam kirishishini yoki passivligini, yangi muhitga moslashish bosqichi yoki o‘zini namoyon qilishdagi ikkilanish bataraf qilinmaganini ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra o‘quvchining shaxslararo munosabatlarda ijobiy tanlov ham, salbiy rad etish ham kuzatilmaydi. Shuning uchun ham ba’zi o‘quvchilar guruhda “ko‘zga tashlanmaydigan”, ya’ni o‘rtacha yoki noaniq maqomda bo‘ladi. Odatda ziddiyatlardan chetda turadi, hamkorlik jarayonlarida faol ishtirok etmaydi. Shunga ko‘ra sotsiometrik munosabatlar i**jtimoiy integratsiya, kommunikativ tartib, ijtimoiy nazorat** hamda ziddiyatlarni aniqlash va bartaraf etish kabi funksiyalarni bajaradi.

Sotsiometrik munosabatlarni o‘ziga xos tarixiy-madaniy tendensiylarga ega. Bu xususda Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Boburning faoliyati namoyon bo‘lgan sotsiometrik munosabatlarni o‘rganib chiqish o‘ziga xos qdriyatli ahamiyatga egadir.

Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z davrida nafaqat davlat arbobi, balki yuksak madaniyat sohiblari sifatida ham faoliyat olib borganlar. Ularning adolatli, odil davlat boshqaruvi va xalq ya’ni fuqarolar bilan munosabatlari tarbiyaviy jihatdan insonparvarlik, adolat, tenglik, hamkorlik prinsiplariga tayanilgan. Bunday sotsiometrik munosabatlar har bir davrda yosh avlod uchun muhim tajriba, yuksak ibrat vositasidir.

Amir Temur o‘z davrida kuchli markazlashgan davlat barpo etish bilan bir qatorda, jamiyatda ma’naviy va madaniy muhitni shakllantirishga alohida e’tibor qaratgan. Uning siyosati natijasida Samarqand yirik ilm-fan va madaniyat markaziga aylangan. Temurning madaniy faoliyati yosh avlod tarbiyasida quyidagi jihatlar bilan muhim ahamiyatga ega: ilm-fan va hunarga hurmatni shakllantirish, mehnatsevarlik va ijodkorlikni rag‘batlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish kabilar. Sotsiometrik jihatdan qaralganda Amir Temur jamiyatda qat’iy tartib, intizom va tadbirli ish ko‘rish strategiyalariga asoslangan munosabatlar tizimini yaratgan. Bu tizim orqali davlat ishchilari va jamiyat, xalq orasida ijtimoiy mas’uliyat hissi kuchaytirilgan, sadoqat, fidoyilik qadrlangan, liderlik ya’ni yetakchilik va intizom yuksak rivojlangan.

“Temur tuzuklari”da Amir Temur o‘z qo‘l ostidagi ayonlar – vazirlar, amirlar, beklar, o‘z frazandlari, xalq vakillari bilan qanday sotsiometrik munosabatlarga kirishgani hamda

shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri tashkil etish nizomlarimi ko‘rsatib bergan. Jumladan: “Tajribamda ko‘rdimki, aqlli dushman johilu nodon do‘stdan yaxshiroq ekan. Chunonchi, Amir Qazag‘anning nabirasi amir Husayn nodon do‘stlardan edi”[38]. Amir Husayn Amir Temurning orasidagi munosabatlar do‘stlik, ittifoq yoki hamkorlik shaklidagi sotsiometriyaga asoslangan bo‘lib, Amir Husayn kibr, hasad kabi illatlari tufayli Amir Temurning muvaffaqiyatlariga egalik qilish maqsadida do‘st qilib ko‘rsatadi, lekin zimdan unga qarshi ishlar qiladi. Amir Temur ko‘p bora bunday vaziyatlardan tanqidiy fikrlash asosida chiqishga harakat qiladi. Natijada Amir Temur uni ko‘p bora kechirib yuboradi.

Amir Temur o‘zi yashab turgan jamiyatni eng yetuk ijtimoiy tizimga aylantirish, farovon hayot qurish maqsadidagina kurashib qolmay, balki bu butun dunyoda tantana qilishiga ham ishongan edi. Faqat shu maqsaddagina u harbiylik libosini kiygan edi. U ana shunday maqsadlarda jahongirlik qilgan har bir davlat boshlig‘i, asosan, 4 narsani xotirasida saqlash kerakligini uqtiradi: birinchidan, qaysi mamlakatni zabt etmoqchi bo‘lsa, tadbir va kengash bilan ish tutish; ikkinchidan, xatoga yo‘l qo‘ymaslik uchun har bir ishni odillik, sergaklik va ehtiyotkorlik bilan qilish; uchinchidan, atrofida aslzoda er yigitlarni (amirlarni) va birlashtirish; to‘rtinchisi, bugungi kunning ishini ertaga qoldirmaslik[39].

Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyatida madaniyat va insoniy munosabatlar uyg‘unligi alohida o‘rin egallaydi. U nafaqat davlat arbobi, balki nozik didli, ilmli adib sifatida ham jamiyat hayotiga katta madaniy ta’sir ko‘rsatgan. Zahiriddin Muhammad Boburning madaniy faoliyati tarbiyaviy jihatdan quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi: xalqini, saroy ayonlarini, yon-atrofdagilar, o‘z qaramog‘idagilarni estetik didni rivojlantirish; adabiy tafakkurni shakllantirish; madaniyatlararo bag‘rikenglikni targ‘ib etish

U asos solgan Boburiylar saltanati turli madaniyatlar uyg‘unlashgan davlat bo‘lib, bu holat yosh avlodda tolerantlik va ochiq fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilgan. Sotsiometrik nuqtayi nazardan Bobur insonparvar va empatik lider sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘z atrofidagi kishilar bilan samimiy munosabatlar o‘rnatib, sog‘lom psixologik muhit yaratgan. Bu esa tarbiyaviy jarayon uchun muhim omil hisoblanadi.

Uning mashhur asari “Boburnoma” o‘z hayotiy tajribalarini ifoda qilgan, me’muar asar hisoblanadi. “Boburnoma”da o‘sha davrdagi madaniy holat, sotsiometrik munosabatlar haqida ko‘plab izohlar, aniq ma’lumotlar, hattoki ba’zi tanqidlarni ham bayon etiladi. Unda insoniy fazilatlar, do‘stlik, sadoqat va halollik kabi qadriyatlar misol va namunalar orqali keng yoritilgan.

Boburnoma asarida shaxslararo munosabatlar tizimi chuqur va ko‘p qatlamli tarzda aks etgan bo‘lib, uni sotsiometrik yondashuv asosida tahlil qilish muhim ilmiy ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, asarda quyidagi asosiy sotsiometrik holatlar kuzatiladi. **Sadoqat va xiyonat** masalasi markaziy o‘rin tutadi. Zahiriddin Muhammad Bobur o‘z atrofidagi beklar va amaldorlarni doimiy ravishda kuzatib baholab boradi. U sodiq kishilarni o‘ziga yaqin tutadi, ularga ishonch bildiradi, qo‘llab-quvvatlaydi. Bu sotsiometriyada “tanlash” (pozitiv hamkorlik) sifatida talqin qilinadi. Aksincha, xiyonat qilgan yoki ishonchsiz deb topilgan shaxslar ijtimoiy jihatdan chetlashtiriladi yoki tanqid qilinadi, bu esa “rad etish” (negativ preferensiya) holatini ifodalaydi.

Bobur faoliyatidagi **yetakchilik va boshqaruv** jarayonlari ham sotsiometrik tahlil uchun muhimdir. Bobur o‘zini guruh markazida turgan lider sifatida namoyon qiladi. U qarorlar qabul

[38] Temur tuzuklari. –T.: “O‘zbekiston”, 2018. – B. 131.
[39] Temur tuzuklari. –T.: “O‘zbekiston”, 2018. – B. 135.

qilishda shaxslarning qobiliyati, sadoqati va ijtimoiy rolini inobatga oladi. Sotsiometrik modelda bu holat “markaziy shaxs” yoki “ishonchli tayanch”ntushunchasiga mos keladi. Shu orqali Bobur nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy tizimni ham boshqaradi.

Boburnoma asarida turli ijtimoiy guruhlar va ittifoqlar mavjudligi aniq bayon etilgan. Shunga ko‘ra har bir guruh o‘z manfaatlari asosida shakllanadi va ular o‘rtasida hamkorlik yoki qarama-qarshilik yuzaga keladi. Bu esa sotsiometriyada “kichik guruhlar” va “klasterlar” (bir-biriga bo‘gliq) mavjudligini anglatadi. Bobur bu guruhlarni muvozanatda ushlab turishga intiladi, chunki ularning o‘zaro munosabati umumiy siyosiy barqarorlikka ta’sir ko‘rsatishi mumkin edi. Bobur ayrim bek va amaldorlarni ochiq tanqid qiladi, ularning salbiy sifatlarini qayd etadi. Bu esa sotsiometrik jihatdan Bobur podshoh boshqaruvida guruh ichidagi maqomlar farqlanishini ko‘rsatadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning yana bir go‘zal xislatlaridan biri uning kechirimliligi va saxovatliligidir. Bu fazilatlar nafaqat uning shaxsiy hayotida, balki boshqaruv uslubida ham muhim o‘rin tutgan. Saxovatpesha hukmdorning jo‘mardligi yoshlik chog‘laridan el ichida ma’lum va mashxur bo‘lgan. Masalan, hukmdorligining dastlabki yillarida bobosi saltanatini qayta tiklash orzusida Samarqand shahriga bir necha bor yurish qiladi. 1497-yilda ilk marotaba Samarqandni qo‘lga kiritish jarayonida shahar 7 oy maboynida qamal qiladi. Bu vaqt ichida shahar aholisi ochlik va suvsizlikdan aziyat chekadi. Shahar egallangach esa, o‘sha davr jang qoidalari nomutanosib tarzda yosh podshoh shaharning talanishiga yo‘l qo‘ymaydi. Aksincha, qiynalgan aholiga yordam beradi, non yoptirib, ochlikdan qiynalgan xalqqa tarqatadi.

Bu voqealar uning insoniylik va rahm-shafqatga asoslangan ijtimoiy pozitsiyasini ko‘rsatadi. Sotsiometrik nuqtai nazardan qaraganda, Bobur o‘z atrofidagi insonlar bilan iliq, ishonchli va mehrga asoslangan munosabatlarni shakllantirishga intilgan. U o‘z qo‘shini, amaldorlari va oddiy xalq orasida yuqori ijtimoiy maqomga ega bo‘lish bilan birga, ularga yaqin turishga harakat qilgan. Bu esa uning yetakchi sifatida “ishonilgan tayanch” ekanligini ko‘rsatadi.

Boburning kechirimlilik xislati ham uning shaxslararo munosabatlarida muhim rol o‘ynagan. U bir necha bor xiyonat qilgan amaldorlarini kechirib, ularga yana ishonch bildirgan. Bu esa uning konfliktlarni keskinlik bilan emas, balki murosaga asoslangan holda hal qilishga moyilligini anglatadi. Natijada, u atrofida sodiqlik va hurmat muhitini yaratishga erishgan. Uning sotsiometrik munosabatlar chizmasida yana bir muhim jihat empatiya va ijtimoiy yaqinlikdir. Masalan, Ibrohim Lo‘diyni yengib Hindistonni egallagach, uning onasi malika Baydaga mehr-shafqat, murivvat ko‘rsatib, uni o‘z onasidek hurmat va e’zoz qiladi. Saroydagilarga ham shunday munosabatda bo‘lishni buyuradi. Bu holat Boburning nafaqat siyosiy, balki insoniy jihatdan ham yuqori darajadagi ijtimoiy sezgirlikka ega ekanini asoslaydi. Biroq uning bunday ochiq va ishonchga asoslangan munosabatlari ba’zan salbiy oqibatlarga ham olib kelgan. Malika Bayda o‘g‘lining qasosi uchun bu yaxshiliklarni unutib, saroy xizmatkorlari orqali Boburning ovqatiga zahar qo‘shdiradi. Bobur zahardan omon qolgan bo‘lsa-da, bu voqea uning ishonchga asoslangan munosabatlarida xavf omili ham mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Boburning shaxslararo munosabatlaridagi sotsiometriyasi uning yetakchi sifatidagi ijtimoiy intellektini yaqqol namoyon etadi. Shunga ko‘ra Zahiriddin Muhammad Bobur markaziy, ishonchli, empatik va kechirimli shaxs sifatida ijtimoiy tizimda mustahkam o‘rin egallagan. Shu bilan birga, uning ortiqcha ishonuvchanligi ayrim hollarda o‘zzining zaif nuqtasi bo‘lib xizmat qilgan.

Amir Temur va Bobur faoliyatidagi madaniy va sotsiometrik munosabatlar turli shakllarda namoyon bo‘lgan bo‘lsa-da, ularning umumiy jihati insoniyatning ma’naviy taraqqiyotiga xizmat qilganidadir. Temur faoliyatida tartib-intizom va ijtimoiy mas’uliyat ustuvor bo‘lsa, Bobur faoliyatida insonparvarlik va muloqot madaniyati yetakchi o‘rin tutadi. Ushbu ikki yondashuvning uyg‘unligi zamonaviy ta’lim tizimi uchun samarali tarbiya modeli sifatida xizmat qilishi mumkin. Mazkur tarixiy tajribalarni zamonaviy pedagogik jarayonlarga tatbiq etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Abduraimov, Sh., Arabov, M. “Boburnoma” — siyosiy-huquqiy va tarixiy manba sifatida // *Ilmiy tadqiqotlar jurnali*. - 2024.
2. Crossley, N. Social Network Analysis for Ego-Nets. - London: SAGE, 2021.
3. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. - Toshkent: Mehnat, 1992.
4. Marozzi, J. Tamerlane: Sword of Islam, Conqueror of the World. - London: Penguin Books, 2004.
5. Moreno, J. L. Sociometry, Experimental Method and the Science of Society. - New York: Beacon House, 2020.
6. Qirg‘izboyev, M. Sotsiologiya. - Toshkent: Navro‘z, 2017.
7. Rajabova, O. Z. qizi. O‘zbekistonda zamonaviy sotsiologiyaning holati va istiqbollari // *Modern Science and Research*. - 2025.
8. Salaydinova, M. S., Mirzakarimova, M. M. Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asaridagi pedagogik fikrlari // *Science and Education*. - 2026. - T. 7, № 3. - B. 559–563.
9. Temur tuzuklari. - Toshkent: O‘zbekiston, 2018. - 160 b.
10. Xolmurodova, O. D. “Boburnoma” asarida badiiy obrazlar va ularning estetik ahamiyati // *Tadqiqotlar jahon ilmiy-metodik jurnali*. - 2025. - T. 75, № 6.- B. 104–107.
11. Yazdiy, Sh. A. Zafarnoma. — Toshkent: Sharq, 1997.

SINFDAGI PSIXOLOGIK MUHITNI BAHOLASHDA SOTSIOMETRIYANING O‘RNI VA AHAMIYATI

Shukurova Nilufar va Axmadaliyeva Muxarramoy
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tayanch doktorantlari

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sotsiometriya metodining sinf jamoasidagi shaxslararo munosabatlarni o‘rganishdagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasidagi emotsional aloqalarni aniqlash, guruh ichidagi ijtimoiy tuzilmani tahlil qilish hamda psixologik muhitni baholash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, sotsiometriya natijalaridan foydalanib sinf rahbari tomonidan amalga oshiriladigan pedagogik-tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish yo‘llari tahlil etilgan. Metod yordamida o‘quvchilar maqomi, guruhdagi yetakchilar va izolyatsiyalangan a’zolar aniqlanib, sinfda sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *sotsiometriya, shaxslararo munosabatlar, sinf jamoasi, psixologik iqlim, boshlang‘ich ta’lim, sotsiometrik test, ijtimoiy tuzilma, emotsional aloqa, o‘quvchi maqomi.*

Аннотация*. В данной статье рассматривается роль и значение социометрии как метода изучения межличностных отношений в классном коллективе. Анализируются возможности выявления эмоциональных связей между учащимися начальных классов, изучения социальной структуры группы и оценки психологического климата. Также рассматриваются пути совершенствования воспитательно-педагогической работы классного руководителя на основе результатов социометрического исследования. Показано, что данный метод позволяет определить статус учащихся, выявить лидеров и изолированных членов группы, а также способствует формированию благоприятной психологической атмосферы в классе.*

Ключевые слова: *социометрия, межличностные отношения, классный коллектив, психологический климат, начальное образование, социометрический тест, социальная структура, эмоциональные связи, статус учащегося.*

Boshlang‘ich umumiy o‘rta ta’limi to‘rt yillik davrni qamrab olib, bu bosqichda o‘quvchilarning nafaqat bilim va ko‘nikmalari, balki ijtimoiylashuvi, muloqot va hamkorlik malakalari ham shakllanadi. Shu jarayonda umuminsoniy qadriyatlar – hurmat, hamjihatlik va mas’uliyat kabi sifatlar rivojlanadi.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarda jamoaviylik tuyg‘usini shakllantirish tarbiyaviy jarayonni to‘g‘ri va tizimli tashkil etishga bog‘liq. O‘qituvchining pedagogik yondashuvi sinfda sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinfdagi psixologik muhit o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlari bilan belgilanadi. Ushbu munosabatlarni aniqlash va baholashda sotsiometriya samarali metod hisoblanib, u sinf jamoasidagi ijtimoiy aloqalar va ichki tuzilmani tahlil qilish imkonini beradi.

Sotsiometriya o‘zi nima? Sotsiometriya guruh ichidagi shaxslararo munosabatlarni o‘lchash va taxlil qilish metodi bo‘lib, asoschisi amerikalik psixiatr va ijtimoiy psixolog J. Moreno hisoblanadi. Uning ta’kidlashicha har qanday guruhdagi shaxslararo munosabatlar majmui o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik tuzilmani shakllantiradi. Mazkur tuzilmaning xususiyatlari esa guruhning ichki birligi, barqarorligi hamda undagi har bir a’zoning ruhiy holati va o‘zini his etish darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Sotsiometrik testning asosiy maqsadi guruh a’zolari o‘rtasidagi emotsional aloqalarni, ya’ni o‘zaro simpatiya va antipatiya munosabatlarini aniqlashdan iborat.[40]

Sotsiometrik test guruh ichidagi ijtimoiy-psixologik holatni chuqur tahlil qilishga xizmat qilib, bir qator muhim vazifalarni bajaradi. Xususan, u guruhning ichki hamjixatligi yoki aksincha, tarqoqlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, ushbu metod yordamida guruh a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro simpatiya va antipatiya munosabatlari asosida ularning nisbiy mavqei belgilanadi, ya’ni kimlar yetakchi (lider), yulduz yoki guruh tomonidan rad etilgan a’zolar ekanligi aniqlanadi. Sinf ichida norasmiy yetakchi boshchiligidagi shakllangan uyushgan kichik guruhlarni aniqlashga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati hali to‘liq shakllanmagan bo‘lgani uchun emotsional tanlov qilish ular uchun biroz murakkabroq kechadi. Ular ko‘proq birga o‘qiydi, ammo muloqoti ko‘pincha vaziyatga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli aniq yetakchini

[40] N. Ismoilova, D. Abdullayeva “Ijtimoiy psixologiya” O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. T;-2013-y

tanlash qiyin bo‘lsa-da, o‘quvchilar o‘ziga yaqin bo‘lgan sinfdoshlarini ko‘rsata oladi. Sotsiometriya esa aynan shu asosda sinf ichidagi munosabatlar va emotsional muammolarni aniqlashga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari odatda tengdoshlarini asosan ularning o‘qishdagi muvaffaqiyati va o‘qituvchining ularga bo‘lgan munosabati orqali baholaydilar. Ko‘pincha ular tanlovini ham aynan pedagogning munosabati bilan izohlaydi: masalan, “uni o‘qituvchi ko‘p maqtaydi”, “u doim vazifalarni yaxshi bajaradi”, “u eng tartibli o‘quvchi” kabi fikrlar shuni ko‘rsatadi. Bu esa bolalarning o‘z qarashidan ko‘ra, o‘qituvchining munosabati kuchliroq ta’sir qilayotganini bildiradi.

Shu sababli sotsiometriya natijalari nafaqat o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlashga, balki o‘qituvchiga ham o‘z xulq-atvori va yondashuvini qayta ko‘rib chiqishga, barcha o‘quvchilarga nisbatan yanada adolatli va muvozanatli munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Tadqiqotni boshlashdan avval uning aniq maqsadini belgilab olish va zarur anketa savollarini tayyorlash lozim. Mazkur tadqiqot anonim bo‘lmaganligi sababli har bir o‘quvchi o‘z javob varag‘ini imzolashi kerak.

Shuningdek, sinfda ishonchli va erkin muhit yaratish muhim ahamiyatga ega. Darsda qatnashmayotgan o‘quvchilarning familiyalari esa sinf doskasiga yozib qo‘yilishi tavsiya etiladi.

Birinchi bosqich — sotsiomatritsani tuzishdan iborat. Avvalo eng sodda sotsiomatritsa shakllantiriladi. O‘quvchilarning tanlov natijalari matritsaga shartli belgilar (masalan, “+” va “–”) yordamida kiritiladi. Olingan ma’lumotlarni tahlil qilish orqali guruhning sotsiometrik tuzilmasi aniqlanadi. Bu tuzilma guruh a’zolarini ularning maqomiga qarab quyidagi toifalarga ajratishni nazarda tutadi: “yulduzlar” (7 tadan ortiq ovoz olganlar), “afzal ko‘rilganlar” (5–6 ta ovoz), “qabul qilinganlar” (3–4 ta ovoz), “e’tibordan chetda qolganlar” (1–2 ta ovoz) hamda “izolyatsiyalanganlar” (birorta ham ovoz olmaganlar).

Dastlabki uchta toifa ijobiy (qulay), oxirgi ikkita toifa esa salbiy (noqulay) status kategoriyalariga kiradi. Ushbu kategoriyalar nisbatini tahlil qilish orqali guruhdagi o‘zaro munosabatlar darajasi aniqlanadi. Agar o‘quvchilarning aksariyati ijobiy kategoriyalarda bo‘lsa, munosabatlar darajasi yuqori deb baholanadi; agar ular teng bo‘lsa – o‘rta; agar salbiy kategoriyadagi a’zolar ustunlik qilsa – past darajada deb hisoblanadi.

Munosabatlar darajasining pastligi esa xavotirli holat bo‘lib, bu guruhdagi ko‘pchilik o‘quvchilarning tengdoshlar bilan munosabatida emotsional noqulaylik mavjudligini anglatadi. Protokollar va anketalar dastlabki qayta ishlangandan so‘ng sotsiomatritsa tuziladi. Bu – o‘quvchilar ro‘yxati vertikal va gorizontal joylashtirilgan hamda ularning tanlov natijalari kiritilgan jadvaldir. Mazkur matritsa tahlil qilingach, tadqiqot natijalarini ko‘rgazmali tarzda aks ettiruvchi sotsiogramma ishlab chiqiladi.

Sotsiogrammada:

- ichki doira eng ko‘p tanlov olgan “yulduzlar”ni ko‘rsatadi;
- ikkinchi doira nisbatan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan afzal ko‘rilgan o‘quvchilarni ifodalaydi;
- uchinchi doira e’tibordan chetda qolgan (siqib chiqarilgan) o‘quvchilarni aks ettiradi;
- to‘rtinchi doira esa birorta ham tanlov olmagan, ya’ni izolyatsiyalangan o‘quvchilarni ko‘rsatadi.

Ichki guruhchalar mavjudligini aniqlashda o‘zaro tanlovlarning aniq kichik tuzilmalari (ya’ni kimlar bir-birini tanlayotgani) muhim ahamiyatga ega. Pedagog bunday holatlarga alohida e’tibor qaratishi lozim.

Sotsiometriya turli yosh guruhlari uchun moslashtirilgan va keng qo‘llaniladigan metod hisoblanadi. Sinf jamoasida samarali pedagogik tuzatish ishlarini olib borish uchun ushbu tadqiqotni yiliga kamida ikki marta o‘tkazish va olingan natijalar asosida tarbiyaviy hamda ta’limiy faoliyatni rejalashtirish zarur.

Sotsiometriya natijalari asosida sinf rahbariga tavsiyalar:

- Izolyatsiyalangan o‘quvchilarni jamoaviy faoliyatga faol jalb etish zarur.
- O‘quvchining sinfdagi mavqeiga ta’sir qiluvchi faoliyatlarda (masalan, o‘zlashtirishni yaxshilash) muvaffaqiyatga erishishiga ko‘maklashish lozim.
- Affektiv holatlarni (tez jahllanish, janjalkashlik, xafa bo‘luvchanlik) yumshatishga e’tibor qaratish kerak, chunki ular ko‘pincha psixologik ajralishning sababi va natijasi bo‘lishi mumkin.
- Bilvosita usullar ham samarali: tortinchoq yoki yolg‘iz o‘quvchini obro‘li tengdoshlari orqali qo‘llab-quvvatlash foydali.
- O‘quvchilarni ortiqcha maqtash yoki ularni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yishdan saqlanish zarur.
- Eng muhim jihatlardan biri — o‘quvchi bilan pedagog o‘rtasida ijobiy aloqa o‘rnatish. O‘quvchi o‘qituvchining unga e’tiborli va ijobiy munosabatda ekanini his qilishi kerak.
- Sinfda do‘stona muhit va o‘zaro yordamga tayyorlik hissini shakllantirish muhim.
- O‘zaro antipatiyaga ega bo‘lgan o‘quvchilarni (ayniqsa, bir tomonlama salbiy munosabat mavjud bo‘lsa) birgalikdagi faoliyatga majburan jalb etish tavsiya etilmaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Sotsiometriya sinf jamoasidagi shaxslararo munosabatlarni o‘rganish va psixologik muhitni aniqlashda samarali metod hisoblanadi. U orqali o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro simpatiya va antipatiya, guruh ichidagi norasmiy tuzilmalar hamda har bir bolaning ijtimoiy mavqei aniqlanadi. Olingan natijalar sinfdagi hamjixatlik darajasini baholash va mavjud muammolarni erta aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari asosida o‘qituvchi sinfdagi emotsional muhitni yaxshilash, izolyatsiyalangan o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash va ijobiy munosabatlarni shakllantirish bo‘yicha maqsadli pedagogik ishlarni tashkil etishi mumkin. Shuningdek, sotsiometriya muntazam o‘tkazilganda tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshirish va sog‘lom sinf jamoasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Мудрик А. В. *Социальная педагогика*. М.: Академия, 2013.
2. Vohidov M. *Pedagogik psixologiya.* Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
3. N. Ismoilova, D. Abdullayeva “Ijtimoiy psixologiya” O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. T;-2013-y

TALABALARDA UMUMINSONIY QADRIYATLARGA OID KOMPETENTLILIKNI RIVOJLANTIRISHNING MEXANIZMLARI

Abdug‘aniyev Ozod Tursunboy o‘g‘li
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti izlanuvchisi PhD., dotsent

Annotatsiya: *Mazkur maqolada talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Unda umuminsoniy qadriyatlar tushunchasining mazmuni, uning talaba shaxsi ma’naviy-axloqiy kamoloti, ijtimoiy mas’uliyati, global fikrlashi va madaniyatlararo muloqotga tayyorligini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada qadriyatga yo‘naltirilgan ta’lim, aksiologik yondashuv, refleksiv faoliyat, interfaol metodlar, ijtimoiy sheriklik, volontyorlik loyihalari va raqamli ta’lim muhiti orqali talabalarning umuminsoniy qadriyatlarga munosabatini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Tadqiqotda mazkur kompetentlilikni shakllantirish jarayoni kognitiv, motivatsion-qadriyatli, faoliyatli va refleksiv komponentlar uyg‘unligida tashkil etilishi zarurligi ta’kidlanadi. Maqolada talabalarda insonparvarlik, bag‘rikenglik, adolat, mehr-oqibat, tinchlikparvarlik va ijtimoiy faollik kabi sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar hamda amaliy mexanizmlar tizimi ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *umuminsoniy qadriyatlar, kompetentlilik, aksiologik yondashuv, qadriyatga yo‘naltirilgan ta’lim, ma’naviy-axloqiy tarbiya, ijtimoiy mas’uliyat, global fikrlash, bag‘rikenglik, refleksiv faoliyat, interfaol metodlar, raqamli ta’lim muhiti, volontyorlik loyihalari.*

Hozirgi globallashuv, raqamli transformatsiya va ijtimoiy-madaniy munosabatlar tez o‘zgarayotgan sharoitda oliy ta’lim tizimi oldida faqat kasbiy bilimga ega mutaxassis tayyorlash emas, balki ma’naviy yetuk, ijtimoiy mas’uliyatli, bag‘rikeng, inson qadri va umuminsoniy manfaatlarni anglaydigan shaxsni shakllantirish vazifasi ham turibdi. Chunki zamonaviy jamiyatda mutaxassisning raqobatbardoshligi uning kasbiy kompetensiyalari bilan bir qatorda axloqiy pozitsiyasi, madaniyatlararo muloqotga tayyorligi, ijtimoiy faolligi, adolat, hamkorlik, insonparvarlik va mas’uliyat kabi umuminsoniy qadriyatlarga munosabati bilan ham belgilanadi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlarida inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash muhim strategik vazifalardan biri sifatida belgilangan. Jumladan, “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun munosib sharoit yaratish ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rsatilgan . Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsad qilingan . Bu esa talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni rivojlantirishni oliy ta’limning muhim pedagogik vazifalaridan biriga aylantiradi. Mazkur masalaning dolzarbligi yana shundaki, bugungi axborot makonida turli g‘oyaviy ta’sirlar, ma’naviy tahdidlar, individualizm, iste’molchilik kayfiyati, ijtimoiy befarqlik va madaniy qarama-qarshiliklar kuchayib bormoqda. Bunday sharoitda talaba-yoshlarda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan barqaror hayotiy pozitsiyani shakllantirish, ularni ijtimoiy voqelikka ongli munosabat bildirishga, shaxsiy manfaat

bilan jamiyat manfaatini uyg‘unlashtira olishga, inson huquqlari, tinchlik, hamjihatlik, bag‘rikenglik va adolat tamoyillariga hurmat ruhida tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etadi. YuNESKOning global fuqarolik ta’limiga oid yondashuvlarida ham ta’lim oluvchilarni axloqiy, empatik va hurmatga asoslangan shaxs sifatida shakllantirish muhim vazifa sifatida talqin etiladi .

Umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilik talabaning faqat ma’lum qadriyatlar haqida bilimga ega bo‘lishi bilangina cheklanmaydi. U mazkur qadriyatlarni anglash, ularga nisbatan shaxsiy munosabat bildirish, hayotiy va kasbiy faoliyatda qo‘llash, turli ijtimoiy vaziyatlarda mas’uliyatli qaror qabul qilish, boshqalarning fikri, madaniyati va huquqlariga hurmat bilan yondashish qobiliyatini ham qamrab oladi. Shu sababli ushbu kompetentlilikni rivojlantirish jarayoni kognitiv, motivatsion-qadriyatli, faoliyatli va refleksiv komponentlar uyg‘unligida tashkil etilishi zarur. Mavzuning ilmiy-pedagogik ahamiyati shundaki, oliy ta’lim jarayonida umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish ko‘p hollarda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, tarbiyaviy suhbatlar yoki alohida fanlar doirasida amalga oshiriladi. Biroq bu jarayonni tizimli pedagogik mexanizmlar asosida tashkil etish, ya’ni o‘quv fanlari mazmuniga aksiologik g‘oyalarni integratsiya qilish, interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish, ijtimoiy sheriklik va volontyorlik loyihalarini yo‘lga qo‘yish, raqamli ta’lim muhitida qadriyatga yo‘naltirilgan kontentlar yaratish, talabalarda refleksiv tahlil va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari hali ham chuqur ilmiy yondashuvni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish oliy ta’lim muassasalarida tarbiya va ta’limning uzviyligini ta’minlash, talabalarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash, global fikrlash va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish, ularni faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxs sifatida tayyorlash imkonini beradi. Mazkur maqolada talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni rivojlantirishning mazmuni, pedagogik shart-sharoitlari va amaliy mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash maqsad qilingan.

Talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni rivojlantirish zamonaviy oliy ta’lim tizimining muhim ijtimoiy-pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon talabalarda faqat umuminsoniy qadriyatlar haqida nazariy bilimlarni shakllantirish bilan cheklanmay, balki ularni shaxsiy hayotiy pozitsiya, kasbiy mas’uliyat, ijtimoiy faollik va ma’naviy-axloqiy xulq-atvor mezoni sifatida amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Shu jihatdan umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni rivojlantirish mexanizmi ta’lim mazmuni, tarbiyaviy ta’sir, ijtimoiy tajriba, qadriyatli faoliyat va refleksiv baholash jarayonlarining o‘zaro uyg‘unligi asosida amalga oshiriladi. Ushbu masalaning ilmiy-nazariy asoslari, avvalo, ta’lim-tarbiya jarayonining tarixiy ildizlari, Sharq mutafakkirlarining pedagogik, axloqiy va ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bevosita bog‘liqdir. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Jaloliddin Rumiy kabi mutafakkirlar asarlarida shaxs tarbiyasi, axloqiy komillik, adolat, ezgulik, ma’naviy yetuklik, jamiyat taraqqiyotida qadriyatlarning o‘rni masalalari chuqur tahlil etilgan. Ularning ilmiy-ma’naviy merosi bugungi kunda talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni shakllantirish va rivojlantirishning metodologik asoslarini belgilab beradi.

Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri”, “Davlat arbobining aforizmlari” kabi asarlarida ijtimoiy tizim, siyosat, davlat, hokimiyat, adolatli boshqaruv va ma’naviy yetuk shaxs haqidagi qarashlar nazariy jihatdan asoslab berilgan. Forobiy adolatli jamiyatni barpo etishning zarur sharti sifatida ma’rifatli, axloqan pok, adolatparvar va mas’uliyatli rahbar shaxsini ilgari

suradi. Uning fikricha, “adolatli davlatni ma’rifatli hukmdor boshqaradi, u ma’naviyat va adolat yetakchisi bo‘lishi, o‘z shaxsiy fazilatlari bilan qat’iy talablarga javob berishi kerak” [2;190-b.]. Mazkur yondashuv talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan boshqaruv madaniyati, mas’uliyatli yetakchilik, adolatli qaror qabul qilish va jamiyat manfaatlariga xizmat qilish kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Abu Ali ibn Sino ijtimoiy munosabatlar mohiyatini tahlil etar ekan, insonlar o‘rtasidagi farqlar, ehtiyojlar va ijtimoiy munosabatlar tizimida axloqiy qadriyatlarning o‘rniga alohida e’tibor qaratadi. Uning ta’kidlashicha, “ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning yuksak qadrlanishi nafaqat har tomonlama farovonlikni, balki jamiyatda adolat va barqarorlikni ham ta’minlaydi” [3;104-b.]. Bu fikr talabalarda umuminsoniy qadriyatlarga oid kompetentlilikni rivojlantirishda ma’naviy-axloqiy tarbiyani ijtimoiy barqarorlik, shaxsiy mas’uliyat va kasbiy madaniyat bilan bog‘liq holda tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

